DISCUSSION AND RESULTS: MEMS (Microelectromechanical Systems) and NEMS (Nanoelectromechanical Systems) have become widely used in various fields such as telecommunications, medicine, transport, and technical devices. MEMS are crucial in the development of nanotechnology, which is being used for the creation of nanomanipulators and nanorobots. With MEMS, devices like "Electronic Nose," "Electronic Tongue," video glasses, nanoelectronic devices, nanomotors, and nanomanipulators are actively being developed. These devices, due to their autonomy, small size, abundance, wireless connectivity, reliability, and relatively low cost, are beginning to integrate into everyday life. In addition to the military sector, they can be used for various tasks, from criminal investigation and environmental monitoring to assisting the elderly.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

CONCLUSION: in the field of teaching military-applied physics, pedagogical research shows that the education of cadets in OHTM (Military Training Centers) is not based on the integration of modern scientific achievements and interdisciplinary approaches. The integration of modern scientific advancements in military-applied physics helps to broaden the scientific worldview of future officers, providing a solid theoretical and practical foundation for future scientific research. This also contributes to the development of self-study skills, the formation of scientific awareness, and enhances professional competence.

Keywords: competence, military-applied physics, integration, transistor, Hall effect, graphene, nano-devices, modern sciences.

For citation: Erkin X. Xalimov. (2025) 'In classes on military applied physics in the development of military professional competence of cadets integration of scientific achievements', Inter education & global study, № 3, pp. 33-42. (In Uzbek).

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Kompetensiya - bu ma'lum bir vakolatlarga, ya'ni o'z faoliyati to'g'risidagi bilim va tajribaga egalik qilishdir, bu obyektiv qarorlar chiqarish va aniq qarorlar qabul qilishga imkon beradi[1].

Harbiy kompetensiya - harbiy kasbiy tayyorgarlik va harbiy qisimning yoki alohida askarning jangovar vazifalarini bajarishi hamda harbiy xizmat uchun javobgarligi tushuniladi. Harbiy xizmatchilarning harbiy mutaxassis sifatida vakolatlari o'quv jarayonida rivojlanadigan va harbiy faoliyat jarayonida asosiy kompententsiyalar tizimi bilan shakillanadi [2].

O'qitish kontekstini belgilashda mashg'ulotlarda zamonaviy fan yutuqlaridan foydalanish doimo dolzarb bo'lib kelgan. Harbiy sohada esa ilm-fan yangiliklaridan samarali foydalanish kelgusida yetuk harbiy kadrlar yetishib chiqishiga hamda harbiy sohada milliy ilmiy kadrlar armiyasining shakillanishiga olib keladi.

Hozirda MEMS (mikroelektromexanik sistema) va NEMS(nanoelektromexanik sistema)lar turli sohalarda telekommunikatsiya, tibbiyot, transport, texnik qurilmalarda keng o'rin tutgan. MEMSlar nanotexnologiyalar rivojida muhim bo'lib, ular negizida nanomanupulyatorlar va nanorobotlarni yaratish ishlari olib borilmoqda.

An'anaviy mikroprotsessorlar ma'lum bir algoritmda hisob-kitoblarni bajarib, natijani faqat raqam sifatida chiqarib beradi. MEMSlar esa undan tashqari ba'zi bir harakatlarni ham bajaradi, ya'ni ular mikrorobotlardir. IS (integral sxema)lar faqat "o'ylashga qodir", MEMSlar esa tashqi dunyoni "sezish" va u bilan aloqa qilishga qodir[3].

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

MEMSlarni tayyorlash texnologiyasi IS yasashga o‘xshab ketadi. Ikkalasi ham moddalarning sirtini qatlamma qatlam olib tashlash jarayonidan iborat. Odatda, mikromexanik qurilmalarni tayyorlash mikrosxemasiga nisbatan ancha qalin parda, chuqurroq yedirilishni talab qiladi, bosqichlari esa ko‘proq bo‘ladi. MEMSlar faqatgina mikro va nanorobotlarning sezgi organlari va mushaklari bo‘libgina qolmay, nanokompyuterlar asosi bo‘lishi ham mumkin. MEMS texnologiyalari datchiklar va sensorlarda samarali qo‘llanilmoqda. Sensorlar yoki datchiklar tashqi ta’sirga sezgir bo‘ladi.

MEMSlarning rivojlanishi natijasida turli xil qurollar, uskuna va jihozlar paydo bo‘lmoqda. Shulardan biri “Aqlli chang” (smart dust) loyihasidir. Dastlab ushbu loyihani DARPA harbiy agentligi olimlari 1997 yilda ilgari surganlar[4]. Unga ko‘ra – jang bo‘layotgan zonaga samolyot yordamida minglab kichkina radiouzatuvchi sensorlar tashlashdan iborat. Ular dushmanga bilintirmasdan ularning harakatlarini kuzatib turadi. Ular birlamchi axborotni qayta ishlab, filtrlab, boshqarmaga uzatuvchi sun’iy intellekt bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

MEMS yordamida yana shu kabi “Elektron burun”, “Elektron til”, videoko‘zoynak, nanoelektronik qurilmalar, nanomotorlar, nanomonopulyatorlar ishlab chiqilishi izchil yo‘lga qo‘yilmoqda [5]. Bu qurilmalar o‘zining avtonomligi, kichikligi, ko‘pligi, simsiz ulanishi, ishonchliligi va nisbatan arzonligi tufayli kundalik hayotga ham kirib kelmoqda. Harbiy sohadan tashqari jinoyat qiduruvida, atrof-muhitni kuzatishdan tortib, keksalarga xizmat ko‘rsatishgacha bo‘lgan turli vazifalarni bajarishi mumkin.

Yangi avlod tranzistorlari. Yuqorida tilga olingan integral sxemalar asosidagi qurilmalarning muhim elementi nanotranzistorlardir. Mashg‘ulotlar davomida zamonaviy fan yutuqlaridan foydalanib yangi avlod tranzistorlari haqidagi bilimlardan ilmiy xabardorlik konsepsiyasiga suyangan holda kursantlar diqqatini jalb qilish mumkin. O‘tgan asrning yetmishinchi yillarida Gordon Mur (Intel firmasi asoschilaridan biri) shunday emperik qonunni aytib o‘tgan edi: “Har 1,5 yilda mikrosxemalardagi 1 kv. dyum (2,539 sm.) dagi tranzistorlar soni ikki martaga oshadi”. Dastlabki qurilgan kompyuter bir necha tonna tosh bosgan. 30 yil oldin ular stol ustiga sig‘adigan bo‘lgan. Hozirda esa ixcham(cho‘ntakbop) kompyuterlar mavjud. Dstlabki tranzistorlardan stol usti hajmiga taxminan 12 tacha joylashgan bo‘lsa, yangi avlod kompyuter platasida 2 mingdan oshiq elementlar bor edi. Hozirgi zamonaviy kompyuterlarda esa bu ko‘rsatkichlar 2 milliarddan oshadi.

Tranzistorlar 1947 yil “Bell” laboratoriyasida olimlar Shokli, Bardin va Bratteynlar tomonidan ixtiro qilingan edi. Olimlar bu kashfiyotlari uchun Nobel mukofotiga sazovor bo‘lganlar. Tabiiyki, tranzistorning yaratilishi metall-o‘tkazgich chegarasidagi xususiyatlar haqidagi nazariya edi. Olimlar bu kontakt xususiyatlarini chuqur o‘rgandilar. Ularning yarimo‘tkazgichlar haqidagi nazariyasi tranzistorlarning yaratilishiga olib keldi [6].

Bu tranzistorlar asosida 1980 yillar Klaus fon Klitsing tomonidan yana bir ixtiro qilindi. B tashqi magnit maydonida elektr tokini o‘tkazishda ishtirok etuvchi elektronlarga Lorens kuchi ta’sir qiladi, shuning uchun ular maydonga ham, oqimga ham nisbatan perpendikulyar yo‘nalishda buriladi. Namuna chetlarida to‘plangan elektronlar Lorens

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3


kuchini konpentsasiya qiladigan ko‘ndalang elektr maydonini hosil qiladi. Bunday holda, elektr kuchlanishi paydo bo‘ladi. 1879 yilda ushbu effektni kashf etgan Edvin Xoll sharafiga Xoll qarshiligi deb ataladigan chekli qarshilik R_H paydo bo‘ladi [7]. Klassik fizika qonunlariga ko‘ra, R_H kattaligi B-magnit induksiyasining o‘sishi bilan chiziqli ravishda oshadi. Yuz yildan so‘ng Klaus fon Klitzing kvazi ikki o‘lchamli o‘tkazgichda R_H kattaligining B ga bog‘liqligida

$$R_H = h/ne^2$$

plato mavjudligini aniqladi. (h – Plank doimiysi, e –elekron zaryadi, n – butun son). Bu effekt “Butun sonli Xollning kvant effekti” nomini oldi [8]. U alohida elektronlarning magnit maydonda (Landau darajalari) kvant harakati tufayli vujudga keladi. Keyinchalik ma’lum bo‘ldiki, n ning qiymati kasrli bo‘lishi ham mumkin, go‘yo tok oqimini kasr zaryadli zarralar – Xollning kvant effekti (Fractional Quantum Hall Effect-FQHE) tashiganidek [9].

Aslida ham tokni zarralar emas, balki kvazizarralar olib o‘tadi. Ularning zaryadi elektron zaryadidan farq qilishi, elektron orasida kuchli o‘zaro ta’sirning natijasi bo‘lishi mumkin [10]. FQHEni kuzatish o‘ta toza qatlamli yarimo‘tkazgichli geterostrukturalarni talab qiladi va tajriba juda past haroratda amalga oshiriladi.

Ikkita ilmiy guruh deyarli bir vaqtning o‘zida uglerodning eng nozik (faqat bir atom qalinligi) qatlami bo‘lgan grafenda n = 1/3 bo‘lgan FQHEni kashf etdilar. Grafen substrat bilan aloqa qilganda nuqsonlar paydo bo'lishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun mualliflar uning chetlarini elektrodlarga mahkamlab qo‘yishdi (1-rasm) [11,12].



1-rasm. Magnit maydonda elektrodlar orasida joylashtirilgan grafen

Misol tariqasida aytadigan bo‘lsak, elektronika sohasi dielektriklar xususiyatlariga juda katta bog‘liq. Dielektriklarda tirqish mavjud va elektronlar shu tirqish ostida to‘planadi, ularni chetlarigacha to‘ldiradi. Shuning uchun ham dielektriklarda tok oqmaydi. Grafen esa chiziqli spektrga ega. Bu yerda effektiv massa nolga teng. Chunki, spektrda tirqish nolga teng hamda noodatiy zona tuzilishi xususiyatlari ham o‘zgacha. Shuning uchun bu hodisalar fundamental fanlarni o‘ziga jalb etadi.

Grafen bu oddiy biz ishlatadigan qalamdir. Grafit struktura jihatdan 1 atom qalinligidagi alohida qatlamlardan iborat (qatlamlar orasi bir necha angstrem). Qatlam ichida esa kuchli kimyoviy bog‘lanish mavjud. Bir qatlamning mustahkamligi po‘latdan 5 marta, issiqlik o‘tkazuvchanligi esa misdan 20 marta katta. Yozayotganimizda esa mana


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

shu bir qatlam grafit ajralib chiqadi. Litografiya usulida ana shu qatlamlar ajratilib chiqiladi, ya'ni "tepadan pastga" usuli qo'llaniladi. Qatlamning o'lchami mikronlarda (10^{-6}) qalinligi esa 0,1 nanometr. Mana shu qatlamga oltin ip payvandlandi. Bu esa yuqorida aytib o'tilgan tranzistorlarning ishlash prinsipini, Xoll effektlari kabi holatlarni namoyon qiladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, grafen tranzistor yuzaga keladi.







$$C = \frac{Q}{V_g} = \frac{\varepsilon S}{4\pi d}$$

$$n = \frac{Q}{eS} = \frac{\varepsilon}{4\pi e d} V_g$$

2-rasm. Grafenli tranzistor.

Uning qalinligi bir atom o'lchamida bo'ladi (bundan yupqa bo'lishi mumkin emas). Mazkur o'lchamni olish uchun namuna materiali yorug'lik, ultrabinafsha, rentgen nurlarida yoritiladi. Bu hodisalar to'lqin optikasi bo'limining yorug'lik interferensiyasi va difraksiyasi kabi hodisalar bilan bog'liq o'rganiladi. Chunki, nanonaychaga oltin yaproqchani "payvandlash" uchun yorug'lik interferensiyasi va difraksiyasi hodisalari qo'llaniladi.

Hozirda bu poyga mikrometrlar masshtabidan boshlandi va ayni paytda tranzistorlarning o'lchami 45 nanometrga yetdi. Bu soch tolasidan 1000 marta ingichkadir. Olimlarning rejalari esa yanada kichik o'lchamlarga o'tishdir - yaqin kelajakda 35 nanometr, undan so'ng 12,5 nanometrli qurilmalar ishlab chiqarish.

Shunday savol tug'ilishi tabiiy – bunday qalinlikda butun bir sistema kuchlanishni o'tkaza oladimi, qizib ketmaydimi? Silindrik rezistorning R qarshiligi nanoo'lchamlarini bizga ma'lum formula bilan hisoblash mumkin emas:

$$R = \rho \frac{\ell}{S}$$

Ma'lum bo'lishicha nanorezistorlarning R_0 qarshiligi ularning o'lchamiga va ular yasalgan moddaga umuman bog'liq bo'lmay, faqat ikkita fundamental fizik konstantalar bilan aniqlanadi:

$$R_0 = \frac{U}{I} = \frac{h}{2e^2}$$

Bu yerda e – elektron zaryadi ($1{,}6 \cdot 10^{-19}$ Kl), h – Plank doimiysi ($6{,}62 \cdot 10^{-34}$ J/s).

R_0 kattaligi "elektr qarshilikning kvanti" deb nomlanadi, bunda nanodunyodagi barcha rezistorlarning qarshiligi bir xilligi nazarda tutiladi. Aniqlanishicha, nanorezistorda «Joul issiqligi» tok o'tishi bilan ajralmaydi. Chunki, nanonaychalar qizimaydi. Ular qizimagani uchun ham kuchli zichlikdagi toklarni ham (10^7 A/cm^2) o'tkazish qobiliyatiga ega bo'ladi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Agar uglerodli nanonaychalarning oddiy (ballistik emas) o‘tkazish qobiliyati bo‘lganda unda analogik zichliklardagi toklarda temperatura 20000 Kga ko‘tarilar edi. Bu esa ularning yonish temperaturasidan ancha balanddir. Ballistik o‘tkazgich muhandislar tomonidan samarali foydalaniladi. Nanoo‘lchamdagi mikrosxemalar elementlari kamaytirib boriladi, bu bilan ularning qizishining oldi olinadi [14].

Grafenni qo‘llash quyidagi sohalarda samarali amalga oshirilmoqda: kompozit materiallarda uglerod tolalar o’rniga grafen naylarini ishlatish mumkin - yengil samolyot va sputniklar yaratiladi; tranzistorlarda kremniy o’rniga grafen ishlatilsa tranzistorlar qizimaydi; plastmassalarda grafen elektro’tkazuvchanligini ta’minlaydi; grafen asosida

datchiklar xavfli molekularni topib oladi: grafen pudrasi akkumulyatorlarning sig’imini oshiradi: germetik plastik konteynerlarida ovqat bir necha kun buzilmaydi; quyosh batareyasi va monitorlar uchun tiniq tok o’tkazadigan qoplamalar; superkondensatorlar; mustahkamroq shamol generatorlari; yuqori quvvatli va yuqori chastotali elektron qurilmalar; ikkita suyuqlikni ajratish membranalar.

Zamonaviy kompyuter chiplarning asosiy muammosi – ularni quvvatini qizib ketmasdan oshirish. Grafen tranzistorlar esa bu muammoning yechimi deb qaraladi. Bu bilimlarning fanlararo integratsiyasi alohida yondashuvni talab qiladi.

Harbiy-amaliy fizika fanini o‘qitishda zamonaviy fan yutuqlari imkoniyatlaridan foydalanish zamonaviy bilimlarning egallanishi ҳамда harbiy-amaliy fizika fani ta’limida o‘qitishning izchilligini amalga oshirilishi ta’minlaydi. Shu bilan birga zamonaviy fanlarni o‘rganishda kursantlarda yuzaga keladigan to‘siqlarni yo‘qotadi, texnik-muhandislik sifatlarini yanada oshiradi va harbiy tayyorgarlik borasida kasbiy layoqatlarini rivojlantiradi. Harbiy-amaliy fizika fanini o‘qitish sohasida olib borilgan pedagogik ilmiy tadqiqot ishlari OHTMlari kursantlarini o‘qitish zamonaviy fan yutuqlari va fanlararo integratsiyaga asoslanmaganligini ko‘rish mumkin. Fanlararo aloqalar ta’lim jarayonining barcha asosiy tarkibiy qismlariga teng ta’sir ko‘rsatib, quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: o‘quv materialining mazmunini tizimli ravishda boyitish; o‘qitish usullari va metodlarini takomillashtirish; o‘quv jarayonida samarali vositalardan foydalanish.

Ko‘p yillik tadqiqotlar va ish tajribalari natijasida ta’lim jarayonida zamonaviy fan yutuqlarini fanlararo integratsiya asosida joriy etishning quyidagi usul va vositalari aniqlangan: zamonaviy fan yutuqlari, ilm-fan yangiliklari hamda ilmiy tadqiqot natijalarini mavzuga mos jihatlar asosida tanlash, qayta ishlash va uyg‘unlashtirish; harbiy-amaliy fizika mashg‘ulotlarida o‘rganilayotgan hodisaning ilgari boshqa fan mashg‘ulotlarida ko‘rib chiqilgan hodisalar bilan o‘zaro bog‘liqligini yoritish; harbiy-amaliy fizika fanidagi jarayonlarni tahlil etishda ilgari boshqa fanlarda kursantlar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarga tayanish; fanlararo bog‘lanish tamoyiliga asoslangan masalalarni yechish; fanlararo integratsiya xarakteriga ega amaliy ishlarni bajarish; elektron resurs imkoniyatlaridan foydalanib zamonaviy fan yutuqlarini izlash, animatsion taqdimotlar yaratish va ularni o‘quv jarayonida qo‘llash; o‘rganilayotgan mavzuning umumta’lim hamda harbiy-kasbiy fanlar bilan bog‘liqligini zamonaviy fan yutuqlari bilan boyitib borish;

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

mavzularga kiritilgan zamonaviy ilmiy yutuqlarni kursantlarning fan bo‘yicha egallagan fundamental bilimlarini inobatga olgan holda sodda va tushunarli shaklda bayon etish usullarini ishlab chiqish.

Integratsiya tushunchasini tahlil qilish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan yondashuvlar tizimli va kompleks yondashuvlarga asoslangan bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy fan yutuqlarining harbiy-amaliy fizika fani bilan integratsiyalashuvi bo‘lajak ofitserlarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, kelajakda ilmiy izlanishlar olib borishlari uchun mustahkam nazariy va amaliy asos yaratishga xizmat qiladi. Ularning o‘z ustida ishlash konikmalari rivojlantirilib ilmiy xabardorlik kompetensiyalari shakllanishi va kasbiy latoqatlari o‘sishiga erishiladi.

Shu bois, harbiy-amaliy fizika fanini o‘qitishda zamonaviy fan yutuqlaridan foydalanib bo‘lajak ofitserlarning harbiy-kasbiy kompetenligini rivojlantirishning metodik tizimini shakllantirish masalasi dolzarb pedagogik muammolardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Usoltsev A.P. Innovatsion fikrlash tushunchasi to‘g'risida / A.P. Usoltsev, T.N. Shamalo // Rossiyadagi pedagogik ta'lim. - 2014. - № 1.
2. Usoltsev A.P. Tabiatshunoslik tizimining modeli va texnologik yoshlarni yangilikka o‘rgatish / A.P. Usoltsev, T.N. Shamalo, V.B. Shcherbakova // Yoshlarni innovatsion faoliyatga tayyorlash fizika, matematika, informatika o‘qitish jarayonidagi faoliyat: maqolalar to‘plami. Ural davlat pedagogika universiteti- Yekaterinburg, 2013 yil.
3. Зубков Ю.Н, Кадочкин А.С., Козлов Д.В., Нагорнов Ю.С., Новиков С.Г., Светухин В.В., Семенцов Д.И. Введение в нанотехнологии. модуль физика, Издательство “ЛЕМА»
4. Бочаров Л.Ю., Мальцев П.П. Состояние и перспективы развития микро-электромеханических систем за рубежом // Микросистемная техника. 1999, № 1. С. 41-46.
5. Xalimov E.X. “Fizika mashg‘ulotlarida grafenli tranzistorlar haqidagi fizik bilimlarni shakllantirish”, Zirhli qalqon ilmiy-amaliy jurnal №2 2020 y.
6. О. Аҳмаджонов Физика курси. Электр ва магнетизм. Т.,”Ўқитувчи”1987. Б: 146-147.
7. E.Hall, Am. J. Math. 2, 287.-1879.
8. K. von Klitzing et al., Phys. Rev. Lett. 45, 494.-1980.
9. D.C.Tsui et al., Phys. Rev. Lett. 48, 1559. -1982.
10. R.B.Laughlin, Phys. Rev. Lett. 50, 1395. -1983.
11. X.Du et al., Nature 462, 192.-2009.
12. K.I.Bolotin et al., Nature 462, 196. -2009.
13. Nanofizics сайти. Научный семинар с Лозовик Ю.Е.— заведующий лабораторией спектроскопии наноструктур Института спектроскопии РАН, профессор Московского физико-технического института (МФТИ).-2019.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

14. Science (Frank Science, t. bilan hamkorlikda) jurnali 280.-1998.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Xalimov Erkin Xalilovich**, tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi, [**Халимов Эркин Халилович**, старший преподаватель кафедры естественнонаучных наук], [**Erkin X. Xalimov**, Senior Lecturer at the Department of Natural Sciences]; manzil: O'zbekiston, Amira Temur, 15, CHirchiq [адрес: Узбекистан, просп. Амира Темура, 15, Чирчик], [address: Uzbekistan, avenue. Amira Temura, 15, Chirchik].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

AMALIY SEMINAR VA LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINING TALABALAR TANQIDIY FIKRLASHIGA TA’SIRI

© A.F. Sobirova[1]✉
[1]Urganch davlat pedagogika instituti, Urganch, O’zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada amaliy seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarining talabalar tanqidiy fikrlashiga ta’siri tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida talabalar mustaqil fikrlashini shakllantirish va ularda analitik yondashuvni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy mashg‘ulotlar, ayniqsa, laboratoriya tajribalari va seminarlar, talabalarni nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashga undaydi hamda ularning muammolarni hal etish, savollarga tanqidiy yondashish, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalarini shakllantiradi.

MAQSAD: mazkur maqolada amaliy seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarining talabalar tanqidiy fikrlashiga ta’siri tahlil qilinadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: ta’lim jarayoni shunchaki bilim berish jarayoni emas, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning dunyoqarashi va fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishdir. Tanqidiy fikrlash esa shunday ko‘nikmaki, u nafaqat ta’lim jarayonida, balki hayotning turli jabhalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: mazkur natijalar shuni ko‘rsatadiki, amaliy seminar va laboratoriya mashg‘ulotlari talabalarni faqatgina nazariy bilimlar bilan ta’minlab qolmay, balki ularning mustaqil fikrlash, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish va muammolarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

XULOSA: xulosa qilib aytganda, amaliy seminar va laboratoriya mashg‘ulotlari nafaqat talabalar bilimini oshirish, balki ularning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish va analitik yondashuvni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vositalar hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: amaliy seminar, laboratoriya mashg‘ulotlari, tanqidiy fikrlash, interfaol ta’lim, analitik yondashuv, mustaqil tafakkur, eksperimental ta’lim.

Iqtibos uchun: Sobirova A.F. Amaliy seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarining talabalar tanqidiy fikrlashiga ta’siri. // Inter education & global study. 2025. №3 B.43-50.

ВЛИЯНИЕ ПРАКТИЧЕСКИХ СЕМИНАРОВ И ЛАБОРАТОРНЫХ ЗАНЯТИЙ НА КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ СТУДЕНТОВ

© А. Ф. Собирова[1]✉
[1]Ургенчский государственный педагогический институт, Ургенч, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируется влияние практических семинаров и лабораторных занятий на критическое мышление студентов. В современном образовательном процессе важно формировать у студентов самостоятельное мышление, развивать у них аналитический подход. Практические занятия, особенно лабораторные эксперименты и семинары, побуждают студентов применять теоретические знания на практике и развивают такие навыки, как решение проблем, критическое мышление и обоснование фактических данных.

ЦЕЛЬ: в статье анализируется влияние практических семинаров и лабораторных занятий на критическое мышление студентов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: образовательный процесс – это не просто процесс передачи знаний, но и всестороннее развитие личности, формирование ее мировоззрения и навыков мышления. Критическое мышление — навык, который важен не только в образовательном процессе, но и в различных аспектах жизни.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: эти результаты показывают, что практические семинары и лабораторные занятия не только дают студентам теоретические знания, но и развивают их навыки самостоятельного мышления, обоснованных выводов и анализа проблем.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в заключение следует отметить, что практические семинары и лабораторные занятия являются эффективными педагогическими инструментами, которые не только расширяют знания студентов, но и способствуют развитию их критического мышления, самостоятельного принятия решений и аналитического подхода.

Ключевые слова: практический семинар, лабораторные занятия, критическое мышление, интерактивное обучение, аналитический подход, самостоятельное мышление, экспериментальное обучение.

Для цитирования: Собирова А. Ф. Влияние практических семинаров и лабораторных занятий на критическое мышление студентов. // Inter education & global study. 2025. №3. С. 43-50.

THE INFLUENCE OF PRACTICAL SEMINARS AND LABORATORY WORKSHOPS ON STUDENTS' CRITICAL THINKING

© Aziza F. Sobirova[1]✉
[1]Urgench State Pedagogical Institute, Urgench, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the impact of practical seminars and laboratory exercises on students' critical thinking. In the modern educational process, it is important to form students' independent thinking and develop an analytical approach in them. Practical exercises, especially laboratory experiments and seminars, encourage

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

students to apply theoretical knowledge in practice and develop their skills in solving problems, critically approaching questions, and drawing conclusions based on evidence.

AIM: this article analyzes the impact of practical seminars and laboratory exercises on students' critical thinking.

MATERIALS AND METHODS: the educational process is not just a process of imparting knowledge, but also the comprehensive development of a person, the formation of his worldview and thinking skills. Critical thinking is such a skill that it is important not only in the educational process, but also in various aspects of life.

DISCUSSION AND RESULTS: these results show that practical seminars and laboratory exercises not only provide students with theoretical knowledge, but also develop their independent thinking, evidence-based conclusions, and problem analysis skills.

CONCLUSION: In conclusion, practical seminars and laboratory exercises are effective pedagogical tools that not only increase students' knowledge, but also develop their critical thinking, independent decision-making, and analytical approach.

Keywords: practical seminar, laboratory exercises, critical thinking, interactive learning, analytical approach, independent thinking, experimental learning.

For citation: Aziza F. Sobirova. (2025) 'The influence of practical seminars and laboratory workshops on students' critical thinking', Inter education & global study, (3), pp. 43-50. (In Uzbek).

Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda globallashuv va axborot texnologiyalarining jadallik bilan rivojlanishi ta'lim jarayonida nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish, balki amaliy jihatdan ulardan foydalana olish, mantiqiy va mustaqil tafakkur yuritish, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarni shakllantirish zaruriyatini tug'diradi. Shu boisdan amaliy seminar va laboratoriya mashg'ulotlari talabalar tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida e'tirof etilmoqda.

Amaliy seminar va laboratoriya mashg'ulotlari talabalarning bevosita ishtirokini talab qiladigan interfaol ta'lim shakllari bo'lib, ular bilimlarni amaliy qo'llash, muammolarni tahlil qilish va hal etish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Ushbu metodlarning afzalliklari shundaki, talabalar o'quv jarayonida faol qatnashib, turli nazariy kontseptsiyalarni real hayotiy holatlar bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday yondashuv ularning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada amaliy seminar va laboratoriya mashg'ulotlarining talabalar tanqidiy fikrlashiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida ushbu pedagogik usullar orqali talabalarning mustaqil fikrlashi, analitik yondashuvi, muammolarni tahlil qilish qobiliyatlari va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarining shakllanishi o'rganiladi. Shu bilan birga, maqolada ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilg'or metodlar, ularning samaradorligi hamda takomillashtirish yo'nalishlari yoritiladi. Ta'lim jarayoni shunchaki bilim berish jarayoni emas, balki shaxsni har tomonlama

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

rivojlantirish, uning dunyoqarashi va fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishdir. Tanqidiy fikrlash esa shunday ko‘nikmaki, u nafaqat ta’lim jarayonida, balki hayotning turli jabhalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, zamonaviy ta’lim metodlaridan foydalanish orqali talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Amaliy seminar va laboratoriya mashg‘ulotlari tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Chunki bu jarayonda talabalar bevosita ishtirok etib, o‘zlari muammo yechimini izlaydi, tajriba o‘tkazadi va natijalarni mustaqil tahlil qiladi. Masalan, laboratoriya mashg‘ulotlarida talabalar oldiga muayyan vazifa qo‘yiladi, ular esa bu vazifani hal qilish uchun ilmiy asoslangan fikrlash, kuzatish, eksperiment o‘tkazish va natijalarni tahlil qilishga majbur bo‘ladilar. Natijada ular oddiygina xulosalar bilan cheklanmay, sabab va oqibat munosabatlarini tushunib, yangicha yondashuvlarni taklif qila boshlaydilar.

Amaliy seminar mashg‘ulotlari esa muhokama, bahs-munozara va analitik tahlil kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bunday seminarlar davomida talabalar o‘z fikrlarini asoslashga, raqib fikrlariga tanqidiy yondashishga, dalillarni tahlil qilishga va xulosalar chiqarishga o‘rganadilar. Masalan, pedagogika yoki falsafa kabi fanlarda talabalar dolzarb muammolarni muhokama qilish orqali turli qarashlarni tahlil qilib, o‘z pozitsiyalarini dalillashga harakat qiladilar. Bu esa ularda mustaqil fikrlash, argumentatsiya va analitik tafakkur shakllanishiga xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun qo‘llanilayotgan metodlarning samaradorligini oshirish maqsadida interfaol usullardan foydalanish zarur. Misol uchun, “Muammoli o‘qitish” metodida talabalar oldiga aniq muammo qo‘yiladi va uni hal qilish uchun mustaqil izlanish olib borishga undaladi. Yoki “Rol o‘yinlari” metodi orqali talabalar muayyan vaziyatga tushib, o‘z bilimlari va mantiqiy mulohazalaridan foydalangan holda muammoni hal etish yo‘llarini ishlab chiqadilar.

Shuningdek, zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalar yordamida ham tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mumkin. Virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va interaktiv platformalar orqali talabalar tajriba o‘tkazib, natijalarni tahlil qilish imkoniga ega bo‘ladilar. Ayniqsa, STEM yo‘nalishida bunday texnologiyalar talabalar tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlashga katta hissa qo‘shmoqda. Amaliy seminar va laboratoriya mashg‘ulotlari talabalar tanqidiy fikrlashini shakllantirishda juda muhim rol o‘ynaydi. Bunday mashg‘ulotlar natijasida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtiradi, balki ularni amaliyotda qo‘llash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish va o‘z fikrlarini asoslash kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Shunday ekan, ta’lim jarayonida amaliy va interfaol yondashuvlarni keng joriy etish talabalar mustaqil fikrlovchi va intellektual rivojlangan shaxslar sifatida shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar so‘nggi yillarda ta’lim sohasida keng o‘rganilib, turli usul va yondashuvlar taklif etilmoqda. Mazkur maqolada amaliy seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarining talabalar tanqidiy fikrlashiga ta’siri tahlil

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

qilinayotganligi sababli, ushbu mavzu bo‘yicha ilg‘or tadqiqotlar va pedagogik qarashlarga murojaat qilindi.

Tanqidiy fikrlash tushunchasining nazariy asoslari. Tanqidiy fikrlash konsepsiyasi asosan amerikalik olimlar tomonidan keng yoritilgan. R. Pol va L. Elder [4; 25] tanqidiy fikrlashni insonning axborotni chuqur tahlil qilishi, asosli xulosa chiqarishi va oqilona qaror qabul qilishi jarayoni sifatida izohlashadi. Ularning tadqiqotlarida tanqidiy fikrlashning tarkibiy qismlari – tahlil, solishtirish, baholash va mantiqiy mulohaza qilish kabi jihatlar ajratib ko‘rsatilgan. Xususan, olimlar tanqidiy tafakkurni rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida interfaol metodlardan, jumladan, amaliy seminar va laboratoriya mashg‘ulotlaridan foydalanish zarurligini ta’kidlaydilar.

Amaliy seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarining ahamiyati J. Bruner [2; 156] konstruktivistik ta’lim nazariyasida talabalar bilimlarni faqat o‘qituvchi tomonidan berilgan shaklda emas, balki o‘z mustaqil faoliyati orqali o‘zlashtirishi lozimligini ilgari suradi. U o‘quv jarayonida eksperiment va muammoli o‘qitish metodlaridan foydalanish talabalar tanqidiy fikrlashini rivojlantirish uchun muhim omil ekanligini ta’kidlaydi.

V. S. Avanesov [6; 216] o‘z tadqiqotida laboratoriya mashg‘ulotlarining ta’lim jarayonidagi rolini tahlil qilgan. Uning fikricha, laboratoriya tajribalari talabalarni eksperimental yo‘l bilan o‘rganishga, o‘z kuzatishlarini mustaqil tahlil qilishga va xulosalar chiqarishga undaydi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, laboratoriya mashg‘ulotlarida faol ishtirok etgan talabalar o‘z fikrlarini asoslash, eksperiment natijalariga tayangan holda xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

B. Blum [1; 198] tomonidan ishlab chiqilgan taksonomiyada ham yuqori darajadagi fikrlash jarayonlari tahlil, baholash va ijodiy yondashuv bilan bog‘liq ekani ko‘rsatib o‘tilgan. Bu esa aynan amaliy seminar va laboratoriya mashg‘ulotlari orqali talabalar tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning muhimligini tasdiqlaydi.

XXI asrda ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarning kirib kelishi tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Xususan, A. Collins o‘z tadqiqotlarida onlayn laboratoriyalar va virtual simulyatsiyalarning talabalar tahlil qilish va qaror qabul qilish qobiliyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, amaliy seminar va laboratoriya mashg‘ulotlari talabalar tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash, muammolarni hal etish, tahlil qilish va xulosalar chiqarish jarayonlari orqali talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim metodlari, jumladan, interfaol va raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan amaliy mashg‘ulotlar esa bu jarayonni yanada samarali amalga oshirish imkonini beradi. Shu boisdan, kelgusida tanqidiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan ilg‘or pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida talabalar mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

shuni ko‘rsatadiki, amaliy seminar va laboratoriya mashg‘ulotlari talabalar tanqidiy tafakkurini shakllantirishda samarali usullardan biri hisoblanadi.

1-jadval. Seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarining ta’siri.

T/r	Ko‘nikmalar	Seminar mashg‘ulotlaridan oldin(%)	Seminar mashg‘ulotlaridan keyin(%)	Laborotoriya mashg‘ulotlaridan oldin(%)	Laborotoriya mashg‘ulotlaridan keyin(%)
1	Tanqidiy fikrlash	45	80	50	85
2	Muammolarni gal qilish	40	78	48	83
3	Mustaqil xulosa chiqarish	38	76	46	82
4	Analitik tafakkur	42	82	49	86
5	Mantiqiy mulohaza	37	79	45	84

Seminar va laboratoriya mashg‘ulotlaridan oldin va keyin o‘tkazilgan testlar natijalari talabalar tanqidiy fikrlash qobiliyatlarining sezilarli darajada rivojlanganini ko‘rsatdi. Jumladan:

Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari seminar mashg‘ulotlaridan oldin 45% ni tashkil etgan bo‘lsa, mashg‘ulotlardan keyin bu ko‘rsatkich 80% gacha oshdi. Laboratoriya mashg‘ulotlaridan oldin esa 50% bo‘lgan bu ko‘nikma 85% gacha ko‘tarildi.

Muammolarni hal qilish qobiliyati ham seminar mashg‘ulotlari tufayli 40% dan 78% gacha, laboratoriya mashg‘ulotlari natijasida esa 48% dan 83% gacha o‘sdi.

Mustaqil xulosa chiqarish darajasi mashg‘ulotlardan oldin atigi 38% bo‘lgan bo‘lsa, seminarlar orqali bu 76% ga, laboratoriya ishlari tufayli esa 82% ga yetdi.

Analitik tafakkur va mantiqiy mulohaza kabi ko‘nikmalarda ham shunga o‘xshash ijobiy natijalar kuzatildi.

Mazkur natijalar shuni ko‘rsatadiki, amaliy seminar va laboratoriya mashg‘ulotlari talabalarni faqatgina nazariy bilimlar bilan ta’minlab qolmay, balki ularning mustaqil fikrlash, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish va muammolarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu metodlar orqali talabalar nazariy ma’lumotlarni real hayotiy vaziyatlarga qo‘llashni o‘rganadilar va fikrlash jarayoni yanada chuqurlashadi.

Kelgusida ta’lim jarayonida amaliy mashg‘ulotlar sonini oshirish, zamonaviy interfaol metodlarni joriy etish va raqamli texnologiyalar orqali mustaqil o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirish talabalar tanqidiy tafakkurini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu boisdan, seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarini optimallashtirish, ularni yanada interfaol va muammoli ta’lim metodlari bilan boyitish dolzarb masala sifatida qaralishi lozim.

Bugungi globallashuv va axborot asrida talabalar nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi, balki mustaqil fikrlovchi, tahliliy yondashuvga ega bo‘lgan shaxslarga aylanishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, amaliy seminar va laboratoriya mashg‘ulotlari talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Seminar va laboratoriya mashg‘ulotlarining ta’lim jarayoniga kiritilishi talabalar bilimini faqatgina kengaytirib qolmay, balki ularning mustaqil tahlil qilish, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish, muammolarni hal etish va yangi yondashuvlarni ishlab chiqish kabi muhim kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, an’anaviy darslar bilan cheklanmagan holda, interfaol seminarlar va eksperimental laboratoriya ishlariga keng e’tibor qaratilgan taqdirda, talabalar o‘z bilimlarini real hayotiy sharoitlarga tatbiq eta olish qobiliyatini rivojlantira oladilar.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirishda o‘qituvchining roli ham beqiyosdir. An’anaviy yondashuvlardan farqli o‘laroq, interfaol ta’lim usullari orqali talabalar mustaqil qaror qabul qilishga, berilgan ma’lumotlarni chuqur tahlil qilishga va turli pozitsiyalarni muhokama qilishga o‘rgatiladi. Ayniqsa, muammoli ta’lim, tajribaviy o‘rganish va guruhiy muhokamalar singari pedagogik texnologiyalar talabalar ongida mantiqiy tahlil va refleksiya jarayonlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kelgusida ta’lim tizimida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratish lozim:

Amaliy seminar va laboratoriya mashg‘ulotlari sonini oshirish – Nazariy bilimlar yetarli bo‘lsa-da, ularni amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatlari talabalar tafakkurini yanada rivojlantiradi.

O‘qituvchilarning tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha malakasini oshirish – O‘qituvchilar o‘quvchilarga mustaqil izlanish olib borish, savollarga tanqidiy yondashish va dalillarga asoslangan fikr bildirish imkoniyatini beradigan metodikalarni qo‘llashi lozim.

Xulosa qilib aytganda, amaliy seminar va laboratoriya mashg‘ulotlari nafaqat talabalar bilimini oshirish, balki ularning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish va analitik yondashuvni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vositalar hisoblanadi. Shuning uchun ham kelgusida ta’lim jarayonida bu metodlarning qo‘llanilishini yanada kengaytirish zarurati dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Bloom, B. (1956). Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. New York: McKay.
2. Bruner, J. (1966). Toward a Theory of Instruction. Harvard University Press.
3. Collins, A., & Halpern, D. (2014). Critical Thinking and Technology-Enhanced Learning: Strategies for Higher Education. Routledge.
4. Elder, L., & Paul, R. (2002). Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. Prentice Hall.
5. Paul, R., & Elder, L. (2008). The Miniature Guide to Critical Thinking: Concepts and Tools. Foundation for Critical Thinking.
6. V. S. Avanesov. (2016). Laboratoriya mashg‘ulotlarining ta’lim jarayonidagi o‘rni. Moskva: Pedagogika.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

7. Maxmudova, D., Khudoynazarov, E., Pazilova, M., Alyaminov, K., Abilova, G., Sherimbetova, Z., & Korabayev, S. (2024). Improving Media Literacy Among Higher Education Students Through Vitagenic Information. Qubahan Academic Journal, 4(4), 411-442.
8. Jumanazarov, D., Atamurotov, F., Xudoynazarov, E., Matyokubov, K., Saparbaev, R., Abdikarimov, X., & Olsen, U. L. (2025). Method for the correction of spectral distortions in x-ray photon-counting detectors. IEEE Transactions on Instrumentation and Measurement.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Sobirova Aziza Farxodovna,** Urganch davlat pedagogika instituti stajor o'qituvchisi, [**Собирова Азиза Фарходовна,** Ургенчский государственный педагогический институт, учитель], [**Aziza F. Sobirova**, Urgench State Pedagogical Institute, teacher]; manzil: O'zbekiston, Urganch sh., Gurlan ko'chasi, 1A-uy [адрес: Узбекистан, Ургенч, ул. Гурлан, 1A], [address: Uzbekistan, 1A, Gurlan st., Urgench city]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MODELLASHTIRISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ZARURIYATI

© S.J. Sabirov[1]✉

[1]Ma’mun universiteti, Xiva, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida modellashtirish topshiriqlarini bajarish jarayonini tezlashtirish, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash va bilish faoliyatini jadallashtirib o‘zlashtirilgan bilimlarini yaxlit tizim shakliga keltirishlariga ko‘maklashish xaqida fikr yuritilgan bulib, pedagog olimlar, o‘qituvchilar, dastur va darslik mualliflari tadqiqotchilar uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

MAQSAD: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik zaruriyatini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash, o‘quvchilarda mantiqiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda modellashtirish usulining ahamiyatini aniqlash hamda ta’lim jarayonida uni samarali qo‘llash yo‘llarini yoritib berishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda modellashtirish ko‘nikmasini shakllantirishning pedagogik asoslarini aniqlash uchun quyidagi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi: nazariy tahlil, pedagogik adabiyotlar va ilg‘or tajribalarni o‘rganish; kuzatuv, suhbat, anketa va didaktik vazifalar orqali o‘quvchilarning modellashtirish faoliyatini tahlil qilish; tajriba-sinov ishlari orqali amaliy natijalarni aniqlash; statistik tahlil yordamida olingan ma’lumotlarni umumlashtirish va xulosalash.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot davomida olingan natijalar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida modellashtirish ko‘nikmasini shakllantirish ta’lim jarayonining ajralmas qismi ekani aniqlandi. Modellashtirish o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, tushunchalarni umumlashtirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishi ta’kidlandi.

XULOSA: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta’limning muhim talablaridan biridir. Bu ko‘nikmalar o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, muammoni tahlil qilish, asosli xulosa chiqarish va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: modellashtirish, modellashtirish metodi, model, reja, maket, raqamli ifodalar, matematik nutq, munosabatlar, Grafik modellar, Chizmali modellar.

Iqtibos uchun: Sabirov S.J. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida modellashtirish ko‘nikmasini shakllantirishning pedagogik zaruriyati // Inter education & global study. 2025. №3. B.51-57.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ УМЕНИЙ МОДЕЛИРОВАНИЯ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

© С.Дж. Сабиров[1]✉
[1]Университет Мамуна, Хива, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются способы ускорения процесса выполнения заданий по моделированию у учащихся начальной школы, ускорения логического мышления и познавательной активности учащихся, а также содействия интеграции полученных знаний в целостную систему. Он служит справочным пособием для педагогов-ученых, учителей, авторов программ и учебников, а также исследователей.

ЦЕЛЬ: научно-педагогически обосновать педагогическую необходимость развития навыков моделирования у учащихся младших классов, определить значение метода моделирования в развитии логического и критического мышления учащихся, наметить пути эффективного использования его в образовательном процессе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования для выявления педагогических основ формирования умений моделирования использовались следующие научные методы исследования: теоретический анализ, изучение педагогической литературы и передового опыта; анализ модельной деятельности учащихся посредством наблюдения, интервью, анкетирования и дидактических заданий; определение практических результатов посредством экспериментальной работы; Обобщение и выводы из данных, полученных с помощью статистического анализа.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: на основании полученных в ходе исследования результатов определено, что формирование навыков моделирования у учащихся начальных классов является неотъемлемой частью образовательного процесса. Было подчеркнуто, что моделирование развивает у учащихся такие навыки, как расширение кругозора, обобщение понятий, анализ проблемных ситуаций, принятие самостоятельных решений.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования показали, что формирование навыков моделирования у учащихся младших классов является одним из важных требований современного образования. Эти навыки помогают учащимся развивать логическое мышление, анализ проблем, обоснованные выводы и творческий подход.

Ключевые слова: моделирование, метод моделирования, модель, план, макет, числовые выражения, математическая речь, отношения, Графические модели, Чертежные модели.

Для цитирования: Сабиров С.Дж. Педагогическая необходимость формирования умений моделирования у младших школьников // inter education & global study. 2025. №3. С. 51-57.

PEDAGOGICAL NEED FOR FORMING MODELING SKILLS IN PRIMARY GRADE

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

STUDENTS

© Sardor J. Sabirov [1]✉
[1]Ma'mun University, Khiva, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article discusses the issues of accelerating the process of completing modeling tasks in primary school students, accelerating students' logical thinking and cognitive activity, helping them to bring their acquired knowledge into a holistic system, and serves as a program guide for pedagogical scientists, teachers, authors of programs and textbooks, and researchers.

AIM: to scientifically and pedagogically substantiate the pedagogical need for forming modeling skills in primary school students, to determine the importance of the modeling method in developing logical and critical thinking in students, and to highlight ways to effectively use it in the educational process.

MATERIALS AND METHODS: the following scientific research methods were used in the study to determine the pedagogical foundations of the formation of modeling skills: theoretical analysis, study of pedagogical literature and best practices; analysis of students' modeling activities through observation, interviews, questionnaires and didactic tasks; determination of practical results through experimental work; generalization and conclusion of the data obtained using statistical analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: based on the results obtained during the study, it was determined that the formation of modeling skills in primary school students is an integral part of the educational process. It was noted that modeling develops students' skills such as expanding the scope of thinking, generalizing concepts, analyzing problem situations and making independent decisions.

CONCLUSION: the results of the study showed that the formation of modeling skills in primary school students is one of the important requirements of modern education. These skills serve to develop students' logical thinking, problem analysis, drawing reasonable conclusions and a creative approach.

Keywords: modeling, modeling method, model, plan, layout, numerical expressions, mathematical speech, relationships, Graphical models, Drawing models.

For citation: Sardor J. Sabirov Pedagogical need for forming modeling skills in primary grade students // Inter education & global study. 2025. №3. pp. 51-57

Jahon amaliyotida o‘quvchilar 3-4 sinfdan boshlab topshiriqlarni bajarish, masalalarni yechish, modellarni mustaqil qurish ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari talab etiladi. Chunki muayyan hodisalar, obyektlarni modellashtirish yordamida o‘quvchilarda, mantiqiy, kreativ, tanqidiy fikrlash layoqati shakllantiriladi. Jahondagi rivojlangan mamlakatlarning ta’lim tizimlarida o‘quvchilarda modellashtirish ko‘nikmasini shakllantirish asosida ularni mantiqiy, kreativ fikrlashga o‘rgatish mexanizmlarini ishlab

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

chiqishga ustuvor o‘rin ajratilgan. Jumladan Yaponiya, Koreya, AQSh, Xitoy, Germaniya, Singapur, Finlandiya kabi mamlakatlarda o‘quvchilarni loyihalash, grafik va texnologik modellashtirishga o‘quv jarayonida alohida e’tibor qaratilmoqda.

Zamonaviy ilmiy bilish nazariyasida maqsadlarga erishish vositasi xizmatini bajarib kelgan va bajarayotgan usullarning biri – modellashtirishdir. Mazkur usul zamonaviy fanning barcha sohalarida bilish usuli sifatida qo‘llaniladi. Ya’ni, hozirgi vaqtda modellashtirish metodining inson faoliyatining har qanday sohasida u yoki bu darajada qo‘llanilmasligini tasavvur qilish qiyin. Mazkur usul obyektiv dunyodagi narsa va hodisalarni bevosita o‘rganish mumkin bo‘lmagan va o‘rganish ob’ekti murakkab bo‘lgan paytlarda samarali ilmiy vosita hisoblanadi. Modellashtirishning barcha funksiyalaridan bosqichma bosqich foydalanish natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida modellashtirish ko‘nikmasini samarali shakllantirish imkoniyati vujudga keladi.

Modellashtirish ko‘nikmasini egallagan o‘quvchilarda muayyan ob’ektning o‘ziga xos xususiyatlari, tarkibiy tuzilishi, boshqa obyektlar bilan munosabati va aloqadorligi, undan foydalanish imkoniyatlarini tushunishlari kuzatiladi. Shunga ko‘ra o‘quvchilarga boshlang‘ich sinflardan boshlab modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Modellashtirish tushunchasi doirasida esa o‘qituvchi ham o‘quvchilar ham muayyan obyektning o‘ziga xos xususiyatlari, tarkibiy tuzilishi, boshqa obyektlar bilan munosabati va aloqadorligi, undan foydalanish imkoniyatlarini tushunishlari lozim. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ko‘plab rang-barang modellar orasida matematik modellar muhim o‘rin egallaydi. Shunga ko‘ra o‘quvchilarga boshlang‘ich sinflardan boshlab modellashtirish ko‘nikmalari shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Gamifikatsiya sport mashg‘ulotlarining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ilmiy adabiyotlar va empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sportchilarning motivatsiyasini oshirish, jismoniy tayyorgarlik samaradorligini kuchaytirish va mashg‘ulot jarayonini yanada interaktiv qilish uchun gamifikatsiya texnologiyalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xorijiy va mahalliy tajribalar asosida ushbu metodlarning professional sportchilarning mashg‘ulot jarayonida joriy etilishi sport natijalarini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

Zamonaviy sport olamida gamifikatsiya metodlaridan foydalanish nafaqat motivatsiya va qiziqishni oshirish, balki sportchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini yaxshilashga ham xizmat qilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gamifikatsiya asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar an’anaviy usullarga qaraganda samaraliroq bo‘lib, sportchilar natijalari sezilarli darajada oshgan. Ushbu bo‘limda gamifikatsiyaning ta’siri statistik ma’lumotlar va vizual tahlil yordamida ko‘rib chiqiladi.

Gamifikatsiya qo‘llanilgan mashg‘ulotlar samaradorligi: tadqiqot doirasida 100 nafar professional sportchi ikki guruhga bo‘lindi:

• eksperimental guruh – mashg‘ulot jarayonida gamifikatsiya metodlari qo‘llanilgan.

• nazorat guruhi – an’anaviy mashg‘ulot tizimi asosida shug‘ullangan.

Uch oy davom etgan eksperiment natijalariga ko‘ra, gamifikatsiya metodlaridan foydalanilgan guruh sportchilari an’anaviy usulda shug‘ullangan sportchilarga nisbatan 25% tezroq natijalarga erishgan. Quyidagi diagrammada bu o‘zgarishlar ko‘rsatilgan:

Gamifikatsiya va sportchilarning jismoniy natijalari: Tadqiqot davomida sportchilarning chidamlilik, kuch-quvvat va tezlik natijalari baholandi. Quyidagi ko‘rsatkichlar o‘rganildi:


• Chidamlilik (%) – sportchilarning yugurish davomiyligi va yurak urish tezligi orqali baholandi.

• Tezlik (m/s) – mashg‘ulot jarayonida sportchilarning reaksiya tezligi va yugurish sur’ati o‘lchandi.

• Kuch-quvvat (kg) – atletik mashg‘ulotlarda ko‘tarilgan yuk hajmi baholandi.

Statistik natijalar quyidagi grafikda ko‘rsatilgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3



1-diagramma. Gamifikatsiya va sportchilarning natijalari.

Yuqoridagi diagrammada ko‘rinib turibdiki, gamifikatsiya asosida shug‘ullangan sportchilar:

- Chidamlilik bo‘yicha 15% yuqori natijaga erishgan.
- Tezlik bo‘yicha 1.7 m/s farq bilan yaxshiroq natijani qayd etgan.
- Kuch-quvvat bo‘yicha esa 25 kg ortiq yuk ko‘tarish imkoniyatiga ega bo‘lgan.

Sportchilarning psixologik holati va motivatsiya darajasi: Gamifikatsiya usullarining eng muhim jihatlaridan biri sportchilarning ruhiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishidir. Tadqiqot davomida sportchilarning motivatsiya va ishtiyoq darajasi baholandi. Shunday qilib, statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, gamifikatsiya asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar an’anaviy tizimlarga qaraganda samaraliroq bo‘lib, sportchilar natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu metodlarni kengroq joriy etish sportchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga yordam beradi.

Zamonaviy sport nafaqat jismoniy mehnat, balki innovatsion yondashuvlarni ham talab qilmoqda. An’anaviy mashg‘ulot uslublari uzoq yillar davomida samarali bo‘lib kelgan bo‘lsa-da, bugungi sport olamida sportchilarning ruhiy, jismoniy va motivatsion jihatdan yuqori natijalarga erishishi uchun yangi metodlarga ehtiyoj sezilmoqda. Aynan shunday sharoitda gamifikatsiya sport mashg‘ulotlarini yanada samarali qilishning ilg‘or usuli sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bundan tashqari, gamifikatsiya faqat jismoniy tayyorgarlikka emas, balki sportchilarning ruhiy holatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Mashg‘ulotlarning o‘yin shaklida tashkil etilishi ularda mashg‘ulot jarayonidan zavqlanish hissini oshirdi, stress va charchoq darajasini kamaytirdi. Ayniqsa, yosh sportchilar va jamoaviy sport turlari uchun gamifikatsiya katta ahamiyat kasb etadi, chunki bu metod sportchilar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish va ularga maqsadlarga erishish jarayonini yanada qiziqarli qilish imkonini beradi. Shunday qilib, sport mashg‘ulotlarida gamifikatsiya – bu shunchaki zamonaviy texnologiya emas, balki sportchilarning salomatligi, motivatsiyasi va natijalarini oshirishga qaratilgan strategik yondashuvdir. Kelajakda bu metodlar sport ta’lim tizimida

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ham keng joriy qilinsa, O‘zbekiston sportchilari xalqaro maydonda yanada yuqori natijalarga erishish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. McGonigal, J. (2011). Reality is Broken: Why Games Make Us Better and How They Can Change the World. Penguin Books.
2. Burke, B. (2014). Gamify: How Gamification Motivates People to Do Extraordinary Things. Bibliomotion.
3. Hamari, J., Koivisto, J., & Sarsa, H. (2014). Does Gamification Work? A Literature Review of Empirical Studies on Gamification. Proceedings of the 47th Hawaii International Conference on System Sciences.
4. Zichermann, G., & Cunningham, C. (2011). Gamification by Design: Implementing Game Mechanics in Web and Mobile Apps. O’Reilly Media.
5. Neumann, J. von & Morgenstern, O. (1944). Theory of Games and Economic Behavior. Princeton University Press.
6. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. Springer Science & Business Media.
7. Skinner, B. F. (1954). The Science of Learning and the Art of Teaching. Harvard Educational Review, 24(2), 86-97.
8. T. Qodirov. (2022). Innovatsion texnologiyalar yordamida sport mashg‘ulotlarini rivojlantirish. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi, Ilmiy-tahliliy jurnali.
9. Nike Training Club. (2023). Official website of Nike Training Club – Gamified sports training. https://www.nike.com
10. Khudoynazarov, E. (2023). Boshlang ‘ich ta’limda mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning ahamiyati. Молодые ученые, 1(13), 32-37.
11. Khudoynazarov, D. (2022). Issues of introducing digital technologies into the activities of courts. The American Journal of Political Science Law and Criminology, 4(01), 1-6.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Madaminov Mirjalol Po‘lat o‘g‘li**, Urganch davlat pedagogika instituti asissent o‘qituvchisi, [**Мадаминов Миржалол Пулат угли,** Ургенчский государственный педагогический институт, учитель], [**Mirjalol P. Madaminov**, Urgench State Pedagogical Institute, teacher]; manzil: O‘zbekiston, Urganch sh., Gurlan ko'chasi, 1A-uy [адрес: Узбекистан, Ургенч, ул. Гурлан, 1А], [address: Uzbekistan, 1A, Gurlan st., Urgench city]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

INFORMATIKA FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

© J.S. Otepbergenov[1]✉

[1]Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: Informatika fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash zamonaviy ta’lim jarayonining asosiy omillaridan biridir. Ushbu maqola informatika ta’limida interaktiv vositalar, virtual laboratoriyalar va raqamli resurslarning samaradorligini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda zamonaviy texnologiyalarning o‘quvchilarni bilim olishga jalb qilishdagi o‘rni va ta’lim sifatini oshirishdagi ta’siri tahlil qilingan. Natijalar informatika fanini o‘qitishda texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari va istiqbollarini ko‘rsatadi.

MAQSAD: informatika fanini o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishning o‘quvchilarning bilim darajasi, mustaqil fikrlashi va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishdagi o‘rnini aniqlash, shuningdek, zamonaviy raqamli vositalar, interaktiv metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi orqali ta’lim sifatini oshirish yo‘llarini tahlil qilishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: nformatika fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar – interaktiv usullar, gamifikatsiya, onlayn platformalar, loyihaviy va aralash ta’lim metodlari orqali o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi va mustaqil fikrlashga undaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Interaktiv vositalar, onlayn platformalar va zamonaviy metodlar dars jarayonini yanada qiziqarli, samarali va zamon talablari darajasida tashkil etishga imkon yaratadi. Shuningdek, bu yondashuvlar o‘quvchilarning mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA: informatika fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish va ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omildir. Interaktiv usullar, raqamli platformalar va zamonaviy o‘qitish metodlari orqali ta’lim jarayoni samarali tashkil etiladi. Bu esa yosh avlodning texnologik tafakkuri, ijodkorligi va raqamli kompetentligini shakllantirishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Tayanch so‘zlar: Informatika, innovatsion texnologiyalar, ta’lim jarayoni, interaktiv vositalar, virtual laboratoriyalar, raqamli resurslar.

Iqtibos uchun: Otepbergenov J.S. Informatika fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish // Inter education & global study. 2025. №3. B.75-81.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ИНФОРМАТИКЕ

© Дж.С. Отепбергенов[1]✉
[1] Нукусский государственный педагогический институт, Нукус, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: использование инновационных технологий в обучении информатике является одним из основных факторов современного образовательного процесса. Статья посвящена изучению эффективности использования интерактивных инструментов, виртуальных лабораторий и цифровых ресурсов в обучении информатике. В исследовании проанализирована роль современных технологий в вовлечении студентов в процесс обучения и их влияние на повышение качества образования. Результаты показывают преимущества и перспективы использования технологий в преподавании информатики.

ЦЕЛЬ: определение роли эффективного использования инновационных технологий в процессе обучения информатике в формировании знаний, самостоятельности мышления и практических навыков учащихся, а также анализ путей повышения качества образования за счет интеграции в образовательный процесс современных цифровых средств, интерактивных методов и информационно-коммуникационных технологий.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: инновационные технологии в преподавании информатики — интерактивные методы, геймификация, онлайн-платформы, проектные и смешанные методы обучения — повышают интерес учащихся к уроку, развивают практические навыки и поощряют самостоятельное мышление.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: интерактивные инструменты, онлайн-платформы и современные методы позволяют организовать процесс обучения более интересно, эффективно и современно. Эти подходы также способствуют развитию самостоятельной работы студентов, творческого мышления и практических навыков.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: использование инновационных технологий в обучении информатике является важным фактором повышения качества образования, повышения интереса учащихся к знаниям, развития у них практических навыков. Образовательный процесс эффективно организован с использованием интерактивных методов, цифровых платформ и современных методов обучения. Это служит важной основой для формирования технологического мышления, креативности и цифровой компетентности молодого поколения.

Ключевые слова: информатика, инновационные технологии, образовательный процесс, интерактивные инструменты, виртуальные лаборатории, цифровые ресурсы.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Для цитирования: Отепбергенов Дж.С. Использование инновационных технологий в обучении информатике // Inter education & global study. 2025. №3. С. 75-81.

USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING COMPUTER SCIENCE

© Jetkerbay S. Otepbergenov[1]✉
[1]Nukus State Pedagogical Institute, Nukus, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the use of innovative technologies in teaching computer science is one of the main factors of the modern educational process. This article is devoted to studying the effectiveness of interactive tools, virtual laboratories and digital resources in computer science education. The study analyzed the role of modern technologies in attracting students to knowledge and their impact on improving the quality of education. The results show the advantages and prospects of using technologies in teaching computer science.

AIM: to determine the role of the effective use of innovative technologies in the process of teaching computer science in the formation of students' knowledge, independent thinking and practical skills, as well as to analyze ways to improve the quality of education through the integration of modern digital tools, interactive methods and information and communication technologies into the educational process.

MATERIALS AND METHODS: innovative technologies in teaching computer science - interactive methods, gamification, online platforms, project-based and blended learning methods - increase students' interest in the lesson, develop practical skills and encourage independent thinking.

DISCUSSION AND RESULTS: interactive tools, online platforms and modern methods make it possible to organize the lesson process more interesting, effective and up-to-date. Also, these approaches serve to form students' independent work, creative thinking and practical skills.

CONCLUSION: the use of innovative technologies in teaching computer science is an important factor in improving the quality of education, increasing students' interest in knowledge and developing their practical skills. The educational process is effectively organized through interactive methods, digital platforms and modern teaching methods. This serves as an important foundation for the formation of technological thinking, creativity and digital competence of the younger generation.

Keywords: informatics, innovative technologies, educational process, interactive tools, virtual laboratories, digital resources.

For citation: Jetkerbay S. Otepbergenov. Use of innovative technologies in teaching computer science // Inter education & global study. 2025. №3. pp. 75-81.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Zamonaviy texnologiyalar asrida ta’lim tizimi innovatsion yondashuvlarga bo‘lgan ehtiyojni tobora oshirmoqda. Ayniqsa, informatika fanini o‘qitishda texnologiyalarni qo‘llash, ta’lim jarayonini samarali va qiziqarli qilishning asosiy omiliga aylanmoqda. Innovatsion texnologiyalar yordamida murakkab mavzularni tushuntirishni osonlashtirish, o‘quvchilarni jarayonga faol jalb qilish va ularning texnik ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Informatika fani zamonaviy ta’lim tizimida asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu fan orqali o‘quvchilar dasturlash, algoritmlar tuzish va texnik muammolarni hal qilish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Innovatsion texnologiyalar bu jarayonda asosiy vosita bo‘lib, o‘quvchilarni yangi texnologiyalar bilan tanishtirish va ularni amaliy faoliyatga tayyorlash imkonini beradi. Virtual laboratoriyalar, interaktiv vositalar va masofaviy ta’lim platformalari o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

O‘zbekistonda informatika fanini rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar, xususan, “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida maktab va universitetlarda texnologiyalardan foydalanishni kengaytirishga qaratilgan. Bu tashabbuslar orqali ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishiga yo‘l ochilmoqda.

Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni joriy etishda bir qator qiyinchiliklar mavjud. Texnik infratuzilmaning bir xil rivojlanmagani, raqamli resurslarning cheklanganligi va o‘qituvchilarning malakasini oshirish zarurati bu jarayonning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun tizimli va strategik yondashuv zarur.

Mazkur maqola informatika fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, ularning samaradorligi, joriy etish jarayonidagi muammolar va istiqbollarni tahlil qiladi. Maqola davomida ushbu texnologiyalarni ta’lim tizimida qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Informatika fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarning ta’sirini o‘rganish uchun tadqiqotda nazariy va amaliy usullar qo‘llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi samaradorligini aniqlash va ularni joriy etishda uchraydigan muammolarni yoritish edi.

Birinchi bosqichda nazariy tahlil amalga oshirildi. Ushbu bosqichda informatika fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan texnologiyalar haqida ilmiy maqolalar, monografiyalar va ta’lim bo‘yicha milliy strategiyalar tahlil qilindi. Bu jarayonda interaktiv doskalar, virtual laboratoriyalar, dasturiy ta’minot va masofaviy ta’lim platformalarining afzalliklari o‘rganildi. Nazariy tahlil informatika ta’limida texnologiyalardan foydalanishning zamonaviy yondashuvlarini aniqlashga yordam berdi.

Keyingi bosqichda eksperiment tashkil etildi. Eksperimentda ikkita guruh ishtirok etdi: birinchi guruhda an’anaviy usulda dars o‘tilgan bo‘lsa, ikkinchi guruhda innovatsion texnologiyalar qo‘llanildi. Har ikkala guruhda ham bir xil mavzular o‘rganildi va

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

darslarning mazmuni bir xil edi. Eksperiment davomida o‘quvchilarning bilim olish faolligi, mavzuni o‘zlashtirish darajasi va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish qobiliyati kuzatildi.

Shuningdek, o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomada innovatsion texnologiyalarning dars jarayonidagi afzalliklari va kamchiliklari haqida fikrlar yig‘ildi. O‘qituvchilar texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha o‘z tajribalari va qiyinchiliklari haqida ma’lumot berdilar. O‘quvchilar esa texnologiyalar yordamida darslarning qanchalik samarali ekanligini baholadilar.

Tadqiqot davomida yig‘ilgan ma’lumotlar statistik tahlil qilindi. Eksperiment va so‘rovnoma natijalari asosida texnologiyalarning ta’lim jarayoniga ta’siri haqida xulosalar chiqarildi. Ushbu metodologiya informatika ta’limini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda asos bo‘ldi. Natijalar texnologiyalarning samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari informatika fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarning samaradorligini tasdiqladi. Eksperiment davomida texnologiyalardan foydalangan guruh o‘quvchilari mavzuni o‘zlashtirishda yuqori natijalar ko‘rsatdi. Bu guruhda dars jarayoniga qiziqish oshgani, o‘quvchilarning bilish faolligi va amaliy ko‘nikmalari yaxshilangani kuzatildi. Interaktiv vositalar va virtual laboratoriyalardan foydalanish murakkab mavzularni tushuntirishni osonlashtirgan va mavzularni vizual ravishda yoritishga yordam bergan.

O‘qituvchilar va o‘quvchilar bilan o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasida innovatsion texnologiyalarning ta’lim jarayoniga ijobiy ta’siri aniqlandi. O‘qituvchilar texnologiyalar orqali darslarni yanada samarali va qiziqarli tashkil qilish imkoniyatini ta’kidlashdi. O‘quvchilar esa texnologiyalardan foydalanilgan darslarda mavzularni oson tushunganliklarini va bilimlarni amalda qo‘llash qobiliyatlari rivojlanganini bildirishdi.

Shu bilan birga, texnologiyalardan foydalanishda ba’zi muammolar ham aniqlangan. Xususan, texnik infratuzilmaning cheklanganligi va o‘qituvchilarning yangi texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha malaka darajasini oshirish zarurati qayd etildi. Ushbu qiyinchiliklarga qaramay, texnologiyalar ta’lim jarayonini sifat jihatidan yaxshilashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ushbu natijalar informatika fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning afzalliklari va istiqbollarini ko‘rsatib berdi. Kelgusida ushbu texnologiyalarni yanada keng joriy etish va ulardan samarali foydalanish uchun tizimli yondashuv zarur.

Informatika fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quv jarayonini interaktiv, samarali va qiziqarli qilishda asosiy vosita hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularning bilish faolligi va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Interaktiv texnologiyalar, jumladan, raqamli doskalar va onlayn platformalar, murakkab mavzularni tushuntirishda samarali yordam beradi. Masalan, dasturlash mavzusini o‘rganishda maxsus dasturiy vositalardan foydalanish orqali o‘quvchilar amaliy mashg‘ulotlarni mustaqil bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning mavzuni yanada chuqurroq tushunishiga va amaliy bilimlarni shakllantirishiga yordam beradi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Virtual laboratoriyalar informatika fanini o‘qitishda yana bir muhim vositadir. Ushbu texnologiyalar yordamida o‘quvchilar real amaliy sharoitlarni simulyatsiya qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, tarmoq konfiguratsiyasi yoki dasturiy tizimlarni sinovdan o‘tkazish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilishi mumkin. Bu nafaqat o‘quvchilar uchun qiziqarli, balki ularning kasbiy tayyorgarligini oshirishda ham katta ahamiyatga ega.

O‘zbekiston ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar ushbu fan rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, maktablar va oliy o‘quv yurtlari zamonaviy texnik jihozlar bilan ta’minlanmoqda, o‘qituvchilar malaka oshirish kurslaridan o‘tmoqda. Bu jarayon informatika ta’limining sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashish imkonini bermoqda.

Biroq, texnologiyalardan foydalanishda qator qiyinchiliklar ham mavjud. O‘quv muassasalarining texnik jihozlanish darajasining turlicha bo‘lishi, o‘qituvchilarning texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega emasligi bu boradagi asosiy muammolar sifatida qayd etilgan. Ushbu muammolarni hal qilish uchun tizimli yondashuv va davlat darajasida qo‘llab-quvvatlash zarur.

Umumiy qilib aytganda, informatika fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quv jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur vosita hisoblanadi. Ular o‘quvchilarning texnologik ko‘nikmalarini rivojlantirib, ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston ta’lim tizimida ushbu texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda, bu esa ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga yordam beradi.

Informatika fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar yordamida o‘quvchilar murakkab mavzularni oson tushunadi, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi va texnologiyalar bilan ishlashga tayyor bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, interaktiv vositalar va virtual laboratoriyalardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi.

O‘zbekiston ta’lim tizimi innovatsion texnologiyalarni joriy etishda muhim qadamlarni amalga oshirmoqda. "Raqamli O‘zbekiston–2030" strategiyasi doirasida maktablar va oliy o‘quv yurtlari zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlanmoqda. Shuningdek, o‘qituvchilar malakasini oshirishga yo‘naltirilgan dasturlar texnologiyalarni ta’lim jarayonida samarali qo‘llashga yordam bermoqda.

Shu bilan birga, mavjud muammolar, jumladan, texnik infratuzilmaning rivojlanishi darajasidagi farqlar va o‘qituvchilarning malaka darajasi yetarli emasligi kabi masalalar dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun tizimli yondashuv talab etiladi. Davlat darajasida raqamli resurslarni kengaytirish, o‘qituvchilarni tayyorlash va texnologik infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar zarur.

Xulosa qilib aytganda, informatika fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismidir. Ular o‘quvchilarning texnologik bilimlarini mustahkamlash va ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

zarurdir. Kelgusida texnologiyalarni kengroq joriy etish orqali informatika ta’limi sifatini yangi bosqichga ko‘tarish mumkin bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasi bo‘yicha qarori. Toshkent: Davlat nashriyoti, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. (2022). Ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha metodik tavsiyalar. Toshkent: Ta’lim nashriyoti.
3. Karimov, F. (2021). Informatika fanini o‘qitishda interaktiv texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Norboyev, J. (2022). Ta’limda innovatsion yondashuvlar: Informatika fani tajribasi. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2023). Maktablarda raqamli ta’lim platformalarini joriy etish bo‘yicha hisobot. Toshkent: Xalq ta’limi nashriyoti.
6. Rajabov, S. (2020). Virtual laboratoriyalar va ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Otepbergenov Jetkerbay Sakbergenovich,** Nukus davlat pedagogika instituti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent, [**Отепбергенов Жеткербай Сакбергенович,** Нукусский государственный педагогический институт, доктор философии педагогических наук(PhD), доцент], [**Jetkerbay S. Otepbergenov**, Nukus State Pedagogical Institute, doctor of philosophy in pedagogical sciences, associate professor]; manzil: Qoraqalpog‘iston respublikasi, Nukus sh., P.Seytov ko'chasi [адрес: Республика Каракалпакстан, г. Нукус, ул. П. Сейтова], [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, P. Seytov street].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

TALABALARNING TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA DIAGNOSTIKASI

© Sh.Sh. Allamov[1]✉

[1]Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Urganch, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: Ushbu maqolada talabalar tanqidiy fikrlash qobiliyatini baholash indikatorlari va diagnostikasi masalalari tahlil qilinadi. Tanqidiy fikrlashning ta’lim jarayonidagi ahamiyati, uning shakllanish omillari va baholash mezonlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tanqidiy fikrlashni aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan diagnostik usullar va baholash tizimlari tahlil qilinadi.

MAQSAD: Ushbu tadqiqotimiz orqali biz talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha eng samarali usullarni ko‘rib chiqamiz va ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini yoritib beramiz.

MATERIALLAR VA METODLAR: mantiqiy mushohada yuritish qobiliyati ham tanqidiy fikrlash bahosining ajralmas qismi hisoblanadi. O‘z fikrlarini tizimli va tartibli ravishda bayon eta olmagan shaxslar, hatto to‘g‘ri xulosaga kelsalar ham, o‘z fikrlarini yetkazishda muammolarga duch kelishlari mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini baholashga doir turli tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu jarayon nafaqat talabalarning tafakkur darajasini o‘lchashga xizmat qiladi, balki ta’lim metodlarini takomillashtirish va natijadorlikni oshirish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

XULOSA: Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, tanqidiy fikrlash qobiliyatini baholash mezonlari va indikatorlari orqali talabalarning tafakkur darajasi aniq belgilab berilishi mumkin. Dunyo va O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlashning o‘rta va past darajasida bo‘lgan talabalar ulkan imkoniyatlarga ega bo‘lishsa-da, ularga zamonaviy pedagogik metodlar yordamida ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar zarur.

Kalit so'zlar: Tanqidiy fikrlash, indikatorlar, diagnostika, baholash mezonlari, interaktiv metodlar, ta’lim jarayoni, kompetensiya, kognitiv rivojlanish, fikrlash qobiliyati.

Iqtibos uchun: Allamov Sh.Sh. Talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini baholash indikatorlari va diagnostikasi. // Inter education & global study. 2025. №3 B.82-89.

ИНДИКАТОРЫ И ДИАГНОСТИКА СПОСОБНОСТИ СТУДЕНТОВ К КРИТИЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ

© Ш.Ш. Алламов[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

[1]Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни, Ургенч, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются показатели и диагностика оценки навыков критического мышления студентов. Рассматривается значение критического мышления в образовательном процессе, факторы его формирования и критерии оценки. Анализируются также диагностические методы и системы оценки, направленные на выявление и развитие критического мышления.

ЦЕЛЬ: в ходе данного исследования мы рассмотрим наиболее эффективные методы развития навыков критического мышления у учащихся и подчеркнем их важность в образовательном процессе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: способность делать логические наблюдения также является неотъемлемой частью оценки критического мышления. Люди, неспособные выражать свои мысли систематически и упорядоченно, могут испытывать трудности с передачей своих идей, даже если они приходят к правильному выводу.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: для оценки навыков критического мышления учащихся в современном образовании проводятся различные исследования. Этот процесс не только служит для измерения уровня мышления учащихся, но и важен для совершенствования методов обучения и повышения эффективности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: анализ показывает, что уровень мышления учащихся можно точно определить с помощью критериев и показателей оценки навыков критического мышления. Опыт мира и Узбекистана показывает, что, хотя учащиеся со средним и низким уровнем критического мышления имеют большой потенциал, им необходимы подходы, направленные на развитие этих навыков с использованием современных педагогических методов.

Ключевые слова: критическое мышление, индикаторы, диагностика, критерии оценки, интерактивные методы, образовательный процесс, компетентность, когнитивное развитие, мыслительные навыки.

Для цитирования: Алламов Ш.Ш. Индикаторы и диагностика способности студентов к критическому мышлению. // Inter education & global study. 2025. №3. С. 82-89.

INDICAORS AND DIAGNOSTICS OF STUDENTS' CRITICAL THINKING ABILITY

© Shavkat Sh. Allamov[1]✉
[1]Urgench State University named after Abu Raykhan Beruni, Urgench, Uzbekistan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

INTRODUCTION: this article analyzes the indicators and diagnostic issues of assessing students' critical thinking skills. The importance of critical thinking in the educational process, its formation factors and assessment criteria are considered. Diagnostic methods and assessment systems aimed at identifying and developing critical thinking are also analyzed.

AIM: through this study, we will consider the most effective methods for developing students' critical thinking skills and highlight their importance in the educational process.

MATERIALS AND METHODS: the ability to conduct logical observations is also an integral part of the assessment of critical thinking. Individuals who cannot express their thoughts systematically and systematically may have problems conveying their thoughts, even if they come to the right conclusion.

DISCUSSION AND RESULTS: various studies are being conducted to assess students' critical thinking skills in the modern educational process. This process not only serves to measure the level of students' thinking, but is also important for improving teaching methods and increasing effectiveness.

CONCLUSION: the analysis shows that the level of thinking of students can be accurately determined through the criteria and indicators for assessing critical thinking skills. The experience of the world and Uzbekistan shows that, although students with an average and low level of critical thinking have great potential, they need approaches aimed at developing these skills using modern pedagogical methods.

Key words: critical thinking, indicators, diagnostics, assessment criteria, interactive methods, educational process, competence, cognitive development, thinking skills.

For citation: Shavkat Sh. Allamov. (2025) 'Indicaors and diagnostics of students' critical thinking ability', Inter education & global study, (3), pp. 82-89. (In Uzbek).

Zamonaviy jamiyat tezkor o‘zgarishlar va globallashuv jarayonlari bilan ajralib turadi. Axborot oqimi kundan-kunga oshib borayotgan bir sharoitda, insonlarning muvaffaqiyat qozonishi faqatgina mavjud bilimlarni yodlash va qayta takrorlashga emas, balki tahlil qilish, solishtirish, muammolarni hal qilish qobiliyatiga bog‘liq. Aynan shu sababdan, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari ta’lim tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Tanqidiy fikrlash – bu insonning o‘z fikrlarini asoslangan holda bayon etishi, faktlar va dalillarni tahlil qilishi, qarama-qarshi nuqtai nazarlarni baholashi hamda mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyat nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki ilmiy izlanishlar va kasbiy faoliyatda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish nafaqat ularga ta’lim jarayonida muvaffaqiyat qozonish imkonini beradi, balki ularning hayotdagi dolzarb masalalarga ijodiy va samarali yondashishlariga ham xizmat qiladi.

Ammo tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladigan jarayon emas. Bu murakkab pedagogik faoliyat bo‘lib, unga ta’sir etuvchi ko‘plab omillar mavjud. Xo‘sh, talabalar tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega ekanligini qanday aniqlash mumkin? Qanday

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

diagnostik usullar yordamida ushbu ko‘nikmalar baholanadi? Ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlashni samarali rivojlantirish uchun qanday yondashuvlardan foydalanish lozim? Ushbu maqolada aynan shu savollarga javob berishga harakat qilamiz.

Tanqidiy fikrlash nafaqat ilmiy va akademik sohada, balki kundalik hayotda ham muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, ushbu qobiliyatni shakllantirish va baholash tizimini ilmiy asosda o‘rganish zamon talabidir. Ushbu tadqiqotimiz orqali biz talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha eng samarali usullarni ko‘rib chiqamiz va ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini yoritib beramiz.

Tanqidiy fikrlashni baholash mezonlari: Har qanday ta’lim jarayoni natijadorligini baholash bilan mustahkam bog‘liq. Ammo biz nimani, qanday va qaysi mezonlar asosida baholaymiz? Aynan tanqidiy fikrlash kabi murakkab kognitiv jarayonni o‘lchash yanada murakkab savollarni keltirib chiqaradi. Uni oddiy testlar yoki an’anaviy baholash tizimi orqali o‘lchash yetarli emas. Shuning uchun ham tanqidiy fikrlashni baholashda turli indikatorlardan foydalanish talab etiladi.

Tanqidiy fikrlashni baholashning eng asosiy mezonlaridan biri dalillarga asoslangan fikrlash qobiliyatidir. Talaba o‘z fikrlarini shunchaki bayon etishi yetarli emas, u o‘z qarashlarini asosli dalillar bilan mustahkamlashi, argumentlarni isbotlash uchun turli manbalarga tayanishi lozim. Har qanday bayonotning ishonchliligi uning manbalari va tahliliy yondashuvi bilan o‘lchanadi.

Ikkinchi muhim mezon – muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashuv**.** Tanqidiy fikrlovchi talaba oddiy faktlarni qayta so‘zlash bilan kifoyalanmaydi, balki muammolarga yechim topishga intiladi. U mavjud sharoit va ma’lumotlardan kelib chiqib, turli strategiyalarni ishlab chiqishi, muammolarni har xil rakurslardan ko‘rib chiqishi kerak.

Shuningdek, mantiqiy mushohada yuritish qobiliyati ham tanqidiy fikrlash bahosining ajralmas qismi hisoblanadi. O‘z fikrlarini tizimli va tartibli ravishda bayon eta olmagan shaxslar, hatto to‘g‘ri xulosaga kelsalar ham, o‘z fikrlarini yetkazishda muammolarga duch kelishlari mumkin. Shu bois, fikrlash jarayoni aniq tuzilishga ega bo‘lishi, sabab va natija o‘rtasidagi bog‘liqlik aniq ifodalanishi muhim.

Bundan tashqari, tanqidiy fikrlashni baholashda tahlil va sintez qilish qobiliyati alohida ahamiyatga ega. Talaba ma’lumotlarni chuqur tahlil qilishi, ularni boshqa ma’lumotlar bilan taqqoslashi va umumiy xulosa chiqarishi lozim. Fikrlarning keng qamrovli bo‘lishi va mustahkam dalillarga asoslanganligi uning intellektual darajasidan dalolat beradi.

Tanqidiy fikrlashni baholashda ochiq fikrlilik va neytrallik ham muhim mezonlardan biridir. O‘z nuqtai nazarini himoya qilish qobiliyati muhim bo‘lsa-da, boshqacha qarashlarni inkor etish, muqobil fikrlarga e’tiborsizlik qilish tanqidiy fikrlovchi shaxsga xos emas. Haqiqiy tanqidiy fikrlovchi inson har xil fikrlarni baholab, ularga obyektiv yondasha oladi va kerak bo‘lsa, o‘z qarashlarini ham qayta ko‘rib chiqishga tayyor bo‘ladi. Tanqidiy fikrlashni baholash oddiy jarayon emas. Bu aniq o‘lchov birliklariga ega bo‘lmagan, ko‘p jihatdan subyektiv elementlardan iborat bo‘lgan murakkab tizimdir. Shu sababli, uni baholashda bir nechta yondashuvlarni uyg‘unlashtirish, talabalarning fikrlash jarayonini turli burchaklardan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

tahlil qilish va eng asosiysi, ularning fikrlash darajasini rivojlantirishga xizmat qiladigan baholash tizimini joriy etish zarur. Axir, baholash faqatgina natijani belgilash uchun emas, balki rivojlanish sari yo‘naltiruvchi kuch bo‘lishi kerak.

Tanqidiy fikrlash qobiliyatini baholash bo‘yicha turli ilmiy manbalar, tadqiqotlar va pedagogik metodlar keng qamrovli yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan. Jahon ta’lim tizimida bu masala katta ahamiyatga ega bo‘lib, G. Paul va L. Elder[4; 79] kabi olimlar tanqidiy fikrlashning nazariy asoslarini va uni rivojlantirish strategiyalarini batafsil o‘rganganlar. Ularning tadqiqotlarida tanqidiy fikrlashning asosiy tamoyillari, ya’ni dalillar asosida xulosa chiqarish, mantiqiy tafakkur, ochiq fikrlilik va muammolarni tahlil qilish kabi jihatlar alohida ta’kidlangan.

Shuningdek, B. Beyer [1; 361] tanqidiy fikrlashni baholash mezonlariga bag‘ishlangan asarida, ushbu jarayonning ko‘p bosqichli va kompleks tusga ega ekanligini ko‘rsatgan. Uning fikricha, tanqidiy fikrlashni samarali baholash uchun faqat an’anaviy testlar yoki yozma ishlar yetarli emas, balki baholashda talabalarning muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashuvi, dalillar bilan ishlash qobiliyati va mustaqil xulosa chiqarish darajasi ham inobatga olinishi lozim.

O‘zbek va rus pedagogikasida ham tanqidiy fikrlash qobiliyatining rivojlanishi va baholash metodikasi bo‘yicha qator ilmiy ishlanmalar mavjud. Xususan, V.V. Davidov[2; 16] tanqidiy tafakkurning shakllanishida faol ta’lim usullarining o‘rni haqida tadqiqotlar olib borgan. Unga ko‘ra, talabaning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, rolli o‘yinlar, muammoli ta’lim va mustaqil tadqiqot usullaridan foydalanish lozim.

Shuningdek, O‘zbekiston pedagogika sohasidagi tadqiqotlar orasida M. Qurbonov[5; 94] tomonidan olib borilgan ishlar alohida ahamiyatga ega. Uning tadqiqotlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim metodlari va ularning samaradorligi tahlil qilingan. U o‘z ishlarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayonida amaliy topshiriqlar, loyihaviy faoliyat va muammoli savollar asosida baholash metodologiyasini ilgari surgan.

Shuningdek, P. Facione tomonidan ishlab chiqilgan "The Delphi Report"[3; 411] da tanqidiy fikrlashning asosiy tarkibiy qismlari va baholash indikatorlari aniqlangan. Unga ko‘ra, tanqidiy fikrlash quyidagi komponentlardan iborat: tushunish, tahlil qilish, baholash, dalillarni asoslash va muqobil fikrlarga ochiq bo‘lish. Bu mezonlar tanqidiy fikrlashni baholash tizimining nazariy asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi. Tanqidiy fikrlashni baholashga oid ilmiy adabiyotlar juda keng qamrovli bo‘lib, turli tadqiqotchilar bu jarayonni har xil burchaklardan o‘rganganlar. Ularning yondashuvlarida umumiy jihatlar mavjud bo‘lishi bilan birga, baholash usullari, indikatorlar va mezonlar bo‘yicha turli nazariy qarashlar ham mavjud. Shunday ekan, ushbu tadqiqotlar natijalari zamonaviy ta’lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va baholash tizimini yanada takomillashtirish uchun muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini baholashga doir turli tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu jarayon nafaqat talabalarning tafakkur darajasini o‘lchashga xizmat qiladi, balki ta’lim metodlarini takomillashtirish va natijadorlikni oshirish

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

uchun ham muhim ahamiyatga ega. Tanqidiy fikrlash qobiliyatini o‘lchashda ko‘pincha standart testlar, yozma topshiriqlar va muammoli vaziyatlar asosida amaliy baholash metodlaridan foydalaniladi.

Dunyo miqyosidagi tadqiqotlarga ko‘ra, tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega talabalar o‘z bilimlarini yaxshiroq o‘zlashtirishlari va muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatiga ega bo‘lishlari kuzatilgan. Masalan, Facione [3; 411] tomonidan olib borilgan tadqiqotda AQSh oliy ta’lim muassasalarida tanqidiy fikrlashni baholash natijalari tahlil qilingan va talabalarning atigi 25-30% qismi yuqori darajadagi tanqidiy tafakkurga ega ekanligi aniqlangan. Bu esa, talabalarning aksariyat qismi tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ehtiyoj sezayotganini ko‘rsatadi.

Rossiyada o‘tkazilgan tadqiqotlarda ham shunga o‘xshash tendensiya kuzatilgan. Davidov tadqiqotida universitet talabalarining tanqidiy fikrlash darajasi uch toifaga ajratilgan:

Yuqori daraja – 20%

O‘rta daraja – 50%

Past daraja – 30%

Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, talabalarning aksariyati tanqidiy tafakkurning o‘rta darajasiga ega bo‘lib, ularni rivojlantirish uchun maxsus pedagogik yondashuvlar talab etiladi.

O‘zbekistonda olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, talabalar orasida tanqidiy fikrlash qobiliyatining yetarlicha shakllanmaganligi kuzatilmoqda. M. Qurbonov[5; 94] tomonidan o‘tkazilgan tajriba asosida 300 nafar talaba orasida tanqidiy fikrlashning asosiy indikatorlari baholangan. Natijalar quyidagicha taqsimlangan:

tahliliy tafakkur qobiliyati: 40% talabada o‘rtacha darajada:

dalillarga asoslanish: 35% talabada yetarli emas:

ijodiy yondashuv va muammoli fikrlash: 25% talabada yuqori darajada.

Bu esa, talabalarning aksariyatida tanqidiy tafakkur yetarli darajada rivojlanmaganini va uni shakllantirishga qaratilgan aniq metodlar zarurligini ko‘rsatadi.

Baholash darajalari va ularning ta’lim tizimidagi o‘rni. Tanqidiy fikrlash qobiliyatini baholash uchta asosiy daraja bo‘yicha o‘rganiladi:

Yuqori daraja – Talaba tahliliy fikrlash, dalillarni solishtirish, turli nuqtai nazarlarni baholash va xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega. Bunday talabalar ko‘proq ijodiy yondashuvga ega bo‘lib, o‘z bilimlarini hayotiy muammolarni hal qilishga qo‘llay oladi.

O‘rta daraja – Talaba ma’lum darajada tahlil qila oladi, ammo mustaqil xulosa chiqarishda qiyinchilik sezadi. U o‘z fikrini bayon etishda yetarli asoslarga ega bo‘lmaydi yoki turli manbalarni to‘liq solishtira olmaydi.

Past daraja – Talaba faktlarni yodlash yoki shaxsiy fikrini ifodalash bilan cheklanadi, lekin dalillar asosida tahlil qilish va muammolarni hal qilishda sustlik seziladi.

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga oid strategiyalarni ishlab chiqish zarurati mavjud. Interaktiv metodlar, muammoli ta’lim, bahs-

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

munozaralar va mustaqil tadqiqotlarga asoslangan o‘quv dasturlarini joriy qilish orqali talabalarning tanqidiy tafakkurini yuqori darajaga ko‘tarish mumkin.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, tanqidiy fikrlash qobiliyatini baholash mezonlari va indikatorlari orqali talabalarning tafakkur darajasi aniq belgilab berilishi mumkin. Dunyo va O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlashning o‘rta va past darajasida bo‘lgan talabalar ulkan imkoniyatlarga ega bo‘lishsa-da, ularga zamonaviy pedagogik metodlar yordamida ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlar zarur. Shunday ekan, baholash natijalari ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim uslublarini modernizatsiya qilish va talabalarning intellektual rivojlanishiga ko‘proq e’tibor qaratish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Tanqidiy fikrlash qobiliyatini baholash va rivojlantirish nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, balki jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi muhim omil bo‘lib, statistik tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, talabalar orasida tanqidiy fikrlash darajasi turlicha bo‘lib, uni baholash indikatorlari asosida aniq mezonlar bilan o‘lchash va o‘quv jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy qilish orqali talabalar tafakkurini tahliliy va ijodiy yondashuv sari yo‘naltirish ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Beyer, B. K. (1995). Critical Thinking. Bloomington, IN: Phi Delta Kappa Educational Foundation.
2. Davydov, V. V. (1996). Teoriya razvivayushchego obucheniya. Moscow: Intor.
3. Facione, P. A. (1990). Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction (The Delphi Report). California: The California Academic Press.
4. Paul, R., & Elder, L. (2002). Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall.
5. M. Qurbonov. (2015). Tanqidiy fikrlash va pedagogik innovatsiyalar: O‘quv jarayonida tanqidiy tafakkurni rivojlantirish texnologiyalari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
6. Tsai, C. C. (2001). Probing Students’ Constructivist Epistemological Beliefs on Learning Science: A Critical Review. International Journal of Science Education, 23(3), 245-262.
7. Khudoynazarov, E. (2023). Boshlang ‘ich ta’limda mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning ahamiyati. Молодые ученые, 1(13), 32-37.
8. Khudoynazarov, D. (2022). Issues of introducing digital technologies into the activities of courts. The American Journal of Political Science Law and Criminology, 4(01), 1-6.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Allamov Shavkat Sharipovich,** Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti doktoranti [**Алламов Шавкат Шарипович,** Докторант Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни], [**Shavkat Sh. Allamov,** doctoral student at Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni]; manzil: O'zbekiston, Urganch sh., Gurlan ko'chasi, 1A-uy [адрес: Узбекистан, Ургенч, ул. Гурлан, 1A], [address: Uzbekistan, 1A, Gurlan st., Urgench city].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

INFORMATIKA FANINI KAHOOT PLATFORMASI ORQALI O‘QITISH METODIKASI

© N. N. Zaripov[1]✉, F.B. Bafoyeva[2]✉
[1,2] Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqola informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda Kahoot platformasidan foydalanish metodikasi, o‘quvchilarni Kahoot platformasi orqali bilim, ko’nikma va malakalarini rivojlantirish, ularning bilim olishga bo’lgan qiziqishlarini rag’batlantirish va reytingini aniqlash masalalari o‘rin olgan.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi Kahoot platformasidan dars jarayonida foydalanish metodikasini ishlab chiqish hamda gamifikatsiya elementlari yordamida informatika ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttirishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida pedagogik tajribalar, Kahoot platformasi bilan ishlashga oid metodik materiallar, ilmiy maqolalar va dars jarayonida qo‘llanilgan innovatsion usullar tahlil qilindi. Eksperimental tadqiqotlar va amaliy mashg‘ulotlar yordamida Kahoot platformasidan foydalanish natijalari o‘rganildi. O‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash uchun test sinovlari va kuzatuv, metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalarini aniqlash maqsadida matematik statistik tahlil amalga oshirildi. Ushbu metodika nafaqat informatika o‘qituvchilari, balki boshqa fanlar bo‘yicha interaktiv ta’lim usullarini joriy etmoqchi bo‘lgan pedagoglar uchun ham foydalidir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, dars jarayonida Kahoot platformasidan foydalanish o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishiga, kompyuter hamda axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga va mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Kahoot platformasini interfaol va amaliy yondashuv asosida qo‘llash orqali o‘quvchilarning qiziqishi va motivatsiyasi oshgani kuzatildi.

XULOSA: tadqiqot natijalariga ko‘ra, interaktiv o‘qitish yondashuvi o‘quvchilarni darsga jalb qilish, bilimlarni mustahkamlash va ularda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi aniqlandi. Tadqiqot natijalari informatika fani bo‘yicha ta’lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish, o‘qitish samaradorligini oshirish va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Kahoot platformasi, onlayn ta’lim, dastur, dasturlash, virtual borliq, QR code, interfaol ta’lim.

Iqtibos uchun:Nozimbek Z., Feruza B. Informatika fanini kahoot platformasi orqali o‘qitish metodikasi // Inter education & global study 2025. №3 B.90-99.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ИНФОРМАТИКИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПЛАТФОРМЫ KAHOOT

© Н.Н. Зарипов[1]✉, Ф.Б. Бафоева[2]✉
[1,2] Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается методика использования платформы Kahoot в обучении информатике и информационным технологиям, развитие знаний, умений и компетенций учащихся посредством платформы Kahoot, стимулирование их интереса к обучению, определение их рейтинга.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования разработка методики использования платформы Kahoot на уроках, а также повышение эффективности процесса обучения информатике и повышение интереса учащихся к предмету с использованием элементов геймификации.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования анализировались педагогический опыт, методические материалы по работе с платформой Kahoot, научные статьи, а также инновационные методы, используемые в учебном процессе. Результаты использования платформы Kahoot изучались посредством экспериментальных исследований и практических занятий. Для определения уровня знаний студентов использовались методы тестирования и наблюдения. Для определения результатов исследования был проведен математико-статистический анализ. Данная методика полезна не только учителям информатики, но и педагогам, желающим внедрить интерактивные методы обучения в другие предметы.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что использование платформы Kahoot во время урока помогает учащимся лучше понять предмет, развить компьютерные и информационные навыки, а также повысить способность самостоятельно мыслить. Было отмечено, что интерес и мотивация студентов возросли при использовании платформы Kahoot в интерактивном и практическом подходе.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: по результатам исследования установлено, что интерактивный подход к обучению способствует вовлечению учащихся в процесс урока, закреплению знаний, развитию навыков самостоятельного мышления. Результаты исследования имеют практическое значение для обогащения образовательного процесса по информатике современными технологиями, повышения эффективности обучения, разработки инновационных подходов.

Ключевые слова: Платформа Kahoot, онлайн-образование, программное обеспечение, программирование, виртуальная реальность, QR-код, интерактивное образование.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Для цитирования:. Зарипов Н.Н., Бафоева Ф.Б. Методика преподавания информатики с использованием платформы kahoot // Inter education & global study. 2025. №3. С. 90-99.

METHODOLOGY FOR TEACHING COMPUTER SCIENCE THROUGH THE KAHOOT PLATFORM

© Nozimbek N. Zaripov[1]✉, Feruza B. Bafoyeva[2]✉
[1,2] Bukhara State Pedagogical Institute , Bukhara, Uzbekistan

Annatation

INTRODUCTION: the article discusses the methodology for using the Kahoot platform in teaching computer science and information technology, the development of students' knowledge, skills and competencies through the Kahoot platform, the stimulation of their interest in learning, and the determination of their rating.

AIM: The main goal of the research is to develop a methodology for using the Kahoot platform in the classroom and to increase the effectiveness of the computer science education process and increase students' interest in the subject using gamification elements.

MATERIALS AND METHODS: during the research, pedagogical experiments, methodological materials on working with the Kahoot platform, scientific articles, and innovative methods used in the lesson were analyzed. The results of using the Kahoot platform were studied using experimental research and practical exercises. Tests and observation methods were used to determine the level of knowledge of students. Mathematical statistical analysis was carried out to determine the results of the research. This methodology is useful not only for computer science teachers, but also for teachers who want to introduce interactive teaching methods in other subjects.

DISCUSSION AND RESULTS: the results of the study showed that using the Kahoot platform in the classroom helps students to better understand the subject, develop computer and information skills, and increase their ability to think independently. It was observed that using the Kahoot platform based on an interactive and practical approach increased students' interest and motivation.

CONCLUSION: According to the results of the study, it was found that the interactive teaching approach helps to engage students in the lesson, consolidate knowledge, and develop independent thinking skills. The results of the study have practical significance for enriching the educational process in computer science with modern technologies, increasing teaching efficiency, and developing innovative approaches.

Key words: Kahoot platform, online education, software, programming, virtual reality, QR code, interactive education.

For citation: Nozimbek N. Zaripov, Feruza B. Bafoyeva (2025) “Methodology for teaching computer science through the kahoot platform”, Inter education & global study, (3), pp. 90-99. (In Uzbek).

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishdir. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan hozirgi davrda an’anaviy o‘qitish metodlarini interaktiv va innovatsion yondashuvlar bilan boyitish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, informatika fanini o‘qitishda zamonaviy platformalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish mumkin. Kahoot platformasi ta’lim jarayonida gamifikatsiya elementlaridan foydalangan holda interaktiv dars tashkil etish imkonini beruvchi vosita hisoblanadi. Ushbu platforma o‘quvchilarning darsga bo‘lgan faolligini oshirish, ularda tezkor fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ayniqsa, informatika fanida Kahoot platformasidan foydalanish orqali dasturlash, algoritmlar, ma’lumotlar bazalari, kompyuter tarmoqlari kabi mavzularni o‘rgatish yanada samarali hisoblanadi.

Hozirgi kunda respublikamizda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ko‘plab umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalarida interaktiv ta’lim vositalaridan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilmoqda. Shu sababli, Kahoot platformasidan foydalanish metodikasini ishlab chiqish va uning informatika fanini o‘qitishdagi o‘rnini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida platformaning afzalliklari, kamchiliklari va uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuning bilan birgalikda, an’anaviy va interaktiv o‘qitish metodlarining solishtirma tahlili olib boriladi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida dars jarayonini interaktivlashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. Xususan, informatika fanini o’qitishda turli o’yinlashtirilgan ta’lim platformalaridan foydalanish samaradorlikni oshirishi mumkin. Shunday vositalardan biri – Kahoot platformasi bo’lib, u test, viktorina va o’yin elementlari orqali dars jarayonini jonlantirish imkonini beradi. Kahoot yordamida o’quvchilar dars davomida faol ishtirok etib, bilimlarini sinash va mustahkamlash imkoniyatiga ega bo’ladilar. Shuningdek, ushbu platforma ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali qilish orqali darsga bo’lgan motivatsiyani oshirishga xizmat qiladi.

Wang, A. I., Tahir, R. (2020) tadqiqotlarida Kahoot platformasining ta’lim jarayoniga ta’sirini tahlil qilingan. Tadqiqotchilar interaktiv viktorinalar o‘quvchilarni faollashtirishi, ularda raqobat va qiziqish uyg‘otishi haqida fikr bildirgan. Informatika fanida ushbu platforma algoritmik tafakkurni rivojlantirish va dasturlash asoslarini mustahkamlash uchun foydaligi isbotlangan [4]. Licorish, S. A., Owen, H. E., Daniel, B., George, J. L. (2018). “Students’ perception of Kahoot!’s influence on teaching and learning” nomli maqolada o‘quvchilar Kahoot orqali o‘qitish samaradorligini baholagan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gamifikatsiya o‘quv jarayoniga ijobiy ta’sir qiladi va motivatsiyani oshiradi. Informatika fanida bu, ayniqsa, dasturiy kodlar, algoritmlar va tarmoqlarni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlangan [3]. Plump, C. M., LaRosa, J. (2017). "Using Kahoot! in the classroom to create engagement and active learning” nomli maqolasida interaktiv o‘qitish texnologiyalari, jumladan, Kahoot platformasi yordamida bilimlarni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

mustahkamlash usullariga bag‘ishlangan. Informatika darslarida ushbu yondashuv sinfdagi ishtirokni oshirish, testlar orqali aniqlangan bilim bo‘shliqlarini to‘ldirish va o‘quvchilar o‘zaro o‘yin orqali o‘rganish samaradorligini oshirishga yordam berishi ta’kidlangan [2].

Informatika fani o’quvchilarning mantiqiy va algoritmik fikrlashini shakllantirishga yo’naltirilgan bo’lib, bunda interaktiv usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Kahoot platformasining test va o’yin formatidagi savollari orqali o’quvchilar bilimlarini real vaqtda sinab ko’rishlari, xatolarini tahlil qilishlari va o’zlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirishlari mumkin.

Kahoot platformasining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

O’yin formatida taqdim etish – dars jarayoni zerikarli bo’lib qolmasligi uchun gamifikatsiya elementlaridan foydalanish. Ushbu metod o’quvchilarning darsga bo’lgan e’tiborini oshirish bilan birga, ularni faol ishtirok etishga rag’batlantiradi.

Real vaqtda javoblarni baholash – o’qituvchi har bir o’quvchining natijalarini kuzatib borishi va tahlil qilishi mumkin. Bu esa ta’lim jarayonini moslashtirish va individual yondashuvni shakllantirish imkonini beradi.

Raqobat muhitini yaratish – o’quvchilar bellashish orqali bilimlarini mustahkamlashadi. Raqobat elementi motivatsiyani oshirish bilan birga, bilimlarni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Mobil va kompyuter mosligi – har qanday qurilmadan foydalanish imkoniyati mavjud. O’quvchilar planshet, smartfon yoki kompyuter orqali platformaga ulanishlari va interaktiv testlarda ishtirok etishlari mumkin. Kreativ kontent yaratish imkoniyati – o’qituvchilar mavzuga mos ravishda turli xil formatdagi savollar (test, rasm asosidagi savollar, juftliklarni topish va boshqalar) yaratishlari mumkin [5]. Natijalarni saqlash va tahlil qilish – o’qituvchilar har bir test natijalarini saqlab, keyinchalik ularni tahlil qilish orqali o’quvchilarning o’zlashtirish darajasini baholashlari mumkin.

Informatika fanida kahootdan foydalanish samaradorligini quyidagilarda ko’rish mumkin:

Darsni boshlashda bilimlarni faollashtirish: darsning boshida o’quvchilarni mavzuga jalb qilish va ularning mavjud bilimlarini faollashtirish uchun qisqa test yoki viktorinalardan foydalanish mumkin. Masalan, oldingi darslarda o’tilgan mavzular bo’yicha testlar tuzish orqali o’quvchilarning eslab qolish qobiliyatini tekshirish va mustahkamlash. Yangi mavzuni tushuntirish jarayonida: yangi mavzu bo’yicha interaktiv savollar yaratish va ularni Kahoot orqali taqdim etish. Masalan, dasturlash tillari sintaksisi bo’yicha tezkor savollar berish orqali mavzuni yanada tushunarli va qiziqarli qilish. O’quvchilarga yangi tushunchalarni anglashga yordam berish maqsadida vizual materiallar (rasmlar, grafiklar) asosida testlar tuzish [6]. Darsni yakunlash va bilimlarni mustahkamlash: o’quvchilar dars davomida o’rgangan bilimlarini tekshirish uchun yakuniy viktorina tashkil etish. Dars yakunida o’quvchilar o’rtasida do’stona raqobat muhitini yaratish orqali ularning bilimlarini yanada mustahkamlash. O’quvchilarning javoblarini real vaqtda kuzatib borish va umumiy natijalarga ko’ra tahlil qilish.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Kahoot platformasida o'yin yaratish uchun quyidagi bosqichlarni amalga oshirish mumkin: yangi o'yin yaratish: kahoot platformasida ro'yxatdan o'tish: kahoot.com saytiga kirish orqali, yangi hisob yaratiladi. agar oldin ro'yxatdan o'tilgan bo'lsa mavjud hisobga kiriladi; o'yin savollari va topshiriqlarini tayyorlash: "create" - yaratish tugmasini bosish orqali, yangi kahoot oynasini yarating; savollar va topshiriqlarni hamda javob variantlarini qo'shing. javob variantlaridan to'g'ri javobni belgilang; savollarni har kim o'zi istagan formatda (multiple choice, true/false va boshqalar) tayyorlashi mumkin; o'yin parametrlarini sozlash: o'yinga nom bering va qisqacha tavsifini kiriting; o'yinning vaqti chegarasi davomiyligi va boshqa parametrlarni belgilang; o'yinga start berish: o'yinni boshlasnmasdan oldinroq, o'quvchilarni o'yin bilan tanishtiring, ularga shartlarni tushuntiring. o'quvchilar smartfon, planshet yoki kompyuterlar yordamida kahoot.it platformasiga kirishi va berilgan kod yordamida o'yinga qatnashishlari mumkin.

O'yin Jarayoni: o'quvchilarni o'yinga taklif qilish: o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan QR kod yoki o'yin kodi beriladi, o'yinda ishtirok etmoqchi bo'lgan ishtirokchilar bu kod orqali o'yinga qo'shilishi mumkin; savollarni ko'rsatish: o'quvchiga har bir savolni monitor orqali ko'rsatib bering va o'quvchilar javob berishi uchun vaqt bering; sinov natijalarini bilish: har safar berilgan javoblarning to'g'ri yoki xatoligini ko'rsatib boring, bu o'quvchilar orasida raqobatini kuchaytiradi.

Ishtirokchilarni rag'batlantirish: ball berish orqali rag'batlantirish: har bir to'g'ri javob uchun ma'lum bir ball beriladi, o'yin oxirida esa yig'ilgan ballar qo'shilib eng ko'p ball to'plagan o'quvchilar g'olib deb e'lon qilinadi; mukofotlar taqdim etish: eng yuqori ballarni qo'lga kiritgan o'quvchilarga mukofotlar (kitob, sertifikatlar, o'quv qurollari, shirinliklar yoki boshqa sovg'alar) beriladi; qiziqarli mavzularni tanlash: o'yin mavzulari qanchalik qiziqarli bo'lsa o'yin ham shunchalik zavqli bo'ladi; guruhlarga bo'lib ishlash: o'quvchilarni guruhlarga bo'lish orqali, ularni hamkorlikda ishlashga o'rgatish; o'yin haqida o'quvchilarning fikrlarini bilish: o'yin tugagandan so'ng o'quvchilar fikrlari bilan tarnishing, bu kelgusi o'yinlarni yanada qiziqarli qilishingiz uchun kerak bo'ladi. Kahoot platformasi yordamida o'quv jarayonini yanada maroqli, qiziqarli va zavqli qilish mumkin.

Kahoot platformasi orqali darslarni tashkil etishda quyidagi samarali natijalarga erishiladi (1-jadval).

1-jadval

Kahoot platformasidan foydalanish orqali dars samaradorligini oshirish

Imkoniyatlar	Tavsif
Darsga bo‘lgan qiziqishni oshirish	Interaktiv va qiziqarli testlar yordamida o‘quvchilarni darsga jalb qilish
Talabalar faolligini oshirish	O‘yin elementi orqali o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undash
Real vaqtda tahlil qilish	O‘quvchilarning bilim darajasini aniq baholash va qaysi mavzularda qiynalayotganini aniqlash
Mustaqil o‘rganish va baholash	O‘quvchilarga testlarni mustaqil ravishda bajarish imkoniyatini yaratish
Qayta aloqa va rag‘batlantirish	O‘quvchilarga natijalarga qarab darhol fikr-mulohaza berish
Gamifikatsiya orqali motivatsiyani oshirish	Reyting tizimi va mukofotlar yordamida o‘quvchilarni rag‘batlantirish


ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Kahoot veb-sahifasiga https://kahoot.com ushbu havola orqali kirish mumkin [8]. Platformaga kirishda avvalo ro‘yxatdan o’tib, account turini tanlash lozim. Ro‘yxatdan o’tib tizimga o‘qituvchi yoki o‘quvchi Kahoot platformasiga kirish uchun rasmiy veb-saytga tashrif buyurishi kerak (1-rasm). Ro‘yxatdan o‘tgan har bir foydalanuvchi o‘z akkauntlariga kirishlari mumkin.



1-rasm. Kahoot.com veb sayt bosh sahifa oynasi

Ro‘yxatdan o‘tib vaqtida elektron pochta va kod kiritiladi hamda account yaratiladi (2-rasm).



2-rasm. Account turini tanlash oynasi.

O‘qituvchi yangi test (quiz) yaratishda Kahoot test yaratish interfeysi (savollar qo‘shish oynasi)dan "Create" tugmasini tanlab savollar, javob variantlari, rasm yoki video materiallarni qo‘shishi mumkin (3-rasm).



3-rasm. Savol va topshiriqlarni yaratish oynasi.

Tizim tomonidan berilgan maxsus kod orqali o‘quvchilar testlar bajaradilar. Maxsus PIN-kod o‘qituvchi profilidan taqdim etiladi (4-rasm).

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3




4-rasm. O‘quvchilar uchun maxsus PIN-kod olish oynasi

O‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan testlarga o‘quvchilar smartfon yoki kompyuter orqali savollarga javob beradilar. Test davomida har bir savol ekranda hosil bo‘ladi va o‘quvchilar to‘g‘ri javobni tanlab, belgilashlari kerak (5-rasm). Har bir savol uchun ma’lum vaqt belgilanadi.



5-rasm. Test oynasining umumiy tuzilishi

Test yakunida natijalarni tahlil qilish va qayta ko‘rib chiqish mumkin. Test uchun ajratilgan vaqt tugagandan so‘ng o‘qituvchi umumiy natijalarni tahlil qilib, o‘quvchilarning bilim darajasini baholash mumkin. Liderlar jadvali eng yaxshi natijaga erishgan o‘quvchilar nomini ko‘rsatadi (6-rasm).



6-rasm. Test natijalari va liderlar jadvali oynasi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Tadqiqot davomida o‘quvchilarning bilimlarini aniqlash va baholash uchun dars oldidan va darsdan keyin diagnostik testlar o‘tkazildi, dars jarayonida o‘quvchilarning faolligi va ishtiroki kuzatildi, dars yakunida o‘quvchilardan so‘rovnomalar va fikr-mulohazalar o‘rganildi hamda statistik tahlil olib borildi. Statistik tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, Kahoot platformasidan foydalanish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilgan (2-jadval).

2-jadval

Kahoot platformasidan foydalanish ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	An’anaviy darslar (%)	Kahoot orqali darslar (%)	O‘sish darajasi (%)
O‘quvchilarning faolligi	55	85	+30
O‘zlashtirish darajasi	60	88	+28
Darsga qiziqish ko‘rsatkichi	50	83	+33
O‘quvchilarning baholarining o‘rtacha ko‘rsatkichi	3.5	4.2	+20

Kahoot platformasining ta’limga ijobiy ta’sirini quyidagilarda ko’rish mumkin.

Qiziqishni oshiradi – o’yin elementlari o’quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, bu esa ularning darsga bo’lgan e’tiborini oshirishga yordam beradi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi – interaktiv testlar orqali o’quvchilar muammolarni hal qilish ko’nikmalarini mustahkamlashlari mumkin.

O’quvchilarning faolligini oshiradi – dars jarayonida barcha ishtirokchilar teng imkoniyatga ega bo’ladi va har bir o’quvchi o’z bilimlarini baholash imkoniyatiga ega bo’ladi.

Shaxsiylashtirilgan ta’lim imkoniyatini ta’minlaydi – o’qituvchilar o’quvchilarning natijalarini kuzatib, ularga individual maslahatlar berishlari mumkin.

Jamoaviy ishlash ko’nikmalarini shakllantiradi – Kahoot yordamida guruhli testlar o’tkazish orqali o’quvchilar o’zaro hamkorlik qilishni o’rganadilar.

Kahoot platformasidan foydalanish informatika fanini o’qitishda samarali metodlardan biri hisoblanadi. U o’quvchilarning darsga bo’lgan qiziqishini oshirib, bilimlarni mustahkamlash va tezkor fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, Kahoot ta’lim jarayonini interaktiv va samarali tashkil etish, o’qituvchilar uchun esa o’quvchilarning bilimlarini real vaqtda kuzatib borish imkoniyatini taqdim etadi. Natijada, ta’lim samaradorligi oshadi, o’quvchilar uchun dars jarayoni yanada qiziqarli va tushunarli bo‘lishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI |СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ |REFERENCES

1. Wang, A. I. "The wear-out effect of a game-based student response system." Computers & Education, 82, 2015. 217-227.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

2. Plump, C. M., LaRosa, J. (2017). "Using Kahoot! in the classroom to create engagement and active learning: A game-based technology solution for eLearning novices." Management Teaching Review, 2(2), 151-158.
3. Licorish, S. A., Owen, H. E., Daniel, B., & George, J. L. "Students' perception of Kahoot!'s influence on teaching and learning." Research and Practice in Technology Enhanced Learning, 13(1), 2018. 1-23.
4. Wang, A. I., & Tahir, R. "The effect of using Kahoot! for learning – A literature review." Computers & Education, 149, 2020, 10-18.
5. Kapp, K. M. The Gamification of Learning and Instruction: Game-based Methods and Strategies for Training and Education. Pfeiffer. 2012. 23-28.
6. Gros, B. Digital Games in Education: The Design of Games-Based Learning Environments. Bloomsbury Publishing. 2015. 123 p.
7. McGonigal, J. Reality is Broken: Why Games Make Us Better and How They Can Change the World. Penguin Press. 2011. 64-71.
8. Kahoot rasmiy veb-sayti: https://kahoot.com

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Zaripov Nozimbek Nayimovich,** Buxoro davlat pedagogika instituti doktoranti (DSc), p.f.f.d. (PhD)., dotsent, [**Зарипов Нозимбек Найимович,** Докторант (DSc) Бухарского государственного педагогического института, д.ф.п.н. (PhD)., доцент], [**Nozimbek N. Zaripov,** Bukhara State Pedagogical Institute Doctoral student (DSc), Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate professor]; Manzil: Buxoro shahar Piridastgir ko'chasi 2-uy, [Адрес: Бухара, улица Пиридастгир, дом 2], [Address: 2 Piridastgir Street, Bukhara City]; E-mail: nozimbekzaripov@gmail.com.

✉**Bafoyeva Feruza Baxodir qizi,** Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi, [**Бафоева Феруза Баходировна,** Студентка Бухарского государственного педагогического института], [**Feruza B. Bafoyeva,** Student of Bukhara State Pedagogical Institute]; Manzil: Buxoro shahar Piridastgir ko'chasi 2-uy, [Адрес: Бухара, улица Пиридастгир, дом 2], [Address: 2 Piridastgir Street, Bukhara City].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

FAROVON HAYOT: MAMLAKAT TARAQQIYOTINING ASOSIY MEZONI

© R.T. Xasanov[1]✉

[1]“Milliy tiklanish”demokratik partiyasi, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada farovonlik xalqimizning azaliy maqsadi, mamlakat taraqqiyotining mezoni ekani o‘z ifodasini topgan. Aholi farovonligini oshirish davlat ijtimoiyiqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezonlari sifatida yoritib berilgan. Aholi farovonligi va taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarish ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadi ekani haqida fikr yuritilgan.

MAQSAD: maqolaning maqsadi aholining farovonlik darajasini ifodalash uchun uning “turmush darajasi”, “xalq farovonligi” va boshqa shu kabi turli tushunchalar qo‘llanilgan. O‘zbekistonda aholini moddiy, ma’naviy, ijtimoiy ehtiyojlarini qondirilish darajasi nstitusional taqqoslangan, istiqbolli fikrlar, mulohazalar, hamda takliflar berilgan

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda jarayonida farovon hayotning ijtimoiy hayotdagi muhim ahamiyati, uning metodlariga oid ilmiy va metodik adabiyotlar tahlil qilindi.Shuningdek farovon hayot tushunchasini o’rgangan chet ellik qolimlarning qarshlari asosida tahlil etilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki farovonlik -bu shaxsning yoki jamiyatning yashash sifati, undan bahramand bo‘lish imkoniyatlari, barqaror iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanish darajasi bilan o‘lchanadi. Bugungi kunda farovon hayot faqat moddiy farovonlikka asoslanib qolmay, balki insonning ma'naviy va ruhiy ehtiyojlarini qondirishda ham alohidaahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun, farovon hayot mazmuni keng va murakkab bo‘lib, uning shakllanishi ko‘plab ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillarga bog‘liqdir.

XULOSA: farovon hayotning asosiy omillari sifatida jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, xavfsizlik, tenglik va ma'naviy erkinlikni ta'minlash zarurligi talabetiladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, farovon hayot nafaqat iqtisodiy o‘sish yoki baxtni ta'minlash, balki ijtimoiy tenglik, ekologik barqarorlik, ma'naviy rivojlanish va madaniy qadriyatlarni hurmat qilish orqali shakllanadi. Bu esa, nafaqat shaxsiy baxtni, balki jamiyatdagi umumiy barqarorlik va rivojlanishni ta'minlaydi. Farovon hayotga erishish uchun davlatlar va jamiyatlar birgalikda ishlashlari, resurslarni samarali taqsimlashlari va barcha qatlamlar uchun teng imkoniyatlar yaratishlari zarur.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Kalit so'zlar: moddiy farovonlik, farovon hayot, me'zon, ijtimoiy barqarorlik,iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy adolat,madaniy rivojlanish,kambag'al, xalq, turmush tarzi, Xitoy metodi, aholi jon boshi, yalpi ichki mahsulot, ijtimoiy ehtiyoj, ilmiy-texnik taraqqiyot.

Iqtibos uchun Xasanov: R.T. Farovon hayot: mamlakat taraqqiyotining asosiy mezoni // Inter education & global study. 2025. №3 B.100-107.

БЛАГОСОСТОЯНИЕ ЖИЗНИ: ОСНОВНЫЕ КРИТЕРИИ РАЗВИТИЯ СТРАНЫ

© Р.Т. Хасанов[1]✉
[1]Демократическая партия «Национальное возрождение», Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье выражено, что процветание – это вечная цель нашего народа, критерий развития страны. Повышение благосостояния населения выделено как важнейший критерий оценки эффективности социально-экономической политики государства. Считается, что повышение благосостояния и развития населения на новый уровень является основной целью общественного развития.

ЦЕЛЬ: выразить уровень благосостояния населения, используются его «уровень жизни», «благополучие народа» и другие подобные понятия. Институционально сопоставлен уровень удовлетворения материальных, духовных и социальных потребностей населения в Узбекистане, даны перспективные мнения, комментарии и предложения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования проанализировано важное значение благополучной жизни в общественной жизни, научно-методическая литература по ее методам.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты анализа показали, что благополучие измеряется качеством жизни человека или общества, возможностями наслаждаться ею, уровнем устойчивого экономического, социального и духовного развития. Сегодня благополучная жизнь основана не только на материальном благополучии, но важно также удовлетворение духовных и духовных потребностей человека. Поэтому содержание благополучной жизни широко и сложно, а его формирование зависит от многих социальных, экономических и культурных факторов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: необходимость обеспечения социальной стабильности, безопасности, равенства и моральной свободы в обществе требуется как основные факторы благополучной жизни. Следует подчеркнуть, что благополучная жизнь формируется не только через экономический рост или обеспечение счастья, но и через социальное равенство, экологическую устойчивость, духовное развитие и уважение к культурным ценностям. Это обеспечивает не только личное счастье, но и общую стабильность и развитие в обществе. Чтобы добиться процветающей

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

жизни, государства и общества должны работать вместе, эффективно распределять ресурсы и создавать равные возможности для всех.

Ключевые слова: процветание, комфортная жизнь, критерий, социальная стабильность, экономическая стабильность, социальная справедливость, культурное развитие, бедные, народ, образ жизни, китайский метод, на душу населения, валовой внутренний продукт, социальная потребность, научно-техническое развитие.

Для цитирования: Хасанов Р.Т. Благосостояние жизни: основные критерии развития страны // Inter education & global study. 2025. №3. С. 100-107.

A PROSPEROUS LIFE: THE MAIN CRITERIA OF A COUNTRY'S DEVELOPMENT

© Rajabboy T. Xasanov[1]✉
[1]"Milliy Tiklanish" Democratic Party, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article reflects the fact that prosperity is the eternal goal of our people, the criterion of the country's development. Increasing the well-being of the population is highlighted as the most important criterion for assessing the effectiveness of state socio-economic policy. It is argued that raising the well-being and development of the population to a new level is the main goal of social development.

AIM: the purpose of the article is to express the level of well-being of the population, using various concepts such as "standard of living", "people's well-being" and others. The level of satisfaction of the material, spiritual, and social needs of the population in Uzbekistan is institutionally compared, promising ideas, comments, and suggestions are given.

MATERIALS AND METHODS: during the research, the scientific and methodological literature on the importance of a prosperous life in social life and its methods was analyzed. It was also analyzed based on the contributions of foreign authors who studied the concept of a prosperous life.

DISCUSSION AND RESULTS: the results of the analysis showed that well-being is measured by the quality of life of an individual or society, the opportunities to enjoy it, and the level of sustainable economic, social and spiritual development. Today, a well-being is not only based on material well-being, but also has a special importance in satisfying the spiritual and spiritual needs of a person. Therefore, the content of a well-being is broad and complex, and its formation depends on many social, economic and cultural factors.

CONCLUSION: the development of leadership and innovation skills among medical students is an integral part of modern education. The approaches presented in this article positively impact not only students' professional growth but also their competitiveness in the labor market.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Keywords: prosperity, prosperous life, standard, social stability, economic stability, social justice, cultural development, poor, people, lifestyle, Chinese method, per capita population, gross domestic product, social need, scientific and technological progress.

For citation: Rajabboy T. Xasanov. (2025) 'A prosperous life: the main criteria of a country's development', Inter education & global study, (3), pp. 100-107. (In Uzbek).

O'zbek xalqi qadim-qadimdan yaxshi niyat, halol mehnat bilan farovon hayot kechirishga odatlangan. Hech qachon hayotdan nolimgan, chunki xalqimizni yer boqqan. Yer bilan tillasha olgan va qo'shimcha chorvachilik, parrandachilik, hunarmandchilik qilishi evaziga o'z mehnati bilan to'q, farovon yashab kelgan. Lekin bugun zamon zayli bilan, ayniqsa, shahar tipidagi maskanlarda hayot tarzimiz bir qadar o'zgargan, bu hodisa bevosita integratsiya va global olam jarayonlari bilan ijobiy boqliq bo'lib, demografiya hisobiga yoshlarni doimiy ish bilan ta'minlash, tadbirkorlikka jalb qilish, intellektual salohiyatini oshirish, intensive sharoitda xo'jalik yuritishni taqozo etmoqda.

Xo'sh moddiy farovonlik nima? Bunga qanday erishish mumkin?

Moddiy farovonlik – bu, jamiyat, ayrim kishilar va ijtimoiy guruhlarning moddiy ne'matlar bilan ta'minlanganligi, kishilar moddiy ehtiyojlarining qondirilish darajasi hisoblanadi. Aholi farovonligi davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezonidir. Aholi farovonligini oshirib borish ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadidir. "Aholi farovonligi" tushunchasi zamonaviy talqinda inson faoliyatining barcha tomonlariga taalluqli bo'lgan keng qamrovli tushunchadir.

Aholi farovonligi deganda, aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlanganlik hamda ularni iste'mol qilish darajasi tushuniladi. Farovonlik darajasini ifodalash uchun "turmush darajasi", "xalq farovonligi" va boshqa shu kabi turli xil tushunchalar qo'llaniladi. Aholi farovonligi yoki uning turmush darajasi aholi ehtiyojlariga, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga, ilmiy-texnik taraqqiyotga, aholining ma'naviy ma'rifiy saviyasiga va boshqa shu kabi omillarga bog'liqdir. Aholining farovonligi bir tomondan, muntazam o'zgarib turadigan turli ijtimoiy ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarining tarkibi va darajasi bilan, boshqa tomondan, u ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovarlar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari, mehnatkashlarning ish haqi bilan belgilanadi. Biroq ish haqi miqdori ham, farovonlik darajasi ham ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari samaradorligining ko'lami, ilmiy-texnik taraqqiyot darajasi, aholining madaniy ma'rifiy saviyasi, milliy xususiyatlari siyosiy hokimiyatga bog'liq. Har qanday jamiyatda kishilar moddiy farovonlikning moddiy asosi shu mamlakatning milliy moddiy boyligidir. Jamiyatning, kishilarning moddiy farovonlik ularga tegishli bo'lgan, ular ixtiyoridagi moddiy ne'matlar yig'indisiga hamda joriy moddiy ishlab chiqarish darajasiga, olinayotgan daromadlarga, iste'mol qilinayotgan moddiy ne'matlar miqdori va sifatiga bog'liq.

G'arb olimlari Torsteyn Bunde Veblen (1857 – 1929), Djon Rodjers Kommons (1862-1945), Uesli Kler Mitchell (1874-1948), Gobson Djon Atkinson (1858–1940), Uilyam

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Donald Gamilton (1936 –2000) lar ta'kidlashicha, har bir muayyan davrda butun jamiyat va uning barcha a'zolarining eng muhim moddiy ehtiyojlari, ya'ni hayotiy makonga va tabiiy resurslarga, ishlab chiqarish vositalariga, iste'molbop ne'matlarga bo'lgan moddiy ehtiyojlari shu jamiyatda mavjud bo'lgan jami moddiy-ashyoviy boylik bilan qondiriladi. Kishilarning tabiiy va ishlab chiqarilgan moddiy ne'matlar bilan umuman hamda aholi jon boshiga ta'minlanganligi, aholi moddiy farovonligining asosidir. Shuning uchun hozirgi paytda dunyoda har bir mamlakat milliy boyligini, shu jumladan, milliy tabiiy va ishlab chiqarilgan boyligini hisoblashga alohida ahamiyat berilmoqda. Moddiy ashyoviy boylik tarkibidagi tabiiy boylikning va ishlab chiqarilgan (jamg'arilgan) boylikning alohida-alohida hisobga olinishi, tabiiy boyliklarni asrab-avaylab, undan oqilona foydalanib, ishlab chiqarish, jamg'arilgan boylikning uzluksiz kengaytirilgan takror ishlab chiqarilishi, ko'paytirilishi moddiy farovonlikni saqlash va oshirishning eng muhim shartidir.

Moddiy-ashyoviy boylikning hajmi va sifati, uning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda moddiy farovonlik ham, moddiy ishlab chiqarish samaradorligi ham, aholi daromadlari ham, iste'mol darajalari ham yuqoridir. Biroq, G'arb mamlakatlari statistikasi va iqtisodchilarining e'tirof etishlaricha, rivojlangan mamlakatlarning ko'pchiligida boylik va daromadlarning aholi o'rtasida taqsimlanishi favqulodda yoki juda notekisdir. Kam rivojlangan va possotsialistik mamlakatlarning ko'pchiligida milliy moddy ashyoviy boylik aholi jon boshiga juda past darajada. Shuning uchun ham dunyoda 1,2 mlrd. dan ortiqroq kishi juda ham kambag'allikda, qashshokdikda yashamoqda.

Milliy boylikni saqlash va ko'paytirishda, shu yo'l bilan moddiy farovonlikni ta'minlashda, oshirishda davlat va uning milliy ijtimoiy-iqtisodiy siyosati muhim o'rin tutadi. Davlat buyurtmalari va investisiyalari ish joylarini ko'paytirishga, aholi daromadlarining o'sishiga ijobiy ta'sir etadi. Soliqlarning va davlat harajatlarining optimallashtirilishi esa soliq yukini kamaytiradi, kishilar ixtiyoridagi daromadlarni ko'paytiradi. Moddiy farovonlikga ijobiy ta'sir etadi. Shu bilan birga, moddiy farovonlik, iste'mol bo'yicha optimal normativ va normalari, aholini ijtimoiy himoyalash mexanizmi hamda dasturlarining takomillashtirilishi katta ijtimoiyiqtisodiy ahamiyatga ega. Aholi farovonligi davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezonidir. Aholi farovonligini oshirib borish ijtimoiy rivojlanishning asosiy maqsadidir. "Aholi farovonligi" tushunchasi zamonaviy talqinda inson faoliyatining barcha tomonlariga taalluqli bo'lgan keng qamrovli tushunchadir. Aholi farovonligi deganda, aholining zaruriy moddiy va nomoddiy ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlanganlik hamda ularni iste'mol qilish darajasi tushuniladi. Aholining farovonlik darajasini ifodalash uchun "turmush darajasi", "halq farovonligi" va boshqa shu kabi turli xil tushunchalar qo'llaniladi. O'zbekistonda aholini moddiy, ma'naviy, ijtimoiy ehtiyojlarini qondirilish darajasini ifodalaydigan "turmush darajasi" atamasi kengroq qo'llaniladi. Aholi farovonligi yoki uning turmush darajasi aholi ehtiyojlariga, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga, ilmiy-texnik taraqqiyotga, aholining ma'naviy ma'rifiy saviyasiga va boshqa shu kabi omillarga bog'liqdir. Aholining farovonligi bir tomondan, aholining muntazam o'zgarib turadigan turli ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarining

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

tarkibi va darajasi bilan, boshqa tomondan, u ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovarlar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari, mehnatkashlarning ish haqi bilan belgilanadi. Biroq ish haqi miqdori ham, farovonlik darajasi ham ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari samaradorligining ko‘lami, ilmiy-texnik taraqqiyot 7 darajasi, aholining madaniy-ma’rifiy saviyasi, milliy xususiyatlari va siyosiy hokimiyatga bog‘liq. Sobiq ittifoq davrida “aholi farovonligi” tushunchasi keng qo‘llanilgan va bunda hayot faoliyatining sifat ko‘rsatkichlari “aholining turmush tarzi”, miqdor ko‘rsatkichlari esa “aholining turmush darajasi” bilan ifodalangan. Shuningdek, aholining farovonlik darajasini tavsiflovchi boshqa atamalar va tushunchalar mavjud. Aholi farovonligi darajasining eng mufassal talqini quyidagicha: aholi farovonligi – bu jismoniy, ma’naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi, qondirilganlik miqyosi va ularni qoniqtirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi umumiy ijtimoiy – iqtisodiy kategoriyadir. Bunday talqin aholi farovonligi darajasining sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini yanada to‘liqroq ifodalashga imkon yaratadi. Aholi farovonligi konsepsiyasi tamoyillar va ko‘rsatkichlar tizimiga asoslanuvchi, aholining farovonlik darajasini oshirishga qaratilgan g‘oyani ifodalaydi. Aholi farovonligi darajasining konsepsiyasi ko‘zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirish strategiyasi va yo‘nalishlari, bosqichlarini belgilab beradi. Bozor munosabatlariga o‘tish davrida O‘zbekistonda yangi ijtimoiyiqtisodiy sharoitlarga javob beradigan aholi farovonligi darajasi konsepsiyasini yaratishga zarurat tug‘ildi. Mazkur konsepsiyani shakllantirishda so‘nggi yillarda jahon amaliyotida keng qo‘llanilayotgan “turmush sifati” konsepsiyasining ayrim qoidalaridan foydalanish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka yerishganidan keyingi mamlakatdagi barcha tabiiy ne’matlar (yerlar, yer osti va yer usti boyliklari va boshqalar) umumilliy mulkka, boylikka aylandi, jamiyat a’zolari yesa uning ham mulkchilari hisoblanadi. Shu bilan birga, ular xususiylashtirilgan mulkchilariga aylandilar; yerga va boshqa mulklarga ijara asosida egalik joriy etildi; urlar yakka, gruh, shirkat, jamoa, korporativ xo‘jalik yuritish uchun, fermerlik va dehqon xo‘jaliklari tashkil etish uchun jismoniy va yuridik shaxslarga taqsimlab beriladi. Mamlakatning ishlab chiqarish va jamg‘arilgan moddiy boyliklari ko‘paydi va takomillashdi; aholining nominal va real daromadlari o‘sdi, kundalik iste’molbop mollar va uzok, muddatga chiqarilgan mahsulotlar bilan ta’minlanganligi oshdi. Shu bilan birga, aholining keskin va katta darajada tabaqalanishining olish hamda milliy moddiy boylik farovonlikni yuksaltirish bo‘yicha ijtimoiy ijtimoiy siyosat amalga oshirilmoqda.

Albatta, farovonlikni oshirishda davlatimiz tomonidjan qishloq xo‘jaligida olib boriladigan o‘zgarishlarning barchasi fermer xo‘jaliklari faoliyati bilan bog‘liqdir. Shu jihatdan, fermer xo‘jaliklarini qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish sohasining yetakchi bo‘g‘iniga aylantirib borish maqsad qilingan va buning uchun sohada olib boriladigan ishlar strategiyada aniq belgilab berilgan: aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash; qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish; soha boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish va investisiyaviy jozibadorlikni oshirish; tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash; davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish; tarmoqni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan davlat xarajatlarini

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

bosqichmabosqich diversifikatsiya qilish; qishloq xo‘jaligida ilm-fan, ta’lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish; qishloq hududlarini rivojlantirish; tarmoq statistikasining shaffof tizimini ishlab chiqish.

Chunonchi, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali:

− o‘rta mulkdorlar sinfi shakllanadi; − makroiqtisodiy beqarorlik, ishsizlik va taqchillik kabi iqtisodiy muammolar barham topadi; − sog‘loq raqobatchilik muhitining yaratilishi orqali YalMning miqdor va sifat jihatidan o‘sishi kuzatiladi;

− ichki bozor zarur tovar (xizmat)lar bilan to‘yinadi va ularning sifati oshadi;

− va pirovardida aholi turmush darajasining o‘sishiga erishiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 dekabrdagi PQ-31-sonli “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori aholi farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari farovon hayotning mazmuni, mezonlari va jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyatini chuqurroq tushunishga imkon berdi. Tadqiqotlar ikki asosiy yo‘nalishda olib borildi: birinchisi, farovon hayotning umumiy tushunchasi va mezonlarini aniqlash, ikkinchisi esa, farovon hayotning jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyatini o‘rganish.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki farovon hayotning mazmuni keng tushuncha bo’lib, u faqat iqtisodiy yoki moddiy ko‘rsatkichlar bilan o‘lchanmasligi, balki ma'naviy, ijtimoiy va ekologik jihatlar ham muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlansh o’rinlidir. Ma'lum bo‘lishicha, farovonlikning asosiy mezonlari quyidagilardir: iqtisodiy barqarorlik; ijtimoiy tenglik; sog’liqni saqlash va ta’lim sohasi; ma’naviy va ruhiy salomatlik; ekalogik barqarorlikdir. Farovon hayot tushunchasi insoniyatning eng muhim qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Bu atama insonning material va ma'naviy farovonligini anglatadi, unga erishish esa, shaxsiy rivojlanish, jamiyatdagi tenglik va adolatli resurslar taqsimotiga bog‘liq. Farovon hayotni amalga oshirish, nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki ijtimoiy va madaniy sohalarda ham ilg‘or yutuqlarga erishishni talab etadi. Farovon hayot atamasi ko‘p hollarda boylik va mol-mulk bilan bog‘lanadi, ammo bu atama faqat moddiy jihatlarni emas, balki ma'naviy va ruhiy farovonlikni ham o‘z ichiga oladi. Farovonlik -bu insonning o‘z hayotini yuqori sifatda, sog‘lom va baxtli tarzda kechirishidir.

Xulosa qilib aytganda, farovon hayot nafaqat iqtisodiy o‘sish yoki baxtni ta'minlash, balki ijtimoiy tenglik, ekologik barqarorlik, ma'naviy rivojlanish va madaniy qadriyatlarni hurmat qilish orqali shakllanadi. Bu esa, nafaqat shaxsiy baxtni, balki jamiyatdagi umumiy barqarorlik va rivojlanishni ta'minlaydi. Farovonlikka erishish uchun jamiyat davlat va shaxsning o’zi ham birlikda birgalikda samarali faoliyat olib borishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Economic Impact [Электронный ресурс] / World Travel and Tourism Council. –

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

2. Режим доступа: https://www.wttc.org/economic-impact/.
3. Country Data [Электронный ресурс] / World Travel and Tourism Council. –
4. Режим доступа: https://www.wttc.org/economic-impact/countryanalysis/
5. country-data/. –Дата доступа: 02.09.2019.
6. Малое предпринимательство: организация, экономика, управление: Учеб пособие. / Под ред. А. Д. Шереметова. - М.: ИНФРА-М, 2009. - 480 с.
7. Рақамли иқтисодиёт: Ўзбекистонда ривожлантириш истиқболлари ва жаҳон амалиёти. Халқаро илмий-амалий онлайн конференция материаллари –
8. Тошкент: Бинзес ва тадбиркорлик олий мактаби 2020. – 979 б.
9. Ходжаев Р., А.Эгамбердиев, Ф.Қ. Шоюсупова. Кичик бизнесни бошқариш.
10. ТМИ Ўқув қўланма. Т.: “IQTISOD - MOLIYA”, 2008
11. Umarjonov, S. S. O. G. L. (2021). IJTIMOIY–GUMANITAR FANLARNI O‘QITISHDA FAHRIDDIN ROZIYNING ONTOLOGIK QARASHLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 1029-1038.
12. A.Abdullayev Ijtimoiy farovonlik va iqtisodiy barqarorlik: O'zbekistonning o'ziga xos yo'li. T.2018. -B.39-45
13. F.Ismoilov. Iqtisodiy rivojlanish va uning farovon hayotga ta'siri: O'zbekiston tajribasi. T.2017. -B.87-92.
14. K.Rasulov. Farovon hayot kontseptsiyasi: Mezonlar va zamonaviy yondashuvlar. T.2020. -B.66-69
15. R.Yuldashev Ijtimoiy barqarorlik va farovon hayotning o'zbek modelini shakllantirish. T.2019. -B.111
16. A. Nazarov Farovon hayotning psixologik aspektlari: Jamiyatda ijtimoiy muvozanatni saqlash. T.2021. -B.124-1256.Sh. O'zbekov Iqtisodiy o'sish va farovon hayot: O'zbekiston sharoitida imkoniyatlar va cheklovlar. T.2022. -B.7
17. A. Abdurahmonov Ijtimoiy adolat va farovonlik: O'zbekistonning ijtimoiy siyosati. T.2021. -B.104-105

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Xasanov Rajabboy To’xsanovich**, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Buxoro viloyati kengashi raisi, **[Хасанов Раджаббой Тўхсанович**, Демократическая партия «Национальное возрождение»], **[Rajabboy T. Hasanov,** Chairman of the Bukhara Regional Council of the "Milliy Tiklanish" Democratic Party, manzil: O‘zbekiston, Buxoro v. Buxoro sh., A.Navoiy ko’chasi 6-uy, [адрес: Узбекистан, Бухара против. г. Бухара, улица А.Навои 6,] [Address: Uzbekistan, Bukhara v. Bukhara city, A.Navoiy street, 6,]; E-mail: hasanov.rajabboy@icloud.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

INTEGRATION OF INFORMATION TECHNOLOGIES AND PROBLEM-BASED LEARNING IN PRIMARY EDUCATION

© Sharofat G'. Ubaydullayeva[1]✉

[1]Bukhara State Pedagogical Institute , Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: problem-based learning and the integration of information technologies play an important role in improving the quality of the educational process in primary education. This method helps develop students' independent thinking skills and introduces them to innovative technologies. The introduction of information technologies into the educational process today further enhances the effectiveness of problem-based learning.

AIM: the purpose of this article is to explore the methods of problem-based learning and the integration of information technologies in primary education. The article analyzes the impact of these two approaches on the quality of education and their role in improving students' success in learning.

MATERIALS AND METHODS: in the article, statistical analysis and pedagogical experiments are used to evaluate the effectiveness of applying information technologies in primary education. The theoretical foundations and practical approaches of problem-based learning are reviewed, and experimental studies are conducted to measure students' cognitive abilities.

DISCUSSION AND RESULTS: research shows that the integration of problem-based learning and information technologies is an effective tool for developing students' independent thinking and creativity. The application of information technologies allows students to demonstrate their knowledge interactively, making the educational process more engaging and effective.

CONCLUSION: the integration of problem-based learning and information technologies leads to effective results in primary education. This approach increases the interactivity of the educational process and provides students with broader opportunities. Moreover, it helps develop students' abilities to express their opinions, work independently, and solve problems.

Keywords: problem-based learning, information technologies, creative thinking, modern approaches, self-management, practical knowledge, questioning, discussions, group work, communication, creativity.

For citation: Sharofat G'. Ubaydullayeva (2025) "Integration of information technologies and problem-based learning in primary education", Inter education & global study, (3), pp. 108-117. (In Ing).

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ИНТЕГРАЦИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

© Ш.Г. Убайдуллаева[1]✉
[1]Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: метод проблемного обучения и интеграция информационных технологий играют важную роль в повышении качества образовательного процесса в начальном образовании. Этот метод способствует развитию навыков независимого мышления у студентов и знакомит их с инновационными технологиями. Введение информационных технологий в образовательный процесс на сегодняшний день значительно повышает эффективность проблемного обучения.

ЦЕЛЬ: исследовать методы проблемного обучения и интеграцию информационных технологий в начальном образовании. В статье анализируется влияние этих двух подходов на качество образования и их роль в повышении успешности студентов в обучении.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В статье используются статистический анализ и педагогические эксперименты для оценки эффективности применения информационных технологий в начальном образовании. Рассматриваются теоретические основы и практические подходы проблемного обучения, а также проводятся экспериментальные исследования для измерения когнитивных способностей студентов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: исследования показывают, что интеграция проблемного обучения и информационных технологий является эффективным инструментом для развития независимого мышления и креативности студентов. Применение информационных технологий позволяет студентам интерактивно продемонстрировать свои знания, что делает образовательный процесс более увлекательным и эффективным.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: интеграция проблемного обучения и информационных технологий приводит к эффективным результатам в начальном образовании. Этот подход повышает интерактивность образовательного процесса и предоставляет студентам более широкие возможности. Кроме того, он способствует развитию навыков выражения собственных мнений, самостоятельной работы и решения проблем.

Ключевые слова: проблемное обучение, информационные технологии, креативное мышление, современный подход, самоуправление, практические знания, вопрос-ответ, дискуссия, групповая работа, коммуникация, креативность.

Для цитирования:. Убайдуллаева. Ш. ғ. Методика интеграция информационных технологий и проблемного обучения в начальном образовании // Inter education & global study. 2025. №3. С. 108-117.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA MUAMMOGA ASOSLANGAN O‘QITISHNING BOSHLANG‘ICH TA’LIMGA INTEGRATSIYASI

© S.G’. Ubaydullayeva[1]✉
[1] Buxoro davlat pedagogika instituti , Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

MUHOKAMA VA NATIJALAR: boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning faolligini oshirish masalasi psixologik va pedagogik nuqtai nazardan katta ahamiyatga ega. Bu jarayon nafaqat o‘quvchilarning intellektual rivojlanishiga, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishga ham ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchining bo‘sh o‘zlashtiruvchanligi uning o‘quv jarayoniga qanday qatnashishini, o‘z bilim va ko‘nikmalarini qanday rivojlantirishini belgilaydi.

XULOSA: o‘zlashtirmaslik sabablari sifatida o‘quvchi intellektining yetarli rivojlanmaganligi, fikrlash shakllarining kam taraqqiy etganligi, o‘quv predmetlariga

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

qiziqmaslik, o‘quv mehnati usullarining taraqqiyotida kamchiliklar, bolalarning jismoniy taraqqiyotidagi ayrim etishmovchiliklar, o‘qish, mehnatga salbiy munosabatda bo‘lish kabilar ajratilgan edi.

Kalit so'zlar: Boshlang‘ich sinflar, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar, faollik, o‘quvchilarini o‘qitish, pedagogik texnologiyalar, vosita va shakllar, maktab, mas’uliyat, bola savodi, tafakkur.

Iqtibos uchun: Elibaeva L.S. Boshlang‘ich sinflarda bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar faolligini oshirishning psixologik, pedagogik xususiyatlari. // Inter education & global study. 2025. №3 B.127–135.

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОВЫШЕНИЯ АКТИВНОСТИ СВОБОДНЫХ АССИМИЛИРУЮЩИХСЯ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

© Л.С. Элибаева[1]✉
[1]Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в настоящее время вопросы воспитания молодого поколения подняты на уровень государственной политики, и в этой сфере проведены значительные реформы. Начальное образование имеет большое значение для подготовки молодежи к обеспечению будущего страны как квалифицированных кадров. В данной статье рассматриваются психологические и педагогические особенности повышения активности учащихся с низким уровнем усвоения материала в начальных классах.

ЦЕЛЬ: повышение активности учащихся с низким уровнем усвоения материала в начальных классах, расширение их мировоззрения, использование педагогических технологий, методов, средств и форм с целью облегчения и улучшения усвоения знаний. Важное место в жизни ребенка занимают первые годы школьного обучения после детского сада. Поэтому начальный период обучения в школе является важнейшим и ответственным этапом образовательного процесса. В это время, наряду с обучением грамотности, формируется мировоззрение ребенка, развиваются его способности к мышлению. Каждое занятие, направленное на развитие интеллекта ребенка, оказывает большое влияние на его умственное развитие и становление.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в международной концепции образования, принятой мировыми организациями на период до 2030 года, образование признается основным движущим фактором развития и важнейшей деятельностью для достижения целей устойчивого развития. Ведется работа по совершенствованию методов оценки результатов усвоения знаний, качественного образования, использованию открытых образовательных ресурсов и эффективных методов развития интеллектуального уровня учащихся. Для организации

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

образовательного процесса, соответствующего требованиям времени, использованы философские, социологические, моделирующие, сравнительные и аналитические методы исследования.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: повышение активности учащихся в начальных классах является важной задачей как с психологической, так и с педагогической точки зрения. Этот процесс влияет не только на интеллектуальное развитие учеников, но и на формирование их личностных и социальных навыков. Способность учащихся к успешному усвоению материала определяет, насколько активно они участвуют в учебном процессе и как развивают свои знания и умения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: причинами недостаточного усвоения материала являются: недостаточное развитие интеллекта ученика, слабо развитые формы мышления, отсутствие интереса к учебным предметам, недостатки в методах учебной работы, недостатки в физическом развитии детей, негативное отношение к учебе и труду и другие.

Ключевые слова: начальные классы, учащиеся с низким уровнем усвоения материала, активность, обучение учащихся, педагогические технологии, средства и формы, школа, ответственность, грамотность ребенка, мышление.

Для цитирования: Элибаева Л.С. Психолого-педагогические особенности повышения активности свободных ассимилирующихся учащихся в начальных классах. // Inter education & global study. 2025. №3. С. 127-135.

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FEATURES OF INCREASING THE ACTIVITY OF FREE ASSIMILATING STUDENTS IN PRIMARY SCHOOLS

© Lola S. Elibaeva[1] ✉
[1]Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: currently, the issues of educating the younger generation have been raised to the level of state policy, and significant reforms have been implemented in this area. Primary education plays a crucial role in preparing the youth to become qualified professionals capable of securing the future of the country. This article discusses the psychological and pedagogical aspects of increasing the activity of students with low levels of material absorption in primary school classes.

AIM: the goal is to increase the activity of students with low levels of material absorption in primary school classes, expand their worldview, and use pedagogical technologies, methods, tools, and forms to facilitate and improve the absorption of knowledge. The early years of schooling after kindergarten hold great importance in a child's life. Therefore, the initial period of school education is the most crucial and responsible stage of the educational process. During this time, alongside the learning of literacy, a child's worldview is shaped, and their thinking abilities are developed. Every

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

activity aimed at developing a child's intellect greatly influences their mental development and formation.

MATERIALS AND METHODS: in the international education concept adopted by global organizations for the period until 2030, education is recognized as the primary driving force for development and an essential activity for achieving sustainable development goals. Efforts are being made to improve methods for evaluating the results of knowledge acquisition, quality education, the use of open educational resources, and effective methods for developing students' intellectual levels. Philosophical, sociological, modeling, comparative, and analytical research methods were used to organize the educational process in accordance with modern requirements.

DISCUSSION AND RESULTS: increasing the activity of students in primary school classes is an important task from both a psychological and pedagogical perspective. This process not only influences the intellectual development of students but also contributes to the formation of their personal and social skills. The ability of students to successfully absorb material determines how actively they participate in the learning process and how they develop their knowledge and skills.

CONCLUSION: the causes of insufficient material absorption include: insufficient development of the student's intellect, underdeveloped forms of thinking, lack of interest in the subjects, shortcomings in the methods of educational work, deficiencies in the physical development of children, negative attitudes toward learning and labor, and others.

Keywords: primary classes, students with low levels of material absorption, activity, student education, pedagogical technologies, tools and forms, school, responsibility, literacy, thinking.

For citation: Lola S. Elibaeva. (2025) ‘Psychological and pedagogical features of increasing the activity of free assimilating students in primary schools’, Inter education & global study, (3), pp. 127-135. (In Uzbek).

Bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, sohada bir qator islohotlar amalga oshirilgan. Yoshlarni yuqori malakali kadrlar sifatida tayyorlashda boshlang‘ich ta’limning o‘rni beqiyosdir. Yurtimizda boshlang‘ich ta’lim tizimini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilayotgan bir paytda, boshlang‘ich sinflarda bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning faolligini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Boshqa sohalarda bo‘lgani kabi, ta’lim jarayonida ham o‘quvchilarning faolligi, bilimni to‘g‘ri va samarali o‘zlashtirishi, ularning psixologik va pedagogik jihatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning faolligini oshirish nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning faolligini oshirishning psixologik va pedagogik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ushbu muammoni hal qilishda ta’limning zamonaviy metodlari va pedagogik texnologiyalarining ahamiyati katta. Shuningdek, o‘quvchilarning

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

intellektual va emotsional rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash orqali, o'quvchilarning faolligini oshirish uchun samarali yondashuvlar ishlab chiqilishi kerak.

Boshlang'ich sinflar ta'lim tizimining poydevoridir. Bunda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar faolligini oshirishning pedagogik funksiyasini ilk qadamlardan boshlab harakat qilmoq, metodik ishlarni tashkil etish zarur. Har bir alohida olingan bo'sh o'zlashtirishning vujudga kelishi tarixi har xildir. Bu shaxsning indivudual xususiyatlari va atrofdagilar bilan munosabatlariga, pedagogik tarbiya ko'rganligi va psixologik holatiga ko'ra aniqlanadi va baholanadi.

P.P.Blanskiy "Qiyin o'quvchilar" asarida psixik va pedagogik tayyorgarlikning turli xususiyatlarning birikuvi quyidagi tiplarga ajratilgan. P.P.Blonskiy birinchi o'rinda jsmoniy sog'liqga e'tibor bergan . Muallif ishlarida psixologik xususiyatlarga yetarlicha e'tibor berilmagan. P.P.Blanskiy o'zlashtirmaslikka olib keladigan. Asosiy sababni ajratib ko'rsatgan. Birinchidan, o'quvchi sog'lig'iga bog'liq, ikkinchidan o'zini to'g'ri tashkil eta olmaslik, uchinchidan, o'qishga qiziqishining yo'qligi, to'rtinchidan, o'quvchining bo'yi rivojlanganligi inobatga olingan. P.P. Blonskiy bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni quyidagi tiplarga ajratadi:

I.Tip bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarga taxminan 50% jismonan bo'sh va aqliy rivojlangan o'quvchilar kiradi.

II.Tip bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning taxminan 25% jismonan kuchsiz.

III.Tip bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning taxminan 10% jismonan normal, lekin aqlan rivojlanmagan o'quvchilar .

IV. Tip bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning taxminan 15% oilaviy sharoitga ko'ra maktabdan ajralib qolgan o'quvchilar.

Shunday qilib, o'quvchilar tiplari klassifikatsiyasini asosiy ikkinchi ichki sababga ko'ra, jismoniy bo'sh va aqliy, psixik rivojlanmagan bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar guruhi ham mavjud.

L.S.Slavinanig "Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar turli guruhlarga bo'lingan".

1. O'qishga nisbatan noto'g'ri munosabat shakllangan o'quvchilar .
2. Materiallarni qiyinchilik bilan o'zlashtiruvchi o'quvchilar.
3. O'quv ishida malaka va usullari shakllangan.
4. Mehnat qila olmaydigan o'quvchilar.
5. Bilim va o'qishga malaka va usullari shakllangan.

Psixolog va pedagoglar o'zlashtirmaslikning ko'plab sabablarini, tiplarini aniqlaganlari hamda ikkinchi yilga qoldirilishi va ommaviy o'zlashtirmaslikni yo'qotishi bo'yicha didaktik tarbiyaviy ishning tashkiliy –pedagogik shakl va uslublarning guvohi bo'ldik. Pedagogik olimlar va o'qituvchilarning uzoq vaqt o'zlashtirmaslikni bartaraf etishga ishonchli o'quv –tarbiya jarayonining xususiyatlarini o'rgandilar. Psixologlar o'quv jaryonida namoyon bo'ladigan bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning shaxs xususiyatlariga, ular o'quv faoliyatinig o'ziga xosliklarning aniqlashga e'tibor qaratadilar.

O'zbekistonlik psixologlardan Y.F.G'oziyev, S.A.Axunjanova, T.M.Adizova, Y.Z.Usmonova, A.X.Yugay, T.K.To'laganovalarning ishlarida ham tahlil qilingan.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Lekin ularning hech birida aynan boshlangich sinflardagi bo‘sh o‘zlashtirish muoammosi maxsus ilmiy tadqiqot predmeti sifatida tahlil etilmaganini takidlash joiz. Uzoq vaqt o‘zlashtirmaydigan o‘quvchilar shaxsi xususiyatlarini chuqur o‘rganish, qanday pedagogik sharoitlarda qiyinchiliklarini bartaraf etishga yordam beradi. Maktab dasturini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga yordam beradi.

Bugungi kunga kelib, ta'lim sohasida o‘zlashtirish xususida keng fikrlar bayon etilmoqda. «O‘zlashtirish» tushunchasi o‘z mohiyatiga ko‘ra kompleks muammo bo‘lib, u jamiyatning iqtisodiy jihatdan rivojlanganligi, mamlakat fuqarolarining siyosiy, ma'rifiy, madaniy tarbiyalanganligi, maktab o‘qituvchilarining zamonaviy o‘qitish vositalari, usullari, tamoyillari bo‘yicha atroflicha bilimga egaliklari, yoshlarning o‘qish-o‘rganishga ishtiyoqmandligi bilan uzviy bog‘liq hodisadir. Yangi O‘zbekistonda zamonaviy ta’limni tashkil etish nazariyasi va amaliyotida ham qator sifat o‘zgarishlari sodir bo‘ldi: ta’limning samaradorligini oshirish va sifatini yaxshilashga oid keng qamrovli didaktik va metodik tadqiqotlar o‘tkazilmoqda; ta’lim jarayonining davriyligi ilmiy-didaktik jihatdan asoslanib, o‘qituvchilar faoliyatida munosib o‘rin ola boshladi; ta’lim jarayonini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishning interfaol usullaridan foydalanish odat tusini oldi; ta’lim natijalarini sinashda reyting usuliga, bilim, malakalarni testlashtirishga yanada ko‘proq rioya qilinadigan bo‘ldi.

Didaktik ta’sir tadbirlari bolalarning davlat ta’lim standartlari darajasida o‘zlashtirishlarini ta’minlash, ularni o‘zlari erishgan yutuqlardan tez-tez xabardor etish, o‘qituvchi va o‘quvchilarning ortiqcha charchashlarining oldini olish, vaqtdan samarali foydalanish talablariga ko‘ra ishlab chiqiladi. Buni bir qator olimlar izlanishlarida ko‘rish mumkin. Jumladan, Ya.A.Komenskiy o‘zining didaktik qarashlarida ta’lim jarayonini ham tarkiban, ham ta'lim jarayoni subyektlari jihatidan tahlil qilgan. Pedagogik tizim, uning uqtirishicha, uch tarkibiy qismdan iborat: o‘quv materiali — bilimlarning o‘qituvchidan o‘quvchilarga harakati; o‘quvchi — bilimlarni idrok etguvchi va o‘zlashtiruvchi; o‘qituvchi — bilimlarni bolalarga yetkazuvchi. Bilimlarni bolalarning puxta o‘zlashtirishi uchun Ya.A.Komenskiy ilk bor didaktik ta’sir tadbirlari tizimini ham aniqlagan edi: sinfda o‘rganilgan mavzular bo‘yicha yetarli mashq o‘tkazish; yangi o‘quv materialini oldin o‘rganilgan mavzularga aloqadorlikda o‘rgatish; o‘rganilgan mavzularni vaqti-vaqti bilan takrorlab turish; oldin o‘rganilgan materiallarni takrorlab, yangi mavzuni tushuntirishga o‘tish. Yu.K.Babanskiyning yozishicha, zamonaviy o‘qituvchi faoliyatida bolalarning o‘zlashtirishiga to‘sqinlik qiladigan qator zaif tomonlar bor:

ta’lim jarayonining dolzarb muammolarini ko‘ngildagidek hal qila olmaslik, bolalarni o‘quv predmetlariga qiziqtira bilmaslik, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi ta'lim tamoyillarini kompleks amalga oshira olmaslik, o‘quvchilarda o‘quv mehnati usullarini shakllantirmaslik o‘qitish mehnatiniig zaif tomonlari hisoblanadi;

ta’limni tashkil etishda ham o‘qituvchilar faoliyatining qator zaif tomonlari mavjud. Bunday kamchiliklar qatoriga to‘liq o‘zlashtirmaslik sabablarini ajrata olmaslik, bolalarga shaxs va individual jihatdan yondasha bilmaslik, o‘quv predmetlararo aloqani tashkil etishdagi qiyinchilik, ta’limni turli usul va vositalar yordamida qiziqarli o‘tkazishni to‘liq

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

amalga oshirmaslikni ham kiritish mumkin. O‘qitish faoliyatidagi mavjud kamchiliklarni) bartaraf etish bolalarning o‘zlashtirishlari uchun zamin yaratadi.

Ta’lim jarayonida amal qilinadigan va o‘quvchilarning o‘zlashtirishiga monelik qiladigan sabablar ham bisyor. Ana shunday sabablar qatoriga: o‘quvchi intellektining yetarli darajada rivojlanmaganligi; bolalarda fikrlash shakllari-predmetli, obrazli, simvolli fikrlash shakllarining ayrimlari talab darajasida taraqqiy qilmaganligi; bilim, ko‘nikma, malaka, ijodiy faoliyat tajribasi va tabiat, jamiyat, ong hodisalariga munosabatning etarli taraqqiy etmaganligi; bolada o‘quv mehnati usullari va malakalarning past rivojlanganligi; jismoniy taraqqiyotdagi ayrim deffektlar (ko‘zi ojizlik, quloqning past eshitishi, duduqlik, ayrim tovushlarni talaffuz eta olmaslik); o‘qish, mehnat va turmushga bo‘lgan ayrim salbiy qarashlar; bola tarbiyasidagi ayrim nuqsonlar (o‘zi va o‘zgalarga turlicha qarash, o‘z tili, tarixi, Vatan qadriga yetmaslik, o‘ziga ortiqcha baho berish, o‘z sha’nini bilmaslik, o‘zgalarni mensimaslik va hokazo)ni kiritish mumkin.

O‘zlashtirish nazariyasi namoyondalari (B.Blum, J.Kerrol, J.Blok, L.Anderson va boshqalar) o‘rganiladigan mavzuga oid bilimlarni o‘quv elementlariga ajratish, har bir o‘kuv elementiga mos ta'lim maqsadlarini belgilash, o‘rganiladigan murakkab hodisalarni belgilash, o‘rganiladigan murakkab hodisalarni imkon qadar osonlashtirish, axborotlarning bolalar faoliyatida optimal takrorlashni ta'minlash, ta'limning borishiga o‘zgartish, tuzatish, qo‘shimchalar kiritish, bolalarni o‘zlari erishgan natijadan tez-tez xabardor qilib turish kabi qator texnologik talablarga rioya qilib, ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish amaliyotini nazariy jihatdan asoslashdi.

Hozirgi paytda J.Kerrol, B.Blum izlanishlarida tavsiflangan o‘zlashtirish muammosi Buyuk Britaniya, Braziliya, Belgiya, Indoneziya, Avstraliya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning maktablarida keng qo‘llanilmoqda.

Ta’lim jarayonini loyihalash jihatidan qaraganda o‘zlashtirish muammosi: dars o‘tiladigan sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish layoqatlari, bilim darajalarini aniqlash; nta'limni boshqarish o‘lchovlari (u yoki bu mavzuga ajratilgan o‘quv soatlari), ta'limni tashkil etish tempini qayd etish; o‘quv materiali tarkibini tahlil qilib, o‘quv elementlarini ajratish, har bir o‘quv elementini to‘liq o‘zlashtirish uchun sarf qilinadigan vaqt, testlar to‘plamini belgilash; bolalarni (o‘qish-o‘rganishda) rag‘batlantirish vositalarini tanlash; yo‘l-yo‘lakay ta’limga kiritiladigan o‘zgartish, qo‘shimcha, tuzatishlarni qayd etish; ta’lim jarayoni loyihasini (dars konspekti yoki ta'lim etaloni) tayyorlash tadbirlari tizimini qamrab oladi.

Ta’lim jarayonini bevosita tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish jarayonlari ta’lim mazmunini o‘zlashtirishning bola uchun shaxsiy qimmatini oshirish, o‘zlashtirishni individuallashtirish, differentsial tashkil etishga qaratiladi. Ta’limni bevosita amalga oshirish jarayonidagi tadbirlar tizimi:

bolalarni o‘z maqsadlarini mustaqil tanlashga odatlantirish (ta’lim maqsadi va ta’lim natijalari o‘zaro taqqoslab o‘rgatiladi);

sinf jamoasiga to‘liq o‘zlashtirish metodikasi bo‘yicha bajariladigan o‘quv yumushlari va ularni bajarish tartibini o‘rgatish;

o‘quv predmetiga oid o‘quv elementlarini bolalar bilan birgalikda tahlil qilish;

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

bolalarni ta’limda faol ishtirok etishga odatlantirish (mavzular to‘liq o‘zlashtirilgach, yakuniy baho qo‘yiladi, erishilgan natija belgilangan o‘lchovlarga taqqoslanib aniqlanadi; sinfda a'lo baholarga o‘qiydigan o‘quvchilar miqdori o‘rta yoki yaxshi baholarga o‘qiydigan o‘quvchilarga nisbatan ko‘p bo‘lishi zarur, bolalarga o‘zlari istaguncha maslahat va yordam beriladi, oldingi mavzuni jamoa a'zolari to‘liq o‘zlashtirgach, navbatdagi o‘quv materialini o‘rganishga o‘tiladi);

asosiy o‘quv muammolariga alternativ muammolar tayyorlash (agar bolalar asosiy muammoni bajarishda qiynalishsa, uni osonroq muammo bilan almashtirish oldindan belgilab qo‘yiladi) kabi o‘quv yumushlarini qamrab oladi.

Bolalarning o‘zlashtirishiga ijobiy yoki salbiy ta’sir qiladigan omillar nihoyatda ko‘p: sezgi organlari faoliyatidagi turli deffektlar — ko‘rish, eshitish o‘quvlarining normal taraqqiyoti bolalarning o‘zlashtirishiga ijobiy ta'sir qilsa, ularning anormal taraqqiyoti o‘zlashtirishga salbiy ta'sir qiladi. Shuningdek, oliy nerv tizimidagi nuqsonlar — qo‘zg‘alish va tormozlanish hodisalari o‘rtasidagi mutanosiblik yoki nomutanosiblik ham o‘zlashtirishga ijobiy yoki aks ta’sir qiladi. O‘quvchining sog‘lig‘i, tish, quloq, bosh og‘riqlari, shamollash, temperatura kabi hodisalar ham to‘liq o‘zlashtirishga mo‘nelik qiladi. Ana shy sabablarga ko‘ra biologik xususiyatlarga oid hodisalar o‘rtasida korrelyatsiya eng yuqori bo‘ladi. Sihat-salomatlik o‘zlashtirishga ijobiy, uning teskarisi — kasallik esa o‘zlashtirishga salbiy ta’sir qiladi. Darsda o‘quvchilarning bilish faolligini orttirish uchun ularning o‘rganadigan bilish sohasiga qiziqtirish va mustaqilligini rivojlantirish ta’limdagi asosiy muammodir. Bu muammoni amaliy hal etish uchun:-o‘quvchilarga xushmuomila, shirinso‘z, mehribon bo‘lish;-o‘quvchilarning bilishdagi harakatlarini qo‘llab-quvvatlash;-o‘quvchilarda kerakli ko‘nikmalarni shakllantirishga erishish;-o‘quvchilarni rag‘batlantirish usullaridan o‘rnida foydalanishi ta’limning samarali o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. O‘zlashtirishning psixik omillari ham ancha topiladi: xotiraning zaifligi, tafakkur taraqqiyotidagi kamchiliklar, ortiqcha his-hayajonga berilish, uyatchanlik, ta’sirchanlik kabi omillar ma’lum darajada to‘liq o‘zlashtirishga mone'lik qiladi. Xotiraning zaifligini bartaraf etish uchun mustahkamlovchi mashqlar o‘tkaziladi. Bolalar tafakkuridagi kamchiliklarni yo‘qotish uchun ularga aqliy faoliyat usullari tahlil, qayta birlashtirish, taqqoslash, guruhlarga ajratish, umumiy xulosalar chiqarish yo‘llari o‘rgatiladi.

O‘zlashtirishda o‘quvchining intellektual taraqqiyoti etakchi omil sanaladi. O‘quvchilarning intellektual taraqqiyotini ko‘zlab, ikkita daxldor bog‘lanishga ajratamiz: fikrlash jarayonlari — tahlil, qayta jamlash, taqqoslash, guruhlarga ajratish, umumlashtirish jarayonlari mohiyatini o‘rganish. Fikrlash jarayonlari mohiyatini o‘rganish bolalarni to‘liq o‘zlashtirishga etaklovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Fikrlash jarayonlari xususida o‘rganilgan bilimlar o‘quvchilarda har bir o‘kuv materialida uning asosiy va ikkilamchi belgilarni ajratish layoqatlarini o‘stiradi. O‘quv materialining asosiy va ikkilamchi belgilarni ajrata oladigan o‘quvchi uni, ya'ni o‘rganilgan o‘quv materialini juda ko‘p mavzular orasida taniy oladi.

Zero, o‘rganilayotgan obyektning asosiy va ikkilamchi belgilarini ajrata bilish rivojlangan fikrlashning taraqqiyotini ham ko‘rsatadi; bolalarda fikrlash sifatlarini

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

tarbiyalash — berilgan o‘quv holatida o‘z maqsadini mustaqil belgilash, tanqidiy fikrlash, faktlarga mos atama tanlash, o‘z fikrlarini qisqartirib yoki kengaytirib aytish, munosabat bildirish, fikrlash tezligi — zukkolik kabilar fikrlash jarayonining sifatlari sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zlashtirmaslik sabablari sifatida o‘quvchi intellektining yetarli rivojlanmaganligi, fikrlash shakllarining kam taraqqiy etganligi, o‘quv predmetlariga qiziqmaslik, o‘quv mehnati usullarining taraqqiyotida kamchiliklar, bolalarning jismoniy taraqqiyotidagi ayrim etishmovchiliklar, o‘qish, mehnatga salbiy munosabatda bo‘lish kabilar ajratilgan edi. Bolalarda o‘qish-o‘rganishga oid ijobiy munosabatni tarbiyalash, bolalarning jismoniy taraqqiyotidagi kamchiliklarni bartaraf etish, ularda aqliy faoliyat usullarini, shuningdek, aqliy mehnat usullarini shakllantirish o‘quv predmetlariga rag‘batlantirish, bola intellektini taraqqiy ettirish yo‘llari bilan aksariyat o‘kuvchilarning to‘liq o‘zlashtirishlariga erishish mumkin. Binobarin, o‘zlashtirish didaktik hodisa sifatida bolalarda o‘qish-o‘rganishga ijobiy munosabatni tarbiyalashga, bolalarning jismoniy taraqqiyotida kamchiliklarni bartaraf etishga, o‘quvchilarda aqliy faoliyat va aqliy mehnat usullarini rivojlantirishga, bola intellektini taraqqiy ettirishga, ularni o‘qish-o‘rganish mehnatiga rag‘batlantirishga bog‘liq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Элибаева Лола Сулеймановна ПОВЫШЕНИЕ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ // Наука, образование и культура. 2020. №9 (53).
2. Элибаева Л. С. Народная педагогика-основа формирование личности //Молодой ученый. – 2014. – №. 1. – С. 595-597.
3. Элибаева Л. С. Повышение активности учащихся начальной школы //Наука, образование и культура. – 2020. – №. 9 (53).
4. Элибаева Л.С. Психологическая готовность детей к обучению в школе // В Психология XXI столетия. сборник по материалам ежегодного Конгресса. Ярославский государственный педагогический университет им. К.Д. Ушинского; Ярославский государственный университет им. П.Г. Демидова; Международная Академия Психологических Наук. 2017. С. 469-473.
5. Элибаева Л. С. Теоретической основой использования интерактивных методов контроля в высшей школе //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 625-630.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Elibaeva Lola Sulaymanovna**, Umumiy pedagogika kafedrasi dotsenti, [**Элибаева Лола Сулеймановна,** доцент кафедры общей педагогики], [**Lola S. Elibaeva**, Associate Professor of the Department of General Pedagogy]; manzil: Buxoro shahar Piridastgir ko‘chasi 2-uy, [адрес: Бухара, улица Пиридастгир, дом 2], [address: 2 Piridastgir Street, Bukhara City].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

TALABALARNING LOYIHALASH-KONSTRUKTORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI

© X.A. Turayev[1]✉

[1]Termiz davlat universiteti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishga ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi.

MAQSAD: bugungi kunda ta’lim tizimida muhandislik va konstruktorlik faoliyatiga yo‘naltirilgan bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

MATERIALLAR VA METODLAR: maqolada loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda ta’lim metodlari, raqamli texnologiyalar, amaliyot bilan integratsiya va ijodiy fikrlashni rivojlantirish kabi asosiy omillar yoritib berilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilinib, ularning ta’lim jarayoniga tatbiq etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari muhandislik va texnik yo‘nalishlarda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: mazkur maqola natijasida talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishga ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlanadi, ularni rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-nazariy hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy innovatsion texnologiyalar va pedagogik yondashuvlarning samaradorligi baholanib, ta’lim jarayonida qo‘llash bo‘yicha strategik takliflar beriladi.

XULOSA: loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda bir qator omillar muhim rol o‘ynaydi. Bular qatoriga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, raqamli va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini kengaytirish, muhandislik yondashuvlarini rivojlantirish hamda talabalarni mustaqil ijodiy fikrlashga undash kabi jarayonlar kiradi.

Kalit so'zlar: LOYIHALASH-konstruktorlik kompetentligi, innovatsion yondashuv, raqamli texnologiyalar, ijodiy fikrlash, pedagogik texnologiyalar.

Iqtibos uchun: Turayev X.A. Talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishning asosiy omillari. // Inter education & global study. 2025. №3 B.136-144.

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ ПРОЕКТНО-КОНСТРУКТОРСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ.

© Х.А. Тураев[1]✉

[1]Термезский государственный университет, Термез, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье анализируются основные факторы, влияющие на развитие проектно-конструкторской компетентности студентов.

ЦЕЛЬ: Целью исследования является выявление ключевых аспектов и методов, способствующих формированию проектно-конструкторской компетентности у студентов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в современном образовательном процессе особое значение приобретают развитие знаний и навыков, ориентированных на инженерную и конструкторскую деятельность. В статье рассматриваются основные факторы, способствующие развитию проектно-конструкторской компетентности, такие как образовательные методики, цифровые технологии, интеграция с практической деятельностью и развитие творческого мышления. Также проводится анализ эффективности современных педагогических технологий и инновационных подходов, предлагаются пути их внедрения в образовательный процесс. Результаты исследования направлены на повышение качества и эффективности обучения в инженерно-технических направлениях.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в результате проведенного исследования выявлены основные факторы, влияющие на развитие проектно-конструкторской компетентности студентов, а также разработаны научно-теоретические и практические рекомендации по их совершенствованию. Кроме того, оценивается эффективность современных инновационных технологий и педагогических подходов, предлагаются стратегические рекомендации по их применению в образовательном процессе.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: развитие проектно-конструкторской компетентности студентов зависит от ряда ключевых факторов. К ним относятся использование передовых педагогических технологий, внедрение цифровых и инновационных методов обучения, расширение практических и лабораторных занятий, совершенствование инженерных подходов, а также стимулирование студентов к самостоятельному творческому мышлению.

Ключевые слова: проектно-конструкторская компетентность, инновационный подход, цифровые технологии, творческое мышление, педагогические технологии.

Для цитирования: Тураев Х.А. Факторы, влияющие на развитие проектно-конструкторской компетентности студентов. // Inter education & global study. 2025. №3. С. 136-144.

KEY FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' DESIGN AND ENGINEERING COMPETENCE

© Khumoyiddin A. Turaev[1]✉
[1]Termiz State University, Termiz, Uzbekistan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the key factors influencing the development of students' design and engineering competence.

AIM: the study aims to identify key aspects and methods that contribute to the formation of students' design and engineering competence.

MATERIALS AND METHODS: in today's education system, the development of knowledge and skills focused on engineering and design activities is of great importance. This article highlights the main factors contributing to the development of design and engineering competence, such as teaching methods, digital technologies, integration with practical activities, and fostering creative thinking. Additionally, the effectiveness of modern pedagogical technologies and innovative approaches is analyzed, along with recommendations for their implementation in the educational process. The research findings aim to enhance the quality and efficiency of education in engineering and technical fields.

DISCUSSION AND RESULTS: as a result of the study, the key factors influencing the development of students' design and engineering competence were identified. Scientific-theoretical and practical recommendations for their improvement were developed. Moreover, the effectiveness of modern innovative technologies and pedagogical approaches was evaluated, and strategic recommendations for their application in the educational process were proposed.

CONCLUSION: the development of students' design and engineering competence depends on several crucial factors. These include the application of advanced pedagogical technologies, the integration of digital and innovative learning methods, the expansion of practical and laboratory activities, the advancement of engineering approaches, and the encouragement of students' independent creative thinking.

Key words: design and engineering competence, innovative approach, digital technologies, creative thinking, pedagogical technologies.

For citation: Khumoyiddin A. Turaev. (2025) ‘Key factors in the development of students' design and engineering competence’, Inter education & global study, (3), pp. 136-144. (In Uzbek).

Bugungi kunda texnologik taraqqiyotning jadal rivojlanishi ta’lim tizimida muhandislik va konstruktorlik yo‘nalishlariga bo‘lgan e’tiborni oshirishni talab etmoqda. Zamonaviy iqtisodiyot va sanoat sohalarida innovatsion loyihalar, muhandislik yechimlari hamda kreativ konstruktorlik yondashuvlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, talabalarni loyihalash-konstruktorlik faoliyatiga tayyorlash va ularning tegishli kompetentligini rivojlantirish masalalari dolzarb hisoblanadi.

Talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishning asosiy omillari quyidagilardan iborat:

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

1. Nazariy bilimlar: Muhandislik va texnologik asoslar; Konstruktorlik va loyihalash tamoyillari; Chizma va texnik hujjatlarni tushunish va yaratish.

2. Amaliy ko‘nikmalar: Chizma chizish, modellashtirish va dasturlash (AutoCAD, SolidWorks, MATLAB va boshqalar); Eksperimental loyihalash va sinovlar o‘tkazish; Raqamli texnologiyalar va innovatsion dasturlar bilan ishlash.

3. Ijodiy va tanqidiy fikrlash: Muammolarni hal qilish ko‘nikmasi; Yangi texnologiyalarni qo‘llash va moslashish qobiliyati; Yangi dizayn va loyihalar yaratish.

4. Jamoada ishlash va kommunikatsiya**:** Loyiha jamoalarida ishlash ko‘nikmalari; Texnik fikrlarni aniq ifodalash va taqdimot qilish; Professional muhitda muloqot qilish va hamkorlik qilish.

5. Mustaqil ta’lim va tajriba: O‘z-o‘zini rivojlantirish va yangi texnologiyalarni o‘rganish; Ilmiy-tadqiqot ishlariga qiziqish; Mustaqil muhandislik va konstruktorlik faoliyatini rivojlantirish.

6. Innovatsion va texnologik omillar: Zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanish; Raqamli texnologiyalar va simulyatsiyalar orqali mashg‘ulotlarni boyitish; STEAM yondashuvi asosida muhandislik va ijodiy jarayonlarni uyg‘unlashtirish.

Bu omillar talabalarni loyihalash-konstruktorlik faoliyatida samarali va raqobatbardosh bo‘lishlariga yordam beradi.

Mazkur maqolada talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishga ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim metodlari va innovatsion yondashuvlarning samaradorligi o‘rganilib, ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari kelajakda muhandislik va texnik yo‘nalishlarda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish muammosi butun dunyo bo‘ylab olimlar va tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilgan. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan ilmiy ishlar pedagogika, muhandislik ta’limi, innovatsion texnologiyalar va raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiyalash kabi jihatlarni qamrab oladi. Quyida bu boradagi muhim tadqiqotlar va adabiyotlarning tahlili keltirilgan:

1. Pedagogik yondashuv va metodologik tadqiqotlar: J. W. Thomas – Loyiha asosida ta’lim (Project-Based Learning) metodining ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi bo‘yicha tadqiqot olib borgan. Uning ishlarida talabalarni loyihalash faoliyatiga jalb qilish orqali ularning muammoli fikrlash qobiliyatini oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. D. H. Jonassen– "Designing Constructivist Learning Environments" asarida konstruktorlik va loyihalash kompetentligini rivojlantirishda konstruktivistik yondashuvning samaradorligini tahlil qilgan. Kolodner, J. L. – Kognitiv fan va loyihaviy ta’lim usullari asosida talabalarning konstruktorlik qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rganib chiqqan.

2. Muhandislik va texnik ta’lim bo‘yicha ilmiy ishlar: Felder & Brent – "The ABCs of Engineering Education" kitobida muhandislik ta’limida loyiha asosidagi ta’limning ahamiyati va uning talabalarning mustaqil muhandislik fikrlashiga ta’siri yoritilgan. L. Dym et al. – "Engineering Design Thinking, Teaching, and Learning" asarida muhandislik dizayni bo‘yicha zamonaviy ta’lim metodlarini tahlil qilgan. Prince & Felder – Faol ta’lim

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

metodlari, jumladan, amaliy loyihalar va jamoaviy ishlarni muhandislik ta'limiga qo'shish natijalarini tadqiq qilgan.

3. Raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar: Papert, S. – "Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas" kitobida dasturlash va texnologiyalar yordamida talabalarning loyihalash-ko'nikmalarini rivojlantirish mumkinligini isbotlagan. Resnick, M. – Scratch va boshqa vizual dasturlash muhitlari orqali talabalarni muhandislik va konstruktorlik faoliyatiga yo'naltirish usullarini tadqiq qilgan. B. Kim, R. Reeves – "Reengineering engineering education with virtual laboratories" tadqiqotida virtual laboratoriyalar orqali muhandislik ta'limini takomillashtirish yo'llarini ko'rsatgan. G. Fischer – "Computational Literacy and Design Thinking" asarida talabalar uchun kompyuterlashtirilgan loyihalash muhitlarining afzalliklarini tahlil qilgan.

4. STEAM ta'lim yondashuvi va kreativ fikrlash: Yakman, G. – STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) modelining ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi haqida tadqiqot olib borgan va bu yondashuv loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlagan. Bequette & Bequette – "A Creative Approach to Teaching Engineering" maqolasida san'at va dizayn asosida muhandislik ta'limini rivojlantirishga oid tadqiqot natijalarini taqdim etgan.

Olimlarning ilmiy tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda: Innovatsion pedagogik yondashuvlar (loyiha asosida ta'lim, muammoli ta'lim, tadqiqotga asoslangan ta'lim) katta ahamiyatga ega; Raqamli texnologiyalar va virtual laboratoriyalar o'quv jarayonini interaktiv qilish va talabalarning muhandislik qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi; STEAM yondashuvi talabalar ijodkorligini oshirib, loyihaviy va konstruktorlik ishlarini yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Ushbu ilmiy adabiyotlarning tahlili asosida, maqolada talabalar uchun loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlarni qo'llash bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqildi.

Talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligining asosiy omillari mavzusini yoritish uchun quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

1. Nazariy-tahliliy metod:

Vazifasi: Loyiha-konstruktorlik kompetentligining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish; Pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni tahlil qilish.

Qo'llanilishi: Fan-texnika rivoji bilan bog'liq ilmiy manbalar va pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilish; Zamonaviy kompetentlik yondashuvi, muhandislik ta'limi va ijodiy fikrlashga oid adabiyotlarni o'rganish.

2. Empirik tadqiqot metodlari:

Vazifasi: Talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda amaliy jarayonlarni aniqlash va baholash; Ta'lim jarayonining samaradorligini tekshirish va takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash.

Qo'llanilishi: So'rovnomalar va intervyular: Talabalar va o'qituvchilarning loyihaviy faoliyatga munosabatini o'rganish; Kuzatuv: Talabalarning loyihalash faoliyatini kuzatish

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

va ularning muammolarini aniqlash; Pedagogik tajriba: Turli usullarni sinovdan o‘tkazib, ularning ta’sirini o‘rganish.

3. Diagnostik va baholash metodlari:

Vazifasi: Talabalarning konstruktorlik kompetentligini aniqlash va rivojlanish dinamikasini baholash. Metodik ta’sirning samaradorligini aniqlash.

Qo‘llanilishi: Testlar va baholash mezonlari: Talabalar bilim va ko‘nikmalarini tekshirish; Portfoliolar: Talabalar tomonidan yaratilgan loyihalarni tahlil qilish; Ekspert baholash: Tajribali mutaxassislarning talabalarning ishlarini baholashi.

4. Innovatsion yondashuvlar:

Vazifasi: Zamonaviy texnologiyalar yordamida loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish; Talabalarni amaliy faoliyatga jalb qilish orqali ijodiy va muhandislik ko‘nikmalarini oshirish.

Qo‘llanilishi: Raqamli texnologiyalar: CAD dasturlar, 3D-modellashtirish, simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar; STEAM yondashuvi: Ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika elementlarini integratsiya qilish; Muammoga asoslangan ta’lim: Talabalarni real muammolarni hal qilishga yo‘naltirish.

5. Statistik tahlil metodlari:

Vazifasi: Tadqiqot natijalarining ishonchliligini tekshirish; Eksperimental ta’sirning samaradorligini aniqlash.

Qo‘llanilishi: Eksperimental va nazorat guruhlari natijalarini solishtirish; Matematik-statistik tahlil qilish: Olingan natijalarni statistik metodlar orqali tahlil qilish va umumlashtirish.

Ushbu metodlar maqolaning ilmiy asosliligini ta’minlash, nazariy va amaliy jihatlarni qamrab olish hamda talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish jarayonini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligining asosiy omillari mavzusidagi maqola bo‘yicha erishiladigan natijalar quyidagilardan iborat:

1. Nazariy natijalar. Loyihalash-konstruktorlik kompetentligining ilmiy asoslari aniqlanadi; Kompetentlik yondashuvi bo‘yicha asosiy nazariy tushunchalar tizimlashtiriladi; Muhandislik-ta’lim integratsiyasida talabalar kompetentligini rivojlantirish usullari yoritiladi; Loyihalash-konstruktorlik kompetentligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi; Innovatsion texnologiyalar va raqamli vositalarning ta’siri aniqlanadi; Amaliy tajriba, ijodiy fikrlash va jamoaviy ishlashning ahamiyati o‘rganiladi.

2. Amaliy natijalar. Talabalar uchun samarali o‘quv-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi; Konstruktorlik va loyihalash bo‘yicha innovatsion o‘quv-uslubiy materiallar tayyorlanadi; Talabalarni loyihalash va konstruktorlik faoliyatiga jalb qilishning samarali usullari taklif etiladi; Zamonaviy texnologiyalar yordamida loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish metodikasi takomillashtiriladi; 3D-modellashtirish, CAD dasturlar va simulyatsiyalarni o‘qitish jarayoniga tatbiq etish yo‘llari ishlab chiqiladi; STEAM yondashuvi orqali amaliy muammolarni hal etish strategiyalari ishlab chiqiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

3. Pedagogik natijalar. Loyiha-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishning samaradorligi baholanadi; Talabalarning kompetentligini baholash mezonlari aniqlanadi va amaliyotga joriy qilinadi; Eksperimental va nazorat guruhlarining natijalari tahlil qilinadi; Talabalar bilim, ko‘nikma va malakalarining rivojlanishi kuzatiladi; Mustaqil loyiha va konstruktorlik ishlari natijalari o‘rganiladi; Talabalar tomonidan yaratilgan loyihalar sifat jihatidan baholanadi.

4. Innovatsion natijalar. Innovatsion ta’lim metodlari va texnologiyalarining samaradorligi aniqlanadi; Ta’lim jarayoniga yangi metodikalar va interaktiv texnologiyalar joriy etiladi; O‘quv dasturlariga loyiha-konstruktorlik mashg‘ulotlarini integratsiya qilish imkoniyatlari aniqlanadi; Pedagogik jarayonda raqamli texnologiyalar va interfaol yondashuvlar keng joriy qilinadi; Virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va raqamli o‘qitish platformalari ishlab chiqiladi. Muammoga asoslangan ta’lim usullari orqali talabalar ijodiy fikrlashga yo‘naltiriladi.

Maqola natijasida talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-nazariy, amaliy va innovatsion yondashuvlar asosida samarali model taklif etiladi. Shuningdek, ushbu yo‘nalishda ta’lim jarayonini takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish zamonaviy texnik va muhandislik ta’limining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu kompetentligini shakllantirishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ulardan samarali foydalanish ta’lim sifatini oshirish hamda talabalarni amaliy muhandislik faoliyatiga tayyorlashda katta ahamiyat kasb etadi.

1. Kompetentlikni rivojlantirishga ta’sir etuvchi asosiy omillar. Talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda quyidagi omillar muhim rol o‘ynaydi:

Innovatsion texnologiyalar va raqamli muhit: Zamonaviy ta’lim jarayonida 3D-modellashtirish, sun’iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari orqali talabalarning texnik loyihalar yaratish ko‘nikmalarini oshirish mumkin.

Amaliy mashg‘ulotlar va loyiha faoliyati: Nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun talabalar real muhandislik loyihalarida ishtirok etishi va mustaqil konstruktorlik ishlanmalarini yaratishi zarur;

Muammoga asoslangan ta’lim va kreativ fikrlashni rivojlantirish: Talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini oshirish uchun ta’lim jarayonida muammoga asoslangan yondashuv (Problem-Based Learning) metodidan foydalanish muhim; Bu usul orqali talabalar haqiqiy hayotiy muammolarni tahlil qilish va innovatsion yechimlar ishlab chiqishga o‘rganadilar.

O‘qituvchilarning kasbiy mahorati va ta’lim metodikasi: Talabalar bilan ishlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, loyiha-metodika yondashuvi va mentorlik tizimi muhim rol o‘ynaydi; O‘qituvchilar interaktiv va eksperimental o‘qitish usullaridan foydalangan taqdirda, talabalarning o‘z mustaqil loyihalarini ishlab chiqishiga katta motivatsiya yaratiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Sanoat bilan hamkorlik va real ishlab chiqarish tajribasi: Talabalar ishlab chiqarish korxonalari va startap loyihalarida ishtirok etganda, ularning konstruktorlik va loyihalash kompetentligini rivojlantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi; Universitet-sanoat hamkorligi talabalarni bozor sharoitiga moslashtirishda muhim ahamiyatga ega.

2. Muhokama va takliflar. Loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishni yanada samarali qilish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin: Muhandislik ta’limida gibrid va raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash; Talabalarni real loyihalar va startap faoliyatiga jalb qilish; Tahlil va muammolarni hal qilish kompetentligini shakllantirish uchun amaliy darslarni ko‘paytirish; Ta’lim va sanoat hamkorligini kuchaytirish orqali talabalarni ishlab chiqarish jarayoniga yaqinlashtirish.

Talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish ko‘p omilli jarayon bo‘lib, innovatsion texnologiyalar, amaliy ta’lim metodlari, sanoat bilan hamkorlik va muammoga asoslangan yondashuv kabi omillar muhim rol o‘ynaydi. Ushbu omillarning uyg‘unligi natijasida talabalar zamonaviy muhandislik muhitida mustaqil ishlash, kreativ yondashuv bilan loyihalar ishlab chiqish va real muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, sanoat bilan uzviy integratsiya qilish, tajriba va amaliy mashg‘ulotlarni ko‘paytirish hamda ilg‘or texnologiyalardan foydalanish talabalar kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada raqobatbardosh, innovatsion fikrlaydigan va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislar tayyorlash imkoniyati oshadi.

Mazkur maqolada talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishga ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida quyidagi muhim jihatlar aniqlandi:

Loyiha-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar, amaliy mashg‘ulotlar va muammoga asoslangan ta’lim yondashuvlari muhim rol o‘ynaydi; Talabalarning texnik ijodkorligini oshirish uchun zamonaviy o‘quv metodlari, jumladan, 3D-modellashtirish, simulyatsiyalar va raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish zarur; Kompetentlikni rivojlantirishda nazariy bilimlar bilan birga, amaliy tajriba va mustaqil loyiha faoliyati asosiy omil hisoblanadi; Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar, masofaviy va gibrid o‘qitish usullari joriy etilganda, talabalar loyihalash va konstruktorlik bo‘yicha yanada samarali ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar; Kompetentligini baholash mezonlarini takomillashtirish orqali talabalar bilim va ko‘nikmalarining rivojlanish dinamikasini aniqlash va ta’lim sifatini oshirish mumkin.

Umuman olganda, ushbu maqola talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-nazariy asoslarni bayon etadi, innovatsion pedagogik yondashuvlarning samaradorligini ochib beradi va ta’lim jarayoniga ularni joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

1. Jonassen, D. H. "Learning to Solve Problems: A Handbook for Designing Problem-Solving Learning Environments" – Routledge, 2011.
2. Kolodner, J. "Case-Based Reasoning and Learning in Engineering Design" – IEEE Transactions on Systems, 2015.
3. Turaev K., Yadgarov N., Mamatov D. The role and practical significance of interesting issues in the development of students' cognitive competencies //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 538. – C. 05045. https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2-s2.0-85196835458&origin=recordpage
4. Umirov A. et al. The current state of soybean production and its size-mass indicators in the conditions of Uzbekistan //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 105. – C. 05018. https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2-s2.0-85192545367&origin=recordpage
5. Turayev X. A. et al. Methodical recommendations on the implementation of the theme of forty in drawing lessons graphically //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 2. – C. 264-268.
6. Turayev X. A. "Bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining loyihalash kompetentligini rivojlantirishning grafikaviy asoslari". – T.: Monografiya. 2021.
7. Turayev K. A. Improving the methodology of developing the design-constructive competence of future drawing teachers : дис. – Dissertation written for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, 2022.
8. UNESCO. "Engineering Education and Innovation for the Future", 2022. (www.unesco.org)
9. European Commission. "Digital Competence Framework for Educators", 2020. (www.ec.europa.eu)
10. IEEE Xplore Digital Library. "Innovative Methods in Engineering Education", 2023. (www.ieeexplore.ieee.org)

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Turayev Xumoyiddin Abdug'afforovich**, TerDU dotsenti, p.f.f.d. (PhD), [**Тураев Хумойддин Абдугаффорович,** Научный руководитель, доцент ТерГУ, PhD по педагогическим наукам], [**Turaev Khumoyiddin Abdugafforovich**, Scientific Supervisor, Associate Professor at TerSU, PhD in Pedagogical Sciences]; manzil: O'zbekiston, Termiz shahri, "Barkamol avlod" ko'chasi 43-uy [адрес: Узбекистан, г. Термез, улица «Баркамол авлод», дом 43 [address: Uzbekistan, Termiz city, "Barkamol Avlod" Street, 43 house]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

TALABALARNING GRAFIK SAVODXONLIGI BILAN BOG‘LIQ KOMPETENSIYALARINI GRAFIK DASTURLAR YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH

© SH.Y. Sattarov[1]✉, © X.A. Turayev[2]✉
[1,2]Termiz davlat universiteti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqola zamonaviy grafik dasturlardan foydalangan holda o‘quvchilarning grafik savodxonligini rivojlantirishning samarali strategiyalarini o‘rganadi. U talabalarning vizual ma’lumotlarni sharhlash, tahlil qilish qobiliyatlarini - texnologiya ta’limi bilan bog‘liq sohalar uchun muhim ko‘nikmalarni oshirishda grafik dasturiy ta’minotning muhim rolini ta’kidlaydi.

MAQSAD: tadqiqot fazoviy vizualizatsiya, texnik chizmachilik va raqamli dizayn malakasi kabi asosiy kompetensiyalarni aniqlaydi va AutoCAD va shu kabi grafik vositalarni o‘quv dasturiga integratsiyalashning pedagogik usullarini muhokama qiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: talabalarning grafik savodxonligi bilan bog‘liq kompetensiyalarini rivojlantirish uchun grafik dasturlar asosida ta’lim jarayonini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotda quyidagi materiallar va metodlardan foydalanildi:

materiallar:

autocad, coreldraw, adobe illustrator kabi grafik dasturlar;

chizma geometriya, muhandislik grafikasi va dizayn asoslari bo‘yicha o‘quv adabiyotlari;

talabalarning grafik savodxonligini baholash uchun test va topshiriqlar.

metodlar:

Eksperimental metod: Grafik dasturlar yordamida talabalarning grafik savodxonligi bilan bog‘liq kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi.

Taqqoslash metodi: Grafik dasturlar bilan ta’lim olgan va an’anaviy usulda o‘qigan talabalar natijalari solishtirildi.

So‘rov va tahlil: talabalarning dasturlar bilan ishlash bo‘yicha fikrlari o‘rganildi va natijalari tahlil qilindi.

Statistik tahlil: Olingan natijalarni tahlil qilish uchun statistik usullar qo‘llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, grafik dasturlar bilan ishlashni o‘quv jarayoniga keng joriy etish talabalar kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Shu bois, kelajakda ushbu yondashuvni yanada takomillashtirish va yangi metodlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

XULOSA: talabalarning grafik savodxonlik bilan bog‘liq kompetensiyalarni rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim vazifasidir. Grafik dasturlardan foydalanish talabalarga nafaqat kasbiy mahoratini oshirish, balki raqamli muhit sharoitlariga samarali moslashish, ijodiy tafakkurni ham shakllantirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, maxsus kompetensiya, shaxsiy kompetensiya, grafik savodxonlik, kompyuter grafikasi, grafik dasturlar, AutoCAD grafik dasturi.

Iqtibos uchun: Sattarov Sh.Y., Turayev X.A. Talabalarning grafik savodxonligi bilan bog‘liq kompetensiyalarini grafik dasturlar yordamida rivojlantirish. // Inter education & global study. 2025. №3 B.145-154.

РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ, СВЯЗАННЫХ С ГРАФИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТЬЮ СТУДЕНТОВ, С ПОМОЩЬЮ ГРАФИЧЕСКИХ ПРОГРАММ

© Ш. Ю. Саттаров[1]✉, © Х.А. Тураев [2]✉
[1,2]Термезский государственный университет, Термез, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в этой статье исследуются эффективные стратегии развития графической грамотности учащихся с использованием современного графического программного обеспечения. В нем подчеркивается решающая роль графического программного обеспечения в повышении способности учащихся интерпретировать и анализировать визуальную информацию — навыков, имеющих решающее значение для областей, связанных с технологическим образованием.

ЦЕЛЬ: в исследовании определяются основные компетенции, такие как пространственная визуализация, техническое рисование и навыки цифрового дизайна, а также обсуждаются педагогические методы интеграции AutoCAD и аналогичных графических инструментов в учебную программу.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: для развития компетенций, связанных с графической грамотностью студентов, важно организовать учебный процесс на основе графических программ. В данном исследовании использовались следующие материалы и методы:

материалы:

графические программы, такие как autocad, coreldraw, adobe illustrator;

учебная литература по начертательной геометрии, инженерной графике и основам дизайна;

тесты и задания для оценки графической грамотности студентов.

методы:

экспериментальный метод: проведены опытно-экспериментальные исследования по формированию компетенций студентов с использованием графических программ.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

метод сравнения: сравнивались результаты студентов, обучавшихся с использованием графических программ, и студентов, обучавшихся традиционными методами.

опрос и анализ: изучены мнения студентов о работе с графическими программами, проведен анализ полученных данных.

статистический анализ**:** для обработки полученных результатов применялись статистические методы.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: Результаты исследования показывают, что широкое внедрение графических программ в учебный процесс является эффективным инструментом для развития компетенций студентов. В связи с этим в дальнейшем целесообразно совершенствовать данный подход и внедрять новые методики.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Развитие компетенций, связанных с графической грамотностью студентов, является важной задачей современного образования. Использование графических программ не только повышает профессиональное мастерство студентов, но и способствует их эффективной адаптации к цифровой среде, а также развитию творческого мышления.

Ключевые слова: компетентность, специальная компетентность, личностная компетентность, графическая грамотность, компьютерная графика, графические программы, графическая программа AutoCAD.

Для цитирования: Саттаров Ш. Ю., Тураев Х.А. Развитие компетенций, связанных с графической грамотностью студентов, с помощью графических программ. // Inter education & global study. 2025. №3. С. 145–154.

DEVELOPMENT OF COMPETENCIES RELATED TO STUDENTS' GRAPHIC LITERACY USING GRAPHIC SOFTWARE

© Shavkat Y. Sattarov[1]✉, © Khumoyiddin A. Turaev [2]✉
[1,2]Termiz State University, Termiz, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article explores effective strategies for developing students' graphic literacy using modern graphics software. It emphasizes the critical role of graphics software in enhancing students' ability to interpret and analyze visual information—skills critical to technology education-related fields.

AIM: the study identifies core competencies such as spatial visualization, technical drawing, and digital design skills and discusses pedagogical methods for integrating AutoCAD and similar graphics tools into the curriculum.

MATERIALS AND METHODS: to develop students' competencies related to graphic literacy, it is essential to organize the educational process based on graphic software. This study utilized the following materials and methods:

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

materials:

graphic software such as autocad, coreldraw, and adobe illustrator;

educational literature on descriptive geometry, engineering graphics, and design fundamentals;

tests and assignments to assess students' graphic literacy.

methods:

experimental method: practical experiments were conducted to develop students' competencies using graphic software.

comparative method: the results of students trained with graphic software were compared with those taught using traditional methods.

survey and analysis: students' opinions on working with graphic software were studied, and the results were analyzed.

statistical analysis: statistical methods were used to process the collected data.

DISCUSSION AND RESULTS: The study results indicate that the extensive integration of graphic software into the educational process is an effective tool for developing students' competencies. Therefore, further improvement of this approach and the introduction of new methodologies are advisable.

CONCLUSION: Developing students' competencies related to graphic literacy is a crucial task of modern education. The use of graphic software not only enhances students' professional skills but also helps them effectively adapt to the digital environment and develop creative thinking.

Key words: competence, special competence, personal competence, graphic literacy, computer graphics, graphic programs, AutoCAD graphic program.

For citation: Shavkat Y. Sattarov, Khumoyiddin A. Turaev. (2025) 'Development of Competencies Related to Students' Graphic Literacy Using Graphic Software' design competence', Inter education & global study, (3), pp. 145–154. (In Uzbek).

Grafik savodxonlik zamonaviy ta'lim jarayonida tobora muhim kompetensiyaga aylanib bormoqda. Raqamli asrda grafik dasturlar bilan ishlash qobiliyati nafaqat qo'shimcha mahorat, balki talabalarni kasbga tayyorlashning muhim tarkibiy qismidir. Bu ayniqsa texnologiya ta'limi sohasida.

Maqolaning maqsadi talabalarning grafik savodxonligini rivojlantirishda grafik dasturlarning rolini ko'rib chiqish va ularning malakasini oshirish yo'llarini taklif qilishdir.

Texnologik ta'lim jarayonida talabalar grafik savodxonligi va kompyuter grafikasi bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarni egallashi muhim ahamiyat kasb etadi. Grafik dasturlar yordamida talabalar muhandislik grafikasi fanlarini yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

K.A.Zoirov oliy ta'lim talabalarining uzluksiz grafik rivojlanishi masalalari bo'yicha tadqiqot ishlari olib borgan. 2013-yilda u "Oliy ta'limda talabalarning doimiy grafik rivojlanishi" maqolasini chop ettirgan. Uning bu maqolasi grafik ta'lim tushunchalari va

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

o‘quvchilarning grafik madaniyati mazmuni, ularning dizayn va grafik ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan.

Tatyana Viktorovna Zvereva grafik savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. 2013-yilda “Dekorativ buyumlarni loyihalash jarayonida talabalarning grafik savodxonligini shakllantirish” maqolasi chop etilgan. Bu maqolada eskiz, chizma, texnik chizma yoki chizma ko‘rinishidagi grafik tasvirlar orqali materialdagi bezak buyumlarini loyihalash jarayonida grafik savodxonlikni rivojlantirishga alohida e’tibor beriladi. Dekorativ-amaliy san’atni o‘qitish jarayonida tasviriy ta’lim yo‘nalishi talabalarida grafik savodxonlik va grafik kompetentsiyani shakllantirish o‘rtasidagi bog‘liqlik asoslab berilgan.

Trubnikova Lyudmila Ivanovnaning 2013-yilda chop etilgan “Grafik fanlarni o‘qitishni kompyuter bilan ta’minlash grafik kompetentsiyani shakllantirish sharti sifatida” maqolasini chop ettirgan. Ushbu maqolada grafik kompetentsiyani rivojlantirish uchun turli xil o‘qitish usullarini takomillashtirish borasida ma’lumotlar berilgan. Ushbu maqolada ushbu usullardan biri - kompyuter dasturlari yordamida mustaqil grafik ishlarni bajarish muhokama qilingan.

Maqolamizda grafik savodxonlik va maxsus kompetensiyalarga ko‘p to‘xtalib o‘taman. Xo‘sh grafik savodlik nima? Kompetensiya nima? Maxsus kompetensiya nima? Avvalo shu savolga javob berib o‘taman.

Grafik savodxonlik bu - insonga grafik ob’ektlar va tasvirlarni idrok etish, tahlil qilish, yaratish va tahrirlash imkonini beradigan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisidir. Bu ko‘nikmalar talabalar uchun nafaqat texnik yo‘nalishlarda, balki umumiy fanlar va ijodiy faoliyat uchun ham zarurdir.

“Kompetensiya” tushunchasi lotincha “competere” degan so‘zdan olingan bo‘lib, “loyiq”, “mos kelmoq” ma’nosini anglatadi.

Maxsus kompetensiya - bu aniq bir kasb yoki soha bilan bog‘liq bo‘lgan chuqur bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisidir. Boshqacha aytganda, bu — insonning o‘z mutaxassisligi doirasida muammolarni hal qilish, ish jarayonlarini samarali bajarish va innovatsion yondashuvlarni qo‘llay olish qobiliyati.

Grafik dasturlar yordamida quyidagi kompetensiyalar shakllantiriladi:

- analitik fikrlash: grafik obyektlarni tahlil qilish va ularning o‘zaro bog‘liqligini tushunish.
- ijodiy yondashuv: grafik chizmalar elementlarini yaratish va loyihalashtirish.
- texnik bilimlar: chizma va grafik kodlarni tushunish hamda o‘qish.
- dasturiy ta’minot bilan ishlash: grafik dasturlar interfeysi va funksiyalaridan samarali foydalanish.
- murakkab 3d modellar va vizualizatsiyalarni yaratish

hozirgi kunda quyidagi grafik dasturlardan kengroq foydalanamiz:

- autocad - chizmalar yaratish va tahrirlash uchun eng ommabop dasturlardan biri.
- coreldraw - vektor grafikasi bilan ishlashga mo‘ljallangan dastur.
- adobe illustrator - professional dizayn va grafik chizmalarda keng qo‘llaniladi.
- sketchup - 3d modellash uchun sodda va intuitiv dastur.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Hozirgi vaqtda uch o‘lchamli kompyuterli modellashtirish vositalari foydalanuvchilarning e’tiborida bo‘layapti va bu tasodifiy emas albatta. Ulardan foydalanish foydalanuvchiga chizmalarni tez, sifatli, yuqori aniqlikda bajarish va qog‘ozga chiqarish imkonini beradi hamda ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllanib borishida xizmat qiladi.

Talabalarning chizma to‘g‘risidagi bilimi va fazoviy tasavvurini oshirishda turli xil buyumlarni chizish ancha samarali natija beradi. Buni AutoCAD grafik dasturidan foydalanib tushuntirilsa samaradorlik yanada oshadi. Shuni hisobga olib tarkibida tutashma elementi qatnashgan detal chizmasini chizishni topshiriqlar asosida ko‘rib o‘tamiz.

“Tutashmani bajarish uchun tavsiyalar va uslubiy ko‘rsatmalar

Tarkibida tutashma elementi qatnashgan detal chizmasini quyidagi ketma-ketlikda bajarish tavsiya etiladi: Lekin buni har bir talaba o‘zi istagan, ya’ni o‘zi maqbul deb topgan reja asosida bajarishlari ham mumkin.

1. Tekis konturning o‘lchamlaridan kelib chiqqan holda A4 yoki A3 format tanlab olinadi. So‘ngra bu formatda tutashmaning simmetriya o‘qlari va markaz chiziqlari “Отрезок”-”Kesma” buyrug‘idan foydalanib o‘tkaziladi. Markaz chiziqlarni o‘tkazishda ular orasidagi masofani “Surish”-“Сдвиг” buyrug‘idan yoki kesma uzunligini tezkor kiritish usulidan foydalanib kiritiladi.

2. Chizmada berilgan chiziqlar, ya’ni to‘g‘ri chiziq va aylanalar chizib olinadi. Bunda “Отрезок”-”Kesma” va “Круг”-“Aylana” buyruqlaridan foydalaniladi.

3. Chizmadagi tutashma elementi-aylana yoyi o‘tkaziladi. Kompyuterda bunday aylana yoyi to‘liq aylana ko‘rinishda chizish panelidagi yoki “Черчение” menyusidagi “Круг”-“Aylana” buyrug‘idan foydalanib chizib olinadi. Buning uchun ularning birortasiga kirib, undagi “Кас/ Кас /Радиус” buyrug‘i yuklanadi va taxminiy urinish nuqtalari “Sichqon” yordamida ko‘rsatiladi. Muloqotlar darchasidagi so‘rovga tutashma radiusi kiritiladi va “Enter” ni yuklash bilan tutashma yoyi to‘liq aylana bo‘lib tasvirlanib qoladi.

Shunday amallarni bajarish asosida chizmadagi barcha tutashmalar bajariladi. Ulardagi ortiqcha aylana yoylarini chizmadan yo‘qotish uchun, “Обрезать”-“Kesish” buyrug‘idan foydalaniladi.

Yuqoridagi bosqichlarda bajarilgan chizma taxt qilinadi. Ya’ni ishni qog‘ozga chiqarib olishdan avval, uning chiziqlari kerakli turlarda-qiyofalarda va yo‘g‘onliklarda bajarib chiqiladi.

O‘q va markaz chiziqlari ikkinchi “ByLayer” buyrug‘idan foydalanib bajariladi. Asosiy chiziqlar yo‘g‘onligini, ekranning eng pastki “Режим “Holat" qatoridagi “ВЕСЛИН” buyrug‘iga kirib, ko‘riladi va tekshiriladi. Agar chizmada biror yo‘g‘onlashtirilmagan chiziq qolib ketgan bo‘lsa, uni ajralib uchinchi “ByLayer” buyrug‘idan foydalanib yo‘g‘onlashliriladi.


Agar chizmadagi chiziqlarga rang berish lozim bo‘lsa, birinchi “ByLayer” buying‘idan foydalaniladi.

“Tekis kontur” vazifasida berilgan o‘lchamlar, ekranda bajarilgan chizmaga qo‘yib chiqiladi. O‘lcham chiziqlarini, strelkalarini va raqamlari-ni ko‘rsatkichlari “Формат”


ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

menyusidagi “Размерный стили...” buyrug‘-iga kirib, “Менеджер Стиля измерения” darchasidan foydalanib tanlab olinadi.

Tayyor bo‘lgan “Tekis kontur” chizmasi qog‘ozga chiqarish uchun tayyor holda hotirada saqlanadi va bir nusxada qog‘ozga ko‘chirib olinadi.(1-rasm).




ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3



1-rasm

Tayyor bo‘lgan “Tekis kontur” chizmasini 3D muhitda yaqqol tasviri quriladi (“Модели-рование” panelidagi “Вытягивание” buyrug‘idan foydalanib). 2-rasm



15.2-rasm

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Eng yaxshi natijalarga erishish uchun ta’lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni davom ettirish va o‘qituvchilar faoliyatini metodik ta’minlashni rivojlantirish zarur.

Insonning yaratuvchanlik faoliyatida grafik tasvir o‘zaro bog‘langan ikki vazifani bajaradi. Birinchidan, chizma fikrlashning o‘ziga xos quroli, ikkinchidan fikr (g‘oya)ni beruvchi vositadir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Sh.D.Dilshodbekov, N.A. Xoliqova “Fazoviy tasavvurni intensiv rivojlantirish usullari” ilmiy maqolasi. International Conference on Developments in Education jurnali. 2022-yil maydagi soni, 102-106 b.
2. Turayev X. A. et al. Methodical recommendations on the implementation of the theme of forty in drawing lessons graphically //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 264-268.
3. Sattarov S. Y. AutoCAD GRAFIK DASTURI YORDAMIDA MODEL YASASH ORQALI TALABALARNING FAZOVIY TASAVVURINI OSHIRISHGA OID METODIK TAVSIYALAR //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 4. – №. CSPU Conference 1. – С. 82-84.
4. Yuldashevich S. S. PLACE AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF GRAPHIC PROGRAMS AutoCAD AND 3D MAX IN THE PROCESS OF LEARNING //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 05. – С. 173-176.
5. Зойиров, К. А. Современная концепция графического образования студентов в высшей школе / К. А. Зойиров, О. С. Саидкулов, Ш. К. Абдухакимов. — Текст : непосредственный // Теория и практика образования в современном мире : материалы VIII Междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, декабрь 2015 г.). — Санкт-Петербург : Свое издательство, 2015. — С. 145-147.
6. Зверева Т. В., Попова Е. И., Стихина Е. С. Формирование графической грамотности студентов художественных профилей в процессе проектирования декоративных изделий //Ученые записки Шадринского государственного педагогического университета. – 2023. – №. 2. – С. 52-56.
7. Трубникова Л. И., Небреева М. Л. Компьютерное сопровождение преподавания графических дисциплин как условие формирования графической компетентности //Инновационное развитие профессионального образования. – 2017. – №. 3 (15). – С. 46-48.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Sattarov Shavkat Yuldashevich**, TerDU o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi, [**Саттаров Шавкат Юлдашевич,** Преподаватель ТерДУ, независимый исследователь], [**Sattarov Shavkat Yuldashevich**, Lecturer at TerDU, Independent Researcher]; manzil: O'zbekiston, Termiz shahri, "Barkamol avlod" ko'chasi 43-uy [адрес: Узбекистан, г. Термез, улица «Баркамол авлод», дом 43 [address: Uzbekistan, Termiz city, "Barkamol Avlod" Street, 43 house]

✉**Turayev Xumoyiddin Abdug'afforovich**, TerDU dotsenti, p.f.f.d. (PhD), [**Тураев Хумойддин Абдугаффорович,** Научный руководитель, доцент ТерГУ, PhD по педагогическим наукам], [**Turaev Khumoyiddin Abdugafforovich**, Scientific Supervisor, Associate Professor at TerSU, PhD in Pedagogical Sciences]; manzil: O'zbekiston, Termiz shahri, "Barkamol avlod" ko'chasi 43-uy [адрес: Узбекистан, г. Термез, улица «Баркамол авлод», дом 43 [address: Uzbekistan, Termiz city, "Barkamol Avlod" Street, 43 house]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

MULTIMEDIA VOSITALARI ASOSIDA TALABALARNING MUSTAQIL FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

© A.K. Rasulova[1]✉,
[1]Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada multimedia vositalari asosida bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi tahlil qilinadi.

MAQSAD: Zamonaviy ta’lim jarayonida multimedia texnologiyalaridan samarali foydalanish nafaqat o‘qitish jarayonini interaktivlashtirish, balki talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda turli xil axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), vizual va audio resurslar, interaktiv dasturlar va onlayn platformalar orqali ta’lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari o‘rganiladi. Shuningdek, maqolada mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik yondashuvlari, metodikasi va amaliy tajribalari bayon etilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: olingan natijalar multimedia vositalari yordamida texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

XULOSA: bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining multimedia vositalari bilan ishlash ko‘nikmalarini oshirish zarur: Bo‘lajak o‘qituvchilarning multimedia vositalari bilan ishlash ko‘nikmalari turlicha darajada. Ularning multimedia vositalari bilan ishlash ko‘nikmalarini oshirish uchun o‘quv jarayonida multimedia vositalaridan kengroq foydalanish, amaliy mashg'ulotlar o‘tkazish va malaka oshirish kurslari tashkil etish zarur.

Kalit so'zlar: Multimedia vositalari, texnologiya fani, mustaqil fikrlash, interaktiv ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), pedagogik yondashuvlar, kasbiy kompetensiya, innovatsion ta’lim, raqamli resurslar.

Iqtibos uchun: Rasulova A.K. multimedia vositalari asosida talabalarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi. // Inter education & global study. 2025. №3 B.155-161.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ

© A.K. Расулова[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

[1]Термезский государственный инженерно-агротехнологический университет, Термез, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье анализируется развитие навыков самостоятельного мышления у будущих учителей технологии на основе мультимедийных средств.

ЦЕЛЬ: эффективное использование мультимедийных технологий в современном образовательном процессе не только делает учебный процесс более интерактивным, но и способствует формированию и развитию навыков самостоятельного мышления у студентов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании рассматриваются возможности повышения эффективности образования с помощью различных информационно-коммуникационных технологий (ИКТ), визуальных и аудиоресурсов, интерактивных программ и онлайн-платформ. Также в статье описаны педагогические подходы, методы и практический опыт формирования самостоятельного мышления.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: полученные результаты показывают, что использование мультимедийных средств играет важную роль в повышении профессиональной компетентности учителей технологии.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: будущим учителям технологии необходимо повышать навыки работы с мультимедийными средствами: уровень владения мультимедийными средствами у будущих учителей различается. Для повышения их навыков работы с мультимедийными средствами необходимо широко использовать мультимедийные технологии в учебном процессе, проводить практические занятия и организовывать курсы повышения квалификации.

Ключевые слова: мультимедийные средства, технические науки, самостоятельное мышление, интерактивное обучение, информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), педагогические подходы, профессиональная компетентность, инновационное образование, цифровые ресурсы.

Для цитирования: Расулова А.К. Методика развития навыков самостоятельного мышления студентов на основе мультимедийных средств. // Inter education & global study. 2025. №3. С. 155–161.

THE ROLE AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF CLUSTER EXPERIENCE IN DEVELOPING STUDENTS' DESIGN COMPETENCE

© Aziza K. Rasulova[1]✉,
[1]Termiz State University of Engineering and Agrotechnologies, Termiz, Uzbekistan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the issue of developing independent thinking skills in future technology teachers through the use of multimedia tools.

AIM: The effective use of multimedia technologies in the modern educational process not only makes learning more interactive but also contributes to the formation and development of students' independent thinking skills.

MATERIALS AND METHODS: the study examines the possibilities of increasing the effectiveness of education through the use of various information and communication technologies (ICT), visual and audio resources, interactive programs, and online platforms. The article also presents pedagogical approaches, methods, and practical experiences in the formation of independent thinking.

DISCUSSION AND RESULTS: the results obtained indicate that the use of multimedia tools is essential in enhancing the professional competence of technology teachers.

CONCLUSION: future technology teachers need to improve their multimedia skills: the level of proficiency in multimedia tools among future teachers varies. To enhance their multimedia skills, it is necessary to make wider use of multimedia tools in the educational process, conduct practical training sessions, and organize professional development courses.

Key words: multimedia tools, technology education, independent thinking, interactive learning, information and communication technologies (ICT), pedagogical approaches, professional competence, innovative education, digital resources.

For citation: Aziza K. Rasulova (2025) 'Methodology for developing students' independent thinking skills based on multimedia tools', Inter education & global study, (3), pp. 155-161. (In Uzbek).

Bugungi Zamonaviy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri - bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va ularni amaliy faoliyatga yo'naltirishdir. Bugungi kunda texnologik taraqqiyot ta'lim jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, multimedia vositalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) yordamida o'qitish innovatsion va interaktiv yondashuvlar asosida tashkil etilmoqda.

Multimedia texnologiyalari nafaqat o'quv materiallarini taqdim etish usullarini takomillashtirishga, balki talabalarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashini shakllantirishga ham yordam beradi. Xususan, vizual, audio va interaktiv vositalardan foydalanish orqali mavzularni yanada tushunarli va qiziqarli qilish, shuningdek, amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Ushbu maqolada multimedia vositalarining ta'lim jarayonidagi o'rni, ularning mustaqil fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyati, pedagogik yondashuvlar va zamonaviy metodlar tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy va ijodiy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

kompetensiyasini oshirish uchun multimedia texnologiyalarining samaradorligini o‘rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta’lim tizimida dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu muammoni o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar mavjud bulardan quyidagilarni o‘rganamiz.

Multimedia vositalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni: R.S.Ismoilova o‘z tadqiqotlarida multimedia vositalarining ta'lim jarayonidagi o‘rni va afzalliklarini ko‘rsatib o‘tgan. Uning fikricha, multimedia vositalari ta'lim jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi.

Mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish: B.L.Farberman o‘z ishlarida mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslarini ko‘rsatib o‘tgan. Uning fikricha, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘quvchilarning faol ishtiroki va ijodiy faoliyati muhim ahamiyatga ega.

Texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi: N.A.Muslimov texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini ko‘rsatib o‘tgan. Uning fikricha, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi ularning o‘quvchilarga zamonaviy texnologiyalarni o‘rgatish va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistondagi tadqiqotlar: O‘zbekistonda ham ushbu mavzu bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. O‘zbekistonlik olimlar va pedagoglar multimedia vositalarining ta'lim jarayonidagi o‘rni, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari va texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirish masalalarini o‘rganishgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, multimedia vositalari bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu tadqiqotda multimedia vositalari asosida talabalarining mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va baholashga yo‘naltirilgan usullar qo‘llanildi.

Materiallar:

Multimedia vositalari: Elektron darsliklar, interaktiv taqdimotlar, video va animatsion materiallar, virtual laboratoriyalar, ta’lim platformalari (Moodle, Google Classroom va h.k.).

Talabalar guruhi: Tadqiqotda turli mutaxassislik yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalardan iborat eksperimental va nazorat guruhlari ishtirok etdi.

Baholash mezonlari: Talabalar mustaqil fikrlash darajasini aniqlash uchun maxsus testlar, muammoli topshiriqlar, esse yozish va fikrlash xaritalari yaratish kabilar ishlatildi.

Metodlar:

Eksperimental pedagogik tadqiqot: Talabalar ikki guruhga ajratilib, eksperimental guruhga multimedia vositalari asosida ta’lim berildi, nazorat guruhi esa an’anaviy usullarda o‘qitildi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Taqqoslash va tahlil: Eksperimental va nazorat guruhlarining natijalari qiyoslanib, multimedia texnologiyalarining ta'siri statistik tahlil qilindi.

Interfaol metodlar: Kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozaralar, case-study usullari orqali mustaqil fikrlash darajasi shakllantirildi.

So'rov va intervyu: Talabalarning multimedia texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi haqidagi fikrlarini o'rganish maqsadida so'rovnomalar va intervyular o'tkazildi.

Matematik-statistik tahlil: Natijalarni ob'ektiv baholash uchun statistik dasturlar orqali ma'lumotlar qayta ishlanib, ta'lim samaradorligiga ta'siri baholandi.

Mazkur metodika yordamida multimedia vositalari ta'lim jarayonida talabalar mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Multimedia vositalarining ta'lim jarayonidagi samaradorligi: Nazariy tahlil va eksperimental tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, multimedia vositalari o'quv materiallarini vizuallashtirish, interaktiv topshiriqlar yaratish va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash orqali ta'lim samaradorligini oshiradi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining multimedia vositalari bilan ishlash ko'nikmalari: So'rovnoma va kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining multimedia vositalari bilan ishlash ko'nikmalari turlicha darajada. Eksperimental tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, multimedia vositalaridan foydalangan holda o'tkazilgan dars mashg'ulotlari bo'lajak o'qituvchilarning multimedia vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi.

Multimedia vositalaridan foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalarning samaradorligi: Eksperimental tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, multimedia vositalaridan foydalanish bo'yicha berilgan amaliy tavsiyalar bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda ijobiy natijalarga olib keladi. Amaliy tavsiyalar bo'lajak o'qituvchilarga multimedia vositalaridan samarali foydalanish, interaktiv topshiriqlar yaratish va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha ko'nikmalar beradi. O'zbekiston sharoitida multimedia vositalaridan foydalanishda o'quv muassasalarining texnik jihozlanishi, internet tezligi va o'qituvchilarning multimedia vositalari bilan ishlash ko'nikmalari kabi omillarni hisobga olish zarur. Shuningdek, milliy madaniyat va an'analarni hisobga olgan holda multimedia ta'lim resurslarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqot bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining mustaqil fikrlash ko'nikmalarini multimedia vositalari yordamida rivojlantirish masalasini o'rganishga qaratildi. Tadqiqot natijalari multimedia vositalarining ta'lim jarayonidagi samaradorligini, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi rolini, bo'lajak o'qituvchilarning multimedia vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini va amaliy tavsiyalarning samaradorligini ko'rsatdi.

Multimedia vositalarining ta'lim jarayonidagi samaradorligi: Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, multimedia vositalari ta'lim jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Multimedia vositalari o'quv materiallarini vizuallashtirish, interaktiv topshiriqlar yaratish va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash orqali ta'lim

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

samaradorligini oshiradi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtiradi va ularning o‘zlashtirish darajasini oshiradi.

Multimedia vositalaridan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalarning samaradorligi: Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, multimedia vositalaridan foydalanish bo‘yicha berilgan amaliy tavsiyalar bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda ijobiy natijalarga olib keladi. Amaliy tavsiyalar bo‘lajak o‘qituvchilarga multimedia vositalaridan samarali foydalanish, interaktiv topshiriqlar yaratish va o‘quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash bo‘yicha ko‘nikmalar beradi.

Ushbu tadqiqot bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini multimedia vositalari yordamida rivojlantirish masalasini o‘rganishga qaratildi.

Ushbu tadqiqot natijalari bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini multimedia vositalari yordamida rivojlantirish bo‘yicha keyingi tadqiqotlar va amaliyot uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu bo‘yicha kerakli ilmiy va amaliy metodlar berib o‘tildi.

Takliflar: Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish va ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- o‘qituvchilar uchun multimedia texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha maxsus o‘quv kurslari tashkil etish;
- pedagoglarni zamonaviy o‘quv platformalaridan samarali foydalanishga o‘rgatish;
- multimedia texnologiyalaridan dars jarayonida innovatsion usullar orqali foydalanish bo‘yicha treninglar o‘tkazish;
- virtual laboratoriyalar, 3D-modellash dasturlari va interaktiv ta’lim platformalarini keng joriy etish. Multimedia texnologiyalariga asoslangan onlayn resurslar bazasini shakllantirish va ulardan foydalanishni rag‘batlantirish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ismoilova R.S. (2020). Multimedia vositalaridan ta’lim jarayonida foydalanishning pedagogik asoslari. *Pedagogik mahorat*, (3), 45-52.
2. Abduqodirov A.A. (2018). Multimedia texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi ahamiyati. *Zamonaviy ta’lim*, (1), 12-18.
3. Muslimov N.A. (2019). Texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish. *Pedagogika nazariyasi va amaliyoti*, (1), 34-
4. . X.Turayev, Rasulova A .The use of visual weapons in the organization of practical training in engineering graphics in higher educational institutions. 2024 y., Volume-7, Issue-4, P. 127-130
5. Abdullayeva D.A. (2021). Multimedia vositalarining mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi roli. *Ta’lim texnologiyalari*, (2), 67-74.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

6. Turaev K., Yadgarov N., Mamatov D. The role and practical significance of interesting issues in the development of students' cognitive competencies //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 538. – C. 05045. https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2-s2.0-85196835458&origin=recordpage
7. Umirov A. et al. The current state of soybean production and its size-mass indicators in the conditions of Uzbekistan //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 105. – C. 05018. https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2-s2.0-85192545367&origin=recordpage
8. Turayev X. A. et al. Methodical recommendations on the implementation of the theme of forty in drawing lessons graphically //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 2. – C. 264-268.
9. To'xtayeva M.X. (2022). Multimedia texnologiyalaridan foydalangan holda mustaqil fikrlashni rivojlantirishning metodik asoslari. *Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami*, 123-128.
10. Mayer, R. E. (2021). *Multimedia Learning* (3rd ed.). Cambridge University Press.
11. Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2016). *e-Learning and the Science of Instruction: Proven Guidelines for Consumers and Designers of Multimedia Learning.* John Wiley & Sons.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Rasulova Aziza Komilovna**, TerDMAU o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi, [**Расулова Азиза Комиловна,** Преподаватель ТерДМАУ, независимый исследователь], [**Rasulova Aziza Komilovna**, Lecturer at TerDMAU, Independent Researcher]; manzil: O'zbekiston, Termiz sh., Islom Karimov ko'chasi, 288a uy [адрес: Узбекистан, г. Термез, улица Ислама Каримова, дом 288а], [address: Uzbekistan, Termiz city, Islam Karimov Street, 288a house]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING KREATIVLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA OID METODIK TAVSIYALAR

© E.T. Muhammadiyev[1]✉

[1]Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada loyihaviy yondashuv asosida talabalarning kreativlik kompetentligini rivojlantirishga oid metodik tavsiyalar tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar, xususan, loyihaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etib, talabalarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida loyihaviy yondashuvning ta’lim jarayonidagi o‘rni, uning talabalarning kreativlik kompetentligiga ta’siri o‘rganilib, samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada loyiha faoliyatining bosqichlari, kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik strategiyalar va ularning amaliyotda qo‘llanilishiga doir tavsiyalar berilgan. Olingan natijalar talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda loyihaviy yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – loyihaviy yondashuv asosida talabalarining kreativlik kompetentligini rivojlantirishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligini o‘rganishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Tadqiqot davomida quyidagi materiallar va usullar qo‘llanildi:

- nazariy tahlil – kreativlik, loyihaviy yondashuv va ularning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish;
- eksperimental tadqiqot – talabalar orasida kreativlik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish;
- anketalar va suhbatlar – talabalar va o‘qituvchilarning fikrlarini aniqlash;
- taqqoslash va tahlil qilish usullari – loyihaviy yondashuvning ta’lim jarayonidagi natijalarini baholash.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

- loyihaviy yondashuv asosida ta’lim jarayonini tashkil etish talabalar ijodkorligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;
- talabalarning kreativ fikrlash qobiliyatlari real muammolar yechimiga yo‘naltirilgan topshiriqlar orqali samarali rivojlantiriladi;

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

• mustaqil ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan loyihaviy yondashuv amaliy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

XULOSA: loyihaviy yondashuv asosida talabalar kreativlik kompetentligini rivojlantirish ta’lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bu metod talabalar ijodiy fikrlashini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish va innovatsion yechimlar ishlab chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tadqiqot natijalari kelgusida ushbu metodni amaliyotga joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: loyihaviy yondashuv, kreativlik kompetentligini rivojlantirish, innovatsion ta’lim, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur.

Iqtibos uchun: Muhammadiyev E.T. Loyihaviy yondashuv asosida talabalarning kreativlik kompetentligini rivojlantirishga oid metodik tavsiyalar. // Inter education & global study. 2025. №3 B.162–173.

ПРОЕКТНЫЙ ПОДХОД К РАЗВИТИЮ КРЕАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ: МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ

© Э. Т. Мухаммадиев[1]✉
[1]Термезский государственный инженерно-агротехнологический университет, Термез, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматриваются методические рекомендации по развитию креативной компетентности студентов на основе проектного подхода. В современной системе образования внедрение инновационных подходов, в частности, проектных технологий, играет важную роль, способствуя формированию у студентов самостоятельного мышления, творческого подхода и навыков решения проблем. В ходе исследования изучено место проектного подхода в образовательном процессе, его влияние на развитие креативной компетентности студентов, а также разработаны эффективные методические рекомендации. В статье представлены этапы проектной деятельности, педагогические стратегии, способствующие развитию креативного мышления, и рекомендации по их применению на практике. Полученные результаты подтверждают эффективность проектного подхода в развитии творческого мышления студентов.

ЦЕЛЬ: Основная цель данного исследования – разработка методических рекомендаций по развитию креативной компетентности студентов на основе проектного подхода и изучение их эффективности в образовательном процессе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования были использованы следующие материалы и методы:

• теоретический анализ – изучение взаимосвязи креативности и проектного подхода;

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

• экспериментальное исследование – проведение практических занятий по развитию креативной компетентности студентов;

• анкетирование и интервью – выявление мнений студентов и преподавателей;

• методы сравнения и анализа – оценка результатов применения проектного подхода в образовательном процессе.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что:

• организация учебного процесса на основе проектного подхода оказывает положительное влияние на развитие креативных способностей студентов;

• креативное мышление студентов развивается более эффективно через задачи, направленные на поиск решений реальных проблем;

• проектная деятельность, ориентированная на самостоятельное творчество, способствует формированию практических знаний и навыков.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Развитие креативной компетентности студентов на основе проектного подхода играет важную роль в образовательном процессе. Данный метод способствует развитию творческого мышления студентов, принятию самостоятельных решений и разработке инновационных решений. Результаты исследования могут служить основой для дальнейшей разработки методических рекомендаций по внедрению данного подхода в образовательную практику.

Ключевые слова: проектный подход, развитие креативной компетентности, инновационное обучение, самостоятельное мышление, творческое мышление.

Для цитирования: Мухаммадиев Э.Т. Проектный подход к развитию креативной компетентности студентов: методические рекомендации // Inter education & global study. 2025. №3. С. 162-173.

METHODOLOGICAL RECOMMENDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS' CREATIVITY COMPETENCE BASED ON A PROJECT-BASED APPROACH

© Elyor T. Muhammadiyev[1]✉
[1]Termiz State University of Engineering and Agrotechnologies, Termiz, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes methodological recommendations for developing students' creativity competence through a project-based approach. In modern education, the implementation of innovative approaches, particularly project-based learning technologies, plays a crucial role in fostering students' independent thinking, creative approach, and problem-solving skills. This study examines the role of project-based learning in education, its impact on students' creativity competence, and the development of effective methodological recommendations. The article discusses the stages of project activities, pedagogical strategies that promote creative thinking, and

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

practical recommendations for their application. The findings confirm the effectiveness of the project-based approach in enhancing students' creative thinking skills.

AIM: the main objective of this study is to develop methodological recommendations for fostering students' creativity competence through a project-based approach and to assess its effectiveness in the educational process.

MATERIALS AND METHODS: the following materials and methods were used in the study:

- theoretical analysis – studying the interrelation between creativity and the project-based approach;
- experimental research – conducting practical activities to develop students' creativity competence;
- surveys and interviews – gathering opinions from students and teachers;
- comparison and analysis methods – evaluating the impact of the project-based approach in education.

DISCUSSION AND RESULTS: the research results indicate that:

- implementing a project-based approach in education positively influences students' creativity development;
- students' creative thinking skills develop effectively through problem-solving tasks related to real-life challenges;
- project activities that focus on independent creativity help foster practical knowledge and skills.

CONCLUSION: Developing students' creativity competence through a project-based approach plays a crucial role in education. This method enhances students' creative thinking, decision-making abilities, and the development of innovative solutions. The study results provide a foundation for further development of methodological recommendations for implementing this approach in educational practice.

Key words: project-based approach, creativity competence development, innovative education, independent thinking, creative thinking.

For citation: Elyor T. Muhammadiyev, (2025) 'Methodological recommendations for developing students' creativity competence based on a project-based approach', Inter education & global study, (3), pp. 162–173. (In Uzbek).

Bugungi kunda ta'lim jarayonida talabalar faolligini oshirish va ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanlari fazoviy tafakkurni shakllantirish va amaliy bilimlarni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. Ushbu fanlar orqali talabalar murakkab muhandislik masalalarini hal qilish, loyihalar yaratish va grafik tasvirlarni to'g'ri tushunish ko'nikmalarini egallaydi.

An'anaviy o'qitish usullari asosan nazariy tushuntirishlarga asoslangan bo'lib, ko'plab hollarda talabalarni mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvga yetarlicha undamaydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Natijada, ular fan doirasidagi bilimlarni real muammolarni hal etishda qo‘llashda qiyinchiliklarga duch keladi. Shu sababli, loyihaviy yondashuvni ta’lim jarayoniga joriy etish dolzarb masalalardan biri bo‘lib, bu usul talabalarni faol izlanishga, jamoaviy ishlashga va o‘z g‘oyalarini amalda sinab ko‘rishga undaydi.

Ushbu maqolada loyihaviy yondashuv asosida chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishning afzalliklari, uning talabalar kreativligiga ta’siri hamda samarali amalga oshirish yo‘llari tahlil qilinadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida talabalarning kreativ tafakkurini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. So‘nggi yillarda loyihaviy yondashuv (Project-Based Learning – PBL) orqali talabalar kreativligini oshirish masalasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Ushbu yondashuv talabalarni faollikka undaydi, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Loyihaviy yondashuvning nazariy asoslari Dewey va Vigotsky tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning tadqiqotlarida tajribaviy o‘rganish va sotsial-interaktiv muhitning ta’lim jarayoniga ta’siri yoritilgan. Hozirgi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarni ijodiy fikrlashga undash va ijodiy salohiyatini oshirishda PBL samarali strategiyalardan biri hisoblanadi.

Bell tadqiqotlariga ko‘ra, PBL dasturlarida ishtirok etgan talabalar muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini tezroq rivojlantiradi. H.Barrows va R.Tamblyn ishlarida esa PBLning tibbiyot va muhandislik fanlarida qo‘llanilishi samarali natijalar bergani ta’kidlangan.

Ключевые слова: образование, дуальное образование, рынок труда, теоретическая подготовка, практическая подготовка, организация, обучение, профессиональная практика.

Для цитирования: Умуров З.Л. Сочетание дуального образования и производства — современная образовательная концепция // inter education & global study. 2025. №3(1). С. 185–192.

DUAL EDUCATION AND PRODUCTION COMPATIBILITY MODERN EDUCATION CONCEPT

© Zarif L. Umurov[1]✉
[1]Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article presents the organization and development of dual education in Uzbekistan, the advantages, essence, goals and objectives of the dual education system over traditional education. While students in traditional education earn money in their free time by working in various fields, mainly trade, service and other areas, in the dual education system they have the opportunity to both study and earn money in their field. The dual education system is an effective form of education that meets the requirements of the modern labor market, combining theory and practice, and this system is useful not only for students, but also for employers and educational institutions.

AIM: to expand the scope of dual education in Uzbekistan.

MATERIALS AND METHODS: in this article, several methods were used to study the modern educational concept of dual education and production integration: literature analysis, questionnaire survey,

practical research.

DISCUSSION AND RESULTS: in this article, the modern educational concept of dual education and production integration was analyzed. Analysis We can see that dual education is rapidly being used in professional education in Uzbekistan and is proving to be effective. We consider the application of dual education, which is one of the leading forms of education in the world, in higher education to be one of the current problems. The dual education system is an effective form of education that meets the requirements of the modern labor market, combining theory and practice, and this system is useful not only for students, but also for employers and educational institutions.

CONCLUSION: the dual education system plays an important role in improving the quality of higher education in Uzbekistan, preparing graduates in accordance with the practical requirements of employers. The gradual balance of theoretical and practical training makes the educational process effective and productive. Therefore, the implementation of the dual education system in practice is a promising step for the education system of Uzbekistan.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Keywords: Education, dual education, labor market, theoretical training, practical training, organization, training, qualification practice.

For citation: Zarif L Umurov. Dual education and production compatibility - a modern educational concept. // Inter education & global study. 2025. №3(1). pp. 185-192

Mehnat bozoridagi real ehtiyojlar, korxona (tashkilot)lar, iqtisodiyot tarmoqlaridagi aniq ish o‘rinlari bo‘yicha mehnat faoliyati bilan ta’limni uyg‘unlashgan holda tashkil etish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash dolzarb muammolardan biri sanaladi. Kadrlarni an’anaviy tarzdagi ta’lim tizimi asosida tayyorlanishi bugungi kundagi mehnat bozori talabiga javob bermaydi. 2020- yil 23- sentyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni O‘zbekistonda dual ta’limning kirib kelishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 15-moddasida ta’lim olish shakllari keltirilgan bo‘lib dual ta’lim alohida ta’lim shakli sifatida belgilangan va ushbu Qonunning 17-moddasida esa dual ta’lim shakli ta’rifi keltirilgan: *“*dual ta’lim ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni olishga qaratilgan bo‘lib, ularning nazariy qismi ta’lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta’lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi*”*.

Dual ta’limning an’anaviy ta’limga nisbatan afzalliklarni keltiramiz: ishlab chiqarish va ta’limni integratsiya qilish (nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarning bog‘liqligi); amaliy ko‘nikmalar (talabalar nazariy bilimlarni real ish sharoitlarida qo‘llash imkoniga ega bo‘ladilar); ish tajribasi (talabalar o‘qish davomida ish tajribasiga ega bo‘ladilar); mehnat bozoriga moslashish (bitiruvchilarni mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassislar sifatida tayyorlash); ishga joylashish imkoniyati (ko‘p hollarda talabalar ishlab chiqarishda tajriba o‘tagan joyida ishga qoladilar); ish beruvchilar bilan hamkorlik (oliy o‘quv yurtlari va korxonalar o‘rtasidagi hamkorlik mustahkamlanadi); ishlab chiqarish talablariga muvofiq ta’lim (talabalar ishlab chiqarish jarayoniga mos ravishda tayyorlanadilar). Qolaversa avval talabalar bo‘sh vaqtlarida turli sohalarda, asosan savdo-sotiq, xizmat ko‘rsatish va boshqa sohalarda ishlab pul topgan bo‘lsa, dual ta’lim tizimida o‘z yo‘nalishi bo‘yicha ham o‘qib, ham ishlab pul topayotganini alohida qayd etish lozim. Ko‘rib turganimizdek, dual ta’lim tizimi – zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan, nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirgan samarali ta’lim shaklidir. Bu tizim nafaqat talabalar, balki ish beruvchilar va ta’lim muassasalari uchun ham foydali hisoblanadi.

Dual ta'limni tashkil etishning vazifalari quyidagilardan iborat: korxona (tashkilot)dagi ishlab chiqarish sharoitlari bilan ta'lim muassasalari o‘quv jarayonlarini o‘zaro bog‘lash; o‘quvchilarni mehnat faoliyati ishtirokchisiga aylantirish orqali ta'limning ishlab chiqarish bilan bog‘liq amaliy qismini korxona (tashkilot)larda hamda nazariy va o‘quv-amaliy qismini ta'lim muassasalarida tashkil etish; hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish hamda iqtisodiyotning real ehtiyojlarini hisobga olgan holda

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

kadrlar tayyorlashni takomillashtirish; korxona (tashkilot)lar hamda ta'lim muassasalarining o‘zaro hamkorlik formatlari va modellarini ishlab chiqish; ta'lim dasturlarini mehnat faoliyati bilan uyg‘un amalga oshirgan holda kompetensiyalarni shakllantirish; ta'lim dasturlarini ish beruvchilarning talablari va ulardagi texnologik yangilanishlar asosida takomillashtirib borish; kadrlarni tayyorlash va ta'lim dasturlarini amalga oshirishni moliyalashtirish; korxona (tashkilot)lar va ta'lim muassasalari o‘rtasidagi o‘zaro tarmoq hamkorligining shakl va uslublarini takomillashtirish; bitiruvchilarni baholashda korxona (tashkilot)lar ishtirokini yanada kengaytirish; turli yoshdagi aholi qatlamini tegishli kasb (mutaxassisliklar) bo‘yicha kvalifikatsiyalarni o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish.

O‘zbekistonda Germaniya tajribasi asosida dual ta’lim shaklini tizimli rivojlantirish masalasiga e’tibor berilib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020- yil 6- noyabrdagi PF-6108-son Farmonida 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarini joriy etish maqsadida professional ta’lim muassasalarida dual ta’lim tizimi joriy etish belgilandi. Mazkur farmon ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29- martdagi “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida” 163-son qarori qabul qilindi va “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida nizom” tasdiqlandi.

2021/2022 o‘quv yilida dual ta’lim shakli bo‘yicha kollej va texnikumlarga maktabgacha ta’lim, temir yo‘l va qurilish kabi sohalarga 2 mingdan ortiq o‘quvchilar o‘qishga qabul qilingan. Korxonalarning ushbu ta’lim shaklida o‘zlari uchun o‘rta bo‘g‘in kadrlar tayyorlashga ehtiyojining oshib borishi natijasida 2022/2023 o‘quv yilida professional ta’lim muassasalariga 4,5 mingga yaqin yoshlar dual ta’lim shaklida o‘qishga qabul qilingan hamda qo‘shimcha ravishda axborot texnologiyalari, yengil sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish kabi sohalarda ham ushbu ta’lim shaklida o‘rta bo‘g‘in kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan

Shuningdek, bugungi kunda O‘zbekistonda 234 ta professional ta’lim muassasalaridagi 13 ming nafarga yaqin o‘quvchilar dual ta’lim shaklida ta’lim olmoqda. O‘quvchilarga korxona (tashkilot)larning 3144 nafar malakali xodimlari “ustoz” sifatida biriktirilgan bo‘lib, ular tomonidan o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalari bevosita ish joylarida shakllantirilmoqda. Ayni vaqtda avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi, maktabgacha ta’lim, yengil sanoat va xizmat ko‘rsatish kabi yo‘nalishlarda dual ta’limning ulushi boshqa sohalarga qaraganda ko‘p. O‘zbekistondagi 3600 dan ortiq korxona va tashkilotlar dual ta’limda ishtirok etayotgani hamda 109 nafar pedagog kadrlarning Germaniya va Shveytsariya davlatlarida malakasi oshirilganligi qayd etilgan [4].

Professional va malakali o‘rta bo‘g‘in kadrlarni tayyorlash tizimli ravishda takomillashtirib borilmoqda. Jumladan, o‘rta bo‘g‘in kadrlariga bo‘lgan ehtiyojning yanada oshishi natijasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023- yil 3- iyuldagi PQ-200-son qarorida korxona va tashkilotlarning buyurtmalari asosida professional ta’lim muassasalarida dual ta’lim shaklida yil davomida o‘quvchilarni o‘qishga qabul qilish tizimini joriy etish belgilanganligi ushbu ta’lim shaklini rivojlantirishga katta turtki bo‘ldi.

Tahlillar O‘zbekistonda dual ta’lim professional ta’limda tez suratlarda qullanilib, o‘zini oqlayotganini ko‘rishimiz mumkin. Dunyoning yetakchi ta’lim shakllaridan biri bo‘lgan dual ta’limni oliy ta’lim shasida qo‘llash bugungi kunning dolzarb muammolaridan deb bilamiz. Respublikamizda bu sohadaham qator ishlar amalga oshirilmoqda. 2023- yil 12- iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik sub’ektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bunga misol bo‘la oladi. Farmondan ko‘zlangan asosiy maqsad uyushmagan yoshlarni, ayniqsa, xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash, bunda ishtirok etgan tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash va oliy ta’lim tizimida “Kasb egasi” dual ta’lim tizimida kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yishdan iboratdir. Farmon bilan oliy ta’lim tizimida “Kasb egasi” dual ta’lim tizimini tajriba tariqasida ishga tushirish, 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutida 3- va 4-kurs talabalari uchun ushbu tizimni joriy qilish belgilandi.

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutida respublika oliy ta’lim muassasalari orasida birinchilardan bo‘lib 2022/2023 o‘quv yilida dual ta’lim tizimida tajriba-sinov tariqasida o‘qitish tashkil qilgan. Buning uchun Toshkent shahri va Toshkent viloyatida joylashgan 57 ta korxona bilan shartnoma imzolangan va 3-kursdagi 864 nafar talaba dual ta’lim shaklida o‘qitilgan. Bunda ularning o‘quv rejasidagi mutaxassislik fanlarining o‘rtacha 50 foiz yuklamasi, ya’ni amaliy qismi korxonalarda o‘tilishi yo‘lga qo‘yilgan. Talabalarga korxonaga qatnashi uchun korxona tomonidan transport ajratilgan, tushlik tashkillashtirilgan, aksariyat korxonalar tomonidan talabalarga bajargan ishiga qarab oyiga 1 000 000 so‘mgacha oylik ish haqi to‘langani qayd etilgan. 2023/2024 o‘quv yilida institutda 3- va 4-kursda tahsil olayotgan barcha talabalar “Kasb egasi” dual ta’lim tizimi asosida o‘qitish tizimiga to‘liq o‘tkazilgan. 3-kursda tahsil olayotgan 805 nafar talaba 57 ta korxonada, 4-kursda tahsil olayotgan 854 nafar talaba 62 ta korxonada belgilangan grafik asosida haftaning uch kunida institutda nazariy darslar, qolgan uch kunida korxonada amaliy darslar asosida dual ta’lim shaklida tahsil olmoqda. Bunda talabalarga korxonaning malakali mutaxassislari rahbar etib tayinlangan [5].

Ko‘rib turganizdek O‘zbekistonda dual ta’lim qusqa muddatda jadal so‘ratlarda ta’lim tizimiga kirib bormoqda. Nazarimizda O‘zbekistonda dual ta’lim qamrovini kengaytirish lozim. Jumladan, oliy ta’limning pedagogik sohalarida qo‘llash ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-152-son Farmoniga 2025/2026 o‘quv yilidan boshlab davlat oliy ta’lim tashkilotlarida maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha dual ta’lim shaklini joriy etish belgilangan. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025- yil

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

16- yanvardagi “Oliy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”14- sonli Qarori bilan “Oliy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida Nizom” tasdiqlandi. Nizomning 2-bobida dual ta’limning maqsadi va asosiy vazifalari belgilangan. Dual ta’limning maqsadi quyidagilardan iborat: talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash; talabalarda ta’lim olayotgan ta’lim yo‘nalishi (mutaxassisligi) bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish; talabalar uchun tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar, korxonalarda ishlab chiqarish (shuningdek, tashkiliy-boshqaruv) faoliyatiga oid tajribalarni o‘rganishni tashkil etish; talabalarning kasbiy va ijodiy qiziqishlarini rivojlantirish; bitiruvchilarning zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ishlashi uchun zarur amaliy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishini ta’minlash; oliy ta’lim tashkiloti va korxonada o‘qitish, shuningdek, oliy ta’lim tashkilotining o‘quv jarayoniga yangi o‘qitish texnologiyalarini joriy etish orqali talabalarning raqobatbardoshligini oshirish. Dual ta’limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: mehnat bozori ehtiyojlariga, iqtisodiyot tarmoqlarini va rivojlanish istiqbollariga mos ravishda mutaxassislar tayyorlash; ijtimoiy sheriklikni takomillashtirish; oliy ta’lim tashkilotining ta’lim dasturlari mazmuni va tuzilmasining mobilligini ta’minlash; ishlab chiqarish sharoitidagi kasbiy tajribani o‘rgatish uchun talabalarga yetarli sharoit yaratish; talabalarga o‘qish va ishlash imkoniyatlarini yaratish.

Bularning barchasini albatta pedagogik sohada dual ta’limni joriy etishning poydevori hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ham kadrlarni dual ta’lim asosida tayyorlashni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq deb bilamiz. O‘zbekiston Respublikasidagi davlat oliy ta’lim muassasalarida dual ta’lim shaklida o‘quv jarayonlarining nazariy va amaliy mashg‘ulotlar ulushini qo‘yidagicha bo‘lishini taklif etamiz.

3 yillik oliy ta'lim dasturlarida nazariy va amaliy mashg‘ulotlar ulushi:

1-bosqich: 80% nazariy, 20% amaliy

2-bosqich: 50% nazariy, 50% amaliy

3-bosqich: 30% nazariy, 70% amaliy

Ushbu modelning asosiy maqsadi dastlabki bosqichda nazariy bilimlarni chuqur egallash va keyingi bosqichlarda amaliy tajribani kuchaytirishdir.

4 yillik oliy ta'lim dasturlarida nazariy va amaliy mashg‘ulotlar ulushi:

1-bosqich: 80% nazariy, 20% amaliy

2-bosqich: 40% nazariy, 60% amaliy

3-bosqich: 30% nazariy, 70% amaliy

4-bosqich: 20% nazariy, 80% amaliy

Bu model bosqichma-bosqich amaliyot ulushining ortib borishini ko‘rsatadi. Bu esa talabalar uchun real ish sharoitlariga moslashishni osonlashtiradi.

Dual ta'lim tizimi O‘zbekistonda oliy ta'lim sifatini oshirish, bitiruvchilarni ish beruvchilarning amaliy talablariga mos ravishda tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning bosqichma-bosqich muvozanati ta'lim jarayonini samarali va

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

natijaviy qiladi. Shu sababli, dual ta'lim tizimini amaliyotga joriy etish O‘zbekiston ta'lim tizimi uchun istiqbolli qadam hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida” GI O‘RQ-637-son Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 04.10.2024-y., 06/24/152/0773-son.
3. Oliy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida NIZOM. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 23.01.2025 y., 09/25/14/0063-son.
4. https://uzbekembassy.com.my/uzb/news_press/events_in_uzbekistan/yil_oxirigacha_uzbekistonda_50_ming_kishi_dual_talim_tizimi_bilan_qamrab_olinadi.html.
5. https://uza.uz/uz/posts/malakali-kadrlar-tayyorlashda-dual-talimning-ahamiyati_541908?q=%2Fposts%2Fmalakali-kadrlar-tayyorlashda-dual-talimning-ahamiyati_541908).
6. Есенина Е.Ю. Дуальное обучение: возможности, ограничения, условия и практика использования / Е.Ю. Есенина // Профессиональное образование и рынок труда. – 2015. – № 8. – С. 16-1

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Umurov Zarif Latifboyevich,** Buxoro davlat pedagogika instituti professori, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), [**Умуров Зариф Латифбоевич,** Профессор Бухарского государственного педагогического института, доктор философии педагогических наук (PhD)], [**Zarif L. Umurov,** Professor of the Bukhara State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy of Pedagogical Sciences (PhD)]; manzil: O‘zbekiston, Buxoro sh., Gulobiyon ko'chasi, 5-uy [адрес: Узбекистан, ул. Гулобиён, 5, г. Бухара], [address: Uzbekistan, 5, Gulobiyon st., Bukhara city] E-mail: umurovzarif@buxdpi.uz. Orcid: 0000-0001-5021-964X.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

MUSIQA VA SAN'AT MAKTABI O'QUVCHILARIDA MUSIQIY-BADIIY DIDINI SHAKLLANTIRISHGA OID XALQARO VA MILLIY TADQIQOTLAR TAHLILI

© D.R. Xodjiyeva[1]✉
[1]Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada, musiqa va san'at maktabi o'quvchilarida zamonaviy kompozitorlar tomonidan yaratilayotgan turli xil janrlardagi asarlar orqali musiqiy-badiiy didni shakllantirish bilan birga badiiy tasavvur va tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shu bilan birga, fortepiano darslarida musiqiy-badiiy didni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan. Maqolada, texnik mahoratni rivojlantirish, asarni tinglash va tahlil qilish madaniyatini o'rganish, yosh ijrochilarning badiiy did egasi bo'lib yetishishida milliy va xalqaro ko'rik tanlovlarning o'rni haqida tavsiyalar berilgan.

MAQSAD: maqolaning maqsadi – musiqa va san'at maktabi o'quvchilarida musiqiy-badiiy didni shakllantirish jarayonini o'rganish, zamonaviy kompozitorlar asarlari, fortepiano darslari va xalqaro hamda milliy tadqiqotlar asosida yosh ijrochilarning badiiy didini rivojlantirishning samarali yo'llarini aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu tadqiqotda nazariy va amaliy metodlardan foydalanildi. Musiqiy-badiiy didni shakllantirish bo'yicha ilmiy va pedagogik manbalar tahlil qilindi, fortepiano darslarida qo'llaniladigan metodik yondashuvlar o'rganildi. Shuningdek, milliy va xalqaro ko'rik-tanlovlarning yosh ijrochilarga ta'siri kuzatilib, empirik ma'lumotlar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalariga ko'ra, musiqa va san'at maktabi o'quvchilarining musiqiy-badiiy didini shakllantirishda turli janrlardagi asarlarni o'rganish, ularni tinglash va tahlil qilish muhim omil hisoblanadi. Fortepiano darslarida ijro texnikasi bilan bir qatorda, badiiy ifodalilikka e'tibor qaratish o'quvchilarning musiqiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, milliy va xalqaro musiqiy tanlovlarda ishtirok etish yosh ijrochilarning ijodiy salohiyatini oshirish, sahna madaniyati va badiiy didini shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA: musiqa va san'at maktabi o'quvchilarida musiqiy-badiiy didni shakllantirish jarayoni ko'p qirrali bo'lib, zamonaviy metodlar, asarlarni ijro etish va tahlil qilish, texnik mahoratni rivojlantirish hamda xalqaro va milliy ko'rik-tanlovlarda ishtirok etish kabi omillarga bog'liq. Ushbu omillar uyg'unligida olib borilgan ta'lim jarayoni natijasida yosh ijrochilarning nafaqat texnik salohiyati, balki musiqiy-badiiy tafakkuri ham rivojlanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Kalit so'zlar: musiqa va san'at maktabi, musiqiy-badiiy did, fortepiano darslari, zamonaviy kompozitorlar, badiiy tasavvur, tafakkur qobiliyati, texnik mahorat, tinglash va tahlil, ijrochilik, milliy va xalqaro ko'rik-tanlovlar.

Iqtibos uchun: Xodjiyeva D.R. Musiqa va san'at maktabi o'quvchilarida musiqiy-badiiy didini shakllantirishga oid xalqaro va milliy tadqiqotlar tahlili. // Inter education & global study. 2025. №3 B.193–201.

АНАЛИЗ МЕЖДУНАРОДНЫХ И НАЦИОНАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ФОРМИРОВАНИЮ МУЗЫКАЛЬНО-ХУДОЖЕСТВЕННОГО ВКУСА У УЧАЩИХСЯ МУЗЫКАЛЬНЫХ И ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ШКОЛ

© Д. Р. Ходжиева[1]✉
[1]Бухарский государственный университет, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматривается процесс формирования музыкально-художественного вкуса учащихся музыкальных и художественных школ через произведения современных композиторов различных жанров. Особое внимание уделяется развитию художественного воображения и мышления. Также обозначены основные направления формирования музыкально-художественного вкуса на уроках фортепиано. В статье даются рекомендации по развитию технического мастерства, культуре слушания и анализа произведений, а также роли национальных и международных конкурсов в становлении художественного вкуса молодых исполнителей.

ЦЕЛЬ: целью статьи является изучение процесса формирования музыкально-художественного вкуса учащихся музыкальных и художественных школ, выявление эффективных путей его развития на основе произведений современных композиторов, фортепианных занятий, а также национальных и международных исследований.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы теоретические и практические методы. Проведен анализ научных и педагогических источников, посвященных формированию музыкально-художественного вкуса. Изучены методические подходы, применяемые на уроках фортепиано. Также рассмотрено влияние национальных и международных конкурсов на развитие молодых исполнителей, проанализированы эмпирические данные.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что изучение произведений различных жанров, их прослушивание и анализ являются важными факторами в формировании музыкально-художественного вкуса учащихся музыкальных и художественных школ. На уроках фортепиано необходимо уделять внимание не только технике исполнения, но и художественной выразительности, что способствует развитию музыкального мышления. Кроме того, участие в национальных и международных музыкальных конкурсах помогает молодым

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

исполнителям раскрыть свой творческий потенциал, овладеть сценической культурой и развить художественный вкус.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: формирование музыкально-художественного вкуса учащихся музыкальных и художественных школ – это многоаспектный процесс, зависящий от современных методик, исполнительского анализа произведений, развития технического мастерства, а также участия в национальных и международных конкурсах. Комплексный подход к обучению способствует не только развитию технических навыков учащихся, но и их музыкально-художественного мышления.

Ключевые слова: музыкальная и художественная школа, музыкально-художественный вкус, уроки фортепиано, современные композиторы, художественное воображение, мыслительные способности, техническое мастерство, слушание и анализ, исполнительское искусство, национальные и международные конкурсы.

Для цитирования: Ходжиева Д. Р. Анализ международных и национальных исследований по формированию музыкально-художественного вкуса у учащихся музыкальных и художественных школ. // Inter education & global study. 2025. №3. С. 193-201.

ANALYSIS OF INTERNATIONAL AND NATIONAL RESEARCH ON THE FORMATION OF MUSICAL AND ARTISTIC TASTE IN MUSIC AND ART SCHOOL STUDENTS

© Dilfuza R. Khodjiyeva[1]✉
[1]Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article discusses the process of developing the musical and artistic taste of students in music and art schools through works of modern composers of various genres. Special attention is given to developing artistic imagination and thinking abilities. Additionally, the main directions of forming musical and artistic taste in piano lessons are highlighted. The article provides recommendations on improving technical mastery, fostering a culture of listening and analyzing musical pieces, and the role of national and international competitions in shaping the artistic taste of young performers.

AIM: the aim of this article is to study the process of developing the musical and artistic taste of students in music and art schools and to identify effective ways of enhancing it through modern composers' works, piano lessons, and national and international research.

MATERIALS AND METHODS: this research employs theoretical and practical methods. It includes an analysis of scientific and pedagogical sources related to the formation of musical and artistic taste. Methodological approaches used in piano lessons

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

were studied. Additionally, the impact of national and international competitions on young performers was examined, and empirical data were analyzed.

DISCUSSION AND RESULTS: the study results indicate that learning, listening to, and analyzing works of different genres are crucial factors in shaping the musical and artistic taste of students in music and art schools. Piano lessons should emphasize not only technical performance skills but also artistic expression, which contributes to the development of musical thinking. Moreover, participation in national and international music competitions helps young performers enhance their creative potential, improve stage culture, and refine their artistic taste.

CONCLUSION: the process of forming the musical and artistic taste of students in music and art schools is multifaceted, depending on modern methodologies, performance analysis of musical pieces, technical skill development, and participation in national and international competitions. A comprehensive approach to education not only improves students' technical proficiency but also fosters their musical and artistic thinking.

Key words: music and art school, musical and artistic taste, piano lessons, modern composers, artistic imagination, thinking abilities, technical mastery, listening and analysis, performance, national and international competitions.

For citation: Dilfuza R. Khodjiyeva. (2025) 'Analysis of international and national research on the formation of musical and artistic taste in music and art school students', Inter education & global study, (3), pp. 193-201. (In Uzbek).

Zamon shiddati yanada ortayotgan bir davrda san'at va madaniyat sohasini rivojlantirish borasida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi vaqtda qabul qilinayotgan qonun, qaror va farmonlar anashu ulkan o'zgarishlarga turtki va yo'nalish bermoqda.

Bugungi glaballashuv sharoitida musiqa va san'at maktabi o'quvchilarini musiqiy rivojlantirish, ma'naviy-axloqiy, estetik tarbiyalash vositasida musiqiy-badiiy didni shakllantirish, musiqiy qobiliyatlarini, ijro etish va tinglash malakalarini oshirish, musiqaning badiiy mazmuni va emotsional ta'sir imkoniyatlarini kengaytirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda, musiqa va san'at maktablarida musiqiy idrok, tinglovchilik madaniyati, musiqiy tafakkur, ijrochilik malakalari, badiiy-estetik ta'sir xususiyatlarini o'zlashtirishda interaktiv texnologiyalarni joriy etish va fortepiano darslarida ulardan foydalanish talab etilmoqda. O'quvchilarda musiqiy-badiiy didni shakllantirish bilan birga, badiiy tasavvur va tafakkur qobiliyatlarini tarkib toptirish, fortepiano cholg'usini o'rgatishda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash kabi masalalarga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga ham bugungi kunda alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonning rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishida ta'lim-tarbiyaga oid islohotlarning ijrosini sifatli ta'minlash dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat har qanday mamlakat va xalqni yuksaklikka ko'taradi, uning taraqqiyotini ta'minlaydi, kelajagini oldindan ko'rsatib beradi.[2;39]

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Milliy xalqona ruhdagi musiqiy madaniyatimizni har qachongidan ham chuqurroq va kengroq o'rganish, uni xalq ichida va butun dunyoga targ'ib etish, yosh avlod ongida, yuragida milliy musiqamizga qolaversa, jahon musiqasiga ham bo'lgan his tuyg'ularni shakllantirish bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biridir.

Bugungi kunda fortepiano darslarida o'quvchilarni musiqiy-badiiy didini shakllantirishga oid tajribalarning yetishmasligi, darslarda texnik mahorat va tinglash madaniyati talab darajasida emasligi dolzarb muammodir. Shu bilan birga, milliy va xalqaro ko'rik tanlovlar, festival va konsertlarda o'quvchilarni ishtirok etmasligi o'quvchida ijtimoiy ko'nikmalarni

Bugungi kunda zamon talabiga javob bera oladigan, jamiyat kelajagi va ravnaqi yo'lida beminnat xizmat qilib kelayotgan, madaniyat va san'at sohasida yuksak darajaga erishgan ijodkorlarimiz kundan-kun ko'payib bormoqda. Bunday ijodkorlarning izlanishlari, yangi g'oyalar bilan faoliyat yuritishlari yurtimiz yoshlari uchun ham oyna bo'la oladi.

Hozirgi kunda ijodkorlarning kompozitorlik faoliyatiga nazar solsak, ular yaratayotgan fortepiano durdonalari Bolalar musiqa va san'at maktablari hamda ixtisoslashtirilgan san'at muassasalari o'quvchilari tomonidan sevib ijro etilmoqda.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, fortepiano musiqasini rivojlanishiga va musiqiy asarlarni ijro etish texnikasini takomillashtirishga hissa qo'shgan mashhur kompozitorlarimizdan F.Shopen, L.Van Betxoven, F.List, P.Chaykovskiy, S.Rahmaninov, A.Rubinshteyn, I.Gofman va boshqa ko'plab shaxslar o'ziga xos qobiliyatga va ijrochilik texnikasiga ega bo'lishgan.

O'zbekistonda fortepiano musiqasining rivojlanishi 1920-1970-yillar bilan bog'liq. Chunki o'sha davrda musiqiy bilim dargohlarining tashkil topishi va mashhur kompozitor ijodkorlardan V.Uspenskiy, I.Kozlavskiy, B.Nadejdinlarning hissasi katta desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bundan tashqari o'sha davrda I.Akbarov, M.Ashrafiy, A.Berlin, X.Azimov, S.Jalil, S.Varelas kabi mashhur kompozitorlar yevropa musiqasiga xos bo'lgan janrlarga yondashgan tarzda, o'zlarining miniatyura, syuita, variatsiya kabi janrlaridagi asarlarini yaratishdi. Bu janrlarda yaratilgan asarlar o'zbekona milliy ohanglar bilan boyitilgan edi.

Manashu janrlarda yaratilgan asarlar orqali fortepiano darslarini o'qitish, o'quvchilarda musiqiy-badiiy didni shakllantirish, musiqiy rivojlantirish har bir fortepiano o'qituvchisining asosiy vazifasidir. Shu bilan bir qatorda, ko'plab milliy, xalqaro ko'rik-tanlavlarda, fevtivallarda ishtirok etib, ijrochilik malakasini rivojlantirish har bir o'quvchining asosiy maqsadidir. Shu sabab, hozirgi vaqtda shiddat bilan o'zbek va chet el kompozitorlari fortepiano uchun turli janrlarda zamonaviy asarlar yaratishmoqda. Jumladan o'zbek kompozitorlari:

Rustam Abdullayev – zamonaviy o'zbek kompozitori, u fortepiano ijodi bilan ham mashhur. Uning musiqiy uslubi xalq musiqasi an'analarini zamonaviy kompozitsion texnikalar bilan uyg'unlashtiradi. Abdullayevning fortepiano uchun yozgan asarlari o'zining ifodaviyligi, kuchli hissiy tugaligi va texnik murakkabligi bilan ajralib turadi. Uning ijodida qisqa pyesalar, prelyudiyalar va sonatalar alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, xalq kuylariga

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

asoslangan asarlari fortepiano musiqasida yangi uslublarni yaratishda katta hissasi bilan ajralib turadi. Abdullayevning musiqiy tili turli xil ohanglar va ritmik o‘zgarishlarga boy bo‘lib, tinglovchilarga o‘zbek musiqasining boy merosini his etish imkonini beradi.

Xurshida Xasanova — zamonaviy o‘zbek kompozitori va pedagog bo‘lib, uning fortepiano ijodi o‘ziga xosligi va boyligi bilan ajralib turadi. Uning asarlari milliy ohanglar va zamonaviy musiqiy uslublarni uyg‘unlashtirgan holda, tinglovchilarga chuqur estetik zavq bag‘ishlaydi. Xurshida Xasanovaning ijodi o‘zbek musiqa madaniyatining rivojiga katta hissa qo‘shib, milliy va zamonaviy uslublarni muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirgan holda, tinglovchilarga estetik zavq bag‘ishlaydi.

Nurali Erkayev — o‘zbek kompozitori, pianinochi va pedagog bo‘lib, uning fortepiano ijodi o‘ziga xosdir. Nurali Erkayevning fortepiano asarlari milliy va zamonaviy uslublarni uyg‘unlashtirgan bo‘lib, ularning ifodaviyligi va texnik murakkabligi bilan ajralib turadi. U o‘zbek musiqa madaniyatiga sezilarli hissa qo‘shmoqda.

So‘nggi yillarda rus kompozitorlari orasida ham fortepiano uchun asarlar yaratgan bir qancha ijodkorlar mavjud:

Boris Golts (1913–1942) "24 Prelyudiya, Op. 2": Bu turkum har bir tonallikda yozilgan 24 prelyudiyadan iborat bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos xarakter va kayfiyatni aks ettiradi. Ushbu asarlar fortepiano repertuarida muhim o‘rin tutadi.

Sofiya Gubaydulina (1931-yilda tug‘ilgan) "Introitus": Fortepiano va kamer orkestri uchun yozilgan ushbu asar 1978-yilda yaratilgan bo‘lib, unda fortepiano va orkestr o‘rtasidagi dialog tasvirlangan.

Rodion Shchedrin (1932-yilda tug‘ilgan): "Polyphonic Notebook": 1972-yilda yozilgan ushbu turkumda polifonik uslubdagi qisqa pyesalar jamlangan, ular fortepiano texnikasini rivojlantirishga qaratilgan.

Hozirgi kunda faol bo‘lgan va fortepiano uchun asarlar yozayotgan mashhur chet ellik kompozitorlardan:

Ludovico Einaudi (1955-yilda Italiyada tug’ilgan) Mashhur asarlari: "Nuvole Bianche," "Una Mattina," "Divenire". Minimalizm uslubida ish olib borib bormoqda. Uning asarlari keng ommalashgan.

Max Richter (1966-yilda buyuk Britaniyada tug’ilgan). Mashhur asarlari: "On the Nature of Daylight," "The Blue Notebooks". U neoklassik va elektron musiqani birlashtirib fortepiano uchun asarlar yaratadi.

Yann Tiersen (1970-yilda Fransiyada tug’ilgan). Mashhur asarlari: "Comptine d'un autre été," "La Valse d'Amélie". O‘zining "Amelie" saundtreki bilan tanilgan, fortepiano ijodida sentimental uslubni namoyish etadi.

Ushbu zamonaviy kompozitorlar tomonidan yaratilayotgan fortepiano asarlari janr jihatidan bir-biridan farq qilsada, ammo, ushbu asarlarni turli xil darajadagi o’quvchilarga yetkazib berish, mazmunini ochib berish, o’quvchiga musiqiy-emotsional ta’sir ko’rsatish, unda musiqiy-badiiy didni shakllantirish masalasi bugungi kunda musiqachi-pedagoglar tomonidan turli xil metodlar asosida o’rgatilmoqda.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Musiqa va san'at maktabi o'quvchilarining musiqiy-badiiy didini shakllantirishga oid xalqaro va milliy tadqiqotlar tahliliga ko'ra "badiiy-estetik did", "axloqiy-estetik tarbiya" kabi tushunchalar tayanch tushunchalar sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot muammosini ijobiy hal etish uchun ushbu tushunchalarning mazmunini to'laqonli anglab olish maqsadga muvofiqdir.

Badiiy-estetik did-insoniyat tomonidan yaratilgan go'zal va mukammal narsalarni tanlay olish, ularni qadrlash, go'zallikni yaratishga ishtiyoqmand bo'lish hislarini o'z ichiga oladi. "Badiiy did" tushunchasi quyidagicha ta'riflanadi: badiiy did bo'lajak fortepiano ijrochilari tomonidan o'zbek va chet el musiqasi to'g'risidagi nazariy bilimlarga ega bo'lish, ularning badiiy qiymatini baholay olish, g'oyaviy mazmunini izohlay bilish, shuningdek, o'zbek va chet el musiqasi namunalarini yuksak saviyada ijro eta olish ko'nikma va malakalariga egalik qilishga aytiladi. Ayrim manbalarda "badiiy did" tushunchasining muqobili sifatida "nafosat didi" tushunchasi e'tirof etilib, shaxsning buyum yoki hodisaga nisbatan munosabat bildirish turi, obyektiv nafosat o'lchovi deya ta'riflanadi. [1;5]

Axloqiy-estetik tarbiya-bolalarda, go'zallikni anglash, yuksak axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, badiiy idrokni rivojlantirish kabi fazilatlarni uyg'otadi. Musiqiy tarbiya esa estetik hissiyotlarni o'stiradi, chunki musiqaning mazmuni hissiyotlar orqali anglanadi.

Fortepiano darslarida musiqiy-badiiy didni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari: (1-jadvalga qaralsin).

1	O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish	Yosh bolalarning ijodiy tafakkuri orqali badiiy obrazlar shakllantiriladi.
2	Tinglash madaniyatini oshirish	Mashhur fortepiano ijrochilarining ijodini tinglash orqali o'quvchilar go'zallikni his qiladilar.
3	Texnik mahorat va ifoda erkinligini o'stirish	Ijro texnikasini chuqur egallash musiqani yanada hissiyotli ijro etishga yordam beradi.

1- jadval. Musiqiy-badiiy didni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari.

Xalqaro va milliy tanlovlarda, fetivallarda, konsertlarda ishtirok etish musiqiy-badiiy didni rivojlantirishning yana bir asosiy omili hisoblanadi. Tanlov va kontsertlarda qatnashish bolalarning musiqiy didini boyitish bilan birga ularga o'ziga ishonch va mas'uliyatni his qilish imkonini ham beradi. Boshqa musiqachilar bilan tajriba almashish o'quvchilarga ijodiy ilhom baxsh etadi va badiiy tafakkurlarini kengaytiradi. Bu ko'rik-tanlovlar o'quvchilarning nafaqat musiqiy bilimlarini, balki umumiy estetik dunyoqarashini boyitadi. Shuningdek, ular musiqiy-badiiy did egasi bo'lib yetishadi, bu esa kelajakda ijodiy shaxs bo'lib shakllanishlari uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda musiqa maktabi o'quvchilari uchun milliy va xalqaro fortepiano tanlovlari muntazam ravishda o'tkazilib kelinmoqda. Masalan:

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

1. "Yoshlar ovozi" tanlovi. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tashkil etilgan. Maqsad yosh iste’dodlarni aniqlash, ularni qo‘llab-quvvatlash va fortepiano san’atini rivojlantirishdan iborat. Tanlov bir necha yosh toifalarida o‘tkazilib, ishtirokchilar klassik va zamonaviy asarlarni ijro etadilar.

2. "Strana talantov" tanlovi. Mahalliy madaniyat bo‘limlari va musiqa maktablari tomonidan tashkil etilgan. Tanlov turli yosh toifalarida o‘tkazilib, ishtirokchilar milliy va jahon kompozitorlarining asarlarini ijro etadilar.

3."Yilning eng yaxshi pianinochisi" tanlovi. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tashkil etilgan. Tanlovda ishtirokchilar o‘z repertuarlaridan asarlarni ijro etadilar va hakamlar hay’ati tomonidan baholanadi.

4.”Akademik va Estrada ijrochiligi Respublika tanlovi”. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tashkil etilgan.

Ushbu ko’rik-tanlovlar avvalo, o’quvchilarda sahna madaniyati, ijrochilik mahorati, tinglash madaniyatini o’rgatadi. Bolada musiqiy-badiiy did shakllanishida dastlab tinglash ko’nikmasiga ega bo’lish, undan so’ng tinglangan asarni ongda musiqiy obrazlar orqali aks etirish ya’ni o’rnatish, oxirida musiqani to’laqonli idrok etish asosida badiiy-estetik mazmunni anglash mumkin.

Milliy va xalqaro tadqiqotlar tahliliga ko’ra, tinglash faoliyati mazmuniga ko’ra uch qismga bo’linadi:

musiqiy obraz;

estetik-axloqiy asos (bastakor yashab o’tgan davr va uning estetik-axloqiy qarashlari);

badiiy tasvir (tinglovchi tomonidan amalga oshirilgan ijodiy tajriba, fikrlarning mantiqiy ketma-ketligi)dan iborat. [2;41]


Xalqaro va milliy ko’rik tanlovlarda qatnashish kuchli tayyorgarlikni ta’lab etadi. O’quvchida eshitish qobiliyati ya’ni idrok shakllantirib bo’lgach, ijro texnikasi ustida ishlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Fortepiano darslarida o’quvchilarning texnik mukammalligini oshirishga alohida e’tibor qaratish har bir o’qituvchining asosiy vazifasidir. Shu sababli har bir o’qituvchi o’qitish dasturiga turli xil mashqlar, etyudlar, vertuaz kuylar kiritishi maqsadga muvofiqdir. Bu o’quvchilarning musiqiy tushunchalarini kengayishiga ham yordam beradi. Bu bilimlar hammasi yig’ilib uning natijasi o’quvchida notani varoqdan o’qish, tinglab chalish, transportlash, musiqiy ijro etishda asosiy vosita bo’ladi. [5;14] (2-jadvalga qaralsin).

2-jadval

Notani o’qish	**Notani tezlik bilan kuzata bilish ko’nikmasi**
Tinglab chalish	**Musiqiy va harakatdagi eshitish tushunchalari**

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3



Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki, musiqa va san’at maktabi o’quvchilarida musiqiy-badiiy didni shakllantirishda milliy va xalqaro ko’rik-tanlov, festival, konsertlarda ishtirok etish muhim sanaladi. Bu orqali o’quvchida ijodiy qobiliyat rivojlanishi, texnik mahorat, tinglash madaniyatiga ega bo’lishini ko’rishimiz mumkin. Bundan tashqari, ijro etayotgan asarning mohiyati va badiiy-g’oyaviy ma’nosini, uning uslubini tushunish intelektni rivojlantirishga ko’maklashadi.

Bugungi kun talabi ham yuksak madaniyat va ma’naviyatga ega bo’lgan kasbiy bilimlar bilan qurollangan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Ushbu maqola asosida nafaqat fortepiano, balki musiqiy ijrochilik rivojlanish dinamikasining sifatli o’sishiga mo’ljallangan tavsiyalar ham taqdim etilmoqda, zero ijrochilik madaniyatining muammolari barcha ijrochilik yo’nalishlari uchun umumiy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. 1.Fayzullayev E.M. “Bo’lajak musiqa o’qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari”. Dissertatsiya 2011-y; 163b
2. 2.Axmedova Farangiz “Musiqa fanini o’qitishda o’quvchilarda umumadaniy kompetensiyani rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari”. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar; 2024-y.
3. 3.Islyamova Dilyara “Zamonaviy fortepiano musiqasi ijrochilik madaniyatining uslubiy tendensiyalari”. Dissertatsiya. Toshkent-2022-y.
4. 4.Xodjiyeva D.R. “Fortepiano darslarida o’quvchilarda musiqiy-badiiy didni shakllantirishning nazariy asoslari ”. Pedagogik mahorat-ilmiy nazariy va metodik jurnal. Buxoro- 2024-y; 109-b.
5. 5.Ayapbergen Otegenov “Cholg’u ijrochiligi”. O’quv qo’llanma. Toshkent-2024-y; 148-b

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Xodjiyeva Dilfuza Rustamovna**, tayanch doktorant, [**Ходжиева Дильфуза Рустамовна,** докторант], [**Khodjiyeva Dilfuza Rustamovna**, doctoral student]; manzil: O‘zbekiston, Buxoro sh., Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy [адрес: Узбекистан, улица Мухаммад Икбол, 11, Бухара], [address: Uzbekistan, 11, Muhammad Ikbal st., Bukhara city] e-mail: xodjiyevadilfuza1@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

TEXNOLOGIK JARAYON STRUKTURASINI SHAKLLANTIRISH USLUBINI ISHLAB CHIQISH

© A.N. Abdullayev[1] ✉

[1]Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISh: texnologik jarayon strukturasini shakllantirish va detalga ishlov berish marshrutini loyihalashtirish prinsiplari bilan tanishtirish. Detalga ishlov berish texnologik jarayonining strukturasi ishlab chiqarish turiga bog‘liq va qator omillar bilan aniqlanadi.

MAQSAD: Texnologik operatsiyalarda bir vaqtning o‘zida bir yoki bir necha detalga ishlov berilishi ko‘rib chiqiladi. Bitta detalga ishlov berish jarayonida u asbobga nisbatan ketma-ket bir nechta belgilangan holatlarda bo‘lishiga erishish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Zagotovkaning moslamada o‘rnatilish usuli avtomatik bo‘lishi mumkin; qo‘lda har bir detalga navbatma-navbat; dastlab qo‘lda dastgohdan tashqari kassetaga, qolipga, plitada va boshq qo‘lda yuklash pozitsiyasida.Barcha omillar konsentratsiyaning u yoki boshqa darajasini aniqlaydi. Konsentratsiya darajasi iqtisod jihatdan ishlab chiqarish qanchalar yuqori darajani talab qilsa, undan yuqori bo‘lishi kerak.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Bir vaqtning o‘zida bir nechta detallarga ishlov berishda operatsiyani bir yoki bir nechta pozitsiyalarda bajarish mumkin. Har bir pozitsiyalarda detallarni ishlov berishda bir yoki bir nechta oqimlar joylanishi mumkin. Agar detallar bitta oqimga joylansa, u holda ular ishlov berilishga faqat ketma-ketlikda kirishadilar. Detallarni ko‘p oqimli joylashtirish ularga parallel yoki ketma-ket parallel ishlov berish imkonini beradi.

XULOSA: Shunday qilib, detallarni ishlab chiqarishning mazkur hajmi qanchalar ko‘p bo‘lsa, operatsiyalarning konsentratsiyasi shunchalar yuqori bo‘lishi kerak. Variantlardan tanlangan operatsiyalarning strukturasi tanlovini asoslash texnikaviy tashkiliy va iqtisodiy jihatdan ularning maqsadga muvofiqligi tahlili asosida bajariladi.

Kalit so'zlar: Detal eskizi, texnologik bazalar, to‘g‘ri burchakli orientatsiya, Zagotovkaning bazalashish sxemasi, zagotovkani uchta erkinlik darajasi, O‘rnatish elementlari**.**

Iqtibos uchun: Abdullayev A.N. Texnologik jarayon strukturasini shakllantirish uslubini ishlab chiqish. // Inter education & global study. 2025. №3 B.202-208.

РАЗРАБОТКА МЕТОДА ФОРМИРОВАНИЯ СТРУКТУРЫ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

© А.Н. Абдуллаев[1]✉
[1]Ташкентский государственный университет имени Низами, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: знакомство с принципами формирования структуры технологического процесса и проектирования маршрута обработки детали. Структура технологического процесса обработки деталей зависит от типа производства и определяется рядом факторов.

ЦЕЛЬ: Рассмотрена обработка одной или нескольких деталей одновременно в технологических операциях. Достижение того, что при обработке одной детали она будет находиться в нескольких определенных положениях относительно инструмента.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Способ установки заготовки в устройство может быть автоматическим; каждая деталь вручную по очереди; первоначально в положении ручной загрузки вне машины в кассету, форму, плиту и т. д. Все факторы определяют тот или иной уровень концентрации. Уровень концентрации должен быть выше экономически необходимого уровня производства.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: при одновременной обработке нескольких деталей операция может выполняться в одной или нескольких позициях. В каждой позиции при обработке детали может быть размещен один или несколько потоков. Если детали помещены в один поток, то они будут обрабатываться только последовательно. Многопоточность позволяет обрабатывать детали параллельно или последовательно параллельно.

ВЫВОД: таким образом, чем больше объём детального производства, тем выше должна быть концентрация операций. Обоснование выбора структуры выбранных из вариантов операций осуществляется на основе анализа их целесообразности с технической, организационной и экономической точки зрения.

Ключевые слова: Детальный эскиз, технологические основы, ориентация под прямым углом, схема базирования заготовки, три степени свободы заготовки, монтажные элементы.

Для цитирования: Абдуллаев А.Н. Разработка метода формирования структуры технологического процесса. // Inter education & global study. 2025. №3. С. 202-208.

DEVELOPMENT OF A METHOD FOR FORMING THE STRUCTURE OF A TECHNOLOGICAL PROCESS

© Abdukhakim N. Abdullayev[1]✉
[1]Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

INTRODUCTION: To introduce the principles of forming the structure of a technological process and designing a route for processing parts. The structure of the technological process for processing parts depends on the type of production and is determined by a number of factors.

AIM: In technological operations, the processing of one or more parts at the same time is considered. To achieve that during the processing of one part, it is in several specified positions relative to the tool.

MATERIALS AND METHODS: The method of installing the workpiece in the fixture can be automatic; manually, one by one for each part; initially manually, in a cassette, mold, plate and other manual loading positions, outside the machine. All factors determine one or another level of concentration. The higher the level of concentration, the higher the level of economic production requires.

DISCUSSION AND RESULTS: When processing several parts at the same time, the operation can be performed in one or more positions. In each position, one or more streams can be placed for processing parts. If the parts are placed in one stream, then they enter the processing only sequentially. Multi-stream placement of parts allows them to be processed in parallel or sequentially.

CONCLUSION: Thus, the larger the volume of production of parts, the higher the concentration of operations should be. The justification for the choice of the structure of operations selected from the options is based on an analysis of their feasibility in technical, organizational and economic terms.

Key words: Detail sketch, technological bases, rectangular orientation, Basis scheme of the workpiece, three degrees of freedom of the workpiece, Installation elements.

For citation: Abdukhakim N. Abdullayev. (2025) 'Development of a method for forming the structure of a technological process', Inter education & global study, (3), pp. 202-208. (In Uzbek).

Texnika va mashinasozlik sohasining rivojlanishi jamiyatning barqaror rivoji va global muammolarga yechim topishda muhim rol o`ynaydi. Zamonaviy innovasiyalar va texnologik yangiliklar bu sohaning kelajagini shakllantirishda va uning kelajakdagi taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ishlov beriladigan detallar soni va ularga ishlov berish ketma-ketligi. Ish bajarilishida qatnashadigan asboblar soni. Ushbu omilga bog'liq holda asbob ketma-ket, parallel yoki parallel-ketma-ket ishlashi mumkin (1-jadval).Texnikaviy maqsadga muvofiqligi ulardan foydalanishda yuza qatlamiga qo'yiladigan aniqlik va sifat, hamda ishning yuqori unumdorligi talablari bilan aniqlanadi.

1-jadval


Texnologik operatsiyalar strukturasi klassifikatsiyasi

		Operatsiyada ishlov beriladigan zagotovkalar soni			
		Bir	Simvol	Bir nechta	Simvol
		Bir joyli ishlov berish	I	Ko'p joyli	II

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

		Bir vaqtda ishlovchi asboblar soni			
		Bir		Bi nechta	
		Bir joyli ishlov berish	A	Ko‘p asbobli ishlov berish	B
Strukturaviy guruh		**Yuzalarga ishlov berish ketma-ketligi**			
		Ketma-ket bajarish			X
		Parallel bajarish			U
		Parallel-ketma-ket bajarish			XY

Ish unumdorligini oshirishdagi yangi qadamlarni ko‘p joyli ko‘p asbobli ishlov berish sxemalariga o‘tishda qo‘yish mumkin. Eng yuqori ish unumdorligini zagotovkalarga ko‘p joyli ko‘p asbobli parallel-ketma-ket ishlov berishni qo‘llash berishi mumkin.Detalning yuzalariga ishlov berishning tanlab olingan uslublari asosida talaba bir-biridan ishlov berish uslublari yoki texnologik operatsiyalar mazmuni bilan farq qiladigan mexanik ishlov berish marshrutining 2-3 ta alternativ variantlarini shakllantirishi kerak. «Podshipnik qopqog‘i» detali uchun bitta struktura misoli 1-rasmda keltirilgan.Bazalashish sxemalari bilan birga ishlov berish marshrutlari zagotovkalarni o‘rnatish variantlari barcha operatsiyalar bo‘yicha varaqlarning grafik qismida taqdim qilingan bo‘lishi kerak. Marshrut texnologiyasini ishlab chiqish. Operatsiyalarni tuzish. Detalga mexanik ishlov berish marshrutini ishlab chiqishda birinchi texnologik operatsiyada keyinchalik texnologik baza sifatida xizmat qiladigan yuzalarga birinchi navbatda ishlov berilishi kerakligini hisobga olish kerak. Birincha navbatda yana qolgan yuzalarga bekorga mehnat sarflamaslik uchun zagotovkaning nuqsonlari (chuqurchalar, darzlar, yumshab qolgan joylar va xok.) bo‘lishi mumkin bo‘lgan yuzalarga ham ishlov berilishi kerak. Ishlov berishning keyingi ketma-ketligi talab qilinadigan aniqlikka bog‘liq holda o‘rnatiladi. Yuza qanchalar aniqlikda bo‘lsa, unga shunchalar kech ishlov berilishi kerak, chunki keyingi yuzaga ishlov berish



1-rasm. Bazalashish va o‘rnatish sxemalari bilan operatsiyalar strukturasi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

avval ishlov berilgan xatoliklarni keltirib chiqarishi mumkin.Bu ichki kuchlanish qayta taqsimlanishi, metalning har bir yangi qatlami yechib olinganidan keyin hosil bo‘ladigan detal deformatsiyasi sababli sodir bo‘ladi.Eng oxirida eng aniqroq bo‘lgan, hamda eng kam g‘adir-budurlikka va to‘lqinsimon nuqsonlarga ega bo‘lgan yuzalarga ishlov beriladi.

Mexanik ishlov berish jarayoni quyidagi bosqichlar ichiga joylashishi kerak:

1. Keyingi barcha operatsiyalar uchun o‘rnatish bazalarini hosil qiluvchi yuzalarga ishlov berish.
2. Detalning asosiy yuzalariga xomaki ishlov berish.
3. Detalning asosiy yuzalariga oxirgi tozalab ishlov berish.
4. Ikkinchi darajali yuzalarga xomaki va tozalab ishlov berish.
5. Detalga termik ishlov berish, agar ishlov berish chizma va texnikaviy talablar bilan ko‘zda tutilgan bo‘lsa.
6. Termik ishlov berish bilan bog‘liq bo‘lgan ikkinchi darajali operatsiyalarni bajarish.
7. Asosiy yuzalarni pardozlash operatsiyalarini bajarish.
8. Asosiy yuzalarni o‘lchamga yetkazish operatsiyalarini bajarish.

Uzluksiz ishlab chiqarish turlari uchun operatsiyalarni shakllantirish har bir operatsiyaning ish qamrovi taktga teng yoki taktga qoldiqsiz qilib olinishiga bo‘ysuntirilishi kerak.

Har bir operatsiyaning dastgoh qamrovligi imkon qadar uskunani vaqtga ko‘ra eng yaxshi ishlatilishi taktga teng yoki taktga qoldiqsiz bo‘lishi kerak.

Mashina vaqtining solishtirma og‘irligi ancha katta bo‘lgan o‘tishlarni operatsiyada bir ishchi bir nechta dastgohlarga xizmat ko‘rsatish yoki xatto har xil turdagi uskunalarni ishlatish imkoniyatini ko‘zda tutgan holda shakllantirish kerak.

Katta dasturli ishlab chiqarishda bitta operatsiyada o‘tishlarning maksimal konsentratsiyali uskunalarning eng unumli turlarini ishlatish va ularni vaqt davomida maksimal darajada o‘rindosh bo‘lishi tejamlidir. Bu joyda uchta “ko‘p” ta’rifini ishlatish o‘rinlidir: ko‘p o‘rinli, ko‘p asbobli, ko‘p poziiyali ishlov berish.

Detallarning soni kamayishi bilan operatsiyalarni shakllantirish ularga o‘tishlarni qo‘shish yo‘li bilan olib boriladi, va ushbu o‘tishlar yordamida turli detallarda o‘xshash masalalar hal qilinadi.Ishlab turgan zavod sharoitida operatsiyalarni shakllantirishda mavjud bo‘lgan uskunaning imkoniyatlari, uni modernizatsiyalash istiqboli, uni almashtirish yoki yangi uskuna bilan to‘ldirish imkonini hisobga olish kerak.Shakllantirilgan operatsiyalardan detalga ishlov berishning texnologik marshruti tuziladi. Bunda eng keng chegaralarda turga oid texnologik jarayonlar, korxonalar tajribasi, axborotnoma va davriy adabiyotdan foydalanish kerak.

Texnologik jarayonning marshrut-operatsion kartasini to‘ldirish namunasi 2-jadvalda keltirilgan.Jadvalning har bir ustuni o‘tishlarning to‘la mazmuni, texnologik uskuna modelining nomi, kesish asbobi, asbob materiali markasini ko‘rsatgan holda va keskich turi nomi bilan to‘ldirilgan bo‘lishi kerak.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3


Texnologik jarayonning eskizda marshrut-operatsiya kartasini to‘ldirishda quyidagilar hisobga olinishi kerak:

1. Ishlov berilgan yuzalarning chegaraviy og‘ishlari bilan o‘lchamlari va ularning tartib raqamlari.
2. Chegaraviy og‘ishlarga ega bo‘lgan bazalardan o‘lchamlar.
3. Ishlov berilgan yuzalarning g‘adir-budurligi .
4. Ishlov berilgan yuzalar ikki karra qalinlikdagi (2S) yoki qizil rangli chiziq bilan ajratib ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.
5. Har bir operatsiyada zagotovkani bazalashish sxemasi .
6. Har bir operatsiyada zagotovkani o‘rnatish sxemasi .
7. Zagotovka ishchi holatda tasvirlanadi.

Grafik qismi varaqlari rasmiylashtirilishida texnologik operatsiyani har bir texnologik o‘tishlarda kesish asboblari bilan birga ishlov berishning oxirgi holati tasvirlangan bo‘lishi kerak. ‘

2-jadval

Texnologik jarayonning marshrut-operatsion kartasi

Operatsiyaning t\r	Operasiyaning nomi	O'rnatish holat.	O'tishning t\r	O'tishning nomi	Uskuna	Kesish asbobi	Moslama	sxemalar
								O‘rnatishni bazalash
005	Tokarlik- vint kesuvchi		1 2	Dag‘al yo‘nish 5 Dag‘al yo‘nish 4	Tokarlik-vint kesuvchi dastgoh 1A620	Qirqib oluvchi keskich GOST… O‘tuvchi keskich GOST…		
			3	Dag‘al yo‘nish 6		Qirqib oluvchi keskich GOST…		
			4	Yo‘nib kengaytirish 20		Yo‘nib kengaytiruvchi keskich GOST…		
			5	Yo‘nib kengaytirish 23		Shakldor keskich GOST…		
010								
…								
110								

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Amaliy mashg‘ulotni bajarish tartibi

1. Texnologik jarayonni aniqlab beruvchi omillar va texnologik operatsiyalar strukturasi klassifikatsiyasi bilan tanishib chiqish.
2. Operatsiyada bir vaqtning o‘zida ishlov beriladigan detallar sonini aniqlash.
3. Yuzalarga ishlov berish ketma-ketligini belgilang.
4. Bir vaqtning o‘zida ishlatiladigan asboblarning soni va ularning ishlash ketma-ketligini aniqlang.
5. Detallarga ishlov berish texnologik jarayoni marshrut-operatsion kartasini ishlab chiqing.

Hisobot mazmuni

1. Amaliy mashg‘ulotning nomi va maqsadi.
2. Texnologik jarayoni marshruti operatsiyalari ro‘yxati.
3. Texnologik operatsiyalar strukturasi, o‘rnatishlar, pozitsiyalar, o‘tishlar soni ko‘rsatib o‘tiladi.
4. Bazalashish va o‘rnatish sxemalari bilan birga zagotovkaga ishlov berishning marshrut-operatsion kartasi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdullayev.A.N (2024). Use of measuring instruments. в international bulletin of engineering and technology (Т. 4, Выпуск 2, сс.113–119).https://doi.org/
2. 10.5281/zenodo.10726900
3. Abdullayev.A.N (2024). A study of enclosed cylindrical and bevel gear reducers.
4. Наука и инновация, 2(6), 148–154.https://in-academy.uz/index. php/si/article/view/28348
5. Abdullayev.A.N (2023). Methodology of problem solving in technical mechanics classes.Scientific electronic magazine "Science and Education". Volume 4 Issue 4 https://drive.goole.com/file/d/1GJzuiTGK_ITj7HReL8Pl6_yMqytgpgj1/view?usp=share_link. ISSN 2181-0842. APRIL 2023. 684-688

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Abduhakim Nigmatovich Abdullayev**, “Texnologiya va professional ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti, Ph.D. [**Абдухаким Нигматович Абдуллаев,** к.т.н., доцент кафедры «Технологии и методика профессионального образования»], [**Abdukhakim N. Abdullayev**, Ph.D., associate professor, Department of "Technology and professional education methodology "of"] manzil:O‘zbekiston, Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor ko’chasi 27 uy; [адрес:Узбекистан, г. Ташкент, Чиланзарский район, ул. Бунёдкор, 27], [address: Uzbekistan, 27 Bunyodkor street, Chilanzor district, Tashkent city].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

SCAFFOLDING METODI ASOSIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TURIZMGA OID TERMINLARNI O'RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

© N.O. Ashurov[1]✉

[1]Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada scaffolding metodi asosida oliy ta'lim muassasalarida turizmga oid terminlarni o'rgatish metodikasini takomillashtirishda ingliz va o'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan foydalanib, yangi paydo bo'layotgan tushunchalarni nomlash uchun terminlarning o'zbekcha muqobillarini yaratish va o'rganishning dolzarb muammolari haqida fikrlar bayon etiladi. Shuningdek, maqolada scaffolding metodi asosida turizm sohasiga oid terminlarni o'rgatishda mavjud muammolarni bartaraf etish usullari ham ta'kidlanadi.

MAQSAD: hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida turizmga oid terminlarni scaffolding metodi asosida o'rgatish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu maqolada turizmga oid terminlarni scaffolding metodi asosida o'qitish metodikasidan foydalanib turizmga oid terrminlarni o'rganish uchun bir necha metodlar qo'llanildi: terminlarni tahlil qilish, so'rovnoma o'tkazish, scaffolding metodi, statistik tahlil.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ushbu maqolada turizmga oid terminlarni o'rgatish, har bir tilda bo'lganidek, o'zbek tilida ham sohaga doir u yoki bu tushunchani yasashda bir qator usullardan foyalaniladi. O'rganishlardan ma'lum bo'ladiki, o'zbek tili turizm terminologiyasida nolisoniy omillar ko'plab terminlar hosil bo'lishida asos vazifasini bajarmoqda, ammo lisoniy omillar natijasida termin yasash ham soha terminologiyasining muhim masalalaridan biri sifatida ta'kidlanadi.

XULOSA: o'zbek tili turistik terminlari, asosan, ingliz va rus tillari negizida paydo bo'lgan. O'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, ularning tildagi ekvivalentlarini topish va iste'molga kiritish uchun chora-tadbirlar amalga oshilishi lozim.

Kalit so'zlar: o'qitish, talaba, mustaqil, faoliyat, takomillashtirish, ingliz tili, mutaxassis, turizm sohasi, termin, "Scaffolding", metodika.

Iqtibos uchun: Ashurov N.O. Scaffolding metodi asosida oliy ta'lim muassasalarida turizmga oid terminlarni o'rgatish metodikasini takomillashtirish. // Inter education & global study. 2025. №3 B.209-217.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ТУРИСТКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ НА ОСНОВЕ МЕТОДА СКАФФОЛДИНГА

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

© Н.О. Ашуров[1]✉
[1]Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье излагаются идеи по актуальным проблемам создания и изучения узбекских альтернатив терминам для наименования возникающих концепций, используя внутренние возможности английского и узбекского языков для совершенствования методики преподавания терминов по туризму в высших учебных заведениях на основе метода скаффолдинга. В статье также освещаются методы преодоления существующих проблем в преподавании туристской терминологии на основе метода скаффолдинга.

ЦЕЛЬ: в настоящее время ставится цель усовершенствовать методику преподавания туристской терминологии в высших учебных заведениях на основе метода скаффолдинга.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в данной статье было использовано несколько методов для изучения туристических терминов с использованием метода скаффолдинга при обучении туристическим терминам: анализ терминов, анкетирование, метод скаффолдинга и статистический анализ.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в данной статье используется ряд методов для обучения терминологии, связанной с туризмом, и создания той или иной концепции об этой сфере на узбекском языке, как и на любом другом языке. Исследования показывают, что нелингвистические факторы играют основополагающую роль в формировании многих терминов в узбекской туристкой терминологии, однако формирование терминов в результате лингвистических факторов также подчеркивается как один из важных вопросов в терминологии этой области.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Узбекские туристические термины возникли в основном на основе английского и русского языков. Исходя из внутренних возможностей узбекского языка, следует принять меры по поиску и внедрению в язык их эквивалентов.

Ключевые слова: преподавание, студент, самостоятельный, деятельность, совершенствование, английский язык, специалист, туристическая отрасль, термин, «Scaffolding», методика.

Для цитирования: Ашуров Н.О. Совершенствование методики преподавания туристкой терминологии в высших учебных заведениях на основе метода скаффолдинга. // Inter education & global study. 2025. №3. С. 209-217.

IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING TOURISM TERMS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS BASED ON THE SCAFFOLDING METHOD

© Nurbek O. Ashurov[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

[1]Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in this article, on the basis of the scaffolding method, in improving the methodology of teaching tourism-related terms in higher education institutions, using the internal capabilities of English and Uzbek languages to create Uzbek alternatives of terms for naming newly emerging concepts, thoughts on modern teaching problems are expressed. In addition, the article highlights ways to overcome the existing problems in teaching tourism terms based on the scaffolding method.

AIM: at present, the methodology of teaching tourism terms based on the scaffolding method in higher education institutions is to be improved.

MATERIALS AND METHODS: in this article, using the method of teaching tourism terms based on scaffolding method, several methods were used to study tourism terms: term analysis, survey, scaffolding method, and statistical analysis.

DISCUSSION AND RESULTS: in this article, when teaching tourism-related terms, as in every language, Uzbek uses a number of methods to create a particular understanding of this domain. It is known from research that in Uzbek-language tourism terminology, non-linguistic factors play a fundamental role in the formation of many terms, but the formation of terms as a result of linguistic factors is also highlighted as one of the important issues in sectoral terminology.

CONCLUSION: tourism terms in the Uzbek language have emerged mainly based on English and Russian languages. Based on the internal capabilities of the Uzbek language, measures taken to find its linguistic equivalents and introduce them into use.

Key words: teaching, student, independent, activity, improvement, English, specialist, tourism industry, term, Forests, methodology.

For citation: Nurbek O. Ashurov. (2025) 'Improving the methodology of teaching tourism terms in higher education institutions based on the scaffolding method', Inter education & global study, (3), pp. 209-217 (In Uzbek).

O'tgan davr mobaynida turizm sohasining qonunchilik asosini mustahkamlash, sohadagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish doirasida O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Turizm to'g`risida"gi Qonun loyihasi hamda 30 ta normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lib, ulardan 22 tasi qabul qilindi va hozirda amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, 1992-yil 27-iyulda tashkil etilgan "O'zbek turizm" Milliy kompaniyasi tugatildi va uning negizida yurtimizda turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi turizm sohasidagi vakolatli davlat organi etib belgilandi. 2017-yil 12-iyuldagi "Turizm sohasini rivojlantirishda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mas'uliyatini yanada

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

oshirish chora-tadbirlari to‘g`risida”gi, 2017-yil 16- avgustdagi “2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g`risida” gi qarorlari sohaga doir o‘ziga xos qonunchilik tizimi ham shakllanganligini ko‘rsatadi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g`risida”gi PF-5326-son Farmoni qabul qilindi. Natijada, ichki turizm, turistik yig`im, tematik xiyobon, kichik turizm zonalarikabi terminlar iste’molda faollashgani kuzatildi.

2017-yil 19-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Toshkent viloyati hokimligi huzuridagi Turizmni rivojlantirish department faoliyatini tashkil etish to‘g`risida”gi qaror imzolandi. Departamentning tashkiliy tuzilmasida Toshkent viloyatidagi Bo‘stonliq, Ohangaron va Parkent tog` turisti klasterini rivojlantirish uchun maxsus bo‘limlar tashkil etish maqsad qilib olingan. Klasterlarda sayyohlar turar-joylarini tashkil etish va aholining daromadlarini oshirish maqsadida tashkiliy tuzilmada alohida “Mehmonxona uylarni tashkil etish, ro‘yxatdan o‘tkazish va hisobga olishga ko‘maklashish bo‘limi” va “Mehmon uylarida turistlarga xizmat ko‘rsatish satndartlarini o‘rgatish va joriy etish sho‘basi” ham kiritilgan [2].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi“ Turizm faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 189-sonli qarorga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan 2017-yil davomida jami bo‘lib 123 ta tadbirkorlarga turizm faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalar berildi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-iyundagi “Turoperator va mehmonxona xizmatlarini sertifikatlashtirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 355-sonli qarorga muvofiq Qo‘mita tuzilmasidagi“Turizm xizmatlarini sertifikatlash markazi” tomonidan jami 91 ta yangi tashkil etilgan joylashtirish vositasi (mehmonxona) larga tegishli muvofiqlik sertifikatlari berildi.

Turizmga faqatgina mamlakat iqtisodini oshiruvchi, aholini ish bilan ta’minlovchi soha sifatida emas, xalqlarni birlashtiruvchi, tinchlikni asrovchi va joylarda madaniy meros obyektlarini o‘rganuvchi, tabiatni himoya qiluvchi alohida yo‘nalish sifatida ham qaralmoqda. Bunga 2013-yil oktyabr oyida MDH mamlakatlari prezidentlari ishtirokida o‘tkazilgan Minsk sammitida 2014-yil Turizm yili deb e’lon qilinishi misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin. Bugungi kunda mamlakatimizda 7 mingdan ziyod nodir tarixiy yodgorliklar va ulug‘vor hamda betakror arxitektura namunalari mavjud. Mamlakatning so‘lim qo‘riqxonalari va milliy bog`lari uning boy va rang-barang tabiati durdonalaridir. Mamlakatda milliy madaniyat, san’at va hunarmandchilikning ko‘p asrlik an’analari avaylab asrab kelindi va rivojlantirilmoqda. Jahonga mashhur milliy taomlarimiz va pazandachilik sohasidagi an’analarimiz Sharq mehmondo‘stligining ramzi hisoblanadi.

Terminologik tizimda turizm terminologiyasi ham salmoqli o‘rinni egallaydi. Turizm sohasi har qanday mamlakat iqtisodiyotining eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Uning rivojlanganlik darajasini belgilab beruvchi omillar orasida kadrlar malakasining yuqoriligi ham muhim ahamiyatga ega.

Jamiyatdagi barcha o‘zgarish va yangilanishlar avvalo tilda aks etar ekan, jarayonlar tilshunoslar oldiga qator vazifalarni qo‘yadi. Ushbu vazifalardan biri turistik terminlarni lingvistik jihatdan tahlil qilish masalasidir. Bugungi kunga qadar o‘zbek tilshunosligida turistik terminlar maxsus to‘planmagan. Mavjud lug`atlarga kiritilgan terminlar miqdori ham u qadar ko‘p emas. Masalan, “O‘zbek tilining izohli lug`ati” da ham 183 ta turizm sohasiga oid termin kiritilgan.

L.P.Krisin so‘z o‘zlashtirish omillari tasnifida lisoniy omillar sirasiga quyidagi jumlalarni kiritgan: yangi tushunchalarni tilda o‘z ifodasini topishi (sayohat, turist, shahar, dengiz va h.k.); mazmunan o‘zaro yaqin, lekin bir-biridan farq qiluvchi tushunchalarni farqlashga bo‘lgan ehtiyoj (qulaylik – komfort, xizmat ko‘rsatish – servis, ma’lumot – informatsiya va sh.k.); so‘z o‘zlashtiruvchi tilda ko‘p ma’noli so‘zlarni ifodalash uchun bir atamani qo‘llashga intilish, so‘zning semantik strukturasini soddalashtirishga moyillik; tushunchalarni ixtisoslashtirishga bo‘lgan ehtiyoj (maqsadli so‘z o‘zlashtirish; masalan: boshqarish – menejment, chetga chiqarish – eksport, chetdan olib kirish – import va sh.k.); so‘z birikmalari orqali ifodalanoytgan tushunchani yaxlit so‘z bilan atash tendensiyasi (maxsus ta’lim olgan git, mohir suhandon – boshlovchi; avtoturistlarga mo‘ljallangan mehmonxona – motel; dengiz sayohati, kema va sh.k. – suzish va h.k.); o‘zlashmalarning o‘z qatlam so‘zlariga nisbatan yuqori baholanishi (“moda”, lisoniy snobizm); tushuncha ifodasining kommunikativ dolzarbligi (agar o‘zlashtirilgan so‘z kommunikativ dolzarb tushunchani o‘zida namoyon etsa, u holda uning nutqdagi faol qo‘llanish chastotasi, hech bo‘lmaganda, ma’lum bir muddat yuqori bo‘ladi, biroq keyin o‘zining dolzarbligini yo‘qotib, sezilarli darajada pasayishi ham mumkinligi mutahassis olim Sh.Sirojiddinov tomonidan ham o‘rganilgan[3].

Termin yasalishidagi ichki imkoniyatlar deganda, har bir tilning mavjud ifoda vositalaridan va materiallaridan to‘liq foydalanish nazarda tutiladi. Bu jarayon ko‘pincha ichki yoki lingvistik omillar ham deb atalishi mumkin [4]

O‘rganishlardan shu ma’lum bo‘ldiki, muayyan til terminologik tizimi asosan o‘sha tillarning lisoniy bazasida so‘z yasash, so‘zlarning leksik ma’nosini o‘zgartirish, ushbu tillarning ichki imkoniyatlari asosida so‘zlarni bog‘lash, mavjud terminlarni kalkalash orqali rivojlanadi.

Ma’lumki, turizm terminlari turizm sohalariga qo‘llanilayotgan so‘z va iboralar qadimgi davrlarda turizm sohalarining boshlang‘ich davrlarida qo‘llanilayot so‘z va iboralar kabi ma’lum predmetlarga joy nomi, xususiyati, tabiatga, hududga atab qo‘yilgan va o‘sha joy, hudud, tabiat va predmetlarni bildiradigan bir ma’noli so‘z va terminlardan iborat.

Aslida termin va oddiy so‘zning farqli jihatlariga e`tabor qaratmoqchi bo‘lsak, bu hodisalarga o‘sha soha bilan shug‘ullangan olimlarning fikrlariga nazar solish va shu asosda termin va oddiy so‘z oppozitsiyani hal qilish maqsadga muvofiqdir. Odatda, olimlar terminlarning quyidagi belgilarini ko‘rsatadilar:

1) Termin bir ma’noli yoki bir ma’noli tendentsiyaga ega;

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

2) termin aniq, nominativ funktsiyaga ega bo‘lib, unga emotsionallik, ekspressivlik, modallik funksiyalari xos emas. Termin o‘zining bu xususiyatlarini kontekstda ham, kontekstdan tashqarida ham saqlaydi;

3) terminning ma’nosi tushunchaga tengdir;

4) termin stilistik jihatdan neytraldir;

5) terminologik leksika alohida sistemadir va hokazo.

Tilshunoslikda terminlarning o‘zgarishi hamda yangi terminlarning paydo bo‘lishi fan va texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqdir. Tilshunos olim L.I.Bojno bu haqda quyidagilarni ta’kidlaydi: “Texnika taraqqiyoti ta’sirida terminologiya o‘zaro aloqador ikki qonuniyat asosida, birinchidan, ilmiy- texnika progressi qonuniyatlari bilan, ikkinchidan, til rivojlanishining umumiy qonuniyatlari bilan bog‘liq ravishda o‘zgarib boradi”. Texnik malakaning endilikda ma’lum tor doiradan chiqib, ommaviy xarakterga ega bo‘layotganligi va turli sohalarning mutaxassislari kundalik faoliyatida fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanayotganligi terminlarga bo‘lgan yuksak talab bilan uning hozirgi holati orasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etishni talab etadi. Shu jihatdan, terminlarni tartibga solish juda katta ilmiy va ijtimoiy ahamiyatga egadir. D.S.Lotte o‘z izlanishlarida qanday kategoriyadagi so‘zlar terminlashishi mumkinligi haqida: “...texnikada quyidagi tushunchalarni anglatuvchi asosiy kategoriyalar terminlashadi. jarayonlar (hodisalar); texnika predmetlari (materiallar, qurollar, asboblar, detallar va h.k.); xossalar; hisobiy tushunchalar (parametrlar, geometric obrazlar va h.k.); o‘lchov birliklari”; A.V.Kalinin esa termin bilan kasb-hunar so‘zlarining farqli ekanligini quyidagicha asoslashga intilgan: “...termin– bu fan, texnika, sanoat, qishloq xo‘jaligi, texnikadagi tamomila rasmiy bo‘lgan, umumiy qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasidir. Kasb-hunar so‘zlari esa – biror kasb, mutaxassislik o‘rtasida ko‘pincha jonli tilda tarqalgan,aslini olganda, tushunchaning qat`iy, ilmiy tavsifiga ega bo‘lmagan yarim rasmiy so‘zdir” Fan-texnikaning tez sur`atlar bilan rivojlanib borishi natijasida yangidan-yangi mashinalar, apparatlar, asbob-anjomlar va texnologik jarayonlarning paydo bo‘lishi bilan ularni ifodalovchi yangi terminlar ham vujudga kelmoqda. Shu sababli, yangi texnika vositalari qaysi sohaga ko‘proq kirib kelgan bo‘lsa, shu soha terminologiyasi to‘xtovsiz ravishda kengayib bormoqda. Natijada, ushbu soha terminologiyasiga juda ko‘plab yangi tushunchalar va ular bilan birga yangi ilmiy-texnikaviy terminlar ham kirib kelmoqda. Bu kabi o‘zgarishlar turistik terminlarning ingliz va o‘zbek tilida ifodalanish qamrovini kengaytirib, uning leksik tarkibini yangi-yangi ilmiy terminlar bilan boyitdi. Ko‘pchilik hollarda yangi terminlar yaratish ishiga oddiy tarjima yoki kalkalash jarayoni sifatida qaraymiz.

Terminologiyadagi mavjud kamchilik hamda tartibsizliklarning asosiy sabablaridan biri ham shundadir. Zotan, yangi termin yaratish har taraflama mukammal bo‘lgan ijodiy jarayondir. Har qanday ilmiy-texnikaviy termin oddiy so‘zning yoki so‘z birikmasining terminologiyadagi aksi bo‘lib, u aniq chegaralangan va belgilangan mazmunga ega. Bu mazmun esa, kontekstdan qat`iy nazar, faqat shu terminga oid bo‘lishi lozim. To‘g‘ri, hech qanday til faqat o‘z termin elementlari hisobiga terminologiyasini qura olmaydi. Til qurilishi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

jarayoni shuni ko‘rsatadiki, dunyoda sof tilning o‘zi umuman mavjud emas. Har doim boshqa tillardan termin o‘zlashtirish jarayoni sodir bo‘lib turadi, bu jarayondan chekinish mumkin emas. Ammo ehtiyoj sezilmagan holatlarda ham xorijiy terminlarni sun`iy ravishda tilga olib kirish har doim o‘zini oqlayvermaydi. Bunday holatlarda turizm sohasiga oid terminlarni qo‘llashda asosan umumiy va o‘z til imkoniyatlaridan foydalanib, sohaga doir terminlarni ifodalashni o‘rganish lozim bo‘lgan tushuncha mohiyati bilan termin o‘rtasidagi mutanosiblikni saqlashga e`tiborni qaratish zarurligi ilmiy ishimizni dolzarbligini asoslaydi.

Ma’lumki, muayyan terminologik tizim yoki umumiste’moldagi ma’nosi ko‘chirilgan leksemalar boshqa sohaning “mulki”ga aylanar ekan, yakka holatda ham, ma’lum so‘zlar qurshovida (ya’ni birikma tarkibida) ham shu sohaga doir tushunchalarni ifodalay oladi.

Turistik terminlarning o‘zlashuvining lisoniy omillari sifatida quyidagi asosiy manbalarni qayd etish mumkin:

1. Umumiste’moldagi turizmga oid so‘zlar ma’nosini skoffolgin metodi yordamida maxsuslashtirish yoki turizm sohasiga doir termin yasash ko‘zda tutiladi.

2. Turizmga oid so‘zlar ma’nosini o‘zlashma terminlarning ingliz va ona tilidagi muqobillarini yasash zaruratini paydo qiladi.

Umumiste’moldagi turizmga oid so‘zlar ushbu sohadagi biror joy, hudud, narsa yoki tushuncha nomi sifatida terminga xos xususiyatga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, dam olish zonasi (sayyohlar dam olishlari maqsadida tashkil qilingan turistik hudud).

Umumiste’moldagi so‘z termin sifatida qabul qilinar ekan, ushbu so‘z ma’nolaridan birigina termin anglatgan tushunchaga bog`liq bo‘ladi. Sababi termin ixcham, aniq, bir ma’noli, bir shaklli bo‘lishi, talabaga uni eslab qolishi, o‘rganishni osonlashtiradi.

Umumiste’moldagi so‘zlar asosida hosil bo‘lgan turistik terminlarga quyidagilarni namuna qilib keltirish mumkin: mehmonxona, nomer, transport, mavsum, yotoqxona, shahar tamoshasi, sayyoh, diniy-ziyorat, maqbara, obida, burchakdagi xona, ikki o‘rinli xona, uch o‘rinli xona, to‘rt o‘rinli xona, umumiy yotoqxona, qo‘shimcha karovat, oilaviy xona, qavat kaliti, yo‘lovchi. Bu birliklar turizm sohasiga oid terminlar sifatida uchraydi.

Bu kabi umumiste’moldagi so‘zlarning terminologik xususiyatlari maxsus ilmiy adabiyotlarda, lug`atlarda mutaxassislar tomonidan tavsiflanadi. Bu so‘z yasalishining semantik usuli bo‘lib, tilshunoslikda keng tarqalgan. Shu bois semantik yo‘l bilan termin yasash terminologiya amaliyotidagi doimiy va an’anaviy usullardan biridir. Ikkinchi lisoniy omil – o‘zlashma terminlarning ona tilidagi ekvivalentlarini yasash muhim. Bunda tilning ichki imkoniyatlaridan biri hisoblangan tarjima usulidan foydalaniladi. Bu usul bilan termin yasash terminologiyaning dastlabki shakllanish bosqichida kuzatiladigan jarayondir.

M.Mirzayev, M.Aliyeva ta’kiklashlaricha, prays list (price list) terminini ingliz tilidan o‘zlashgan bo‘lib, so‘zma-so‘z tarjima qilinganda “narx varaqasi” degan ma’noni bildiradi. Ushbu termin turistik xizmatlar narxi haqidagi axborot beruvchi varaqalar, bukletlar, kataloglardir. Turizmga oid darsliklarda prays list shaklida ucharaydi: Prays list varaqalar, bukletlar, kataloglar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin (kengaytirilgan narxlar majmuasi). Talabalar har qanday vaziyatda ham turistik xizmatlar haqidagi axborotlarni scaffolding metodi asosida o‘rganish jarayonida birikma tarzidagi bu termin o‘zbek tilida muayyan

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

tushunchani ifodalashini o‘zlashtirishadi, uni “narx varaqasi” tarzida qo‘llash maqsadga muvofiqlini aglab etishadi. Shuningdek, terminlar muqobilining iste’molga kirish jarayoni ham murakkab ekanligini hisobga olgan holda dastlab bu termin qo‘llangan o‘rinlarda uning yonida inlizcha varianti ham berib boriladi. Muayyan vaqtdan so‘ng “narx varaqasi” tarzida yakka o‘zi ishlatilsa ham barcha uchun tushunarli bo‘ladi.

Shuningdek, bevosita kalkalash asosida hosil bo‘lgan terminlarga quyidagilarni keltirish mumkin: xizmat turizmi turistning kasbiy va savdo-sotiqqa oid qiziqishi bilan bog`liq turizm turi. Shaxsiy xizmat safari va turli tadbirlarni o‘tkazish kabilarni o‘z ichiga oladi. Xizmat turizmida koorporativ turizm va sanoat uchrashuvlari ajratiladi. Rus tilida bu termin “деловойтуризм” shaklida qo‘llaniladi. O‘zbek tiliga “xizmat turizmi” deb to‘g`ridan-to‘g`ri semantik kalka qilingan.

Individual turizm bir yoki bir necha turistlarning buyurtmasiga asoslangan joylashtirish, ovqatlantirish, transfer, ekskursiya va ko‘ngilochar dasturlarni o‘z ichiga oluvchi xizmatlar to‘plamidan iborat turizm. Bu termin boshqa tillarda, jumladan, ingliz tilida individual tourism, rus tilida индивидуальныйтуризм shaklida qo‘llanadi.

Dengiz sayohati (ingl. cruise – ma’lum yo‘nalishda suzmoq, kreyser).Suv transporti, xususan, kema, qayiq va boshqalarda amalga oshiriladigan sayohat turi. Ruscha tarjima lug`atlariga ingliz tilidagi kabi “kruiz” cruise tarzida berilgan. O‘zbek tilida esa “dengiz sayohati”shaklida olish mantiqiydir.

Tibbiy turizm (медицинскийтуризм). Davolanish maqsadida amalga oshiriladigan safar.

Ilmiy turizm (научныйтуризм). Ma’lum ilmiy dasturda qatnashishga doir safar. Bunga hayvonlar populyatsiyasining o‘zgarishi va migratsiyasini ko‘rganish, arxeologik qazilma ishlarida ishtirok etish bilan bog`liq safarlarni kiritish mumkin. Turizmning bu ko‘rinishida ekspeditsiya shaklidagiilmiy turlar va mustaqil ilmiy sayohatlar alohida ajratiladi.

Ko‘ngilochar turizm. Xizmat turizmiga qarama-qarshi tarzda hordiq chiqarish maqsadida tashkil etiladigan sayohat. Ko‘ngilochar turizmi ko‘rinishlarini sog`lomlashtiruvchi, bilimni oshirishga yoki sportga oidligi nuqtai nazaridan turlicha nomlash mumkin. Inglizcha recreation tourism shaklida qo‘llanuvchi bu termin o‘zbek tiliga “ko‘ngilxushlik, ko‘ngilocharlik, hordiq chiqarish, dam olish” tarzida tarjima qilinadi. Rus tilida esa “рекрационныйтуризм” shaklida qo‘llanadi. Izohli lug`atga bu so‘zning ma’nosi kiritilmagan. Turizmga oid darsliklarda bu termin ingliz tilidagi variantda ko‘p uchraydi: “Turistik rekreatsion resurslar turizmning muvaffaqiyatli rivojlanishida asosiy omillardan hisoblanadi”. Demak, bu terminning adabiyotlarda berilishini muvofiqlashtirish zarur.

Demak, har bir tilda bo‘lganidek, o‘zbek tilida ham sohaga doir u yoki bu tushunchani yasashda bir qator usullardan foyalaniladi. O‘rganishlardan ma’lum bo‘ladiki, o‘zbek tili turizm terminologiyasida nolisoniy omillar ko‘plab terminlar hosil bo‘lishida asos vazifasini bajarmoqda, ammo lisoniy omillar natijasida termin yasash ham soha terminologiyasining muhim masalalaridan biridir.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, o‘zbek tili turistik terminlari, asosan, ingliz va rus tillari negizida paydo bo‘lgan. O‘zbek tilining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, ularning tildagi ekvivalentlarini topish va iste’molga kiritish muhim vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi “O`zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo`yicha qo`shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to`g`risida”gi PF-5326-son Farmoni.
2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “ Turizm faoliyatini litsenziyalash tartib ito`g`risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” gi 189-sonli qarori.
3. Sirojiddinov Sh. O‘sha asar, 84 - b.
4. Крысин Л.П. Иноязычное слово в контексте современной общественной жизни // Русский язык в школе, 1994. – №6. – С.60.
5. Qodirbekova D. Termin yuzaga kelishining lisoniy v anolisoniy omillari // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2015. – №3. –B. 38.
6. Mirzayev M., Aliyeva M. Turizm asoslari. – Toshkent, 2011. - B. 270.
7. Mirzayev M., Aliyeva M. Turizm asoslari. – Toshkent, 2011. – B. 232.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Ashurov Nurbek Oybek o‘g‘li,** Nizomiy nomidagi TDPU tadqiqotchisi, [**Ашуров Нурбек Ойбек оглы,** исследователь ТГПУ им. Низами], [**Nurbek O. Ashurov**, researcher at TSPU named after Nizami [manzil:Toshkent shaxar, Bunyotkor kochasi, 27-uy], [адрес: г.Ташкент, ул.Бунёткор, 27], [address: Tashkent city, Bunyotkor street, house 27].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

TALABALARDA AKADEMIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION SHAKL VA USLUBLARI

© Q.J. Nuriddinov[1]✉

[1]Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: globallashuv, raqamli transformatsiya va ta’limning individuallashtirilayotgan zamonaviy bosqichida akademik madaniyat talabalarning shaxsiy va kasbiy shakllanishida muhim omilga aylanmoqda. Akademik madaniyat – bu nafaqat bilim olish jarayoniga halol yondashuv, balki axloqiy pozitsiya, mas’uliyat hissi, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy ong shakllanishini ham bildiradi. Bu tushuncha o‘z ichiga akademik halollik, ilmiy izchillik, axborot madaniyati, muloqot etikasi, o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ichki ehtiyojlarni qamrab oladi.

Pedagogik amaliyotda talabalarda akademik madaniyatni shakllantirishga doir an’anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda, hozirgi kunda innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, raqamli vositalar va reflektiv yondashuvlar samarali qo‘llanilmoqda. Biroq, bu shakl va uslublarning pedagogik samaradorligi, talabaning ongli, mustaqil, mas’uliyatli akademik xatti-harakatlariga ta’siri yetarlicha chuqur o‘rganilmagan.

Ushbu maqolada aynan talabalarda akademik madaniyatni shakllantirishning innovatsion shakl va uslublari nazariy va amaliy asosda tahlil qilinadi. Dolzarblik shundan iboratki, hozirgi ta’lim muhitida faqat bilim emas, balki akademik madaniyat mezonlariga muvofiq yashash va faoliyat yuritishga o‘rgatish zarurati kun tartibiga chiqmoqda.

MAQSAD: mazkur maqolaning maqsadi – akademik madaniyatni shakllantirishda qo‘llanilayotgan innovatsion shakl va uslublarni tahlil qilish, ularning talaba shaxsini rivojlantirishdagi o‘rnini aniqlash hamda ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: maqolada nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv va taqqoslash metodlari asosida ish yuritildi. Adabiyotlar tahlilida akademik madaniyatga oid xorijiy va mahalliy manbalar o‘rganildi. Empirik bosqichda pedagogik oliy ta’lim muassasalari talabalari orasida so‘rovnoma va suhbatlar o‘tkazildi. Natijalar kontent tahlil usuli orqali tahlil qilindi. Shuningdek, innovatsion shakl va uslublarning ta’lim jarayoniga ta’siri qiyosiy tarzda baholandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarda akademik madaniyatni shakllantirishda innovatsion shakl va uslublar katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan, interaktiv va reflektiv metodlar – “debat”, “case-study”, “portfolio”, “refleksiya daftari”, “akademik halollik darslari” talabalarda o‘z-o‘zini anglash, axloqiy qaror

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

qabul qilish va mas'uliyat hissini shakllantirishda muhim omil bo'lmoqda. Raqamli ta'lim platformalari esa, ayniqsa, talabalarning akademik etikaga rioya qilish darajasini oshirgan.

Pedagogik kuzatuvlar asosida aniqlandiki, innovatsion usullar ta'lim jarayoniga chuqur integratsiya qilingan guruhlarda talabalar nafaqat bilim olishga, balki axloqiy jihatdan yetuk shaxs bo'lishga intilmoqda. Suhbatlar chog'ida talabalar akademik madaniyatni plagiatga qarshi kurash bilan emas, balki hurmat, halollik, tartib-intizom, mas'uliyat kabi qadriyatlar majmui sifatida tushunayotganini bildirdilar.

Shuningdek, innovatsion metodlar orqali tashkil etilgan ta'limda talabalar o'z fikrini asoslash, bahslashish, murosaga kelish, axborotdan halol foydalanish kabi ko'nikmalarga ega bo'layotgani kuzatildi.

XULOSA: tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, talabalarda akademik madaniyatni shakllantirishda innovatsion shakl va uslublar samaradorligi yuqori. Interaktiv, reflektiv va raqamli yondashuvlar akademik halollik, axloqiy qaror qabul qilish, fikr almashish, tanqidiy fikrlash va axborotga halol munosabat kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Akademik madaniyatni samarali shakllantirish uchun o'quv jarayoniga an'anaviy va zamonaviy metodlarni uyg'unlashtirgan integrativ yondashuvni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kalit so'zlar: akademik madaniyat, innovatsion shakl, o'quv uslublari, raqamli ta'lim, akademik halollik, tanqidiy fikrlash, talaba faolligi, pedagogik muhit, reflektiv yondashuv, axborot madaniyati, etika, o'z-o'zini rivojlantirish, bilimga ongli munosabat, interfaol metodlar, mustaqil ta'lim, mas'uliyat.

Iqtibos uchun: Nuriddinov Q.J. Talabalarda akademik madaniyatni shakllantirishning innovatsion shakl va uslublari. // Inter education & global study. 2025. №3 B.218-226.

ФОРМЫ И МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ АКАДЕМИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У СТУДЕНТОВ

© К.Ж. Нуриддинов[1]✉
[1]Термезский государственный педагогический институт, Термез, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в условиях глобализации, цифровой трансформации и индивидуализации образования академическая культура становится важнейшим фактором в личностном и профессиональном становлении студентов. Академическая культура – это не только добросовестное отношение к обучению, но и выражение нравственной позиции, чувства ответственности, способности к критическому мышлению и социальной осознанности. Понятие включает академическую честность, научную последовательность, информационную грамотность, этику общения и внутреннюю мотивацию к саморазвитию.

В педагогической практике наряду с традиционными подходами в формировании академической культуры студентов всё шире применяются инновационные технологии, интерактивные методы, цифровые инструменты и

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

рефлексивные подходы. Однако их педагогическая эффективность и влияние на развитие осознанного, самостоятельного и ответственного поведения студентов требуют дальнейшего научного анализа.

Настоящая статья посвящена теоретическому и практическому анализу инновационных форм и методов формирования академической культуры у студентов. Актуальность темы определяется необходимостью подготовки будущих специалистов не только к обучению, но и к жизни и деятельности в соответствии с принципами академической культуры.

ЦЕЛЬ: проанализировать инновационные формы и методы формирования академической культуры, определить их роль в развитии личности студента и разработать научно-практические рекомендации по интеграции этих подходов в образовательный процесс.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в статье использовались методы теоретического анализа, педагогического наблюдения и сравнительного исследования. При анализе литературы были изучены отечественные и зарубежные источники по теме академической культуры. На эмпирическом этапе проводились анкетирование и интервью среди студентов педагогических вузов. Результаты анализировались методом контент-анализа. Также оценивалось сравнительное влияние инновационных форм и методов на образовательный процесс.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что инновационные формы и методы играют важную роль в формировании академической культуры студентов. В частности, такие подходы, как дебаты, кейс-методы, портфолио, дневники рефлексии и занятия по академической честности способствуют развитию у студентов самосознания, этического мышления и чувства ответственности. Использование цифровых образовательных платформ повысило уровень соблюдения академических норм.

Педагогические наблюдения показали, что в учебных группах, где инновационные методы были системно интегрированы, студенты проявляют не только стремление к знаниям, но и становятся более зрелыми с точки зрения этики и профессиональной культуры. В беседах студенты определяли академическую культуру не только как борьбу с плагиатом, но и как целостную систему ценностей: уважение, честность, ответственность.

Кроме того, участие в интерактивных и инновационных формах обучения способствовало формированию у студентов умений аргументированного выражения мнения, ведения дискуссий и добросовестного обращения с информацией.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования подтверждают высокую эффективность инновационных форм и методов в формировании академической культуры у студентов. Интерактивные и рефлексивные подходы, а также цифровые технологии способствуют развитию академической честности, критического мышления, аргументации, этического поведения и уважительного отношения к информации. Для устойчивого формирования академической культуры

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

целесообразно интегрировать традиционные и современные педагогические технологии в образовательный процесс.

Ключевые слова: академическая культура, инновационные формы, методы обучения, цифровое образование, академическая честность, критическое мышление, активность студентов, педагогическая среда, рефлексивный подход, информационная грамотность, этика, саморазвитие, осознанное обучение, интерактивные методы, самостоятельное обучение, ответственность.

Для цитирования: Нуриддинов К.Ж. Формы и методы формирования академической культуры у студентов. // Inter education & global study. 2025. №3. С. 218-226.

INNOVATIVE FORMS AND METHODS OF DEVELOPING ACADEMIC CULTURE AMONG STUDENTS

© Qandil J. Nuriddinov[1]✉
[1]Termiz state pedagogical institute, Termiz, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: in the context of globalization, digital transformation, and the personalization of education, academic culture has become a key factor in the personal and professional development of university students. Academic culture is not limited to honest learning practices; it also reflects moral stance, responsibility, critical thinking, and social awareness. This concept encompasses academic integrity, scientific consistency, information literacy, communication ethics, and a strong internal drive for self-development.

In pedagogical practice, alongside traditional approaches, innovative technologies, interactive methods, digital tools, and reflective strategies are increasingly used to cultivate academic culture among students. However, the pedagogical effectiveness of these forms and their influence on the development of conscious, independent, and responsible academic behavior still require comprehensive study.

This article presents a theoretical and practical analysis of innovative forms and methods in shaping students' academic culture. The relevance of this topic lies in the urgent need to prepare students not only for acquiring knowledge, but also for living and working in accordance with the values and principles of academic culture.

AIM: the aim of this article is to analyze innovative forms and methods of developing academic culture, determine their role in shaping student personality, and offer practical and scientific recommendations for integrating these approaches into the educational process.

MATERIALS AND METHODS: this study employed theoretical analysis, pedagogical observation, and comparative methods. Literature analysis involved reviewing both local and international sources on academic culture. During the empirical phase,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

surveys and interviews were conducted with students from pedagogical universities. The results were analyzed using content analysis. Additionally, the impact of innovative forms and methods on the educational process was evaluated through a comparative approach.

DISCUSSION AND RESULTS: the study revealed that innovative forms and methods significantly contribute to the formation of academic culture among students. Interactive and reflective strategies such as debates, case studies, portfolios, reflection journals, and academic integrity sessions enhance students' self-awareness, ethical reasoning, and sense of responsibility. Digital learning tools were particularly effective in improving students' adherence to academic norms.

Pedagogical observations demonstrated that in groups where innovative methods were consistently integrated, students not only showed academic engagement but also developed stronger ethical awareness. During interviews, students described academic culture not just as a fight against plagiarism, but as a set of values — respect, honesty, discipline, and responsibility.

Moreover, participation in such educational practices improved students' ability to justify opinions, engage in academic discussions, and use information ethically and responsibly.

CONCLUSION: the results of the study confirm the effectiveness of innovative forms and methods in shaping academic culture among students. Interactive, reflective, and digital approaches enhance academic honesty, critical thinking, decision-making, and ethical use of information. To ensure sustainable academic culture development, it is advisable to adopt an integrative pedagogical model that combines traditional and modern educational strategies within the teaching process.

Keywords: academic culture, innovative forms, teaching methods, digital education, academic integrity, critical thinking, student engagement, pedagogical environment, reflective approach, information literacy, ethics, self-development, conscious learning, interactive methods, independent study, responsibility.

For citation: Qandil J. Nuriddinov. (2025) 'Innovative forms and methods of developing academic culture among students', Inter education & global study, (3), pp. 218-226. (In Uzbek).

Oliy ta'limda talabalarning faqat kasbiy bilimlarni egallashi emas, balki mustahkam axloqiy pozitsiyaga ega, ijtimoiy mas'uliyatli, vijdonli va mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida shakllanishi ustuvor vazifa hisoblanadi [2;38c]. Shu nuqtai nazardan, akademik madaniyatni rivojlantirish ta'lim jarayonining eng muhim maqsadlaridan biri sanaladi. Akademik madaniyat — bu faqat bilim olishga bo'lgan halol munosabat emas, balki axborotdan foydalana olish, tanqidiy fikrlash, bahslashish madaniyati, plagiatdan tiyilish, hamkorlikda ishlay olish qobiliyatini o'z ichiga oladi [1;101c].

So'nggi yillarda akademik halollik, erkinlik va axborot madaniyatiga oid normativ-huquqiy asoslar va xalqaro yondashuvlar ham ta'lim tizimiga joriy qilinmoqda [3;5c],

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

[4;89c], [5;54c]. Xususan, akademik muhitda halollikni ta’minlash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, bu talabalarda madaniy yondashuvni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda [10;7c]. Akademik erkinlik esa talabaning mustaqil qaror qabul qilishiga, ilmiy izlanishga va ijtimoiy-huquqiy faolligiga turtki bo‘ladi [9;206c], [8;12c].

Ushbu maqolada aynan talabalarda akademik madaniyatni shakllantirishda innovatsion yondashuvlar va metodlarning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Ushbu tadqiqotda talabalarda akademik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi innovatsion shakl va uslublarning samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Metodologik asos sifatida tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, faol-ta’limiy va axborot-innovatsion yondashuvlar integratsiyalangan holda tanlandi [8;15c], [5;55c].

Birinchi bosqich – nazariy tahlil bosqichida, akademik madaniyat, akademik halollik va erkinlik masalalari bo‘yicha milliy va xorijiy adabiyotlar tahlil qilindi [1;113c], [4;90c], [9;207c]. Akademik muhitda mavjud muammolar, metodik kamchiliklar va ilg‘or tajribalar aniqlab olindi. Ayniqsa, UNESCO va Transparency International tavsiyalari tadqiqot konsepsiyasini shakllantirishda asosiy mezon bo‘ldi [7;3c], [8;12c].

Empirik bosqichda — Termiz, Samarqand va Toshkent shaharlaridagi 3 ta pedagogik OTMda 2–4 kurs talabalari o‘rtasida ijtimoiy so‘rovnomalar, yarim strukturaviy suhbatlar, kuzatuv va diagnostik topshiriqlar amalga oshirildi. Talabalar o‘quv jarayonida ishtirok etayotgan innovatsion uslublar: “reflektiv daftar”, “akademik forum”, “portfolio asosida ta’lim”, “halollik kodeksi tahlili”, “case-study” metodi samaradorligi bo‘yicha baholashlar to‘plandi [10;19c], [6;81c].

Tajriba-sinov asosida tanlab olingan 60 nafar talabaga 3 oy davomida reflektiv mashg‘ulotlar o‘tkazildi va o‘zgarishlar kontent-tahlil usuli yordamida baholandi. Tahlillarda SPSS dasturidan foydalanildi. Shuningdek, O‘zbekistonda mavjud huquqiy asoslar va davlat siyosati tahlil etildi [2;91c], [3;4c].

Tadqiqot natijalari asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi va akademik madaniyatni shakllantirishda innovatsion metodlarning ijtimoiy-psixologik samaradorligi baholandi.

Akademik madaniyatga oid ilmiy-nazariy qarashlar turli nuqtai nazarlarda talqin qilinmoqda. Mazkur tushuncha, bir tomondan, axloqiy qadriyatlar majmui sifatida, ikkinchi tomondan, akademik faoliyatning yadro madaniyati sifatida izohlanadi [1;17c]. Mirziyoyevning "Yangi O‘zbekiston strategiyasi" asarida ma’naviy yuksalish va halollik madaniyatini ta’limga integratsiyalash g‘oyasi ilgari suriladi [2;84c].

T.K. Narbayeva o‘z maqolasida korrupsiyaga qarshi madaniyat va akademik halollikni shakllantirishda davlat siyosati va fuqarolik pozitsiyasi muhim ekanini ta’kidlaydi [3;6c]. A.A. Abdullayev esa akademik erkinlikning huquqiy-me’yoriy asoslarini ko‘rsatib, bu erkinlik talabani mustaqil fikrlashga undashini asoslaydi [4;90c].

Akademik avtonomiya va erkinlik Gumboldt konsepsiyasida allaqachon XX asr boshlarida ilgari surilgan bo‘lib, bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan [12;2c]. Hamidov fikricha, universitet avtonomiyasi orqali akademik madaniyat mustahkamlanadi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

[5;56c]. Ergashev va Karimova esa talabalarning halollik normalarini buzish sabablarini psixologik va ijtimoiy omillar orqali izohlaydi [6;78c].

UNESCO tomonidan e'lon qilingan tavsiyalarda esa ilmiy halollik, ochiqlik va erkin fikr almashinuvi akademik muhitning ajralmas komponenti sifatida e'tirof etilgan [8;13c]. Altbach esa akademik erkinlik xalqaro ta'lim siyosatining ajralmas qismi ekanini isbotlaydi [9;209c].

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida akademik madaniyatni shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Akademik halollik, erkinlik va axborot madaniyati bu madaniyatning asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi. So'nggi yillarda ushbu sohada olib borilayotgan islohotlar, xususan, "Yangi O'zbekiston strategiyasi"da ilgari surilgan halollik, ochiqlik va ma'naviy yuksalishga doir yondashuvlar ta'lim jarayoniga chuqur integratsiyalashmoqda .

Akademik madaniyatni shakllantirishda nafaqat an'anaviy yondashuvlar, balki innovatsion texnologiyalar – reflektiv metodlar, raqamli ta'lim platformalari, mustaqil loyihalarga asoslangan o'qitish, akademik halollik treninglari muhim o'rin tutmoqda . UNESCO va Transparency International tomonidan ta'kidlanganidek, akademik halollik va ochiqlik universitet madaniyatining hal qiluvchi elementi sifatida qaraladi .

A.A. Abdullayev va F.F. Hamidovning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, akademik erkinlikni huquqiy asosda mustahkamlash talabalarni mustaqil fikrlashga, ilmiy izlanishga, erkin tanqidiy baholashga yo'naltiradi. Shu bilan birga, Ergashev va Karimovaning izlanishlari shuni anglatadiki, talabalarda halollikka zid xatti-harakatlar ko'pincha pedagogik e'tiborsizlik, noaniq baholash mezonlari yoki akademik muhitdagi befarqlik bilan bog'liq bo'ladi.

Shunday ekan, innovatsion shakl va metodlarning o'zaro uyg'unlashuvi orqali talabalarni ilmiy halollik, erkin tanqidiy tafakkur va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalash mumkinligi isbotini topmoqda.

Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, akademik madaniyatni shakllantirishda innovatsion shakl va uslublar an'anaviy yondashuvlarga qaraganda samaraliroqdir. Ayniqsa, reflektiv metodlar, interfaol mashg'ulotlar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar orqali tashkil etilgan darslar talabalar ongida halollik, mas'uliyat va mustaqillik kabi qadriyatlarni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi .

So'rovnoma va kuzatuv natijalari asosida aniqlanishicha, innovatsion yondashuvlar qo'llanilgan guruhlarda talabalar akademik halollik va intellektual mas'uliyat borasida ancha faollikka ega bo'lgan . Akademik muhitda plagiatga qarshi kurashish, mustaqil fikrlash, ochiq muloqot madaniyatini shakllantirishdagi ijobiy o'zgarishlar aynan yangi uslublar bilan bog'liq bo'lgan.

Shuningdek, talabalar o'zaro hamkorlik, tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini interaktiv yondashuvlar orqali tezroq egallaganliklari aniqlandi .Innovatsion shakl va metodlar talabalarda nafaqat akademik madaniyatni, balki shaxsiy axloqiy tayanchlarni ham rivojlantirish imkonini beradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, akademik madaniyatni shakllantirish ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanishi zarur. Innovatsion shakl va uslublar – xususan, interaktiv metodlar, raqamli platformalar, reflektiv texnologiyalar va mustaqil loyiha asosidagi ta’lim — talabalarni faqat bilim emas, balki halollik, mas’uliyat, axloqiy pozitsiya va ijtimoiy ong asosida shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘rganilgan natijalar asosida quyidagi takliflar bildiriladi:

-oliy ta’lim muassasalarida akademik madaniyatni shakllantirish bo‘yicha maxsus modulli dasturlar ishlab chiqilishi va o‘quv jarayoniga integratsiya qilinishi maqsadga muvofiq;

-har bir fakultet va kafedra darajasida akademik halollik va madaniyat bo‘yicha muhokamalar, treninglar, ochiq muloqotlar muntazam tashkil etilishi tavsiya etiladi;

-akademik muhitda raqamli vositalar (moodle, google classroom, anti-plagiat platformalari)dan kompleks foydalanish orqali axborot madaniyatini oshirish samarali deb baholanadi;

-professor-o‘qituvchilarning o‘zlari akademik madaniyat namunasini ko‘rsatishlari, ya’ni shaffoflik, halollik, intellektual sadoqat tamoyillariga rioya qilishlari zarur;

-talabalarda mustaqil qaror qabul qilish, tanqidiy tahlil, o‘z-o‘zini baholash va javobgarlik ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi ta’lim shakllari ustuvor deb topiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ro‘ziyev Y.Z., Abdullayeva B.S.Mediasavodxonlik va axborot madaniyati. — Toshkent: O‘zbekiston, 2024. — 260 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021. — 432 b.
3. Narbayeva T.K. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari // O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. — 2021. — №1.
4. Abdullayev A.A. Akademik erkinlik va uning huquqiy asoslari // Huquqiy Tadqiqotlar Jurnali. — 2023. — №5. — B. 88–95.
5. Hamidov F.F. Akademik erkinlik va universitet avtonomiyasi // Universitet Boshqaruvi. — 2022. — №1. — B. 53–60.
6. Ergashev J.J., Karimova S.S. Akademik halollikni buzish holatlari va ularning oldini olish choralari // Huquq va Burch. — 2021. — №3. — B. 77–85.
7. Transparency international. Corruption Perceptions Index 2021. — Berlin: Transparency International, 2021.
8. UNESCO. Recommendation on Science and Scientific Researchers. — Paris: UNESCO, 2017.
9. Altbach P.G. Academic Freedom: International Realities and Challenges // Higher Education. — 2001. — Vol. 41, No. 1–2. — P. 205–219.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi. Oliy ta'lim muassasalarida akademik halollikni ta'minlash bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. — Toshkent: 2020. — 64 b.
11. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish holati to‘g‘risida milliy hisobot. — Toshkent: 2021. — 112 b.
12. Gumboldt V. Über die innere und äußere Organisation der höheren wissenschaftlichen Anstalten in Berlin. — Berlin: 1810.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Nuriddinov Qandil Jaloliddinovich**, Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi, [**Нуриддинов Қандил Жалолиддинович**, преподаватель Термезского государственного педагогического института], [**Qandil J. Nuriddinov**, teacher at Termiz State Pedagogical Institute];manzil: O‘zbekiston, Termiz tumani, “Yangiobod” MFY, At-Termiziy ko‘chasi, 1 A-uy, [адрес: Узбекистан, Термезский район, МФЙ «Янгиобод», ул. Ат-Термизий, дом 1А], [address: Uzbekistan, 1A, At-Termiziy street, Yangiobod MCG, Termiz district].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

KREDIT-MODUL TIZIMIDA FIZIKA MASHG'ULOTLARINI LOYIHALASHTIRISH ASOSIDA TALABALARINING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH METODIKASI

© K.A. Rahimov[1]✉

[1]Qo'qon davlat pedagogika instituti, Qo'qon, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: zamonaviy ta'lim tizimida talabalar o'qitish jarayonida faqatgina auditoriyadagi darslar bilan cheklanmay, ular mustaqil ta'limni ham samarali tashkil etishlari kerak. Kredit-modul tizimi bu jarayonni qo'llab-quvvatlash uchun yaratilgan innovatsion yondashuvdir. Ushbu tizim orqali talabalar o'z bilimlarini mustaqil ravishda rivojlantirishga va darslarni rejalashtirishda o'zini boshqarish qobiliyatini oshirishga imkon yaratadi. Fizika fanida talabalar mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun turli metodlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Ushbu ishda kredit-modul tizimida fizika mashg'ulotlarini loyihalashtirish asosida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish metodikasini o'rganish maqsad qilingan.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning maqsadi — kredit-modul tizimida fizika mashg'ulotlarini loyihalashtirish asosida talabalar mustaqil ta'limini samarali tashkil etish usullarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash.

MATERIALLAR VA METODLAR: kredit-modul tizimi: Kredit-modul tizimi ta'lim jarayonida talabalar uchun malakalarini oshirish, o'rganilgan materialni mustaqil o'zlashtirish va baholash tizimini o'rnatish imkoniyatini beradi. Fizika fanidan mustaqil ta'limni tashkil etishda ushbu tizimning ahamiyati katta. Mustaqil ta'limni tashkil etish metodlari: loyihalash metodikasi: Talabalarga mustaqil ishlash uchun muayyan mashg'ulotlar va loyihalar beriladi. Har bir loyiha, ma'lum bir mavzuda, amaliy topshiriqlarni bajarish va natijalarini tahlil qilishni talab qiladi. Refleksiya va muhokama: Talabalar o'z fikrlarini bildirishlari va o'zgarishlarni muhokama qilishlari uchun imkoniyat yaratish. Bu metod talabalarga o'rgangan bilimlarini tahlil qilish va ularni real hayotga tadbiq qilishga yordam beradi. O'quv materiallari va resurslar: Fizika bo'yicha darsliklar, video darslar, interaktiv ta'lim vositalari va onlayn platformalar talabalar uchun mustaqil o'rganish uchun resurs sifatida taqdim etiladi. Baholash metodlari: Mustaqil ta'limni baholashda talabalar tomonidan bajarilgan ishlar va loyihalar, shuningdek, ularga berilgan feedbacklar asosida reytinglar tuziladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: kredit-modul tizimi orqali talabalarning fizika fanidan mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi. Loyihalash metodikasi, talabalar uchun o'z bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish va yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Talabalar tomonidan bajarilgan loyihalar va mashg'ulotlar ular

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

o‘rganayotgan mavzuni yaxshiroq tushunishga va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Tajribalar shuni ko‘rsatdiki, fizika mashg‘ulotlarida loyihalashtirish yondashuvining qo‘llanilishi talabalar o‘rtasida jamoaviy ishni rivojlantiradi, shuningdek, ularning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini oshiradi. O‘quvchilarning o‘z fikrlarini bildirish va muhokama qilishlari ularga yanada mustahkam bilimlarni hosil qilish imkonini beradi.

XULOSA: kredit-modul tizimida fizika mashg‘ulotlarini loyihalashtirish asosida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasi samarali natijalarga olib keladi. Bu usul, talabalarning o‘z bilimlarini mustaqil ravishda rivojlantirishlariga yordam beradi va ularning o‘z fikrini ifoda etish, tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini oshiradi. Natijada, o‘quvchilarning umumiy bilim darajasi va mustaqil fikrlash qobiliyati sezilarli darajada yaxshilanadi.

Kalit so'zlar: kredit-modul tizimi, fizika, mustaqil ta’lim, loyihalashtirish, metodika, talaba, ta’lim.

Iqtibos uchun: Rahimov K.A. Kredit-modul tizimida fizika mashg’ulotlarini loyihalashtirish asosida talabalarining mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasi. // Inter education & global study. 2025. №2 B.227-239.

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ЗАНЯТИЙ ПО ФИЗИКЕ В КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЕ

© К.А. Рахимов[1]✉
[1]Кокандский государственный педагогический институт, Коканд, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в современной системе образования студенты должны не только ограничиваться занятиями в аудитории, но и эффективно организовывать самостоятельное обучение. Кредитно-модульная система является инновационным подходом, который поддерживает этот процесс. С помощью этой системы студенты могут развивать свои знания самостоятельно и повышать способность к самоуправлению в процессе планирования учебы. В обучении физике важно использовать различные методы для формирования у студентов навыков самостоятельной работы. Цель данной работы — изучить методику организации самостоятельного обучения студентов в рамках проектирования занятий по физике в кредитно-модульной системе.

ЦЕЛЬ: разработать и применить методы эффективной организации самостоятельного обучения студентов при проектировании занятий по физике в кредитно-модульной системе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: кредитно-модульная система: Кредитно-модульная система предоставляет студентам возможность улучшать свои знания, осваивать материал самостоятельно и получать оценку в рамках определенной системы. В

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

организации самостоятельного обучения по физике эта система имеет важное значение. Методы организации самостоятельного обучения: методика проектирования: Студентам даются задания и проекты для самостоятельной работы. Каждый проект связан с определенной темой и требует выполнения практических заданий и анализа полученных результатов. Рефлексия и обсуждение: Студентам предоставляется возможность делиться своими мыслями и обсуждать изменения. Этот метод помогает студентам анализировать усвоенные знания и применять их в реальной жизни. Учебные материалы и ресурсы: Для самостоятельного обучения предоставляются учебники по физике, видеокурсы, интерактивные образовательные средства и онлайн-платформы. Методы оценки**:** Оценка самостоятельной работы проводится на основе выполненных заданий и проектов студентов, а также обратной связи, предоставленной преподавателями.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: кредитно-модульная система способствует значительному развитию навыков самостоятельного обучения у студентов по физике. Методика проектирования, предоставляющая студентам возможность проверять свои знания на практике, способствует лучшему усвоению материала и укреплению знаний.

Эксперименты показали, что использование подхода проектирования в занятиях по физике развивает командную работу среди студентов, а также повышает их навыки критического мышления и решения проблем. Обсуждения и рефлексия помогают студентам глубже усвоить и закрепить знания.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: методика организации самостоятельного обучения студентов в рамках проектирования занятий по физике в кредитно-модульной системе приводит к эффективным результатам. Этот подход помогает студентам развивать свои знания независимо и улучшает их навыки выражения и анализа. В результате уровень знаний и способность к самостоятельному мышлению у студентов значительно улучшаются.

Ключевые слова: кредитно-модульная система, физика, самостоятельное обучение, проектирование, методика, студенты, образование.

Для цитирования: Рахимов К.А. Методика организации самостоятельного обучения студентов на основе проектирования занятий по физике в кредитно-модульной системе. // Inter education & global study. 2025. №3. С. 227-239.

METHODOLOGY FOR ORGANIZING STUDENTS' INDEPENDENT LEARNING BASED ON THE DESIGN OF PHYSICS LESSONS IN THE CREDIT-MODULE SYSTEM

© Kamoliddin A. Rahimov[1]✉
[1]Kokand State Pedagogical Institute, Kokand, Uzbekistan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

INTRODUCTION: in the modern education system, students should not only be limited to classroom activities but also effectively organize their independent learning. The credit-modular system is an innovative approach that supports this process. Through this system, students can independently develop their knowledge and enhance their ability to manage their own learning process. In physics education, it is essential to apply various methods to develop students' skills for independent work. The aim of this paper is to study the methodology for organizing students' independent learning through the design of physics lessons within the credit-modular system.

AIM: the objective of this research is to develop and apply methods for effectively organizing students' independent learning when designing physics lessons within the credit-modular system.

MATERIALS AND METHODS: credit-Modular System**:** the credit-modular system provides students with the opportunity to improve their knowledge, master material independently, and receive evaluation within a structured system. This system is significant in organizing independent learning in physics. Methods for Organizing Independent Learning: Design Methodology: students are given specific tasks and projects for independent work. Each project is related to a particular topic and requires completing practical assignments and analyzing the results. Reflection and Discussion: students are given the opportunity to express their thoughts and engage in discussions. This method helps students analyze their learned knowledge and apply it to real-life situations. Learning Materials and Resources: textbooks, video lessons, interactive learning tools, and online platforms are provided to students as resources for independent study. Evaluation Methods: independent learning is assessed based on the tasks and projects completed by students, as well as the feedback provided by instructors.

DISCUSSION AND RESULTS: the credit-modular system significantly enhances students' independent learning skills in physics. The design methodology, which allows students to test their knowledge through practical tasks, helps them better understand the material and reinforce their knowledge.

Experiments have shown that using the design approach in physics lessons promotes teamwork among students, as well as enhances their critical thinking and problem-solving skills. Discussions and reflection allow students to deeply internalize and solidify their knowledge.

CONCLUSION: the methodology for organizing students' independent learning through the design of physics lessons within the credit-modular system yields effective results. This approach helps students develop their knowledge independently and improves their ability to express, analyze, and reflect. As a result, students' overall knowledge and independent thinking skills significantly improve.

Keywords: credit-modular system, physics, independent learning, design, methodology, students, education.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

For citation: Kamoliddin A. Rahimov. (2025) 'Methodology for organizing students' independent learning based on the design of physics lessons in the credit-module system', Inter education & global study, (3), pp. 227-239. (In Uzbek).

Ushbu maqolada texnika oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimida fizika mashg'ulotlarini loyihalashtirish orqali talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish metodikasi tahlil qilinadi. Kredit-modul tizimining moslashuvchanligi va talabalarga individual yondashuvi mustaqil ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada interfaol metodlar, axborot texnologiyalari va baholash tizimlarining mustaqil ta'lim samaradorligiga ta'siri yoritiladi. Mazkur metodika fizika fanini chuqur o'rganish, nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan bog'lash va talabalar o'z-o'zini rivojlantirishini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida talabalarni mustaqil ta'lim olishga yo'naltirish muhim vazifalardan biriga aylangan. Xususan, texnika oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimida fizika mashg'ulotlarini loyihalashtirish asosida mustaqil ta'limni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Kredit-modul tizimi ta'lim jarayonini individuallashtirish, bosqichma-bosqich o'rganish va bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. Bu metodika talabalarning nazariy bilimlarini amaliy mashg'ulotlar bilan bog'lash, o'z-o'zini baholash va mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu maqolada kredit-modul tizimida fizika mashg'ulotlarini loyihalashtirish orqali talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish metodikasi tahlil qilinadi. Metodika doirasida interfaol usullar, axborot texnologiyalaridan foydalanish, nazorat va baholash jarayonlari muhokama qilinadi.

Texnika oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimida fizika mashg'ulotlarini loyihalashtirish asosida talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etish metodikasi talabalarga fizikani o'zlashtirishda zamonaviy va samarali ta'lim olish imkonini yaratadi. Kredit-modul tizimi talabalarga ta'lim jarayonini individual ravishda tashkil qilish, mavzularni bosqichma-bosqich va izchil o'rganish, nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash imkonini beradi. Bu tizim o'zining moslashuvchanligi, o'z-o'zini baholash imkoniyatlari va talabalarning mas'uliyatini oshirishi bilan ajralib turadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonini zamonaviylashtirish va uni xalqaro standartlarga moslashtirish zarurati ortib bormoqda. Zamonaviy ta'limning asosiy tamoyillaridan biri talabalarni o'quv jarayoniga faol jalb etish, ularning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Shu ma'noda, kredit-modul tizimi oliy ta'lim jarayonida mustaqil ta'limning muhim o'rinni egallashiga imkon beradi. [1].

Kredit-modul tizimining afzalligi shundaki, unda talabalarga mustaqil ta'lim olish uchun sharoit yaratiladi, o'quv jarayonida individual yondashuv ta'minlanadi va o'quv jarayonining shaffofligi oshiriladi. Texnika oliy ta'lim muassasalarida fizika fanini o'rganish jarayonida bu tizimning qo'llanilishi talabalar nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va ularning o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi [2]. Ushbu tadqiqotda texnika oliy ta'lim muassasalarida fizika mashg'ulotlarini loyihalashtirish asosida talabalarining mustaqil ta'limini tashkil etish metodikasi ko'rib

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

chiqiladi. Loyihalashtirish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot-texnologiyalardan foydalanish orqali talabalarning faol ishtirokini ta'minlash, mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish va baholash jarayonlari tahlil qilinadi.

Zamonaviy ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri - talabalarni mustaqil ta'lim olishga o'rgatishdir. Bugungi globallashuv davrida, yangi bilimlar va texnologiyalar jadal rivojlanayotgan sharoitda, talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Mustaqil ta'lim o'z navbatida, talabalarni analitik fikrlashga, o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil qarorlar qabul qilishga va innovatsion yondashuvni rivojlantirishga yo'naltiradi [3].

Fizika fanini o'qitishda mustaqil ta'limni tashkil etish o'quv jarayonining muhim qismidir. Bu jarayon o'z-o'zini o'qitish, tahliliy fikrlash, muammolarni hal qilish va ilmiy tadqiqot o'tkazish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy o'quvchilar endilikda tayyor ma'lumotlarni qabul qilish bilan cheklanib qolmay, balki o'zlari uchun yangi bilimlarni kashf qilish, ularni tahlil qilish va amalda qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi [4].

Fizika mashg'ulotlarini loyihalash — bu o'quv mashg'ulotlarini maqsad, mazmun, metod va natijalar bo'yicha oldindan rejalashtirish jarayonidir. Mazkur jarayon ta'limning maqsadiga erishish uchun aniq reja va resurslarni belgilash imkonini beradi. Bu jarayon, odatda, darsning samaradorligini oshirish va talabalarning bilim olish jarayonini soddalashtirishga qaratilgan [5].

Loyihalashtirish jarayonida e'tibor qaratiladigan asosiy masalalar: maqsadlar aniqligi: Har bir mashg'ulotning ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy maqsadlari aniq bo'lishi kerak. Maqsadlarni belgilash darsning qaysi natijalarga olib kelishi kerakligini belgilaydi. Mazmun tanlovi: O'quv materiallari va resurslar talabalarning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlashi kerak. Talabalarga taqdim etiladigan mavzular ularning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lishi muhimdir. Metodlar va usullar: Interfaol usullar, masofaviy ta'lim texnologiyalari va muammoli ta'lim usullari qo'llaniladi. Bu usullar talabaning o'quv faoliyatiga jalb qilinishini ta'minlaydi va o'z-o'zini nazorat qilishni osonlashtiradi.

Natijalarni baholash: Talabalar faoliyatining samaradorligini aniqlash va qayta aloqa mexanizmini yaratish muhimdir. Baholash orqali talabalar o'zlarining qayerda xatolikka yo'l qo'yganini bilib, o'zini-o'zi rivojlantirishga imkon topadi.

Fizika mashg'ulotlarini loyihalash quyidagi asosiy jarayonlarda amalga oshiriladi: tahlil jarayoni-bu fizika mashg'ulotlarini loyihalashning dastlabki bosqichi bo'lib, ta'lim jarayonining asosiy maqsad va vazifalarini aniqlashga qaratilgan jarayondir [6].

Darsning maqsad va vazifalari aniqlanadi. Talabalar bilim darajasi va ularning ehtiyojlari o'rganiladi. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan interfaol usullar va resurslar aniqlanadi.

Rejalashtirish jarayoni - bu fizika mashg'ulotlarini samarali tashkil etish uchun mashg'ulotning tuzilishi, davomiyligi va faoliyat turlarini oldindan rejalashtirish bosqichidir. Ushbu jarayon darsning maqsadiga muvofiq ravishda o'quv faoliyatini aniq tuzishni va samarali natijalarga erishishni ta'minlaydi [7].

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Darsning tuzilishi, davomiyligi va mashg‘ulotning qaysi bosqichlarda o‘tkazilishi belgilab olinadi. Talabalarni faollashtirishga xizmat qiladigan topshiriqlar, masalalar va savollar ishlab chiqiladi. Resurslar, shu jumladan darsliklar, elektron materiallar va qo‘shimcha o‘quv vositalari tanlanadi.

Tayyorlash jarayoni - bu fizika mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan materiallar, resurslar va didaktik vositalarni tayyorlash bosqichidir. Bu jarayon o‘quv faoliyati samaradorligini oshirish, darsni uzluksiz va sifatli o‘tishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan [8].

Darsni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan materiallar, jumladan, laboratoriya jihozlari, texnik vositalar va ko‘rgazmali qurollar tayyorlanadi.

Simulyatsiyalar, interfaol videodarslar va boshqa raqamli resurslar ishlab chiqiladi.

Laboratoriya ishlari, amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish bo‘yicha yo‘riqnomalar tayyorlanadi.

Ijro etish jarayoni - bu oldindan rejalashtirilgan va tayyorlangan darsning bevosita o‘tkazilish jarayoni bo‘lib, u o‘quv jarayonining amaliy bosqichi hisoblanadi. Ushbu jarayon davomida o‘qituvchi va talabalar rejalashtirilgan faoliyatlarni bajaradilar. Bu jarayonning asosiy maqsadi — talabalarga bilim va ko‘nikmalarni amaliyot orqali yetkazishdir [9].

Talabalar ishtirokida darslar o‘tkaziladi. Amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya ishlari tashkil etiladi. Talabalarni kichik guruhlarga bo‘lib, jamoaviy faoliyatga jalb qilish amalga oshiriladi. Monitoring va baholash jarayoni - bu fizika mashg‘ulotlarining samaradorligini aniqlash, talabalarning bilim va ko‘nikmalarini baholash, shuningdek, o‘quv jarayonini doimiy kuzatish va tahlil qilishni o‘z ichiga oladigan jarayondir. Bu jarayon o‘qituvchiga talabalarning o‘zlashtirish darajasini baholash va o‘quv jarayoniga o‘z vaqtida tuzatishlar kiritish imkonini beradi [10].

Talabalarning mustaqil faoliyatini kuzatish, ularning bilim darajasini baholash.

Testlar, nazorat ishlari va boshqa baholash shakllari yordamida talabalarning erishilgan natijalari tahlil qilinadi. O‘quv jarayonidagi muammolarni aniqlash va ular bo‘yicha takomillashtirish choralari ko‘riladi. Tahlil va takomillashtirish jarayoni - bu fizika mashg‘ulotlari natijalarini o‘rganish, tahlil qilish va mashg‘ulotlarning sifatini yaxshilash uchun amalga oshiriladigan jarayon. Bu jarayonning asosiy maqsadi ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va mashg‘ulotlarning sifatini doimiy ravishda takomillashtirishdir [11].

Mashg‘ulot natijalari tahlil qilinadi va yutuqlar hamda kamchiliklar aniqlanadi.

Talabalarning takliflari va fikr-mulohazalari inobatga olinadi. Keyingi darslar uchun mazmun, metod va vositalarga o‘zgartirishlar kiritiladi. Fizika mashg‘ulotlarini loyihalashning asosiy maqsadi — talabalarga o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustaqil ravishda egallash va amaliy faoliyatda qo‘llay olish imkonini berishdir. Bu jarayon talabalarni nafaqat nazariy bilim olishga, balki ijodiy fikrlash, tanqidiy yondashish va mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltiradi.

Mustaqil ishlar tarkibida talabalardan alohida diqqat-e’tibor bilan ishlashni talab qiladigan mustaqil ish o‘rganilayotgan fandan kurs ishi hamda kasb-hunar kollejlarida

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

diplom ishi, bakalavriat yo‘nalishida bitiruv malakaviy ishi yozish ham bor. O‘qitiladigan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, mustaqil ishni tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanish mumkin. Mustaqil bajariladigan ishlardan biri iqtisodiy masalalarga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlarni yoki o‘quv adabiyotlarini konspekt qilishdir. Konspekt qilish — talabani fanni o‘zlashtirishi uchun katta yordam beradi. Lekin talabalar konspekt qilishni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish deb tushunmasliklari kerak [12].

Berilgan topshiriqni bajarish o‘qishdan boshlanadi. O‘qish bu hali o‘zlashtirish emas. O‘qish orqali o‘qilgan matnni anglash kerak. Tushunish, o‘zlashtirish uchun qo‘shimcha ravishda aqlni ishlatish talab qilinadi. O‘zlashtirish bu yodda saqlash degani emas, albatta, u o‘zlashtirishga yordam beradi. Tushunish boshqa, tushunganni o‘zlashtirilganini yodda saqlash esa yana boshqa narsa. Hammasi ham aqlni ishlatishni talab qiladi. O‘qishga minimum vaqt va kuch sarflab, asosiy diqqatni tushunishga, tushunganini yozishga, yodda saqlashga harakat qilish kerak.

Talabalarni aniq va tabiiy fanlarni o‘rganishlarida tabiiy muammolarga bag‘ishlangan eng yaxshi adabiyotlar bilan tanishtirish, yetakchi olimlar bilan uchrashuvlar tashkil etish muhim rol o‘ynaydi. Undan tashqari, ilmiy to‘garak ishini muntazam tashkil etish, talabalarning ijodiy kunlari, ilmiy davralari, anjumanlari, konkurslari olimpiada va ko‘rgazmalarini vaqti-vaqti bilan o‘tkazib turish shubhasiz talabalar faolligini oshiradi. Ularni fanni o‘rganishga rag‘batlantiradi [13].

Talabalarni mustaqil ravishda ijodiy izlanishga o‘rgatishda kafedra tomonidan tashkil etilgan ilmiy to‘garaklar katta ahamiyatga ega. Bunda kafedrada o‘rganilayotgan fan bo‘yicha talabalarning qiziqishi, fandagi yangiliklar o‘rganilishi, tadqiq etilishi lozim bo‘lgan muammolarni ilmiy to‘garaklarda muhokama qilinishi lozim. Talabalar to‘garakda tayyorlagan ilmiy ma’ruzalarini tinglovchilar hukmiga havola etar ekanlar, to‘garak a’zolari ham uni muhokamasida faol ishtirok etishlarini ta’minlash zarur. To‘garak a’zolarini soni, muhokama qilinadigan masalalar, ilmiy ma’ruzalar miqdori, mavzularning mazmuni va boshqalarga ko‘ra to‘garak rahbari oy davomida ilmiy to‘garaklar majlisi o‘tadigan kunlarni belgilaydi. Eng yaxshi baho berilgan ilmiy ma’ruzalar talabalarning ilmiy konferensiyalarida qatnashishga tavsiya etiladi.O‘tkaziladigan konferensiyani umumiy mavzusini tasdiqlagach, ma’ruzalarni mavzu yo‘nalishiga ko‘ra guruhlarga ajratgan ma’qul.O‘tkaziladigan talabalaming ilmiy konferensiyasida eng yaxshi deb topilgan ma’ruzalar rag‘batlantiriladi, keyingi bosqichlarda qatnashishga tavsiya etiladi [14].

Fanni mustaqil o‘rganishda mustaqil izlanish alohida ahamiyatga ega. Mustaqil ishlashning mustaqil izlanishning asosiy farqi uni ilmiy yo‘nalishda bo‘lishi fanda, tajribada erishilgan eng so‘nggi yutuqlarni o‘rganishga diqqat qaratilishi hamda o‘z nuqtayi nazarini bayon qilish va taklif, tavsiyalar ishlab chiqishga harakat qilishidir.

Mustaqil izlanishning o‘quv shakllaridan biri kurs ishidir. Kurs ishini yozish va himoya qilish jarayonida talabalar aniq va tabiiy fanlarni yanada chuqurroq o‘rganishadi. Iqtisodiy jarayonlar va qonunlar mohiyatini tushunish murakkab nazariy muammolarni tahlil etish, uni amaliyotda tatbiq qilish haqida o‘ylashga, fikr yuritishga undaydi. Albatta professional ta’limda kurs ishlariga qo‘yiladigan talablar ilmiy va ijodiy jihatdan oliy ta’limda bajariladigan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

kurs ishlaridan farqlanadi. Lekin ularni bajarishda qo‘yiladigan maqsad umumiy. Kurs ishining fanni mustaqil o‘rganishdagi muhim ahamiyati shundaki, talabalar adabiyotlar bilan ishlashni, ma’lumotlar to‘plash, ularni jadval, diagrammalarda tasvirlash, xulosa chiqarish hamda o‘tilgan masala yuzasidan o‘z fikrlarini bayon qilishga o‘rganishadi. Ana shu jarayonda talabalar o‘zlari induktiv va deduktiv uslublarni qo‘llab, alohida hodisa va voqealar asosida umumiy xulosa chiqarishni o‘rganadilar. Kurs ishi talaba tomonidan tanlanadi [15]. Uning hajmi 25—30 betga mo‘ljallanadi. Bu mavzuni har tomonlama chuqur o‘rganib, o‘z qobiliyatini, fanni o‘zlashtirishdagi harakatini, intilishini ifodalash imkonini beradi. Kurs ishiga kafedradan ilmiy rahbar tayinlanadi. O‘quvchi talabalarga kurs ishini tayyorlashda zarur maslahatlarni beradi: kurs ishi mavzusi faqat darslik doirasida emas, balki qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanib yoziladi; kurs ishida ilmiy izlanish elementlari, nazariy qoidalar, tajri- balar bilan yoritiladi; ish bo‘yicha reja tuziladi, reja tarkibi: kirish, asosiy qism (yoritish kerak bo‘lgan masalalar), xulosadan iborat bo‘ladi; kurs ishi rasmiy qabul qilingan shaklda bo‘lishi kerak, ya’ni biron bir muallifning fikri keltirilsa, jumlalar o‘zgartirilmay, qanday bo‘lsa shunday ko‘chiriladi va qo‘shtirnoq ichiga olinadi, izoh beriladi. U sahifaning eng tagiga nomerlangan holda berilib, manba ko‘rsatiladi. Unda havola qilingan muallif, asar yoki maqolaning, nashriyotning nomlari, nashr qilingan yili beriladi; matn mustaqil yoziladi, talaba kurs ishi yozishda o‘rganayotgan adabiyotlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirmay, o‘z fikrini bayon qilishi lozim.

Kurs ishiga qo‘yilgan bosh talab - fanni chuqur o‘rganishga erishish, ilmiy izlanishga havas uyg‘otish. Kurs ishida talabalarda mavzuni o‘rganishga ijodiy yondashish, dastlabki ilmiy izlanishlarini hosil bo‘lishida kurs ishi rahbari muhim rol o‘ynaydi. Kurs ishi rahbari asosiy va qo‘shimcha adabiyotlarni tanlash, ular ichidan eng muhimlarini ajratish, reja tuzish va tanlangan mavzuni to‘la ochib berish uchun nimalarga diqqat qaratish kerakligi haqida maslahat beradi.

Kurs ishining xomaki nusxasini yozayotganda talaba tushunmagan savol yoki maslahat uchun rahbarga murojaat qiladi. Mavzu bo‘yicha ayrim adabiyotlarni to‘liq o‘qib chiqish, zarur bo‘lsa, ayrimlarini mavzu bo‘yicha u yoki bu bobi yoki sahifalarini o‘qishga, o‘rganishga to‘g‘ri keladi. Kurs ishida qo‘yilgan savollar o‘rganilayotgan mavzuning mazmunini ochib berishi zarur. Savollar ko‘p bo‘lmasligi, mavzuning mazmunini ochib berishi lozim. Rejada qaysi adabiyotlar bilan ishlash ko‘rsatiladi.

Kredit-modul tizimida fizika mashg‘ulotlarini loyihalash asosida talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasi ta’lim jarayonida talabalar faoliyatini mustaqil ravishda rejalashtirish va boshqarishni nazarda tutadi. Bu metodika talabalarning o‘quv jarayoniga mas’uliyatli yondashuvini shakllantirish, ularda o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kredit-modul tizimida o‘quv materiallarini modullarga bo‘lish orqali talabalarga kichik bo‘laklar shaklida taqdim etish, ularning mustaqil o‘qish faoliyatini soddalashtiradi va o‘zlashtirish jarayonini optimallashtiradi.

Mazkur metodikaning muhim elementi sifatida, o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan mustaqil topshiriqlarni bajarish jarayoni ajralib turadi. Bu topshiriqlar nazariy savollar,

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

masalalar, laboratoriya ishlari va amaliy mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oladi. Talabalar har bir modul bo‘yicha mustaqil ravishda topshiriqlarni bajarib, bilimlarini mustahkamlaydilar va o‘zlashtirish jarayonini chuqurlashtiradilar. Shuningdek, o‘qituvchilar masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanib, talabalarni o‘quv jarayoniga faol jalb qilish va ularga onlayn resurslardan foydalanish imkoniyatini taqdim etadilar. Bu jarayon nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki o‘quv jarayonining moslashuvchanligini ta’minlaydi.

Fizika mashg‘ulotlarini loyihalash jarayonida talabalarni mustaqil ta’limga yo‘naltirishda interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘ladilar, balki laboratoriya ishlari va amaliy mashg‘ulotlarda olingan bilimlarini real hayotiy muammolarni hal qilishda qo‘llay olishga o‘rganadilar. O‘quv jarayonining bunday tashkil etilishi natijasida talabalar mustaqil ta’lim olishda faol ishtirok etadilar, o‘z bilimlarini mustahkamlaydilar va o‘quv topshiriqlariga mas’uliyatli yondashadilar.

Bundan tashqari, kredit-modul tizimida talabalarning bilim olish faoliyati uzluksiz monitoring qilinadi. Ushbu monitoring jarayonida talabalar o‘z faoliyatini o‘z-o‘zini nazorat qilish, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish va ma’lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu tizimning afzalliklaridan yana biri - talabaning individual ehtiyojlariga moslashuvchanlikdir. Har bir talabaning bilim olish sur’ati va qobiliyatlari inobatga olinadi. Shu sababli, kredit-modul tizimi nafaqat bilim berish jarayonini osonlashtiradi, balki talabalarning o‘z-o‘zini rivojlantirish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini ham kuchaytiradi.

Xususan, amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya ishlari orqali o‘quv jarayoniga faol yondashuv ta’minlanadi. Talabalar nazariy bilimlarini amalda qo‘llash orqali murakkab fizik hodisalarni tahlil qilish, eksperiment o‘tkazish va natijalarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Shuningdek, talabalarning portfellarini yuritish orqali ularning ta’lim faoliyatini baholashda shaffoflik ta’minlanadi. Bu yondashuv o‘qituvchilarga har bir talabaga individual tarzda yondashish, ularning rivojlanish dinamikasini kuzatish va o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish imkonini beradi.

Shunday qilib, kredit-modul tizimi asosida fizika mashg‘ulotlarini loyihalash jarayonida talabalar nazariy va amaliy ko‘nikmalarni shakllantiribgina qolmay, balki mustaqil ta’lim jarayonida o‘z o‘qish faoliyatini boshqarish va baholash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu jarayon o‘quv sifatini oshiradi, talabaning mas’uliyatini kuchaytiradi va natijada ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kredit-modul tizimida elektr va magnitizm bo‘limi mashg‘ulotlarini loyihalashning asosiy maqsadi talabalarni elektr va magnit hodisalarini nazariy o‘rganishdan amaliy faoliyatga o‘tkazish, ular orasidagi bog‘liqlikni anglash, shuningdek, masalalarni yechish va laboratoriya ishlari orqali mustaqil ta’lim jarayonini tashkil etishdir. Bu jarayon talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lashga, ular o‘rtasidagi integratsiyani ta’minlashga qaratilgan.

Elektr va magnitizm bo‘limini o‘qitishda quyidagi metodik yondashuvlar qo‘llaniladi:

Modul bo‘yicha o‘quv maqsadlarini aniqlash: O‘quv maqsadlari aniq va o‘lchanadigan bo‘lishi kerak. Talabalardan elektr maydoni, magnit maydoni va elektromagnit to‘lqinlar

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

bo‘yicha nazariy bilimlarga ega bo‘lish, masalalarni tahlil qilish va laboratoriya ishlarida tajriba o‘tkazish kutiladi.

O‘quv resurslarini taqdim etish: O‘quv materiallarini interfaol shaklda taqdim etish, jumladan, elektron darsliklar, videodarslar, interaktiv simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar talabalarning qiziqishini oshiradi. Bu resurslar yordamida talabalar murakkab tushunchalarni osonroq tushunadilar.

Amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya ishlari: Elektr zanjirlarini yig‘ish, kuchlanish, tok va qarshilikni o‘lchash, elektromagnit induksiya hodisasini kuzatish kabi laboratoriya mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Talabalar tajribalar orqali nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘laydilar.

Monitoring va baholash: Talabalarning faoliyati testlar, joriy nazorat ishlari, laboratoriya ishlarini himoya qilish va portfelni baholash orqali doimiy ravishda monitoring qilinadi. Bu jarayon talabalarning bilimidagi bo‘shliqlarni aniqlash va ular bilan individual ishlash imkonini beradi.

Elektr va magnitizm bo‘limi mashg‘ulotlarini loyihalash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Modul maqsadlarini belgilash - bu bosqichda o‘qituvchi elektr va magnitizm bo‘limidagi har bir modul bo‘yicha o‘quv maqsadlarini aniqlaydi. Masalan, talabalar “Elektr zanjirlarining tuzilishi”, “Om qonuni”, “Magnit induksiya” kabi mavzularni o‘zlashtirishi kerak: talabalar elektr va magnit maydonlarini tahlil qiladilar; ular kuchlanish, tok va qarshilik o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadilar; elektromagnit induksiya hodisasining amaliy ko‘rinishini tajriba orqali o‘rganadilar.

Interfaol o‘quv materiallarini taqdim etish - elektr va magnitizm mavzulari bo‘yicha interfaol simulyatsiyalar, video darslar va elektron darsliklar taqdim etiladi. Bu bosqichda talabalarga asosiy nazariy tushunchalarni mustaqil o‘zlashtirish imkoniyati yaratiladi.

talabalar elektr zanjiri va uning elementlari bo‘yicha onlayn simulyatsiyalarni ishlatadilar;

nazariy bilimlar asosida jismning magnit maydonidagi harakati bo‘yicha grafiklarni tahlil qiladilar;

Elektron darsliklar va test platformalari orqali talabalar o‘z bilimlarini sinab ko‘radilar.

Amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya ishlari - amaliy mashg‘ulotlar jarayonida talabalar mustaqil ravishda laboratoriya tajribalarini o‘tkazadilar. Masalan, elektr zanjiri yig‘ish, elektromagnit induksiya hodisasini kuzatish va tok, kuchlanish, qarshilikni o‘lchash kabilar.

Elektr zanjiri tuzish va ulardagi kuchlanish, tok va qarshilikni o‘lchash. Elektromagnit maydonlarni o‘rganish uchun tajribalar o‘tkazish.Magnit induksiya qonunini isbotlash maqsadida laboratoriya ishi o‘tkazish. Mustaqil topshiriqlarni bajarish- talabalar elektr va magnitizm bo‘yicha masalalarni yechadilar, nazariy savollarga javob beradilar va mustaqil laboratoriya tajribalari o‘tkazadilar. Bu jarayon talabalarning mustaqil fikrlashini va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Talabalar masofaviy ta’lim platformalari orqali onlayn testlar va topshiriqlarni bajaradilar. Portfel usuli orqali talabalar

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

mustaqil o‘quv faoliyati natijalarini taqdim etadilar. O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun o‘quv topshiriqlarini o‘z vaqtida bajarishlari nazorat qilinadi.

Monitoring va baholash - monitoring talabaning o‘zlashtirish darajasini kuzatish va ular bilimidagi bo‘shliqlarni aniqlash uchun muhimdir. Baholashning asosiy usullari quyidagilardir:

Testlar: Har bir modul bo‘yicha testlar orqali talabalarning nazariy bilimlari baholanadi.

Laboratoriya ishlari: Talabalar laboratoriya ishlari hisobotini taqdim etadilar va uni himoya qiladilar.

Portfel: Talabalar portfel orqali o‘z o‘quv faoliyati natijalarini namoyish etadilar.

Elektr va magnitizm bo‘limi bo‘yicha mashg‘ulotlarni loyihalash natijasida quyidagi natijalarga erishiladi:

Nazariy bilimlar: Talabalar elektr va magnitizm asoslarini tushunib oladilar.

Amaliy ko‘nikmalar: Laboratoriya ishlarini mustaqil o‘tkazish, elektr zanjiri yig‘ish, kuchlanish va tokni o‘lchash ko‘nikmalari shakllanadi.

Ijodiy fikrlash: Talabalar mustaqil fikrlash va o‘z bilimlarini real muammolarni hal qilishda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

O‘z-o‘zini boshqarish: Talabalar o‘z-o‘zini baholash va o‘quv jarayonini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantiradilar.

Kredit-modul tizimida elektr va magnitizm bo‘limi bo‘yicha mashg‘ulotlarni loyihalash talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, ularda amaliy tajriba o‘tkazish qobiliyatini oshiradi va nazariy tushunchalarni chuqur o‘zlashtirish imkonini beradi. Bu jarayon talabaning bilim darajasini oshirish, ularda ijodiy fikrlash va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot kredit-modul tizimida fizika mashg‘ulotlarini loyihalashtirish asosida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasining samaradorligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kredit-modul tizimining moslashuvchanligi, interfaol metodlardan foydalanish va bosqichma-bosqich baholash tizimi orqali talabalar mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga erishiladi. Metodikaning qo‘llanishi nafaqat talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, balki ularni amaliy ko‘nikmalarga yo‘naltirish, o‘z-o‘zini baholash va ta’lim jarayonini individual ravishda boshqarish imkoniyatini yaratadi. Kelajakda bu yo‘nalishda qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish, yangi texnologiyalarni joriy etish va o‘qituvchilarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Бобуров, И. Б. Кредит-модул тизимида физика фани бўйича мустақил таълимни ташкил этиш усулияти. – Тошкент: ТОТУ, 2022. – 150 б.
2. Ибрагимова, Н. С. Машғулотларни лойиҳалаштириш ва мустақил билимларни ривожлантириш. – Тошкент: Ирфон, 2021. – 128 б.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

3. Мирзоев, М. М. Кредит-модул тизимида машғулотларни лойиҳалаштириш. – Тошкент: ТОТУ, 2023. – 256 б.
4. Шарипов, И. Б. Мавзувий таълимни лойиҳалаштириш ва талабалар мустақил фаолиятини ривожлантириш усулияти. – Самарқанд: САМИ, 2020. – 300 б.
5. Каримов, А. С. Мустақил таълимни ташкил этишда педагогик инновациялар. – Тошкент: Ирфон, 2022. – 275 б.
6. Мирзағолиев, Д. Ш. Интерфаол методларни амалий жараёнларга таянилиб таълим кузатуви ва таҳлили. – Тошкент: Ирфон, 2021. – 215 б.
7. Вандреев, П. А. Кредитно-модульная система обучения. – Москва: ИИНТ, 2019. – 198 с.
8. Жамолов, Ш. Ҳ. Физика фанини ўқитишда инновацион ёндашувлар ва мустақил таълим методикаси. – Тошкент: Иқтисодиёт ва таълим нашриёти, 2022. – 234 б.
9. Қурбонов, Д. Кредит-модул тизимида техник фанлар бўйича мустақил таълимни ташкил этиш усуллари. – Тошкент: Муаллим нашриёти, 2021. – 180 б.
10. Ҳамидов, Ф. К. Олий таълимда мустақил таълимни ташкил этишнинг назарий асослари. – Тошкент: Ўқитувчи нашриёти, 2020. – 220 б.
11. Назаров, Ш. Ж. Физика фанидан мустақил ишларни ташкил этиш методикаси. – Бухоро: БДУ, 2021. – 198 б.
12. Хабибуллаев, У. Т. Мустақил таълим жараёнида талабаларнинг инновацион ёндашувларини ривожлантириш. – Тошкент: Инновация таълим маркази, 2023. – 250 б.
13. Петров, И. В. Интерактивные методы обучения в высших учебных заведениях. – Москва: Просвещение, 2020. – 276 с.
14. Романов, А. В. Модульно-рейтинговая система в учебном процессе вузов. – Санкт-Петербург: Изд-во СПбГУ, 2019. – 312 с.
15. Абдуллаев, Н. С. Талабаларнинг мустақил ўқув фаолиятини ташкил этишда ахборот технологияларидан фойдаланиш. – Тошкент: Ахборот технологиялари маркази, 2022. – 190 б.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Rahimov Kamoliddin Anvarovich,** Qo‘qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti, [**Рахимов Камолиддин Анварович,** базовый докторант Кокандского государственного педагогического института], [**Kamoliddin A. Rakhimov,** basic doctoral student at the Kokand State Pedagogical Institute]; manzil: O‘zbekiston, Farg’ona viloyati, Qo‘qon, Turon ko‘chasi, 23. [адрес: Узбекистон, Ферганская область, Кокан, Турон кочаси, 23.], [address: Uzbekistan, Fergana region, Kokand, Turon street, 23].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O’QITUVCHILARINING HAYOTIDA JISMONIY MASHQLAR FIZIOLOGIYASI FANINING AHAMIYATI

© D.R. Akbarova[1]✉

[1]Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: Maqolada jismoniy mashqlar fiziologiyasi fani bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining professional malakasini oshirishda va ularga sifatli ta’lim berishda muhim ahamiyati, bu fan nafaqat nazariy bilimlar berishi, balki amaliyotda ham qo’llanilishi mumkin bo’lgan strategiyalarni ishlab chiqishga yordam berishi bo’yicha asosiy jihatlari va asoslari batafsil yoritilgan.

MAQSAD: Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy malakasini oshirish va ularga sifatli ta’lim berishda jismoniy mashqlar fiziologiyasi fanining nazariy va amaliy ahamiyatini yoritish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Fiziologiya eksperimental fan bo’lib, fiziologik tadqiqotlar o‘tkir (viviseksiya, ajratilgan organlar, perfuziya metodlari) yoki surunkali eksperimentlar (shartli reflekslar metodi, fistula qo‘yish, transplantatsiya, elektrodlar kiritish va boshqa metodlar) yordamida o‘tkaziladi.

Исследование [2] подтвердило эффективность фунгицида Триада в защите озимой пшеницы от грибных заболеваний, что привело к увеличению урожайности и улучшению качества зерна. Ключевым практическим выводом является то, что последовательное применение фунгицидов Азорро (в фазу кущения-начала выхода в трубку) и Триада (в фазу флагового листа) является целесообразным производственным решением. Это обусловлено тем, что данный подход обеспечивает аналогичный уровень урожайности по сравнению с двукратным применением более дорогого фунгицида Триада, что позволяет снизить затраты на защиту растений.

Статья [3] посвящена исследованию влияния нового биостимулятора «Нигор + экзометаболиты Trichoderma atrobrunneum ВКПМ F-1434» в сравнении с биоудобрением «Эликсир Урожая» на урожайность и устойчивость ярового ячменя. Авторы отмечают растущий интерес к биологически активным препаратам, обладающим комплексным действием (ростстимулирующим, фунгицидным и иммуноиндуцирующим), как альтернативе химическим средствам защиты.

Статья [4] посвящена исследованию влияния предпосевной обработки семян озимой пшеницы комплексными биостимуляторами на биометрические показатели растений с целью повышения эффективности производства зерна. Авторы подчеркивают важность оптимизации минерального питания на протяжении всего вегетационного периода для обеспечения рентабельности сельскохозяйственного производства.

Статья [5] посвящена изучению влияния предпосевной обработки озимой пшеницы полипренолами (концентратом эмульсии) растения Павловния томентоза на рост, физиологические показатели и урожайность. Авторы отмечают, что предпосевная обработка регуляторами роста является эффективным методом повышения всхожести семян и устойчивости рассады к неблагоприятным условиям.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

В связи с ужесточением ограничений на использование химических средств защиты растений и удобрений, исследование [6] было направлено на поиск методов повышения устойчивости растений к неблагоприятным условиям окружающей среды, что положительно сказывается как на растениях, так и на природной среде. В работе проведена оценка и сравнение эффективности четырех коммерческих биостимуляторов в повышении засухоустойчивости озимой пшеницы.

Исследование [7] посвящено оценке влияния нескольких стимуляторов роста и их комбинаций на урожайность и качество зерна пшеницы. Авторы отмечают растущую важность применения стимуляторов в сельском хозяйстве как экологически безопасного способа улучшения роста и качества урожая, а также частичного дополнения действия питательных веществ.

Целью данного исследования является оценка влияния различных биологических стимуляторов, микроудобрений и препаратов на урожайность и качество зерна озимой мягкой пшеницы. В задачи исследования входит: определение эффективности применения различных стимуляторов роста; анализ влияния микроудобрений на формирование урожая; изучение изменений в качественном составе зерна после применения препаратов.

Полевые эксперименты были проведены в течение 2021–2024 гг. на опытных участках Бухарского государственного университета. В качестве объекта исследования использовались пять сортов озимой мягкой пшеницы интенсивного и полуинтенсивного типа. Обработка проводилась с использованием биологических препаратов (Экстрасол, Экогель), стимуляторов роста (Флорон, Разормин) и микроудобрений (Нутривант Плюс с Аминокатом, Келик-Калий). Обработки выполнялись в фазах кущения и выхода в трубку методом опрыскивания.

Анализ полученных данных показал, что применение биологических препаратов и микроудобрений положительно сказывается на урожайности и качестве зерна. Наибольшая прибавка урожая была отмечена при обработке Экстрасолом, что дало увеличение урожайности на 6,5–7,8% в зависимости от сорта. Применение Экогеля обеспечило значительный рост урожайности для сортов Дурдона (7,1%) и Бардош (7,7%).

Использование стимуляторов Флорон и Разормин привело к повышению продуктивности, причем наибольший эффект наблюдался у сорта Зимница – 6,2% прибавки. Среди микроудобрений Нутривант Плюс с Аминокатом показал наилучшие результаты, повышая урожайность в среднем на 4–6%.

В ходе биохимического анализа выявлено, что содержание белка и клейковины в зерне также увеличивается при использовании препаратов. Максимальное содержание белка отмечено у сортов, обработанных Экогелем и Нутривант Плюс с Аминокатом, достигая 14,3%. Келик-Калий и Разормин способствовали увеличению содержания клейковины в зерне на 2,5–3,3%.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

На рисунке 1 представлено влияние различных препаратов на урожайность, содержание белка и клейковины озимой пшеницы.

Полученные результаты свидетельствуют о том, что биостимуляторы способствуют: активизации ростовых процессов; улучшению формирования структуры урожая; повышению качества зерна; увеличению устойчивости к неблагоприятным факторам среды.




Рисунок 1. Влияние различных препаратов на урожайность, содержание белка и клейковины озимой пшеницы.

Результаты исследования подтверждают целесообразность использования биологических стимуляторов и микроудобрений для повышения урожайности и улучшения качества зерна озимой мягкой пшеницы. Таким образом, в результате исследования были сделаны следующие выводы:

1. Применение биологических стимуляторов и микроудобрений способствует увеличению урожайности озимой мягкой пшеницы, причем наибольший эффект был достигнут при обработке Экстрасолом и Нутривант Плюс с Аминокатом.

2. Биологические препараты и микроудобрения положительно влияют на качество зерна, повышая содержание белка и клейковины.

3. Экономическая оценка показала, что применение данных препаратов и стимуляторов является рентабельным и оправданным с агрономической точки зрения.

Применение биостимуляторов является эффективным приемом повышения продуктивности озимой пшеницы. Использование биостимуляторов позволяет снизить зависимость от химических удобрений и пестицидов, что способствует повышению экологической безопасности сельскохозяйственного производства.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Еремин Л. П., Резвякова С. В., Агеева Н. Ю., Павловская Н. Е. ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ БИОПРЕПАРАТОВ И БИОСТИМУЛЯТОРОВ НА ОЗИМОЙ ПШЕНИЦЕ МОСКОВСКАЯ 39 // Вестник ОрелГАУ. 2022. №1 (94).

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

2. Резвякова С. В., Ботуз Н. И., Митина Е. В. УРОЖАЙНОСТЬ ОЗИМОЙ ПШЕНИЦЫ В СВЯЗИ С ЗАЩИТОЙ ОТ ГРИБНЫХ БОЛЕЗНЕЙ В УСЛОВИЯХ ОРЛОВСКОЙ ОБЛАСТИ // Вестник ОрелГАУ. 2021. №1 (88).
3. Павловская Н. Е., Гнеушева И. А., Агеева Н. Ю. ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ БИОУДОБРЕНИЯ И НОВОГО БИОСТИМУЛЯТОРА НА ЯРОВОМ ЯЧМЕНЕ HORDEUM VULGARE L // Вестник ОрелГАУ. 2021. №1 (88).
4. Абдуазимов А. М., Вафоева М. Б. Влияние предпосевной обработки регулятором роста семян на первоначальные биометрические показатели озимой пшеницы // Инновацион технологиялар. 2020. №3 (39).
5. Turaeva S, Kurbanova E, Mamarozikov U, Nurmakhmadova P, Khidirova N, Juraev D, Shoymuradov A, Bakhramova N, Aynakulova Z (2024). Efficiency of the biostimulant in winter wheat (Titicum aestivum L.). SABRAO J. Breed. Genet. 56(5): 1982-1993. http://doi.org/10.54910/sabrao2024.56.5.21.
6. Radzikowska-Kujawska, D.; John, P.; Piechota, T.; Nowicki, M.; Kowalczewski, P.Ł. Response of Winter Wheat (Triticum aestivum L.) to Selected Biostimulants under Drought Conditions. Agriculture 2023, 13, 121. https://doi.org/10.3390/agriculture13010121
7. Knapowski, Tomasz, et al. “Crop Stimulants as a Factor Determining the Yield and Quality of Winter Wheat Grown in Notec Valley, Poland.” Current Science, vol. 116, no. 6, 2019, pp. 1009–15. JSTOR, https://www.jstor.org/stable/27137979.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Razoqova Durdona Ramazon qizi**, tabiiy fanlar va agrobiotexnologiyalar fakulteti, Biotexnologiya kafedrasi doktoranti; [**Разокова Дурдона Рамазон кызы**, докторант кафедры биотехнологии, факультета естественных наук и агробиотехнологий, Бухарского государственного университета]; [**Durdona R. Razoqova**, PhD student of the Department of Biotechnology, Faculty of Natural Sciences and Agrobiotechnology, Bukhara State University], manzil: O‘zbekiston, Buxoro sh., Gulobiyon ko‘chasi, 5-uy [адрес: Узбекистан, ул. Гулобиён, 5, г. Бухара] [address: Uzbekistan, 5, Gulobiyon st., Bukhara city].

✉**Rasulova Nargiza**, tabiiy fanlar va agrobiotexnologiyalar fakulteti, Agrokimyo va agrotuproqshunoslik yo‘nalishi, 3-bosqich talabasi [**Расулова Наргиза**, студентка 3-го курса направления «Агрохимия и агропочвоведение», факультета естественных наук и агробиотехнологий]; [**Rasulova Nargiza**, 3rd-year student of the "Agrochemistry and Agrosoil Science" program, Faculty of Natural Sciences and Agrobiotechnology]. manzil: O‘zbekiston, Buxoro sh., Gulobiyon ko‘chasi, 5-uy [адрес: Узбекистан, ул. Гулобиён, 5, г. Бухара] [address: Uzbekistan, 5, Gulobiyon st., Bukhara city] E-mail: umurovzarif@buxdpi.uz Orcid: 0000-0001-5021-964X

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

VARIATIV YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNING DIALOGIK NUTQINI RIVOJLANTIRISH DOLZARB MASALALARI

© R.B. Turapova[1]✉

[1]Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz, O’zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Dialogik nutq – muloqot jarayonida o‘z fikrini ifodalash, suhbatdoshni tushunish va muloqotni samarali davom ettirish qobiliyatini shakllantirishdir. Variativ yondashuv asosida bu ko‘nikmalarni rivojlantirish o‘quvchilarning muloqot madaniyatini, ijodiy fikrlashini va ijtimoiy kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi.

MAQSAD: ushbu maqola variativ yondashuv asosida o‘quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish masalalarini tahlil qilish, samarali metod va texnologiyalarni aniqlash hamda ta’lim jarayonida ularning qo‘llanilish imkoniyatlarini ko‘rsatishga qaratilgan.

MATERIALLAR VA METODLAR:

- Ilmiy adabiyotlar tahlili – dialogik nutq va variativ yondashuv bo‘yicha xalqaro va mahalliy tadqiqotlar o‘rganildi.
- Empirik tadqiqotlar – maktab o‘quvchilari bilan eksperimental mashg‘ulotlar o‘tkazilib, natijalar baholandi.
- So‘rov va intervyu – o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnomalar tashkil etildi.
- Taqqoslash va kuzatish – turli metodlarning samaradorligi baholandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, variativ yondashuv asosida dialogik nutqni rivojlantirishda quyidagi omillar muhim rol o‘ynaydi:

- Kommunikativ o‘yinlar va rolli mashg‘ulotlar – o‘quvchilarni muloqotga faol jalb qilish orqali nutqiy faollikni oshirish.
- Muammoli ta’lim metodlari – muhokamalar, bahs-munozaralar orqali o‘quvchilarning tanqidiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirish.
- Multimediya texnologiyalari – video, audio va raqamli resurslar yordamida muloqot jarayonlarini takomillashtirish.
- Differensial yondashuv – har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini inobatga olib, mos uslub va materiallar tanlash.

XULOSA: variativ yondashuv dialogik nutqni rivojlantirishda samarali metodlardan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonida bu yondashuvdan foydalanish o‘quvchilarning muloqot madaniyatini oshirish, ijtimoiy moslashuv darajasini yuksaltirish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Kalit so‘zlar: variativ yondashuv, dialogik nutq, kommunikativ kompetensiya, muloqot madaniyati, interfaol metodlar, ta’lim texnologiyalari.

Iqtibos uchun: Turapova R.B. Variativ yondashuv asosida o‘quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish dolzarb masalalari// Inter education & global study. 2025. №3. B.279-288.

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ДИАЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ВАРИАТИВНОГО ПОДХОДА

© Р.Б. Турапова[1]✉
[1] Термезский государственный педагогический институт, Термез, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ. в современном образовательном процессе развитие диалогической речи у учащихся имеет важное значение. Диалогическая речь — это способность выражать свои мысли в процессе общения, понимать собеседника и эффективно продолжать коммуникацию. Развитие этих навыков на основе вариативного подхода способствует формированию культуры общения, креативного мышления и социальной компетентности учащихся.

ЦЕЛЬ. Данная статья посвящена анализу вопросов развития диалогической речи учащихся на основе вариативного подхода, выявлению эффективных методов и технологий, а также определению возможностей их применения в образовательном процессе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: анализ научной литературы – изучены международные и национальные исследования по диалогической речи и вариативному подходу. Эмпирические исследования – проведены экспериментальные занятия с учащимися, результаты которых были оценены. Опрос и интервью – проведены анкетирования среди учителей и учащихся. Сравнение и наблюдение – оценена эффективность различных методов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ. результаты исследования показывают, что при развитии диалогической речи на основе вариативного подхода ключевую роль играют следующие факторы: Коммуникативные игры и ролевые упражнения – активное вовлечение учащихся в процесс общения способствует повышению речевой активности. Методы проблемного обучения – дискуссии и дебаты развивают критическое и самостоятельное мышление учащихся. Мультимедийные технологии – использование видео-, аудио- и цифровых ресурсов для совершенствования процессов общения. Дифференцированный подход – учет индивидуальных особенностей каждого учащегося для выбора подходящих методов и материалов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. вариативный подход является одним из эффективных методов развития диалогической речи. Его использование в образовательном

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

процессе способствует повышению культуры общения, социальной адаптации и развитию навыков самостоятельного мышления у учащихся.

Ключевые слова: вариативный подход, диалогическая речь, коммуникативная компетентность, культура общения, интерактивные методы, образовательные технологии.

Для цитирования: Турапова Р.Б. Актуальные вопросы развития диалогической речи учащихся на основе вариативного подхода // Inter education & global study. 2025. №3. С. 279-288.

ACTUAL ISSUES OF DEVELOPING STUDENTS' DIALOGIC SPEECH BASED ON A VARIATIVE APPROACH

© Ra'no B. Turapova[1]✉
[1] Termiz State Pedagogical Institute, Termez, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION. in modern education, the development of students' dialogic speech plays a crucial role. Dialogic speech refers to the ability to express one's thoughts during communication, understand the interlocutor, and effectively continue the conversation. Developing these skills based on a variative approach enhances students' communication culture, creative thinking, and social competence.

AIM: this article aims to analyze the issues of developing students' dialogic speech through a variative approach, identify effective methods and technologies, and explore their application in the educational process.

MATERIALS AND METHODS: analysis of scientific literature – international and national studies on dialogic speech and variative approaches were examined. Empirical research – experimental lessons were conducted with students, and the results were evaluated. Surveys and interviews – questionnaires were conducted among teachers and students. Comparison and observation – the effectiveness of various methods was assessed.

DISCUSSION AND RESULTS: the research findings indicate that several key factors play a significant role in developing dialogic speech through a variative approach: Communicative games and role-playing exercises – actively engaging students in conversation increases speech activity. Problem-based learning methods – discussions and debates help develop critical and independent thinking. Multimedia technologies – using video, audio, and digital resources enhances communication processes. Differentiated approach – considering individual characteristics of students to select appropriate methods and materials.

CONCLUSION: the variative approach is an effective method for developing dialogic speech. Its application in the educational process contributes to improving communication culture, social adaptation, and students' independent thinking skills.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Keywords: variative approach, dialogic speech, communicative competence, communication culture, interactive methods, educational technologies.

For citation: R.a'no B. Turapova Actual issues of developing students' dialogic speech based on a variative approach // Inter education & global study. 2025. №3. pp. 122–131.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Dialogik nutq o'quvchilarning fikrlarini aniq va mantiqiy ifodalash, suhbatdoshni tushunish hamda samarali muloqot olib borish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu ko'nikmalar nafaqat til o'rganish jarayonida, balki ijtimoiy hayotda ham muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim jarayonida dialogik nutqni rivojlantirishga qaratilgan turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning samaradorligi o'quvchilarning individual xususiyatlari, ta'lim tizimining talablari va metodologik usullarga bog'liqdir. Shundan kelib chiqib, variativ yondashuv zamonaviy ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi. Variativ yondashuv o'quvchilarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olib, ta'lim jarayonini moslashtirishga imkon yaratadi. Ushbu yondashuv asosida dialogik nutqni rivojlantirish orqali o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini oshirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ularni ijtimoiy muloqotga tayyorlash mumkin.

Ushbu maqolada variativ yondashuv asosida o'quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda samarali metod va texnologiyalar, shuningdek, ushbu yondashuvni ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari o'rganiladi.

Variativ yondashuv (yoki moslashuvchan yondashuv) ta'lim tizimida bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda o'qitish va tarbiya jarayonini tashkil etishga asoslanadi. Bu yondashuv o'quvchilarning ehtiyojlari, qobiliyatlari, va intellektual rivojlanish darajasiga mos ravishda ta'lim metodlarini va usullarini tanlashni ko'zda tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu yondashuv, ayniqsa, dialogik nutqning rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega [18; 67-b].

Variativ yondashuvning shakllanishi ta'lim nazariyasida turli davrlarda paydo bo'lgan individual yondashuv g'oyalari va psixologik konsepsiyalar bilan chambarchas bog'liq. Bu yondashuvning rivojlanishi insonning individual xususiyatlarini, shaxsiy ehtiyojlarini va ta'limga bo'lgan talablari o'zgarishini hisobga olish zaruriyati bilan izohlanadi.

Manbalarni tahlili va boshqa tadqiqotchilarning asarlarida turli yondoshuvlarni batafsil ko'rib chiqish imkoniyatini tug'dirdi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dialogik nutqini rivojlantirish jarayoni yurtimiz ta'lim tizimining umumiy rivojlanishida ham muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda umumiy ta'lim tizimida takomillashtirish ishlari amalga oshirib borilmoqda. Maktab o'quvchilarining universal ta'lim faoliyatini (umumiy dialogik nutq ko'nikmalarini) rivojlantirish uchun dasturlarning konseptual asoslari va tartibga soluvchi hududiy, tuman, shahar va maktab ichidagi qo'llab-quvvatlash ishlab chiqildi [19.49-b].

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Hozirgi vaqtda ta’lim sifatini oshirishga yordam beradigan ta’lim texnologiyalari va metodlari ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq etib borilmoqda, jumladan o‘quvchilarda dialogik nutq ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish ham e’tibordan chetda qolmayapti. Variativ yondashuvning nazariy tahlili bu jarayonda alohida ahamiyatga ega, chunki u o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish orqali nutqiy faoliyatlarini samarali rivojlantirishga yordam beradi. Variativ yondashuv, o‘z navbatida, o‘quvchilarning nutqiy muloqotda ishtirok etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi va bu jarayonda ta’limning yangilanishi, yangi metod va texnologiyalarni qo‘llash muhim o‘rin tutadi.

Davlat ta’lim standartlari talablarining amalga oshirilgan tarkibiy tahlili natijasida shakllanish va rivojlanish kabi ma’nolarga o‘xshash tushunchalar eng ko‘p ishlatiladiganlar orasida ekanligi aniqlangan. Mavzu doirasidagi muammoning mohiyatini oshishga kirishishdan avval boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dialogik nutqini rivojlantirishda dialigik nutq faoliyatining mohiyatiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

"O‘zbek tilining izohli lug‘ati"da nutq arabcha so‘z bo‘lib, "1. so‘z, nutq, gap; 2. insonning o‘z fikrini, his-tuyg‘ularini, g‘oyalarini so‘z orqali ifodalash jarayoni" deb keltiriladi. Dialogik nutq esa ikki yoki undan ortiq shaxslar o‘rtasida o‘zaro muloqotni anglatadi, ya’ni bir-biriga savollar berish, javoblar olish va fikr almashish jarayonidir. Dialogik nutq muloqotning samarali shakli bo‘lib, unda suhbatdoshlarga bir-birining fikrini tinglash va o‘z fikrlarini ifodalash imkoniyati yaratilib, o‘rganish va rivojlanish jarayonlarini ta’minlaydi [20; 67-b].

XVIII asrda pedagoglar o‘quvchilarning so‘z va fikrlarini emas, balki mulohaza yuritishni, kuzatishlar olib borishni va dalillar izlash va topishni o‘rgatishar edi. O‘sha davr pedagoglarining jamiyatdagi o‘rni va vazifalarini nemis pedagogi A.Distervegning quyidagi fikrlari bilan baholaymiz: “Yomon o‘qituvchi haqiqatni taqdim etadi, yaxshisi esa uni topishni o‘rgatadi.” Bu fikrlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dialogik nutqini rivojlantirishda variativ yondashuvning ahamiyatini ko‘rsatadi. Variativ yondashuv metodlari o‘quvchilarning fikr va mulohazalarini o‘rganish, kuzatishlar olib borish va o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashga qaratilgan. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning nutqiy faoliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Nutqni rivojlantirishda, ularning o‘z fikrlarini erkin va aniq ifoda etishi, fikrlar almashish, savol-javob va muhokama qilish jarayonlari muhim o‘rin tutadi. Variativ yondashuv bu jarayonni turli usullar va metodlar bilan boyitishga yordam beradi [20; 156-b].

Dastlab dialogik nutq usuli tabiiy fanlar doirasida vujudga kelgan. Bu usulning rivojlanishi asosan psixologiya va pedagogika fanlarida amalga oshirilgan. Tabiiy fanlar, ayniqsa psixologiya, o‘quvchilarning fikr almashishi, muloqot qilish va o‘zaro interaksiya qilish jarayonlarini o‘rganish orqali dialogik nutqni ta’lim jarayoniga kiritishga imkon yaratgan. So‘nggi yillarda esa, bu usul turli sohalarda, xususan pedagogikada o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishda keng qo‘llanilmoqda. XX asrning boshlarida pedagogik tizim sifatida shakllandi. Keyinchalik, olimlar boshqa sohalarda ham dialogik nutqni o‘rganish zarurligini ilmiy izlanishlari orqali ko‘rsatdilar. Bu

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

mavzuda bir qator munozaralar bo‘lishiga qaramasdan, pedagoglarimiz tajriba orqali ushbu tizimni aynan boshlang‘ich sinflarda qo‘llashning samarali ekanligini tasdiqladilar, chunki kichik yoshdagi o‘quvchilar tabiatan faol, qiziquvchan va yangiliklarni izlash, tadqiq qilish hamda tushunishga intiladilar. Bu jarayonlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dialogik nutqini rivojlantirishda variativ yondashuvning nazariy tahlili orqali ham aks etadi[21.98-b]. Variativ yondashuv metodlari o‘quvchilarga dialogik nutqni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi, bu esa ularning o‘z fikrlarini erkin va aniqlik bilan ifodalashga yordam beradi. Natijada, o‘quvchilarni muloqotga, o‘zaro fikr almashishga, savollar berishga va javoblar olishga rag‘batlantirish mumkin bo‘ladi.

Yunon faylasuflari Platon va Aristotelning qarashlari ta’lim jarayonining rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular o‘quvchilarning tabiiy qobiliyatlarini hisobga olish va ularga mos ta’lim shakllarini yaratishga intilganlar. Bu g‘oya variativ yondashuvning nazariy tahlilida ham o‘z aksini topadi, chunki variativ yondashuv o‘quvchilarning turli ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olib, ularning dialogik nutqini rivojlantirishda turli metod va strategiyalarni qo‘llashga imkon yaratadi [22; 36-b].

O‘quv tadqiqoti usullari o‘quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish jarayonida qo‘llaniladi. Ta’kidlovchi tadqiqot o‘quvchilarga muloqotda o‘z fikrlarini ifodalashda asosiy elementlar (rang, tus, shakl va boshqalar) haqida aniq ma'lumot berishga yordam beradi. Mantiqiy tadqiqot esa o‘quvchilarni savollarni qo‘yish va javoblarni tahlil qilish orqali sabab-natija munosabatlarini tushunishga o‘rgatadi. Umumlashtiruvchi tadqiqot metodlari o‘quvchilarning kuzatish va tajribalar asosida dialogik nutqning asosiy qonuniyatlarini o‘rganishlariga yordam beradi. Bu jarayonlar variativ yondashuv yordamida o‘quvchilarning muloqotdagi erkinligini va aniqligini oshiradi.

Renessans davrining ta’lim va shaxsni rivojlantirishga qaratilgan g‘oyalari o‘quvchilarning dialogik nutqini shakllantirishda ham asosiy yondashuv sifatida qaraladi. Renessansda insonning tabiiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan fikrlar o‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin va aniq ifodalash imkoniyatlarini yaratadi. Dialogik nutqning rivojlanishi o‘quvchilarning muloqotda faol ishtirok etishi, savollar berishi va o‘zaro fikr almashishi orqali amalga oshiriladi, bu esa variativ yondashuv yordamida shakllanadi. Renessans davri ta’limining asosiy tamoyillari bo‘lgan erkinlik va kreativlik dialogik nutqni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi [21; 78-b].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dialogik nutqini rivojlantirishda variativ yondashuvning nazariy tahlili ta’lim jarayonida ijodiy faoliyatni tashkil etishning muhim aspektlarini ko‘rsatadi. Bu mavzu, o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda variativ yondashuvni qo‘llashning samaradorligini tahlil qiladi, shuningdek, o‘quv jarayonida ijodiy faoliyatni loyihalashning tashkilot tizimi va metodologik asoslarini o‘rganadi. Variativ yondashuv, o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olib, ularning nutqiy faoliyatini boshqarish, rivojlantirish va nazorat qilishning turli usullari va vositalarini taklif etadi.

Shu bilan birga, o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik amaliyotda o‘rni, ularni mustahkamlash uchun zarur bo‘lgan metodik vositalar va o‘quv

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

materiallarini yaratish kabi masalalar o‘rganiladi. O‘quvchilar uchun muvaffaqiyatli dialogik nutqni shakllantirishda ularning faolligini rag‘batlantiruvchi ta’lim texnologiyalari va pedagogik yondashuvlar ahamiyatini ta’kidlash lozim.

Variativ yondashuv, o‘quvchilarni nutqiy faoliyatga yo‘naltirishda, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Bunda, o‘quv materiallarining tarkibi, darsning tashkil etilish usuli, o‘quvchilarning real bilish imkoniyatlari va individual xususiyatlarini hisobga olish muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishda dialogik nutqni rivojlantirishning integratsiyalashgan usullarini qo‘llash lozim.

Renessans davrining buyuk insonparvar faylasufi va pedagogi Erazm Rotterdamskiy fikricha, o‘quvchilar dialogik nutqining rivojlanishini ta’minlashda variativ yondashuvning nazariy tahlili o‘quvchilarning fikrlash, nutqiy va ijtimoiy faoliyatlarini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Rotterdamskiy, o‘zining falsafiy qarashlarida, insonlarning axloqiy va intellektual rivojlanishida turli xil yondashuvlarning muhimligini ta’kidlagan. U, ta’lim jarayonida o‘quvchilarni yangi bilimlarga o‘rgatishda variativ yondashuvni qo‘llash orqali ularning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning samaradorligini ko‘rsatadi [22; 59-b].

Variativ yondashuvning nazariy tahlili boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dialogik nutqini rivojlantirishda individual yondashuvni ta’minlashni nazarda tutadi. Bu yondashuv o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishda, ularning o‘zaro munosabatlarini va kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishda yordam beradi. O‘quvchilarni nutqiy faoliyatga jalb etishning turli usullari, metodlar va vositalarini qo‘llash orqali ularning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu jarayonda, o‘quvchilarning bilish imkoniyatlarini hisobga olish, ularning fikrlash jarayonlarini rag‘batlantirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega [22; 146-b]. Shu bilan birga, variativ yondashuv pedagogik jarayonda o‘quvchilarni individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga qarab ta’lim berishning samarali usullaridan biridir. O‘quvchilarning ijtimoiy, axloqiy va mantiqiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun bu yondashuvning nazariy tahlili o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini tashkil etishda yangi metodologiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

R.Shodiyev tadqiqot ishlarida o‘z asarlarida o‘quvchilarni nutqiy faoliyatga jalb etishda individual yondashuvning ahamiyati, har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, ularning nutqiy va ijodiy faoliyatini rag‘batlantiruvchi metodlar samarali natijalarga olib kelishini ta’kidlaydi [20; 49-b].

Sh. Nurullayeva o‘quvchilarni ijodiy va tanqidiy fikrlashga yo‘naltirishda metodik vositalarning muhimligini ta’kidlaydi. Tadqiqotchining fikricha, boshlang‘ich ta’limda variativ yondashuv yordamida o‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglash, fikr va his-tuyg‘ularini ifoda etish qobiliyatlari rivojlanadi. Dialogik nutqni rivojlantirishda, o‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin va aniq ifodalash imkoniyatlarini yaratish zarur deb hisoblaydi [21; 39-b].

A.Hamrayev ijodiy yondashuvni pedagogik jarayonda ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda samarali vosita deb biladi. Uning fikricha, o‘quvchilarni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

dialogik nutqiga yo‘naltirishda turli o‘quv elementlari va metodlar orqali nutqiy faollikni rag‘batlantirish muhimdir. Bu jarayon o‘quvchilarning o‘zaro fikr almashish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi deb ta’kidlaydi [22; 50-b].

N. Isakulovaning fikricha, ta’lim jarayonida o‘quvchilarga turli muloqot shakllarini o‘rgatish, ularning nutqiy faoliyatini samarali boshqarish imkoniyatlarini yaratadi. Bu yondashuv o‘quvchilarga o‘z nutqlarini turli kontekstlarda muvaffaqiyatli foydalanish imkonini beradi [23; 69-b].

F. Sodiqova boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dialogik nutqini rivojlantirishda, ularning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olish zarurligini ta’kidlaydi. U, o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda metodik yondashuvlarning farqlanishi va turli pedagogik vositalarni qo‘llashning ahamiyatini ko‘rsatadi [24; 38-b].

R. A. Shodiev o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirishda variativ yondashuvning ahamiyatini tushuntiradi. Uning fikricha, o‘quvchilarning fikrlarini aniq va to‘g‘ri ifodalashlari uchun dialogik nutqni rivojlantirish zarur. U, o‘quv jarayonida muloqotga asoslangan ta’lim metodlarini qo‘llashni tavsiya etadi [25; 78-b].

K. Qosimova, variativ yondashuvni o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muhim vosita deb biladi. U, o‘quvchilarni muloqotga qaratilgan faoliyatlarga jalb etish, ularning o‘z fikrlarini aniq ifodalashini rag‘batlantirishni ta’kidlaydi [26;38-b]. M. Hamdamova boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy faoliyatini rivojlantirishda ularning individual imkoniyatlarini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘quv materiallari va metodlarni diqqat bilan tanlash lozim [27; 69-b]. O. Roziqov variativ yondashuvning o‘quvchilarning ijtimoiy faoliyatini rivojlantirishdagi rolini ta’kidlaydi. U, dialogik nutq orqali o‘quvchilarning o‘zaro fikr almashish ko‘nikmalarini shakllantirishni zarur deb biladi. S. Xolmatova o‘quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash zarurligini ta’kidlaydi. U, o‘quv jarayonida turli muloqot shakllari, so‘zlashuv usullarini qo‘llashni o‘rgatishni maqsadga muvofiq deb biladi [28; 34-b].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun interaktiv metodlar muhimligi haqida U. Masharipova alohida ta’kidlaydi. U, o‘quvchilarning muloqotdagi faolligini va o‘zaro munosabatlarini rivojlantirishda variativ yondashuvning samarali ekanligini ko‘rsatadi [29;56-b]. X. Bakiyeva, variativ yondashuvning o‘quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishdagi rolini ta’kidlaydi. Uning fikricha, o‘quvchilarga bir nechta muloqot shakllarini o‘rgatish orqali ularning fikrlash jarayonini rag‘batlantirish mumkin [30;39-b]. S. M. Zokirova, dialogik nutqning pedagogik ahamiyatini o‘quvchilarning umumiy rivojlanish jarayonidagi rolini ko‘rsatadi. U, o‘quvchilarni nutqiy faoliyatga jalb etishda variativ yondashuvni qo‘llashning samaradorligini tasdiqlaydi [31.38-b].

Pedogogik olim N. Q. Sobirova o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda, ularning individual xususiyatlariga mos metodlarni tanlashning zarurligini ta’kidlaydi. U, variativ yondashuvni pedagogik faoliyatda qo‘llashning samarali usullari haqida fikrlar bildiradi [32; 48-b]. Tadqiqotchi N. Q. Olimova o‘quvchilarning ijtimoiy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

faoliyatini rivojlantirishda, dialogik nutqning asosiy vazifalari haqida fikr yuritadi. Uning fikricha, o‘quvchilarni nutqiy faollikka yo‘naltirishda muloqotning o‘rni katta deb biladi [33;78-b].

Tadqiqotchi N. M. Fattokhova, o‘quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik metodlarni qo‘llashning ahamiyatini ta’kidlaydi. U, o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini boshqarish uchun innovatsion usullarni ishlab chiqadi [34;38-b].

Yuqoridagi ma’lumotlarni tahlili shuni ko‘rsatadiki, dialogik nutqni rivojlantirish borasida maktab ta’lim mazmuni va o‘quvchilarni nutq faoliyatiga yo‘naltirish tizimiga o‘zgartirishlar kiritish lozimligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ishimizning asosiy maqsadi variativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dialogik nutqini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini amaliyotga tadbiq etish va yuqori samaradorlikka erishish hisoblanadi.

Variativ yondashuv so‘zi turli usullar, yondashuvlar va metodlarni qo‘llashni anglatadi, bu esa ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini va ularning dialogik nutqini rivojlantirishdagi farqliliklarini hisobga olishni nazarda tutadi. Variativ yondashuv yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish, ularga muloqot qilish va o‘z fikrlarini aniq ifodalash imkoniyatlarini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Variativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dialogik nutqini rivojlantirish jarayonida o‘quvchilarga turli usullar va metodlarni taqdim etish zarur. Bu metodlar orqali o‘quvchilar o‘zaro muloqotga kirishib, savol-javoblar orqali fikr almashadilar. Shunday qilib, dialogik nutqni rivojlantirishda, o‘quvchilarni turli savollar va mavzular atrofida muloqotga jalb qilish orqali ularning fikrlash jarayoni va nutqiy faoliyatini yanada boyitish mumkin.

O‘quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirishda variativ yondashuvning muhim ahamiyatga ega ekanligi shundaki, o‘quvchilar o‘zaro muloqotda va suhbatlarda turli nuqtai nazarlarni o‘rganib, o‘z fikrlarini erkin ifodalashga o‘rganadilar. Ushbu jarayonda o‘quvchilar turli masalalar va savollar atrofida fikr almashish orqali, o‘ziga xos yechimlarni topadilar va shu bilan birga o‘z dialogik nutqlarini shakllantiradilar.

Shunday qilib, variativ yondashuv orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dialogik nutqini rivojlantirish jarayonida turli usullar va metodlar yordamida samarali ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘quvchilarning fikrlash va muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu yondashuv nafaqat o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini yaxshilaydi, balki ularning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuv qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dialogik nutqini rivojlantirish borasida o‘quv ta’lim tizimi va o‘quvchilarni bu faoliyatga yo‘naltirishda o‘zgartirishlar kiritish zarurligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ishimizning asosiy maqsadi variativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dialogik nutqini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini amaliyotga tadbiq etish va yuqori samaradorlikka erishish hisoblanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Variativ yondashuv asosida, o‘quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirish jarayoni bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi. Bu jarayon, avvalo, o‘quvchilarga turli usullar, metodlar va yondashuvlarni tanlash imkoniyatini yaratadi. Variativ yondashuvning afzalligi shundaki, o‘quvchilarni muloqotga kirishish, o‘z fikrlarini ochiq ifodalash va boshqa shaxslar bilan samarali dialog o‘rnatishga undaydi.

Dialogik nutqini rivojlantirish jarayonida, o‘quvchilarga turli masalalar atrofida o‘zaro fikr almashish imkoniyatlari beriladi. Shu bilan birga, o‘quvchilar o‘zaro suhbatda savollarni qo‘yish, javoblar berish va muammolarni hal qilishga o‘rganadilar. Bu usul o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini, muammolarni tahlil qilish va yechimlar topish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Variativ yondashuv orqali o‘quvchilarning dialogik nutqini rivojlantirishda, ular biror mavzu yoki muammoni o‘rganish jarayonida turli nuqtai nazarlarni o‘rganib, o‘z fikrlarini erkin ifodalashga o‘rganadilar. Shunday qilib, o‘quvchilar o‘zaro muloqotda turli qarashlarni tinglash va ularga munosabat bildirish orqali o‘z dialogik nutqlarini shakllantiradilar. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dialogik nutqini rivojlantirishda, variativ yondashuv asosida ta’lim jarayonida metodlar va vositalarni tanlashda farqliliklar hisobga olinadi. Bu orqali o‘quvchilarning muloqotdagi faoliyatini boyitish, ularning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beriladi. Shunday qilib, variativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dialogik nutqini rivojlantirishda turli metodlar va usullar yordamida samarali ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘quvchilarning fikrlash va muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu yondashuv nafaqat o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini yaxshilaydi, balki ularning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Vygotskiy L.S. Myshlenie i rech. – Moskva: Labirint, 1999. – 352 b.
2. Bakhtin M.M. Problemy poetiki Dostoevskogo. – Moskva: Sovetskaya Rossiya, 1972. – 384 b.
3. Leontyev A.A. Osnovy rechevoy deyatelnosti. – Moskva: Nauka, 1974. – 208 b.
4. Zimnyaya I.A. Psikhologiya obucheniya inostrannym yazykam. – Moskva: Russkiy yazyk, 1991. – 224 b.
5. Galperin P.Ya. K metodike formirovaniya umstvennykh deystviy. – Moskva: Pedagogika, 1985. – 180 b.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Turapova Ra’no Barat qizi**, o’qituvchi [**Турапова Рано Барат кизи,** преподаватель]; **Ra’no B, Turapova** teacher manzil: Surxandaryo viloyati, Termiz, Islom Karimov ko‘chasi, 228 [адрес: Сурхандарьинская область, Термез, улица Ислама Каримова, 228], [address: Surxondaryo region, Termez, Islam Karimov Street, 228].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA PEDAGOGIK TEXNIKANI RIVOJLANTIRISH

© Sh.G'. Abdusodiqova[1]✉
[1]Navoiy davlat universiteti, Navoiy, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada akmeologik yondashuv asosida ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish masalalari yoritiladi. Akmeologiya insonning shaxsiy va kasbiy kamolotga erishish jarayonlarini o'rganuvchi fan sifatida pedagogik texnikani takomillashtirishga ham xizmat qiladi. Ingliz tili o'qituvchilari uchun ushbu yondashuvning ahamiyati, ularning verbal va noverbal kommunikatsiya, darsni samarali tashkil etish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, motivatsiya berish usullari va kasbiy rivojlanish texnikalari bilan bog'liq jihatlari tahlil qilinadi.

MAQSAD: ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — akmeologik yondashuv asosida ingliz tili o'qituvchilarining pedagogik texnikasini rivojlantirish yo'llarini tahlil qilish va samarali metodlarni taklif etishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida quyidagi materiallar va usullar qo'llanildi:

- akmeologiya, pedagogika va psixologiya sohalaridagi ilmiy manbalar tahlili;
- ingliz tili o'qituvchilarining pedagogik faoliyatiga oid empirik ma'lumotlar;
- kuzatuv, intervyu va so'rovnoma metodlari yordamida ma'lumot to'plash;
- eksperimental tahlil usullari.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Akmeologik yondashuv asosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ingliz tili o'qituvchilarining pedagogik texnikasini rivojlantirish quyidagi omillarga bog'liq:

- o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini doimiy ravishda oshirib borishi;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlardan foydalanish;
- shaxsiy rivojlanish va o'z-o'zini anglash darajasini oshirish;
- kommunikativ va reflektiv ko'nikmalarni shakllantirish.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, akmeologik yondashuv asosida ishlovchi o'qituvchilarning pedagogik texnikasi yanada takomillashgani va bu ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qilgani aniqlandi.

XULOSA: akmeologik yondashuv ingliz tili o'qituvchilarining pedagogik texnikasini rivojlantirishda samarali strategiya ekanligi isbotlandi. Bu yondashuv o'qituvchilarning kasbiy o'sishini rag'batlantirib, ularning metodik mahoratini oshirishga, talabalarga ta'sirchan va samarali ta'lim berishga yordam beradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Kalit so'zlar: akmeologiya, quizlet, kahoot, refleksiya, rolli o'yinlar, gamifikatsiya.

Iqtibos uchun: Abdusodiqova Sh. G'. Akmeologik yondashuv asosida ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik texnikani rivojlantirish. // Inter education & global study. 2025. №3 B.289-296.

АКМЕОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К РАЗВИТИЮ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕХНИКИ У ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

© Ш.Г. Абдусодикова[1]✉
[1]Навоийский государственный университет, Навоий, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматриваются вопросы развития профессионального мастерства преподавателей английского языка на основе акмеологического подхода. Акмеология, как наука, изучающая процессы личностного и профессионального становления человека, также способствует совершенствованию педагогической техники. Значение данного подхода для преподавателей английского языка анализируется через развитие их вербальной и невербальной коммуникации, организацию эффективного учебного процесса, применение современных технологий, мотивационные стратегии и методы профессионального роста.

ЦЕЛЬ: основной целью данного исследования является анализ путей развития педагогической техники преподавателей английского языка на основе акмеологического подхода и предложение эффективных методов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования были использованы следующие материалы и методы:

- анализ научных источников по акмеологии, педагогике и психологии;
- эмпирические данные, касающиеся педагогической деятельности преподавателей английского языка;
- методы наблюдения, интервью и анкетирования для сбора данных;
- экспериментальные методы анализа.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: исследования, проведенные на основе акмеологического подхода, показали, что развитие педагогической техники преподавателей английского языка зависит от следующих факторов:

- постоянное повышение профессиональной компетентности преподавателя;
- использование современных педагогических технологий и инновационных методов;
- личностное развитие и повышение самосознания;
- формирование коммуникативных и рефлексивных навыков.

Результаты исследования показали, что преподаватели, работающие на основе акмеологического подхода, демонстрируют более высокий уровень

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

педагогической техники, что способствует повышению эффективности образовательного процесса.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: доказано, что акмеологический подход является эффективной стратегией в развитии педагогической техники преподавателей английского языка. Этот подход способствует профессиональному росту преподавателей, повышает их методическое мастерство и помогает оказывать более значимое влияние на образовательный процесс.

Ключевые слова: акмеология, Quizlet, Kahoot, рефлексия, ролевые игры, геймификация.

Для цитирования: Абдусодикова Ш. Г. Акмеологический подход к развитию педагогической техники у преподавателей английского языка. // Inter education & global study. 2025. №3. С. 289-296.

THE ACMEOLOGICAL APPROACH TO DEVELOPING PEDAGOGICAL TECHNIQUES IN ENGLISH LANGUAGE TEACHERS

© Shahlo G'. Abdusodiqova[1]✉
[1]Navoi State University, Navoi, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article explores the development of English language teachers' professional skills based on the acmeological approach. Acmeology, as a science that studies the processes of personal and professional development, also contributes to improving pedagogical techniques. The importance of this approach for English language teachers is analyzed in relation to verbal and non-verbal communication, effective lesson organization, the use of modern technologies, motivation strategies, and professional growth techniques.

AIM: the main objective of this study is to analyze ways to improve English language teachers' pedagogical techniques based on the acmeological approach and propose effective methods.

MATERIALS AND METHODS: the following materials and methods were used in the study:

- analysis of scientific sources in acmeology, pedagogy, and psychology;
- empirical data on the pedagogical activities of english language teachers;
- observation, interviews, and surveys for data collection;
- experimental analysis methods.

DISCUSSION AND RESULTS: Research based on the acmeological approach has shown that the development of English language teachers' pedagogical techniques depends on the following factors:

- continuous improvement of professional competence;
- use of modern pedagogical technologies and innovative methods;
- personal development and increased self-awareness;

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

- development of communicative and reflective skills.

The research findings indicate that teachers applying the acmeological approach demonstrate higher levels of pedagogical technique, leading to increased effectiveness in the teaching process.

CONCLUSION: the acmeological approach has been proven to be an effective strategy for developing English language teachers' pedagogical techniques. This approach promotes teachers' professional growth, enhances their methodological skills, and helps them provide more impactful and effective education.

Key words: acmeology, Quizlet, Kahoot, reflection, role-playing games, gamification.

For citation: Shahlo G'. Abdusodiqova. (2025) 'The acmeological approach to developing pedagogical techniques in english language teachers', Inter education & global study, (3), pp. 289-296. (In Uzbek).

Akmeologik yondashuv – bu insonning kasbiy va shaxsiy rivojlanish jarayonlarini o‘rganadigan hamda uning eng yuqori mahorat va kamolot darajasiga erishishini ta’minlashga yo‘naltirilgan ilmiy yondashuvdir.

Akmeologiya – inson faoliyatining eng yuqori cho‘qqilariga erishish qonuniyatlarini o‘rganadigan fan bo‘lib, u pedagogika, psixologiya va kasbiy rivojlanish bilan chambarchas bog‘liq. "Akme" (yunoncha "ακμή") – bu eng yuqori nuqta, rivojlanishning cho‘qqisi degan ma’noni anglatadi.

Akmeologik yondashuvning asosiy tamoyillari:

-kasbiy va shaxsiy rivojlanish – insonning faqatgina nazariy bilimlarini oshirish emas, balki uning kasbiy mahoratini doimiy ravishda rivojlantirish;

-yuqori cho‘qqiga erishish – har bir inson o‘z sohasida eng yuqori natijalarga erishishi mumkinligini ta’kidlaydi;

-doimiy o‘z-o‘zini rivojlantirish – inson o‘zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, ustida ishlashi kerak;

-innovatsion yondashuv – yangicha fikrlash, ijodiy yondashish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;

Pedagogikada akmeologik yondashuvning ahamiyati. Ushbu yondashuv o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlab, ularga pedagogik mahorat, psixologik barqarorlik va o‘qitish texnikalarini takomillashtirish imkonini beradi. Xususan, ingliz tili o‘qituvchilari uchun bu yondashuv o‘quvchilarga ta’sirchan va samarali dars o‘tishda, innovatsion metodlarni qo‘llashda va pedagogik texnikani rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Akmeologik yondashuv orqali o‘qituvchi doimiy o‘z ustida ishlaydi, o‘z tajribasini tahlil qiladi va professional rivojlanish sari intiladi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Akmeologik yondashuv ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydigan va ularning pedagogik mahoratini mukammallashtirishga qaratilgan yondashuvdir. Bu yondashuv orqali ustozlar faqatgina

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanmay, balki o‘zining eng yuqori kasbiy darajasiga erishish, o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish va innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Akmeologik yondashuvning ingliz tili o‘qituvchilari uchun ahamiyati. Ingliz tilini o‘rgatish jarayoni nafaqat fan bo‘yicha bilimlarga, balki pedagogik mahorat, psixologik tayyorgarlik va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash qobiliyatiga ham bog‘liq. Akmeologik yondashuv quyidagi jihatlar bo‘yicha o‘qituvchilarga foyda keltiradi:

Kasbiy rivojlanish – o‘qituvchilar o‘z metodikasini doimiy ravishda takomillashtirib, eng yuqori mahorat cho‘qqisiga intiladi.

Psixologik tayyorgarlik – o‘quvchilarning ehtiyojlarini tushunish, ularga motivatsiya berish va individual yondashuvni ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

Innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish – zamonaviy ta’lim vositalari, interaktiv dars metodlari va texnologiyalarni samarali qo‘llash imkonini beradi.

Pedagogik texnika va mahoratni rivojlantirish – ovoz, imo-ishora, didaktik materiallar va boshqa o‘qitish vositalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Akmeologik yondashuv asosida ingliz tili o‘qituvchilarining pedagogik texnikasini rivojlantirish. O‘qituvchining pedagogik texnikasi uning dars o‘tish jarayonini samarali va ta’sirchan qiladigan usul va ko‘nikmalar yig‘indisidir. Akmeologik yondashuv asosida ingliz tili o‘qituvchilari quyidagi yo‘nalishlarda o‘z ustida ishlashlari lozim:

Verbal va noverbal muloqot – ovoz balandligi, ohang, tana tili, yuz ifodalari va imo-ishoralardan to‘g‘ri foydalanish.

Dars jarayonini boshqarish – vaqtni samarali taqsimlash, o‘quvchilar diqqatini jalb qilish va motivatsiya berish strategiyalarini qo‘llash.

Interaktiv va innovatsion usullardan foydalanish – texnologiyalar (Zoom, Google Classroom, Quizlet, Kahoot) va kommunikativ metodlarni qo‘llash.

O‘z ustida ishlash va refleksiya – o‘qituvchi o‘zining kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilib, doimiy o‘zini rivojlantirishga intilishi lozim.

Akmeologik yondashuv asosida ingliz tili o‘qituvchilarining rivojlanish bosqichlari. Akmeologiya tamoyillariga ko‘ra, har bir o‘qituvchi kasbiy rivojlanishning quyidagi bosqichlaridan o‘tishi kerak:

1. Boshlang‘ich bosqich – pedagogika asoslarini o‘rganish, dars rejalashtirish va metodikani shakllantirish.

2.Tajribali o‘qituvchi bosqichi – darslarni samarali tashkil etish, o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos metodlarni qo‘llash.

3. Ustoz-mahorat bosqichi – innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, o‘z metodikasi va tajribasini boshqalar bilan baham ko‘rish.

4.Ekspert va mentor bosqichi – kasbiy sohada yetakchi darajaga chiqish, ilmiy va metodik tadqiqotlar olib borish, yosh o‘qituvchilarga murabbiylik qilish.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Ingliz tili o‘qituvchilari uchun akmeologik rivojlanish usullari.Akmeologik rivojlanishga erishish uchun o‘qituvchilar quyidagi usullardan foydalanishlari mumkin:

Kasbiy seminar va treninglarda qatnashish – yangi metodika va yondashuvlarni o‘rganish.

O‘z ustida ishlash va o‘z-o‘zini tahlil qilish – dars yozuvlarini ko‘rib chiqish, mustaqil baholash va rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish.

Mentorlik dasturlarida ishtirok etish – tajribali ustozlardan o‘rganish va o‘z bilimini yangi o‘qituvchilar bilan bo‘lishish.

Yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish – zamonaviy onlayn platformalar va interaktiv vositalardan foydalanish.

Ilmiy va metodik tadqiqotlar olib borish – dars sifatini oshirish uchun innovatsion usullarni sinovdan o‘tkazish va tahlil qilish.

Akmeologik yondashuv ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning pedagogik texnikalarini takomillashtirishga yordam beradi. Bu yondashuv orqali o‘qituvchilar quyidagi muhim pedagogik texnikalarni o‘zlashtirishi mumkin:

1.Verbal va noverbal kommunikatsiya texnikalari:

Ta’sirchan nutq va ovoz boshqaruvi

Ovoz balandligi, ohang va talaffuzni to‘g‘ri boshqarish.

Ta’sirchan va ravon gapirish orqali o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish.

Suhbat davomida intonatsiyadan to‘g‘ri foydalanish.

Jismoniy ifoda va tana tili

Qo‘l harakatlari, yuz ifodalari va imo-ishoralardan foydalangan holda tushuntirish.

Tana tilini tabiiy va ishonchli ishlatish.

Ko‘z bilan aloqa o‘rnatish orqali o‘quvchilar e’tiborini ushlab turish.

2. Dars jarayonini samarali tashkil etish texnikalari:

Interaktiv dars usullari

"Role-play" (rolli o‘yinlar) – o‘quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga jalb qilish.

"Think-Pair-Share" (fikr yurit, juftlikda bo‘lish, baham ko‘r) – o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish.

Debatlar va muhokamalar – tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun muhim usul.

O‘quvchilar motivatsiyasini oshirish

Rag‘batlantirish va ijobiy fikr bildirish.

Gamifikatsiya (o‘yin elementlarini darsga kiritish) orqali o‘quv jarayonini qiziqarli qilish.

O‘quvchilarga shaxsiy yondashuv va ularning ehtiyojlariga mos metodlarni tanlash.

Vaqtni boshqarish texnikasi

Dars vaqtini to‘g‘ri taqsimlash va har bir bosqichni rejalashtirish.

"Pomodoro" yoki "Time Blocking" usullaridan foydalanish.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Tezkor faoliyatlar orqali o‘quvchilarning faolligini oshirish.

3. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish texnikasi

Onlayn platformalar va ilovalar

Kahoot, Quizlet, Mentimeter – interaktiv test va so‘rovnomalar.

Padlet, Google Classroom, Edmodo – onlayn hamkorlik va topshiriqlarni boshqarish.

AI (Sun’iy intellekt) vositalari – yozma topshiriqlar va talaffuzni rivojlantirish uchun ChatGPT, Grammarly kabi vositalar.

Audiovizual materiallardan foydalanish

Ingliz tilida filmlar, podkastlar va video darslarni dars jarayoniga kiritish.

Interaktiv taqdimotlar tayyorlash va ta’limni vizuallashtirish.

Virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR) texnologiyalaridan foydalanish.

4. O‘quvchilarning ehtiyojlariga mos yondashish texnikalari

Differensial ta’lim texnikasi

O‘quvchilarning bilim darajasiga qarab individual yondashish.

Kuchli va zaif o‘quvchilar uchun alohida topshiriqlar tayyorlash.

"Flipped Classroom" (teskari sinf) usuli orqali o‘quvchilarga mustaqil o‘rganish imkonini berish.

O‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash va refleksiya qilish texnikasi

"Exit Ticket" (chiqish chiptasi) – dars yakunida qisqa xulosa yozish orqali o‘quvchilar fikrlarini bilish.

"Self-Assessment" (o‘z-o‘zini baholash) – o‘quvchilarga o‘z kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini berish.

Portfoliolar orqali o‘quvchilarning o‘sishini kuzatish.

5. O‘z ustida ishlash va kasbiy rivojlanish texnikalari

Refleksiya va o‘z-o‘zini baholash

O‘z darslarini video yoki audio yozib olib, tahlil qilish.

Kasbiy o‘sish uchun kuchli va zaif tomonlarini aniqlash.

Mentor yoki murabbiy bilan fikr almashish.

Trening va seminarlar

Kasbiy malaka oshirish kurslari va konferensiyalarda ishtirok etish.

Boshqa o‘qituvchilar bilan tajriba almashish.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘rganish va amaliyotga joriy qilish.

Ingliz tili o‘qituvchilari uchun akmeologik yondashuv ularning pedagogik texnikasini rivojlantirish, innovatsion ta’lim usullarini qo‘llash va o‘z kasbiy faoliyatining eng yuqori cho‘qqisiga erishish imkonini yaratadi. Bu yondashuv ustozlarni o‘z ustida ishlashga, dars sifati va o‘quvchilar bilan muloqotni yaxshilashga, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga undaydi. Akmeologik yondashuv asosida ingliz tili o‘qituvchilari o‘z pedagogik texnikalarini doimiy ravishda rivojlantirishi mumkin. Verbal va noverbal kommunikatsiya, dars tashkil etish, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

individual yondashuv va refleksiya kabi texnikalarni o‘zlashtirish orqali o‘qituvchilar yanada samarali va ta’sirchan dars o‘tishlari mumkin.Bu yondashuv nafaqat o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshiradi, balki o‘quvchilarni ingliz tilini tezroq va samarali o‘rganishiga ham yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. G‘ulomov U., Xasanboyeva O. – Pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta’lim metodlari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2015.
2. Qo‘chqarov N., Isaqov M. – Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. To‘rayev A. – Kasbiy pedagogika va pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2017.
4. Yuldashev M., Axmedov M. – Pedagogik kompetensiya va innovatsion ta’lim. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2020.
5. Karimov U., Xolmo‘minova G. – Ingliz tilini o‘qitishda pedagogik metodlar. – Toshkent: Sharq Nashriyoti, 2021.
6. Mahkamova D. – Pedagogik mahorat va pedagogik psixologiya. – Toshkent: Ilmiy nashr, 2018.
7. Sattorov U., Qayumov I. – Oliy ta’limda innovatsion metodlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Abdusodiqova Shahlo G'ayratovna**, tayanch doktarant, [**Абдусодикова Шахло Гайратовна,** докторант], [**Shahlo G’. Abdusodiqova**, doctoral candidate]; manzil: O‘zbekiston, Navoiy sh., Ibn Sino ko'chasi, 45-uy [адрес: Узбекистан, ул. Ибн Сино, 45, г. Навои], [address: Uzbekistan, 45, Ibn Sina st., Navoi city].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

RANGTASVIR DARSLARIDA “MUVAFFAQIYAT QOZONISH” MUHITINI YARATISH VA “RASSOM HUSNIXATI” USULLARI INTEGRATSIYASI

© R.Z. Xayrov[1]✉

[1] Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu ilmiy maqolada rangtasvir darslarida “Muvaffaqiyat qozonish” holatini yaratish va “Rassom husnixati” usullarini integratsiya qilish jarayoni tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida san’atga oid fanlarni o‘qitishda ijodiy muhit yaratish, talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirish va ularning ijodiy yondashuvlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada rangtasvir darslarida innovatsion yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar va metodik usullar ko‘rib chiqiladi.

MAQSAD: rangtasvir darslarida “muvaffaqiyat qozonish” muhitini shakllantirish va “rassom husnixati” usullarining integratsiyasini o‘rganish. Tadqiqotda talabalarning badiiy qobiliyatlarini rivojlantirish, tasviriy san’at metodologiyasi va pedagogik yondashuvlar orqali rangtasvir darslarining samaradorligini oshirish yo‘llari tahlil qilinadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: badiiy ifoda tahlili – rangtasvir jarayonida kompozitsiya va koloristik muvozanatni aniqlash; ijodiy muhitni shakllantirish – talabalarning estetik didini rivojlantirish va ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish; interfaol metodlar – zamonaviy texnologiyalar, vizual san’at usullari va tajribaviy yondashuvlardan foydalanish; psixologik-motivatsion omillar – talabalarni ijodiy izlanishga undovchi pedagogik yondashuvlarni qo‘llash.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalariga ko‘ra, “Muvaffaqiyat qozonish” muhitini yaratish orqali talabalarning ishonchi oshib, ularning san’atga bo‘lgan qiziqishi mustahkamlanadi. “Rassom husnixati” usullarining qo‘llanilishi esa rangtasvir texnikalarini yanada mukammallashtirishga xizmat qiladi.

XULOSA: rangtasvir darslarida muvaffaqiyatli o‘qitish uchun ijodiy muhit yaratish va “rassom husnixati” usullarini integratsiya qilish zarur. Tadqiqot asosida badiiy ta’lim jarayonini samarali tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: rangtasvir, ijodiy muhit, badiiy tafakkur, estetik did, pedagogik texnologiya, rassom husnixati, innovatsion yondashuv.

Iqtibos uchun: Xayrov R.Z. Rangtasvir darslarida “Muvaffaqiyat qozonish” muhitini yaratish va “rassom husnixati” usullari integratsiyasi // Inter education & global study. 2025. №3. B.297-305.

«СИТУАЦИИ УСПЕХА» НА УРОКАХ ЖИВОПИСИ И ИНТЕГРАЦИЯ МЕТОДОВ «ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ПОЧЕРК»

© Р.З. Хайров[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

[1] Ташкентский государственный педагогический университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной научной статье рассматривается процесс создания атмосферы «Ситуации успеха» на уроках живописи и интеграции методов «Художественный почерк». В современном образовательном процессе важно формировать творческую среду, развивать художественное мышление студентов и способствовать их креативному подходу. В статье анализируются инновационные методы, педагогические технологии и методические подходы в преподавании живописи.

ЦЕЛЬ: исследование создания атмосферы «Ситуации успеха» на уроках живописи и интеграции методов «Художественный почерк». Анализируется развитие художественных способностей студентов, повышение эффективности уроков живописи через методологические и педагогические подходы.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: анализ художественного выражения – определение баланса композиции и колористического восприятия в живописи;

формирование творческой среды – развитие эстетического вкуса студентов и расширение их художественных возможностей; интерактивные методы – использование современных технологий, визуальных художественных приемов и экспериментальных подходов; психолого-мотивационные факторы – педагогические подходы, побуждающие студентов к творческому поиску.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: Результаты исследования показывают, что создание атмосферы «Ситуации успеха» повышает уверенность студентов и укрепляет их интерес к искусству. Применение методов «Художественный почерк» способствует совершенствованию техники живописи.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: для успешного преподавания живописи необходимо создавать творческую среду и интегрировать методы «Художественный почерк». На основе исследования разработаны рекомендации по эффективной организации художественного образования.

Ключевые слова: живопись, творческая среда, художественное мышление, эстетический вкус, педагогическая технология, художественное каллиграфическое письмо, инновационный подход.

Для цитирования: Хайров Р.З. Создание «Ситуации успеха» на уроках живописи и интеграция методов «Художественный почерк» // Inter education & global study. 2025. №3. С.297-305.

CREATING A "SUCCESS ACHIEVEMENT" ENVIRONMENT IN PAINTING LESSONS AND INTEGRATING "ARTISTIC CALLIGRAPHY" METHODS

© Rasim Z. Khayrov[1]✉
[1] Tashkent State Pedagogical University, Tashkent, Uzbekistan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Annotation

INTRODUCTION: this scientific article explores the process of creating "Success Situation" in environment in painting lessons and integrating methods of "Artistic Handwriting.". In modern education, fostering a creative atmosphere, developing students' artistic thinking, and encouraging an innovative approach to painting are essential. This paper analyzes innovative teaching methods, pedagogical technologies, and methodological approaches to improving painting lessons.

AIM: to study the creation of a "Success Situation" environment in painting lessons and the integration of "Artistic Handwriting" methods. The research examines ways to enhance students' artistic abilities and increase the effectiveness of painting lessons through methodological and pedagogical strategies.

MATERIALS AND METHODS: artistic expression analysis – determining balance in composition and color harmony in painting; creative environment formation – developing students' aesthetic taste and expanding their artistic potential; interactive methods – utilizing modern technologies, visual art techniques, and experimental approaches; psychological-motivational factors – pedagogical approaches that encourage students to explore creativity.

DISCUSSION AND RESULTS: the study's findings show that creating a "Success Situation"environment boosts students' confidence and strengthens their interest in art. Applying "Artistic Handwriting" methods helps refine painting techniques.

CONCLUSION: successful painting education requires a creative environment and the integration of "Artistic Handwriting" methods. Based on the research, recommendations have been developed for improving artistic education.

Keywords: painting, creative environment, artistic thinking, aesthetic taste, pedagogical technology, artistic calligraphy, innovative approach.

For citation: Rasim Z. Khayrov Creating a "success achievement" environment in painting lessons and integrating "artistic calligraphy" methods // Inter education & global study. 2025. №3. P.297-305. (In Uzb).

Hozirgi davrdagi ta’lim jarayonining ustuvor vazifalaridan biri - talabalarga faqat nazariy bilim berish emas, balki ularda mustahkam o‘quv motivatsiyasini shakllantira oladigan yuksak malakali o‘qituvchilarni tayyorlashdan iborat. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlash masalasining ahamiyati O‘zbekiston Respublikasining davlat ta’lim siyosatidagi asosiy yo‘nalishlar bilan belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 2 noyabrdagi № 633-sonli “Madaniyat va san’at muassasalarini malakali kadrlar bilan ta’minlash hamda ularga tizimli davlat ko‘magini kuchaytirish to‘g‘risida”gi qarorida madaniyat va san’at sohasida o‘qituvchi kadrlar tayyorlashning ahamiyati va ularning kasbiy o‘sishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish muhimligi alohida ta’kidlangan [1, b. 1].

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Tasviriy san'at sohasida, hususan rangtasvir mashg'ulotlarida ijodiy yondashuv katta ahamiyatga ega bo'lib, u o'qituvchi va talabalarning shaxsiy individualligini namoyon etishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, rangtasvir mashg'ulotlarida foydalaniladigan "Muvaffaqiyat qozonish" holati va "Rassom husnixati" usullari muhim ahamiyat kasb etadi [9, B.627]. Bu usullar nimani anglatadi?! Qisqacha izoh beradigan bo'lsak, "Muvaffaqiyat qozonish" ijobiy psixologik muhitni shakllantirib, talabalarning o'ziga ishonchi va yangi yutuqlarga intilishini rag'batlantirishga yordam beradi, "Rassom husnixati" esa nafaqat shaxsiy uslubni, balki bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy xususiyatlari, kasbiy malakasi va ijodiy tafakkurini ham aks ettiradi.

Ushbu strategik hujjatlar ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik usullarni joriy qilish zarurligini ta'kidlaydi, bu esa bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirish va ularning samarali kasbiy faoliyatga shayligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot maqsadlariga erishish uchun ham nazariy, ham tajribaviy usullar qo'llanildi. Nazariy tahlil pedagogika, ijodiy psixologiya va tasviriy san'atni o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni o'rganishni o'z ichiga oldi. Bu asosiy tushunchalarni aniqlash imkoniyatini yaratdi, masalan, rangtasvir mashg'ulotlarida qo'llaniladigan o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik usullari [6, B.102].

"Muvaffaqiyat qozonish" holatini shakllantirish - tasviriy san'at mashg'ulotlarida talabalarni ijodiy jarayonda o'zlarini ishonchli va rag'batlantirilgan holda his etishlariga yordam beradigan maxsus yaratilgan shart-sharoitlardir. Bu jarayon quyidagilarni o'z ichiga oladi: talabaning imkoniyatlariga mos vazifalarni tanlash, emotsional qo'llab-quvvatlash, individual yondashuv [5, B.14], topshiriqlarni asta-sekin murakkablashtirish va ijodiy jarayonning o'ziga alohida ahamiyat qaratish. "Muvaffaqiyat qozonish" holatini shakllantirish uchun talabalar bajara oladigan vazifalarni taklif qilish, erkin tanlov imkonini yaratish, kreativ fikrlashni qo'llab-quvvatlash, talabalarning yutuqlarini namoyish etish va ishonch muhitini shakllantirish muhim. Bunday yondashuv rangtasvir san'atiga qiziqishni kuchaytiradi, talabalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ijodiy rivojlanishiga yordam beradi [7, B.120].

"Rassom husnixati" - bu har bir talabaning noyob individual tasvirlash uslubi bo'lib, u yozish texnikasida, koloristikada, kompozitsiya usullarida, mavzusida hamda emotsional ifodada aks etadi. Rassomlarning tasvirlash uslublarini o'rganish bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda katta ahamiyatga ega, chunki bu badiiy didni rivojlantirish, shaxsiy uslubni shakllantirish va kasbiy-metodik mahoratini oshirishga yordam beradi. "Rassom husnixati"ni rivojlantirish uchun quyidagi usullar qo'llaniladi: jahon rangtasvir durdonalarini nusxalash, turli rangtasvir materiallari bilan tajribalar o'tkazish, naturadan rasm chizish va erkin ijod qilish. Bu metodlar talabalarga badiiy yondashuvlarning xilma-xilligini tushunish va o'z shaxsiy individualligini ochib berishga ko'maklashadi [9, B.627]. "Rassom husnixati" usuli bo'yicha amaliy topshiriqlarni ko'rib chiqaylik:

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3



Rembrandt van Reyn.
“Qizil kiymli inson portreti”
1654 y.



Anri Matiss
“Ispaniyalik ayol” 1909 y.



Rahim Ahmedov
“Cho‘pon bola”
1952 y.

1-rasm. Taniqli rassomlarning portret ishlash uslublari.

1. Shaxsiy tasvirlash uslubini topish: Tanlangan mashhur rassomlardan (Leonardo da Vinchi, Rembrandt van Reyn, Gyustav Kurbe, Van Gog, Rahim Ahmedov, Bahodir Jalolov va boshqalar) asarlarini tahlil qiling. Ularning uslubiy xususiyatlarini aniqlab, shunga asoslangan holda o‘z uslubingizni shakllantiring. Keyin o‘z ijodiy ishlaringizni shu uslubda tasvirlang va muxokamaga tayyorlaning *(1-rasm).*

“Rassom husnixati” usulidan foydalanib topshiriq bajaring: Kichik hajmdagi portret janrida kompozitsiya ishlab chiqing va uni shaxsiy “Rassom husnixati”ga asoslangan holda bajaring. Rassom sifatida o‘z uslubingizni namoyon qiling hamda ishingizga konseptual sharh tayyorlang.

Shunday qilib, “Rassom husnixati” usuli va “Muvaffaqiyat qozonish” holatini yaratish usullari - ta’lim jarayonida ijodiy individuallikni shakllantirish va kasbiy-metodik tayyorgarlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vositalardan hisoblanadi. Ular nafaqat talabalarning motivatsiyasini kuchaytiradi, balki ularning shaxsiy va badiiy iqtidorlarini ochib berish uchun imkoniyat yaratadi.

Tadqiqotning amaliy qismida ta’lim jarayonini kuzatish, o‘quv dasturlarini tahlil qilish va talabalar hamda o‘qituvchilar o‘rtasida anketa so‘rovnomalarini o‘tkazish orqali rangtasvir mashg‘ulotlarida “Rassom husnixati” usuli va “Muvaffaqiyat qozonish” holatini shakllantirish metodlarini joriy etish samaradorligi baholandi [11].

Tadqiqot tahlili shuni ko‘rsatdiki, bu usullarni muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun quyidagi omillar katta ahamiyatga ega: qulay o‘quv muhiti, shaxsiy yondashuv va ijodiy fikrlashni rivojlantirish [11, B.14]. Olingan miqdoriy ma’lumotlar esa “Muvaffaqiyat qozonish” holatini shakllantirish talabalarning o‘ziga ishonchini oshirishini, “Rassom husnixati” usuli esa ularning badiiy ifodalanish imkoniyatlarini va kasbiy-metodik salohiyatini mustahkamlashini ko‘rsatdi. Nazariy va amaliy metodlarni uyg‘unlashtirgan holda qo‘llash bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlash sifatiga ushbu pedagogik usullarning sezilarli ta’sirini tasdiqladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Natijalar (Results). Toshkent davlat pedagogika universitetida 2024-2025 o‘quv yilining kuzgi semestrida “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo‘nalishi bo‘yicha 1-2-3 kurs talabalari ishtirokida rangtasvir darslarida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari “Muvaffaqiyat qozonish” holati va “Rassom husnixati” usullarini ta’lim jarayonida tajriba-sinovdan o‘tkazdik.

Tajriba rangtasvir mashg‘ulotlarida tashkil etilib, unda 104 nafar talabalar ishtirok etdi. Tajriba boshida talabalarning ijodiy faolligi, motivatsiyasi va o‘z-o‘ziga ishonch darajasi o‘rtacha 66% ni tashkil etgan bo‘lsa, tajriba yakunida bu ko‘rsatkich 86% ga yetdi. Bu esa rangtasvir darslarida “Muvaffaqiyat qozonish” usulini qo‘llash samarali o‘quv muhitini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi (1-jadvalga qarang).

Dars jarayonida talabalarga ular bajara oladigan topshiriqlar berish, muntazam rag‘batlantirish, fikr almashish hamda auditoriyada kichik ko‘rgazmalar tashkil etish kabi metodlar qo‘llanildi. Natijada, talabalarning ijodiy tashabbuskorligi, mustaqil tafakkur qilish qobiliyati va amaliy ko‘nikmalari sezilarli darajada oshdi.

Shuningdek, rangtasvir mashg‘ulotlariga “Rassom husnixati” usulini joriy etish talabalarning akademik bilimlarini mustahkamlash va shaxsiy ijodiy uslubini rivojlantirishda muhim o‘rin tutdi. Ular ustozlar asarlarini tahlil qilish, mualliflik uslubini shakllantirish bo‘yicha amaliy topshiriqlar bajarish va o‘z yutuqlarini baholash orqali shaxsiy ijodiy yo‘nalishlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

1-jadval

№	Muddati	Soni	Metod va usullar	Natija
1	Tajriba boshida	104	An’anaviy usullar	Rangtasvirdan kompetensiya darajasi past (natijalar 66%)
2.	Tajriba-sinov jarayonida	104	“Muvaffaqiyat qozonish” holati va “Rassom husnixati” usullari	Faollik, ijodiy yondashuv va individual uslubda ishlashdi, motivatsiya oshdi.
3.	Tajriba yakunida	104	Integratsiyalangan metodlar	Kasbiy tayyorgarlik **86%**ga yetdi, ijodiy mustaqillik va o‘ziga ishonch kuchaydi

Jami olingan natijalar rangtasvir darslarida qo‘llangan mazkur metodlarning samaradorligini tasdiqlab, ularni yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Individual badiiy uslubni shakllantirish bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirib, ularga o‘zlarini nafaqat o‘qituvchi, balki ijodkor shaxs sifatida anglashga yordam beradi. Bu esa talabalarning o‘zini ifoda etish qobiliyatini oshirib, ijodiy izlanishga ilhomlantiradi [5, B.13-15].

Olingan ma’lumotlarni tahlili shuni ko‘rsatdiki, “Muvaffaqiyat qozonish” holatini shakllantirish va “Rassom husnixati” usullaridan foydalanish bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlashda yuqori natijadorlikka ega. Ushbu yondashuvlar kasbiy kompetensiyalarni kompleks ravishda rivojlantirib, nafaqat texnik va metodik mahoratni, balki ijodiy fikrlash, ishonch, mustaqil qaror qabul qilish va o‘zini ifoda etish kabi muhim shaxsiy xislatlarni ham mustahkamlaydi. “Muvaffaqiyat qozonish” holatini ta’lim jarayoniga tatbiq etish talabalarni qo‘llab-quvvatlash va ularning o‘z qobiliyatlariga ishonchini

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

oshirishga yo‘naltirilgan psixologik jihatdan qulay muhit yaratishga xizmat qiladi. Bu esa talabalarda motivatsiyani kuchaytirib, ta’lim va ijodiy jarayonlarda faollikni oshiradi, shuningdek, tanqidiy tahlil qilish va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirib, bo‘lajak pedagoglarning professional rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. “Rassom husnixati” usulini o‘quv jarayoniga joriy etish bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining ijodiy individualligini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Talabalar mustaqil ijodiy izlanish, estetik dunyoqarashni chuqurroq anglash va kelajakda o‘z shogirdlarini ruhlantirish malakasini rivojlantiradi. Ular o‘z ichki olamini aks ettiruvchi mualliflik asarlari orqali o‘z ijodiy salohiyatini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [6, B.58].

Ushbu yondashuvlarni samarali tatbiq etish o‘qituvchidan kasbiy egiluvchanlik, yangilikka ochiqlik va shaxsiy namuna orqali yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishni talab qiladi. Bu esa talabalarda nafaqat kasbiy, balki muvaffaqiyatli pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lgan shaxsiy fazilatlarni ham rivojlantiradi.

“Muvaffaqiyat qozonish” holatini yaratish va “Rassom husnixati” usullarini samarali amalga oshirish quyidagi shartlar ta’minlanganda muvaffaqiyatli bo‘ladi:

1. Ijodiy ta’lim muhitini shakllantirish, bu yerda har bir talaba o‘quv jarayonining muhim ishtirokchisi sifatida o‘zini his qiladi.

2. Shaxsiy yondashuvni qo‘llash - har bir talabaning individual xususiyatlari, tayyorgarlik darajasi va qiziqishlarini inobatga olish.

3. Doimiy pedagogik qo‘llab-quvvatlash - bu jarayon talabalarning ijodiy yutuqlarini rag‘batlantirish, konstruktiv tanqid va qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga oladi.

4. O‘qituvchining shaxsiy professional uslubini namoyon etishi - bu talabalarni o‘zlarining noyob uslublarini topishga va rivojlantirishga ilhomlantiradi.

Shu tariqa, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Muvaffaqiyat qozonish” holatini yaratish va “Rassom husnixati” usullarini uyg‘un holda tatbiq etish bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirish bilan birga, ularning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu pedagogik yondashuvlar talabalarda faqat kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirib qolmasdan, balki ijodiy tafakkur, o‘ziga ishonch va kasbiy mahoratni namoyon etishga tayyorgarlikni ham mustahkamlaydi [6, b. 118].

Hozirgi zamon pedagogik ta’limining eng muhim vazifasi nafaqat bo‘lajak o‘qituvchilarni tasviriy san’atning texnik jihatlariga o‘rgatish, balki ularning ijodiy salohiyatini ochib berish uchun shart-sharoit yaratishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, ushbu metodikalar nafaqat o‘qitish, balki yangi ijodiy shaxsiyatlar avlodini tarbiyalashga qodir bo‘lgan, yuqori malakali, ilhomlantiruvchi va o‘ziga ishonchli pedagoglarni tayyorlash uchun samarali vosita hisoblanadi [4].

“Muvaffaqiyat qozonish” holatini shakllantirish va “Rassom husnixati” usullarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar talabalarning motivatsiyasini oshirish, ijodiy tafakkurini kengaytirish, o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va badiiy ifoda imkoniyatlarini rivojlantirishga ko‘maklashadi, bu esa samarali pedagogik faoliyat uchun muhim ahamiyatga ega.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Toshkent davlat pedagogika universitetida o‘tkazilgan tajribaviy tadqiqot “Muvaffaqiyat qozonish” holatini yaratish va “Rassom husnixati” usullarini rangtasvir mashg‘ulotlariga joriy etish talabalarning motivatsiyasi, o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchi va mustaqil ijodiy faoliyatini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi. Ushbu yondashuvlar bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy individualligini ochib berishga yordam berib, ularning kasbiy-metodik tayyorgarligini mustahkamlaydi hamda muvaffaqiyatli pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lgan shaxsiy sifatlarni shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari bu metodik yondashuvlarni yanada rivojlantirish va ta’lim jarayonida innovatsion usullardan keng foydalanish zarurligini tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.11.2022 yildagi 633-sonli qarori “Madaniyat va san’at muassasalarini malakali mutaxassislar bilan ta’minlash va ularni davlat tomonidan tizimli qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” // https://lex.uz/docs/6266660
2. Madaniy va badiiy ta’lim haqida bilishingiz kerak bo‘lgan jihatlar. - 2024. UNESCO // https://www.unesco.org/en/articles/what-you-need-know-about-culture-and-arts-education
3. Hasanov R. Maktabda tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. – T.: Fan, 2004. - 250 b.
4. Ермакова Л.А. Интегративный подход к обучению: прошлое и настоящее // Современная педагогика. 2016. № 7 [Электронный ресурс]. URL: https://pedagogika.snauka.ru/2016/07/5815 (дата обращения: 12.12.2024).
5. Граб М.В. Индивидуальный подход в обучении студентов вузов изобразительному искусству // Вестник магистратуры. № 11 (50). Т. 3. 2015. –С. 13-15.
6. Xayrov R.Z. Tasviriy san’at fanini o’qitish metodikasi. Darslik. -T.: Metodist nashriyoti. 2023. -276 bet. https://unilibrary.uz/literature/421862
7. Xayrov R.Z. Dekorativ rangtasvir. Darslik. -T.: Ilm ziyo zakovat. 2022. -171 bet. https://unilibrary.uz/literature/562831
8. Khayrov R.Z. Training Future Fine Arts Teachers In The Context Of Digitalization. American Journal of Social and Humanitarian Research / ISSN: 2690-9626/ Vol. 5 No. 12 (2024): December/ - 528-537 p.https://www.globalresearchnetwork.us/index.php/ajshr/article/view/3149
9. Хайров Р.З. Создание ситуации успеха при индивидуальном подходе к ученикам на уроках изобразительного искусства. “НамДУ илмий ахборотномаси-Научный вестник НамГУ ОАК /-Наманган. 2-сон 2022 йил. - 626-630 б.
10. Хайров Р.З. Совершенствование подготовки будущих педагогов изобразительного искусства к обучению живописи на основе индивидуального подхода. “ГулДУ ахборотномаси-Вестник ГулГУ ОАК /-Гулистон. 3-сон (95) 2022. –20-24-б.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

11. Khayrov Rasim, Inoyatov Odil, Nuralieva Zukhra. Application of educational technologies in improving professional and methodological training of future fine arts teachers. CAHIERS MAGELLANES-NS. Vol. 6 No. 2 (2024) https://magellanes.com/index.php/CMN/article/view/1033 \

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li**, mustaqil tadqiqotchi [**Хайров Расим Золимхонович**, независимый исследователь.], [**Rasim Z. Khayrov**, an independent researcher]; manzil: O'zbekiston, 100183, Toshkent viloyati, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor xiyoboni, 27**.** [адрес: Узбекистан, 100183, Ташкентская область, город Ташкент, Чиланзарский район, проспект Бунёдкор, 27.], [address: Uzbekistan, 100183, Tashkent region, Tashkent city, Chilonzor district, Bunyodkor Avenue, 27].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

O‘ZBEKISTONNING SIYOSIY IMIJINI OSHIRISHDA MADANIY DIPLOMATIYANING O‘RNI

© M.M. Dovidxonov[1]✉
[1]O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu ilmiy maqolada O‘zbekistonning siyosiy imijini oshirishda madaniy diplomatiyaning roli va uning xalqaro aloqalar tizimidagi ahamiyati o‘rganiladi. Bugungi globallashuv sharoitida madaniy diplomatiya davlatlarning yumshoq kuch (soft power) strategiyasini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston milliy madaniyatining boy merosi, san’ati, adabiyoti va an’anaviy qadriyatlari orqali xalqaro maydonda o‘z nufuzini mustahkamlash imkoniyatiga ega. Maqolada madaniy diplomatiya vositalari, ularning siyosiy imij shakllantirishdagi o‘rni va samaradorligi tahlil qilinadi.

MAQSAD: O‘zbekistonning xalqaro maydondagi siyosiy imijini shakllantirish va mustahkamlashda madaniy diplomatiyaning o‘rnini o‘rganish. Tadqiqot doirasida madaniy diplomatiyaning asosiy vositalari, ularning siyosiy jarayonlarga ta’siri, xalqaro hamkorlikni mustahkamlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekiston madaniy merosini diplomatik vosita sifatida samarali qo‘llash bo‘yicha innovatsion yondashuvlar tavsiya etiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: O‘zbekistonning siyosiy imijini shakllantirishda madaniy diplomatiyaning asosiy mexanizmlari va texnologiyalari tahlil qilinadi. O‘zbekistonning tarixiy obidalari, xalqaro festivallar, milliy san’at va adabiyot orqali xalqaro maydonda tanitish. Xorijiy universitetlar bilan hamkorlik, akademik almashinuv dasturlari va O‘zbekistonni ilm-fan markazi sifatida targ‘ib qilish. O‘zbekistonning madaniy va tarixiy boyliklarini ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar hamda xalqaro nashrlar orqali yoritish. Xalqaro sport tadbirlari, sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirish va O‘zbekistonning turistik jozibasini oshirish.

MUHOKOMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, madaniy diplomatiya O‘zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Xalqaro madaniy tadbirlar, festival va ko‘rgazmalar, milliy san’at va madaniyat targ‘iboti orqali mamlakatning nufuzini oshirishga erishish mumkin. O‘zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosi va strategik geografik joylashuvi davlatning yumshoq kuch strategiyasida ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilishi lozim.

XULOSA: tadqiqot natijalariga asoslanib, O‘zbekistonning xalqaro imijini yanada oshirish uchun madaniy diplomatiyaning samarali vositalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Xususan, xalqaro madaniy hamkorlikni kengaytirish, turizm va sport tadbirlarini

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

rivojlantirish, raqamli media texnologiyalaridan foydalangan holda O‘zbekiston madaniyatini jahon hamjamiyatiga taqdim etish muhim strategik yo‘nalishlar sifatida ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: madaniy diplomatiya, siyosiy imij, xalqaro hamkorlik, O‘zbekiston madaniy merosi, yumshoq kuch, milliy brending, turizm diplomatiyasi, san’at diplomatiyasi.

Iqtibos uchun: Dovidxonov M.M. O‘zbekistonning siyosiy imijini oshirishda madaniy diplomatiyaning o‘rni // Inter education & global study. 2025. №3. B.306-322.

РОЛЬ КУЛЬТУРНОЙ ДИПЛОМАТИИ В ПОВЫШЕНИИ ПОЛИТИЧЕСКОГО ИМИДЖА УЗБЕКИСТАНА

© М.М. Давидхонов[1]✉
[1]Узбекский государственный институт искусств и культуры, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной научной статье исследуется роль культурной дипломатии в повышении политического имиджа Узбекистана и ее значение в системе международных отношений. В условиях глобализации культурная дипломатия играет важную роль в формировании стратегии «мягкой силы» (soft power) государств. Богатое культурное наследие Узбекистана, его искусство, литература и традиционные ценности способствуют укреплению международного авторитета страны. В статье анализируются инструменты культурной дипломатии, их роль в формировании политического имиджа и их эффективность.

ЦЕЛЬ: изучить роль культурной дипломатии в формировании и укреплении международного политического имиджа Узбекистана. В рамках исследования анализируются основные инструменты культурной дипломатии, их влияние на политические процессы, а также их значение в укреплении международного сотрудничества. Кроме того, предлагаются инновационные подходы к эффективному использованию культурного наследия Узбекистана в дипломатических целях.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: анализируются основные механизмы и технологии культурной дипломатии, способствующие формированию политического имиджа Узбекистана, включая: Культурное наследие и искусство – популяризация Узбекистана на международной арене через исторические памятники, международные фестивали, национальное искусство и литературу. Образовательная и научная дипломатия **–** сотрудничество с зарубежными университетами, академические программы обмена и продвижение Узбекистана как научного центра. Медиа- и информационная дипломатия – распространение информации о культурных и исторических богатствах Узбекистана через средства массовой информации, социальные сети и международные издания.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Туристическая и спортивная дипломатия – проведение международных спортивных мероприятий, развитие туристической инфраструктуры и повышение туристической привлекательности Узбекистана.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показывают, что культурная дипломатия играет важную роль в формировании позитивного международного имиджа Узбекистана. Международные культурные мероприятия, фестивали и выставки, а также продвижение национального искусства и культуры способствуют росту авторитета страны. Богатое историко-культурное наследие и стратегическое географическое положение Узбекистана следует рассматривать как один из приоритетных направлений стратегии «мягкой силы» государства.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: на основе полученных результатов рекомендуется использовать эффективные инструменты культурной дипломатии для дальнейшего повышения международного имиджа Узбекистана. В частности, целесообразно расширять международное культурное сотрудничество, развивать туристические и спортивные мероприятия, а также использовать цифровые медиа-технологии для продвижения культурного наследия Узбекистана на мировой арене.

Ключевые слова: культурная дипломатия, политический имидж, международное сотрудничество, культурное наследие Узбекистана, мягкая сила, национальный брендинг, туристическая дипломатия, дипломатия искусства.

Для цитирования: Давидхонов М.М. Роль культурной дипломатии в повышении политического имиджа Узбекистана // Inter education & global study. 2025. №3. С. 306-322.

THE ROLE OF CULTURAL DIPLOMACY IN ENHANCING UZBEKISTAN'S POLITICAL IMAGE

© Mahmudxon M. Davidxonov[1]✉
[1]Uzbek State Institute of Arts and Culture, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this scientific article examines the role of cultural diplomacy in enhancing Uzbekistan's political image and its significance in the system of international relations. In today's era of globalization, cultural diplomacy serves as a crucial factor in shaping states' soft power strategies. Through its rich cultural heritage, art, literature, and traditional values, Uzbekistan has the opportunity to strengthen its reputation on the international stage. The article analyzes the tools of cultural diplomacy, their role in shaping the political image, and their effectiveness.

AIM: to study the role of cultural diplomacy in shaping and strengthening Uzbekistan's political image on the international stage. The research analyzes the key tools of cultural diplomacy, their impact on political processes, and their importance in

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

strengthening international cooperation. Additionally, innovative approaches to effectively utilizing Uzbekistan's cultural heritage as a diplomatic tool are recommended.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzes the key mechanisms and technologies of cultural diplomacy in shaping Uzbekistan's political image, including: Cultural heritage and art – promoting Uzbekistan internationally through historical monuments, international festivals, national art, and literature. Educational and scientific diplomacy – cooperation with foreign universities, academic exchange programs, and positioning Uzbekistan as a center of science and research. Media and information diplomacy – promoting Uzbekistan's cultural and historical wealth through mass media, social networks, and international publications. Tourism and sports diplomacy – organizing international sports events, developing tourism infrastructure, and increasing Uzbekistan's attractiveness as a travel destination.

DISCUSSION AND RESULTS: the research findings indicate that cultural diplomacy plays a crucial role in shaping Uzbekistan's positive international image. International cultural events, festivals, exhibitions, and the promotion of national art and culture contribute to enhancing the country's prestige. Uzbekistan's rich historical and cultural heritage, along with its strategic geographical location, should be considered a priority direction in the state's soft power strategy.

CONCLUSION: based on the research findings, it is recommended to utilize effective tools of cultural diplomacy to further enhance Uzbekistan's international image. In particular, expanding international cultural cooperation, developing tourism and sports events, and using digital media technologies to present Uzbekistan's culture to the global community are identified as key strategic directions.

Keywords: cultural diplomacy, political image, international cooperation, Uzbekistan's cultural heritage, soft power, national branding, tourism diplomacy, art diplomacy.

For citation: Mahmudxon. M. Davidov (2025) 'the role of cultural diplomacy in enhancing Uzbekistan's political image, Inter education & global study, (3), pp. 306-322. (In Uzbek).

Globallashuv davrida mamlakatlar xalqaro munosabatlarda tashqi siyosiy maqsadlarga erishish, davlatlararo munosabatlarda milliy manfaatlarni muvaffaqiyatlik himoya qilishida mohirona diplomatiyaning o'zi kamlik qiladi. Chunki, o'zaro munosabatda bo'layotgan davlatlar hamkorlari bilan istiqbolda ham hamkorlikda faoliyat olib borishlari, mamlakat haqidagi tasavvurlari, aniqroq aytganda davlatning siyosiy imijini sinchkovlik bilan o'rganishlari tabiiy. Bunday hollarda mamlakatning ijobiy harakterdagi siyosiy imijini shakllantira olgan davlatlarda diplomatik muvaffaqiyatlarga zamin hozirlaydi.

Umuman olganda, so'nggi o'ttiz yil ichida imij konsepsiyasiga bo'lgan qiziqish shunchalik kuchaydiki, imij predmeti hozirda maxsus fanga (uning maxsus nazariyalari va qoidalari) aylandi. Davlatlar, tashkilotlar, fondlar, kompaniyalar, siyosiy partiyalar, etnik va

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

diniy guruhlar, xalqlar yoki mamlakatlarning ijobiy qiyofasini yaratishga intiladi. XX asrning ikkinchi yarmida imij biznes atamasi sifatida paydo bo‘ldi va keyinchalik turli siyosiy, ommaviy axborot vositalari va kasbiy sohalarda qo‘llanilib, ijtimoiy psixologiya, jamoatchilik fikri, tashqi siyosat, xalqaro munosabatlar va boshqa faoliyat sohalarni o‘rganishga kengaytirildi. Imij predmeti turli sohalarni qamrab olganligi sababli, unga berilgan ayrim ta’riflari bir-biriga mos yoki bir-biriga zid keladi. Bu esa imijning aniq ta’rifni topishni biroz qiyinlashtiradi. Imijga berilgan ba’zi ta’riflarni ko‘rib chiqsak.

Alsopning taikidlashicha, imij tushunchasi ijtimoiy o‘ziga xoslikdan ko‘ra ko‘proq, u shaxs, tashkilot yoki ijtimoiy guruh chegaralaridan tashqariga chiqadigan voqelik. Shu bilan birga imij yuqori samarador ta’sirchanlik va hamma joyda mavjud mexanizm, ijtimoiy nazorat vositasi ekanligini ta’kidlaydi[1]. Imij haqida turli tadqiqotlarda turlicha tushuntirish va izohlarni ko‘rish mumkin. Ularning umumlashtirgan holda imij – odamlar, tashkilotlar va mamlakatlarning muayyan masala bo‘yicha qanday xulosalar chiqarishlari, kimga ishonishlari kerakligini bilishlari kerak bo‘lgan mezonlar birligidir, desak xato qilmagan bo‘lamiz. Shu o‘rinda, Pfizerning Global imij, matbuot bilan aloqalar va raqamli strategiya bo‘yicha direktori Brenna Robinsonni imij haqidagi quyidagi so‘zlarini eslash muhim: “Imij nima qilayotganingiz va bu haqda qanday gapirganingizga bog‘liq”.

Mavjud tadqiqotlarda imijning nafaqat tomonlar o‘rtasidagi mumkin bo‘lgan munosabatlarni aniqlashda, balki ta’sir qilishda ham amalda hayotiy ahamiyatga ega degan fikrni tasdiqlaydi. Tomonlar shaxslar, ijtimoiy guruhlar, jamoalar, milliy yoki transmilliy kompaniyalar yoki hatto davlatlar bo‘lishi mumkin. Bugungi kunda ko‘pchilikning imij haqida turli xil fikrlari borligi ajablanarli emas.

Davlatlarning imijlari esa muayyan shaxs yoki korxona imijidan ancha murakkab jarayondir. Adabiyotlarda davlatlarning siyosiy imiji degan atama aslida mamlakat imiji degan atamaning ayni o‘zidir.

1956-yilda amerikalik siyosatshunos Kennet E.Boulding “milliy imij” tushunchasini ilgari surib, milliy imij nazariyasi tadqiqotining asoschisiga aylandi. Boulding milliy imijni qurishning uchta mezoni mavjudligini ta’kidlab: obyektiv geografik makon o‘lchovi, ya’ni mamlakatning geografik qiyofasi; tashqi dunyoning unga nisbatan “dushmanlik” yoki “do‘stlik” munosabati; tashqi dunyo unga “kuchli” yoki “zaif” baho beradimi. Bouldingga ko‘ra, “o‘zganing qiyofasi” va “o‘z imiji” tashqi siyosat qarorlarida muhim o‘zgaruvchilardir[2]. Bouldingdan keyin xalqaro munosabatlar sohasida ham shunga o‘xshash tadqiqotlar keng tarqaldi va “imij nazariyasi” deb nomlangan alohida fan shakllandi.

Mamlakatning siyosiy imiji haqidagi Lens Bennetning fikrlari ham qimmatli. Bennet mamlakat imiji mamlakatning real qudratini to‘liq aks ettira olmaydi, bu faqat ommaviy axborot vositalari tomonidan siyosiy irodaga ko‘ra shakllantiriladigan doimiy o‘zgarib turadigan yangiliklar xayolidir[3], deb hisoblaydi. Boshqa tadqiqotlarda ham mamlakat imiji ma’lum bir mamlakat uchun ma’lumot beruvchi, tavsiflovchi va xulosa chiqarish g‘oyalari yig‘indisi sifatida ifodalanadi[4]. Berilgan ta’riflarni umumlashtirib aytganda siyosiy imiji – mamlakatning o‘zini o‘zi tan olishi va uning tashqi bahosidir.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Siyosiy imij yo‘nalishida olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, barcha mamlakatlar o‘zining muayyan siyosiy imijiga ega, biroq bu siyosiy imijlar statik emas, balki, vaqt o‘tishi bilan bevosita yoki bilvosita ta’sir natijasida o‘zgarishi mumkin. Siyosiy imij mamlakatlarning xalqaro maydondagi ijobiy qiyofasini shakllantirish, bu orqali yangi hamkorlar, investorlar va turistlarni mamlakatga jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirishda foydalaniladi. Shu bois, aksariyat mamlakatlar siyosiy imijni yaxshilash borasida doimiy yangi tadqiqotlar va xorij tajribalarini o‘zlashtirish ustida ish olib bormoqda. Bu esa mamlakatlarning siyosiy imijning rivojlantirish konsepsiyasini shakllantirish jarayoni tezlashtirishga xizmat qiladi.

Hukumatlar mamlakatning ijobiy siyosiy imijini shakllantirish yo‘lida bir qancha amaliy harakatlar va katta mablag‘lar sarflashadi. Buning sababi, imijning muhim quyidagi funksiyalarni bajarashidir.

Qaror qabul qilish funksiyasi. Mavjud imijlar odamlarning qarorlariga ta’sir qiladi. Misol uchun, muayyan mamlakat haqida ijobiy imiji xorijliklarning kelgusi yilgi ta’tillarini shu mamlakatda o‘tkazishlarini rejalashlariga xizmat qilishi mumkin.

Soddalashtirish funksiyasi. Shaxslarga muayayn axborot taqdim etilganda, ular o‘zi uchun muhim bo‘lmagan ma’lumotlarni hisobga olmaydi, balki mavjud bo‘lgan imij tufayli ma’lumotni soddalashtiradi va o‘zi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni oladi. Masalan, finlandiyalik sayyohning O‘zbekistonning siyosiy partiyalari oxirgi saylovda parlamentda nechta o‘rin olganliklari emas, balki, o‘zbek milliy taomlarining ajabtovur mazasi, milliy liboslari va tarixiy shaharlari kabilar qiziq.

Orientatsiya funktsiyasi. Imij uzatuvchi shaxs muassasa tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar to‘liq bo‘lmagan yoki obyektiv ravishda yetarli bo‘lmagan hollarda, odam uni baholash orqali yo‘nalishni topishi mumkin. Bu tasvirni obyektiv voqelikni – ko‘rinmaydigan yoki qisman ko‘rinadigan – psixik subyektiv tomonidan almashtirishga asoslanadi.

Umumlashtirish funksiyasi. Orientatsiya funksiyasida tushuntirilgan vaziyat yuzaga kelganda, odamlar odatda ma’lumotlar uzatish orqali o‘zlari bilgan ma’lumotlarni bilmaganlariga o‘tkazadilar va shu tariqa umumlashtiradilar.

Imij tushunchasiga berilgan ta’riflarni umumlashtirib, imij – mahsulot, brend, siyosiy shaxs yoki mamlakatning jamoatchilik tomonidan idrok etilishi/ko‘rinishi sifatida ifodalanadi. Imij tushunchasi shu ma’noda baholansa, u ikki jihatdan ahamiyat kasb etadi. Birinchisi, hukumatlar va hokimiyatga ega bo‘lishni xohlaydiganlarning jamiyatdagi obro‘sini himoya qilish istagi bo‘lsa, ikkinchisi, imij xalqaro munosabatlardagi siyosiy ishtirokchilarning qaror qabul qilish jarayonlariga ta’sir qiladigan muhim faktordir.

Siyosiy imij mamlakatning xalqaro maqsadlari va tashqi siyosiy maqsadlariga erishish bo‘yicha barcha faoliyatini qamrab oladigan tushunchadir. O‘zbekistonning siyosiy imijini mustahkamlashdagi asosiy maqsad mavjud salbiy tushuncha va salbiy stereotiplarni muqobil faoliyat bilan yo‘qqa chiqarishdir.

Tarixiga nazar solsak, Amir Temur diplomatiyasining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri madaniy diplomatiya orqali davlatning xalqaro nufuzini oshirishda faol foydalanganini

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ko‘rishimiz mumkin. Xususan, Amir Temur tashqi siyosiy faoliyati va diplomatiyada sharqona an’ana va udumlar asosida olib borgan. Xususan, Samarqandga kelgan elchilarning qabul marosimlari to‘y-bazmlarga ulanib, maqom kuylari chalingan, turli millat va hududlarga mansub qo‘shiqlar aytilgan, qo‘shiqlarga raqqoslar xirom etgan, masxaraboz va muqallidlar kuldirgan. Bir so‘z bilan aytganda, Temuriylar davrida xonanda va sozandalar rasmiy – diplomatik, harbiy va boshqa siyosiy-ma’rifiy tadbirlarda faol ishtirok etganlar.

Ayni shu davrda harbiy-rasmiy musiqa turlari, mumtoz maqom san’ati, turkiy, forsiy va arabiy xalqlarning musiqaviy folklorlari rivojlangan, “Shashmaqom”, “Dugoh”, “Segoh”, “Chorgoh”, “Panjgoh”, “Royi Iroq”, “Buzrug” kabilar shakllangan. Shakllangan [5].

Amir Temurning ilm-fan, ta’lim, madaniyat, adabiyot va san’atga bo‘lgan e’tibori, homiyligi, Samarqand va Hirot saroylari, madrasa va kutubxonalarda mujassamlashgan betakror ilm va iqtidor sohiblari boshqa davlatlardagi ilm ahllariga jozibador ko‘rsatar, har kim Amir Temur saltanatidagi bu imkoniyatlardan foydalangisi kelar edi.

Amir Temur davrida xorijlik elchilar mamlakatda bo‘lish davomida me’morchilik an’analari bilan qad rostlagan binolar, ijtimoiy-madaniy, adabiy va ilmiy hayoti, aholi turmush-tarzi namoyish etishga alohida e’tibor qaratilgan. Bu orqali mamlakat faqatgina harbiy qudratga ega emas, balki, ijtimoiy-madaniy hayotda ham ancha ilgarida ekanligi, madaniy, hunarmand va intelektual jamiyat shakllanganligi haqida mujda berish ko‘zlangan edi. Amir Temur saltanatning xalqaro maydonda salohiyatli ko‘rsatish, aniqroq aytganda ijobiy siyosiy imijini yaratish orqali diplomatiyada katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkinligini bilgan edi. O‘rta asrlardagi davlatning nufuzini xalqaro maydonda oshiruvchi, ijobiy siyosiy imijni oshiruvchi mezonlar o‘zgargan bo‘lsada, biroq, dolzarbligini yo‘qotgan emas.

O‘zbekistonning siyosiy imijini yaxshilashda madaniy diplomatiyaning o‘rni masalasi shu kunga qadar tadqiq etilmagan edi. Madaniy diplomatiya o‘z madaniy elementlarini targ‘ib qilish, davlat va unda yashovchi xalqlar o‘rtasidagi salbiy, bir yoqlama qarashlarni bartaraf etish orqali madaniy va siyosiy tan olinishini ta’minlash kabi muhim maqsadlarni amalga oshirishda, pirovardida davlatning siyosiy imijini oshirish, yaxshilashda muhim faoliyat turidir.

O‘zbekistonning siyosiy imijini madaniy diplomatiyaning quyidagi yo‘nalishlari orqali yanada yaxshilash, rivojlantirish mumkin: xorijiy davlatlar bilan diplomatik (madaniy) aloqalar o‘rnatish; nufuzli xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘lish va faoliyatida faol ishtirok etish; xalqaro sport musobaqalarida faol ishtirok etish; ta’lim almashinuv dasturlarini yo‘lga qo‘yish; o‘zbek tili eksporti; san’at sohasidagi faoliyat; aloqa va ommaviy axborot vositalari faoliyati.

Birinchi yo‘nalish, mamlakatlar bilan madaniy hamkorlik aloqalarini o‘rnatish orqali. Bugungi kunda O‘zbekiston 155 ta davlatlar bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan[6]. Shu bilan birga, Toshkent shahrida 43 ta mamlakatning elchixonasi mavjud[7]. Xalqaro huquq me’yorlariga binoan ikki davlat o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatish, ularning bir-birini e’tirof etish hisoblanadi, soddaroq aytganda, ikki mustaqil davlat bir-birini siyosiy tan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

oladi. Davlatning ikki tomonlama diplomatik aloqalar o‘rnatishi, O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyat Konsepsiyasiga ko‘ra ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hamkorlik uchun ochiqlikni anglatadi. Zero, diplomatik aloqalar o‘rnatmasdan turib, qaysi soha bo‘lishidan qat’iy nazar, hamkorlik haqida gap bo‘lishi ham mumkin emas.

Ikkinchi yo‘nalish, O‘zbekistonning nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan aloqalari. O‘zbekiston Respublikasi 50 dan ortiq nufuzli xalqaro tashkilotlarning teng huquqli a’zosi hisoblanadi[7]. Xalqaro tashkilotlarning har birining o‘ziga xos yo‘nalishi, faoliyat doirasi ega. Bu yo‘nalishda, O‘zbekistonning madaniy diplomatiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan xalqaro tashkilotlarini keltirib o‘tamiz.

Dastavval, O‘zbekiston 1992-yil 2-mart kuni a’zo bo‘lib kirgan bo‘lsa, 1993-yil 26-oktabrdan Birlashgan millatlar tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi YUNESKO xalqaro hukumatlararo tashkiloti a’zosiga aylanadi. 2016-yildan keying davrda O‘zbekistonning mazkur xalqaro tashkilotlardagi faolligi sezilarli darajada oshganini alohida qayd qilish lozim.

O‘zbekiston tomonining tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi doirasida oltita rezolyutsiya ishlab chiqildi va qabul qilindi:

- “Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minlash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash” (2018-yil iyun);
- “Ma’rifat diniy bag‘rikenglik” (2018-yil dekabr);
- “Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish” (2019-yil dekabr);
- “Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e’lon qilish” (2021-yil may);
- “Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash to‘g‘risida” (2022-yil iyul);
- “Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida” (2022-yil dekabr).

2018-yil 22-iyun kuni “Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minlash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash” tarixiy rezolyutsiyasining qabul qilinishi O‘zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlashda yetakchi tashabbuskor davlat ekanligini ko‘rsatish barobarida, tinchlik va barqarorlikni ta’minlamasdan turib o‘zaro hamkorlikni rivojlantirib bo‘lmaydi, degan haqiqat yotibdi.

Yana bir muhim tashabbus O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil arpel oyida Pekin shahrida BMT bosh kotibi Antonio Gutterish bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda ilgari surilgan “Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish” maxsus rezolyutsiyasidir. O‘zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan va Markaziy Osiyo mamlakatlari dohil 50 dan ziyod mamlakatlar hammuallifligi qabul qilinishi ham O‘zbekiston rahbarining tashabbusi dolzarbligidan dalolat bermoqda.

Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasini ishlab chiqish tashabbusi, 2018-yil 12-dekabrdagi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. Mazkur rezolyutsiyaning asosiy maqsadi “barchaning ta’lim olish huquqini ta’minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko‘maklashishdan iborat” ekanligidan kelib chiqib, bu tashabbus ham ayniqsa, radikalizm va ekstremistik faoliyatlar rivojlanib borayotgan hozirga davr uchun zarur chora-tadbirlardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shuningdek, 2021-yil 14 – 16-sentabr kunlari Xiva shahrida “Markaziy Osiyo – jahon sivilizatsiyalari chorrahasida” xalqaro madaniyat forumi bo‘lib o‘tdi. Mazkur forum ham BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi tashabbusi bilan o‘tkazildi. Bundan tashqari, ushbu xalqaro madaniyat forumi doirasida Xiva shahrida YUNESKO bilan hamkorlikda Madaniy meros masalalari bo‘yicha xalqaro maslahat qo‘mitasi kengashining yig‘ilishi, Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti (TURKSOY) madaniyat vazirlarining navbatdagi majlisi, Nukus shahrida “Arxeologiya va turizm: salohiyatni belgilash va merosdan foydalanish” xalqaro arxeologiya anjumani hamda II Xalqaro baxshichilik san’at festivali, Toshkent shahrida O‘zbekiston madaniy merosini asrash, o‘rganish va targ‘ib qilish bo‘yicha butunjahon jamiyatining V xalqaro kongressi o‘tkazilishi O‘zbekistonning madaniyat va san’at homiysi sifatidagi amaliy ishlari natijasi sifatiida baholanishi, nafaqat mintaqa, balki xalqaro maydonda ham siyosiy imijini yaxshilashga xizmat qildi.

1993-yil 12-iyulda turkiy davlatlar hamjihatligida tashkil etilgan TURKSOY deb ataladigan Xalqaro turkiy madaniyat tashkilotidagi O‘zbekistonning ishtiroki ham favqulotda muhim. Chunki, madaniy identlik/o‘ziga xoslik nuqtai nazaridan O‘zbekiston xalqaro maydondagi pozitsiyalarini mustahkamlash avvalo turkiy davlatlar ichida siyosiy va madaniy hamkorliklar o‘rnatishi muhim. Shu bois, TURKSOY nafaqat O‘zbekiston, balki, tashkilotga a’zo boshqa turkiy davlatlarning ham samarali madaniy diplomatik faoliyat olib borish uchun o‘zaro teng imkoniyatlar taqdim etadi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik doirasida faoliyat yuritayotgan xalqaro tashkilot hisoblansada, O‘zbekiston bu tashkilotning faoliyatini takomillashtirish borasida ham muhim tashabbus va takliflarni ilgari surib bormoqda. SHHTning 2017-yil 8 – 9-iyundagi Ostonada bo‘lib o‘tgan sammitda Prezident Shavkat Mirziyoyev SHHT doirasida xalq diplomatiyasining doimiy faoliyat yuritadigan institutlarini joriy qilish bilan bog‘liq taklifi hamda 2018-yil 26-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkilotining xalq diplomatiyasi markazi tashkil etilishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3807-sonli Qarori qabul qilinishi bilan O‘zbekiston o‘zi ilgari surgan tashabbusni amaliyotga tadbiq qilish bo‘yicha birinchilardan bo‘lib dastlabki qadamni tashlaganini ham e’tirof etish lozim.

Uchinchi yo‘nalish, sport musboqalari, tadbirlarida faol ishtirok etish. Xalqaro sport musobaqalari, tadbirlari mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, davlatning xalqaro maydonda o‘zini muvaffaqiyatli davlat sifatida ko‘rsatish vositasi hamdir. Sportning bir qancha turlari mavjud bo‘lib, har bir sport turining o‘ziga xos turli darajadagi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

sport musobaqalari orqali kuchlilar sinab olinadi. Mamlakatning imijini yaxshilashda eng yaxshi imkoniyatlar Olimpiada o‘yinlari beradi. Chunki, olimpiada o‘yinlarida BMT tomonidan tan olingan barcha mustaqil davlatlar o‘zaro kuch sinashadi. Shu nuqtai nazardan ham olimpiada o‘yinlari odatiy sport musobaqasi emas, davlatlarning tom manodagi salohiyati va imkoniyatlarini namoyish qilish maydonidir.

2024-yil Fransiya poytaxti Parij shahrida o‘tkazilgan yozgi olimpiada o‘yinlarida O‘zbekistonlik sportchilar 8 ta oltin, 2 ta kumush, 3 ta bronza, jami 13 ta medal bilan 206 ta davlat ishtirok etgan sport musobaqasida medallar soni bo‘yicha 13-o‘rinni egallagani katta tarixiy voqelikka aylandi.

Avvalgi olimpiada o‘yinlariga solishtiradigan bo‘lsak, 2020-yil Tokio olimpiadasida 5 ta medal bilan 32-o‘rin, 2016-yil Rio olimpiadasida 13 ta medal bilan 21-o‘rin, 2012-yil London olimpiadasida 3 ta medal bilan 75-o‘rin, 2008-yil Pekin olimpiadasida 4 ta medal bilan 62-o‘rin, 2004-yil Afina olimpiadasida 5 ta medal bilan 34-o‘rin, 2000-yil Sidney olimpiadasida 4 ta medal bilan 43-o‘rin, 1996-yil Atlanta olimpiadasida 2 ta medal bilan 58-o‘rinlarni egallagan[8]. E’tiborli jihati, olimpiada o‘yinlarida sovrindorlar soni va medallar soni bo‘yicha natijalar yildan yilga yaxshilanib borganini kuzatish mumkin.

Shu bilan birga, sportning boks turi ham O‘zbekistonda eng ommalashgan, muvaffaqiyatli turidan biridir. Xalqaro boks assotsiatsiyasi (International Boxing Association - IBA) tasnifiga ko‘ra O‘zbekiston milliy terma jamoasi 135 ta mamlakat kiritilgan reytingda 17 ta vazn toifasidagi bokschilarning ko‘rsatgichlariga ko‘ra 60 800 ochko bilan dunyo reytingida 2-o‘rinni egallab turibdi[9]. Madaniy diplomatiyaning sport yo‘nalishi bo‘yicha muvaffaqiyatli va samarali faoliyatini e’tirof etish lozim.

To‘rtinchi yo‘nalish, ta’lim almashinuv dasturlarini tashkil etish oraqli. Maktab, kollej, universitetlar ta’lim almashinuv dasturlaridagi asosiy ta’lim muassasalari hisoblanadi. Ta’lim almashinuv dasturlari orqali xorijlik talabalarga ta’lim bilan birga milliy madaniy qadriyatlar ham yetkaziladi. Xorijlik talaba ikki shaklda madaniyat tashuvchisi vazifasini bajaradi: Birinchi shaklda, talaba o‘z vatanida olgan madaniyatini o‘zi bilan olib yuradi va butun almashinuv dasturi davomida uni qabul qiluvchi davlatga o‘tkazadi. Ikkinchi shaklda, talaba mezbon mamlakatda o‘rgangan madaniyatini o‘z mamlakatiga o‘tkazadi.

O‘zbekistonda tahsil olayotgan xorijlik talabalar soni 5 ming nafardan oshgani, 2016-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonda tahsil olayotgan talabalar soni yildan yilga 2 barobar miqdorda o‘sib borganligini qayd etiladi. O‘zbekistonning siyosiy imijini yaxshilashda ilmiy va ta’lim faoliyati ham modernizatsiya qilish, rivojlantirish, zamon ruhiga moslashtirish zarurati tug‘ilmoqda. Yildan yilga O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasasida tahsil olish istagida bo‘lgan xorijliklar soni oshib bormoqda. Mos ravishda, O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalari soni ham o‘sib bormoqda. 2023-yilda 7 ta oliy ta’lim muassasasi faoliyati yo‘lga qo‘yilib, mamlakatdagi jami oliy ta’lim muassasasalari soni 213 taga yetdi. Shundan, 116 tasi davlat, 67 tasi nodavlat, 30 tasi esa xorijiy oliy ta’lim muassasasi hisoblanadi [10]. Qiyoslash uchun, qo‘shni Qozog‘istonda 120 ta[11], Qirg‘izistonda 78 ta[12], Tojikistonda 47 ta[13] oliy ta’lim muassasalari mavjud. Ko‘rinib turibdiki, oliy ta’lim muassasalari son jihatdan ustunlik, xorijlik talabalar uchun

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasasida tahsil olishga bo‘lgan jozibadorlikni oshirishga xizmat qilish bilan birga madaniy diplomatiyaning rivojlantirish imkoniyati hamdir.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, xorijda ta’lim olishda asosan ikki omil muhim rol o‘ynaydi. Birinchisi, sifatli ta’lim bo‘lsa, ikkinchisi, mezbon davlat xorijlik talabalar mamlakatda ta’lim olishlarini jozibador ko‘rsatish uchun har xil grant va stipendiya dasturlari e’lon qiladi. Shulardan eng mashxurlari AQSHda o‘qish va tadqiqotlar o‘tkazish imkoniyatini beradigan Fulbrayt (Fulbright Program) grant dasturi, Yevropa Ittifoqi tomonidan turli mamlakatlardan, shu jumladan, O‘rta Osiyo mamlakatlaridan kelgan talabalar va tadqiqotchilar uchun taqdim qilinadigan Yevropa grantlari (European Funding Guide) dasturi, Turkiya hukumatining xalqaro talabalar uchun Turkiya grantlari (Türkiye Bursları) dasturi, Rossiyadagi ko‘plab universitetlarda xorijlik talabalarni ta’lim olishlari uchun taklif qiladigan Rossiyada ta’lim (Study in Russia) grant dasturlari, Osiyo-tinch okeani mintaqasi mamlakatlari talabalari va tadqiqotchilari uchun Osiyo-tinch okeani universiteti stipendiya jamg‘armasi (Asia-Pacific University Schoolarship Fund) kabi grant dasturlarini misol qilish mumkin. Grant va stipendiya dasturlari mamlakatning ta’lim va ilmiy salohiyatini xalqaro standartlarga moslashtirish bilan birga, mamlakatning ilmiy salohiyati, imijini yaxshilab, kelgusida potensial hamkorlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochib beradi.

O‘zbekistonda mahalliy talabalar uchun grant va stipendiya dasturlari mavjud, biroq, xorijliklar uchun hozircha bunday dasturlar taklif qilinmadi. O‘zbekistonning oliy ta’lim tizimi salohiyat jihatdan Markaziy Osiyoda yetakchi ekanligidan kelib chiqsak, albatta, O‘zbekiston ham xorijliklar uchun grant va stipendiya dasturlari taklif qilish kerak deb hisoblaymiz. Masalan, Qozog‘iston Respublikasi hukumatining 2005-yil 4-apreldagi 301-son qarori bilan ustav kapitalida 100 foiz davlat ishtirokida “Xalqaro dasturlar markazi” aksiyadorlik jamiyati tashkil etiladi. “Xalqaro dasturlar markazi” AJning aksiyadori Qozog‘iston Respublikasining Fan va oliy ta’lim vazirligi hisoblanadi. Mazkur aksiyadorlik jamiyati tomonidan Qozog‘iston Respublikasi prezidentining “Bolashak” xalqaro stipendiya dasturi joriy qilingan. Qozog‘iston Markaziy Osiyo davlatlari orasida madaniy diplomatiyasining bu yo‘nalishida muvaffaqiyatliroq ekanini ta’kidlash lozim. Chunki, mazkur stipendiya dasturi doirasida o‘tgan davrda magistratura, doktorantura bosqichida 13 001 nafar talabalar tahsil oldi[14]. Bu raqamlar faqatgina “Bolashak” xalqaro stipendiyasi doirasida ta’lim olganlarni qamrab oladi. Mustaqil hujjat topshirib ta’lim olganlar bu raqamlarga kirmaydi. O‘zbekiston ham xalqaro stipendiyalar va ta’lim grant dasturlari ishlab chiqib, amaliyotga joriy qilishga yetarli darajada iqtisodiy va ilmiy salohiyatga ega. Bu salohiyatdan kelgusida samarali foydalanish lozim.

Turkiy tilli davlatlar ishtirokida Erasmus dasturiga o‘xshagan qo‘shma dastur ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish kerak. Chunki bu orqali turkiy tilli davlatlarning kelajagi bo‘lgan yoshlarni o‘zaro tushunish, hamfikr bo‘lish, qardosh mamlakatlar bilan ijobiy munosabat shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, muayyan sohani malakali mutaxassisi bo‘lib yetishib chiqadigan yoshlar qardosh mamlakatlarning ta’lim va boshqa sohalardagi yutuqlaridan ilhomlanib o‘z mamlakatlarida ham sohani

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

takomillashtirishga bu yaxshi motivatsiya vazifasini ham bajaradi. O‘ylaymizki, O‘zbekiston hukumati xalqaro maydonda ko‘plab tashabbuslar bilan chiqqani kabi bu tashabbusni ham ilgari surishi, kelgusida mamlakatimizdagi mavjud oliy ta’lim muassasalarining xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilishda sog‘lom raqobat muhitini yaratadi. Qolaversa, 38 million nufuzdan 60 foizidan ortig‘ini yoshlar tashkil qilgan jamiyatning akademik taraqqiyotida muhim qadamga aylanadi.

Beshinchi yo‘nalish, o‘zbek tili eksporti. Bir xalqning madaniyatini tushunish uchun o‘sha xalq tilini bilish zarurati tug‘iladi. Chunki, til insonning qalbi va ongini qozonishning eng muhim vositasidir. Shu bois, madaniy diplomatiyadan samarali foydalanayotgan davlatlar ona tillarini boshqa xalqlarga o‘rgatish orqali mamlakatning imijini yaxshilashga zo‘r berishayotganligi ham amaliyotda ko‘p uchraydigan holat.

Yer yuzida o‘zbek tilida muloqot qiluvchilar soni 60 milliondan oshdi[14]. So‘nggi vaqtlarda O‘zbekistonga ta’lim olish, sayohat qilish, davolanish, yashash, tadbirkorlik qilish maqsadida doimiy yoki vaqtincha keluvchilar soni keskin oshib bormoqda. Ayniqsa, O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalari ko‘pligi, xavfsiz mamlakatlar reytingida yuqori o‘rinda ekanligi, kontinental iqlim, muxtasham tabiat, boy madaniyat va tarixiy shaharlarga egaligi O‘zbekistonda ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishlarni orttirmoqda. Xorijlik talabalar mamlakatimizda ta’lim olish bilan bir vaqtda o‘zbek tili, madaniyati, turmush tarzini ham o‘rganadilar va o‘z mamlakatlarida targ‘ib qiladilar.

Xorijlik talabalarning mamlakatimizda ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishlari orttib borayotganligi ijobiy tendensiya. Bu O‘zbekistonda ta’lim olish o‘zbek tilini o‘rganish zaruratini keltirib chiqaradi. Ammo, bu jarayonlarni to‘g‘ri tashkil qilish muhim. Eng avvalo, xorijliklarni O‘zbekistonda ta’lim olishlari uchun o‘zbek tilini o‘rgatish, o‘zbek tilini bilish bo‘yicha xalqaro til sertifikati va uning darajalarini ishlab chiqib, xalqaro standartlarga moslashtirish zamon talabi. Ma’lumki, ingliz, fransuz, nemis, turk va boshqa xalqaro muloqot tillarida A1, A2, B1, B2, C1, C2 kabi xalqaro til bilish darajalari mavjud. Biroq, bugungi kunda o‘zbek tilini A1, A2, B1, B2, C1, C2 darajalarni belgilovchi til dasturi ishlab chiqilmagan.

Xalqaro tajribada, rivojlangan mamlakatlarda ta’lim olish istagida bo‘lsangiz siz mahalliy tilni muayyan darajada bilishingizni tasdiqlovchi xalqaro sertifikatni shaxsiy hujjatlaringiz bilan birgalikda taqdim qilishingiz talab etiladi. Xuddi shu kabi xorijliklar uchun ham O‘zbekistonda ta’lim olishda o‘zbek tili darajalar asosida ta’lim yo‘nalishi xususiyatidan kelib chiqib, talab turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, musiqa ta’limi yo‘nalishiga talabgordan B1 darajada o‘zbek tilini bilish talab qilinsa, tarix yoki o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishlarida ta’lim olmoqchi bo‘lgan talabgordan B2, C1 darajalarda o‘zbek tilini bilish talab etilishi mumkin. Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, xorijlik talabgor tanlagan yo‘nalishi va ta’lim tili rus yoki ingliz tili bo‘lishidan qat’iy nazar, har bir xorijlik o‘zbek tilini minimum darajada bilishi o‘qishga qabul qilishni zaruriy, o‘zgarmas sharti bo‘lish lozim. Xalqaro tajribada ta’lim almashinuv dasturlari asosida xorijlik talabalarga grat va stipendiya dasturlari taklif qilayotgan mezbon mamlakat, odatda 6

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

oydan 1 yilgacha muddatda xorijliklarni tayyorlov kurslarini ham mazkur dasturlarning boshlang‘ich bosqichi sifatida kiritilgan. Asosiy maqsad ona tilini eksport qilishdir.

Turkiya tajribasidan ko‘rsak, xorijiy jamiyatlarga turk tilini tanitish va o‘rgatish maqsadida 2007-yilda Yunus Emre institut tashkil etiladi. Asosiy faoliyatini 2009-yilda boshlagan mazkur institut dunyoning 44 ta davlatidagi 79 ta universitetda, 42 ta davlatdagi 53 ta madaniyat markazida, 60 ta davlatda jami 132 punktga ega Turkologiya loyihasi bilan faoliyat yuritmoqda. Yunus Emre instituti tashkil etilganidan buyon 100 mingdan ortiq kishi chet elda turk tilini o‘rgandi. Bularning barchasiga qo‘shimcha ravishda Turk madaniyat institutlari ba’zan diplomatiya, akademik doiralar, matbuot a’zolari va talabalar bilan birgalikda madaniy dasturlar ishlab chiqish uchun to‘planadi. 2023-yilda xorijda faoliyat yuritayotgan institutlar sonini 100 taga yetkazish rejalashtirilgan[15].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi “Xorijiy davlatlarda O‘zbekiston tarixi va madaniyati, o‘zbek tili va adabiyotini o‘rganishni keng targ‘ib qilish orqali turistlar oqimini ko‘paytirish hamda mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-19-son qarori tasdiqlandi. Mazkur qarorga muvofiq, xorijiy davlatlarda O‘zbekiston tarixi va madaniyati, o‘zbek tili va adabiyotini zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o‘rganishni nazarda tutuvchi “O‘zbek akademiyasi” (“Uzacademy”) internet platformasini tashkil etish belgilandi[16].

Bundan tashqari, mazkur qarorda, 2024-yil yakuniga qadar xorijdagi o‘zbek milliy madaniy markazlari va O‘zbekistonning xorijdagi diplomatik vakolatxonalari huzurida o‘zbek tili kurslarini tashkil etish hamda ularda mashg‘ulot olib borish ham ko‘zda tutilgan. Bu esa bir tomondan xorijdagi o‘zbeklar va ularning farzandlarini o‘z ona tillarini unutib yubormasliklari, mustahkamlashlari uchun xizmat qilsa, boshqa tomondan, xorijliklarni o‘z mamlakatlarida turgan holda o‘zbek tilini o‘rganish uchun qulay sharoit yaratadi. Shu bilan birga, o‘zbek tilini ommalashtirish orqali O‘zbekiston nufuzini yanada oshirish bilan bog‘liq faoliyatlarni ham amalga oshiradi.

Oltinchi yo‘nalish, madaniy diplomatiya faoliyati doirasidagi san’at sohasidagi faoliyat ham mamlakat siyosiy imijida eng ta’sirchan vositalardan biri sanaladi. Tashqi ishlar, Madaniyat vazirligi tomonidan xorijda va mamlakatda jadal suratda o‘tkazilib kelayotgan O‘zbekiston madaniyat kunlari, xalqaro festivallar, konsertlar, konferensiyalar, seminarlar, kino va seriallar shular jumlasidandir. Ayniqsa, kino san’ati madaniy diplomatiyaning so‘nggi o‘n yillikdagi muhim aktoriga aylandi. Chunki, mamlakatning imijini yaxshilashda kina-seriallar va musiqa ishqibozlarining auditoriyasi kattaligi, ular berayotgan g‘oyalarni millionlagan insonlarni qalbini zabt etishda yaxshi samara berayotgani tahlillardan ko‘rish mumkin.

Masalan, turk seriallari Afg‘oniston, Germaniya, Albaniya, Avstriya, Ozarbayjon, Birlashgan Arab Amirliklari, Bahrayn, Bosniya va Gersegovina, Bruney Dorussalam, Bolgariya, Jazoir, Chexiya, Xitoy, Indoneziya, Estoniya, Marokash, Gruziya, Xorvatiya, Iroq, Eron, Shvetsiya, Shveytsariya, Yaponiya, Chernogoriya, Qatar, Qozog‘iston, Janubiy Koreya, Kosovo, Quvayt, Latviya, Liviya, Litva, Livan, Vengriya, Makedoniya,

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Malayziya, Misr, O‘zbekiston, Pokiston, Ruminiya, Rossiya, Slovakiya , Sloveniya, Suriya, Tailand , Tayvan, Tunis, Ukraina, Ummon, Iordaniya, Vetnam, Yaman va Gretsiya kabi davlatlarga muntazam eksport qilinib, ularning sevib ko‘radigan teleseriallariga aylangan[17]. So‘nggi yillarda AQSh va Lotin Amerikasida ham turk seriallarini tomosha qilish darajasi oshgani kuzatilmoqda.

O‘zbek-turk kino ijodkorlari tomonidan olingan “Mendirman Jaloliddin” tarixiy seriali ham xalqaro maydonda aks-sado berdi. Mazkur serialning 1-fasli 2021-yilda, 2-fasli 2023-yilda ekran yuzini ko‘rdi. Serialning birinchi qismi chiqishi bilan turli davlatlarda katta qiziqish bilan kutib olindi. Jumladan, Pokistonda shu qadar ommalashib ketdi, hattoki, serialning urdu tilidagi subtitrlar bilan efirga uzatila boshlandi[18]. Hamkorlikdagi serialning muvaffaqiyati, o‘zbek-turk kino ijodkorlarining istiqboldagi katta loyihalarni amalga oshirishga o‘zaro ishonch muhitini yaratdi.

Mazkur serialning 1-fasli 2021-yilda, 2-fasli 2023-yilda ekran yuzini ko‘rdi. Serialning birinchi qismi chiqishi bilan turli davlatlarda katta qiziqish bilan kutib olindi. Jumladan, Pokistonda shu qadar ommalashib ketdi, hattoki, serialning urdu tilidagi subtitrlar bilan efirga uzatila boshlandi[19]. Hamkorlikdagi serialning muvaffaqiyati, o‘zbek-turk kino ijodkorlarining istiqboldagi katta loyihalarni amalga oshirishga o‘zaro ishonch muhitini yaratdi. Bundan tashqari, tarixiy seriallar milliy madaniyatni, milliy va madaniy o‘zlik masalalari xalqaro maydonda namoyon eta oladigan, tanita oladigan madaniy diplomatiya faoliyati doirasida strategik ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, tarixiy seriallar milliy madaniyatni, milliy va madaniy o‘zlik masalalari xalqaro maydonda namoyon eta oladigan, tanita oladigan madaniy diplomatiya faoliyati doirasida strategik ahamiyatga ega. Bu boradagi hamkorlikdagi faoliyatni davom ettirish lozim deb hisoblaymiz. Chunki, O‘zbekiston va o‘zbek xalqini ijobiy imijini yuksaltira oladigan bir qancha tarixiy kino-seriallar uchun mavzu va qahramonlar bir talay. Masalan, Amir Temur, Temuriylar davri, Imom al Buxoriy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abu Nasr Farobiy kabi bir necha o‘nlab mutaffakkir va bashariyat tamadduniga katta hissa qo‘shgan shaxslar borki, ularni kino-seriallar bosh qahramoni sifatida gavdalantirish orqali millionlagan insonlarga o‘zbek xalqining salohiyatini ko‘rsatish, eslatish mumkin.

Yettinchi yo‘nalish, aloqa va ommaviy axborot vositalari faoliyati. O‘zbekistonning imijini yaxshilashda madaniy diplomatiya faoliyatining zaruriy vositasiga aylandi. Chunki jamiyatning axborotga bo‘lgan ehtiyojini aloqa va ommaviy axborot vositalari qondirishi lozim.

Xalqaro va mahalliy jamoatchilik uchun dolzarb bo‘lgan muhim xabarlar, dasturlar va ko‘rsatuvlarni “BBC”, “Deutsche Welle”, “CNN”, “Al-Jazeera”, “TRT World” kabi global telekanallar, “Amerika Ovozi” radiosi, “Washington Post”, “New York Times” kabi xalqaro nashrlar tomonidan yetkazib beriladi. Xalqaro jamoatchilik bu nomlarni shu qadar o‘rgandiki, ularda berayotgan xabar-ma’lumotlarni “mutloq haqiqat” deb qabul qilish tendensiyasi mavjud. Bu media makonlarni yaratgan davlatlarning madaniy diplomatiyasini amalga oshiruvchi qudratli richaglari desak xato bo‘lmaydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Turkiyaning TRT World kanali butun dunyodan ingliz tilida efirga uzatiladigan kanaldir. Bugungi kunda TRT World dunyoning 90 mamlakatida o‘z muxbirlariga ega va dunyoning 5 ta turli nuqtalarida studiyalari mavjud[19]. TRT Worldning efir oqimi odatda yangiliklarga qaratilgan bo‘lib, sport, iqtisod va madaniyat sohalarida translyatsiyalar orqali xalqaro jamoatchilikni xabardor qilib kelmoqda.

O‘zbekiston matbuot va ommaviy axborot vositalari 2016-yilgacha bo‘lgan davrda katta cheklovlar ostida edi. Shavkat Mirziyoyev davrida siyosiy islohotlar o‘tkazilib, ommaviy axborot vositalaridagi cheklov va eski stereotiplardan voz kechilishi ijobiy hodisa, biroq bu bilan to‘xtab qolmasdan, ommaviy axborot vositalarining xalqaro maydonga olib chiqishi zamon talabiga aylanmoqda.

Bundan tashqari, Twitter, Instagram, Facebook va Youtube kabi ijtimoiy tarmoqlar orqali chiqishlar, postlar, bloglar ham davlatlarning siyosiy imijiga ijobiy yoki salbiy ma’noda ta’sir qiladigan darajaga yetdi. Rossiyalik travel-blogger ayol O‘zbekistonga safari davomida poyezdining plastkart vagoni haddan ziyod isib ketganligini[20], yana bir rossiyalik YouTube blogeri Ilya Varlamov Samarqanddan Toshkentga qatnaydigan poyezddagi sharoitni tanqid qilgan videosini facebookdagi sahifasiga joylaganligi[21] yoki “Traveltomtom” nomi bilan tanilgan gollandiyalik sayyoh Tom Grond poyezdda O‘zbekistonga qilgan safari davomida pora evaziga chipta sinfini ekonom-klassdan VIP darajasiga qanday “ko‘tarib bergani” haqidagi videosini o‘zining web sahifasida yoyinlashi[22] ortidan ancha shov-shuv ko‘tarildi. Rasmiylar yuqoridagi holatlar bo‘yicha munosabat bildirishdi, ko‘pgina xorijiy va mahalliy blogerlar voqealarga oid videolarni ko‘chirib bosishdi, natijada, istaymizmi yo‘qmi 3 ta holat va 3 xorijiy sayyohning harakatlari O‘zbekistonning siyosiy imijiga, turizm sohasidagi harakatlari va islohotlariga qora dog‘ tushirgan holat sifatida qoldi. Shunday ekan, keyingi davrda faqatgina rasmiy ommaviy axborot vositalari emas, balki ijtimoiy tarmoqlarda katta auditoriyalarga ega blogerlar ham madaniy diplomatiya faoliyatida muhim figuraga aylanib, mamlakatning imijiga salbiy yoki ijobiy ta’sir kuchiga egaligini, ularning faoliyati, imkoniyatlaridan samarali foydalanish kerakligini aytib o‘tmoqchimiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ronald Alsop R.J. The 18 immutable laws of corporate reputation: creating, protecting and prepairing your most valuable asset. London: Dow Jones&Company Inc, 2006. No.2. p.124. https://activitygroup.co.uk/the-18-immutable-laws-of-corporate-reputation.pdf/ olingan sana: 07.11.2024.
2. Kenneth E.Boulding. National images and International system. The Journal of Conflict Resolution. Vol.3, No.2 1959. pp. 120-131. https://www.jstor.org/stable/173107?origin=JSTOR-pdf olingan sana: 07.11.2024.
3. W.Lance Bennett. News: The politics of illusion [M]. New York, The University of Chicago press.. 2005. pp. 24-28. https://press.uchicago.edu/dam/ucp/books/pdf/course_intro/978-0-226-34486-7_course_intro.pdf olingan sana: 07.11.2024.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

4. Ingrid M.Martin&Sevgin Erog'lu. Measuring a Multi-dimensional Construct: County image. Journal of Business Research. Volume 28(3). 1993. p.193. https://ideas.repec.org/a/eee/jbrese/v28y1993i3p191-210.html olingan sana:12.11.2024.
5. Хуснитдин Ташканбаев. Амир Темур ва темурийлар даврида санъат ва маданият. www.shosh.uz/amir-temur-va-temuriylar-davrida-sanat-va-madaniyat/ olingan sana:23.11.2024.
6. O'zbekiston yana ikki davlat bilan diplomatik aloqalar o'rnatdi. 27.09.2024. https://daryo.uz/2024/09/27/ozbekiston-yana-ikki-davlat-bilan-diplomatik-aloqalar-ornatdi olingan sana: 25.11.2024.
7. O'zbekistondagi diplomatik va konsullik vakolatxonalarning ro'yhati. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%E2%80%98zbekistondagi_diplomatik_va_konsullik_vakolatxonalari_ro%E2%80%98yxati#:~:text=Ushbu%20sahifada%20O'zbekistondagi%20diplomatik,shahrida%2043ta%20mamlakatning%20elchixonasi%20mavjud. Olingan sana: 25.11.2024.
8. Xalqaro tashkilotlar. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqaro_tashkilot olingan sana: 25.11.2024.
9. Parij-2024: Yakuniy jadval, O'zbekiston qahramonlari va avvalgi olimpiadalardagi natijalar. 11.08.2024. https://m.kun.uz/news/2024/08/11/parij-2024-yakuniy-jadval-ozbekiston-qahramonlari-va-avvalgi-olimpiadalardagi-natijalar olingan sana: 26.11.2024.
10. International Boxing association current ranking – countires. http://setopen.sportdata.org/ibaranking/ranking_main_country.php#iba olingan sana: 26.11.2024.
11. O'zbekistondagi oliygohlar va ulardagi talabalar soni ma'lum qilindi. 14.02.2024. https://kun.uz/news/2024/02/14/ozbekistondagi-otm-va-ularda-talim-olayotgan-talabalar-soni-malum-qilindi olingan sana: 20.09.2024.
12. Высшее образование в Республике Казахстан. 26.12.2023. https://stat.gov.kz/ru/news/vysshee-obrazovanie-v-respublike-kazakhstan-/ olingan sana: 20.09.2024.
13. Обзор системы высшего образования в Кыргызской Республике.02.02.2024. https://erasmusplus.kg/wp-content/uploads/2024/02/Overview_rus.pdf olingan sana: 20.09.2024.
14. Лидер нации: "Национальная академия наук Таджикистана — равноправный член престижных мировых научных учреждений". 30.05.2024. https://khovar.tj/rus/2024/05/lider-natsii-natsionalnaya-akademiya-nauk-tadzhikistana-ravnopravnyj-chlen-prestizhnyh-mirovyh-nauchnyh-uchrezhdenij olingan sana: 20.09.2024.
15. Bolashak in number. https://bolashak.gov.kz/en/ olingan sana: 21.09.2024.
16. Dunyo axborot agentligi. O'zbek tilini yanada rivojlantirish va uni xalqaro tilga aylantirish masalalari muhokama qilindi. 21.10.2022.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

https://dunyo.info/cyrl/site/inner/makkada__ozbek_tilini_yanada_rivozhlantirish_va_uni_halqaro_tilga_aylantirish_masalalari_mu%D2%B3okama_qilindi-4L5 olingan sana: 02.12.2024.
17. Yunus Emre Enstitüsü Stratejik Planı, 2017, s.11. https://www.yee.org.tr/tr/yayin/2017-2018-stratejik-plan olingan sana: 21.09.2024.
18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.01.2024-yildagi “Xorijiy davlatlarda O‘zbekiston tarixi va madaniyati, o‘zbek tili va adabiyotini o‘rganishni keng targ‘ib qilish orqali turistlar oqimini ko‘paytirish hamda mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishga doir qo‘shimcha to‘g‘risida”gi PQ-19-sonli qarori. https://www.lex.uz/uz/docs/-6759659
19. Emrah Aydemir. Dış politikada stratejik bir değer olarak yumuşak güç unsurunun medyada kullanımı: Amerika Birleşik Devletleri ve Türkiye’nin kamu diplomasisinde medyanın kullanımının karşılaştırılması. Doktora Tezi. İstanbul: İstanbul Üniversitesi. 2015. s.334. http://nek.istanbul.edu.tr:4444/ekos/TEZ/ET002592.pdf
20. TV series on the life of Jalaluddin Khwarazmshah goes on air. 17.04.2021. https://www.geo.tv/latest/335462-tv-series-on-the-life-of-jalaluddin-khwarazmshah-goes-on-air olingan sana: 15.09.2024.
21. TV series on the life of Jalaluddin Khwarazmshah goes on air. 17.04.2021. https://www.geo.tv/latest/335462-tv-series-on-the-life-of-jalaluddin-khwarazmshah-goes-on-air olingan sana: 15.09.2024.
22. TRT Faaliyet Raporu, 2016, s. 37. https://www.trt.net.tr/pdfs/event-reports/2016.pdf
23. Rossiyalik bloger O‘zbekistonda poyezdlardagi sharoitni tanqid qildi. 18.09.2024. https://qalampir.uz/uz/news/vagon-shu-k-adar-k-izib-ketganki-rossiyalik-bloger-uzbekiston-poyezdlaridagi-sharoitni-tank-id-k-ildi-107109 olingan sana: 03.12.2024.
24. Video Ilya Varlamovning facebookdagi sahifasiga 19.05.2023-yilda joylangan. https://www.facebook.com/varlamov/videos/1453981368510958/?extid=CL-UNK-UNK-UNK-IOS_GK0T-GK1C&mibextid=HcxBcx olingan sana: 03.12.2024.
25. Uzbekistan train staff fired because of traveltomtom video. 18.10.2023. https://www.traveltomtom.net/destinations/asia/uzbekistan/traveltomtom-uzbekistan-train-staff-fired olingan sana: 03.12.2024.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Dovidxonov Mahmudxon Muhriddinxon o‘g‘li,** O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti doktoranti, [**Довидхонов Маҳмудхон Муҳриддинхон ўғли**, докторант Государственного института искусства и культуры Узбекистана], [**Mahmudxon M. Dovidxonov**, PhD student State Institute of Art and Culture of Uzbekistan]; manzil: Toshkent sh. Mirzo Ulug‘bek tumani, Yalang‘och dahasi 127 «A» uy. [адрес: Узбекистан, 117036, Ташкент, Мирзо Улугбекский район, Массив Ялангач, 127 «А» дом.], [address: Uzbekistan, 117036, Tashkent, Mirzo Ulugbek, Yalangoch Street, 127 “A”.];

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

ULUG‘ SHOIR, MUTAFAKKIR BOBORAHIM MASHRAB HAYOTI VA IJODI

© B.To’raboyeva[1]✉
[1]O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada ulug‘ shoir, mutafakkir, g‘azalnavis, o‘zbek musiqa me‘rosiga o‘zining betakror g‘azal-u ruboiylari bilan o‘chmas iz qoldirgan haqiqatparvar ijodkor Boborahim Mulla Vali o‘g‘li Mashrab haqida so‘z boradi. Shoirning hayoti, ijodi bilan birgalikda “O‘rtar” radifli g‘azali tahlili yoritilgan.

MAQSAD: Boborahim Mashrabning “O‘rtar” radifli g‘azali o‘rganish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda tarixiy manbalar, mavzuga oid ilmiy maqolalar tahlil qilinib, olimlarimizning ilmiy asarlaridan ma’lumotlar yig‘ilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: shoirning she‘riyati yuksak badiiy zavq beruvchi, iymon va tasavvufga oid chuqur ma‘nolarni ifodalaydi. Mashrabning o‘ziga xos ijodi nafaqat shoir sifatida, balki dunyoviy hayotga nisbatan qarashlari bilan ham jozibadordir. Mashrabning she‘rlarida ishq, haqiqat, va ma‘naviy kamolotni ulug‘lashga oid mazmunlar keng tarqalgan. Ayniqsa, uning “O‘rtar” radifli g‘azali xalq orasida keng tarqalgan va shu g‘azaldan ilhomlangan qo‘shiqlar xalq tomonidan maroq bilan tinglangan.

XULOSA: Boborahim Mashrabning asarlari haqida ilmiy tadqiqotlar olib borilib, uning adabiy merosini butun dunyoga tanitilishi uchun katta mehnat qilinmoqda. Shoirning asarlari zamonaviy o‘zbek adabiyotiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Shu bilan birga, uning g‘azallari keyingi shoirlar tomonidan teran o‘rganilib, yangidan-yangi ilmiy ishlarga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tayanch so‘zlar: shoir, g‘azal, mustahzod, asar, tariqat, haqiqat, radif, ruboiy.

Iqtibos uchun: To’raboyeva B. Ulug‘ shoir, mutafakkir boborahim mashrab hayoti va ijodi // Inter education & global study. 2025. №3. B.323-330.

ВЕЛИКИЙ ПОЭТ, МЫСЛИТЕЛЬ: ЖИЗНЬ И ТВОРЧЕСТВО БОБОРАХИМА МАШРАБА

© Б. Турабоева[1]✉
[1]Узбекский государственный институт искусств и культуры, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматривается жизнь и творчество великого поэта, мыслителя, газельхана и правдолюбивого творца Боборахима Муллы Вали

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

оглы Машраба, который оставил неизгладимый след в узбекском музыкальном наследии своими неповторимыми газелями и рубаи. Наряду с биографией и творчеством поэта проведен анализ его газели с радифом «Ўртар».

ЦЕЛЬ: изучение газели Боборахима Машраба с радифом «Ўртар».

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании были проанализированы исторические источники, научные статьи по теме, а также использованы сведения из научных трудов ученых.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: поэзия Машраба отличается высоким художественным вкусом и глубокой смысловой наполненностью, связанной с верой и суфизмом. Его творчество привлекательно не только как поэта, но и как мыслителя, имеющего особое отношение к мирской жизни. В его стихах широко раскрываются темы любви, истины и духовного совершенства. В частности, газель с радифом «Ўртар» получила широкую популярность среди народа, а песни, вдохновленные этой газелью, исполнялись с большим интересом.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: научные исследования, посвященные творчеству Боборахима Машраба, продолжаются, чтобы его литературное наследие стало известным во всем мире. Его произведения оказали значительное влияние на современную узбекскую литературу. Кроме того, его газели стали предметом глубокого изучения для последующих поэтов и продолжают служить основой для новых научных исследований.

Ключевые слова: поэт, газель, мустахзод, произведение, тарикат, истина, радиф, рубаи.

Для цитирования: Турабоева Б. Великий поэт, мыслитель: жизнь и творчество Боборахима Машраба // Inter education & global study. 2025. №3. С. 323-330.

THE GREAT POET AND THINKER: THE LIFE AND WORKS OF BOBORAHIM MASHRAB

© B. To'raboyeva[1]✉
[1]Uzbekistan State Institute of Arts and Culture, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article explores the life and works of the great poet, thinker, ghazal writer, and truth-seeking creator Boborahim Mulla Vali ogli Mashrab, who left an indelible mark on Uzbek musical heritage with his unique ghazals and rubais. In addition to discussing his biography and literary contributions, the article analyzes his ghazal with the radif "O'rtar".

AIM: to study Boborahim Mashrab's ghazal with the radif "O'rtar".

MATERIALS AND METHODS: the research involves an analysis of historical sources, relevant scientific articles, and information from the works of scholars.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

DISCUSSION AND RESULTS: Mashrab's poetry is characterized by high artistic taste and deep meanings related to faith and Sufism. His creative works are captivating not only from a poetic perspective but also in terms of his philosophical views on worldly life. His poetry widely explores themes of love, truth, and spiritual perfection. In particular, his ghazal with the radif "O'rtar" gained immense popularity among the people, inspiring songs that were performed with great admiration.

CONCLUSION: Scientific research on Boborahim Mashrab's works continues, aiming to introduce his literary heritage to the world. His works have had a significant impact on modern Uzbek literature. Furthermore, his ghazals have been deeply studied by later poets and continue to serve as a foundation for new scholarly research.

Keywords: poet, ghazal, mustahzod, literary work, tariqat, truth, radif, rubai.

For citation: To'raboyeva B. The Great Poet and Thinker: The Life and Works of Boborahim Mashrab // Inter education & global study. 2025. №3. pp. 323-330.

Ulug' shoir Mashrabni xalq hamisha sevib, ardoqlab keladi. Ba'zilar Mashrabni avliyo deb biladi, boshqa birovlar Boborahim Mashrab ulug' shoir deb aytadilar. Dunyoni sargashta kezgan, qalandarlar shohi Mashrab "Suratim garchi bashar keldi, malakdur siyratim", – deb yozadi. Bu misra shoir, inson va mutafakkir Mashrabning chin ma'nodagi suratu siyratini ifodalaydi. Mashrab butun umrini o'zini anglashga va shu vosita bilan haqni bilishga baxsh etdi. U she'rda haqiqiy ishq ehtirosini kuylagan shoir. Shuning uchun ham uning she'riyati she'rxon iymonini nurlantiradi. Abadiyat mushohadasiga chorlaydi, ayni paytda yuksak badiiy zavq beradi.

Boborahim Mulla Vali o'g'li Mashrab (taxallusi, 1640–1711) — o'zbek adabiyotidagi yirik shoir va mutafakkirdir. Shoirning Namanganda tug'ilib, Balx shahrida vafot etgani haqida ma'lumotlar mavjud. Mashrab nomi XVIII–XIX asrlarda tuzilgan tazkira va tasavvufiy yo'nalishdagi asarlarda (masalan, Muhammad Bade Maleho Samarqandiyning "Muzakkir ul-as'hob", Abdul Muttalib Xo'ja Fahmiyning "Tazkirai Fahmiy", "Musavvai Abdushshukur Ziyo", "Tazkirai avliyoi Majzub Namangoniy" va b.) zikr etiladi. Ammo ularda shoir hayoti va ijodiy faoliyati haqida keltirilgan ma'lumotlar nihoyatda kam. Mashrabning qoldirgan adabiy merosi xususida ham aniq ma'lumot beruvchi manba yo'q. Boborahim Mashrab Namanganning kambag'al kosib (bo'zchi) Valibobo oilasida dunyoga keldi:

Na malakman, na farishta, men ham odam naslidin,
Men tavalludi o'shal farzandi Namangoniman.

Otasi kosib bo'lishiga qaramay, ilm-ma'rifatdan xabardor kishi edi. Shuning uchun ham xalq uni Mulla Vali deb chaqirgan. Qisqa ma'lumotlarga ko'ra, Boborahim otadan yosh yetim qolgan, shu tufayli oila moddiy qiyinchiliklar bilan kun kechirgan. Onasi ip yigirib tirikchilik o'tkazadi. Qissada bo'lajak shoirning go'dakligidanoq nihoyatda halol, ziyrak, to'g'riso'z bo'lgani, hozirjavob va mushohadaliligi bilan tengqurlaridan ajralib turishi alohida ta'kidlanadi. Mashrab ta'limni o'z davri bilimdonlaridan, xususan, din

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

asoslari va falsafadan durustgina boxabar bo‘lgani uchun Namanganning so‘fiy eshoni Mulla Bozor Oxund nomi bilan shuhrat qozongan Xo‘ja Ubaydullo qo‘lida olgan. U yerda shoir so‘fiy tariqatlar bo‘yicha bilimini oshiradi, fors tilini o‘rganadi, she‘riyatga mehr qo‘yadi.

Boborahim ma‘lum muddat ustoz qo‘lida ta‘lim olganidan so‘ng taxminan 1665-yillarda Mulla Bozor Oxund tavsiyasiga ko‘ra, o‘sha zamonda katta obro‘ga ega bo‘lgan yirik din arbobi – qashqarlik Hidoyatullo Ofoq Xoja eshon huzuriga boradi. Shoir adabiy merosidagi diniy mazmun va tasavvufiy yo‘nalish ruhidagi she’rlarning ko‘p qismi Ofoq Xoja dargohida va uning targ‘ibot-saboqlari ta‘sirida yaratilgan. Aynan Mashrab taxallusining adabiyotga kirib kelishi ham Ofoq Xoja bilan bog‘liq. Boborahimga Mashrab taxallusini ustoz Ofoq Xoja tanlab bergan. Buni shoirning quyidagi she‘ri ham tasdiqlaydi:

Quddisa sirrihu Xojam otimni “Mashrab!” dedilar,
Qoshg‘aru Yorkand ichida sohibi guftor o‘zim!

Xalq orasida tarqalgan afsonalarga ko‘ra, Mashrab yoshligidanoq jununsifat qiyofaga ega bo‘lgan. Kiyimsiz odamlarni ko‘rganida ustidagi barcha kiyimlarni yechib bergan. Taxminan 1672–1673-yillarda Mashrab Ofoq Xoja dargohini tark etadi. Ba‘zi ma‘lumotlarga ko‘ra, bu voqeaga Mashrabning piri dargohidagi kanizlardan biriga ko‘ngil qo‘ygani sabab bo‘ladi. Mashrab Ofoq Xojaning kanizaklaridan birini yoqtirib qoladi. Ammo shoirning og‘ir jismoniy jazolanib quvilishi zamirida pir bilan murid o‘rtasidagi jiddiy g‘oyaviy ziddiyatlar bo‘lgan degan taxminlar ham mantiqan haqiqatga muvofiq bo‘ladi. Ofoq Xoja huzurida ta‘lim olish bilan birga shoirning yilqichilik bilan shug‘ullangani ham ta‘kidlanadi.[5:2]

Boborahim Mashrab o‘zbek mumtoz she‘riyatiga yangi ruh va o‘ziga xos ijodiy nafas olib kirgan ulkan san‘atkor hisoblanadi. Mashrab faqat otashzabon ijodkor sifatidagina emas, balki, ayni zamonda, adolatsizlik, zo‘ravonlik, qabohat va jaholat bilan aslo kelisha olmaydigan dovyurak shaxs sifatida ham dong taratgan. Xalq tasavvurida u johil amaldorlar ustidan kuluvchi, axloqan tuban kishilarni, munofiq din arboblarini ayovsiz fosh qilib, keng omma manfaatini himoya etuvchi botirso‘z, tadbirkor kurashchi tarzida shakllangan. Oddiy xalq Mashrab timsolida o‘z ishonchli vakilini, orzu-intilishlarini baralla ayta oluvchi otashin siymoni ko‘rgan.

Mashrab she‘riyati o‘zining samimiyligi, samoviyligi va hayotiyligi bilan ajralib turadi. Abdurauf Fitratning aytishicha, XVIII–XIX asrlarda xalq orasida “mashrabxonlik” kechalari uyushtirilgan. Xalq Mashrab g‘azallarini suygan, qo‘shiqqa solgan va maroq bilan tinglagan. Bunday yig‘ilishlar erkaklar orasida bo‘lgani kabi ayollar orasida ham o‘tkazilgan. Qish kechalarining uzun tunlarini Mashrab g‘azallari orqali boyitishgan.

Mashrab 1673-yilda Qoshg‘ardan Namanganga — onasi yoniga qaytadi. Kasalmand onasining vafotidan keyin hech kimi qolmagan shoirning qo‘nimsiz hayoti boshlanadi. Uning keyingi deyarli qirq yillik umri doimiy safarda, darbadarlikda, turli o‘lkalarda musofirlikda o‘tdi. Turli adabiy-tarixiy manbalar, shuningdek, qissa nusxalari

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Mashrab borgan shahar-yurtlari, safar tartibi haqida xilma-xil, ko‘pincha biri-biridan farqli ma‘lumotlar beradi.

Ularda shoirning Samarqand, Xo‘jand, Toshkent, Turkiston, Buxoro, Andijon, Badaxshon, shuningdek, Yaqin Sharq o‘lkalariga borgani haqida so‘zlanadi. Mashrabning qalandarligi to‘g‘risida bir qancha ma’lumotlar mavjud. Bu haqida 1691-yillarda Samarqandda Mashrabni ko‘rgan Muhammad Bade’ Maleho ham xabar beradi. Tarixdan ma‘lumki, qalandarlar o‘z boshliqlarini “bobo” deb atagan. Mashrabning Boborahim — Rahim bobo deb atalganidan uning bir vaqtlar qalandarlar boshlig‘i bo‘lganini bilib olishimiz mumkin.

Mashrab asarlarining aksariyati chuqur ijtimoiy yo‘nalishga ega bo‘lib, qo‘ldan qo‘lga, og‘izdan og‘izga o‘tib, tez tarqalgan. Xuddi shuning uchun ham Mashrabning biror qishloq yoki shaharga kelishi izsiz qolmagan, odil kambag‘al xalq uni quvonch-xursandchilik va qiziqish bilan qarshi olgan.

Mashrabning mohiyatan inson qadri-sharafi va ma‘naviy kamolotini ulug‘lashga, ezgulik va go‘zallikni madh etishga bag‘ishlangan she‘riy me‘rosida g‘azal, mustahzod, murabba, muxammas, musaddas, musabba, masnaviy, ruboiy, ta‘rix kabi janr turlarida bitilgan yetuk namunalarni uchratamiz. Ammo Mashrab avvalo mohir g‘azalnavis hamda ko‘plab sho‘x va jarangdor mustahzodlar, o‘ynoqi va jozibador murabba hamda xalq g‘am-u hasratiga hamdardlik hissi bilan yo‘g‘rilgan muxammaslar ijodkori sifatida keng dovruq chiqargan. Mashrabning juda ko‘p g‘azallari xalq qo‘shiqlaridek sodda va jarangdor, jo‘shqin va ta’sirchandir. Misol keltirishimiz mumkinki, shoirning “O‘rtar” radifli g‘azali kuy orqali butun xalq orasiga tarqalgan. Shuningdek, “Men nola qilay shomu sahar…”, “Devona bo‘ldum” g‘azallari mashhur qo‘shiqlarga aylangan.[6:3]

Mashrab o‘zbek adabiyoti tarixida eng ko‘p mustahzod yozgan ijodkorlardan biri hisoblanadi. Shoir mustazodlari ham xuddi g‘azallari kabi sho‘x va jarangdor, nafis va zavqbaxshdir. Mashrab fors tilida ham bir necha she‘riy turlarda yetuk namunalarni yaratgan. Mashrab ijodi keyingi asrlar adabiyotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Nodira, Huvaydo, Qoriy, Furqat, Hamza kabi shoirlar uning g‘azallariga taxmis va naziralar bog‘lagan.

Boborahim Mashrabning “O‘rtar” radifli g‘azalini bilmagan odam bo‘lmasa kerak. Bu g‘azalning qo‘shig‘ini xirgoyi qilmagan kishi ham bizda topilishi dargumon. “O‘rtar” radifli g’azali shoirning xalqimiz orasidagi eng mashhur ijod namunasi ya‘ni oshiqona g‘azaldir . Mashrabning ismi Ishq sharobini ichgan ma‘nosini anglatar ekan, bu mazmun uning ana shu g‘azalining ma‘nosiga birlashib ketadi. “O‘rtar” radifli g‘azali o‘zini butkul unutib, butun borlig‘ini Haq vasliga badal qilgan, bag’ishlagan oshiqlar qo’shig‘idir. Mashrab – ya‘ni oshiq, Haq vaslini istab, izlab, unga yetishmaguncha, bir nafas ham yonishdan, o‘rtanishdan to‘xtamaydigan o‘tli yurak sohibi.

G‘azaldagi ohangdosh so‘zlar – qofiya, qofiyadan keyin aynan takrorlanib keluvchi so‘zlar – radif deb yuritiladi. Boborahim Mashrabning “O‘rtar” radifli g‘azali 9 bayt va 18 misradan tashkil topgan. G‘azalda: jon-u jahon, xonumon, chunon, fig‘on, zabon, nihon,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

osmon, ishqi bayon, ustixon, jovidon so‘zlari qofiyadosh bo‘lib, “o‘rtar” so‘zi qofiyadan keyin aynan takrorlangani uchun radif bo‘lib kelgan.

G‘azalning birinchi bayti –matla- arabcha –boshlanma, oxirgi bayt – maqta - tugallanma deyilib, oxirgi baytda shoir o‘zining taxallusini qo‘yishi bilan farqlanib turadi.

Agar oshiqlig‘im aytsam, kuyub jon-u jahon o‘rtar,
Bu ishq sirin bayon etsam , taqi ul xonumon o‘rtar.

Tasviriy san’at o‘qituvchisi dars o‘tish jarayonida metodlardan foydalangan holda dars o‘tsa, o‘quvchilarning bu fanga qiziqishi yana ham oshadi. Buning uchun ko‘proq metodlarni misol qilib keltirish mumkin. Masalan, pedagogik kuzatish, suhbat, anketa, test, pedagogik tahlil, bolalar ijodini o‘rganish va boshqalardan iborat bo‘ladi. Tasviriy san’at fanida o‘quvchilarning faolligini oshirish, ijodiy fikrlashning rivojlanishi ham muhim sanaladi. Rasm chizish haqida ko‘plab olimlar o‘zlarining fikrlarini aytishgan. Masalan, Chennino Chennini rasm chizishni o‘rganish jarayonida quyidagi uslubiy ketma-ketlikda ishni boshlashni tavsiya qiladi: “Rasm chizishni yengil narsalar namunasini chizishdan boshlab, iloji boricha ko‘proq chiz, qo‘lni mashq qildir”.[4;11]

Demak, tasviriy san’at fanida darsda o‘quvchilar rasm chizishda naturadan chizayotgan paytda chizgan rasmi o‘xshamasa, yana qaytadan rasmni oq qog‘ozga chizib tugatsa, keyingi chizgan rasmi birinchi chizgan rasmidan ham yaxshi chiqadi. Chunki, rasm chizish jarayonida naturmort bo‘lsa, naturmortni chizishdan avval kuzatadi, qog‘ozga joylashtirishda buyumlarning katta-kichikligiga e’tibor bergan holda qiyoslaydi, keyin esa qo‘g‘ozga joylashtirishda o‘lchamlarini qo‘yib chizadi. Chizilgan natyurmortni tahlil qilib, yana bir bor qarab, keyin rangtasvirda

ranglar bilan bo‘yashga kirishadi. Oxirida esa, chizishni yakunlab bo‘lgandan keyin sintez, ya’ni umumiy tarzda chizilgan rasmni ko‘rib chiqadi. Keyin esa tasvirlanayotgan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

natyurmortni yorug‘, soyalarini, orqa fon va oldi fonda rangtasvirda bo‘yashni va boshqalarni o‘rganadi. Bunda esa tasviriy san’at o‘qituvchisi darsni yana ham qiziqarli o‘tishda metodlardan foydalangan holda dars o‘tsa, dars jarayonida o‘quvchilar zerikmaydi va bu fanga bo‘lgan qiziqishi yana ham ortadi.

Tasviriy san’at fanida o‘qitish metodlari ikkiga bo‘linib, an’anaviy va noan’anaviy o‘qitish metodlaridan iborat bo‘ladi. An’anaviy o‘qitish metodlariga og‘zaki, ko‘rgazmali, amaliy va muammoli metodlar kiradi. Noan’anaviy o‘qitish metodlariga esa Venn diagrammasi, Baliq skeleti, “Klaster” va boshqalar kiradi. Tasviriy san’at fanida o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini oshirish, ularni kreativ fikrlashga o‘rgatish, tafakkurini, tasavvurini rivojlantirishdan iboratdir. Tasviriy san’atning o‘qitish shakllariga darsda yangi ma’lumotlarni berib o‘tish, aralash darslar,bilimlarni mustahklamlagan holda o‘tilgan mavzularni takrorlash, darsda o‘quvchilarning bilimlarini tekshirish hamda tahlil qilib o‘tish, darsda ularning malaka va ko‘nikmalarini hosil qilish orqali mavzularni mustahkamlash, mavzu bo‘yicha didaktik maqsadga ega bo‘lgan darslar kiradi. Tasviriy san’at darslaridan tashqari, to‘garaklar mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda bu fanga bo‘lgan qiziqishi, faolligi, tashabbuskorligi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Tasviriy san’at fanlarida o‘quvchi, talabalarning ijodiy fikrlashlarini shakllantirishda, ijodkorlik bo‘yicha savol-javoblar o‘tkazish hamda ijodkorlik bo‘yicha tadqiqot mavzularini shakllantirish misol bo‘la oladi.

Ijod tafakkur namoyon bo‘lishning eng yuqori shakli ijod hisoblanadi. Ijod-inson ruhiyatining faolligi, insonning yaratuvchanlik faoliyati. Ijod-takrorlanmas, unikal faoliyat. Ijod mazmuni, xususiyatlari, usullari, o‘ziga xosligi, takrorlanmasligi, kamyobligi bilan xarakterlidir. [5;53].

Shunday ekan, tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarning amaliy-ijodiy qobiliyatlarini oshirishda avvalo ijod ularning tasavvurida paydo bo‘lishi lozim, masalan, kompozitsiyada rasm chizish jarayoni bo‘lsa, manzara janrida kompozitsiya chizish bo‘lsa, u tasavvur qilib, keyin tabiatni kuzatadi, eskizlar yaratadi va o‘sha eskizlari orqali asta-sekin ularning dunyoqarashi oshadi. Albatta, o‘quvchilar rasm chizishi jarayonida o‘zlarining chizgan asarlarini tanqidiy fikr qilib, tahlil qila boshlaydi, shundan so‘ng ularning chizishdagi mahorati ham rivojlanib boradi, so‘ngra esa kreativ fikrlash orqali kompozitsiyani mukammmal yarata boshlaydilar. Kreativ so‘zi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, “Yaratish” degan ma’noni anglatadi. Tasviriy san’at fanini o‘qitishda asosan dars o‘tayotganda o‘quvchilarning kompozitsiyada chiza olishni rivojlantirishda xotiraning ham kuchli bo‘lishi muhim sanaladi. Xotiralar ham operativ, qisqa muddatli va uzoq muddatli bo‘lishi mumkin.

O‘quvchilarga darsda mavzularni tushuntirib o‘tayotgan paytda ular ko‘pincha rasmlarni rangtasvirda ko‘proq rasm chizsa, qalamtasvirga nisbatan rangtasvirda chiroyli va aniq, to‘liq chiqadi deb o‘ylashadi. Avvalo tasviriy san’atda rasm chizish jarayonida qalamtasvirda mukammal chizishni o‘rgansa, so‘ngra rangtasvirda ham mahorat bilan chiza olish qobiliyati rivojlanadi. Tasviriy san’at fanini o‘rgatish haqida rassomlar o‘zlari fikrlarini aytib o‘tishgan. Masalan,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Rus rassomi va pedagogi D.N.Kardovskiy aytib o‘tganidek: “San’atni o‘rganayotganlar tasvirlashni yo‘llari va usullari, ya’ni narsalarni shakli, nisbatlari, rangi, yorug‘ligi, xususiyati va harakat qonuniyatlariga bo‘ysunishga majburdirlar.[6;31].

Shuni aytib o‘tish lozimki, demak o‘qituvchi amaliy mashg‘ulotlarda doskada rasm chizib, keyin esa oq qog‘ozga rasm chizishda qo‘lni uzmasdan chizish texnikasini o‘quvchilarga o‘rgatishi kerak. Bunda qog‘ozga qo‘lni uzmasdan ishlash texnikasida darsda chizish jarayonida qalamda yoki ruchkada chizib olinib, chizish jarayonida qog‘ozga chizishda boshidan oxirigacha qo‘lni uzmagan holda chizish kerak bo‘ladi. Shundagina o‘quvchilarning rasm chizishga bo‘lgan qobiliyatlari rivojlanib, ularning diqqat-e’tibori jamlanadi va rasm chizishga oddiy tasvirlar chizishdan boshlab, so‘ngra keyinchalik ularning rasm chizishga bo‘lgan qobiliyatlari oshganda qiyin tasvirlar chizishga o‘rgatiladi. O‘quvchilar tasviriy san’at darsida chiziqli tasvir bilan shtrix tushunchalarini bir-biridan farq qilishini ko‘pincha bilishmaydi. Ular bu tushunchalarni o‘xshash deb o‘ylashadi. Chiziqli tasvirda o‘quvchilar buyumlarni chizayotgan paytda buyumning chegarasini begilab olishadi. Rasm chizishda o‘quvchilarga chizayotgan paytda ba’zi joyda ingichka ko‘rinar-ko‘rinmas chiziqlar, yo‘g‘on chiziqlar bo‘lishini tushuntirish kerak. Rasm chizayotganda tasvirlashning ikki turiga ahamiyat berib, ya’ni chiziqli tasvirlash va tusli tasvirlash haqida bilib olishlari lozim bo‘ladi. Shtrixda chizishda buyumlarni och-to‘qligi, yorug‘- soyalari ko‘rsatilgan holda buyumlarni hajmini aniq va yaqqol tasvirlagan holda chiziladi. Chiziqda esa buyumning chegaralari yaratilgan holda chiziladi.

Tasviriy san’at fanida o‘quvchilarga dars berish jarayonida o‘qituvchi pedagogik mahoratga, tajribaga asoslangan holda qalamda, qog‘ozda, flomasterda, rangli bo’rlarda, o‘chirg‘ichlarda, rangli qog‘ozlarda chizishni asta-sekin o‘rgatsa, o‘quvchilar darsda amaliy mashg’ulotlarda kompozitsiya chizishda kreativ fikrlaydilar va rasm chizishga harakat qiladilar, keyin esa ularning qiziqishi oshib, mehnat qilib rasm chizishni o‘rganadilar, natijada esa ular qalamtasvirda etyud, eskiz, xomaki ish, ijodiy ish, akademik ish va rangtasvirda asarlar chiza boshlaydilar.

Rasm chizish texnikasining bilim va tajribasini o‘zlashtirish ko‘plab ishlarni yengillashtiradi, o‘quvchining grafika tilini boyitadi va uni tasviriy mahoratni egallashga tayyorlaydi. Rasm chizish jarayonida uning texnik tomonlarini o‘zlashtirish jismlarni realistik tasvirlash uslublarini bilish bilan bog‘liq.[7;39].

Agar yosh rassomlar bir kun mustaqil rasm chizmasa, ular ikki kun rasm chizishdan orqada qoladi deb aytib o‘tgan mashhur ijodkorlar. Shuning uchun tasviriy san’at fanini o‘rganishni to‘xtatmasdan avval naturaga qarab rasm chizishni o‘rganib, keyin esa kompozitsiyada rasm chizishni o‘rganish lozim.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san’at fanini o‘qitishda ijodkorlik faoliyatini shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Tasviriy san’at fanida mavzularni o‘rganishda qiyinchilikka duch kelgan o‘quvchilarni aniqlab olib, ular bilan to‘garaklarda chizish orqali o‘rgatib borish lozim. Boshlang‘ich sinflarga darsda rasm chizish malakalarini paydo bo‘lishi uchun o‘quvchilarga naturaga rasm chizishni o‘rgatish kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga murakkab bo‘lgan rasmlarni chizishga bermaslik kerak.Ularga oddiy, sodda rasm

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

chizishda murakkab bo‘lmagan rasmlar beriladi. Darsda doskada tasvirlab chizish bilan birgalikda og‘zaki mavzuni tushuntirish, chizilgan rasmlarni o‘rgatishda iloji boricha katta rasmlardan foydalanib, ko‘rsatib o‘tilsa, ularni xotirasida qoladi. Aksincha, chizilgan rasmlar kichkina bo‘lsa, oldida o‘tirgan o‘quvchilarga ko‘rinib, orqada o‘tirgan o‘quvchilarga chizilgan rasm ko‘rinmasligi mumkin va qarama-qarshi ranglardan foydalanib kompozitsiyada rasm chizilgan bo‘lsa yoki kompozitsiya chizishda perspektiva, refleks, ritm, kuchli yorug‘, fon haqida tushunchalarni berib o‘tish lozim.

O‘quvchiklarning rasm chizishda qalamni noto‘g‘ri ushlashi bu ularning tasviriy san’atni o‘rganishda kamchiliklaridan biri hisoblanadi. Rasm chizishda avval qalam bilan chizish texnikashni o‘rganish kerak. Qog‘ozga chizish jarayonida qo‘lni yengil, erkin harakatlantirgan holda chizish kerak bo‘ladi. Darslarda o‘quvchilarning chiza olish qobiliyatlarini yana ham rivojlantirishda avval qalamtasvirda rasmni chizishni o‘rgatish orqali, so‘ngra esa rangtasvirda rasm chizishni mukammal o‘rgatish lozim, shuni aytib o‘tish kerakki, tasviriy san’at darslarida ko‘pchilik o‘quvchilar rasm chizayotgan paytda yorug‘-soyani tasvirlashga qiynalishadi va rasmni oxirigacha tugata olishmaydi. Masalan, natyurmortda gullarning, buyumlarning yoki mazarada daraxtlarning yorug‘-soyalarini chizishda rasmni tugata olishmaydi va boshqa rasmni chizishni davom ettirishadi.

Shuning uchun darsda ularning chiza olish mahoratini oshirish chizayotgan kompozitsiyani oxirigacha tugatib, keyin esa boshqa rasmni chizishga o‘rgatish lozim. Agar o‘quvchilar qalamtasvirni mukammal o‘rganib,rasm chizsa demak ular

rangtasvirda va haykaltaroshlikda ham mahorat bilan asarni tugatishadi. Albatta,

buning uchun esa sabr, mehnat qilish orqali rasm chizishda kompozitsiyani o‘rganish kerak bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. S.Abdirasilov, N.Tolipova, N.Oripov “Rangtasvir” Toshkent-“O‘zbekiston’’-2006.[1;3].
2. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov Umumiy pedagogika Toshkent-2018.[2;69].
3. Yusupova Shoxista Alimjanovna. Talabalarning tasviriy san’at mashg’ulotlarida ijodiy qobiliyatini shakllantirish texnologiyasi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari/Актуальны проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.11.4 (2024).
4. Sayfullo Abdullayev, Ashraf Mahmudov Qalamtasvir asoslari Toshkent-2023.[4;11].
5. Nuriddin Saidkulov Ilmiy tadqiqot metodologiyasi Guliston-2023.[5;53].
6. S.F.Abdirasilov Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi.[6;31].
7. Botir Boymetov Qalamtasvir Toshkent-“ILM ZIYO”-2007.[7;39].
8. Odiljanovna, Yakubova Nafisa. "Teaching Students to Think Creatively (in Drawing Classes)." Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL) 3.1 (2024): 7-7.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

9. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "Interpretation of the Problem of Educational use of Aesthetic Views of Eastern Thinkers in Pedagogical Research." Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL) 3.1 (2024): 9-9.
10. Alimjanovna Y. S. The Important Significance of Introducing Students to Artists' Creations in Circle Classes (Ural Tansikbaev) //Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 9-9.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Yusupova Shoxista Alimjanovna**, "Tarix va san'atshunoslik" kafedrasi katta o'qituvchisi, [**Юсупова Шохиста Алимжановна,** Старший преподаватель кафедры «История и искусствоведение»], [**Shokhista A. Yusupova**, Senior Lecturer, Department of "History and Art Studies"]; manzil: O'zbekiston, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Talabalar ko'chasi, 49-uy. [адрес: Узбекистан, Сырдарьинская область, город Гулистан, улица Талабалар, дом 49.], [address: Uzbekistan, Sirdaryo region, Gulistan city, Talabalar street, house 49.]

✉ **Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna,** "Tasviriy san'at" mutaxassisligi magistranti [**Рахмонбердиева Ойгуль Раимжоновна,** Магистрант группы 7-24 по специальности «Изобразительное искусство»], [**Rakhmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna**, Master's student, Group 7-24, Specialization in Visual Arts]; "]; manzil: O'zbekiston, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Talabalar ko'chasi, 49-uy. [адрес: Узбекистан, Сырдарьинская область, город Гулистан, улица Талабалар, дом 49.], [address: Uzbekistan, Sirdaryo region, Gulistan city, Talabalar street, house 49.]
Email: raxmonberdiyevaoygul@gmail.com
Telefon:+99899 852 24 26.

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

TASVIRIY SAN'AT VA FIZIOGNOMIKA FAN INTEGRATSIYASI: PORTRET JANRI MISOLIDA

© A.X. Babadjanov[1]✉

[1]Guliston davlat universiteti, Guliston, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining qalamtasvir fanidan yuqori malakali texnik bilimlarni egallash bilan bir qatorda, inson psixologiyasi, fiziognomika fanidan ham yetarli nazariy bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi zarurligi asoslab berilgan. Portret janrida inson qiyofasining tashqi belgilarini tasvirlash jarayonida uning ichki olamini aks ettirishda fiziognomika bilim ahamiyati alohida ta'kidlanadi.

MAQSAD: ushbu maqolaning maqsadi bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining qalamtasvir fanidan yuqori texnik mahoratga ega bo'lishi bilan bir qatorda, inson psixologiyasi va fiziognomika fanlari bo'yicha yetarli nazariy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishining ahamiyatini asoslab berishdan iborat. Portret janrida inson tashqi qiyofasining vizual ifodasi bilan birga, uning ichki olamini aks ettirishda fiziognomika bilimlarining roli yoritiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tasviriy san'at va fiziognomika fanlariga oid nazariy manbalarni tahlil qilish; Portret janrining tarixiy rivojlanishini o'rganish; Mashhur rassomlarning portret asarlarini tahlil qilish; Amaliy kuzatishlar va tajribalar o'tkazish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: - Tasviriy san'at va fiziognomika fanlarining o'zaro bog'liqligi;

portret janrida insonning tashqi va ichki holatini aks ettirish usullari;

bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari uchun fiziognomika bilimlarining zarurati;

amaliy san'at darslarida fiziognomika bilimlarini qo'llash imkoniyatlari.

XULOSA: portret janri inson qiyofasini tasvirlash bilan birga, uning ichki olamini aks ettirish imkonini ham beradi. Shu sababli, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari nafaqat texnik mahoratni, balki fiziognomika fanini ham chuqur o'rganishlari lozim. Bu esa ularning ijodiy yondashuvini kengaytirib, portret san'atining yanada chuqurroq va ta'sirchanroq bo'lishiga xizmat qiladi

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, tasavvur, surat, siyrat, psixologiya, fiziognomika, etnopsixologiya, ermatoglifika.

Iqtibos uchun: Babadjanov A.X. Tasviriy san'at va fiziognomika fan integratsiyasi: portret janri misolida. // Inter education & global study. 2025. №3 B.369-378.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ИНТЕГРАЦИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА И ФИЗИОГНОМИКИ: НА ПРИМЕРЕ ЖАНРА ПОРТРЕТА

© А.Х. Бабаджанов[1]✉
[1]Гулистанский государственный университет, Гулистан, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье обоснована необходимость будущего преподавателя изобразительного искусства не только овладеть высокими техническими навыками по рисунку, но и обладать достаточными теоретическими знаниями и навыками в области психологии человека и физиогномики. Особое внимание уделяется значению знаний физиогномики в процессе изображения внешних черт лица человека в портретном жанре и передаче его внутреннего мира.

ЦЕЛЬ: обоснование важности не только технического мастерства будущих преподавателей изобразительного искусства, но и их теоретической подготовки в области психологии и физиогномики. Освещается роль физиогномических знаний в визуальной передаче внешнего облика человека и его внутреннего мира в портретном жанре.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: анализ теоретических источников по изобразительному искусству и физиогномике;

- изучение исторического развития портретного жанра;
- анализ портретных работ известных художников;
- проведение практических наблюдений и экспериментов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: взаимосвязь изобразительного искусства и физиогномики;

- методы передачи внешнего и внутреннего состояния человека в портретном жанре;
- необходимость знаний физиогномики для будущих преподавателей изобразительного искусства;
- возможности применения физиогномических знаний на практических занятиях по искусству.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: портретный жанр позволяет не только запечатлеть внешность человека, но и передать его внутренний мир. Поэтому будущие преподаватели изобразительного искусства должны глубоко изучать не только технические аспекты рисунка, но и основы физиогномики. Это расширит их творческий подход и сделает портретное искусство более глубоким и выразительным.

Ключевые слова: изобразительное искусство, представление, портрет, облик, психология, физиогномика, этнопсихология, герматоглифика.

Для цитирования: Бабаджанов А.Х. Интеграция изобразительного искусства и физиогномики: на примере жанра портрета. // Inter education & global study. 2025. №3. С. 369-378.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

INTEGRATION OF VISUAL ARTS AND PHYSIOGNOMY: THE EXAMPLE OF THE PORTRAIT GENRE

© Akhmadjan Kh. Babadjanov[1]✉
[1] Gulistan State University, Gulistan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: This article substantiates the necessity for future visual arts teachers to acquire not only high-level technical drawing skills but also sufficient theoretical knowledge and competencies in human psychology and physiognomy. Special emphasis is placed on the importance of physiognomic knowledge in portraying external facial features in the portrait genre and reflecting a person's inner world.

AIM: The objective of this article is to justify the importance of not only technical proficiency but also theoretical preparation in psychology and physiognomy for future visual arts teachers. The role of physiognomic knowledge in visually representing a person's external appearance and inner world in the portrait genre is highlighted.

MATERIALS AND METHODS: Analysis of theoretical sources on visual arts and physiognomy;

study of the historical development of the portrait genre;

analysis of portrait works by famous artists;

conducting practical observations and experiments.

DISCUSSION AND RESULTS: The interrelation between visual arts and physiognomy;

methods of conveying both external and internal aspects of a person in the portrait genre;

the necessity of physiognomic knowledge for future visual arts teachers;

opportunities for applying physiognomic knowledge in practical art lessons.

CONCLUSION: The portrait genre not only captures a person's appearance but also conveys their inner world. Therefore, future visual arts teachers must deeply study both the technical aspects of drawing and the principles of physiognomy. This will expand their creative approach and enhance the depth and expressiveness of portrait art.

Key words: visual arts, imagination, portrait, appearance, psychology, physiognomy, ethnopsychology, dermatoglyphics.

For citation: Akhmadjan Kh. Babadjanov. (2025) 'Integration of visual arts and physiognomy: the example of the portrait genre', Inter education & global study, (3), pp. 369-378. (In Uzbek).

Oliy o‘quv yurtlarida o‘tkazilgan tajriba, kuzatish hamda xulosalar shuni ko‘rsatadiki, yosh mutaxasis o‘qituvchi o‘zining pedagogik faoliyatida nafaqat psixologiyaning umumiy jixatlariga e’tibor berish (odam psixologiyani o‘rganib to‘g‘ri

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

muomala qilish, uning individual xususiyatlarini o‘rganish, talabalarga muvofiq keladigan tarbiya usullarini izlab topish hamda ta’lim berish va boshqalar) balki turli mashg‘ulotlar jarayo nida xususan tasviriy faoliyatida va yoshlar tarbiyasida uni amaliy qo‘llashi joiz. Ilmiy manbalarni tahlil qilish hamda, amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish jarayonida kuzatish natijalari shuni ko‘rsatadiki, badiiy grafika fakultetlarida talaba yoshlariga ta’lim berish va ularni bo‘lajak pedagogik faoliyatga tayyorlash ko‘pgina nazariy hamda amaliy muammolarni xal etishni taqoza etadi. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlashda portret qalamtasvir fani bo‘yicha olib boriladigan psixologik kuzatish natijasida biz qo‘yidagi xulosalarga keldik:

1. Portret qalamtasvirini bajarishdan oldin uning psixologik xarakteri yetarli darajada ochib berilmaydi.

2. U yoki bu amaliy ishlarni bajarishda talabalarga fiziolognimika miqdorlari yetarli tahlil qilinmaydi.

3. Qo‘yilgan naturaning kompozitsion tuzilishi, uning metodik bosqichlarida amaliy tug‘ri bajarish yo‘llari har doim ham ochib berilmaydi. Yuqorida bayon etilgan muammolarning ajoyib hal etilishi bo‘lajak rassom o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim omildir.

Taniqli psixolog va pedagog olimlar ijodiy tasavvurni tasviriy faoliyatidagi asosiy psixologik jarayonni hisoblab, yoshlar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda uning mohiyati bexisob deb takidlaydilar. Yoshlarning tasviriy san’at sohasidagi hamda tasvavurlarini shakllantirishning nazariy hamda amaliy muammolarini rus olimlaridan E.I.Ignatyev, V.S.Kuzin, L.T.Medvedev, N.N.Rostovtsev, E.V.Shoroxov, o‘zbek olimlaridan R.Hasanov, S.Bulatov, B.Boymetov, A.Sulaymanov, O.Xudoyorova, U.Nurtayev, S.Abdirasilov, M.Nabiyev, G‘.Abdurahmanov, R.Rajabov va boshqalar o‘zlarining nazariy va tajriba tadqiqot ishlarida amalga oshirganlar.

Har bir bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchisi uchun yuzani o‘qish san’ati bilan atroflicha tanishish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun fiziognomika fanini yaxshi o‘rganish yaxshi samara beradi.

Fiziognomika – yuzni o‘qish san’ati juda qadim zamonlarda vujudga kelgan. Inson portretini psixologik xolatini tasvirlashda yuzni o‘qish san’ati asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Etibor bergan bo‘lsangiz xalq og‘zaki ijodida personajlarning yuz tuzilishiga alohida ahamiyat beriladi. Masalan, doimo devlarning ko‘zi shokosaday, quloqlari supraday, yalmog‘iz kampirlar qirg‘iyburn, lablari osilgan bo‘ladi. Donishmandlar keng peshonali, nuroniy chehrali qilib tasvirlanadi.

Umuman, folklor asarlarida ijobiy qahromonlarning yuz bichimi hamisha o‘zaro mutanosiblikda – keng peshonali, tekis qoshli, chiroyli ko‘zli, tiniq yuzli, xullas, hamma a’zolari uyg‘unlikda bo‘lgani holda salbiy qaxramonlar tor peshona, supurgiqosh, chag‘irko‘z, qirg‘iy-burun, shalpangquloq, qiyshiq og‘iz, cho‘tir yuz va hakozo tarzda, ya’ni yuzdagi a’zolarida albatta biron nuqson bilan ko‘rsatiladi [1, 224-b.]. Xo‘sh buning boisi nimada? Gap shuningdek kishining fe’l-atvori, axloq-odobi, qolaversa, ichki ma’naviy olamining qandayligi yuzida bamisoli ko‘zgudagi kabi aks etib turishiga xalq azaldan e’tibor

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

bergan. Masalan, ko‘zning o‘zini olaylik. Bundan yaxshilik kutib bo‘lmaydi, deyishadi chag‘irko‘z, bitko‘z odam haqida. «Ko‘zi naq teshvorguday-a»! deyishadi nigohi qattiq odam to‘g‘risida. Va aksincha, yaxshi odamlar haqida ko‘zlari porlab turadi, chaqnab turadi, ko‘zlarida sehri bor deyiladi [2, 24-b.]. Shu bois ham go‘zal qizlar qosh-ko‘zlari popukdekkina deb tasvirlanadi, yorning ko‘zlari charosga qiyoslanadi. Qo‘yko‘z, bo‘tako‘z, ohu ko‘z, shahlo ko‘z, xumor ko‘z degan iboralar bor va hakozo. Shuningdek bodomqovoq, badqovoq degan iboralar ham qahromonlarning ichki olamini ochishda bir chizgi vazifasini o‘taydi. Go‘zallar qalamqosh, qayrilma qosh deb ta’riflangani holda badjahl kishilar o‘siq qosh, supurgi qosh va hokazo deb ta’riflanadi. Burunning qandayligi ham ko‘p narsadan dalolat beradi. qadimgilar burun yuzning ziynati deb bejiz aytishmagan. Binobarin, kishi chehrasini hech bir a’zo qiyshiq burunchalik buzib turmaydi va aksincha, nafis, qirra burun yuzga alohida husn bag‘ishlaydi. Yana shunisi borki, xunuk yuzda chiroyli burunni uchratish qiyin. Chindan ham, agar e’tibor qilsangiz, xunuk yuzda hatto ohu ko‘zlar yo bejirim lablar uchrab qolishi mumkin-u lekin nafis, qirra burun aslo uchramaydi. Xullas, kishining botiniy olamini yuzda zohir etuvchi bu xil alomatlar nihoyatda ko‘p. Xalqimiz inson yuzini ko‘zguga qiyoslashi ham bejiz emas. «Falonchining yuzidan nur yog‘iladi» va yoki aksincha, «pistonchining turqi sovuq» kabi iboralarda jon bor. Etnopsixologiyadan bexabar, lekin kishining ichki olami bilan tashqi qiyofasidagi uzviy aloqadorlikni hayot tajribasida sinab bilgan xalqimiz bu xil iboralari bilan kim ezgulikka moyil-u kimdan yaxshilik kutib bo‘lmasligini aniq ifodalay olgan.

Yuzdagi alomatlarga qarab kishining fe’l-atvori, axloq-odobi, ma’naviy olami to‘g‘risida xulosa chiqarish yuzni o‘qish san’ati deb ataladiki, u jahondagi barcha xalqlarda bor. Ilmiy tilda esa u «fiziognomika» deb ataladi. «Fiziognomika» yunoncha so‘z bo‘lib, «fizio» – tabiat (kishi tabiati, bu o‘rinda yuzi ma’nosida) va «gnomika» – bilish ma’nolarini anglatadi. Ya’ni, fizognomika-yuzni o‘rganish demakdir. Boshqacha aytganda, yuzni o‘qish san’ati jiddiy e’tiborga sazovar. Zotan, u ham dermatoglifika yoki iridodiagnostika singari kishi organizimdagi hamma a’zolar o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ko‘pchilikka yaxshi ma’lumki, kaftdagi chiziqlarga qarab fol ochish yaqin-yaqinlarda ham firibgarlikdan boshqa narsa emas, deb tushunilardi. Endilikda esa dermatorlifika istiqbolli ilmiy yo‘nalishga aylangan. Mutaxassislar kaftdagi naqsh-chiziqlarga qarab, organizmdagi irsiy kasalliklarni, aqliy nogironlik va hakozolarni aniqlashmoqda. Fiziognomikani dermatoglifika va iridodiagnostika kabi ilmiy yo‘nalishlar qatorida tilga olayotganimizning boisi yuzdagi ba’zi alomatlar ham yashirin kasalliklar belgisi ekanligidadir. O’z holicha esa, hozirda, fiziognomika o‘ziga xos etnografik ahamiyatga ega bo‘lib, muayyan xalq, muayyan millat hayotining psixologik jihatlarini, inson surati va siyrati masalalariga doir qarashlarini o‘rganishda yordam beradi. Taassufki bir xalqda bor narsa boshqa xalqqa ham bemalol to‘g‘ri kelaveradi, deb bu xilda jo‘n fikr yuritish etnografiyani anchayin yuzaki tushunishga va oqibatda oddiy narsalarda chalkash tasavvurlar tug‘ilishiga olib keladi [3, 89-b.]. Dunyoda bir xalqning o‘zigagina xos bo‘lgan urf-odat yo tushunchani butkul boshqa xalqqa nisbatan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llayverish noto‘g‘rigina emas, hatto kulgili ekanligini yaqqol ko‘rsatish uchun, keling, misollarga murojat qilaylik. Biz, o‘zbeklarda hamsuxbatdan ko‘zni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

olib qochaverish ayb sanaladi. «Qani, ko‘zimga qarab gapir-chi!» degan ibora ham bor. Keniyaning luo qabilasida esa kuyov qaynonaning ko‘ziga qarashi gunohi azim hisoblanadi, u gaplashganda hatto orqasini o‘girib turishga majbur. Endi, o‘zbek kuyovlari qaynonasi bilan gaplashganda orqasini o‘girib turishini tasavvur qilib bo‘ladimi!

Xitoydagi tarixiy solnomalar imperatorlar, hukumdorlar, donishmandlar hayotining tavsifi bilan to‘lib ketgan [4, 27-b.]. Ularda bu kishilarning hatti-harakati tashqi qiyofalari, asosan yuzlarining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘lanadi. Yuzdagi har bir belgi aniq narsani anglatadi, deb hisoblangan.

Vaqt o‘tishi bilan xitoy fiziognomistlari yuzni o‘qish san’atini ancha yuksaltirishdi, ular yozgan risolalalar Sharqning xilma-xil mamlakatlariga tarqalib ketdi [11, 192-b.]. Bu risolalarni Yaponiyaga ham olib kelishgan. Garchi hozirgi vaqtda Yaponiyada fiziognomikaga yalpi qiziqish bo‘lmasada, uning ta’siri tasviriy san’at, niqob ishlab chiqarish, teatrda, muloqotning turli sohalarida sezilib turadi. Xush, yapon fiziognomikasining mohiyati nimadan iborat o‘zi?

Odam yuzini o‘qish qulay bo‘lishi uchun yaponlar uni gorizontal chiziqlar bilan shartli ravishda uchta-yuqori, o‘rta va quyi zonalarga bo‘lishadi. Yuqori zona bu, asosan peshona qismi bo‘lib, kishining butun hayot yo‘lini yaqqol aks ettiradi. Umrning 15 dan 30 yoshgacha bo‘lgan qismiga, shuningdek, nihoyatda keksalik davriga oid ma’lumotlar shu zonadan olinadi. Risoladagidek (shakli to‘g‘ri va terisining rangi toza) peshona kishining jismiyu ruhiyati sog‘lomligidan dalolat beradi. qoshlardan burun uchigacha davom etuvchi o‘rta zona hayot yo‘lining 35 dan 50 yoshgacha bo‘lgan davrini aks ettiradi. Bu zonaning har jihatdan uyg‘unligi kishi psixikasi muvozanatda ekanligini ko‘rsatadi [5, 27-b.]. Bu xususiyatlarning o‘zaro uyg‘unligi (mutanosibligi, rangi, tiniqligi va hakozolari) yaxshi alomat hisoblanadi. Mabodo ana shu beshta xususiyatning hammasi benuqson bo‘lsa, bu xususiyatlar sohibining umri toshqin daryoday barakali o‘tadi, deb ta’kidlashadi yapon fiziognomistlari. Kishi yuzidagi nuqsonlar esa fe’l-atvoridagi uzilishlardan dalolat beradi.

Qosh enli, uzun qosh eng ajoyibi hisoblanadi. Uning shakli, rangi qalinligiga ko‘ra mutanosib rivojlanishi kishining hissiyoti, aqli va fe’l-atvori o‘zaro uyg‘unlikda ekanligidan dalolat beradi [6, 101-b.]. Dag‘al va baroq qosh esa buning aksini ko‘rsatadi.

Fiziognomistlarning fikriga ko‘ra, qosh kishining yaqin odamlari bilan o‘zaro munosabatini aks ettiradi. Chiroyli qosh uning egasi atrofidagilar bilan yaxshi munosabatda bo‘lishini ko‘rsatadi. Qalin qoshning tashqi uchlari ko‘tarilib turishi olihimmatlik va mardlik alomatidir [7, 346-b.]. Bundan odamlar omadli hisoblanadi. qoshning tashqi uchlari pastga qayrilishi tortinchoqlikni bildiradi. Bunday qoshning tuzilishi va rangi ko‘rimsiz bo‘lsa, bu – yurakdagi jo‘shqinlik tugagani alomatidir. qosh tekis va o‘zun, atrofdagi terisi tiniq rangda bo‘lsa, bunday erkak aqillidir. Shunday ayol esa tantiq hisoblanadiki, undan istalgan hatti-harakatni kutish mumkin.

Ko‘z azaldan qalb ko‘zgusi deb ta’riflanadi. Kishining ichki kechinmalri hamisha ko‘zidan ko‘rinib turadi. Jozibador va maftunkor ko‘z egasi sog‘lom, irodali, aqlli, jo‘shqin, yuragida o‘ti bor odam bo‘ladi [9, 77-b.]. Fiziognomistlarning fikriga ko‘ra, bunday ko‘zlar bir qator xususiyatlarga ega bo‘lib, nur va iliqlik taratib turadi, qovoqlar bilan yaxshi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

himoyalangan, rangdor pardasi ifodali, serma'no. Mabodo shunday bo'lmasa, bu - kishining fe'l-atvori va aql-idrokida nuqson borligini ko'rsatadi. Ko'zlari yirik-yirik odam serhissiyot sezgir aksari hollarda mard va jasur, hatto etakchilikka intiluvchan bo'ladi. Kichkina ko'zlar esa ko'pincha ichimdagini top deydigan, goho o'ziga bino qo'ygan o'jar odamlarga xos[10, 103-b.]. Yuqori qovoqning salqib turishi-etuklik belgisi, juda osilib ketishi esa erkaklarda jo'shqinlik, g'ayrat tugaganini ko'rsatadi. qovoqning yoqimsiz rangi fiziologik jarayonlar izdan chiqqanini ko'rsatadi. Pastki qovoqning salqib turishi-jo'shqin hayot belgisi, osilib tushishi, boshqacha aytganda, ko'z xaltasi mayl-xoxishlar betiyiqligidan dalolat beradi. Ustki va pastki qovoqlarning shishib turishi esa – hayotdan toliqish alomati. Ko'zlarning tashqi burchagi serajinligi – ziyraklik, aql-zakovat belgisi.

Burun Sharq fiziognomistlarining fikriga ko'ra, burun ham kishining ma'naviy hayotidagi o'ziga xos xususiyatlardan dalolat beruvchi ko'rsatkichdir. Ko'zlarda bo'lganidek, burun shakli ham 40 yoshdan keyin barqarorlashadi. Risoladagidek buruning uchi yumaloq, parraklari yaqqol shakllangan bo'ladi, deb hisoblanadi. Burun teshiklarining haddan ziyod kattaligi shaxsiyatdagi nuqsonlardan daraka beradi. Burun risoladagidek odam sherning shijoatiga ega, ya'ni jasur, serg'ayrat, taptortmas bo'ladi. Burni chiroyli odam atrofdagilarga yoqadi. Oqibat ham shunga yarasha: chiroyli burun egasi kuchli shaxsga aylanadi. Uzun burun, odatda, yaqqol ko'rinib turuvchi shaxsiyat belgisidir. Lekin u turli ko'rinishda xilma-xil ma'nolarni anglatadi. Masalan, ko'zlar, og'iz va dahan bilan uyg'un keluvchi uzun burun kuchli xarakterdan (va aksincha, qisqa burun ochiqko'ngillik va nekbinlikdan) dalolat beradi. Suyakdor uzun burun- takabburlik, kalondimog'lik, sho'rtumshuqlik belgisi. Suyakdor, uzun va qirg'iy burun esa ko'pincha badqovoq odamlarda uchraydi. Agar uzun burunning qanshari juda past, qiyshiq yoki ko'ndalang chiziqlari bo'lsa, bu – kasallik alomati. Lekin yuzning umumiy uyg'unligida kasallik alomati muhim rol o'ynamaydi.

Og'iz shakli va o'lchamlari kishidagi hayotiy kuchlar qay darajadaligini aniqlashga imkon beradi [9, 77-b.]. Yaponlar erkaklar og'zi katta, ayollarniki esa,aksincha, kichkina bo'lishini ma'qul ko'rishadi. Og'iz katta ayol mardonavor deb hisoblanadiki, bu erkaklarga ko'pdan yoqavermaydi. Umumiy xulosalar quyidagicha. Og'zi tor kishilar tirikchilik payiga tushgan bo'ladi, irodasi zaif. Yupqa lablar – injiqlik, serzardalik belgisi. Og'iz katta bo'lib, burchaklari pastga qayrilgan odam kuchli irodaga ega, unga ta'sir ko'rsatish osonmas. Lablarning xadeganda uchib turishi-asabiylik alomati. Burchaklari pastga qayrilgan kichkina og'iz ta'sirchan kishilarda uchraydi. Do'rdoq lablar – muvaffaqiyat garovi. Og'izning qiyshaymay, bir tekis ochilishi histuyg'ular jilovlanganini ko'rsatadi.

Quloq Sharq fiziognomikasida to'rt qismga bo'linadi: tashqi hoshiya, o'rta hoshiya, ichki hoshiya va solinchak – pastki yumshoq qismi. quloq bo'yicha, odatda bolalik qanday o'tgani aniqlanadi. Bunda umumiy qoidalar quyidagicha. Yaxshi shakllangan quloq baxtli bolalaikdan darak beradi. quloqning qing'ir-qiyshiqligi va rangparligi-ko'ngilsizliklar darakchisi. Shalpangquloq qariyib hamisha shaxsiyatdagi qusurlardan dalolat beradi. Chuchvara quloq – baxtsizlik alomati. Quloq boshda qanday joylashgani ham ko'p narsani anglatadi. Quloqning yuqori uchi qoshdan baland bo'lishi yuksak aql-zakovoti ko'rsatadi;

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ko‘z bilan bir chiziqda joylashuvi – aql-idrok o‘rtachadan yuqoriligini; ko‘zdan past bo‘lishi aqli idrok o‘rtacha yoki undan pastligini bildiradi. Quloqning solinchagi yaxshi shakllanmagani ruxiyatdagi nomuvofiqliklardan darak beradi. Solinchakning uzunligi-beg‘amlik, yaqqol sezilmasligi-nozik tabiat, injiqlik belgisi. Solinchagi juda katta odamlar Sharqda donishmand sanaladi. Agar u sal oldinga chiqib tursa, bu – samimiylik alomati. Quloqning ichki hoshiyasi his-tuyg‘ular ko‘rsatkichidir: u ichkariga tortilgan bo‘lsa-vazminlik, bosiqlik, tashqariga chiqib turgan bo‘lsa-jizzakilik belgisi. quloqning och qizg‘ish rangi maqbul hisoblanadi, sarg‘ish yoki ko‘kimtir rang kasalikdan darak beradi. Quloqning oldingi va yuqori qismlari yaqinda qoramtir rang bo‘lishi-yashirin kasallik alomati. quloq ichida xol bo‘lishi – ko‘ngilsizlik baxtisizlik belgisi. Yuz asosan ana shu besh a’zoga qarab o‘qiladi. Lekin bu faqat asosiy bosqich, xolos. Yuz haqida umumiy taassurot bosqich, hosil qilish uchun yana yong‘oq suyaklari, jag‘ va dahan shaklining o‘ziga xos xususiyatlari ham hisobga olinadi.

Yuz shakllari uzunchoq yuz to‘g‘ri to‘rtburchak shaklda bo‘ladi, ya’ni peshona kengligi qariyb dahan kengligiga to‘g‘ri keladi. Bu, aslzodalarga xos yuz, deb bilinadi. Yapon fiziognomistlarning tasdiqlashicha, Yaponiya hukmdorlaridan aksariyatining yuzi mana shunday shaklda bo‘lgan ekan. Uzunchoq yuz aql-zakovat, ta’sirchanlik, vazminlikdan dalolat beradi. Aksari hollarda bunday yuz omilkor, mulohazali odamlarda uchraydi. Aytishlaricha, bunday kishilrada tashkilotchilik qobiliyati, maqsadga intiluvchanlik kuchli bo‘ladi. Uchburchak yuz uchun baland va keng peshaona, turtib chiqqan yong‘oqlar, kichkina, lekin suyakdor burun, chuqur joylashgan ko‘zlar, kichkina, lekin oldinga chiqqan dahan xosdir. Bunday yuzning lunjida et kam bo‘ladi. Uchburchak yuzli kishilar (erkaklar va ayollar) nihoyatda serhissiyot, ta’sirchan, deb hisoblanadi [12, 135-b.]. Bunday shakldagi yuz Yaponiyada yuksak iste’dod belgisi, deb bilinadi. Lekin ayni vaqtda yaponlar uchburchak yuzli kishining fe’l-atvorida ayyorlik, boshqalar bilan chiqisha olmaslik kabi xususiyatlar ham bo‘lishini ta’kidlashadi. Fiziognomistlarning fikricha, bunday kishilar fidokorlik, sadoqat kabi tuyg‘ularga begona. Yana aytishlaricha josuslar va xoinlar orasida uchburchak yuzli kishilar juda ko‘p uchrar ekan.

Trapetsiyasimon shakldagi yuz uchburchak yuz bilan ko‘p jihatdan mushtarak. Bunday yuz uchun, keng peshona va torayib boruvchi, lekin uchli bo‘lmagan dahan xosdir. Shunday yuzli odam aql-idrokli, ta’sirchan, artistona tabiatli deb hisoblanadi, lekin kurashchanlik ruhi ularga xos emas. Yuzining trapetsiyasimon shakli yaqqol ko‘rinib turuvchi ayollar hamma narsaga umid va ishonch bilan qaraydigan bo‘lishadi. Ular atrofdagilar uchun ko‘ngildagidek sharoit yaratib, baxtli hayot kechirishadi.

Kvadrat shaklli yuz odatda badjahl, mard, ko‘pincha qahri qattiq kishilarga xos. Ular odatda kaltafahm, ko‘pincha qo‘pol, keskin bo‘lishadi. Qat’iyatlik bunday kishilarning fe’l-atvorida yaqqol ko‘rinib turuvchi xususiyatdir. Boshqalar bilan dangaliga, ro‘yirost muomala qilishadi. Kvadrat yuzli kishilar muvaffaqiyatga erishishga nihoyatda o‘ch. Garchi o‘zlari zo‘r berib etakchilikka intilishsa ham, ulardan yaxshi ijrochilar chiqadi. Shunday yuzli ayollar esa hukumronlikka intiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Yumoloq shaklli yuz ochiq ko‘ngillik, muloyimlik, tinchliksevarlik ramzi deb hisoblanadi [8, 166-b.]. Shunday yuzli kishilar ko‘pincha shirin ovqatlar shinavandasi bo‘ladi. Maishiy qulayliklarni, dilkash davralarni yaxshi ko‘rishadi, shon shuhratga intilishmaydi. Lekin ayni vaqtda bunday odamlarga izzattalablik hissi ham yot emas. yumoloq yuzli odam, yong‘oqlari turtib chiqqan, ko‘zlari chaqanab turgan bo‘lsa-maqsadga intiluvchandir. Fiziognomistlarning fikricha, bunday kishilardan ajoyib etakchilar va sarkardalar etishib chiqadi.

Ma’lumki qalamtasvir fani tasviriy san’atning har bir turlarini mukammal o‘zlashtirishda asos hisoblanadi. O‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki Badiiy grafika fakulteti talabalari va har bir qalamtasvir dasrlarida odam portretini chizishni o‘rganuvchilar quyidagi asosiy talablarga e’tiborni qaratshlari lozim:

- Doimo xomaki rasm va qalamchizgi ishlari bajarish;
- Odam boshning gips bo‘laklarini atroflicha chizib o‘rganish;
- Odam plastik anatomiyasini atroflicha o‘rganish;
- Yuzni o‘qish san’atini nazariy bilish;
- Qalamtasvir o‘qitish metodikasiga e’tibor berish;
- Tasviriy san’atning turli janrlarida ijod qilib o‘tgan san’at ustalarining amaliy ishlaridan nusxa ko‘chirish;
- Qalamtasvir chizishni o‘rganishda milliy san’at namunalaridan foydalanish.

Yuqorida qayd etilgan talablar bilan birga talaba yoki mustaqil o‘rganuvchi qalamtasvir ishlashda oldilarida turgan muammolar xaqida va qalamtasvir ishlashda nafaqat qo‘llar, balki aqlan ishlashlari zarur ekanligini yodda tutishlari lozim. O‘ylaymizki ushbu ilmiy maqola tasviriy san’at yo‘nalishi talabalari, kasb-hunar va san’at kollejlarida tahsil olayotgan qiziquvchilarga ilmiy manba sifatida qo‘l keladi va undan unumli foydalanadilar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: Xalq merosi. 1993.
2. Abu Rayhon Beruniy.100 hikmat (ibratli so‘zlar). - T.: Fan. 1993.
3. N.Sh.Almetov. O‘quv-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasining imkoniyatlaridan foydalanish. - Chimkent. 1993.
4. Amaliy psixologning ish kitobi. U.A.Yo‘ldoshev, M.Po‘latova, Z.Korayev, I.Aripov. Navoiy. 2000. - M.: 1987.
5. B.Boymetov. Portret qalamtasviri. -Toshkent. 2001.
6. S.Bulatov, B.Anaxanov. Rang psixologiyasi. -T.: Nizomiy nom. TDPU. 2003.
7. M.Vohidov. Bolalar psixologiyasi. -T.: O‘qituvchi.1982.
8. Kaykovus «Qobusnoma» - T.: Istiqlol. 1994.
9. Jaborov. Rangshunoslikka oid ayrim atama va iboralarning izohli lug‘ati. -T.: 2001.
10. B.Oripov. Tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi. -N.: 2007.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

11. R.Hasanov. Tasviriy san’at asoslari. -T.: G‘.G‘ulom. 2009.
12. N.Abdullayev. San’at tarixi. 2-jild, 1-kitob. -T.: San’at. 2001.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Babadjanov Axmadjan Xudoyberdiyevich**, “Amaliy san’at va dizayn” kafedrasi katta o‘qituvchisi, [**Бабаджанов Ахмаджан Худойбердиевич,** Старший преподаватель кафедры «Прикладное искусство и дизайн».], [**Babadjanov Akhmadjan Khudoiberdievich**, Senior Lecturer at the Department of "Applied Arts and Design"]; manzil: O‘zbekiston, Guliston shahri, 4-kvartal [адрес: Узбекистан, город Гулистан, 4 квартал], [address: Uzbekistan, Gulistan city, 4th quarter] email: ahmadjanbabadjanov@gmail.com

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

MA'NAVIY-AXLOQIY FAZILARLARNING BADIIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI

© G.Sh. Raxmonova[1]✉

[1]Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: jamiyat taraqqiyotida ma'naviy-axloqiy fazilatlarning o'rni beqiyos bo'lib, ular inson tafakkuri va ruhiyatining shakllanishida muhim omil sanaladi. Badiiy-estetik jihatdan esa, ushbu fazilatlar san'at, adabiyot va madaniyat vositasida namoyon bo'lib, kishilarning dunyoqarashi va hayotga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Mazkur tadqiqot ma'naviy-axloqiy fazilatlarning badiiy-estetik xususiyatlarini o'rganish va ularning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotdagi ahamiyatini tahlil qilishga qaratilgan.

MAQSAD: ushbu maqolaning asosiy maqsadi – ma'naviy-axloqiy fazilatlarning badiiy-estetik xususiyatlarini aniqlash, ularning inson hayoti va jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini ochib berish hamda san'at va adabiyotda aks etish usullarini tahlil qilishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

tahliliy yondashuv – tarixiy va zamonaviy adabiyotlar asosida ma'naviy-axloqiy fazilatlarning san'at va adabiyotda aks etishini tahlil qilish.

taqqoslash usuli – turli madaniyat va davrlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning badiiy-estetik jihatdan ifodalanish usullarini solishtirish.

tajribaviy tadqiqot – badiiy asarlar va san'at namunalarining axloqiy fazilatlarni shakllantirishdagi ahamiyatini o'rganish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalariga ko'ra, ma'naviy-axloqiy fazilatlarning badiiy-estetik xususiyatlari quyidagi jihatlar orqali namoyon bo'lishi aniqlandi:

san'at va adabiyotda aks etishi – badiiy asarlar inson qalbini tarbiyalashda, yaxshi va yomonni ajratishda muhim rol o'ynaydi.

musiqa va tasviriy san'atdagi ifodalanishi – musiqa va tasviriy san'at orqali inson ruhiyatiga ta'sir etish, ma'naviy barkamollikka yo'naltirish.

axloqiy me'yorlar va estetika o'rtasidagi bog'liqlik – estetik go'zallik axloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, jamiyatda axloqiy barkamollikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ijodiy jarayonda namoyon bo'lishi – ijodiy faoliyat insonning ichki dunyosini aks ettirish bilan birga, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni keng targ'ib etish imkonini beradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

XULOSA: ma'naviy-axloqiy fazilatlar va badiiy-estetik xususiyatlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular inson ma'naviyatini yuksaltirish va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishda muhim ahamiyatga ega. Badiiy adabiyot, san'at, musiqa va madaniyat ushbu fazilatlarni shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Kelajakda ushbu mavzuni chuqurroq o'rganish, zamonaviy san'at va madaniyatdagi yangi tendensiyalar asosida tadqiqotlar olib borish zarurdir.

Kalit so'zlar: ma'naviy-axloqiy fazilatlari, yuksak ma'naviyat, davlat siyosati, yoshlar ongi, ta'lim-tarbiya.

Iqtibos uchun: Raxmonova G.Sh. Ma'naviy-axloqiy fazilarlarning badiiy-estetik xususiyatlari. // Inter education & global study. 2025. №3 B.379-387.

ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫЕ КАЧЕСТВА И ИХ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

© Г.Ш. Рахмонова[1]✉
[1]Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: роль духовно-нравственных качеств в развитии общества неоценима, поскольку они являются важным фактором в формировании человеческого мышления и психики. С художественно-эстетической точки зрения эти качества проявляются через искусство, литературу и культуру, определяя мировоззрение и отношение людей к жизни. Данное исследование направлено на изучение художественно-эстетических особенностей духовно-нравственных качеств и их значения в социально-культурном развитии.

ЦЕЛЬ: Основная цель данной статьи – определить художественно-эстетические особенности духовно-нравственных качеств, раскрыть их влияние на жизнь человека и развитие общества, а также проанализировать способы их отражения в искусстве и литературе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования использовались следующие методы:

аналитический подход – анализ исторической и современной литературы с целью изучения отражения духовно-нравственных качеств в искусстве и литературе.

сравнительный метод – сопоставление способов художественно-эстетического выражения духовно-нравственных ценностей в разные эпохи и в разных культурах.

экспериментальное исследование – изучение влияния художественных произведений и образцов искусства на формирование нравственных качеств.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в результате исследования было выявлено, что художественно-эстетические особенности духовно-нравственных качеств проявляются в следующих аспектах:

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

отражение в искусстве и литературе – художественные произведения играют важную роль в воспитании человеческой души, помогая различать добро и зло.

выражение в музыке и изобразительном искусстве – воздействие музыки и изобразительного искусства на психику человека способствует духовному совершенствованию.

связь моральных норм и эстетики – эстетическая красота тесно связана с нравственными ценностями и способствует формированию морального совершенства в обществе.

проявление в творческом процессе – творческая деятельность не только отражает внутренний мир человека, но и является важным инструментом для распространения духовно-нравственных ценностей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Духовно-нравственные качества и их художественно-эстетические особенности взаимосвязаны и играют важную роль в развитии духовности человека и общества. Литература, искусство, музыка и культура являются эффективными средствами формирования этих качеств. В дальнейшем необходимо продолжить изучение данной темы, учитывая современные тенденции в искусстве и культуре.

Ключевые слова: духовно-нравственные качества, высокая духовность, государственная политика, сознание молодежи, образование и воспитание.

Для цитирования: Рахмонова Г.Ш. Духовно-нравственные качества и их художественно-эстетические особенности. // Inter education & global study. 2025. №3. С. 379-387.

SPIRITUAL AND MORAL QUALITIES AND THEIR ARTISTIC AND AESTHETIC CHARACTERISTICS

© Gullola Sh. Rakhmonova[1]✉
[1]Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the role of spiritual and moral qualities in the development of society is invaluable, as they are essential in shaping human thinking and psychology. From an artistic and aesthetic perspective, these qualities manifest through art, literature, and culture, shaping people's worldviews and attitudes toward life. This study aims to explore the artistic and aesthetic characteristics of spiritual and moral qualities and analyze their significance in socio-cultural development.

AIM: the main objective of this article is to identify the artistic and aesthetic characteristics of spiritual and moral qualities, reveal their impact on human life and social development, and analyze their representation in art and literature.

MATERIALS AND METHODS: the study utilized the following methods:

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

analytical approach – analyzing historical and modern literature to examine the representation of spiritual and moral qualities in art and literature.

comparative method – comparing the artistic and aesthetic expression of spiritual and moral values across different cultures and historical periods.

experimental research – studying the influence of literary works and artistic pieces on the formation of moral qualities.

DISCUSSION AND RESULTS: the study found that the artistic and aesthetic characteristics of spiritual and moral qualities are manifested in the following aspects:

representation in art and literature – literary works play a crucial role in nurturing the human soul and distinguishing between good and evil.

expression in music and visual arts – music and visual arts influence the human psyche and contribute to spiritual development.

connection between moral norms and aesthetics – aesthetic beauty is closely linked to moral values and helps foster ethical excellence in society.

manifestation in the creative process – creative activities reflect an individual's inner world while serving as a key tool in promoting spiritual and moral values.

CONCLUSION: Spiritual and moral qualities and their artistic and aesthetic characteristics are interconnected and play a crucial role in enhancing human spirituality and societal progress. Literature, art, music, and culture serve as effective means of shaping these qualities. Future research should explore this topic further, considering modern trends in art and culture.

Key words: spiritual and moral qualities, high spirituality, state policy, youth consciousness, education and upbringing.

For citation: Gullola Sh. Rakhmonova. (2025) 'Spiritual and moral qualities and their artistic and aesthetic characteristics', Inter education & global study, (3), pp. 379-387. (In Uzbek).

Ma'naviy-axloqiy tarbiya yuksak ma'naviyatning asosi, yuksak ma'naviyat esa har qanday davlatning negizi ekanligini hisobga olsak, hozirgi yangi O'zbekistonda milliy qadriyatlarimizni yanada yuksaltirish, yoshlarda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani ham bejiz emas albatta. Darhaqiqat prezident Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, – "…jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi – ma'naviyatdir. [1]Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz". Mazkur strategik g'oyaning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda insoniyatning tarixiy-hayotiy tajribalari shuni tasdiqlaydiki, insonlarda faqatgina ijobiy, balki, anchayin salbiy fazilatlar ham azaldan mavjud bo'lgan. Shuning uchun ham

[1] https://pm.gov.uz/oz/lists/view/1053

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

xalq orasida inson fazilatlari azaldan ikki ma'noda: ijobiy va salbiy ma'noda keng qo'llangan. Bularning birinchisi ma'naviy-axloqiy fazilatlar, xislatlar va sifatlar bo'lsa, ikkinchisi – ma'naviy-axloqiy noqisliklar, qusurlar va ayblardir. Har ikkalasi ham butunlay boshqa-boshqa tushunchalar bo'lsa-da, ular inson faoliyatida va axloqida muntazam ravishda alohida namoyon bo'lib boradi. Chunki jamiyatning sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarilishi ma'naviyatning, axloqiylikning yanada yuksalishini talab etadi, faqat tarbiya orqaligina har bir jamiyat a'zosiga yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar singdiriladi. Ana shular evaziga insonning ijtimoiy faolligi oshadi, ma'naviy-axloqiy tarbiyasi o'zgaradi. Bu esa jamiyatning navbatdagi taraqqiyotini yanada tezlashtiradi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya yuksak ma'naviyatning asosi, yuksak ma'naviyat esa har qanday davlatning negizi ekanligini hisobga olsak, hozirgi yangi O'zbekistonda milliy qadriyatlarimizni yanada yuksaltirish, yoshlarda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan eng dolzarb muammo ekanligi yanada oydinlashadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi jamiyat talablariga bog'liq bo'lib, bu talablar o'z navbatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va jamiyatda yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishlarining hammasi yosh avlodda ma`naviy axloq va e'tiqodni shakllantirishga, ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim. Insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini shakllantirish, salbiy illatlarga qarshi nafrat uyg'otish, ongli intizomni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish kabilar axloqiy tarbiyaning vazifalaridir. Axloqiy tarbiya vazifalaridan yana biri insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini yuqori pog'onaga ko'tarishdir. Yoshlarni tarbiyalashda sharqona va milliy axloq- odob normalari asosida ish yuritish bilan birga jamiyatga hurmat, mustaqillikni mustahkamlash, insonlarga insoniy munosabatda bo'lish kabi fazilatlarni singdirish taqozo etiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish o'quvchilarning jamiyatga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir

Ma'naviy-axloqiy fazilarlarda o'zbek xalqining boy ma'naviy merosidan keng foydalanish uning ta'sirchanligi, samaradorligini oshirishda muhim omil bo'la oladi. Yoshlarimiz ma'naviy-axloqiy tarbiyasida Yusuf xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Mashrab, Muqumiy, Furqat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir kabi mumtoz shoir va yozuvchilarimiz asarlaridan foydalanishimiz ular qalbini, ruhiy dunyosini ma'naviy boyitishda katta ahamiyatga egadir. Ularning bizga qoldirgan boy badiiyma'naviy merosi o'zining chuqur falsafiy mazmuni, axloqiy yo'nalishi bilan ajralib turadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya muammolarini o'rganish jahon xalqlari tarbiyashunosligida V.X.Arutunyan arman xalq ertaklaridagi axloqiy tarbiya g'oyalarini, M.B.Gurtueva bolqar folkloridagi tarbiya g'oyalarining xalq amaliy faoliyatidagi ifodalanishini, A.Sh.Gashimov Ozarbayjon xalq ertaklari va topishmoqlaridagi aqliy, ma'naviy-ahloqiy tarbiya masalalarini, T.Ormonov "Manas" eposi misolida qirg'izlarning qadimiy pedagogik qarashlarini, I.Orshibekov qozoq xalq og'zaki ijodidagi axloqiy tarbiya asoslarini, Istiqlolgacha bo'lgan davrdagi milliy pedagogikamizda ma'naviy-ahloqiy tarbiyaning keng qamrovli tizimlarini xalq og'zaki ijodi namunalariga bog'lab o'rganish muammolari M.Sherboev , T.Turdiev,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Z.M.Mirtursunov, X.Jumaeva, B.Qodirov, A.Musurmonov kabi olimlarning ishlarida o‘z ifodasini topgan. Ularning tadqiqotlarida o‘sha davr mafkurasining kuchli ta’siri, partiyaviylik mafkurasi talabining adabiy ta’lim jarayonida hukmron tamoyil sifatida yetakchilik qilishi ochiq sezilib turdi. Barcha tadqiqotlarda folklor namunalariga murojaat etish va ularning tarbiyaviy, ta’limiy va didaktik imkoniyatlarini tahlil qilishda tadqiqotchilarning bir yoqlama fikr-mulohazalar yuritishiga sabab bo‘ldi: ya’ni, pedagogik hodisalarga sinfiylik va sho‘roviy mafkura nuqtai nazardan yondashish tamoyili ustunlik qildi. Mustaqillik yillarida Q.Yo‘ldoshev, M.Murodov, O.Madaev, A.Ergashev, X.Jumaeva, M.Mahmudova, M.Jumaboev, G.Xolboeva kabi pedagog va filolog olimlarimiz xalq og‘zaki ijodining tarbiyaviy imkoniyatlarini, ularni o‘rganish uslubiyati bilan bog‘liq muammolarni tadqiq etish, ayniqsa, xalqimizning milliy an’ana va qadriyatlarini adabiy ta’lim jarayonida folklor asarlari tahliliga bog‘lab o‘rgatishga alohida e’tibor bilan qaratdilar.

Insoniyatning tarixiy-hayotiy tajribalari shuni tasdiqlaydiki, insonlarda faqatgina ijobiy, balki, anchayin salbiy fazilatlar ham azaldan mavjud bo‘lgan. Shuning uchun ham xalq orasida inson fazilatlari azaldan ikki ma’noda: ijobiy va salbiy ma’noda keng qo‘llangan. Bularning birinchisi ma’naviy-axloqiy fazilatlar, xislatlar va sifatlar bo‘lsa, ikkinchisi – ma’naviy-axloqiy noqisliklar, qusurlar va ayblardir. Har ikkalasi ham butunlay boshqa-boshqa tushunchalar bo‘lsa-da, ular inson faoliyatida va axloqida muntazam ravishda alohida namoyon bo‘lib boradi. Buning ijtimoiy-tarixiy va pedagogik-psixologik asoslari bor, albatta. Hayotda el mehrini qozongan inson azaldan “yaxshi odam” sifatida xalq orasida tanilgan, katta obro‘ga ega bo‘lib, hurmatli-izzatli bo‘lgan. Bunday insonlar “o‘z nonini halol mehnat bilan topadigan, xolis va ezgu ishlar bilan el-yurtga naf yetkazadigan, tiriklik mazmunini teran anglab, nafaqat bugungi hayot lazzatlari, balki oxirat haqida, uning obod bo‘lishi haqida o‘ylab yashaydigan insonlar” hisoblanadi. Ular o‘z “hayotidan mamnun va rozi bo‘lib, qalbi va yuragi osoyishta, vijdoni pok, ruhiy olami barqaror bo‘lib, elning hurmatini qozonib yashaydi”. Albatta, bunday insonlarning amaliy faoliyatiga va qalbidagi ma’naviyat nurining jilolari hisoblangan eng yaxshi fazilatlar juda ko‘plab uchraydi. Xususan, ona-vatanga sodiqlik, dinga e’tiqodlilik, ota-onaga hurmatlilik, mehmondo‘stlik, xushmuomilalik, vijdonlilik, vafodorlik, sog‘lom fikrlilik, insoflilik, sinchkovlik, zehnlilik, bilimlilik, nafsni tiyishlilik, lafzida halollik, mehr-oqibatlilik va boshqalar yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarning eng saralari, inson tarbiyasiga daxldor odob-axloq va hulqini bezab turuvchi ijtimoiy sifatlar va xislatlar hisoblanadi. O‘rni kelganda yana shuni alohida ta’kidlash lozim: el va xalqning nazaridan tushgan, kundalik hayotda ko‘pchilikning ishonchini oqlay olmagan insonlar ham uchraydiki, ular “hayotning ma’no-mazmuni haqida bosh qotirmasdan, … faqat nafs qayg‘usi va o‘tkinchi xoyu havasga, huzur halovatga berilib, yengil-yelpi umr kechiradigan, o‘zining ota-ona va farzand, el-yurt oldidagi burchiga umuman befarq bo‘lib yashaydi. G.To‘ychievaning ta’kidlashicha, jamiyatimizda, ayniqsa, yoshlar orasida insonlarning quyidagi qusurlari, nuqsonlari va kamchiliklari tez-tez uchrab turadi: bekorchilik, xudbinlik, hasad, xasislik, g‘arazgo‘ylik, jur’atsizlik, qo‘rqoqlik, shuhratparastlik, takabburlik, maqtanchoqlik, dimog‘dorlik, ayyorlik, yolg‘onchilik, riyokorlik, xushomadgo‘ylik, ikkiyuzlamachilik, ezmalik,

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

zolimlik, zo‘ravonlik, jizzakilik, g‘azab, chiqisha olmaslik, bekorga va’da berishlik, o‘z so‘zi ustida turmaslik, bahslashish, o‘zini tuta bilmaslik va boshqalar. Tarix saboqlari va hayotiy xulosalarning guvohlik berishicha, jahon hamjamiyati ham, millatimiz, xalqimiz ham bunday salbiy illatlarga, ayrim insonlar faoliyatida uchraydigan qusurlar, nuqsonlar va kamchiliklarga har doim va har bir jamiyatda nafrat ko‘zi bilan qarashgan. Ushbu fikr-xulosa hozirgi kunda ham o‘z tasdig‘ini topmoqda. Bugungi kunda “Vatan manfaatlarini hamma narsadan ustun qo‘yadigan, qalbida o‘ti va erk tuyg‘usi bor g‘ayratli, kuyinchak ”, ayniqsa, millat ehtiyoji va jahon talablariga javob bera oladigan yosh hamda talantli, intellektual salohiyati baland avlodni tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan eng dolzarb vazifalardan sanaladi. Shuning uchun ham, yurtboshimiz alohida ta’kidlaydilar: “Ollohning o‘zi bizga buyurgan komil inson bo‘lish halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi oliyjanob fazilatlarning ma’no-mazmunini nafaqat chuqur anglash**,** balki ana shunday xususiyatlarga ega bo‘lish, ularga amal qilib yashash – odamzotning ma’naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi. … bunday xulosani insoniyat o‘z ongli hayoti davomida doimo orzu qilib, intilib kelgan yuksak ma’naviy idealning falsafiy ifodasi, mantiqiy natijasi sifatida qabul qilish o‘rinlidir”. Gap bu yerda yuksak ma’naviyatli insonning tarbiyasi va ma’naviy-axloqiy fazilatlari, xislat va sifatlari haqida borar ekan, “fazilat” va “sifat” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatiga, tarkibi va tasnifiga, yoshlar tarbiyasidagi o‘rniga ham e’tiborni qaratishimiz zarur, deb hisobladik.“Fazilat” alohida shaxs, el, elat, xalq, ulusga taalluqli bo‘lgan ijobiy axloqiy sifatlar majmui, “sifat alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi axloqiy kategoriyadir”. Abu Nasr Farobiyning fikricha, “fazilat” muayyan bir mantiqiy mazmunda ifodalangan mavhum tushunchagina emas, odamning go‘zallikka, yaxshilikka erishishi uchun qilinadigan faoliyati va hatti-harakatlarining aniq ifodasi hisoblanadi”[2]. Allomaning yana uqtirishicha, odamni yaxshi ishlarni qilishga va go‘zal xulqlar sohibi bo‘lishga da’vat etuvchi ichki (axloqiy) sifatlar fazilatlar deb ataladi . Ko‘ramizki, har qanday ma’naviy yetuklik har bir insonda o‘ziga xos axloqiy fazilatlar va xislatlar uyg‘unligi asosida namoyon bo‘ladi va uni boshqalardan tamomila ajratib turadi. “Har bir jamiyat o‘z fuqarolari oldiga ma’lum talablar tizimini qo‘yadi, bu avvalo, insonning fazilatlariga, uning xulqiga qo‘yilgan talablardir. Ba’zi adabiyotlarda qayd qilinishicha, ma’naviy barkamol insonning axloqiy xislatlari juda ko‘p, ularning ayrimlari quyidagilardan iborat: odamiylik, qanoatlilik, yaqinlik, do‘stonalik, jonkuyarlik, mehribonlik, kuyunchaklik, rahmdillik, mushfiqlik (shafqatlilik), olijanoblik, oliy himmatlilik, bolajonlilik, atrof-muhitga e’tibor, muhofazakorlik (ekologik tarbiyalanganlik), iymonlilik, hotamtoylik, baynalminallik, boshqa din vakillarini e’zozlash, g‘oyaviy sodiqlik, muloyimlik, xushmuomalalik, nazokatlilik, xushfe’llik, ko‘ngli ochiqlik, uzrlilik, kechirimlilik, andishalilik, takalluflilik, mulozamatlilik, odamlarga yelkadoshlik bo‘lishlik, kirishimlilik, shirin suxanlik, shaxsiy manfaatlarni ijtimoiy (jamoatchilik) manfaatiga bo‘ysundira olishlik, shaxs manfaatidan ijtimoiy manfaatlarni yuqori qo‘ya olishlik. Bir guruh mutaxassislar hozirgi

[2] O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. 0 ‘quv qo‘llanm a./ M .Qirg'izboev umumiy tahriri ostida. Andijon daviat universiteti. — Toshkent: «Navro'z» nashriyoti, 2014. — 400 b

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

mustaqil hayotimiz, turmush tarzimizni zamondoshlarimizning, ayniqsa, yoshlarning intilishlari bilan bog‘lab yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan komil insonning ma’naviy-axloqiy fazilatlari va xislatlarini tavsif etganlar, ayni chog‘da, ularni yoshlarimiz ongiga singdirishning muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlaganlar. B.Ziyomuhammadovning ta’kidlashicha, bu ko‘rsatkichlar O‘zbekiston aholisining barchasi uchun umumiy maqsad ko‘rsatkichlari hisoblansa, fuqorolik va demokratik davlat a’zolari yana quyidagi ijtimoiy sifatlarga ega bo‘lishlari zarur: aqllilik, odoblilik, mehnatsevarlik, bilimlilik, sog‘lomlik, milliy g‘ururga egalik, vatanparvarlik, baynalminallik, insonparvarlik, jasurlik, shiddatlilik, sabr-qanoatlilik, saxovatlilik[3] . B.X.O‘rozovning ta’kidlashicha, ma’naviyat va ma’rifat markazida rahbarlik qilayotgan har bir inson o‘z kasbiy faoliyatida umumiy, axloqiy, kasbiy va shaxsiy fazilatlarga ega bo‘lishlari zarur. Tadqiqotchi umumiy fazilatlardan 27 ta sifatlarni, kasbiy xislatlardan yana 27 tasini va shaxsiy fazilatlardan 16 tasini o‘z ishida alohida qayd qiladi[4]. Va so‘ngra axloqiy fazilatlardan quyidagilarni ko‘rsatadi: odamiylik, sofdillik, mehribonlik, vafodorlik, sadoqatlilik, oqibatlilik, do‘stonalik, jonkuyarlik, kuyunchaklik, olijanoblik, atrof-muhitga e’tiborlilik, muhofazakorlik, iymonlilik, baynalminallik, g‘oyaviy sodiqlik, xushmuomilalik, kechirimlilik, andishalilik, odamlarga el bo‘lib ketish, kirishimlilik, shaxsiy manfaatlar o‘rtasidagi uyg‘unlik, ko‘pchilik dardi bilan yashash. Biz yuqorida dastavval ushbu majmuadan o‘rin olgan, inson faoliyatida eng ko‘p uchraydigan ma’naviy-axloqiy fazilatlarning faqatgina ijtimoiy-tarixiy va hayotiy-didaktik asoslari haqida qisqacha so‘z yuritdik, ularning xalq dostonlarida qay tarzda namoyon bo‘lishi, haqida esa keyingi ilmiy-tahliliy maqolalarimizda batafsil to‘xtalishni ma’qul topdik.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar asosida quyidagicha xulosaga kelish mumkin. Yangi O‘zbekistonning siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy vazifalarini amalga oshirish, eng avvalo, jamiyat va uning har bir a’zosining yuksak ma’naviy-axloqiy madaniyatiga bog‘liq. Insonning umri davomiylikni taqozo qilganliligi, ya’ni umri farzandlarida davom etgani kabi ulardagi mehr-oqibatlilik, vatanga e’tiqodlilik, samimiylik, xushmuomilalilik, halollik, odamiylik, lafzida sobitlik, andishalilik, ota-onaga hurmat, ishbilarmonlik, ilmlilik, zukkolilik kabi eng yaxshi ma’naviy fazilatlarni kelgusi avlod vakillari davom ettiradilar. Shuning uchun ham yuksak ma’naviyatli inson tarbiyasi bilan daxldor bunday fazilatlarni eng avvalo, farzandlarga, o‘quvchi-yoshlarga singdirish eng dolzarb pedagogik jarayondir. Uni oilada va maktabda shakllantirish hamda kamol toptirish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Imomnazarov M. Milliy taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy asoslari. O‘quv- uslubiy kompleks. – T.: Sharq, 2007. – 336 b.

[3] **Ziyomuhammedov B**. Pedagogika. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma - T.: Turon-Iqbol, 2006
[4]https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/7094/18970/65abb084e70ce___Pedagogik_innovatsiyalar_va_ularning_amaliy_tadbiqlari_muammolar%20(5).pdf

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

2. Рахмонова Г. Ш. Технологии Развития Духовно-Нравственной Компетентности Студентов //Miasto Przyszłości. – 2024. – Т. 45. – С. 306-309.
3. Raxmonova G. S., Abdunabiyeva F. N. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OILA HAMKORLIGI //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 729-734.
4. Рахмонова Г. Ш. СОДЕРЖАНИЕ И ХАРАКТЕР ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЙ ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ //Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 5-8.
5. Shavkatovna R. G. OILADA BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASH SHAKLLARI //Proceedings of International Educators Conference. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 53-56.
6. Valerievna I. G., Shavkatovna R. G. The Content and Characteristics of Spiritual and Moral Education Works in Higher Education Institutions //Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521). – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 340-342.
7. Shavkatovna R. G. MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARI VA OILADA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. – 2024. – Т. 30. – №. 2. – С. 103-107.
8. Элибаева Лола Сулеймановна ПОВЫШЕНИЕ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ // Наука, образование и культура. 2020. №9 (53).
9. Элибаева Л. С. Народная педагогика-основа формирование личности //Молодой ученый. – 2014. – №. 1. – С. 595-597.
10. Элибаева Л. С. Повышение активности учащихся начальной школы //Наука, образование и культура. – 2020. – №. 9 (53).

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Raxmonova Gullola Shavkatovna**, Umumiy pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi, [**Рахмонова Гуллола Шавкатовна,** Старший преподаватель кафедры общей педагогики], [**Gullola Sh. Rakhmonova**, Senior Lecturer at the Department of General Pedagogy]; manzil: O'zbekiston, Buxoro shahar Piridastgir ko`chasi 2-uy [адрес: Узбекистан, г.Бухара ул. Пиридастгир, д. 2], [address: Uzbekistan, Bukhara Pyridastgir str., 2].

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

ULUSH VA KASR TUSHUNCHASINI O‘RGATISHDA KO‘RGAZMALI QUROLLARDAN FOYDALANISH. ODDIY KASRLARNING TAQQOSLASH VA BIR XIL MAXRAJLI KASRLARNI QO‘SHISH VA AYIRISHNI O‘RGATISH

© B.R. Berdiyev[1]✉, Nortojiyeva M.Z.[2]✉
[1,2]Xalqaro Innovatsion Universiteti, Qarshi, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ulush va oddiy kasrlar tushunchasini o‘rgatishda ko‘rgazmali qurollardan foydalanish metodikasi tahlil qilinadi. Ulushlar asosida kasr tushunchasini shakllantirish, kasrlarni taqqoslash, qo‘shish va ayirish amallari bosqichma-bosqich ko‘rib chiqiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – 3–4-sinflarda o‘quvchilarda kasrlar tushunchasini shakllantirishda ko‘rgazmali qurollar orqali o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va tushunchani hayotiy misollar orqali mustahkamlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda boshlang‘ich sinflar uchun mo‘ljallangan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, ko‘rgazmali materiallar va amaliy topshiriqlar tahlil qilinib, ulardan dars jarayonida foydalanish usullari ko‘rib chiqildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: kasr tushunchasini tushuntirishda geometrik shakllar, kundalik hayotdagi predmetlar asosida ko‘rgazmali vositalardan foydalanish o‘quvchilarda mavzuni chuqurroq anglashga yordam bergani aniqlandi. Bir xil maxrajli kasrlarni qo‘shish va ayirishni o‘rgatish o‘quvchilarning amaliy fikrlashini rivojlantiradi.

XULOSA: o‘quvchilarda “ulush” va “kasr” tushunchalarini shakllantirishda ko‘rgazmali qurollardan samarali foydalanish ularning matematik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Bu metodika ta’lim jarayonini qiziqarli va tushunarli qilish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: ulushlar, kasrlar, ko‘rgazmali qurollar, boshlang‘ich sinf, taqqoslash, qo‘shish, ayirish, dars metodikasi.

Iqtibos uchun: Berdiyev B.R, Nortojiyeva M.Z. Ulush va kasr tushunchasini o‘rgatishda ko‘rgazmali qurollardan foydalanish. Oddiy kasrlarning taqqoslash va bir xil maxrajli kasrlarni qo‘shish va ayirishni o‘rgatish.// Inter education & global study. 2025. №3. B.388-396.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАГЛЯДНЫХ ПОСОБИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ПОНЯТИЮ ДОЛИ И ДРОБИ. ОБУЧЕНИЕ СРАВНЕНИЮ ПРОСТЫХ ДРОБЕЙ И СЛОЖЕНИЮ И ВЫЧИТАНИЮ ДРОБЕЙ С ОДИНАКОВЫМИ ЗНАМЕНАТЕЛЯМИ

© Б.Р. Бердиев[1]✉, М.З. Нортожиева[2]✉
[1]Международный Инновационный Университет, Карши, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается методика использования наглядных пособий при обучении учащихся начальных классов понятиям долей и обыкновенных дробей. Анализируется этапность формирования представлений о дробях, их сравнении, сложении и вычитании.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — повышение эффективности обучения дробям в 3–4 классах за счёт использования наглядных пособий и формирование устойчивых представлений на основе жизненных примеров.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы учебники, методические пособия и практические задания, предназначенные для начальной школы. Рассмотрены методы их применения в учебном процессе.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: использование визуальных средств на примере предметов и геометрических фигур способствует лучшему пониманию темы дробей. Освоение сложения и вычитания дробей с одинаковыми знаменателями развивает у учащихся прикладное мышление.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: эффективное использование наглядных пособий при обучении понятиям "доля" и "дробь" способствует повышению математической грамотности учащихся. Данный подход делает обучение более интересным и доступным.

Ключевые слова: доли, дроби, наглядные пособия, начальные классы, сравнение, сложение, вычитание, методика обучения.

Для цитирования: Бердиев Б.Р, Нортожиева М.З Использование наглядных пособий при обучении понятию доли и дроби. Обучение сравнению простых дробей и сложению и вычитанию дробей с одинаковыми знаменателями.// Inter education & global study.2025. №3. С. 388-396.

THE USE OF VISUAL AIDS IN TEACHING THE CONCEPT OF FRACTIONS AND FRACTIONS. LEARNING HOW TO COMPARE SIMPLE FRACTIONS AND ADD AND SUBTRACT FRACTIONS WITH THE SAME DENOMINATOR

© Bahodir R. Berdiev[1]✉, Muhayyo Z. Nortojiyeva[2]✉
[1,2]International Innovation University, Karshi, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article examines the methodology of using visual aids to teach primary school students the concepts of parts and simple fractions. It analyzes the step-by-step approach to forming an understanding of fractions, their comparison, addition, and subtraction.

AIM: the main aim of the study is to enhance the effectiveness of teaching fractions in grades 3–4 through the use of visual aids and to establish conceptual understanding based on real-life examples.

MATERIALS AND METHODS: the study analyzes primary school textbooks, teaching manuals, and practical tasks, exploring how they are applied in the classroom to support learning.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

DISCUSSION AND RESULTS: the use of visual aids such as objects and geometric figures helps students better grasp the concept of fractions. Learning to add and subtract fractions with the same denominator fosters the development of practical thinking skills.

CONCLUSION: effectively using visual aids in teaching "parts" and "fractions" helps improve students' mathematical literacy. This methodology makes the learning process more engaging and understandable.

Keywords: parts, fractions, visual aids, primary school, comparison, addition, subtraction, teaching methodology.

For citation: Bahodir R. Berdiev[1]✉, Muhayyo Z. Nortojiyeva (2025) 'The use of visual aids in teaching the concept of fractions and fractions. Learning how to compare simple fractions and add and subtract fractions with the same denominator', Inter education & global study, (8), pp. 388-396. (In Uzbek).

Boshlang'ich sinflarda miqdorlar, ulushlar bilan tanishtirish metodikasi asosan o'quvchilarga 3- sinfdan boshlab tushuncha berib boriladi. 3- sinfda birning ya'ni $\frac{1}{2}$, $\frac{1}{3}$, $\frac{1}{4}$ va hokazo ulushlarga oid tasavvurlarni hosil qilishdan iborat kasrlarni o'rgatish deyarli ko'rgazma asosida tushuntiriladi. Bu ko'rgazmalarga meva, qovun, tarvuz geometrik shakllar, cho'p, qog'oz va boshqa atrofdagi narsalarni olish mumkin.

Miqdorning ulushlari bilan tanishtirish metodikasi. 3-sinfdan birning ulushlari ulushlarga oid tasavvurlarni hosil qilishdan iborat. Kasrlarni o'rgatish ko'rgazmalar asosida tushuntiriladi. Bu ko'rgazmalarga yuqoriga aytib o'tganizdek tarvuz, qovun, cho'p, qog'oz kabilar misol bo'ladi. Ko'rgazmali tushuntirishda, masalan olmani teng ikkiga bo'lish yordamida kasr hosil qilinadu. Shunga mos olmani teng bo'lmagan 2 bo'lakka bo'lib, u yarim olma emasligini demak kasrni hosil qilmasligini tushuntirish mumkin. Faqat teng bo'lakka bo'lganidagina kasr son yoki butunning ulushi hosil bo'lishini mustahkam singdirish lozim. Butun sonning o'zaro teng bo'lgan ma'lum bir ulushiniga sonning kasri deyiladi. Berilgan narsani yoki bir butun sonni qancha teng qismga bo'lingasnligini ko'rsatuvchi sonni kasrning maxtaji. Shunday qismdan nechtasi olinganligini ko'rsatuvchi sonni kasrning surati deyiladi. Ko'rgazmali tushuntirishda asosan boshlang'ich sinflarda o'zi hayotda uchratgan, kundalik hayotda foydalaniladigan narsa- buyumlar orqali tushuntish maqasadga muvofiq bo'ladi.

Misol uchun tarvuzni va mazali pizzani ko'rsatishimiz mumkin.





CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

O‘quvchilarga faqat bo‘lakka bo‘laka bo‘lgandagina kasr soni yoki butunning ulushi hosil bo‘lishini mustahkam singdirish lozim.

Turli xil geometrik shakllar bilan ishlayotganda bu shakl yordamida ulushlarni hosil qiladilar, hamda uning ba’zi hosssalarini keltirib chiqaradilar. Masalan., kvadratni teng 4 bo‘lakka bo‘lishda uni ikkita yo‘l bilan bo‘lib, burchaklarini o‘zaro tengligiga, hamda tomonlarining ham o‘zaro tengligiga asoslanib, shuningdek, kvadrat simmetriyasiga ham ega bo‘ladilar.

Kasr tushunchasini tushuntirib berish.


Kasr $\frac{a}{b}$ bu yerda a- surat, b- maxraj, o‘rtadagi to‘g‘ri chiziq kasr chizig‘i demakdir.


Kasrlarni o‘rgatish metodikasi :

“Ulushlar” mavzusiga asoslangan holda kasrlarning hosil bo‘lishi bilan 3- 4 – sinflarda tanishtiriladi. Bu yerda ham ko‘rgazmali qurollar bilan berishning bosh mezoni bo‘ladi. Narsalarni, shakllarni va boshqa atrofdagilarni teng bo‘laklarga bo‘lish va shu bo‘laklardan bittasini, ikkitasini, uchtasini,… olish masalasini, unimifodalash va yozish asosiy vazifa bo‘ladi. Bunda kasr, kasrning surati, maxraji kabi terminlar bilan tanishtiriladi.

Kasrlar tushunchasini o‘rgatish metodikasini darslik bilan ishlaydigan bo‘lsak, kasr haqidagi boshlang‘ich tushunchalarni 3- sinf darsligidan ko‘rishimiz mumkin

3- sinf darslik





1- 2-rasmda berilgan rasmlardan foydalanib o‘quvchilarga Bir butun, …ir (yarim), Bir (chorak) kabi tushuntirish mumkin. Bu orqali o‘quvchilarga “Ulush”,”Kasr” tushunchalarni o‘rgatib boramiz.


1-masala: Ikkita bir xil doiraning har biri 4 ga teng qismga bo‘lingan. Bitta doira to‘rtdan necha ulushga ega?

Ikkita doira-chi? 1= $\frac{*}{4}$, 2= $\frac{*}{4}$ tengliklarni to‘g‘ri yozing.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Doiraning to‘rtdan besh ulushini rangli qalam bilan bo‘yang. Bo‘yalgan qismi qanday ifodalanadi? $\frac{*}{*}$ yozing.



Shuningdek o‘quvchilarga to‘g‘ri to‘rburchak orqali ham tushuntirish mumkin. O‘quvchilarga kasr tushunchasini to‘g‘ri to‘rtburchakni 4 bo‘lakka bo‘lish topshiriladi. Bundan keying ish teng bo‘laklarga bo‘lingan ulushlardan bittasini, ikkitasini, uchtasini olib ularni qanday sonlar bilan yozish mumkinlini o‘qitiladi. Kasrlarni ikkitadan bir, uchdan bir, to‘rtdan bir kabi o‘qish va $\frac{1}{2}$, $\frac{1}{3}$, $\frac{1}{4}$ larga narsalarni qanday bo‘lib, qancha qismi olinayotganligi orasidagi bog‘lanishni hosil qilish lozim. Shu asosda surat va maxraj hamda kasr kabi yangi terminlar kiritmasidan o‘qiladi. Lekin chizish, chiziqning pastida butunni nechaga bo‘lgan son,yuqorisida necha ulushni olgan son yozilishi tushuntiriladi.“Ulushlar” mavzusida figuralarni teng bo‘laklarga bo‘lish asosida ulushlarni taqqoslash hasm tushuntiriladi.



Masalan, o‘qituvchi 5 ta bir xil to‘g‘ri to‘rtburchakli qog‘ozdan yo‘lakchali qilib qirqishni taklif qiladi.

Bu yo‘lakchaning birinchisini teng ikkiga, ikkinchisini teng to‘rtga bo‘lib, ularni ustma- ust qo‘yish asosida har bir teng bo‘laklarni taqqoslaydi. Undan 1/2 > 1/4 , ¼ > 1/8 ,1/3 > 1/6 kabi ekanligiga ishonch qiladilar. 3-sonning ulushini topishni amaliy masalalardan boshlash kerak. Masalan, uzunligi 12 sm bo‘lgan qog‘oz yo‘lakchani yarmi necha sm ? 12: 2 =6 Endi yo‘lakchani yana ikki buklab to‘rt qismga bo‘ladi. Yo‘lakchaning qanday qismi hosil bo‘ladi va uning uzunligi qancha? Javob: 12: 4= 3 sm. 1/4 qism. Bu ish chizg‘ich yordamida ham o‘lchab ko‘riladi.

2- *masala*: Daftar 24 betlik, o‘quvchi daftarning 5/8 qismini to‘diradi. Necha bet yozilmay qoldi? Masalan shartining qisqacha yozuvi quyidagicha:

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Bor edi – 24 bet
Yozildi – 5/8 qismi
Qoldi- ?


Yechish. Masalani yechishda kesma tasviridan foydalanamiz va uning 5 qismini ajratamiz.

1) 24: 8=3 bet
2) 3 *5 =15 bet
3) 24-15= 9 bet yozilmaydi.

Umumiy ifoda ko‘rinishda 24-24:8*5 =9 bet. Shu orqali misollar, masalalar bilan tushuntiriladi

8 / 13 surat maxraj	$\frac{8}{13}$ surat maxraj
Kasrning ikki xil usulda yozilishi	

Darslar orqali o‘quvchilarga kasrning ikki xil usulda yozilishini ham tushuntirib o‘tish kerak. Chunki o‘quvchilar qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanib misol va masalalar yechish davomida duch kelishi mumkin. Bu haqida yuqoridagi ko‘rgazma orqali tushuntirsak ham bo‘ladi.



Quydagi topshiriq orqali “Ulushlar” va “Kasrlar” mavzusini mustahkamlab olamiz.

2- topshiriq:

Savollarga javob beramiz va kasrlarni ifodalaymiz.

- Dushanba haftaning qanday qismi?

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

- Bahor fasli bir yilning qanday qismi?
- Mart oyi bahorning qanday qismi?
- Mart oyi bir yilning qanday qismi?

Bir xil maxrajli kasrlarni qo‘shish va ayirish

Bir xil maxrajli kasrlarni qo‘shganda ularning faqat suratlari qo‘shiladi. Maxraji esa o‘zgarmaydi.

$$\frac{1}{5}+\frac{3}{5}=\frac{*+*}{5}=\frac{?}{5}$$

1- masala: Ona tortni teng 8 qismga bo‘ldi. Bir bo‘lagini kichik o‘g‘liga, ikki bo‘lagini kattasiga berdi. Ikkala o‘g‘il tortning qancha qismini olgan ?

Yechish: Kichik o‘g‘il tortning $\frac{1}{8}$ qismini, katta o‘g‘il $\frac{2}{8}$ qismini oldi.

Ikkala o‘gil birgalikda tortning $\frac{1}{8}+\frac{2}{8}=\frac{1+2}{8}=\frac{3}{8}$

Bir xil maxrajli kasrlarni qo‘shish uchun :

1) Ularning surati qo‘shiladi;
2) Natija yig‘indining suratiga yoziladi;
3) Berilgan maxraj yig‘indining maxrajiga yoziladi.

Mustaqil yechish uchun masala va misollar

1- masala: Dilshoda kutubxonadan kitoblar oldi. U olgan jami 10 ta kitobdan 3 tasi ertaklar, 4 tasi o‘simliklar haqida. Ertaklar va o‘simliklar haqidagi kitoblar jami olingan kitoblarning qanday qismini tashkil qiladi?

2- misol:

1) $\frac{1}{7}+\frac{2}{7}$ 2) $\frac{4}{11}+\frac{6}{11}$ 3) $\frac{5}{6}+\frac{1}{6}$ 4) $\frac{2}{5}+\frac{6}{5}$

Bir xil maxrajli kasrlarni ayirish

Bir xil maxrajli kasrlarni ayirishda ularning faqat suratlari ayriladi., maxraji esa o‘zgarmaydi. Masalan: $\frac{3}{5}-\frac{1}{5}=\frac{3-1}{5}=\frac{2}{5}$

Bir xil maxrajli kasrlarni ayirish uchun :

1) kamayuvchining suratidan ayriluvchining surati ayriladi;
2) natija ayirmaning suratiga yoziladi;
3) Berilgan maxrajning o‘zi o‘zgarmagan holda ayirmaning maxrajiga yoziladi.

1- masala: Zuhra nonni teng bo‘laklarga bo‘lib, bir bo‘lagini Hasanga berdi. Zuhra nonning $\frac{3}{4}$ qismini yegan bo‘lsa, Hasan qanday qismini yedi?

2-misol: 1) $\frac{5}{8}-\frac{3}{8}$ 2) $\frac{7}{12}-\frac{4}{12}$ 3) $\frac{9}{6}-\frac{3}{6}$

Surati va maxraji o‘zaro teng kasr 1 ga tengdir. Bu- butun nechta bo‘lakka bo‘lingan bo‘lsa, shu bo‘laklarning hammasi olinganligini bildiradi. Yig‘indisi quyidagi sonlarga teng bo‘lgan kasrlar tuzing:

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

$\frac{7}{8}$ =; $\frac{9}{10}$= ; $\frac{4}{5}$ =; $\frac{3}{4}$ =; $\frac{21}{100}$. Namuna: $\frac{17}{40}$= $\frac{10+7}{40}$ = $\frac{10}{40}$ + $\frac{7}{40}$

Xulosa qilib shuni aytish mimkinki o‘quvchilarni “Kasr”, “ulush” tushunchalari bilan tanishtirish dasturiga binoan 3- sinfdan boshlanadi. Kasrlarning hosil bo‘lishi, ularni taqqoslash, sonning ulushini topish va berilgan ulushga ko‘ra sonning o‘zini topish bilan tanishtiriladi. 4- sinfda 1 ning ulushini va bir necha ulushni va uning yozma ko‘rinishini tasavvurlariga ega bo‘ladilar. Kasr tushunchasi geometriyada kesma ulushi, miqdorlarning ulushi va boshqa geometrik kesma ulushi miqdorlarning ulushi va boshqa geometrik shakllarning ulushlari bilan bevosita bog‘langan.

Kasr tushunchasini hosil qilish har xil narsalarni teng bo‘lakklarga bo‘lish, kesish, sindirish, maydalashdan kelib chiqadi deyiladi. Boshlang‘ich sinfdan oldin, ya’ni maktabgacha yoshdayoq kasr tushunchasining boshlang‘ich tushunchalari berilgan.Masalan, olma, tarvuz, bodiring, non va boshqalarni bir necha bo‘laklarga bo‘lib ko‘rgan va boshlang‘ich tushunchlarni olgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Jumayev M.E. Matematika o‘qitish metodikasi.(OO‘Y uchun darslik.) Toshkent. “Turon-Iqbol”, 2016 yil. 426 b.
2. Berdiyev B.R, Matematika o‘qitish metodikasi. I kitob.(OO‘Y uchun darslik.) Qarshi. “ Fan va ta’lim ”, 2021 yil. 260 b.
3. Berdiyev B.R, Matematika o‘qitish metodikasi. II kitob.(OO‘Y uchun darslik.) Qarshi. “ Fan va ta’lim ”, 2021 yil. 250 b.
4. Jumayev M.E. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasidan praktikum. (OO‘Y uchun o‘quv qo‘llanma) Toshkent. “O‘qituvchi”, 2004 yil.
5. Berdiyev B.R, Matematika o‘qitish metodikasi. II kitob. (OO‘Y uchun darslik.) Qarshi. “ Fan va ta’lim ”, 2021 yil. 250 b.
6. Yo‘ldoshev J.T. Boshlang‘ich sinf matematika fanida foydalaniladigan asosiy qoidalar. Qarshi. “ Fan va ta’lim ”, 2020 yil.
7. Yo‘ldoshev J.T. Masalalar yechish bo‘yicha praktitum. Qarshi. “ Fan va ta’lim ”, 2021 yil.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Berdiyev Bahodir Ravshanovich**, dotsent, [**Бердиев Баходир Равшанович,** доцент**,** [**Bahodir R. Berdiev,** associate professor**,** manzil: Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, Islom Karimov Ko'chasi, 405-uy, [адрес: Кашкадарьинская область, г. Карши, ул. Ислама Каримова, Д. 405], [address: Kashkadarya region, Karshi, Islam Karimov str., 405].

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

✉**Nortojiyeva Muhayyo Zafar qizi**, o‘qituvchi [**Нортожиева Мухайё Зафар кизи,** преподаватель], [**Muhayyo Z. Nortojiyeva,** lecturer]; manzil: Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, Islom Karimov Ko'chasi, 405-uy, [адрес: Кашкадарьинская область, г. Карши, ул. Ислама Каримова, Д. 405], [address: Kashkadarya region, Karshi, Islam Karimov str., 405].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA’LIMNI JORIY ETISHNING HUQUQIY-ME’YORIY ASOSLARI

© D.Q. Shodiyeva, M.B. Kubayeva [1]✉
[1]Navoiy innovatsiyalar universiteti, Navoiy, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni joriy etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, qonunchilik va me’yoriy-huquqiy asoslar, shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimida mavjud infratuzilmaviy va pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilingan.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni joriy etishning huquqiy-me’yoriy asoslarini aniqlash va uning maktabgacha ta’limdagi tatbiqini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident qarorlari, rasmiy ma’lumotlar va amaliyotdagi tajribalarga asoslangan holda huquqiy-me’yoriy manbalar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: olingan natijalar O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim sohasini rivojlantirish bo‘yicha bosqichma-bosqich chora-tadbirlar amalga oshirilayotganini, maktabgacha ta’limda to‘siqsiz muhit yaratish, pedagog va infratuzilma tayyorgarligi yo‘lga qo‘yilganini ko‘rsatdi.

XULOSA: O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’limni huquqiy jihatdan mustahkamlash va infratuzilmaviy shart-sharoitlarni yaxshilash orqali maktabgacha ta’limda teng imkoniyatlar ta’minlanmoqda.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, maktabgacha ta’lim, huquqiy-me’yoriy asoslar, imkoniyati cheklangan bolalar, to‘siqsiz muhit, pedagogik qo‘llab-quvvatlash.

Iqtibos uchun: D.Q. Shodiyeva, M.B. Kubayeva. O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni joriy etishning huquqiy-me’yoriy asoslari.// Inter education & global study. 2025. №3. B.397–404.

НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ВНЕДРЕНИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

© Д.К. Шодиева[1]✉, М.Б. Кубаева[2]✉
[1,2]Навоийский инновационный университет, Навои, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются правовые и нормативные основы внедрения инклюзивного образования в Узбекистане, а также анализируются условия его реализации в системе дошкольного образования.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — выявить правовые и нормативные основы внедрения инклюзивного образования в Узбекистане и обосновать его применение в дошкольной образовательной системе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проанализированы законы Республики Узбекистан, постановления Президента, официальные данные и практические меры в сфере инклюзивного образования.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что в Узбекистане внедрение инклюзивного образования осуществляется поэтапно, особое внимание уделяется созданию безбарьерной среды в ДОУ, подготовке педагогических кадров и обеспечению материально-технической базы.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: опыт Узбекистана показывает, что правовое укрепление инклюзивного образования и создание соответствующих условий позволяют обеспечить равные возможности в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дошкольное образование, правовые основы, дети с ограниченными возможностями, безбарьерная среда, педагогическая поддержка.

Для цитирования: Шодиева Д.К., Кубаева М.Б. Нормативно-правовые основы внедрения инклюзивного образования в Узбекистане.// Inter education & global study.2025. №3. С. 397–404.

REGULATORY AND LEGAL FRAMEWORK FOR THE INTRODUCTION OF INCLUSIVE EDUCATION IN UZBEKISTAN

© D.Q. Shodiyeva, M.B. Kubayeva [1]✉
[1] Navoi Innovation University, Navoi, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article examines the legal and regulatory foundations of implementing inclusive education in Uzbekistan, focusing on its application within the preschool education system.

AIM: the main aim of the study is to identify the legal and normative bases of inclusive education in Uzbekistan and provide a theoretical justification for its implementation in preschool institutions.

MATERIALS AND METHODS: the research is based on the analysis of laws of the Republic of Uzbekistan, presidential decrees, official documents, and practical experiences in the field of inclusive education.

DISCUSSION AND RESULTS: the results demonstrate that Uzbekistan is gradually implementing inclusive education, focusing on creating a barrier-free environment in preschools, preparing qualified teachers, and strengthening infrastructure.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

CONCLUSION: the experience of Uzbekistan shows that legal support and improved infrastructure help ensure equal educational opportunities in preschool education through inclusive approaches.

Keywords: inclusive education, preschool education, legal frameworks, children with disabilities, barrier-free environment, pedagogical support.

For citation: D.Q. Shodiyeva, M.B. Kubayeva. (2025) 'Regulatory and legal framework for the introduction of inclusive education in Uzbekistan', Inter education & global study, (3), pp. 397–404. (In Uzbek).

O'zbekiston barcha sohalarda va jahon tendensiyalari asosida jadal rivojlanib bormoqda. Shu bilan birga ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Milliy ta'lim siyosatining zamonaviy va amaliy yo'nalishlaridan biri inklyuziv ta'limni rivojlantirishdir. Buning uchun alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni jamiyatga qo'shilib ta'lim olishlari uchun bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 13-oktabrda qabul qilingan "Alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bunga yaqqol misol bo'la oladi. Mazkur hujjatda mamlakatimizda inklyuziv ta'limni rivojlantirish imkonini beruvchi qator huquqiy va tashkiliy vazifalar belgilab berilgan[3].

2020-2025-yillarda inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Unda maxsus ta'limga muhtoj bolalar ta'limini tegishli davrgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan. Konsepsiya ikki bosqichda amalga oshiriladi:

2020-2022-yillarda:

Inklyuziv ta'lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtiriladi;

Tizim uchun malakali pedagog kadrlar tayyorlanadi, qayta tayyorlanadi va malakasi oshiriladi;

Inklyuziv ta'lim joriy etilgan muassasalarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanadi, ular maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlanadi;

Sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalar joriy etiladi;

Imkoniyati cheklangan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o'qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o'rtasida ijobiy ijtimoiy muhit shakllantiriladi;

Ularni kamsitish, salbiy muomalada bo'lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi;

Inklyuziv ta'lim tizimi tajriba-sinov tariqasida alohida ta'lim muassasalarining faoliyatiga joriy qilinadi.

2023-2025-yillarda:

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Inklyuziv ta’lim tizimi bosqichma-bosqich boshqa umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida joriy qilinadi;

Har bir bolaning inklyuziv ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi;

O‘qitish usullari takomillashtiriladi hamda ta’lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etiladi;

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga, ularning jismonan sog‘lom va baquvvat shakllanishiga qaratilgan choralar ko‘riladi;

O‘quvchilarning jismoniy va aqliy ehtiyojidan hamda ta’lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqib ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalari (maktab va maktab-internatlar) soni optimallashtirilishi belgilab qo‘yildi.

2021/2022-o‘quv yilida tajriba-sinov tariqasida:

Shaharlar hamda Toshkent shahri tumanlarida joylashgan bittadan umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilinadi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan bittadan umumta’lim maktabida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarni ochiladi.

Qashqadaryo, Farg‘ona va Xorazm viloyatlarida joylashgan bittadan kasb-hunar maktabida ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hamda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan guruhlar tashkil etiladi.

Mazkur ta’lim tizimi bo‘yicha erishilgan ijobiy tajriba respublikaning boshqa hududlarida ham bosqichma-bosqich tatbiq etiladi.

Inklyuziv sharoitda o‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ishlarni tashkil etish va boshqalar[3].

O‘zbekiston Nogironlar uyushmasi raisi Oybek Isoqov “Aslida, faqat bu emas. Inklyuziv ta’lim hamma bolalarning bir xil maktab va bir xil sinfxonada – bir xil sharoitda ta’lim olishini anglatadi. Ya’ni imkoniyati cheklangan bola sog‘lom bolalar bilan bir xil e’tiborda o‘qiy olishi kerak. Kam ta’minlangan oilaning farzandi kambag‘al oiladan bo‘lgani uchun ta’mirlanmagan ta’lim muassasalariga borishi kerak emas”, degan fikirni bildiradi[4].

Bugungi kunda inklyuziv ta’limni joriy qilish zamon talabining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoldi. Chunki har bir O‘zbekiston fuqorosi har qanday jismoniy holatidan qat’iy nazar erkin bilim olishga haqlidir. Shu borada imkoniyati cheklangan yoshlarimizni keng qamrovli maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qamrab olish va zamonaviy yondashuvlar asosida sifatli ta’lim olishlari davlat tomonidan kafolatlangan.

“Bolaning inklyuziv muhitda boshqalardan o‘zini kam his qilmasligi, jismoniy imkoniyati cheklanganidan siqilmasligi uchun sharoit yaratish muhim. Stadionda boshqalar bilan yugurayotgan zaif ko‘ruvchi bola kimgadir turtilib ketsa, boshqa bolalar uning ustidan kulishlari kerak emas. Agar kimdir masxara qiladigan bo‘lsa, bola battar qobig‘iga o‘ralib oladi[6].

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Aynan bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlari infratuzilmasini modernizatsiya qilishning asosiy maqsadlaridan biri fuqarolarning sifatli ta’lim olish huquqlarini ta’minlashdan iborat. Modernizatsiya jarayonida imkoniyati cheklangan bolalarga zamonaviy ta’lim olish imkonini beruvchi to‘siqsiz muhit maktabgacha ta’lim tashkilotlarini yaratish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari va ijtimoiy muassasalar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish vazifasi hal etilmoqda. Inklyuziv ta’lim ularga maktabgacha yoshdagi bolalarтш muhitida o‘rganish va rivojlanish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, inklyuziv guruhning barcha bolalariga ta’lim jarayoniga jalb qilish uchun teng sharoitlar yaratilishini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikiasida imkoniyati cheklangan bolalar bilan bog‘liq tahlil va dastlabki baholash ishlari 1966-yilda boshlangan. Hozirgi kunda O‘zbekistonda 250000ga yaqin turli ko‘rinishdagi imkoniyati cheklangan bolalar (16 yoshgacha) ta’lim olish ehtiyojiga ega[3].

Yangi tahrirdan o‘tgan O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonunga inklyuziv ta’lim tushunchasi kiritildi. Qonunning 20-moddasida inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan[2].

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar (shaxslar) uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tashkil etilishi;.

Inklyuziv ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi aytib o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonunining 8-moddasi Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir. Maktabgacha ta’lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich ta’limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. Maktabgacha ta’lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi[2].

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-595-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasining asosiy tushunchalariga quyidagilar kiritilgan:

alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalar — nogironligi bo‘lganidan yoki bo‘lmasligidan qat’i nazar, oila, pedagoglar, mutaxassislar, jamiyat va davlatning alohida e’tiboriga muhtoj bo‘lgan individual ehtiyojlarga ega bolalar;

inklyuziv ta’lim va tarbiya - bolalarning alohida ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini hamda individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlarni ta’minlaydigan jarayon[1].

“Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonunining 6-bobida rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo‘lgan tarbiyalanuvchilar bilan ishlash texnologiyalari,

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

usullari va shakllari ularning psixofizik rivojlanish xususiyatlari, o‘ziga xos imkoniyatlari va sog‘lig‘i holatidan kelib chiqqan holda, pedagog va tibbiy xodimlar tomonidan belgilanadi hamda maktabgacha ta’lim tashkilotining Pedagogik kengashi bilan kelishililshi va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo‘lgan bolalar va rivojlanishida nuqsonlari bo‘lmagan bolalarning bir tashkilotda birgalikda o‘qishi va tarbiyalanishiga qaratilgan inklyuziv guruhlar tashkil etilishi mumkin.

Inklyuziv guruhlarga ega maktabgacha ta’lim tashkilotida guruhlar tegishlincha quyidagi miqdorda to‘ldiriladi:

1) uch yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun guruhlarda — ko‘pi bilan yigirma besh nafar bola, shu jumladan rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan ikki yoshdan uch yoshgacha ko‘pi bilan uch nafar bola;

2) uch yoshdan katta bolalar uchun guruhlarda:

ko‘pi bilan yigirma besh nafar bola, shu jumladan rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan (yaxshi ko‘ra olmaydigan yoki yaxshi eshita olmaydigan yoki tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo‘lgan) ko‘pi bilan uch nafar bola;

ko‘pi bilan yigirma besh nafar bola, shu jumladan rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan (ko‘rish ambliopiyasiga chalingan, ko‘zi g‘ilay yoki nutqida og‘ir nuqsonlari bo‘lgan yoki autizmga chalingan) ko‘pi bilan ikki nafar bola;

ko‘pi bilan yigirma besh nafar bola, shu jumladan nutqida og‘ir nuqsonlari bo‘lgan ko‘pi bilan uch nafar bola;

ko‘pi bilan yigirma besh nafar bola, shu jumladan ruhiy rivojlanishida kechikayotgan ko‘pi bilan uch nafar bola.

Qo‘shma turdagi maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun guruhlar tegishincha quyidagi miqdorda to‘ldiriladi:

qulog‘i kar bolalar uchun guruhlarda - ko‘pi bilan o‘n nafar bola;

qulog‘i yaxshi eshitmaydigan bolalar uchun guruhlarda - ko‘pi bilan o‘n ikki nafar bola;

ko‘zi ojiz bolalar uchun guruhlarda -ko‘pi bilan o‘n nafar bola;

ko‘zi yaxshi ko‘rmaydigan bolalar uchun guruhlarda - ko‘pi bilan o‘n ikki nafar bola;

tayanch-harakat apparati buzilgan bolalar uchun guruhlarda - ko‘pi bilan o‘n sakkiz nafar bola;

gemiparez, monoparez, plegiya asoratlari bo‘lgan bolalar uchun guruhlarda -ko‘pi bilan o‘n ikki nafar bola;

bolalar tserebral falaji sindromi asoratlari bo‘lgan bolalar uchun guruhlarda - ko‘pi bilan o‘n nafar bola;

autizmga chalingan uch yoshdan katta bolalar uchun guruhlarda - ko‘pi bilan o‘n nafar bola;

murakkab nuqsonlari (ikki va undan ortiq nuqsoni) bo‘lgan bolalar uchun guruhlarda - ko‘pi bilan o‘n nafar bola[1].

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari quyidagi turlar bo‘yicha tashkil etilishi belgilangan:

umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti;

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti;
inklyuziv guruhlarga ega maktabgacha ta’lim tashkiloti;
qo‘shma turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti.

Umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkilotining umumiy rivojlantirish yo‘nalishidagi guruhlarida maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi amalga oshirilishi ta’minlanadi.

Ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi amalga oshirilishi ta’minlanadi.

Inklyuziv guruhlarga ega maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarning alohida ta’lim olish ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularni sog‘lom muhitga uyg‘unlashtirish orqali ta’lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlar ta’minlanadi.

Qo‘shma turdagi maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarning va rivojlanishida nuqsonlari bo‘lmagan bolalarning bitta tashkilotda alohida guruhlarda, shuningdek inklyuziv guruhlarda birgalikda o‘qishini hamda tarbiyalanishini tashkil etishga qaratilgan maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi amalga oshirilishi ta’minlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.05.2019 yildagi 391-son “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorining 7-bobida Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi inklyuziv guruhlarga qabul qilish uchun rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo‘lgan bolalar qo‘shimcha ravishda Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning belgilangan tartibda berilgan xulosasini taqdim etadi.

Bolaning qonuniy vakili va maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘rtasida tuziladigan shartnoma tarbiyalanuvchining maktabgacha ta’lim tashkilotini bitirgunicha yoki undan ketgunicha kuchda bo‘ladi.

Rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo‘lgan tarbiyalanuvchilar bolani qonuniy vakillarining roziligi bilan zarurat bo‘lganda yil davomida Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaga yoxud maslahat olish uchun zarur ixtisoslikdagi mutaxassislarga yuborilishi mumkinligi belgilangan.

Inklyuziv guruhlardagi rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo‘lgan tarbiyalanuvchilar bilan korreksion-pedagogik ishlar tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya xulosasida belgilangan muddatgacha o‘tkaziladi.

Mamlakatimizda inklyuziv ta’limning ahamiyati shundan iboratki, alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalarni ilk yoshidanoq oddiy bolalar qatorida sifatli ta’lim olishlarini ta’minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini hamda harakatlarini rivojlantirishdir.

Ixtisoslashtirilgan guruhlarga bolalar psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasi asosida qabul qilinadilar. Ta’lim dasturi “Ilk Qadam” davlat dasturining moslashtirilgan varianti hisoblanib, unga defektolog bilan har kungi mashg‘ulotlar kiritilgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Yuqorida berilgan manbalardan shuni ko‘rishimiz mumkinki, mamlakatimizda va jahonda inklyuziv ta’limga keng e’tibor qaratilib, uning yanada rivojlanishi va takomillashuvi uchun mamlakatimizda hamda davlatlarda birinchi navbatda uning huquqiy-me’yoriy asoslari mustahkamlanishi, tajribalar almashinishiga erishilmoqda. Bu jarayonni esa albatta ta’limning har bitta bo‘g‘ini, shu jumladan maktabgacha ta’lim tizimidan boshlab takomillashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-sonli Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-637-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrda qabul qilingan “Alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
4. Berdieva A., R. Shomahmudova //Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta’limda o‘qitish uslublari. –T: “ishonch markaz servis” 2008.
5. Yuneskoning 2003 yil O‘zbekistonda 2 – 4 oktyabr kunlaridagi «Inklyuziv ta’lim» ga oid seminarii hujjatlari.
6. https://kun.uz/uz/news/2021/03/18/inklyuziv-talim-uchun-5-yillik-reja

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**D.Q. Shodiyeva**, talaba, [**Д.К. Шодиева,** студент**,** [**D.K. Shodieva**; manzil: Navoiy viloyati Karmana tumani Toshkent ko'chasi 39-uy., [адрес: Кармановский район Навоийской области улица Ташкент 39.], [address: 39 Tashkent Street, Karmanovsky district, Navoi region.]

✉**M.B. Kubayeva,** dotsent, p.f.f.d (PhD) [**М.Б. Кубаева,** доцент,(PhD)], [**M.B. Kubaeva,** associate professor,(PhD),]; manzil: Navoiy viloyati Karmana tumani Toshkent ko'chasi 39-uy., [адрес: Кармановский район Навоийской области улица Ташкент 39.], [address: 39 Tashkent Street, Karmanovsky district, Navoi region.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

FALSAFIY TA’LIM ASOSIDA TALABALARDA VATANPARVARLIK FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISH PARAMETRLARI

© X.X. Xaydaraliyev[1]✉
[1]Farg‘ona davlat universiteti,Farg‘ona,O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularning tafakkurida milliy o‘zlikni anglash, ajdodlar qadriyatlariga hurmat bilan qarash, milliy iftixor hissini shakllantirish zarurati asoslab berilgan. Falsafa fanining aynan shu maqsadga xizmat qilishi, talabalarni ma’naviy barkamollikka yetaklovchi pedagogik vosita sifatidagi roli yoritilgan.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi – falsafiy ta’lim vositasida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishning samarali parametrlarini aniqlash, ularning milliy qadriyatlarga hurmatini oshirish va mustahkam dunyoqarash asosida tarbiyalash imkoniyatlarini o‘rganish.

MATERIALLAR VA METODLAR: maqolada milliy va xorijiy pedagog, psixolog va faylasuf olimlarning ishlari tahlil qilinib, zamonaviy ta’lim tizimida falsafa fanining tarbiyaviy imkoniyatlari ochib berilgan. Tahliliy, taqqoslama va nazariy yondashuv asosida o‘rganilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: falsafa fani orqali talabalarda vatanparvarlik hissi, milliy g‘urur, madaniyatga hurmat, axloqiy ong, mustaqil fikrlash kabi ijtimoiy fazilatlar shakllanishi mumkinligi ilmiy asosda tasdiqlandi. Shuningdek, tarix, urf-odatlar, milliy qahramonlar obrazlari bu yo‘lda samarali vosita ekani ko‘rsatildi.

XULOSA: falsafa ta’limi talabalarda nafaqat bilim balki yuksak axloqiy, estetik, ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishda beqiyos vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida vatanparvarlik tarbiyasining ilmiy-nazariy asoslarini kuchaytiradi.

Kalit so‘zlar: norma, vatanparvarlik, estetik ehtiyojlar, madaniyat, tarbiya, falsafa ta’limi, milliy qadriyatlar.

Iqtibos uchun: Xaydaraliyev X.X. Falsafiy ta’lim asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish parametrlari.// Inter education & global study. 2025. №3. B. 405–412.

РАЗВИТИЕ ПАТРИОТИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ НА ОСНОВЕ ФИЛОСОФСКОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ

© Х.Х. Хайдаралиев[1]✉
[1]Ферганский государственный университет, Фергана, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье обосновывается необходимость воспитания молодежи в духе любви к Родине, формирования у студентов чувства национальной гордости и уважения к культурным ценностям предков. Раскрывается роль философии как важного педагогического средства в этом процессе.

ЦЕЛЬ: целью исследования является выявление эффективных параметров развития патриотических качеств студентов на основе философского образования и определение педагогических возможностей формирования устойчивого мировоззрения, уважения к национальным ценностям.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в работе проанализированы труды отечественных и зарубежных ученых в области педагогики, психологии и философии, использованы методы теоретического, сравнительного и содержательного анализа.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: установлено, что философия как предмет способствует формированию у студентов патриотизма, нравственности, самосознания, толерантности и социальной ответственности. История, героизм предков, язык, искусство, культура являются действенными средствами патриотического воспитания.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: философское образование играет значительную роль в воспитании патриотических качеств студентов, служит важным инструментом нравственного, эстетического и духовного развития личности.

Ключевые слова: норма, патриотизм, эстетические потребности, культура, воспитание, философское образование, национальные ценности.

Для цитирования: Хайдаралиев Х.Х. Развитие патриотических качеств на основе философского воспитания учащихся.// Inter education & global study.2025. №3. С. 405–412.

ON THE BASIS OF PHILOSOPHICAL EDUCATION IN STUDENTS PARAMETERS FOR THE DEVELOPMENT OF PATRIOTIC QUALITIES

© Xurshid X. Xaydaraliyev[1]✉
[1] Fergana State University, Fergana, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article justifies the importance of educating young people in the spirit of patriotism, instilling a sense of national pride and respect for ancestral values. It highlights the role of philosophy as an effective pedagogical tool in this process.

AIM: the study aims to identify effective parameters for developing patriotic qualities among students through philosophical education and to explore pedagogical methods for forming national consciousness and value-based worldview.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

MATERIALS AND METHODS: the article analyzes national and international literature in philosophy, pedagogy, and psychology, using theoretical, comparative, and content analysis approaches.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings confirm that philosophy contributes to shaping students' patriotism, ethics, national consciousness, tolerance, and social responsibility. Historical heritage, heroes, traditions, and cultural symbols are vital tools in patriotic education.

CONCLUSION: philosophical education serves as a powerful means of instilling high moral, cultural, and aesthetic values in students, enhancing their sense of patriotism and strengthening the ideological foundations of national identity.

Keywords: norm, patriotism, aesthetic needs, culture, education, philosophical teaching, national values.

For citation: Xurshid X. Xaydaraliyev. (2025) 'On the basis of philosophical education in students parameters for the development of patriotic qualities', Inter education & global study, (3), pp. 405–412. (In Uzbek).

Bugungi kunda xalqaro munosabatlarning barqarorlashuvida mustaqil davlatlar tomonidan ilgari surilayotgan g'oyaviy qarashlar yetakchi o'rin tutmoqda. Mafkuraviy g'oyalar kurashi, mafkuraviy ta'sirlarning tobora keskinlashuvi mustaqil davlatlar taraqqiyotiga ziyon yetkazishining oldini olish bugungi kunning dolzarb muammosiga aylanmoqda. Buning yo'li – odamlarimiz, avvalambor, yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash. Ularning tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish, ularning "Men o'zbek farzandiman" deb g'urur va iftixor bilan yashashiga erishishdir.

Falsafani o'qitish boshqa fanlarni o'qitishdan katta farq qiladi. Bu farq falsafaning ma'naviy madaniyatning qanday sohasi ekanidan kelib chiqadi. Zero bilamizki, asl falsafa fanning o'zigina emas, balki borliqqa donishmand ko'zi bilan qaraydigan eng yuksak elitar madaniyat shakli, dunyoqarashning o'ziga xos tarixiy tipidir. Demak, falsafa o'qituvchisi oddiy o'qituvchilar kabi talabaga faqat bilim (informatsiya) bera oladigan, uning fikrini boyitish bilangina cheklanadigan kishi emas, balki uni hayotga donishmand ko'zi bilan qarash sirlaridan bohabar etadigan zot hamdir.

Ushbu jihatidan kelib chiqib, falsafa ma'naviy madaniyatning boshqa shakllaridan, xususan fan sohalaridan farqli ravishda avvalo juda ko'p vazifalarni o'z zimmasiga oladi. Bular asosan falsafaning insonda yuksak va teran dunyoqarashni, ya'ni elitar madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish, eng umumiy ahloqiy, estetik, ijtimoiy, siyosiy, xuquqiy va boshqa normalar asosida yotuvchi universal qonun va qonuniyatlarni ko'rsatish va asoslash hamda shu yo'l bilan insoniyatni tarbiyalash kabi yuksak vazifalaridir. Boshqa fanlarni o'qitishda bilimni berish, uni faol o'zlashtirilishini ta'minlash

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

va ba'zan tarbiyalash vazifasi kelib qo'shiladi. Masalan, aniq fanlarda; matematika, fizika, ximiya, biologiya, geologiya, geografiya va hokazolarni o'qitishda o'qituvchi o'z sohasiga tegishli bilimni talabaga singdirish uslubiyatini o'zlashtirishi yetarli bo'lsa, gumanitar fanlarda esa shunday bilim bilan birga tarbiyaviy vazifa ham qatnashsa falsafa o'qitishda har ikki jihat - bilim berish va tarbiyalash bir-birini to'ldirgan, uzviy bog'liq ravishda qatnashgani holda, bundan tashqari boshqa ko'p vazifalar ham amalga oshiriladi. Falsafaning boshqa fanlardan asosiy farqi ham shunda. Shunga ko'ra falsafani o'qitishda uning barcha vazifalarini birgalikda qanday amalga oshirish kerakligi faylasuf-pedagogning hamisha diqqat markazida bo'lishi zarur.

Falsafani o'qitishning yana bir o'ziga xosligi shundaki, falsafa xususiy fan soxalaridan biri emas, balki dunyoqarashdir. Dunyoqarash sifatida uning mazmuni nafaqat fanning barcha sohalari bilan, balki ma'naviy madaniyatning barcha sohalari bilan hamda amaliyot bilan uzviy bog'liq bo'lishi zarur. Demak, boshqa fan o'qituvchilari o'z darslarida odatda asosan o'z fanlari, xatto o'z fanlarining tor soxalari mazmuniga kiradigan bilimga tayanib dars o'tishlari yetarli bo'lsa, falsafa o'qituvchisi bilimning barcha sohalariga tayanishi hamda amaliyotning xamma qirralarini hisobga olishi zarur.

B.To'ychiyev harbiy xizmatchilar o'rtasida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar hamda ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalalarini, I.Inoyatov, M.Abilov, V.Kaloshin va O.Abdurasulovlar mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tarixi, tarkibi, oliy harbiy bilim yurtlari harbiy xizmatchilari faoliyati, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi nazariyasi, harbiy xizmatchilarning psixologik xususiyatlarini tadqiq etganlar.

R.Kurbanov, E.Qalqonov, O.Abdurasulov, A.Redjaboyevlarning yoshlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishning nazariy-metodologik muammolari, milliy vatanparvarlik tarbiyasining mohiyati oliy o'quv yurtlaridagi ta'limning milliy yo'nalishlaridagi yangilash bilan bog'liq masalalar yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.Gayazov, V.Gladik, V.Jernov, V.Jurova, N.Irrolitova, T.Luginina, Z.Mazir, Yye.Mitina, L.Orinina, Y.Rodlesnaya, O.Roluxin, L.Rudchenko, Sh.Xayrulin, O.Yarigin kabilar pedagogik jarayonda vatanrarvarlikni tarbiyalash va fidoyilik, sadoqatlilik va mas'uliyatlilikni mustahkamlashning redagogik asoslari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan.

Xorijlik olimlardan YE.Banks, V.Berg, G.Biyesta, V.Link, D.Brovn, B.Vard, M.Boun, K.Mutchlar talabalarda vatanrarvarlik fazilatlarini rivojlantirish,"Tinchlik uchun ta'lim" g'oyasi asosida redagogik faoliyatni amalga oshirishning turli jihatlari, P.Santiago, H.Mann, M.Georgelar o'quvchilarning vatanparvarlik tarbiyasining pedagogik asoslari, vatanparvarlik fazilatining shakllanganligini pedagogik tashxis etish masalalarini o'rgangan. V.Chinaph, U.Hartmann, H.Engelhaupf, T.Drogelar ijtimoiy va siyosiy ta'limning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasidagi o'rni va ahamiyatini taddiq etganlar. Shuningdek, talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlan-tirishning psixologik jihatlari X.Ingo, V.Grenni, T.Kellaxan, D.Morgan tomonidan tadqiq qilingan hamda R.Mixnerning demokratik jamiyatda milliylik va vatanparvarlik uyg'unligi, M.Virolidagi vatanparvarlikning «muhabbat» tushunchasi bilan qiyosiy tahlili, S.Kautzning liberal demokratiya jarayonida

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

vatanparvarlik g‘oyalarining in’ikosi, J.Sitserning vatanparvarlikning diniy-ma’rifiy asoslariga tayangan tadqiqotlar shular jumlasidan.

Falsafiy fanlarning talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish imkoniyatini aniqlash, pedagogik shart-sharoitlar, omillarni o‘rganish, ta’lim va tarbiyaviy ishlar mazmunida bu masalaning aks etishiga erishish, talabalarning milliy madaniyat, tarix va qadriyatlar mohiyatini yorituvchi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar jarayonid ko‘ngilli, majburlovlarsiz ishtirok etishlariga erishish lozim. 2.1-rasm.

Talabalarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantiruvchi omillar

№	Omillar	Talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishga bo‘lgan ta’siri
1.	Millatning shonli tarixi, o‘tmishi	Talabalarni millat tarixi bilan tanishtiradi, ularda millatning taraqqiyot yo‘li to‘g‘risidagi bilimlarni hosil qiladi, milliy tarix negizida istiqbolga bo‘lgan ishonchni qaror toptiradi
2.	Milliy til imkoniyatlari	Talabalarning milliy ruhda fikrlash, milliy tafakkurga ega bo‘lishlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi
3.	Xalq qahramonlarining jasorati	Talabalarga millat ozodligi, Vatan mustaqilligi, taraqqiyoti, istiqboli uchun kurashish oliy insoniy burch ekanligini anglatadi, ularni millat ozodligi, Vatan ravnaqi yo‘lida kurashish istagini uyg‘otadi
4.	Milliy-madaniy meros	Talabalarni millatga xos turmush tarzi, borliqqa bo‘lgan yondoshuv, ijtimoiy munosabatlari mazmuni, milliy xarakter xususiyatlari bilan tanishtiradi, ularda milliy mentalitetga xos sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi
5.	Milliy qadriyatlar (urf-odat, marosim va an’analar)	Talabalarga millat hayoti, o‘tmishi, kelajagi uchun dahldor bo‘lgan omillar to‘g‘risida ma’lumotlar beradi, ular tomonidan milliy mentalitet xususiyatlarining to‘la anglanishi uchun imkoniyat yaratadi, talabalarda milliy urf-odat, marosim va an’analarning avlodlar tomonidan davom ettirilishi, ularning mazmunan boyitib borilishi yo‘lida amaliy harakat ko‘nikmalarini tarbiyalaydi
6.	Xalq og‘zaki ijodi	Yosh avlodning milliy qadriyatlar ruhida ulg‘ayishlari uchun sharoit yaratadi, talabalarni milliy ruhiyat, milliy tafakkur, ijtimoiy borliqqa bo‘lgan yondoshuv elementlari bilan tanishtiradi, ularda milliy ongning shakllanishi uchun xizmat qiladi
7.	Ilm-fan, adabiyot va san’at	Talabalarga ilm-fan, adabiyot va san’at, hunarmadchilik, yordamida milliy hayot tarzi, milliy xarakter xususiyatlarining shaxs kamolotini ta’minlashdagi roli haqidagi bilimlarni beradi
8.	Oilaviy sulola an’analari	Yoshlar, jumladan, talabalar tomonidan milliylik, milliy o‘ziga xoslik, milliy qadriyatlar mazmunining puxta anglanishi uchun sharoit yaratadi, ularni milliy ruhiyat g‘oyalari asosida tarbiyalashga yordam beradi
9.	Sport	Талабаларни миллат вакилларининг жисмоний кучи, салоҳияти даражаси билан таништиради, уларда спорт миллат номини жаҳонга тез танитувчи восита эканлиги тўғрисидаги қарашни юзага келтиради, уларда шахсий жисмоний маданиятни тарбиялашга нисбатан рағбат уйғотади
10.	Davlat ramzlari	Talabalarni millatning asriy qarashlari, borliqqa bo‘lgan ijtimoiy munosabati mazmuni, shuningdek, uning sha’ni, g‘ururi, or-nomusi, xalqaro maydondagi obro‘-e’tibori to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan tanishtiradi, ularda millatning hayot tarziga nisbatan chuqur hurmat uyg‘otadi, millatni ulug‘lashga, uning taraqqiyotini ta’minlashga undaydi

I. Millatning shonli tarixi, o‘tmishi. Talabalarga millatning shonli o‘tmishi, tarixi haqidagi ma’lumotlar ta’lim va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish asosida yetkazib beriladi. Ta’lim muassasasida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan falsafa ta’limi ham talabalarni millat ravnaqi, uning taraqqiyoti tarixi, erishgan yutuqlari, nurli va bo‘ronli kunlari, bugungi hayoti hamda istiqbol rejalari bilan tanishtirishga xizmat qiladi. Sobiq Ittifoq davrida millat va milliylik to‘g‘risida so‘z yuritish mumkin bo‘lmaganidek, millat taraqqiyoti, uning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasiga ham munosib baho berilmadi. Biroq, mustaqillik sharoitida yoshlar, jumladan, talabalarni o‘zbek millatining asl tarixi bilan tanishtirish,

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ularning o‘z ajdodlarini kimligini anglab yetishlari uchun imkoniyat yaratish yo‘lida hech qanday to‘siq yo‘q.

Talabalarga millat tarixining shonli sahifalaridan olingan dalillarni yuksak mahorat bilan ko‘rsata olish, ularda millat tarixidagi barcha ijobiy, milliy taraqqiyotni ta’minlashda alohida ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalar bilan haqli ravishda faxrlanish, iftixor etish hissini uyg‘otish zarur. Endigi vazifa talabalarni millat tarixi, o‘tmishini chuqurroq tanishtirishning samarali yo‘llaridan foydalanishdan iborat. Bu o‘rinda pedagogik faoliyatni quyidagi tahlitda tashkil etish kutilgan maqsadga olib keladi:

1. Talabalarni millatning shonli o‘tmishi, tarixi bilan yaqindan tanishtirish imkoniyatiga ega Falsafa fanini vatanparvarlikni tarbiyalash ruhida o‘qitish jarayonida bilimlarni yuqori darajada ruhiy-hissiy ifoda yordamida uzatilishini ta’minlash. Talabalarda milliy g‘urur tuyg‘usi, asosan, ta’lim jarayonida shakllantiriladi. Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan “Falsafa” ta’limi talabalarda vatanparvarlikni milliy g‘urur asosida shakllantirish uchun juda boy material bera oladi.

2. Talabalarni o‘zbek millatining shonli tarixi, o‘tmishi bilan tanishtirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar bilan o‘zaro uyg‘unlashuviga erishish.

3. Talabalarni millat o‘tmishi, tarixi bilan tanishtiruvchi tadbirning reja uchun emas, talabalarning ichki ehtiyojlarini inobatga olgan holda ko‘tarinki ruhda tashkil etilishini ta’minlash.

4. Bunday tadbirlarga boshlovchi sifatida notiqlik iqtidoriga ega mutaxassislarni jalb etish (bu vaziyatda talabalarning imkoniyatlaridan ham foydalanish foydadan holi emas).

5. Talabalarni millat tarixiga oid ma’lumotlar bilan tanishtirishda asosiy urg‘uni millat faxri va iftixori bo‘lgan voqea-hodisalargagina emas, shu bilan birga milliy taraqqiyot yo‘lida to‘siq bo‘lgan o‘zaro ichki kurashlar, etnik yoki diniy nizolar, hokimiyat uchun ayovsiz kurashlar ro‘y bergan jarayonlarga ham tortish orqali talabalarda milliy ravnaq inqirozini ta’minlovchi salbiy holatlarga nafrat uyg‘otish, bunday holatlarning oldini olish uchun shaxsiy hissani qo‘shishga rag‘batlantirish.

Falsafa ta’limi asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish masalasi millatning yutuqlari, obro‘-e’tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq qarab turmaslik; o‘z eliga, millatiga jonkuyar bo‘lish; o‘z millatining moddiy, ma’naviy merosini asrab-avaylash; xalq odatlari, an’analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish; o‘z millatiga mehr-muhabbatini amalda namoyon qilish; o‘zga millatlarni hurmat qilish; ajdodlar xotirasi oldida vorislik mas’uliyatini his qilish kabi tarbiya jarayonining jiddiy va kechiktirib bo‘lmas vazifalari bilan bog‘liqligi kelib chiqadi.

Falsafiy ta’lim asosida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishda axloqiy tarbiyaning ustuvor bo‘lishi bilan bog‘liq masala sifatida qaralganda talabaning shaxs sifatidagi fazilatlarini quyidagi komponentga ajratib ko‘rsatish mumkin: a) ma’naviy-axloqiy bilimlar; b) his-tuyg‘u, emotsiyalar; v) xulq-atvor, xatti-harakatlar.

Falsafa ta’limi talabada o‘zgacha qarashlarga nisbatan bag‘rikeng (tolerant) bo‘lishga o‘rgatadi. Ideologik qarama-qarshiliklar ortidan kelib chiqadigan zo‘ravonliklar,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

buzg‘unchiliklar ekstremistik xatti-harakatlar munosabatlar o‘rnini o‘zaro hurmat asosiga qurilgan bahs-munozaralar egallashiga xizmat qiladi.

Axloqiy o‘z-o‘ziga baho berish va o‘z-o‘zini intizomga chaqirish ko‘nikmalari tiyib turuvchi omil sifatida yuzaga chiqadi. Bu ko‘nikmalar o‘ylanmagan, kutilmagan favqulodda xatti-harakatlardan muhofaza qilishi bilan birga, shaxsning xulq-atvor madaniyati axloqiy va estetik uyg‘unlikni ham o‘z ichiga oladi. Bu quyidagilarda o‘z ifodasini topadi: axloqiy madaniyatni shakllantirish orqali o‘zlikni anglash yuzaga keladi. Talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishda ilmiy-amaliy va ilmiy-nazariy anjumanlar ta’sirchan kuchga ega bo‘lishi, unda mazkur anjumanlarda bildirilgan fikr mulohazalarda, tanlangan mavzuning bugungi kunda nechog‘li dolzarb masala ekanligi ochiq-oydin namoyon bo‘lishi asoslandi.

Talabalarda vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish uchun ular ongiga millat taqdiri, buguni va ertangi kuniga ishonch, u tomonidan yaratilgan madaniyatdan faxrlanish, uni asrash va boyitish yo‘lida mehnat qilish g‘oyalarini singdirishning pedagogik imkoniyatlarini va metodik asoslarini modernizatsiyalash samarali bo‘lishi aniqlashtirildi.

Talabalarda millatning shonli sahifalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish, shiddatli tarixiy o‘zgarishlar davrida ham millatning ma’naviy-axloqiy qarashlari, e’tiqodidan voz kechmaganligidan g‘ururlanish insonda kelajakka bo‘lgan ishonch hissini uyg‘otadi. Kelajakka ishonch shaxsda ruhiy bardamlik, tetiklikni tarbiyalaydi, murakkab, o‘ta qiyin vaziyatlarda ham tahlikaga tushmaslik, vaziyatdan chiqa olish uchun harakat qilishiga turtki beradi.

Falsafiy fanlarni o‘qitish jarayonida talabalarga milliy qadriyatlar, ularning ijtimoiy ahamiyati, o‘zbek xalqining jahon ilm-fani va sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi haqidagi ma’lumotlarni berishga jiddiy e’tibor qaratish vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantruvchi ijtimoiy-pedagogik omil bo‘lib xizmat qilishi asoslandi.

Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan “Falsafa” ta’limi talabalarda vatanparvarlikni milliy g‘urur asosida shakllantirish uchun juda boy material bera oladi. Shuning uchun talabalarning chuqur va puxta bilim olishlariga erishish, ularga talabalarning Vatan va millat oldidagi burchlaridan biri – a’lo o‘qish, mutaxassislik asoslarini puxta o‘zlashtirish, o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish malakasiga ega bo‘lish ekanligini singdirish, vatan va millat ulardan yaxshi o‘qishni, bilimli va fidoiy, milliy taraqqiyot uchun o‘z hissasini qo‘sha oladigan mutaxassis bo‘lishni talab etishini uqtirib borish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”. 2023, -B. 112.
2. Ta’lim to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. –Toshkent.: O‘zbekiston, 2020 yil 23 sentabr. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son)

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

3. Temur tuzuklari. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2016. – 72 b.
4. To‘ychiyev B. Preodaleniya sotsialno-negativnix yavleniya i problemi formirovaniya lichnosti spetsialista organov vnutrennix del. Vsb. Formirovaniye lichnosti budushego spetsialista organov vnutrennix del. MVD RUz. – Tashkent, 1992. − S.24-29;
5. Falsafa: qomusiy lug‘at. – Toshkent: Sharq, 2000. – 496 b.
6. Freyd Z. Psixologiya bessoznatelnogo: Sbornik proizvedeniy. Sost., nauch. red., avt. vstup. st. M. G. Yaroshevskiy - Moskva Prosvesheniye. 1990. - 517 s.
7. Fromm E. Anatomiya chelovecheskoy destruktivnosti. Per. s nem. Moskva: AST, 2006. - 624 s.
8. Fromm E. Begstvo ot svobodi. - Moskva.: «AST», 2011. –B. 7-9.
9. Tashanov A. Vayronkor g‘oyalar va buzg‘unchi mafkuralar (ma’naviyatga tahdid soluvchi illatlar). –Toshkent: Turonzaminziyo, 2015. – 400 b.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Xaydaraliyev Xurshid Xamidullayevich**, kafedra mudiri [**Хайдаралиев Хуршид Хамидуллаевич**, заведующий кафедрой], [**Xurshid X. Xaydaraliyev,** head of the department]; manzil: Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahri, Murabbiylar ko‘chasi, 19- uy, [адрес: Ферганская область, г. Фергана, ул. тренеров, д. 19], [address: Fergana region, Fergana, St. trainers, 19]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3

Original paper

JANUBIY KOREADA AXBOROTLASHGAN TA’LIM MUHITIDA MILLIY-MADANIY QADRIYATLARNI SAQLASH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI: OLIY TA’LIM TAJRIBASI

© A.M. Sheraliyev[1]✉

[1]Qo‘qon davlat pedagogika instituti, Qo‘qon, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada Janubiy Koreyada axborotga asoslangan ta’lim muhitida milliy va madaniy qadriyatlarni saqlash bilan bog‘liq dolzarb muammolar tahlil qilinadi. Texnologik rivojlanish bilan birga raqamlashtirish o‘ziga xos madaniy qadriyatlarga bo‘lgan e’tiborni pasaytirishi mumkinligi haqida xavotirlar mavjud.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi — raqamli ta’lim sharoitida milliy-madaniy qadriyatlarni saqlash strategiyalarini ishlab chiqish va Janubiy Koreya oliy ta’lim tajribasini ilmiy asosda o‘rganishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda raqamli ta’lim platformalari, til siyosati, madaniyat va axloqiy qadriyatlar bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi hamda Janubiy Koreya universitetlari amaliyotiga oid materiallar o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlillar shuni ko‘rsatdiki, globallashuv fonida ingliz tilining ustuvorligi va G‘arb metodologiyalarining keng qo‘llanilishi natijasida koreys madaniy merosiga bo‘lgan qiziqish pasaymoqda. Shu bilan birga, axloqiy qadriyatlarda ham siljishlar kuzatilmoqda.

XULOSA: madaniy ta’limni raqamli ta’limga integratsiyalash, koreys tilini o‘qitishni kuchaytirish, mahalliylashtirilgan raqamli kontent yaratish va universitet dasturlariga axloqiy fanlarni kiritish orqali milliy qadriyatlarni saqlash va zamonaviy texnologiyalarni uyg‘unlashtirish mumkin.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, raqamli ta’lim, madaniy meros, milliy qadriyatlar, til siyosati, globallashuv, Janubiy Koreya.

Iqtibos uchun: Sheraliyev A.M. Janubiy koreada axborotlashgan ta’lim muhitida milliy-madaniy qadriyatlarni saqlash muammolari va yechimlari: oliy ta’lim tajribasi.// Inter education & global study. 2025. №3. B.413–418.

ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ СОХРАНЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ИНФОРМАЦИОННО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ ЮЖНОЙ КОРЕИ: ОПЫТ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

© А.М. Шералиев[1]✉

[1]Кокандский государственный педагогический институт, Коканд, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются актуальные проблемы сохранения национальных и культурных ценностей в информационно-образовательной среде

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3

Южной Кореи. Быстрая цифровизация системы образования при технологическом прогрессе страны вызывает обеспокоенность снижением интереса к традиционным ценностям.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — научно обосновать и определить стратегии сохранения национальной идентичности в условиях цифрового образования на примере высшего образования Южной Кореи.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании проанализированы научные публикации по вопросам цифровизации образования, культурной идентичности, языковой политики и моральных ориентиров, а также рассмотрен практический опыт университетов Южной Кореи.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты анализа показали, что доминирование англоязычных программ и глобализированных образовательных платформ приводит к снижению интереса к корейской культуре и языку. Кроме того, наблюдаются сдвиги в моральных ценностях студентов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: интеграция культурного компонента в цифровое образование, усиление преподавания корейского языка, развитие локализованного цифрового контента и внедрение моральных дисциплин в учебные программы способствуют сохранению культурного наследия и обеспечивают баланс между модернизацией и национальной идентичностью.

Ключевые слова: высшее образование, цифровое обучение, культурное наследие, национальные ценности, языковая политика, глобализация, Южная Корея.

Для цитирования: Шералиев А.М. Проблемы и пути решения сохранения национально-культурных ценностей в информационно-образовательной среде южной кореи: опыт высшего образования.// Inter education & global study.2025. №3. С. 413–418.

PROBLEMS AND SOLUTIONS OF PRESERVING NATIONAL AND CULTURAL VALUES IN AN INFORMATION-BASED EDUCATIONAL ENVIRONMENT IN SOUTH KOREA: A HIGHER EDUCATIONAL EXPERIENCE

© Alisher M. Sheraliyev[1]✉
[1]Kokand State Pedagogical Institute, Kokand, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article examines the pressing issues of preserving national and cultural values in South Korea’s information-based educational environment. Rapid digitalization and technological progress have raised concerns about the diminishing focus on traditional cultural heritage.

AIM: the main aim of the study is to scientifically justify and propose strategies for preserving national identity in the context of digital education, based on the experience of South Korean higher education.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3

MATERIALS AND METHODS: the study analyzed scholarly literature related to digital education, cultural identity, language policy, and ethics, as well as reviewed the institutional practices of South Korean universities.

DISCUSSION AND RESULTS: the analysis revealed that the dominance of English-medium and globalized curricula reduces students' interest in the Korean language and culture. Furthermore, moral value shifts are observed among students.

CONCLUSION: integrating cultural education into digital learning, strengthening Korean language instruction, developing localized digital content, and incorporating ethical disciplines into curricula support cultural heritage preservation while balancing modernization with national identity.

Keywords: higher education, digital learning, cultural values, national identity, language policy, globalization, South Korea

For citation: Alisher M. Sheraliyev. (2025) 'Problems and solutions of preserving national and cultural values in an information-based educational environment in south korea: a higher educational experience', Inter education & global study, (3), pp. 413–418. (In Uzbek).

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi butun dunyo bo'ylab ta'lim muhitini o'zgartirib, milliy va madaniy qadriyatlarni saqlash uchun imkoniyatlar va muammolarni keltirib chiqardi. Raqamlashtirish oliy ta'limda muhim rol o'ynaydigan Janubiy Koreyada an'anaviy madaniy o'ziga xosliklarning potentsial susayishi bilan bog'liq xavotirlar paydo bo'ldi. Ushbu maqola Janubiy Koreyada axborotga asoslangan ta'lim muhitida milliy va madaniy qadriyatlarni saqlash bilan bog'liq muammolarni ko'rib chiqadi va ilmiy tushunchalar va muvaffaqiyatli institutsional strategiyalarga asoslangan potentsial yechimlarni o'rganadi. Janubiy Koreya yuqori raqamli ta'lim tizimiga ega, texnologik jihatdan eng rivojlangan mamlakatlardan biridir. Universitetlar ta'lim tajribasini yaxshilash uchun raqamli ta'lim platformalarini, sun'iy intellektni (AI) va virtual haqiqatni (VR) birlashtiradi. Biroq, Castells ta'kidlaganidek, axborot tarmoqlarining globallashuvi ko'pincha madaniy homogenlashuvga olib keladi, bu erda hukmron madaniyatlar mahalliy an'analarga soya soladi. Bu hodisa oliy ta'limda koreys milliy o'ziga xosligi va an'anaviy qadriyatlarini saqlab qolish borasida xavotir uyg'otadi.

Milliy-madaniy qadriyatlarni asrab-avaylash muammolari

1. Globallashuv tufayli madaniy eroziya. Raqamli ta'lim platformalari, birinchi navbatda, G'arb pedagogik yondashuvlari ta'sirida, ko'pincha talabalarni global madaniy me'yorlar bilan tanishtiradi. Robertson fikricha, globallashuv global ta'sirlar va mahalliy an'analar o'rtasida keskinlikni keltirib chiqaradi, ba'zan esa mahalliy madaniy qadriyatlarning yemirilishiga olib keladi. Janubiy Koreyada xalqaro ommaviy axborot vositalari va ta'lim mazmunini iste'mol qiladigan talabalar an'anaviy koreys mafkuralaridan ko'ra global istiqbollarga ustunlik berishi mumkin, bu esa Konfutsiy qadriyatlari, tili va tarixiy merosining ahamiyatini kamaytirishi mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3

2. Koreys an’anaviy adabiyotining til o‘zgarishi va tanazzulga uchrashi. Janubiy Koreya universitetlarida ingliz tilini o‘qitish vositasi sifatida qabul qilinishi bilan koreys tili va adabiyotiga bo‘lgan qiziqish pasayib borayotganidan xavotirlar paydo bo‘ldi. Phillipson fikricha, lingvistik imperializm hukmron til akademik va ijtimoiy kontekstda ona tillarining rolini kamaytirganda yuzaga keladi. Janubiy Koreyada oliy ta’limda ingliz tiliga ustuvor ahamiyat berilishi yosh avlodlar orasida koreys tilini bilish darajasini pasaytirishi va madaniy uzluksizlikni zaiflashtirishi mumkin.

3. Ta'lim mazmunini g'arbiylashtirish. Ko'pgina Janubiy Koreya universitetlari G'arb institutlari tomonidan ishlab chiqarilgan raqamli ta'lim resurslariga tayanadi. Leask ta'kidlashicha, xorijiy o'quv dasturlariga haddan tashqari tayanish talabalar va ularning madaniy merosi o'rtasida uzilishga olib kelishi mumkin. Koreyada tobora ko'payib borayotgan talabalar falsafa, tarix va siyosatshunoslikni G'arb asoslari orqali o'rganishmoqda, bu esa mahalliy koreyslarning qarashlariga soya solishi mumkin.

4. Axloqiy va ma’naviy siljishlar. An'anaviy koreys jamiyati konfutsiy axloqiga chuqur ildiz otgan bo'lib, oqsoqollarga hurmat, kollektivizm va ijtimoiy totuvlikni ta'kidlaydi. Biroq, talabalar globallashgan raqamli kontent bilan shug'ullanar ekan, ba'zida an'anaviy axloqiy qadriyatlar hisobiga individualizm va moddiy muvaffaqiyatga e'tibor kuchaymoqda. Hofstedening madaniy o'lchovlar nazariyasiga ko'ra, kollektivizmdan individualizmga o'tish muhim ijtimoiy va axloqiy o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Milliy va madaniy qadriyatlarni asrash yechimlari

Madaniy ta’limni raqamli ta’limga integratsiyalash. Texnologik taraqqiyotni madaniyatni saqlash bilan muvozanatlashning eng samarali usullaridan biri bu koreys tarixi, tili va an’analarini raqamli ta’lim platformalariga integratsiya qilishdir. Janubiy Koreya universitetlari tarixiy voqealarni VR simulyatsiyasi, sun’iy intellekt asosidagi til o‘rganish va onlayn madaniy meros arxivlari kabi interaktiv vositalarni o‘z ichiga olgan raqamli gumanitar fanlar dasturlarini ishlab chiqishi kerak. Kim and Roh kabi olimlar madaniy ta'limni raqamli platformalarga kiritish madaniy yaxlitlikka putur etkazmasdan, qiziqarli va chuqur o'rganish tajribasini yaratishi mumkinligini ta'kidlamoqda.

Oliy o‘quv yurtlarida koreys tili ta’limini kuchaytirish. Koreys tilini bilish darajasining pasayishiga qarshi turish uchun universitetlar koreys tili kurslarini kuchaytirishi va ularni umumiy ta’lim o‘quv dasturlariga kiritishni talab qilishi kerak. Fishman fikriga ko'ra, ta'lim doirasidagi til xilma-xilligini saqlab qolish madaniy o'ziga xoslikni mustahkamlaydi. Janubiy Koreya Frantsiya va Yaponiyadagi kabi siyosatni qabul qilishi mumkin, bu erda global til ta'siriga qaramay, oliy ta'limda ona tilini o'qitish majburiy bo'lib qoladi.

Mahalliylashtirilgan raqamli ta’lim mazmunini ishlab chiqish. Janubiy Koreya universitetlari xorijda ishlab chiqarilgan materiallarga tayanmasdan, mahalliy raqamli ta’lim resurslarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berishlari kerak. Madaniy ahamiyatga ega bo'lgan onlayn kurslar, elektron kitoblar va tadqiqot omborlarini yaratish uchun mahalliy olimlar bilan hamkorlik qilish Koreya akademik o'ziga xosligini saqlab qolishga yordam beradi. Marginson fikriga ko'ra, globallashgan ta'lim tizimida mahalliy akademik

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3

ishlab chiqarishni kuchaytirish xalqaro raqobatbardoshlikni saqlab, milliy o'ziga xoslikni rivojlantiradi.

Gibrid ta'lim yondashuvlarini targ'ib qilish. Gibrid yondashuv orqali global va mahalliy ta’lim mazmuni o‘rtasidagi muvozanatga erishish mumkin. Janubiy Koreya universitetlari G'arb metodologiyalarini va Koreyaning an'anaviy bilimlarini o'z ichiga olgan ikki tilli dasturlarni taklif qilishlari mumkin. Ushbu yondashuv Giddensning refleksiv modernizatsiya kontseptsiyasiga mos keladi, bu jamiyatlar o'zlarining asosiy madaniy elementlarini saqlab qolgan holda zamonaviy ta'sirlarga moslashishi mumkinligini ko'rsatadi.

Axloqiy va ma’naviy tarbiyani o‘quv dasturiga kiritish. Axloqiy qadriyatlardagi o'zgarishlarni bartaraf etish uchun universitetlar o'zlarining o'quv dasturlariga Konfutsiy axloqi va koreys falsafiy an'analarini kiritishlari kerak. Nisbett fikriga ko'ra, Sharqiy Osiyoning fikrlash shakllari G'arb individualistik modellaridan tubdan farq qiladi va ta'lim sharoitlarida bu farqlarni saqlab qolish madaniy barqarorlik uchun juda muhimdir. Universitetlar koreys axloqi, fuqarolik mas'uliyati va an'anaviy falsafa bo'yicha majburiy kurslarni joriy qilishi mumkin, bu esa talabalarning madaniy merosi bilan bog'liqligini ta'minlaydi.

Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va siyosatni amalga oshirish. Janubiy Koreya hukumati raqamli ta'lim doirasida madaniy qadriyatlarni saqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Siyosatlar koreys madaniyatini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlarni moliyalashtirish, koreysga asoslangan ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish uchun grantlar va koreys va xalqaro talabalar o‘rtasida madaniy almashinuvni rivojlantirish tashabbuslarini o‘z ichiga olishi kerak. Altbax va Knight fikriga ko'ra, globallashgan akademik landshaftda milliy ta'lim suverenitetini saqlab qolishda hukumatning aralashuvi muhim ahamiyatga ega.

Seul Milliy Universitetining Koreya merosi tashabbusi. Seul Milliy universiteti raqamli arxivlar va Koreya tarixi, adabiyoti va falsafasiga qaratilgan onlayn kurslarni ishga tushirdi. Ushbu tashabbuslar talabalarga ta'limni raqamlashtirish kuchayib borayotganiga qaramay, o'zlarining madaniy merosi bilan shug'ullanishlariga yordam berdi. Koreya universiteti koreys va ingliz tillarida dasturlarni taklif qilish orqali ikki tilli ta'limni birlashtiradi. Ushbu model o'quvchilarning o'z ona tillarida ravon gapirishlarini saqlab, global ta'sirga ega bo'lishini ta'minlaydi. Xanyang universiteti VR-ga asoslangan madaniy ta'lim dasturini ishlab chiqdi, unda talabalar koreysning qadimiy an'analari va tarixiy joylarini virtual tarzda o'rganishlari mumkin, bu esa milliy merosni chuqurroq qadrlaydi.

Xulosa. Janubiy Koreya oliy ta’lim tizimi raqamli transformatsiyani qabul qilgan bo‘lsa-da, milliy va madaniy qadriyatlarni asrab-avaylash muammolarini ham hal qilishi kerak. An'anaviy bilimlarning emirilishi, tilning pasayishi va axloqiy nuqtai nazarlarning o'zgarishi darhol e'tiborni talab qiladigan dolzarb muammolardir. Madaniy ta’limni raqamli ta’limga integratsiyalash, koreys tilini o‘qitishni kuchaytirish, mahalliylashtirilgan raqamli kontentni ishlab chiqish va o‘quv dasturlariga axloqiy fanlarni kiritish orqali Janubiy Koreya modernizatsiya va madaniy meros o‘rtasidagi muvozanatni saqlab qolishi

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3

mumkin. Kuchli hukumat yordami va innovatsion institutsional yondashuvlar bilan Janubiy Koreya o‘zining boy madaniy o‘ziga xosligini saqlab qolgan holda global ta’lim yetakchisi sifatida rivojlanishda davom etishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Castells M. Toward a sociology of the network society //Contemporary sociology. – 2000. – Т. 29. – №. 5. – С. 693-699.
2. Robertson R. et al. Glocalization: Time-space and homogeneity-heterogeneity //Global modernities. – 1995. – Т. 2. – №. 1. – С. 25-44.
3. Phillipson R. Linguistic imperialism. – Oxford University Press, 1992.
4. Leask A. Visitor attraction management: A critical review of research 2009–2014 //Tourism Management. – 2016. – Т. 57. – С. 334-361.
5. Hofstede G. Dimensionalizing cultures: The Hofstede model in context //Online readings in psychology and culture. – 2011. – Т. 2. – №. 1. – С. 8.
6. Kim Y. Y. et al. Hepatocellular carcinoma versus other hepatic malignancy in cirrhosis: performance of LI-RADS version 2018 //Radiology. – 2019. – Т. 291. – №. 1. – С. 72-80.
7. Fishman J. A. (ed.). Can threatened languages be saved?: Reversing language shift, revisited: A 21st century perspective. – Multilingual Matters, 2001. – Т. 116.
8. Marginson S. Higher education and public good //Higher education quarterly. – 2011. – Т. 65. – №. 4. – С. 411-433.
9. Whittington R. Putting Giddens into action: social systems and managerial agency //Journal of management studies. – 1992. – Т. 29. – №. 6. – С. 693-712.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Sheraliyev Alisher Muhidinovich**,mustaqil tadqiqotchi[**Шералиев Алишер Мухидинович**,независимый исследователь,], [**Alisher M. Sheraliyev,** independent researcher,]; manzil: Qo'qon shahar, Turon ko'chasi, 23-uy, [адрес: Г. Коканд, ул. Турана, д. 23], [address: Kokand, Turana str., 23]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3

Original paper

TALABALARNING MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISH VA NAZORAT QILISH

© S.S. Sheraliyev[1]✉, B.I. Abdullayev[2]✉, Sh.X. Qo‘chqorov[3]✉
[1,2,3]Toshkent davlat texnika universiteti, Olmaliq, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish va uni nazorat qilish, ushbu jarayonning mazmuni, tamoyillari va shakllari, ayniqsa fizika fani misolida mustaqil ish topshiriqlarining ahamiyati va metodik asoslari yoritilgan.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – talabalar mustaqil ta’limini samarali tashkil etish, ularning ijodiy va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish hamda nazariy bilimlarni mustaqil egallashga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini takomillashtirishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, metodik qo‘llanmalar, elektron resurslar va fizikani o‘qitish bo‘yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlil qilindi. Mustaqil ish turlari, shakllari va nazorat qilish usullari chuqur o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlillar shuni ko‘rsatdiki, talabalarning mustaqil ishlari ularning kasbiy salohiyatini oshiradi, mas’uliyatli yondashuvni shakllantiradi. Fizikadan mustaqil ishlar – loyihalar, referatlar, ijodiy izlanishlar orqali nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash imkonini beradi.

XULOSA: mustaqil ta’lim – zamonaviy oliy ta’limning ajralmas qismidir. Uni tizimli tashkil etish va sifatli nazorat qilish orqali intellektual, ijodiy, mas’uliyatli va kompetentli kadrlarni tayyorlash mumkin.

Kalit so‘zlar: mustaqil ta’lim, mustaqil ish, fizika, ijodiy yondashuv, nazorat, loyiha ishi, kompetensiya, malaka.

Iqtibos uchun: Sheraliyev S.S, Abdullayev B.I, Qo‘chqorov Sh.X. Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish va nazorat qilish.// Inter education & global study. 2025. №3. B. 419–426.

ОРГАНИЗАЦИЯ И КОНТРОЛЬ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ

© С.С. Шералиев[1]✉, Б.И. Абдуллаев[2]✉, Ш.Х. Кучкоров[3]✉
[1,2,3]Ташкентский государственный технический университет, Алмалык, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются вопросы организации и контроля самостоятельного обучения студентов в высших учебных заведениях, его формы и

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3

принципы, а также значение самостоятельной работы по физике в формировании профессиональных и когнитивных навыков.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — повышение эффективности самостоятельного обучения студентов, развитие их творческого и практического потенциала, формирование умений самостоятельно усваивать теоретические знания и применять их на практике.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы нормативные документы Республики Узбекистан, методические рекомендации, электронные ресурсы и научно-методические труды по преподаванию физики. Проанализированы виды, формы и методы контроля самостоятельной работы.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: анализ показал, что самостоятельная работа студентов способствует развитию профессиональных компетенций, формирует ответственное отношение к учебе. Самостоятельные задания по физике позволяют связать теоретические знания с практикой.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: самостоятельное обучение — неотъемлемая часть современного образования. Системная организация и контроль этого процесса позволяют готовить интеллектуально развитых, творчески мыслящих и ответственных специалистов.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, физика, творческий подход, контроль, проектная работа, компетенции, навыки.

Для цитирования: Шералиев С.С, Абдуллаев Б.И, Кучкоров Ш.Х. Организация и контроль самостоятельного обучения студентов.// Inter education & global study.2025. №3. С. 419–426.

ORGANIZATION AND CONTROL OF STUDENTS' INDEPENDENT LEARNING

© Sa'dullo S. Sheraliyev[1]✉, Bortirxon I. Abdullayev[2]✉, Qo'chqorov H. Shohjahon[3]✉
[1,2,3]Tashkent State Technical University, Almalyk, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article explores the organization and control of independent learning among students in higher education, highlighting its principles, forms, and the role of independent tasks in physics in developing students' professional and cognitive skills.

AIM: the main aim of the study is to enhance the effectiveness of students' independent learning, foster creativity and practical skills, and improve the acquisition and application of theoretical knowledge.

MATERIALS AND METHODS: the study utilized legal documents of the Republic of Uzbekistan, methodological guides, online sources, and academic literature on teaching physics. It focused on the types, forms, and methods of monitoring independent work.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3

DISCUSSION AND RESULTS: the findings show that independent learning improves students' professional competence and promotes responsible learning. Physics assignments such as projects and creative tasks link theory with real-world practice.

CONCLUSION: independent learning is an essential component of modern higher education. Its systematic organization and supervision help train intellectually capable, creative, and responsible professionals.

Keywords: independent learning, physics, creative approach, supervision, project work, competences, skills.

For citation: Sa'dullo S. Sheraliyev, Bortirxon I. Abdullayev, Qo'chqorov H. Shohjahon. (2025) 'Organization and control of students' independent learning', Inter education & global study, (3), pp. 419–426. (In Uzbek).

O'zbekiston respublikasi prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi Pf-5847-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi", vazirlar maxkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi "oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son qarorlarida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish masalalariga alohida ahamiyat berilgan.

Yuqori malakali mutaxassislar tayorlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Talabalarga yuqori darajadagi bilimni o'quv jarayonining auditoriya mashtulotlari to'liq bera olmaydi. Buni amalga oshirishda mustaqil o'quv faoliyati to'ldiruvchi, rivojlantiruvchi komponent vazifasini bajaradi.

Mustaqil ta'lim – bu olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materialni mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriya hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat maqsadidagi o'quv shaklidir. Bu o'quv shaklini bajarishda talabalar mustaqil holda bilim, ko'nikma va malakalarni oshirish uchun "Mustaqil ish" nomli ta'lim jarayonining o'qitish metodi bilan shug'ullanadilar.

Mustaqil ish - o'qituvchining topshirig'i va uning rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan ta'limning faol metodidir. Mustaqil ish qo'yilgan maqsad va vazifalar asosida talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabaning mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollikka, ijodiylikka, yaratuvchanlikka, mustaqil fikr yuritish va tahlil qilishga, tashabbuskorlikka hamda barcha topshiriq va vazifalarni o'z vaqtida sifatli va mukammal tarzda bajarishga asoslangan mas'uliyatlilikni talab qiluvchi faoliyatidir.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni quyidagilarga asoslanadi:

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3

- talabaning mustaqil ta’lim yuklamasi o‘quv rejasida muayyan fanni o‘zlashtirish uchun belgilangan o‘quv ishlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

- mustaqil ta’limi auditoriya va auditoriyadan tashqarida (auditoriya soatini inobatga olmagan holda) bevosita o‘qituvchi rahbarligida talabaning fan bo‘yicha mavzularni mustaqil o‘qib-o‘zlashtirishi, tushuncha olishi va tahlil qilishi va amalga oshiradigan o‘quv ishlari mazmunini bildiradi.

- mustaqil ish turi va shakli muayyan ta’lim yo‘nalishi hamda fanlarning xususiyatidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

- mustaqil ish topshiriqlari va ularni bajarish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar talabaning bilim olishi uchun tusunarli va qisqa holda ishlab chiqilgan bo‘lishi va talaba bu haqida ma’lumotga ega bo‘lishi lozim.

- talabalarning mustaqil ta’lim olish samaradorligini oshirish maqsadida o‘quv seminarlari tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Fizika tabiiy va eksperimental fan bo’lib ushbu fandan talabalar bajarishlari uchun beriladigan mustaqil ish topshiriqlari variativ tavsifga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq. Fizikadan mustaqil ish topshiriqlari yakka tartibda yoki kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashga mo‘ljallangan bo‘lishi talabani ijodkorlik, yaratuvchanlik faoliyatini rivojlantiradi.

Fizikadan mustaqil ta’limini tashkil etishning maqsad va vazifalari:

Maqsad - fizikadan mustaqil ta’limni tashkil etishda fizik qonun va qonuniyatlarini bilish, hodisa va jarayonlarni tushunish va tahlil qilish natijasida o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, bilim saviyasini boyitish, amaliy ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, kognitiv (bilish, o‘rganish), kreativ (yaratish, ijodkorlik), hamkorlikda ishlash kompetentsiyalarini shakllantirish hamda nazariy va amaliy bilimlarini amaliyotga tadbiq qilishdan iborat.

Vazifalari - talabalarda mustaqil holda hodisa va jarayonlarni tahlil qilish, yaratuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va ijodiy va amaliy faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kompetentsiyalarni oshirish maqsadi bilan mustaqil o‘quv faoliyatini amalga oshirish;

- bilim (fizik qonuniyatlarni bilish), ko‘nikma (yaratuvchanlik, ijodkorlik) va malaka (amaliy, kasbiy faoliyat)larni mustaqil egallash, muammoni tahlil qila olish va yechimini toppish qobiliyatlarini tarbiyalash;

- talabalarda mustaqil bilim olish, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘z ustida ishlash qobiliyatlilikni shakllantirish va rivojlantirish uchun sharoit yaratish.

Xususiyatlari - talaba muvaffaqiyatga erishish uchun uzluksiz ravishda o‘z ustida ishlashi zarurligi, mustaqil ishlash jarayonida bilimlarni egallash bilan birga, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hamda topshiriqni mustaqil amalga oshirilishi, talaba mustaqil ish vaqtini o‘zlarining imkoniyatlaridan kelib chiqib mustaqil holda belgilashi, muayyan o‘quv ishlari izchil va uzluksiz ravishda o‘qituvchining rahbarligi va nazorati ostida amalga oshirilishidir.

Mustaqil ta’limini tashkil etishning asosiy tamoyillari.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3

Muntazamliligi - doimiy, uzluksiz ravishda amalga oshirish. Bu talabaning auditoriyada olgan bilimini mustahkamlaydi va xotirada uzoq muddat saqlaydi, shu bilan birgalikda yangi mavzuni o‘zlashtirishga undaydi.

Chegaralanganligi - mustaqil (belgilangan mavzu bo‘yicha) ishni bajarishning chegaralanganligi. Bu holda talaba belgilangan vaqtdan unimli faydalanishi, ya’ni vaqt taqsimotini to‘g‘ri tashkil etishi maqsadga muvofiqdir.

ta'limning interaktivligi - talabaning o‘quv faoliyatini nazorat qilish va zaruriy ko‘rsatmalar berish bilan korrektsiyalashda yordam beruvchi interaktiv dialog va teskari aloqani ta'minlash;

talabaning intellektual potentsialini rivjlantirish - ko‘rgazmali, murakkab vaziyatlarda variativ qarorlar qabul qila olish, ma'lumotlarni qayta ishlash kabi qobiliyatlarni rivojlantirish;

Mustaqil ta’limini tashkil etish jarayonini boshqarish - mustaqil ta’limni tashkil etishga doir metodik tavsiyalar va ko‘rsatmalar ishlab chiqish va talabalarga tanishtirish, mustaqil ish mavzularning aniq aks ettirilishini nazorat qilinishi, talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish jarayonlarining ketma-ketligi va tuzilishi, mustaqil ish topshiriqlari va uning bajarilishini muntazam kuzatishi maqsadga muvofiq.

Mustaqil ta’limini tashkil etishda o‘qituvchi va talabalarning majbiriyatlari va vazifalari alohida ahamiyatga egadir.

O‘qituvchining vazifa va majburiyatlari:

- mavzular va mustaqil ish topshiriqlarini aniq aks ettirish, topshiriqlarning aqliy va ijodiy faoliyat (tahlil, sintez, taqqoslash, solishtirish, umumlashtirish, yaratuvchanlik)ni e’tiborga olish va taminlashi, ularni bajarishga doir metodik ko‘rsatma va tavsiyalar, baholash mezonlari, maslahat olish uchun aloqa vaqtlarini belgilashi, mustaqil ishlarni bajarishda talabalarning guruhlardagi hamkorlik faoliyatini tashkil etish va rag‘batlantirish hamda talabalarning hamkorlikdagi ishlari natijalarini baholashda hisobga olinishi, topshiriqlarining bajarilishini belgilangan vaqtlarda nazorat qilib borishi, hamkorlikda bajarilgan mustaqil ishlar taqdimotini o‘tkazishi va ishlab chiqarishdagi o‘rni, talabalarning yutuq va kamchiliklarini aniqlashtirish va rag‘batlash;
- o‘qituvchi aloqa vaqtida mustaqil ish bo‘yicha talaba murojaati asosida maslahat va amaliy tavsiyalar berib borishini, talabalarning mustaqil topshiriqlarni bajarishda yordamchi manbalar hamda tegishli ko‘rsatma va tavsiyalar berib borishi lozim.

Talabalarning vazifa va majburiyatlarni:

- tavsiya etilgan mavzularni to‘liq o‘zlashtirishi va mustaqil ish topshiriqlarini belgilangan muddatlarda sifatli tarzda taqdim etishi, mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda ko‘chirmakashlikga yo‘l qo‘ymasligi, mustaqil ish topshiriqlarini bajarishga kreativ yondashishi, mustaqil, tanqidiy va innovatsion fikrlash, axborotlar bilan ishlash kompetentligiga ega bo‘lishi, o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilishi;
- hamkorlikdagi mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o‘ziga yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarishi, jamoada ishlay olish kompetentsiyasini o‘zlashtirishi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3

Fizikadan mustaqil ta’limi quyidagi turlarda tashkil etilishi mumkin:

a) auditoriya mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rish – amaliy mashg‘ulotlarda masalalar yechish hamda tajriba bajarish uchun nazariy ma’lumotlarni (fizik qonun va qonuniyatlarni) takrorlash va yodga olish, kollokviumlarga tayyorlanish, nazorat ishlariga tayyorgarlik ko‘rish;

b) auditoriyadan tashqari vaqtda mustaqil ish topshiriqlarini (nazariy, amaliy, tajriba) bajarish - muammoli mavzularni tahlil qilish (shaxsiy fikrini yozma bayon qilish), dolzarb mavzular bo‘yicha maruzalar tayyorlash, kurs ishi yozish, glossariy tuzish, individual va jamoaviy o‘quv loyihasi tuzish va ular ustida ishlash, keys-topshiriqlarini bajarish, darsdan tashqari mashg‘ulot ishlanmalarini tayyorlash;

c) fizika bo‘yicha mavzularni mustaqil ravishda uy sharoitida elektron dasturli vositalar yordamida tayyorlash - muammoli va qiziqtirgan savollarga mavjud elektron dasturlar vositasida javob izlash, an’anaviy usulda bajarish mumkin bo‘lmagan yoki texnik vositalarga yuqori mablag‘ talab qiladigantajribalarni bajarishda dasturli vositalardan foydalanish, masofaviy ta’lim platformalarida fikr almashish, o‘rgatuvchi test dasturlarida mashq qilish orqali fizikaga oid bilimlarini mustahkamlash, o‘quv va texnik manbalar bilan ishlash va tahlil qilish, multimediali taqdimotlar yaratish.

Mustaqil ishlarni bajarishda axborot texnologiyalaridan quyidagi maqsadlarda foydalanish tavsiya etiladi:

a) Ma’lumotlar izlash va unga ishlov berish – belgilangan mavzuga aloqador bo‘lgan saytlarda keltirilgan mavzularni tahlil qilish va xulosa qilish, tarmoqdagi mavjud o‘quv, ilmiy, texnik manbalardan mavzuga oid ma’lumotlarni tahlil etish va ularni baholash, professor-o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan yoki tarmoqdan mavjud veb-kvestda ishlash.

b) Tarmoqda dialogni amalga oshirish – sinxron telekonferentsiyalardan foydalanish, belgilangan mavzuga doir maruzalarni muhokama qilish, mutaxassis yoki talabalar bilan sinxron telekonferentsiya (chat)da muloqotni amalga oshirish.

Fizikadan mustaqil ta’limni tashkil etish shakllari.

Yozma – belgilangan mavzu bo‘yicha referat tayyorlash.

Elektron - belgilangan mavzu bo‘yicha prezintatsiya (slayd) yoki maqola (yoki tezis) tayyorlash.

Loyiha - belgilangan mavzu bo‘yicha yoki dolzarb muammoli mavzuni yoritish, yechimini topish bo‘yicha talabaning fikr va mulohazalari, tahlil va xulosalari hamda hisobati.

Ijodiy ish - belgilangan mavzu bo‘yicha yoki dolzarb muammoli mavzuni tahlil qilishi, muammoni ochib berish va uning yechimini topish hamda amaiyotga tadbiqi.

Fizikadan mustaqil ta'lim topshiriqlarini ahamiyati:

1. Referat (yozish), prezintatsiya (slayd) tayyorlash - mustaqil ta’lim topshirig‘ining past darajasi. Talabaga ma'lum bo‘lgan yechim usulini fandagi boshqa bir oxshash vaziyatda qo‘llashni talab qiladi, talabaning barcha harakatlari mustaqil faoliyat usullari majmuasini jamlashga qaratiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3

2. Maqola (yoki tezis) tayyorlash - mustaqil ta’lim topshirig‘ining boshlang‘ich darajasi egallagan nazariy bilimlarni qo‘llay olish, hodisa, jarayon va qonuniyatlarni tahlil qilish, talabalarning fikrlash faoliyatini rivojlantirish, bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, fikrlash qobiliyatini shakllantiradi.

3. Ilmiy yoki texnik loyihalar tayyorlash - ta’lim topshirig‘ining rivojlangan darajasi. Talabalarda ijodkor, yaratuvchanlik qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Bu turdagi topshiriqlarni bajarish talabadan doimiy ravishda uzluksiz izlanishlarni talab qiladi, mavjud bilimlarini tizimlashtiradi va umumlashtiradi.

4. Ijodiy tadqiqot ishlari – fizika ta’limi topshirig‘ining yuqori darajasi. Bu turdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish uchun talaba nazariy bilim va amaliy yechim usullarini o‘zlashtirdan bo‘lishi, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishi, ishlab chiqarishda va boshqa tenika sohalarda qo‘llash, mustaqil ravishda yangi yechim yo‘llarini topish va bunda avvalgi bilimlarini mavjud vaziyatga moslashtirish qobiliyati talab etiladi.

Fizikadan talabalar mustaqil ta'lim jarayonini shakllantirishi zarur bo‘lgan kompetentsiyalar ketma-ketligini ishlab chiqish hamda mustaqil ta'limni shunga asosan tashkil qilish lozim.

Fizikadan mustaqil ish topshiriqlari ilmiy yoki texnik loyihalar tayyorlash yoki ijodiy tadqiqot ishlari ko‘rinishida berilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday topshiriqlar talabalarda ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishi, ishlab chiqarishda va boshqa texika sohalarda qo‘llash imkoniyatini beradi va mustaqil hayotga moslashishini tezlashtiradi.

Yuqorida sanab utilgan fikrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, fizikadan mustaqil ta'lim jarayonini amalga oshirishda tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yish, talabalarni mustaqil ishlashga o‘rgatish ijodiy va ijtimoiy faol, hayotda mustaqil ravishda o‘z o‘rnini topa olish malakasiga ega bo‘lgan, istiqbolli vazifalarni qo‘yish va hal qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga asos bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O’zbekiston respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy ta’limni rivojlantirsh tadqiqotlari markazi. Mustaqil ta’limni tashkil etish va bagholash mezonlari. Metodik qo’llanma. – Toshkent, “Yetakchi nashriyoti” 2024. 31 b.
2. Физика фани бўйича электрон манбалар. https://elib.edu.uz
3. Hasanov R., Karimov M. Fizika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019
4. Sheraliyev S.S. Fizikani o‘qitishda noan’anaviy yondashuvlar. O’quv-metodik qo’llanma. -Olmaliq sh. 2021 yil. -65 b.
5. Sheraliyev S.S., Irkabayev Dj.U. Fizikani o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlari. O’quv qo’llanma. - Olmaliq sh 2022 yil. -130 b.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3

6. Sheraliev S.S. Ta'limda noan'anaviy metodlarning yutuqlari. Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations. vol2-iss4/S-pp533-537. 2021. -B.534-537. https://inscience.uz/index.php/socinov/index
7. Sheraliev S.S., Irkabaev Dj.U., Yuldashev L.T. Significance and Application of Pedagogical Innovations in Physics Teaching. Eurasian Journal of Physics, Chemistry and Mathematics.Volume 5| April 2022. –P. 33-36.
8. http://www.geniusjournals.org/ https://geniusjournals.org/index.php/ejpcm/article/view/995/881

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Sheraliyev Sa'dullo Suyunboyevich**, dotsent, [**Шералиев Садулло Суюнбаевич,** доцент**,** [**Sa'dullo S. Sheraliyev,** associate professor; manzil: Toshkent viloyati, Olmaliq shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 45-uy, [адрес: Ташкентская область, г. Алмалык, ул. Мирзо Улугбека, д. 45], [address: Tashkent region, Almalyk, Mirzo Ulugbek str., 45]

✉**Abdullayev Bortirxon Ismoilovich**, assistent, [**Абдуллаев Бортирхан Исмаилович,** ассистент]**,** [**Bortirxon I. Abdullayev**, assistant]; manzil: Toshkent viloyati, Olmaliq shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 45-uy, [адрес: Ташкентская область, г. Алмалык, ул. Мирзо Улугбека, д. 45], [address: Tashkent region, Almalyk, Mirzo Ulugbek str., 45].

✉**Qo'chqorov Shohjahon Xazrat o'g'li**, assistent [**Кочкоров Шохжахон Хазрат огли,** ассистент], [**Qo'chqorov H. Shohjahon,** assistant]; manzil: Toshkent viloyati, Olmaliq shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 45-uy, [адрес: Ташкентская область, г. Алмалык, ул. Мирзо Улугбека, д. 45], [address: Tashkent region, Almalyk, Mirzo Ulugbek str., 45]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

ONA TILI DARSLARIDA 6-7 SINF O‘QUVCHILARNI MANTIQIY VA KREATIV FIKRLASHGA OID NUTQIY KOMPETENTSIYALARINI LINGVOMETODIK RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI

© Sh.A. Gafurova[1]✉
[1]Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada ona tili darslarida 6–7-sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini mantiqiy va kreativ fikrlash asosida lingvometodik rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Xususan, ta’lim jarayonida mustaqil topshiriqlar, matn ustida ishlash, kommunikativ va ijodiy yondashuvlar orqali nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyatlari yoritilgan.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi – umumta’lim maktablarida ona tili darslari orqali o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, ularning mantiqiy va kreativ fikrlashiga asoslangan lingvometodik yondashuvni ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: maqolada mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, qonunchilik hujjatlari, amaliy tajribalar, shuningdek, 6–7-sinflar darsliklarining tahlili asos bo‘lgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar, mustaqil topshiriqlar, matn asosida ishlash va kommunikativ yondashuv samaradorligini ko‘rsatdi. Lingvodidaktik metodikalar yordamida o‘quvchilarning tilga oid bilim va ko‘nikmalari sezilarli darajada oshgani aniqlandi.

XULOSA: o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini lingvometodik rivojlantirishga oid metodik modelni ishlab chiqish va uni dars jarayonida qo‘llash orqali ta’lim samaradorligini oshirish mumkinligi isbotlandi.

Kalit so‘zlar: nutqiy kompetensiya, lingvometodik rivojlantirish, mantiqiy fikrlash, kreativ yondashuv, ona tili, mustaqil topshiriqlar, og‘zaki va yozma nutq.

Iqtibos uchun: Gafurova Sh.A. Ona tili darslarida 6-7 sinf o‘quvchilarni mantiqiy va kreativ fikrlashga oid nutqiy kompetentsiyalarini lingvometodik rivojlantirish mexanizmi.// Inter education & global study. 2025. №3. B.427–434.

МЕХАНИЗМ ЛИНГВОМЕТОДИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕЧЕВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ 6-7 КЛАССОВ ПО ЛОГИКО-ТВОРЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

© Ш.А. Гафурова[1]✉
[1]Ташкентский университет прикладных наук, Ташкент, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются современные подходы к лингвометодическому развитию речевых компетенций учащихся 6–7-х классов на уроках родного языка, основанные на логическом и креативном мышлении. Особое внимание уделяется формированию речевых навыков через работу с текстом, коммуникативные задания и самостоятельные упражнения.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — разработка лингвометодического подхода, направленного на развитие устной и письменной речи учащихся, их логического и творческого мышления на уроках родного языка.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы нормативные документы, научные труды отечественных и зарубежных авторов, а также проведён анализ содержания учебников 6–7-х классов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали высокую эффективность применения инновационных методик, самостоятельных заданий и работы с текстом в формировании речевых компетенций. Знания и навыки учащихся по родному языку значительно улучшились.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: разработка модели лингвометодического развития речевых компетенций и её внедрение в образовательный процесс позволяет повысить эффективность преподавания и практическую значимость родного языка.

Ключевые слова: речевая компетенция, лингвометодическое развитие, логическое мышление, творческий подход, родной язык, самостоятельные задания, устная и письменная речь.

Для цитирования: Гафурова Ш.А. Механизм лингвометодического развития речевых компетенций учащихся 6-7 классов по логико-творческому мышлению на уроках родного языка.// Inter education & global study.2025. №3. С. 427–434.

THE MECHANISM OF LINGUISTIC AND METHODOLOGICAL DEVELOPMENT OF SPEECH COMPETENCIES OF STUDENTS IN GRADES 6-7 IN LOGICAL AND CREATIVE THINKING IN NATIVE LANGUAGE LESSONS

© Shoxsanam A. Gafurova[1]✉
[1] Tashkent University of Applied Sciences, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes modern approaches to linguomethodological development of speech competencies in 6th–7th grade students during mother tongue classes, emphasizing logical and creative thinking. It focuses on the use of independent tasks, text-based learning, and communicative activities to build effective language skills.

AIM: the main objective of the study is to develop a linguomethodological approach that enhances students' oral and written language skills and supports logical and creative thinking in mother tongue education.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

MATERIALS AND METHODS: the study is based on national legal frameworks, local and international research literature, and analysis of 6th–7th grade textbooks.

DISCUSSION AND RESULTS: the results demonstrate that using innovative methods, independent learning tasks, and text-centered exercises significantly improves students' language proficiency and communicative abilities.

CONCLUSION: creating and applying a linguomethodological model for speech competence development can significantly increase the effectiveness of mother tongue teaching and its alignment with real-life communication needs.

Keywords: speech competence, linguomethodological development, logical thinking, creative approach, mother tongue, independent tasks, oral and written language.

For citation: Shoxsanam A. Gafurova. (2025) ‘The mechanism of linguistic and methodological development of speech competencies of students in grades 6-7 in logical and creative thinking in native language lessons’, Inter education & global study, (3), pp. 427–434. (In Uzbek).

Bugungi kunda ta’lim oluvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish, bog‘lanishli nutqini o‘stirish, til sofligini saqlash, so‘zlash va yozishda badiiy tasvir vositalarini qo‘llash, nutqning ifodaliligini oshirish, turli xarakterdagi matnlarni yarata olish kompetentligini shakllantirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga, muloqot jarayonida aniqlik va mantiqiy izchillikka amal qilish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradigan ta’limning zamonaviy strategiyalarini qo‘llash, o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, mustaqil fikrlash, bilim va ko‘nikmalarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jahon ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari ta’lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. AQSH, Kanada, Angliya, Buyuk Britaniya, Kolumbiya, Rossiya, Xitoy ta’lim muassasalarida nutq madaniyatini tarkib toptirishning nazariy asoslari, nutqiy kompetensiyani shakllantirish, til o‘rganishga kommunikativ yondashuv, nutqiy kompetensiyalarni innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida rivojlantirish bo‘yicha yirik loyihalarni tatbiq etishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini tiklashga qaratilgan ezgu g‘oya atrofida jipslashadigan Yangi O‘zbekiston bunyodkorlarini kamolga etkazishdek strategik vazifalar ta’lim tizimini rivojlantirishga uzviy bog‘lanmoqda. Bu jihatdan asrlar davomida bir makonda, yagona jamiyatda yashayotgan qoraqalpoq xalqlarining til mushtarakligi, bu xalqlarning istiqomat qilayotgan makondi nazarda tutib qoraqalpoq tilini o‘qitishni barcha ta’lim bosqichlarida rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, umumta’lim o’quvchilarining nutqiy kompetensiyalariga, qo‘yilayotgan metodik, lingvodidaktik, lingvopedagogik talablari ham yangilanmoqda. Umumta’lim maktablarning ona tili darslarida mantiqiy va kreatif fikrlaydigan, mustaqil va ijodiy fikrlaydigan, o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda ravon ifodalay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan barkamol shaxsni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

kamol toptirish, qoraqalpoq tili ta'limi mazmunining bosh maqsadi sifatida belgilangani, 6-7-sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini didaktik rivojlantirish metodikasini rivojlantirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Mantiqiy fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" ustuvor vazifa etib belgilandi. Natijada, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida qoraqalpoq o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi.

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2018 yil 25 yanvardagi PF-5313-son "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 22 oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari hamda hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–yil 29–arreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030–yilgasha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF–5712–son va 2020–yil 27–fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish shora – tadbirlari to'g'risida"gi RQ – 4623–son Qarorlari, 2020–yil 6–iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida bosqichma – bosqich amaliyotga joriy etish shora – tadbirlari to'g'risida" 422 – sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–yil 28 – yanvardagi "2022–2026–yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF 60–sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 – yil 11 – maydagi "2022–2026–yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF–134–son Farmoni va qarorlari, shuningdek mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola tadqiqoti uchun muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda keyingi yillarda bir qator ona tili ta'lim mazmunini takomillashtirishga oid ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. O'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini lingvodidaktik rivojlantirish metodikasiga oid masalalarni N.Alavutdinova, M.Mirmaxsudova, U.Masharipova, K.Mavlonova, N.Sattorova, Sh.Sariyev, Sh.Yusupova, T.Yusupova, N.Qosimova, M.Hamdamova, G'.Hamrayevlar; o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, nutqiy malakalarini rivojlantirish muammolari ona tili va o'zbek tillari misolida N.Dadajonova, R.Yo'ldoshev, M.Karaxodjaeva, G.Muhamedjanova, A.Nisanbaeva, M.Rixsieva, Z.Salisheva, N.Umarova, Sh.Yuldashevalar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, G.H.Hamrayev, M.E.Axmedova hamda Sh. J.Yusupov kabi tilshunos metodik olimlar o'z tadqiqotlarida tili ta'limi jarayonida oquvchilarning nutqi ustida ishlash, o'quv topshiriqlar tuzish metodikasi asosida o'qitishni targ'ib qilgan. A.G'ulomov, M.Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavuddinova, V.Karimjonova., M.E.Axmedova kabi tilshunos olimlar esa ona tili o'qish asosida o'quv topshiriqlarini ishlash, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

rivojlantirish metodikasi ustida izlanishlar olib borgan. T.Yusupova gapning bosh bo‘laklarini o‘qish metodikasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ona tili ta’lim mazmunida metodik va nazariy ta’limi bo‘yicha tadqiqotchi olimlar H.Ne’matov, A.G‘ulomov, M.Qodirov A.Nurmonov, A.Sobirov, B.Mengliyev, B.To‘xliev, Yusupova Sh, Ziyodova T, Oxunjonova O, D.Jumashev kabi tilshunos olimlarning ishlari shular jumlasidandir. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotlarning yozma va og‘zaki nutqini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. A.Hamrayev ona tili ta’lim mazmunida ta’lim oluvchining ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosini tadqiq qilish asosida, ijodiy faoliyatni loyihalashtirishda ona tili ta’limida uzviylik, uzluksizlik, onglilik, o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorlikni ta’minlash tamoyillari asosida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini tizimli tarzda rivojlantirish ilmiy-metodik jihatdan asoslangan. Bu borada metodist olimlar 6-sinflarning yangi tahrirdagi darsliklari ishini alohida ta’kidlash lozim. Olimlar tomonidan ona tili o‘qitishga oid yangi metodikalarni tatbiq etishi, ona tili ta’lim mazmunining bugungi innovatsion yondashuvlarga mos ravishda eng murakkab bo‘lib turgan matn ustida ishlash, uni o‘qiy olish, tushuna olish va eng muhimi, matn yarata olish ko‘nikmalarini integratsiya qilgan holda lingvodidaktik rivojlantirish texnologiyasi asosida ishlab chiqilganligi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, tadqiqot mavzusiga doir izlanishlar 7-sinf ona tili darsligida berilgan matnlardagi asosiy fikrlarni aniqlash, matnni o‘qish va qayta hikoya qilish, darslikni tahlilga tortilganda metodist-pedagoglar tomonidan ta’lim oluvchining o‘quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, uning faolligi va mustaqilligini tarbiyalash muammolari ham o‘rganilganligi aniqlandi. O‘quvchilar so‘z boyligini oshirish (predmet belgisini bildirgan so‘zlar misolida) uzviylik va uzluksizligini ta’minlash borasida pedagogik-metodik yondashuv, mustaqil ta’lim topshiriqlarni ham uzluksiz ta’lim tizimi uchun uzviylik tamoyili asosida takomillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini tavsifladi. N.Mahmudov muallifligida yaratilgan darsliklarda umumiy o‘rta ta’lim tizimida birinchi marta lingvodidaktik yondashuvlardan foydalanishni kuzatishimiz mumkin. “Ona tili” darsliklarida, asosan, mashqlardan foydalanib kelingan. O‘quv materiallarini ona tili va adabiy ta’lim jarayonida o‘rganishning didaktik-metodik yondashuviga xos tarzda tilning ta’lim mazmunida o‘qitish metodikasiga munosib darajada hissa qo‘shgan metodist-olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar muayyan darajada e’tibor qaratilgani kuzatiladi. Tahlil va natijalar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini lingvometodik rivojlantirish metodikasiga oid nutqiy kompetensiyalarni lingvodidaktik rivojlantirish mavzusiga doir tadqiqotlar MDH olimlari L.V.Abakumova, A.F.Boysova, V.K.Buryak, A.N.Vasileva, L.S.Vigotskiy, V.V.Gerbova, A.S.Egorova, I.A.Zimnyaya, T.A.Ladijenskaya, B.Oskarson, G.N.Pristupa, T.G.Ramzayeva, S.P.Redozubov, N.F.Titova, A.V.Xutorskiy, T.I.Shamova, S.Shoyanalar tomonidan olib borilgan. Respublikamizda keyingi yillarda qoraqalpoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi bo‘yicha N.Bekniyazova, G.Jumasheva, A.Najimova, A.Naurizbayeva, D.Seytkasimov, A.Yembergenova, Q.Yusupov, G.R. Bekimbetova, Yuldashyeva Sh.Sh.lar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Mavzuga oid ilmiy tadqiqot ishlar G.Ahrorova, M.Ernazarova, H.Mirzohidova, G.Muhamadjonova, R.X.Niyozmetova,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

M.Rixsieva, F.Umarova, Q.Holiqberdiyev, N.Z.Umarova, Sh.Yuldosheva, R.A.Yuldashevalarning tilshunoslik sohasiga kompetensiyaviy yondashuvlarni joriy qilish, ta'lim oluvchining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish, uning faolligini va lingvodidaktik yondashjish kompetensiyasini tarbiyalash muammolari bo'yichalarning ishlarida o'rganilgan. MDH davlatlarida til metodikasi bo'yicha K.E.Bezukladnikov, A.P.Eremeeva, V.M.Klarin, V.Korovina, A.V.Koreneva, L.G.Larionova, V.A.Slastenin, G.V.Selixova, N.E.Sinichkina, E.E.Sirmanyuk, T.A.Sluxay, Z.F.Zeer, I.A.Zimnyayalar ilmiy-tadqiqotlar olib borgan. Xorij olimlaridan Dj.Raven, Gabriela Kelemen, Francisco, J.Lozano tomonidan pedagogikaga oid masalalar tadqiq qilingan. Rus pedagoglari S.L.Rubenshteyn, A.N.Leontev ta'lim jarayonida umumiy pedagogik-psixologik yondashuvlar asosida amaliyotga pedagogik tatbiq etishni taklif etadi. Xorij olimlari tomonidan ta'lim tizimida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini lingvodidaktik rivojlantirish masalalarining tadqiqi Gail Ferguson, D.Nunan, J.Goldshteyn, Odima Leo Ekapten, Katya Sylvalarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Jahon pedagogikasi lingvpdidaktikasida nutqiy kompetentsiyalarning metodik, psixologik-pedagogik tadqiqi bilan Avstraliyalik olim, professor Jak Richards maxsus shug'ullangan. Shuni ta'kidlash joizki, G'arb pedagogikasining lingvodidaktik jarayoni amaliylikka asosiy e'tiborni qaratadi. Dastlabki pragmatik g'oyalar Amerikalik faylasuf va pedagog D. Dyui tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Xorij olimlari tomonidan ta'lim tizimida o'qituvchilarining ona tili metodikasini nutqiy kompetensiyalarni lingvopedagogik rivojlantirish masalalarining tadqiqi Gail Ferguson, D.Nunan, J.Goldshteyn, Odima Leo Ekapten, Katya Sylvalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. utqiy kompetensiyalarni lingvometodik rivojlantirishga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish, umumta'lim maktablarning ona tili darslarida o'quvchilar nutqini o'stirishning pedagogik imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qilish asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini lingvometodik rivojlantirish kommunikativ, integrativ, kreativ nutqiy bilim va ko'nikmalarni hosil qilish, bayon etish uslublari imkoniyatlaridan ta'lim jarayonida og'zaki va yozma nutqining o'sish ko'rsatkichi aniqlashtirish hamda umumta'lim maktablarning 6-7-sinflari ona tili darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini lingvometodik rivojlantirishda uzluksizlikni ta'minlashning daraja ko'rsatkichlarini metodik hamda ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarga ta'sir qiluvchi pedagogik vositalarni rivojlantirish tizimli, faoliyatli va shaxsga yo'naltirilgan til o'rganishga kommunikativ yondashuvlar mazmuni samaradorligini ta'minlashga qaratilgan nutqiy-lingvodidaktik, ijodiy-kommunikativ xususiyatlarini tavsiflash asosida takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Umumta'lim maktablarning ona tili fanini ta'limini o'qitishda nutqiy kompetensiyalarni lingvometodik rivojlantirish o'quv ehtiyojini kuchaytirmoqda. Ta'kidlash joizki, ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning ona tili o'qitishning konseptual masalalariga bag'ishlangan salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq umumta'lim maktablarning ona tili 6-7 sinflarida nutqiy kompetensiyalarni lingvometodik rivojlantirishda ta'lim mazmunida ona tilini o'qitish metodikasi, jamiyat talablariga moslashayotgan ta'lim va zamonaviy yondashuvlarga ko'ra rivojlantirish yuzasidan ilmiy

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

tahlillar etarli emas. Shunga ko‘ra umumta’lim maktablarning ona tili 6-7 sinflarida nutqiy kompetensiyalarni lingvometodik rivojlantirishda lingvodidaktik vazifalarni samarali yo‘lga qo‘yishni ilmiy tahlil qilish, ta’lim mazmunini transdissiplinarlik asosida optimallashtirishga qaratilgan zamonaviy nutqiy ta’lim konsepsiyasini rivojlantirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Xulosa. O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini lingvometodik rivojlantirish modelini yaratish, og‘zaki va yozma nutqni korreksiyalashga qaratilgan nostandart, integrativ xarakterdagi mashq va topshiriqlar erkin muloqot qilishiga xizmat qiluvchi matnlarni mustaqil tinglab tushunish o‘quv motivlarini qaror toptirish va didaktik tamoyillar, mashq va topshiriqlar, innovatsion metodlar asosida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarni lingvometodik rivojlantirish hamda 6-7 sinflarda o‘quvchilarning o‘qish, so‘zlash va yozish ko‘nikmalar og‘zaki va yozma nutqning kommunikativ xususiyatlar hamda mashq va topshiriqlarni, muammolarni, vaziyatlarni samarali echimlarining sifatlarini mutanosib tarzda rivojlantirilish asosida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini lingvodidaktik rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir tajriba-sinov ishlari samaradorligini baholash, tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. // Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T: 1997. 20-29 b.
2. Axmedova M.E. //“Modul-kredit tizimida mustaqil topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari”// Monografiya //“Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi” MCHJ Toshkent-2022, 136 bet.
3. Axmedova M.E. //“Mustaqil topshiriqlar bilan ishlash va ularni baholash metodikasi” Metodik qo`llanma //“Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi” Toshkent-2022, 100 bet.
4. Axmedova M.E. //“PEDAGOGIKA” dasrlik.”Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi” MCHJ Toshkent-2022, 212 bet.
5. Axmedova M.E. Talabalarda mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirishning metodik xususiyatlari // O‘zbekiston til va madaniyat. Metodika jurnali.T. – Toshkent, 2022. -№1(4). -B. 70-81.
6. Axmedova M.E. Kredit tizimida mustaqil topshiriqlar // TIL VA ADABIYOT TA’LIMI jurnali. -Toshkent, 2022. №6. - B 18-20. (13.00.00; №8).
7. Akhmedova M.E. Foreign experience in the transition to a credit-module system // Principles of development of linguistic-speech competence of students in independent education // Current Research Journal of Philological Sciences (2767-3758). №3 (01). - R. 46–57 (13.00.00; №23). Journal Impact Factor 6,925
8. Akhmedova M.E. Research and application of textbooks in tutorials and manuals of higher education // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. - Xindiston, 2022. – P. 165- 172. Vol. 12, Issue 01. (13.00.00; №20). (13.00.00; №23). Journal Impact Factor 8,037

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

9. Akhmedova M.E Improvement of didactic, pragmatic methods of independent study tasks in philological education in the credit-module system // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. - Xindiston, 2022. – P. 86-90 Vol. 12, Issue 02. (13.00.00; №23). Journal Impact Factor 8,625

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Gafurova Shoxsanam Abdunazarovna**, katta o'qituvchi [**Гафурова Шохсанам Абдуназаровна**,старший преподаватель], [**Shoxsanam A. Gafurova**, senior lecturer]; manzil: Toshkent shahar, Chilonzor, Gavxar ko'chasi, 1-uy, [адрес: Г. Ташкент, Чиланзар, ул. гавхара, д. 1], [address: Tashkent, Chilanzar, gavkhara str., 1]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA OILA VA ER-XOTINLIK MUNOSABATLARINING IFODALANISHI

© Z.P. Komilova[1]✉

[1]Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada Sharq mutafakkirlarining asarlarida oilaviy qadriyatlar, xususan er-xotinlik munosabatlari, ularning mas'uliyat va majburiyatlari haqida ilgari surilgan g‘oyalar tahlil qilinadi. Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy asarlarida oilaning jamiyatdagi o‘rni va barkamollik asosidagi munosabatlar ifodalangan.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi — buyuk sharq allomalari fikrlari asosida oilaviy munosabatlarni mustahkamlovchi axloqiy-me’yoriy g‘oyalarni o‘rganish va ularni zamonaviy oila tarbiyasida qo‘llashning ahamiyatini ochib berish.

MATERIALLAR VA METODLAR: maqola tarixiy-falsafiy manbalar, qadimiy asarlar, psixologik va pedagogik qarashlarning tahliliga tayangan holda yaratilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: natijalar shuni ko‘rsatdiki, sharq mutafakkirlari oilani jamiyat barqarorligining asosi sifatida baholagan, er va xotinning bir-biriga nisbatan hurmati, sabr-toqati, muomalasi haqida chuqur fikrlar bildirgan. Ayniqsa, Ibn Sino va Alisher Navoiy oilaning axloqiy va ruhiy sog‘lomligiga alohida e’tibor bergan.

XULOSA: oila qadriyatlariga asoslangan g‘oyalar bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega. Sharq mutafakkirlari asarlarida ilgari surilgan fikrlar zamonaviy oilaviy tarbiyada boy ma’naviy manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: oila, nikoh, er-xotin, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy.

Iqtibos uchun: Komilova Z.P. Sharq mutafakkirlari asarlarida oila va er-xotinlik munosabatlarining ifodalanishi.// Inter education & global study. 2025. №3. B. 435-441.

ВЫРАЖЕНИЕ СЕМЕЙНО-СУПРУЖЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В ТРУДАХ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

© З.П. Комилова[1]✉

[1]Университет экономики и педагогики, Карши, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются идеи восточных мыслителей о семейных ценностях, в частности, об отношениях между супругами, их

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

обязанностях и ответственности. Анализируются труды Фараби, Беруни, Ибн Сино, Юсуфа Хос Ходжиба и Алишера Навои.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — изучить морально-нравственные идеи о семье в трудах восточных мудрецов и определить их значение в современной воспитательной практике.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: работа основана на анализе философских, исторических и педагогических источников, а также на изучении трудов классиков восточной мысли.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: анализ показал, что восточные мыслители рассматривали семью как основу стабильности общества, подчеркивая важность уважения, любви и согласия между супругами. Особое внимание уделяется нравственной чистоте, ответственности и воспитанию детей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: идеи великих мыслителей Востока о семье сохраняют актуальность и сегодня, служат важным духовным источником для формирования гармоничных семейных отношений.

Ключевые слова: семья, брак, супруги, Фараби, Беруни, Ибн Сино, Юсуф Хос Ходжиб, Алишер Навои.

Для цитирования: Комилова З.П. Выражение семейно-супружеских отношений в трудах восточных мыслителей.// Inter education & global study.2025. №3. С. 435-441.

THE EXPRESSION OF MARITAL RELATIONS IN THE WRITINGS OF EASTERN THINKERS

© Zulfiyaxon P. Komilova[1]✉
[1] University of Economics and Pedagogy, Karshi, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article explores the reflections of Eastern thinkers on family values, especially the relationships between husband and wife, their mutual responsibilities and obligations. The views of Farabi, Beruni, Ibn Sina, Yusuf Khos Khojib, and Alisher Navoi are analyzed.

AIM: the main objective of the study is to investigate the ethical and moral principles related to family life in the works of great Eastern scholars and emphasize their relevance to modern family upbringing.

MATERIALS AND METHODS: the article is based on the analysis of philosophical, historical, psychological, and pedagogical literature as well as classical texts by prominent thinkers.

DISCUSSION AND RESULTS: the results show that Eastern scholars regarded family as the foundation of social stability, emphasizing mutual respect, harmony, and

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

spiritual purity in marital relations. They also stressed the importance of child upbringing and the moral duties of both spouses.

CONCLUSION: the ideas presented in the classical works of Eastern thinkers remain relevant today and serve as a rich source of guidance for building strong and ethical family relationships.

Keywords: family, marriage, spouses, Farabi, Beruni, Ibn Sina, Yusuf Khos Khojib, Alisher Navoi.

For citation: Zulfiyaxon P. Komilova. (2025) 'The expression of marital relations in the writings of eastern thinkers', Inter education & global study, (3), pp. 435-441.. (In Uzbek).

Oila -muqaddas oshiyon. U jamiyatning boshlang'ich hujayrasi hisoblanadi. Oila mustahkam, tinch-totuv, halol-pok bo'lsa, jamiyat ham osoyishta, farovon bo'ladi. Oila halollik, poklik ramzi, inson sulolasini davomiyligini ta'minlaydigan ilohiy juftlikdir. Insoniy munosabatlar ichida eng muqaddasi oilaviy, er-xotinlik munosabatidir. Oilada er va xotinning tinch-totuvligi va o'zaro mehr-muhabbati, ularning saviyasi, qiziqishi, e'tiqodi, jamiyatda o'z o'rnini va mavqeyiga ega bo'lishi, er-xotinlik munosabatlarida, ularning bir-birlarini tushunishlarida namoyon bo'ladi.

Sharq mutafakkir olimlarining asarlari ko'pab olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, ularning oila haqidagi qarashlari psixolog olimlar G'.B. Shoumarov, L.O.Haydarov, N.A.Sog'inov, F.A.Akramova, V.Karimova, G.Solihova, G.Niyozmetovalar tomonidan tahlil etilgan. G'.Shoumarov va V.Karimovaning asarlarida sharq mutafakkirlarining oilada er va xotinning burchlari, mas'uliyat va majburiyatlari haqidagi qarashlarini o'rganganlar. Sharq mutafakkirlari, tarix davomida oila va er-xotinlik munosabatlari haqida ko'plab fikrlar va nazariyalar ishlab chiqqan. Ularning asarlarida bu munosabatlar nafaqat ijtimoiy, balki axloqiy va diniy jihatlari bilan ham qamrab olingan.

Sharq Arartusi - Farobiy o'zining falsafiy asarlarida oila va er-xotinlik munosabatlariga alohida e'tibor qaratgan. U oila tushunchasini ijtimoiy barqarorlik va shaxsiy rivojlanish nuqtai nazaridan ko'rib chiqqan. Farobiy asarlarida oila jamiyatning asosiy tuzilmasi sifatida qaraladi. Farobiy er-xotin o'rtasidagi munosabatlarni muvozanat va hurmat asosida qurilishi kerak, deb hisoblaydi. U, er-xotinning o'zaro mas'uliyatlarini va huquqlarini ta'kidlash orqali, ular o'rtasida haqiqiy hamkorlikni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Farobiy oila ichida axloqiy qadriyatlar va odob-axloq me'yorlarini saqlash zarurligini ko'rsatadi. Bu, oila ichidagi munosabatlar va ularning jamiyatga ta'sirini muhim qiladi.

Farobiy oila haqidagi fikrlari orqali, ijtimoiy barqarorlik, shaxsiy rivojlanish va axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi muhim bog'liqlikni ifodalaydi. U oila munosabatlarini yanada kuchaytirish va takomillashtirishga chaqiradi. Shuningdek, Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida ham rahbar siymosida oilada er, otaning mas'uliyati, burchi haqida to'xtalib o'tgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

O‘rta asrlarning buyuk arbobi, olim-ensiklopedist Abu Rayhon Beruniy asarlarida insonning odobi, axloqi va ta’lim - tarbiyasi xususidagi noyob fikrlar berilgan. Mutaffakkir olimning “Minerologiya”, “Geodeziya”, “Hindiston”, “O‘tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar”, “E’tiqodlar va dinlar haqida” nomli asarlarida inson shaxsi, uning rivojlanishi, aql-idroki, huzur-halovati, sabr-qanoati va kamtarlik, go‘zallik, poklik kabi tushunchalarga ta’rif bergan. Abu Rayhon Beruniy ayollarga nasihat qilib, Abdulla ibn Ja’far tilidan shunday deb yozadi. “Rashkdan saqlangin. U taloqning kalitidir. Eringga tez-tez tanbeh qilishni senga ta’qiqlayman. Chunki, tanbeh nafrat uyg‘otadi. O‘zingni bezab yurgin. Buning uchun yaxshi vosita surmadir. Yana xushbo‘y atirlardan foydalangin. Ularnig ichida eng yaxshisi suvdir”[1]. Beruniy tan va ruh pokligi masalasini ham o‘rtaga tashlaydi. Oilada tozalik, pokizalik va tartib mavjud emas ekan, u yerda ma’naviy poklik ham bo‘lmasligini ham alohida ta’kidlaydi. Shuningdek, Beruniy shaxsiy gigiyenaga amal qilish zaruriyati yuzasidan ham ma’lumotlar qoldirgan. Bu fikrlar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani emas, sababi oila a’zolarining, er-xotinning ushbu qoidalarga amal qilishi oila totuvligining zaminlaridan biridir.

Ibn Sino, o‘zining falsafiy va tibbiy asarlarida oila va er-xotinlik munosabatlari haqida muhim fikrlar bildirgan. U oila va shaxsiy munosabatlarni quyidagi jihatlardan ko‘rib chiqqan. Ibn Sino, oila jamiyatning asosiy tuzilmasi sifatida muhim rol o‘ynaydi, deb hisoblaydi. U oilaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishga ta'sirini ta'kidlaydi, bu esa jamiyatning barqarorligiga ham yordam beradi. U er-xotin o‘rtasidagi munosabatlarni o‘zaro hurmat va hamkorlik asosida qurilishi zarur deb biladi. Ibn Sino, er-xotin o‘rtasida tushunish va mas'uliyat hissini rivojlantirishni muhim deb hisoblaydi. Oila, avlodlarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Ibn Sino, ota-onalarning bolalarga bilim va axloqiy qadriyatlarni yetkazishidagi roli haqida yozadi, bu esa ularning shaxsiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Ibn Sino, sog‘liqni saqlash va oilaviy hayot o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta'kidlaydi. U oilaning barqarorligi va ahil ishlashining shaxsiy sog‘liq uchun ahamiyatini tushunadi. Ibn Sino oila ichida ijtimoiy mas'uliyatlarni belgilaydi va oilaviy munosabatlar orqali jamiyatda barqarorlikni saqlash zarurligini ko‘rsatadi.

Ibn Sinoning oila haqidagi qarashlari, o‘z zamonida oilaning ijtimoiy va axloqiy ahamiyatini chuqur anglaganligini ko‘rsatadi. U oilani shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim manbai sifatida ko‘radi. Oila va oilaviy munosabatlar masalasi uning “Tadbiri manzil” asarida o‘ziga xos tarzda bayon etilgan. Mutafakkir oilaviy munosabatlarning turli tomonlarini yoritgan va oila boshlig‘i oldiga qator talablarni qo‘yadi. Oila boshlig‘i- nazariy va amaliy jihatdan oilada tarbiya masalalarini mukammal o‘zlashtirmog‘i zarur. Agar oila boshlig‘i tajribasiz bo‘lsa, u o‘z a’zolarini yaxshi tarbiyalay olmasligi, oqibatda yaxshi natijalarga erisha olmaydi, yomon tarbiya faqat shu oilaga emas, balki qo‘shnilarga, mahallaga, qarindoshlarga ham yomon ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ibn Sino oila mustahkamligini ta'minlashda oila boshlig‘i hisoblangan erkak zoti va ayol kishining burch va vazifalarini tasniflar ekan, ular amal qilishi lozim bo‘lgan quyidagi sifatlarni keltiradi:

Ayollarning eng yaxshi sifatlari

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Ayollarning eng yaxshisi quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi kerak:

1. Aqlli bo‘lsin;
2. Dindor bo‘lsin;
3. Sharm-hayoli bo‘lsin;
4. Ziyrak va dono bo‘lsin;
5. Eriga mehr-muhabbatli bo‘lsin;
6. Ko‘p farzand ko‘ruvchi bo‘lsin;
7. Tili uzun bo‘lmasin;
8. Itoatkor bo‘lsin;
9. Pokdil bo‘lsin, makkor bo‘lmasin;
10. Erini uning huzurida va yo‘qligida g‘iybat qilmasin;
11. Og‘ir-bosiq bo‘lsin;
12. Viqorli bo‘lsin;
13. Eriga xizmat qilishi bilan kibrlanmasin, balki tavozeli bo‘lsin;
14. Xatti-harakatlari va amallarini yaxshilik va ezgulikka asoslanib bajarsin;
15. Erining ozgina daromadini tejamkorlik asosida ziyoda qilsin;
16. Erining ko‘nglidan g‘am-anduh g‘uborini go‘zal axloqi va shirin tili bilan ketkazsin, erining qayg‘usiga chiroyli lutf va muloyimlik bilan tasalli bersin.

Erkakning ayol borasidagi siyosati esa quyidagilarga asoslanishi kerak:

1. Kuchli haybat, ya'ni ayolning o‘z eriga qarshi chiqish odatidan butunlay hayiqishi;
2. Mukammal hurmat, ya'ni erning o‘z ayoliga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo‘lishi;
3. Ayolning aqlini muhim ishlar bilan mashg‘ul qilish [2].

Shuningdek, mutafakkirning “Donishnoma”, “Risolayi ishq”, “Tib qonunlari”, “Uy xo‘jaligi” kabi qator asarlari ota-bobolarimizning axloq-odobi, ularning psixologiyasi va tabobat olamida muhim tadqiqotlar hisoblanadi. Axloqiy tarbiya masalasida olim oilaning o‘rnini alohida ta’kidlab o‘tgan.

Oila boshqaruvida mana shunday tadbirlar amalga oshirilganda, oila mustahkamligi ta’minlanadi. Bunday oilada yetuk va sog‘lom farzandlar dunyoga keladi. Farzandning oila mustahkamligidagi beqiyos ahamiyatini to‘g‘ri anglagan holda, Ibn Sino ota-onaning farzand ta’limida, tarbiyasida e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan jihatlarga to‘xtaladi. Alloma ota-onaning farzand oldidagi birinchi vazifasi sifatida unga chiroyli ism qo‘yish mas’uliyatini ta’kidlab ko‘rsatadi. Albatta farzandga ism tanlash masalasida nihoyatda e’tiborli bo‘lmoq lozim. Zero, chiroyli ism farzand ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, uning kelajakda yuksak axloqiy xislatlarni kasb etishiga sababchi bo‘ladi.

Ota-ona farzand tarbiyasida uning diniy va dunyoviy bilimlarni egallashiga alohida e’tibor qaratishi, oila qurish yoshiga yetgach, uni uylantirib qo‘yishi ham oilaning go‘zal ko‘rinishda davom etishiga sabab bo‘ladi.

Er-xotin munosabatlarida sevgi-muhabbat haqidagi fikrlari ham tahsinga sazovordir. Oiladagi o‘zaro muhabbat oilani mustahkam ushlab turuvchi tirgak vazifasini bajarishi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

haqida aytib o‘tgan. Olim insoniy sevgi kishini saxovatli, oqko‘ngil, jozibali insonga aylantiradi hamda axloqiy va huquqiy mas’uliyat yuklashi haqida fikrlar bildirgan. Ibn Sinoning er-xotin munosabatlari xususidagi fikrlari ham o‘sha davr uchun ham, bugungi kun uchun ham o‘ta ilg‘or va ahamiyatli bo‘lgan.

XI asming buyuk mutafakkiri va shoiri Yusuf Xos Hojib o‘zining «Qutadg‘u bilig” — kitobida asarida o‘zining axloq hamda hayotga oid qarashlarini bayon etadi. Inson faqat jamiyatdagina kamolotga yetishi mumkin, muloqot va ijtimoiy-foydali mehnat uning rivojianishi va yashashining mezonidir, deb hisoblaydi. Shoirning fikricha, farzand ko‘rish va unga tarbiya berish har bir inson uchun buyuk baxtdir, ularsiz hayotning ma’nosi yo‘q. Lekin bu narsa ota-onaga juda katta mas’uliyat yuklaydi- ki, uning uddasidan chiqmoq, har bir ota-ona uchun ham farz, ham qarzdir. Shuning uchun ham Yusuf Xos Hojib oilaviy tarbiyani bola axloqiy taraqqiyotining asosi, deb hisoblagan: “Agar bolaning xulqi yomon bo‘lsa, bunda bolaning aybi yo‘q, hamma ayb — otasida”. Shuning uchun ham ota-ona, ayniqsa, Ota bunga katta e’tibor bermog‘i lozim. Ma’lumki, so‘fizm insoniy muhabbat, sevgini inkor etib, faqat Ollohga nisbatan sevgi va muhabbatninggina borligini e’tirof etgan, Bundan farqli o‘laroq, Yusuf Xos Hojib, odamlar o‘rtasidagi sevgi-muhabbatni tarannum etgan. U sevgini oilaviy baxi va ijtimoiy muvaffaqiyatlarning garovi, deb hisoblagan. “Yigit uylanmasdan avval kelinning kimligini, uning keiib chiqishi, xarakteri va xulq-atvorini bilishi kerak”[3]. — deydi u. Uning axloqiy didaktikasi O‘rta Osiyodagi ilg‘or fikrlarning taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan, shuning uchun ham uning qarashlari musulmon xalqlari o‘rtasida keng tarqalgan va ko‘pgina shov-shuvlarga sabab bo‘lgan.

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida farzand tarbiyasi, er va xotin munosabatlari haqida ham so‘z borgan. Chunki bu asarda Navoiy insonlarga qalbidagi eng kerakli o‘gitlarini bayon etib, ulami turmushdagi, oilaviy hayotdagi turli hodisalar va vaziyatlardan chiqishga imkon beruvchi yaxshi fazilatlar, ularni tarbiyalash masalalariga diqqatni qaraladi. Risolaning “Uylanish va xotinlar to‘g‘risida” bobida u uylanish va uning foydasi, oilaviy munosabatlar haqida durdona fikrlarni bayon etadi. Unda asosan insoniyat dunyosida mavjud bo‘lgan 3 xil sevgi- ning naqadar go‘zal, tabiiy va insoniyat taraqqiyoti uchun zarurligini zikr qiladi. Insoniy sevgi, chin inuhabbat, ikki xil-jinsning turmushda barkamollik kasb etishi kabi g‘oyalami tarannum etgan bu nodir asar bugungi davrimiz uchun ham g‘oyat g‘immatlidir. Navoiy ayol kishining oiladagi o‘rniga quyidagicha to‘xtaladi: “Yaxshi xotin - oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan, husnli bo‘lsa-ko‘ngil yozig‘i, xushmuomala bo‘lsa-jon ozig‘idir. Oqila bo‘lsa, ro‘zg‘orda tartib-intizom bo‘ladi, asbob-anjomlar saranjom turadi. Kishi bu kabi jufti halol bilan qovushsa, agar bunday baxtga erishsa, g‘am va kulfatda sirdoshga, oshkor va pinhoniy dard-alamda hamnafas tan mahramiga ega bo‘ladi. Turmushda boshingga har qanday jafo tushsa, hamdarding u. Teskari aylanuvchi falakdan har balo kelsa, ko‘makdoshing u. Ko‘nglingga g‘am yuzlansa, u hamroh, badaningga xastalik va zaiflik kelsa, uning ham joni halak, ammo xudo ko‘rsatmasin, nomuvofiq xotin uchrasa, o‘z uyingda halokatli illat paydo bo‘ladi. U beandisha, shallaqi bo‘lsa, ko‘ngil undan ozor chekadi va yomonlik axtaruvchi bo‘lsa,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

undan ruh azob chekadi. Til achchiq bo‘lsa, barchaning dilini yaralaydi, pokiza bo‘lmasa, eriga yuzi qoralik keltiradi, agar mayxo‘r bo‘lsa, uy odobi yo‘qoladi, axloqsiz bo‘lsa, oila rasvo bo‘ladi”[4]. Buyuk allomaning oilaviy baxt, sevgi va er-xotin munosabatlari, ularga zarur bo‘lgan fazilatlar borasidagi bunday fikr- larini bilish, ularga rioya qilish har bir yoshning muqaddas burchi bo‘lmog‘i shart. Sharqda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qadimdan jiddiy ahamiyat berilgan. Ular “Nasihatnoma”, “Pandnoma”, “Hikmatnoma” tarzida bizgacha yetib kelgan. Bu manbalarda qizlarni hayotga tayyorlashda, ularda birinchi navbatda insoniy fazilatlar shakllangan bo‘lishi, oila muqaddas, uni avaylab-asrash aynan uy bekalariga bog‘liq ekanligi haqida turli tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan hodisalar hikoya qilinadi.

O‘zining ko‘hna qadriyatlari va an’analariga qaytadan ega bo‘layotgan yurtimizda oila ma’naviy tayanch maskaniga aylanib bormoqda. Hayot abadiyligi, avlodlar bardavomligi bevosita oila orqali amalga oshadi. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, oila muqaddas maskandir. Chunki juft bo‘lib yashamoq hayot sunnatidir. Oilaning mustahkamligi va barqarorligi axloqiy poklik va sog‘lik garovi bo‘lib, jamiyat mustahkamligi asosi ekanligini anglash zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. https://cyberleninka.ru/article/n/oilada-farzand-tarbiyasida-abu-rayxon-beruniy-asarlarining-o‘rni
2. https://www.bukhari.uz/ S.Saidov Tadbirul manzil risolasi oilaviy munosabatlar uchun dasturul amal
3. Yusuf Xos Hojib " Qutadg‘u bilig " Toshkent " O‘zbekiston" 2019
4. Alisher Navoiy, "Mahbub ul-qulub. Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2019-yil
5. Ro‘ziboyeva M.A. “Boshlang‘ich ta’limda tarbiya” o‘quv qo‘llanma. Andijon 2024-yil

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Komilova Zulfiyaxon Poziljonovna**, o‘qituvchi [**Комилова Зулфияхон Позилжоновна**, преподаватель], [**Zulfiyaxon P. Komilova,** teacher]; manzil: Qashqadaryo viloyati, qarshi shahri, I. Karimov MFU ravoq ko'chasi 13, [адрес: Кашкадарьинская область, город Карши, Улица Равока Мфю И.Каримова 13], [address: Kashkadarya region, Karshi city, Ravoka Street, I.Karimov Moscow State University 13.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3

Original paper

BO‘LAJAK FILOLOGLARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

© M.N. No‘monxonova[1]✉

[1]Namangan Davlat Chet Tillari Instituti, Namangan, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga, ayniqsa, filologiya yo'nalishidagi o‘rni yoritilgan. Sun’iy intellekt, raqamli kutubxonalar, e-learning platformalari va korpus lingvistikasining bo‘lajak filologlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi — bo‘lajak filologlarning kasbiy malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari va muammolarini aniqlash, samarali strategiyalarni taklif qilishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: maqola yozishda ilmiy maqolalar, xorijiy va mahalliy adabiyotlar, amaliy kuzatuvlar, shuningdek, zamonaviy e-learning platformalari, korpus lingvistika metodlari, sun’iy intellekt asosidagi vositalar asosida tahliliy yondashuv qo‘llanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlil natijalariga ko‘ra, raqamli texnologiyalar filologiya sohasida til o‘rganish, adabiy matnlarni tahlil qilish, tarjima va ilmiy izlanishlarni yengillashtiradi. Ammo texnologik qaramlik, raqamli tafovut, AI vositalaridan haddan tashqari foydalanish kabi muammolar mavjud. Shu sababli, sun’iy intellektdan oqilona foydalanish, raqamli savodxonlikni oshirish, raqamli va an’anaviy metodlarni uyg‘unlashtirish zarurligi asoslab berilgan.

XULOSA: raqamli texnologiyalar filologlar uchun kasbiy rivojlanishning muhim vositasidir. Kelajakdagi muvaffaqiyatli filologlarni tayyorlashda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish, raqamli savodxonlikni rivojlantirish, etik me’yorlarni hisobga olish va an’anaviy metodlar bilan muvozanatli integratsiya qilish zarur.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, filologiya ta’limi, sun’iy intellekt, elektron ta’lim, korpus lingvistika, raqamli savodxonlik, kasbiy kompetensiya.

Iqtibos uchun: No‘monxonova M.N. Bo‘lajak filologlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati.// Inter education & global study. 2025. №3. B. 442-448.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ФИЛОЛОГОВ

© М.Н. Нумонхонова[1]✉

[1]Наманганский Государственный Институт Иностранных Языков, Наманган, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается влияние цифровых технологий на образовательный процесс, особенно в сфере филологии. Анализируется роль таких инструментов, как искусственный интеллект, цифровые библиотеки, платформы электронного обучения и корпусная лингвистика в формировании профессиональных компетенций будущих филологов.

ЦЕЛЬ: цель исследования — выявить возможности и вызовы цифровых технологий в развитии профессиональной компетентности студентов-филологов и предложить эффективные стратегии их применения в образовательной практике.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в основе исследования лежит анализ научной литературы, онлайн-платформ, корпусных лингвистических методов, наблюдений и цифровых инструментов, применяемых в сфере образования и лингвистики.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: цифровые технологии способствуют улучшению языкового обучения, литературного анализа и научных исследований. Однако сохраняются проблемы технологической зависимости, цифрового неравенства и этических вопросов, связанных с чрезмерным доверием к ИИ. Подчеркнута необходимость развития цифровой грамотности и интеграции традиционных и цифровых методов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: цифровые технологии играют ключевую роль в подготовке компетентных специалистов в области филологии. Эффективное сочетание инновационных и традиционных подходов, развитие цифровой грамотности и этической ответственности обеспечит всестороннюю подготовку будущих филологов.

Ключевые слова: цифровые технологии, филологическое образование, искусственный интеллект, электронное обучение, корпусная лингвистика, цифровая грамотность, профессиональная компетентность.

Для цитирования: Нумонхонова М.Н. Роль и значение цифровых технологий в развитии профессиональной компетентности будущих филологов.// Inter education & global study.2025. №3. С. 442-448.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE PHILOLOGISTS

© Muattarxon N. No‘monxonova[1]✉
[1] Namangan State Institute of Foreign Languages, Namangan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article explores the impact of digital technologies on the education process, particularly in philology. It examines the role of tools such as artificial intelligence, digital libraries, e-learning platforms, and corpus linguistics in enhancing the professional competence of future philologists.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3

AIM: the study aims to identify the benefits and challenges of digital tools in developing professional competence among philology students and to propose effective strategies for their integration into education.

MATERIALS AND METHODS: the article draws on scientific literature, online platforms, corpus linguistic methods, observations, and digital tools used in language learning and research.

DISCUSSION AND RESULTS: findings show that digital technologies enhance language acquisition, literary analysis, and research capabilities. Nonetheless, concerns such as overreliance on AI, the digital divide, and ethical implications persist. The article emphasizes the importance of digital literacy and the balanced integration of traditional and digital approaches.

CONCLUSION: digital technologies are essential for developing the professional competence of philologists. Combining traditional methods with digital innovation, while fostering ethical awareness and digital literacy, will better prepare students for the evolving demands of the modern world.

Keywords: digital technologies, philology education, artificial intelligence, e-learning, corpus linguistics, digital literacy, professional competence.

For citation: Muattarxon N. No‘monxonova. (2025) ‘The role and importance of digital technologies in the development of professional competence of future philologists’, Inter education & global study, (8), pp. 442-448. (In Uzbek).

Zamonaviy davrda raqamli texnologiyalar ta'limning ajralmas qismiga aylandi, turli fanlarga, jumladan, filologiyaga sezilarli ta'sir ko‘rsatdi. Sun'iy intellekt (AI), raqamli ta'lim platformalari va onlayn resurslarning jadal rivojlanishi bo‘lajak filologlarning kasbiy malakalarini egallash va rivojlantirish usullarini o‘zgartirdi. Raqamli texnologiyalar nafaqat til o‘rganishni yaxshilaydi, balki filologiya sohasidagi tadqiqotlar, muloqot va hamkorlikni ham osonlashtiradi. Ushbu maqolada taniqli olim va pedagoglarning fikr-mulohazalari asosida bo‘lajak filologlarning kasbiy malakasini oshirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati o‘rganiladi.[1]

Filologiyada kasbiy kompetensiya deganda lingvistik tahlil, adabiy talqin, tarjima va muloqotni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan har tomonlama bilim, ko‘nikma va malakalar tushuniladi. Shulman fikricha, kasbiy kompetensiya mazmuniy bilim, pedagogik mahorat va nazariy tamoyillarni real sharoitlarda qo‘llash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Filologiyada bu kompetensiya bir nechta tillarni bilish, tanqidiy fikrlash va tadqiqot va muloqot uchun raqamli vositalardan samarali foydalanishni qamrab oladi.[2] Raqamli texnologiyalar paydo bo‘lishi bilan filologlar an'anaviy lingvistik va adabiy ko‘nikmalarni zamonaviy raqamli savodxonlik bilan birlashtirishi kerak. Warschauer

[1] Bunyodjon N. KASBIY KOMPETENSIYA VA PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTLIGI //Uz-conferences. – 2024. – №. 1. – С. 330-337.
[2] Shulman L. S. Those who understand: Knowledge growth in teaching //Educational researcher. – 1986. – Т. 15. – №. 2. – С. 4-14.

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3

ta'kidlaganidek, raqamli kompetentlik hozirda til o‘rganish va o‘qitishning asosiy jihati bo‘lib, filologlardan turli texnologik vositalardan foydalanishda mohir bo‘lishni talab qiladi.[3]

Filologiya ta’limida raqamli texnologiyalarning o‘rni. Raqamli texnologiyalar filologiya talabalari uchun keng ko‘lamli imtiyozlarni taqdim etadi, jumladan, axborotga kirishni yaxshilash, interaktiv o‘rganish tajribasi va hamkorlikni kengaytirish. Raqamli texnologiyalar filologiya ta'limiga hissa qo‘shadigan ba'zi asosiy yo‘nalishlar quyidagilar:

1. Raqamli kutubxonalar va onlayn manbalar. Raqamli texnologiyalarning eng muhim afzalliklaridan biri bu keng ko‘lamli onlayn resurslarning mavjudligi. Project Gutenberg va Google Books kabi raqamli kutubxonalar mumtoz va zamonaviy adabiy asarlarga kirish imkonini beradi, bu esa chuqur tadqiqotlarni osonlashtiradi. Liu kabi olimlarning ta'kidlashicha, raqamli arxivlar filologlarga turli tarixiy davrlardagi matnlarni tahlil qilish imkonini beradi, til evolyutsiyasi va adabiy tendentsiyalarni tushunishlarini kuchaytiradi.[4] Bundan tashqari, JSTOR va ResearchGate kabi onlayn ma'lumotlar bazalari filologiya talabalariga ushbu sohadagi eng so‘nggi tadqiqotlar va nazariy asoslar bilan shug'ullanish imkonini beruvchi akademik maqolalarga kirishni taklif qiladi.[5]

2. E-Learning platformalari va onlayn kurslar. Coursera, edX va Khan Academy kabi elektron o‘quv platformalarining paydo bo‘lishi filologiya ta’limida inqilob qildi. Ushbu platformalar tilshunoslik, adabiyot va tarjimashunoslik bo‘yicha interfaol kurslarni taqdim etib, talabalarga o‘z tezligida o‘rganish imkonini beradi. Garrison va Kanuka ma'lumotlariga ko‘ra, an'anaviy va raqamli usullarni birlashtirgan aralash ta'lim talabalarning faolligini oshiradi va murakkab lingvistik tushunchalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Virtual sinflar va Massive Open Onlayn Kurslari (MOOCs) shuningdek, filologiya talabalariga xalqaro ekspertlar bilan muloqot qilish, ularning dunyoqarashi va turli til an’analari haqidagi tushunchalarini kengaytirish imkonini beradi.[6]

3. Sun'iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP). Grammarly, DeepL va Google Translate kabi sun’iy intellektga asoslangan vositalar filologiya talabalariga til o‘rganish va tarjima qilishda yordam beradi. Alga asoslangan NLP texnologiyalari grammatik naqshlarni aniqlash, stilistik yaxshilanishlarni taklif qilish va matn tarjimalarini avtomatlashtirish orqali lingvistik tahlilni yaxshilaydi. Jurafskiy va Martin ta’kidlaganidek, tilshunoslikdagi sun’iy intellekt ilovalari tilni qayta ishlash va hisoblash filologiyasini o‘zgartirib, matn tahlilini yanada samaraliroq qilmoqda.[7] Biroq, Bender va Koller kabi olimlarning ogohlantirishicha, sun'iy intellektga asoslangan tarjima vositalari hanuzgacha kontekstni tushunish va madaniy sezgirlikka ega emas, bu esa murakkab lingvistik vazifalarga inson aralashuvini talab qiladi.[8]

[3] Warschauer M. The death of cyberspace and the rebirth of CALL //English Teachers' Journal. – 2000. – T. 53. – №. 1. – C. 61-67.
[4] Liu L. et al. Comparison of next-generation sequencing systems //BioMed research international. – 2012. – T. 2012. – №. 1. – C. 251364.
[5] Sodiqovna S. U. PEDAGOGIK KASBIY KOMPETENTLIK VA UNGA XOS SIFATLAR //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2025. – T. 62. – №. 6. – C. 184-189.
[6] Garrison D. R., Kanuka H. Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education //The internet and higher education. – 2004. – T. 7. – №. 2. – C. 95-105.
[7] Martin, James H., and Daniel Jurafsky. "Vector Semantics and Embeddings." *Speech Lang. Process* (2019): 1-31.
[8] Bender E. M., Koller A. Climbing towards NLU: On meaning, form, and understanding in the age of data //Proceedings of the 58th annual meeting of the association for computational linguistics. – 2020. – C. 5185-5198.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3

4. Raqamli aloqa va hamkorlik vositalari. Hamkorlik filologiyaning, ayniqsa qiyosiy adabiyot va tarjimashunoslikning hal qiluvchi jihati hisoblanadi. Zoom, Microsoft Teams va Slack kabi raqamli vositalar butun dunyo bo‘ylab filologiya talabalari va olimlari o‘rtasidagi muloqotni osonlashtiradi. Onlayn forumlar va Academia.edu kabi akademik tarmoq saytlari adabiy tahlil, lingvistik nazariyalar va tarjima muammolari bo‘yicha munozaralar o‘tkazish imkonini beradi. Siemens ta'kidlaganidek, raqamli aloqa vositalari konnektivistik ta'limni qo‘llab-quvvatlaydi, bu erda bilimlar hamkorlikdagi tarmoqlar orqali tuziladi va bo‘lajak filologlarning professional malakasini oshiradi.[9]

5. Korpus lingvistikasi va raqamli matn tahlili. Katta raqamli matn to‘plamlari orqali tilni o‘rganishni o‘z ichiga olgan korpus lingvistikasi filologiyada muhim vositaga aylandi. Britaniya Milliy Korpusi (BNC) va Zamonaviy Amerika Ingliz Korpusi (COCA) kabi raqamli korpuslar tahlil uchun keng lingvistik ma'lumotlar to‘plamini taqdim etadi. McEnery va Hardiega ko‘ra, korpus asosidagi tadqiqotlar filologlarga tildan foydalanish naqshlari, lingvistik o‘zgarishlar va nutq tuzilmalarini tushunishga yordam beradi.[10] Matn qazib olish va raqamli gumanitar fanlar metodologiyalari, shuningdek, filologlarga adabiy matnlarni hisoblash usulida tahlil qilish, yashirin naqshlar va an'anaviy usullar e'tibordan chetda qolishi mumkin bo‘lgan matnlararo aloqalarni ochish imkonini beradi. Matn qazib olish va raqamli gumanitar fanlar metodologiyalari, shuningdek, filologlarga adabiy matnlarni hisoblash usulida tahlil qilish, yashirin naqshlar va an'anaviy usullar e'tibordan chetda qolishi mumkin bo‘lgan matnlararo aloqalarni ochish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalarni joriy etishdagi muammolar va mulohazalar. Raqamli texnologiyalar ko‘plab afzalliklarni taqdim etsa-da, ularni filologiya ta'limiga integratsiyalashuvi bir qator muammolarni keltirib chiqaradi:

1. Texnologik qaramlik va raqamli bo‘linish. Raqamli resurslardan foydalanish barcha hududlar va muassasalarda bir xil emas. Raqamli tafovut muhim muammo bo‘lib qolmoqda, ayniqsa talabalar internetga kirish yoki raqamli qurilmalardan mahrum bo‘lishi mumkin bo‘lgan kam ta'minlangan hududlarda. Warschauer texnologik nomutanosibliklar ta'limda tengsizliklarni keltirib chiqarishi va ba'zi talabalar uchun imkoniyatlarni cheklashi mumkinligini ta'kidlaydi.

2. Onlayn manbalarning sifati va ishonchliligi nazorati. Onlayn resurslarning ko‘pligi ma'lumotlarning ishonchliligi va ishonchliligi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi. Barcha raqamli materiallar akademik jihatdan qat'iy emas, shuning uchun filologiya talabalari nufuzli manbalarni aniqlash uchun tanqidiy baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishni talab qiladi. Metzger va Flanagin onlayn kontentning haqiqiyligini baholashda raqamli savodxonlikning muhimligini ta'kidlaydi.[11]

3. AIga asoslangan tarjima va tahlildagi axloqiy tashvishlar. AIga asoslangan tarjima va lingvistik tahlil mualliflik, aniqlik va madaniy sezgirlikka oid axloqiy savollarni

[9] Siemens G. Connectivism: Learning as network-creation //ASTD Learning News. – 2005. – T. 10. – №. 1. – C. 1-28.
[10] McEnery T., Hardie A. Corpus linguistics: Method, theory and practice. – Cambridge University Press, 2011.
[11] Metzger M. J., Flanagin A. J. Credibility and trust of information in online environments: The use of cognitive heuristics //Journal of pragmatics. – 2013. – T. 59. – C. 210-220.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3

tug'diradi. Pym ta'kidlaganidek, avtomatlashtirilgan tarjima vositalari adabiy matnlarning nozik tomonlarini qamrab ololmasligi va noto‘g'ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun filologiya talabalari AI vositalaridan oqilona foydalanishlari va ularni inson tajribasi bilan to‘ldirishlari kerak.

4. An'anaviy va raqamli yondashuvlarni muvozanatlash. Raqamli texnologiyalar o‘rganishni kuchaytirsa-da, filologiyada an'anaviy usullar hayotiy ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda. Yaqindan o‘qish, matnni tanqid qilish va qo‘lda lingvistik tahlil qilish muhim ko‘nikmalar bo‘lib qolmoqda. Hayles kabi olimlarning ta'kidlashicha, raqamli va an'anaviy metodologiyalarni birlashtirgan muvozanatli yondashuv yaxlit filologiya ta'limini ta'minlaydi.[12]

Kelajakdagi yo‘nalishlar va tavsiyalar

Filologiya ta’limida raqamli texnologiyalarning afzalliklarini maksimal darajada oshirish uchun quyidagi strategiyalarni amalga oshirish kerak:

- ✓ Raqamli savodxonlik bo‘yicha trening: Universitetlar talabalarga onlayn resurslardan samarali foydalanishga yordam berish uchun filologiya o‘quv dasturlariga raqamli savodxonlik dasturlarini kiritishlari kerak.
- ✓ Gibrid ta'lim modellari: an'anaviy o‘qitish usullarini raqamli vositalar bilan birlashtirish yanada dinamik va inklyuziv o‘quv muhitini yaratishi mumkin.
- ✓ Axloqiy sun'iy intellektdan foydalanish: O‘qituvchilar sun'iy intellektga asoslangan tarjima va tahlil vositalaridan foydalanganda axloqiy jihatlarga e'tibor qaratishlari kerak.
- ✓ Raqamli infratuzilmaga sarmoya kiritish: Hukumatlar va ta'lim muassasalari barcha talabalar uchun raqamli resurslardan foydalanishni ta'minlash orqali raqamli tafovutni bartaraf etishlari kerak.

Xulosa. Raqamli texnologiyalar til o‘rganish, tadqiqot va hamkorlikni kuchaytirish orqali bo‘lajak filologlarning kasbiy malakasini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. AI, raqamli kutubxonalar va onlayn kurslar ko‘plab afzalliklarni taklif qilsa-da, texnologik qaramlik va axloqiy muammolar kabi muammolarni hal qilish kerak. Raqamli savodxonlikni o‘rgatish va gibrid ta’lim yondashuvlarini integratsiyalashgan holda, filologiya ta’limi tilshunoslik va adabiyotshunoslikning asosiy tamoyillarini saqlab qolgan holda raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanishi mumkin. Soha rivojlanishda davom etar ekan, an'anaviy va raqamli metodologiyalarni birlashtirgan muvozanatli yondashuv kelajak filologlarni zamonaviy dunyo talablariga tayyorlash uchun zarur bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. No’monxonova M.N. Axborot texnologiyalari va bo‘lajak tilshunoslarning kommunikativ kompetensiyalari metodikasini rivojlantirishi va hozirgi holati. «Муғаллим ҳәм

[12] Hayles N. K. How we think: Digital media and contemporary technogenesis. – University of Chicago Press, 2012.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №3

үзликсиз билимлендириў» илимий-методикалық журнал // Нөкис 2023, 6/3-сан, B 26-32.
2. No‘monxonova Muattarxon Nosirxon qizi. Pedagogikada kasbiy rivojlanish uchun sun’iy intellektga asoslangan fikr-mulohazalar mexanizmlari Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy-metodik jurnali, № 11/2024,
3. Bunyodjon N. KASBIY KOMPETENSIYA VA PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTLIGI //Uz-conferences. – 2024. – №. 1. – С. 330-337.
4. Shulman L. S. Those who understand: Knowledge growth in teaching //Educational researcher. – 1986. – Т. 15. – №. 2. – С. 4-14.
5. Warschauer M. The death of cyberspace and the rebirth of CALL //English Teachers’ Journal. – 2000. – Т. 53. – №. 1. – С. 61-67.
6. Liu L. et al. Comparison of next-generation sequencing systems //BioMed research international. – 2012. – Т. 2012. – №. 1. – С. 251364.
7. Sodiqovna S. U. PEDAGOGIK KASBIY KOMPETENTLIK VA UNGA XOS SIFATLAR //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2025. – Т. 62. – №. 6. – С. 184-189.
8. Garrison D. R., Kanuka H. Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education //The internet and higher education. – 2004. – Т. 7. – №. 2. – С. 95-105.
9. Martin, James H., and Daniel Jurafsky. "Vector Semantics and Embeddings." Speech Lang. Process (2019): 1-31.
10. Bender E. M., Koller A. Climbing towards NLU: On meaning, form, and understanding in the age of data //Proceedings of the 58th annual meeting of the association for computational linguistics. – 2020. – С. 5185-5198.
11. Siemens G. Connectivism: Learning as network-creation //ASTD Learning News. – 2005. – Т. 10. – №. 1. – С. 1-28.
12. McEnery T., Hardie A. Corpus linguistics: Method, theory and practice. – Cambridge University Press, 2011.
13. Metzger M. J., Flanagin A. J. Credibility and trust of information in online environments: The use of cognitive heuristics //Journal of pragmatics. – 2013. – Т. 59. – С. 210-220.
14. Hayles N. K. How we think: Digital media and contemporary technogenesis. – University of Chicago Press, 2012.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**No‘monxonova Muattarxon Nosirxon qizi**, o‘qituvchi [**Нумонхонова Муаттархон Носирхон қизи** ,преподаватель], [**Muattarxon N. No‘monxonova**, teacher]; manzil: Namangan viloyati, To‘raqo‘rg‘on tumani, “Yangiobod” MFY, Saodat ko‘chasi, 128-uy., [адрес: Наманганская область, Туракурганский район, МФЦ “Янгиабад”, ул. Саадат, 128.], [address: Namangan region, Turakurgan district, MFC “Yangiabad” 128 Saadat St.].

CC BY NC ND

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

OVOZ HOSIL QILISH JARAYONINING ANATOMIK VA FIZIOLOGIK ASOSLARI

© Sh. Aliyeva[1]✉
[1]Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada ovoz apparatining tuzilishi, ovoz hosil bo‘lishining anatomo-fiziologik asoslari, nafas olish jarayoni hamda fiziologik va fonatsion nafasning farqlari yoritilgan.

MAQSAD: maqolaning asosiy maqsadi — inson ovozining paydo bo‘lish mexanizmini, fonatsion nafasning xususiyatlarini va ovoz hosil bo‘lishidagi fiziologik omillarni aniqlash hamda ushbu jarayonlarning nutq sifatiga ta’sirini o‘rganishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tahlil ilmiy adabiyotlar, foniatriya va logopediya bo‘yicha darsliklar, ovoz va nafas tizimlariga oid nazariy manbalar asosida amalga oshirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: maqolada inson ovoz apparatining murakkab tuzilmasi, hiqildoqning ovoz hosil qiluvchi vazifasi, ovoz boylamlarining tebranishi, rezonator bo‘shliqlari, shuningdek, fonatsion va fiziologik nafas turlari tafsilotlari bilan bayon etilgan. Ovozning sifatiga ta’sir qiluvchi omillar, ovoz zarbasi turlari (qattiq, yumshoq, nafasli) hamda ularning klinik ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga, fonatsion nafasni shakllantirish orqali ovoz kuchini oshirish va ovoz apparati mushaklarining uyg‘un faoliyatini ta’minlash bo‘yicha nazariy tavsiyalar berilgan.

XULOSA: ovoz apparatining normal ishlashi uchun kuchli va ratsional fonatsion nafas, hiqildoq va rezonator bo‘shliqlari faoliyatining muvofiqligi, mushaklarning yetarli tonusda bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Fonatsion nafasning shakllanishi va ovoz mushaklarining faol ishlashi nutqning tozaligi va jarangdorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ovoz apparati, fonatsion nafas, fiziologik nafas, hiqildoq, o‘pka sig‘imi, ovoz zarbasi.

Iqtibos uchun: Aliyeva Sh. Ovoz hosil qilish jarayonining anatomik va fiziologik asoslari.// Inter education & global study. 2025. №3. B.449–455.

АНАТОМО-ФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОЦЕССА ЗВУКООБРАЗОВАНИЯ

© Ш. Алиева[1]✉
[1]Ташкентский государственный педагогический университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ВВЕДЕНИЕ: статья посвящена строению голосового аппарата, анатомо-физиологическим основам фонации, процессу дыхания, а также различиям между физиологическим и речевым дыханием.

ЦЕЛЬ: цель работы — изучить механизмы образования звука, особенности фонационного дыхания и физиологические факторы, влияющие на качество речи.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: использованы научные и учебные источники по фониатрии, логопедии и физиологии дыхания.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: детально рассмотрены строение голосового аппарата, роль гортани и голосовых связок в образовании звука, типы дыхания, включая физиологическое и фонационное. Освещено влияние голосового удара (жесткий, мягкий, дыхательный) на качество звука, а также анатомические и функциональные аспекты, влияющие на тембр и силу голоса. Обоснована необходимость развития фонационного дыхания для повышения громкости и чистоты речи.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: для полноценного голосообразования важны рациональное фонационное дыхание, достаточный тонус голосовых мышц и здоровье слизистых оболочек резонаторных полостей. Формирование речевого дыхания оказывает ключевое влияние на акустические параметры голоса.

Ключевые слова: голосовой аппарат, фонационное дыхание, физиологическое дыхание, гортань, жизненная ёмкость лёгких, голосовой удар.

Для цитирования: Алиева Ш. Анатомо-физиологические основы процесса звукообразования.// Inter education & global study.2025. №3. С. 449–455.

ANATOMICAL AND PHYSIOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE SOUND FORMATION PROCESS

© Shoxista Aliyeva[1]✉
[1]Tashkent State Pedagogical University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article discusses the structure of the vocal apparatus, the anatomical and physiological foundations of voice production, the breathing process, and the differences between physiological and phonation breathing.

AIM: the aim of this study is to explore the mechanisms of sound production, the characteristics of phonation breathing, and the physiological factors influencing voice quality.

MATERIALS AND METHODS: the analysis is based on scientific literature, textbooks on phoniatrics and speech therapy, and theoretical materials related to voice and respiratory systems.

DISCUSSION AND RESULTS: the article details the anatomy of the vocal system, the role of the larynx and vocal cords in sound generation, the types of

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

breathing, and the impact of voice attack types (hard, soft, breathy) on voice clarity. The importance of coordinated activity of respiratory and vocal muscles, and the significance of forming efficient phonation breathing are highlighted.

CONCLUSION: effective voice production depends on strong and rational phonation breathing, proper muscle tone, and healthy mucous membranes in the resonator areas. The development of speech breathing is essential for enhancing voice quality and strength.

Keywords: vocal apparatus, phonation breathing, physiological breathing, larynx, lung capacity, voice attack.

For citation: Aliyeva Shoxista. (2025) 'Anatomical and physiological foundations of the sound formation process', Inter education & global study, (3), pp. 449–455. (In Uzbek).

Inson ovozi akustik fenomen va anatomo-fiziologik faoliyat mahsuli sanaladi, shu bilan birgalikda u ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi uchun ham o'ziga xos hodisa hisoblanadi. Ovoz nafas, endokrin va nerv-mushak tizimlarining o'zaro munosabatlari natijasida kelib chiqadi va ovozning akustik parametrlaridagi o'zgarishlar yuqoridagi tizimlarning patologik holatidan darak beradi. Ushbu holatlarning uyg'unligi ovozni identifikatsiya va diagnostika jarayonlarining o'ziga xos obyekti sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Ovoz hattoki uning egasini ko'rmasdan turib ham shaxsning tana tuzilishi, jinsi, yoshi, jismoniy va emotsional holati, ijtimoiy hamda etnik kelib chiqishi haqida tahmin qilish imkonini beradi. Ovozning turli shakllaridan turli vaziyatlarda foydalanilishini nazarda tutgan holda uning moddiy asosi o'zining tuzilishiga ko'ra o'ta murakkab bo'lgan va ovozning variativligi, kuchi, tonalligi hamda individual ohanglarga boy bo'lishini ta'minlay oladigan anatomik vosita ekanligini tahmin qilish mumkin. Biroq ovoz apparati o'zining xususiy a'zolari tizimiga, ya'ni ovoz hosil qilish uchun mo'ljallangan organlarga ega emas.

Anatomo-fiziologik nuqtai nazardan olib qaraganda odamning ovoz apparati boshqa sut emizuvchi hayvonlarning ovoz apparatidan deyarli farq qilmaydi. Ijtimoiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lgan ovoz funksiyasi nafas a'zolari tizimi faoliyatining qo'shimcha mahsuli hisoblanadi xolos. Har qanday tovush yoki so'zlarni talaffuz qilish paytida yuzaga keladigan hissiyotlarni tahlil qilgan holda bu fikrni osongina tasdiqlash mumkin. Ushbu kuzatishlar to'laqonli ovoz faoliyati organizmdagi gazlar almashinuvi mobaynida hosil bo'luvchi moddalarni nafas orqali chiqarish paytida yuzaga kelishini tasdiqlaydi. Aynan nafas chiqarish jarayoni ovozning tovush to'lqini sifatida eshitish analizatoriga yetib borishiga imkon beruvchi energetik bazani tashkil etadi. Ovoz apparati respirator tizimning bir qismi hisoblanadi va uning faoliyati me'yorda ham, patologiyada ham umumiy qonuniyatlarga bo'ysunadi. Shu bilan birgalikda u markaziy va periferik nerv tizimi tomonidan bevosita boshqariladi. Ovoz apparatining a'zolari turli to'qimalar – suyaklar, tog'aylar, ko'krak qafasi paylari, nafas yo'llarining shilliq qavatlari, silliq va

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ko‘ndalang mushaklar, harakatlantiruvchi va sezuvchi nerv tolalari tizimidan tashkil topgan.

Fonator mexanizmning faoliyati markaziy nerv tizimining turli qismlariga tatbiq etuvchi shartli-reflektor harakat funksiyasining qonuniyatlariga bo‘ysunadi.Fonatsiya murakkab psixofiziologik jarayon bo‘lib, ikkita asosiy funksional qism – ovoz hosil qilish va ovozni nazorat qilish jarayonlaridan iborat sanaladi. Ovoz hosil qilish – fonatsiyaning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, uning natijasida asosiy maqsadga erishiladi, ya’ni hiqildoqda ovoz hosil qilinadi.Ovozni nazorat qilish – fonatsiyaning yana bir tarkibiy qismi bo‘lib, uning davomida birlamchi hiqildoq tovushi faqatgina ma’lum bir subyektga xos bo‘lgan individual xususiyatalarga (ovoz tembri) ega akustik mahsulotga aylanadi.

Tovush to‘lqinining paydo bo‘lish mexanizmi va uning qanday tarqalishini tahlil qilish uchun ovoz apparatining faoliyatini nafas tizimining bir qismi sifatida ko‘rib chiqish nisbatan qulay hisoblanadi. Bunda nafas apparati majoziy ma’noda dudli cholg‘u asbobiga qiyoslanadi. U o‘zining havo jo‘natuvchi “qopchasiga” (o‘pka) ega hisoblanadi: memranalar, ya’ni hiqildoqdagi ovoz boylamlari cholg‘u asbobidagi tor singari tebranib tovush hosil qiladi, rezonatorlar – halqum, og‘iz bo‘shlig‘i va burunning yondosh bo‘shliqlari esa ba’zi turdagi tovush to‘lqinlarini kuchaytiradi, ayrimlarini esa so‘ndiradi.

Hiqildoq ovozning bevosita manbai sanaladi. Undagi ovoz boylamlari (tebranuvchi torlar) tuzilishiga ko‘ra o‘ziga xos hisoblanadi.Zamonaviy tadqiqotlarning aniqlashicha, ovoz mushaklari bir paytning o‘zida uch xil proyeksiyada harakatlana oladigan inson organizmidagi yagona mushak turi hisoblanadi. Bunga uning cho‘zilgan spiral ko‘rinishida joylashgan va o‘rim hosil qilgan nozik tolalari imkon beradi. Shu sababli ovoz mushaklari bir paytning o‘zida ham butunligicha, ham qisman tarzda soniyasiga 50 martadan 1500 martagacha tebrana oladi. Ovoz boylamlari ovoz hosil qilishdan avval birikadi va taranglashadi. Chiqarilayotgan nafas pastki tomondan ovoz boylamlariga bosim beradi va cho‘ziluvchan ovoz boylamlari ushbu bosim asosida tebranadi hamda hiqildoqdagi havoni harakatga keltiradi.

Hiqildoqning barcha mushaklari ovoz hosil qilishda ishtirok etadi; bunda ular o‘z vazifasidan kelib chiqqan holda turli darajada qisqaradi. Kalla-bosh miya nervlarining (KBMN) X jufti – adashgan nervning harakatlantiruvchi tolalariga kelayotgan impulslar ushbu mushaklarning qisqarishini ta’minlaydi. Fonatsiya paytida ovoz boylamlarining qisqarishi, bo‘g‘im xaltachalarining taranglashishi va hiqildoq tog‘aylarining harakatlanishi natijasida sezuvchi nerv oxirlari (retseptorlar) markaziy nerv tizimiga (MNS) ovoz apparatining holati haqida signal yuboradi. Ovoz hosil qilish jarayoni to‘laqonli tarzda amalga oshishi uchun nafas tizimining barcha bo‘limlari o‘zaro uyg‘un tarzda faoliyat yuritishi kerak.

Aynan shu paytda hiqildoq tovushi yuzaga keladi. Uni to‘laqonli ovoz deb atashning imkoni yo‘q, chunki u ma’lum bir insongagina xos bo‘lgan individual xususiyatlarga ega emas. U o‘ziga xos “xomashyo” hisoblanadi va og‘iz bo‘shlig‘I hamda rezonator bo‘shliqlaridagi murakkab o‘zgarishlardan o‘tgach ovozga aylanadi. Tovush to‘lqinini akustik jihatdan qayta ishlash va uni artikulyatsion jihatdan takomillashtirish jarayoni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

og‘iz, burun-halqum va burunning yondosh bo‘shliqlarida amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda ona tili uchun xos bo‘lgan akustik xususiyatlardan tashqari ayni bir insongagina xos bo‘lgan individual xususiyatlarga ham ega bo‘lgan fonemalar shakllanadi.Nafas tizimi a’zolarining tuzilishidagi o‘ziga xos xususiyatlardan tashqari eshitish qobiliyati, og‘iz bo‘shlig‘ining tuzilishi va tanglay-halqum sohasining holati singari mezonlar ham ovozning akustik parametrlariga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu a’zolarning tuzilishi va funksiyasidagi buzilishlar (xususan, eshitish qobiliyatining pasayishi va karlik, og‘iz bo‘shlig‘ining anatomik nuqsonlari, tanglay-halqum yetishmovchiligi) tovushning akustik parametrlaridagi yaqqol ifodalangan o‘zgarishlarga olib kelishi, nutqning tushunarlilik darajasini pasaytirishi, insonning ijtimoiy imkoniyatlarini cheklashi va uning emotsional holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Nafas tizimining holati va insonning nafas zaxirasidan maksimal darajada samarali foydalana olishi ham ovoz apparatining funksiyasi va ovoz sifatiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

O‘pka sig‘imi insonning yoshi, jinsi, gavda hajmi, umumiy jismoniy rivojlanish darajasi va tana holatiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, yotgan holatda o‘pkaning sig‘imi minimal darajada bo‘ladi, o‘tirgan holatda esa u 5% ga oshadi, tik turgan holatda o‘pka sig‘imi yana 3.7% ga ko‘tariladi. Tinch holatda bir marta nafas olganda (chiqarganda) 500 sm^3 hajmdagi havo almashadi, bu esa o‘pkadagi umumiy havo miqdorining 15% ini tashkil etadi. Ushbu miqdor almashinuvchi havo deb nomlanadi (c).Nafas ushbu jarayonni amalga oshirishning turli diapazondagi usullariga ega ekanligi bilan ajralib turadi va u avtomatik, reflector va ixtiyoriy tarzda amalga oshirilishi mumkin. Nafasning avtomatik ritmi uzunchoq miyadagi nafas markazi tomonidan boshqariladi. Qon tarkibidagi karbonat angidrid ushbu nafas markazining qo‘zg‘atuvchisi hisoblanadi va u o‘zining kritik ko‘rsatkichiga yetgach uzunchoq miya o‘pkaga nafas olish buyrug‘ini beradi.

Tinch holatdagi (fiziologik) nafas – nafas olish va nafas chiqarish jarayonida ishtirok etadigan maxsus mushaklar guruhi tomonidan amalga oshiriladigan nisbatan passiv jarayon hisoblanadi. Fiziologik nafas tarkibidagi nafas chiqarish jarayoni passiv faza bo‘lib, o‘pkaga kislorod yetkazib beruvchi nafas olish fazasidan keyin amalga oshiriladi. Nafas chiqaruvchi mushaklarga quyidagilar kiradi: fonatsiya paytidagi nafas chiqarish fazasida asosiy rol o‘ynovchi qorin pressi mushaklari, qovurg‘alarni pastga tushiruvchi va diafragmani yuqoriga ko‘taruvchi mushaklar. Nafas chiqarish paytida qovurg‘alar pastga tushadi, ko‘krak ichkariga kiradi, ko‘krak qafasining hajmi kichrayadi, o‘pkalar esa inspiratory mushak faolligi to‘xtagach normal holatga keladi: shunday qilib almashinuvchi havo chiqariladi.

Tinch holatda nafas olganda ikkala nafas fazasi ham bir xil vaqt oralig‘ida amalga oshiriladi. Fazalar orasida qisqa to‘xtalish davri – interval mavjud. Nafas olish – 1, pauza – 2, nafas chiqarish – 1. Nafas sikli jami 4 birlikdan iborat (daqiqasiga o‘rtacha 16 marta nafas olinadi). Nafas olish – nafas chiqarish fazalarining nisbati 1:1 ni tashkil etadi. Nafas olish ham, nafas chiqarish ham burun orqali amalga oshiriladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Fonatsion nafas murakkab nafas turi hisoblanadi, chunki bunda havo oqimi tebranuvchi ovoz boylamlaridan o‘tadi. Bundan tashqari rezonator bo‘shliqlar faoliyati hisobiga ovozlashtirilgan nafas (impedans) oqimi katta to‘siqqa duch keladi, ayni holat ham havoning erkin harakatlanishiga ma’lum darajada to‘sqinlik qiladi. Fonatsiya paytida chiqarilayotgan havo oqimi duch keladigan to‘siq tinch holatda chiqarilayotgan nafas oqimi duch keladigan to‘siqqa qaraganda 72 marta kuchliroq hisoblanadi. Bunday paytlarda mushaklar nafas olish jarayonida o‘ta faol ishtirok etadi va qorin pressi mushaklari ham ushbu faoliyatga jalb qilinadi, kuylash paytida esa hatto orqaliq va toz sohasi mushaklari ham ishga tushadi.

Nutqiy nafas paytida nafas olish jarayoni burun orqali emas, balki og‘iz orqali amalga oshirilishi uning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi, chunki burun yo‘llarining torligi tez va chuqur nafas olishga imkon bermaydi. Nutq paytida nafas chiqarish nafas chiqaruvchi mushaklarning faol harakati yordamida amalga oshiriladi. Bu jarangdor nutqni amalga oshirishda o‘ta muhim hisoblangan ikki omilni - havo oqimini kerakli miqdorda chiqarish va havo oqimi bosimining yetarlicha kuchga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Aralash turdagi nafas esa quyi qovurg‘a va qorin tipidagi nafas turlari uyg‘unligidan tashkil topgan. Diafragma mushaklari faol ishtirok etuvchi quyi qovurg‘a tipidagi nafas professional nutqiy faoliyat uchun eng maqbul nafas tipi hisoblanadi. Ayni paytda u eng ratsional nafas turi sanaladi, chunki quyi qovurg‘a tipidagi nafas mushak kuchini tejaydi, nafas mushaklarining yetarli darajada elastic harakatlanishi uchun imkon beradi va organizmni yuqori hajmdagi havo (3000-5000 sm^3) bilan ta’minlaydi.

Nafas turi insonning yoshi, jinsi va xatto kasbidan kelib chiqqan holda o‘zgarib turadi. Ayollarda ko‘pincha ko‘krak tipidagi nafas, erkaklarda esa qorin tipidagi nafas kuzatiladi. Bolalarda esa odatda, ko‘krak tipidagi nafas qayd etiladi. Inson kasbi haqida gap ketganda olimlar jismoniy mehnat bilan ko‘p shug‘ullanuvchi shaxslarda qorin tipidagi nafas, kamharakat odamlarda esa ko‘krak tipidagi nafas ko‘proq kuzatilishini qayd etishadi.

Ma’lumki, fonatsion nafasni shakllantirmay turib ovoz sifatini yaxshilashning deyarli iloji yo‘q. Ekspirator mushaklar faoliyatini yaxshilash va havo oqimini ratsional tarzda sarflash hisobiga ovoz boylamlari ostidagi bosim zaxirasidan foydalanish ovoz kuchini 30 – 80 dB (Detsibell) gacha oshirish imkonini beradi.

Nafas chiqarish va ovoz boylamlarining birikish vaqti bir-biriga qay darajada mos kelishiga bog‘liq tarzda tovushni turlicha yetkazib berish usullari – ovoz zarbasi (ovoz atakasi) farqlanadi. Ovoz atakasining uchta turi mavjud: qattiq, nafasli, yumshoq.

Qattiq ataka (zarba)da avvaliga ovoz boylamlari birikadi, keyin esa nafas chiqarish jarayoni amalga oshiriladi. Nafasli zarbada avvaliga yengil nafas chiqariladi, keyin esa ovoz boylamlari birikadi va tebrana boshlaydi. Yumshoq atakada nafas chiqarish jarayoni va ovoz boylamlarining birikishi bir paytda amalga oshiriladi.

Nafasli ataka fonatsiya paytidagi ovozlashtirilmagan ortiqcha nafasga yaqqol misol bo‘la oladi. Ovoz hosil qilish jarayonidan avval havoning ochiq ovoz teshigidan o‘tishi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ishqalanish shovqinini keltirib chiqaradi, ovozning sofligini buzadi va uning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holatni hiqildoq shilliq qavatining zararlanishiga (shishlar, o'simtalar va hokazolar) olib keluvchi surunkali yallig'lanish kasalliklarida kuzatish mumkin. Shu kabi hollarda ovozlashtirilmagan havo shovqinini yaqqol eshitish mumkin. Bemor ayni paytda fonatsiya davomida havoning "sizib chiqib ketayotganligini" his qiladi.

Ovoz hosil bo'lishi me'yorda kechishi uchun hiqildoqning qanday joylashganligi o'ta muhim ahamiyatga ega. Me'yorda hiqildoq harakatchan bo'lib, talaffuz qilinayotgan tovushning balandligidan kelib chiqqan holda yuqori yoki quyi o'rinni egallaydi. Baland tovushni talaffuz qilganimizda hiqildoq ko'tariladi va ovoz teshigi hamda rezonatorlar o'rtasidagi masofani kamaytiradi, past tovushni talaffuz qilganimizda esa hiqildoq pastga tushadi va hiqildoq hamda ko'krak qafasi rezonatsiyasini kuchaytiradi.

Shunday qilib, ovoz apparati normal faoliyat yuritishi uchun quyidagilar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi:

Kuchli, davomli, ratsional fonatsion nafas chiqarish;

Hiqildoqni tutib turuvchi mushaklar va ovoz mushaklari tonusining yetarlicha ekanligi;

Rezonator bo'shliqlaridagi shilliq qavatlarning sog'lom ekanligi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ayupova M.Yu. Logopediya. – T.: Faylasuflar milliy jamiyati, 2017.
2. Sh.Shokirova. Yuqori lab va tanglayning tug'ma kemtiklarida logopedik reabilitatsiya. Darslik. Toshkent: "Bayoz", 2024, – 300 b.
3. Василенко Ю.С. Голос. Фониатрические аспекты. – М.: Дипак, 2013. – 396 с.
4. Дмитриев Л.Б., Телеляева Л.М., Таптапова С.Л., Ермакова И.И. Фониатрия и фонопедия. – М.: Медицина, 1990. – 270 с.
5. Емельянов В.В. Развитие голоса. Координация и тренинг. / Серия «Мир медицины». – СПб.: Издательство «Лань», 2000. – 190 с.
6. Лаврова Е.В. Логопедия. Основы фонопедии. – М.: В. Секачев, 2013. – 183 с.
7. Логопедия. / Под. ред. Л.С. Волковой – М.: ВЛАДОС., 2006. – 703 с.
8. Максимов И.И. Фониатрия. – М.: Медицина, 1987. – 282 с.
9. Митринович-Моджеевска А. Патофизиология речи, голоса и слуха. – Варшава: Польск. гос. мед. изд-во, 1965. – 351 с.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Aliyeva Shoxista**, o'qituvchi [**Алиева Шохиста**,преподаватель], [**Aliyeva Shoxista** teacher]; manzil: Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi 27 uy., [адрес: Г. Ташкент, Чиланзарский район, ул. Бунедкор, дом 27.], [address: Tashkent, Chilanzar district, Bunyodkor St., 27.].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARDA BIOLOGIYA FANIGA DOIR KOMPETENSIYALARINI TARKIB TOPTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

© D.R. Sharipova[1]✉
[1]Navoiy davlat universiteti, Navoiy, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mamlakatimiz ta'lim tizimida zamonaviy metodlarni joriy etish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirish dolzarb masalaga aylangan. Bu jarayonda sinergetik yondashuv asosida biologiya fanini o'qitish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

MAQSAD: biologiya fanini o'qitishda sinergetik yondashuv asosida o'quvchilarda biologik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va ularni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini asoslab berish.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv nazariyasi, fanli-metodik manbalar va ilg'or xorijiy tajribalar tahlil qilindi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 53-moddasida: “Har kim ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy, va texnikaviy rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qiladi”[12].[9:22]

O‘qituvchilar ta’lim berish bilan birga tarbiya ham beradi. Shuning uchun pedagoglarni malakasini oshirishda pedagogik va tarbiyaviy ko‘nikmalarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ular o‘quvchilarni shaxsiy muammolarini tushunishga,ularni yaxshi fazilatlar sari yetaklashga harakat qilishadi. Maktab ta’lim tizimida tarbiyani shakllantirish uchun texnologiyalar orqali ish olib borilishi o‘quvchilarda fanga bo‘l;gan qiziqishni orttiradi. Maktab darslariga elektron doska va darsliklar va raqamli ta’lim platformalarida milliy va axloqiy tarbiyani targ‘ib qiluvchi materiallarning kiritilishi ta’lim sifatini yanada oshiradi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ta’lim va tarbiya uzviy tarzda olib boriladi va bular ta’lim jarayoning ajralmas qismidir. Har bir qatorda o‘quvchilarga bilim bilan bir qatorda axloqiy va ma’naviy fazilatlarni shakllantirishga yo‘l ochib beriladi. O‘quvchilar 1-sinfga qabul qilinish jarayonidan boshlab o‘quvchilarda ijtimoiy, ekologik, gigienik va jismoniy tarbiya shakllantirib boriladi. O‘quvchilarga o‘qish savodxonligi , ona tili va tarbiya shuningdek boshqa maktab darslari davomida ta’lim va tarbiya berib boriladi. Bunga misol qilib 1-sinf tarbiya darsligini olishimiz mumkin. Tarbiya darsligi turli axloqiy qoidalar asosida mavzularga ajratilgan. “Sehrli so‘zlar”mavzusida 42-43 betlardagi rasmlar asosida “sehrli so‘zlardan” foydalanib gap tuzish topshirig‘i beriladi. Dars davomida o‘quvchilarning so‘zlashuv odobi va ularning tengdoshlari, o‘zidan kattalar bilan muloqotga kirishishida

[11] . O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent. 2023. 21-bet
[12] . O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent. 2023. 22- bet.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ishlatadiga sehrli so‘zlari haqida ma’lumot berish maqsadga muvohiq bo‘ladi O‘quvchilar quyidagi savollarga erkin javob berishlari kerak bo‘ladi.

1-savol Oila a’zolaringizga qanday sehrli so‘zlar ishlatasiz?

2-savol Ularga qanday morojaat qilasz?

3-savol Har bir oila a’zoingizga murojaat qilganingizda “jon” qo‘shimchasini qo‘shib ishlatib ko‘ring va bunga odatlaning kabi savollar bilan dars olib boriladi[13].[10:105] Bu savollarga javob bera olgan o‘quvchi “Sehrli so‘zlar”ni butun umr davomida yodida saqlab qoladi.

Xuddi shu kitobning 22-23 mavzularida “Yaxshi va yomon odatlar” mavzusi ham keltirilgan. Deyarli tarbiya darsining har bir darsida o‘quvchilar bir tarbiya o‘rgatib boriladi. Bu mavzu shundan iboratki, o‘quvchilar bilan yaxshi va yomon odatlar haqida suhbat olib boriladi. Mavzuga oid tushunchalarga izoh berish orqali o‘quvchilarning fikrlash qobiliyati kengaytiriladi. Yaxshi odatlarni o‘zlashtirib qanday marralarga erishish o‘rgatiladi. Darslar asosan amaliy mashg‘ulotlarga boy. Dars jarayonidagi holatlar asosan o‘quvchilarning hayotidan olingan voqealarga asoslangan bo‘ladi[14].[11:114]

Inson va jamiyat tarkibiy qismining, olamdagi voqealar, hodisalar jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushunch-qadriyat deyiladi. Qadryatni moddiy va ma’naviy, umumbashaariy va umuminsoniy turlarga bo‘lish mumkin. Qadriyat shakllari ham ularga xos ravishda tabiat va jamiyatdagi narsa, voqea, hodisa, jarayonlar o‘zaro uyg‘unlikda, qonuniy bog‘lanishda, umumiy aloqadorlikda namoyon bo‘ladi[15].[12:492] Qadriyat bu tariximiz va kelajagimizni chambarchas bir biriga bo‘lab turuvchi ko‘prik vazifasini bajaradi.

Tarbiya jarayoni bevosita oila, mahalla va maktabning hamkorligida shakllantirib boriladi. Bolaning tarbiyasi asosan oilada shakllanadi. Shuning uchun oilaviy munosabatlar hamjihatlaikda bo‘lisi lozim. Oila qanchalik birdam, hamjihat bo‘lsa, bola shaxs sifatida shunchalik tarbiya topadi. Oilaviy tarbiya jarayonida bolani shaxs sifatida shakllantirish asosan ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi: oila turmush tarzining ta’siri ostida va ota-onalarning maxsus tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishi natijasida. Oilaviy tarbiyada ota-onaning obro‘yi katta ahamiyatga ega[16]. [13:465]

[13] . 1-sinf O’qituvchilar uchun metodik qo’llanma. Zamin nashr. Toshkent. 2020. 105-bet
[14] . 1-sinf O’qituvchilar uchun metodik qo’llanma. Zamin nashr. Toshkent. 2020. 114-bet
[15] . Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati. O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2022-yil. 492-bet.
[16] . Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati. O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2022-yil. 465-bet.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, O‘zbekistonda ta’lim tizimi tarbiyani ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida ko‘radi. Har bir bosqichda o‘quvchilarga bilim bilan birgalikda axloqiy va ma’naviy fazilatlarni ham shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon olib boriladi. O‘zbekistonda ta’lim va tarbiya bir- birini to;ldiruvchi asosiy jarayonlar hisoblanadi. Milliy qadriyatlarni saqlab qolgan holda zamonaviy tarbiya usullarini qo‘llash orqali yosh avlodni har tomonlama yetuk va ma’naviy boy shaxslar qilib tarbiyalashga e’tibor berilmoqda. Bu esa mamlakatning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omillardan biridir. O‘zbekiston ta’lim tizimi tarbiya bilan hamohang bog‘langan. Farzandlarimizning ham ma’naviy, ham moddiy tomondan yetuk shaxs bo‘lishlari uchun bu hamohanglikni doimo birga olib borishimiz zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqidan. – T., 2020.
2. Xalq pedagogikasi. M.J. Mutalipova.(Fan va texnologiya) Toshkent. 2015. 5-bet
3. A. Bekimbetova, Xalq pedagogikasida yoshlarga aqliy tarbiya berish an’analari Nukus 2018. 28-bet.
4. S. Yo‘ldasheva. Xalq urf odatlari va an’analari. Toshkent 2013. Ijod dunyosi nashriyoti. 88-bet
5. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni. O‘RQ – 637, 23.09.2020.
6. w.w.w. Gazeta.uz
7. O‘zbekistonning Harakatlar strategiyasi. Ta’lim va tarbiyaning yangi imkoniyatlarini rivojlantirish to‘g‘risidagi nutqidan.
8. Maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha yeg‘lishdan. 2025-yil 28-yanvar.
9. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent. 2023. 21-bet.
10. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent. 2023. 22- bet.
11. 1-sinf O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. Zamin nashr. Toshkent.2020.
12. 1-sinf O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. Zamin nashr. Toshkent. 2020. .
13. Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2022-yil. 492-bet.
14. Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2022-yil. 465-bet.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **I.V Xoldarova**, dotsent , **R.I. Xomidova**, magistr [**И.В. Холдарова,** доцент**, Р.И. Хомидова,** магистр [**I.V Xoldarova,** associate professor**, R.I. Khomidova,** master's degree]; manzil: 150100, Farg`ona shahri, Murabbiylar ko`chasi, 19-uy., [адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мурабийлар, д. 19.], [address: Murabiylar str., 19, Ferghana, 150100.]

CC BY NC ND

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

ANALYSIS OF THE COMPONENTS OF DEVELOPING INFORMATION AND COMMUNICATION COMPETENCE

© Karshiboev A. Nizomiddin[1]✉
[1]Jizzakh polytechnic institute, Jizzakh, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article highlights the importance of developing information and communication competence in modern education and society. This competence includes not only technical abilities but also skills in searching, analyzing, managing information, and ensuring digital security.

AIM: the main objective of the study is to identify the core components of information and communication competence and to explain their relevance in the context of modern educational processes.

MATERIALS AND METHODS: the study is based on the analysis of scholarly literature, research publications, and the practical application of information and communication technologies in education.

DISCUSSION AND RESULTS: the research identifies five fundamental components of ICT competence: technical skills, information management, digital communication, information security, and information culture. Developing these elements holistically contributes to individuals' successful functioning in the digital environment.

CONCLUSION: developing ICT competence is a vital aspect of modern education. Mastery of its structural components plays a crucial role in preparing individuals for active participation in digital society.

Keywords: information and communication competence, technical skills, digital communication, information management, information security, information culture, communication tools.

For citation: Karshiboev A. Nizomiddin (2025) 'Analysis of the components of developing information and communication competence', Inter education & global study, (3), pp. 496-500. (In Engl).

АНАЛИЗ КОМПОНЕНТОВ ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

© Н.А. Каршибоев[1]✉
[1]Джизакский политехнический институт, Джизак, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается актуальность формирования информационно-коммуникационной компетентности и её роль в системе

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

образования и обществе. Эта компетентность включает в себя не только технические навыки, но и умения искать, обрабатывать, анализировать информацию и безопасно с ней работать.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — определить ключевые компоненты развития информационно-коммуникационной компетентности и раскрыть их значение в современном образовательном процессе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в работе были проанализированы научные публикации, нормативные документы и опыт применения информационно-коммуникационных технологий в образовательной практике.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в результате исследования определены пять ключевых компонентов компетентности: технические навыки, управление информацией, цифровая коммуникация, информационная безопасность и культура работы с информацией. Выявлено, что комплексное развитие этих компонентов способствует успешной адаптации личности в цифровой среде.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: формирование информационно-коммуникационной компетентности является важным направлением современного образования. Овладение её структурными компонентами обеспечивает эффективное функционирование в условиях цифрового общества.

Ключевые слова: информационно-коммуникационная компетентность, технические навыки, цифровая коммуникация, управление информацией, информационная безопасность, информационная культура, средства связи.

Для цитирования: Каршибоев Н.А. Анализ компонентов формирования информационно-коммуникационной компетентности.// Inter education & global study.2025. №3. С. 496-500.

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISH TARKIBIY QISMLARINI TAHLIL QILISH

© A.N. Karshiboev[1]✉
[1]Jizzax politexnika instituti, Jizzax, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada axborot-kommunikatsiya kompetentligini shakllantirishning dolzarbligi va uning ta’lim hamda jamiyatda tutgan o‘rni yoritiladi. Bu kompetentlik nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki axborotni izlash, tahlil qilish, samarali muloqot qilish va axborot xavfsizligini ta’minlash kabi ko‘nikmalarni ham o‘z ichiga oladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi — axborot-kommunikatsiya kompetentligini shakllantirishga ta’sir etuvchi asosiy tarkibiy qismlarni aniqlash va ularning ta’lim tizimidagi ahamiyatini ilmiy-nazariy asosda ko‘rsatib berishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda zamonaviy ilmiy manbalar, soha bo‘yicha maqolalar, tajriba natijalari tahlil qilindi. Shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalanish tajribalari asosida komponentlar o‘rganildi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari axborot-kommunikatsiya kompetentligining besh asosiy tarkibiy qismi — texnik ko‘nikmalar, axborotni boshqarish, raqamli muloqot, axborot xavfsizligi va axborot madaniyati — bo‘yicha tizimli yondashuvni shakllantirish zarurligini ko‘rsatdi. Bu komponentlar orqali shaxsning raqamli muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga zamin yaratiladi.

XULOSA: axborot-kommunikatsiya kompetentligini shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib, uning asosiy komponentlarini puxta egallash raqamli jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: axborot-kommunikatsiya kompetentligi, texnik ko‘nikmalar, raqamli muloqot, axborotni boshqarish, axborot xavfsizligi, axborot madaniyati, muloqot vositalari.

Iqtibos uchun: Karshiboev A.N. Axborot-kommunikatsiya kompetentsiyasini shakllantirish tarkibiy qismlarini tahlil qilish.// Inter education & global study. 2025. №3. B. 496-500.

Components of the development of information and communication competence.

The rapid development of modern society and the widespread use of digital technologies make the development of information and communication competence a pressing issue in educational and professional spheres. This competence represents a set of skills necessary for a person to effectively use various information sources, work with information using digital tools, and analyze information. This article analyzes the components of the development of information and communication competence. [8]

1. Technical skills

One of the main components of information and communication competence is technical skills. These skills include the ability to work with technologies for obtaining, storing, transmitting and processing information. These skills include:

- Computer literacy: Mastering the basics of working with computers and other digital devices;
- Software use: Skills in working with text editors, spreadsheet programs, graphics programs, and various other software tools;
- Internet and network use: Accessing Internet resources, searching for information, evaluating it correctly, and ensuring network security.

2. Information management skills

Organizing and managing information also plays a major role in information and communication competence. This component includes the following skills:

- Information search and selection: The ability to find relevant and reliable information from a large amount of information sources;
- Information evaluation: Assessing the reliability, relevance, and completeness of the information received and avoiding inaccurate or misleading information;
- Data processing and organization: Transforming the information received into useful information through analysis, synthesis, and logical organization. [7]

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

3. Digital communication and collaboration Skills

Another important component of developing information and communication competence is the ability to communicate effectively using digital tools. This component includes:

- Using email and social media: Ability to use email, social media, and other online platforms to communicate effectively;
- Team collaboration tools: Ability to work collaboratively on various online platforms, such as Google Docs, Microsoft Teams;
- Working with virtual teams: Developing skills in communicating and collaborating with teams in a virtual environment.

4. Information security and privacy

Information security issues are also important in the development of information and communication competence. With the widespread use of technology, the ability to ensure the confidentiality and protection of information is essential in the modern digital era. [9]

This component includes:

Protection of personal data: Take security measures to ensure the confidentiality of personal and professional information;

- Cybersecurity: Skills to protect yourself from phishing, viruses, and other digital threats while working online;
- Data backup: Taking precautions and creating backups of information to protect against the risk of data loss.

5. Information culture and responsibility

In the development of information and communication competence, the formation of a responsible approach and culture of information use also plays an important role. This includes the following:

- Critical analysis of information: Obtaining accurate and truthful information by not simply accepting information, but by critically evaluating, analyzing and comparing different sources;
- Copyright and plagiarism: Respecting copyright when using information, properly citing sources and avoiding plagiarism;
- Responsible dissemination of information: Not disseminating information in a false or harmful manner, and acting responsibly on social media and in the media.

Conclusion:

Developing ICT competence is one of the most essential skills in modern education and society. Components such as technical skills, information management, digital communication, information security and information literacy are integral parts of ICT competence, and the development of these skills helps people to function successfully in the digital environment.

REFERENCES | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | ADABIYOTLAR RO‘YXATI

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

1. Виневская А. В. Использование потенциала информационных технологий в создании мобильной образовательной среды // Концепт. 2012. № 9. С. 78–84.
2. Холодная М.А. Психология интеллекта. Парадоксы исследования/М.А.Холодная. - СПб.: ИЗд-во Питер, 2002 - 272с.
3. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования / И.А. Зимняя // Высшее образование сегодня. - № 5.-2003.-С. 34-42.
4. Askarov, I. B (2017). The main stages of preparing future vocational education teachers for research activities. Eastern European Scientific Journal, (5).
5. Kulmuradov, D. I. (2022, August). Methodology of development of construction documents in the automated design system. In E Conference Zone (pp. 19-22).
6. Kulmuradov, D. I. (2022, August). A model for improving the professional training of students using computer design tools. In E Conference Zone (pp. 17-19).
7. Qarshiboyev N.A. “M-learning texnologiyalari vositasida ta’lim jarayonini rivojlantirishning zarurati” Ta’lim, fan va innovatsiya manaviy-ma'rifiy ilmiy-uslubiy jurnal 2024 2-son ISSN 2181-8274 2024 2-son ISSN 2181-8274 530 5-bet.
8. Qarshiboyev N.A. “Talabalarda axborot - kommunikatsion kompetentlikni rivojlantirishning metodik jihatalari” Tashkent international congress on modern sciences-III April 22-23, 2024 ISBN - 978-625-367-708-4 6bet.
9. Qarshiboyev N.A. “M-Learning texnologiyalari vositasida ta’lim jarayonini rivojlantirish usullari” Mirzo ulug‘bek nomidagi o‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali 2024, [1/5] ISSN 2181-7324 1/5 Ijtimoiy-gumanitar fanlar turkumi 5-bet.

AUTHORS INFO [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT]

✉**Karshiboev A.Nizomiddin,** teacher [**Обидов Жамшид Гайратжон огли**, преподаватель], [**Karshiboev Nizomiddin Abdumalik o’g’li**, o‘qituvchi]; address: Jizzakh city, 130100 St. Islam Karimov, 4, [адрес: город Джизак, 130100 ул. Ислома Каримова, д. 4], [manzil: O‘zbekiston, Jizzax shahri, Islom Karimov ko'chasi, 130100, 4-uy]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

XORIJDA MUSIQA O‘QITUVCHILARI TAYYORLASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH AMALIYOTI

© X.K. Shermatova[1]✉

[1]Qo‘qon pedagogika institut, Qo‘qon, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada xorijda musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish tajribasi ko‘rib chiqiladi. Raqamli va multimedia vositalariga asoslangan zamonaviy ta’lim yondashuvlari, ularning pedagogik tayyorgarlik samaradorligi va ijodkorlikka ta’siri yoritiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi — xorijiy mamlakatlarda musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi tajribasini tahlil qilish va ularning zamonaviy professional kompetensiyalarni shakllantirishdagi rolini aniqlashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda xorijiy oliy o‘quv yurtlari o‘quv dasturlari kontent-tahlili, o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida so‘rovnoma, raqamli vositalardan foydalangan holda olib borilgan darslarni kuzatish usullari qo‘llanildi. Ma’lumotlar solishtirma va statistik tahlil asosida qayta ishlanib baholandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqotda virtual sinflar, nota tahrirlash dasturlari, interaktiv platformalar va VR/AR texnologiyalarining xorijiy musiqa ta’limida keng qo‘llanilishi aniqlangan. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini oshirishi, mustaqillik va ijodkor fikrlashni rivojlantirishi, yumshoq ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qilishi aniqlangan.

XULOSA: xorijda musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish raqamli davr talablariga javob beruvchi, raqobatbardosh va ijodiy mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari ushbu yondashuvlarni mahalliy musiqa ta’limi tizimiga joriy qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: musiqa ta’limi, musiqa o‘qituvchisi, innovatsion texnologiyalar, raqamli platformalar, interaktiv ta’lim, professional kompetensiya.

Iqtibos uchun: Shermatova X.K. Xorijda musiqa o‘qituvchilari tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish amaliyoti.// Inter education & global study. 2025. №3. B.501-508.

ПРАКТИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДГОТОВКЕ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ ЗА РУБЕЖОМ

© Х.К. Шерматова[1]✉

[1]Коканский педагогический институт, Коканд, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматривается опыт использования инновационных технологий в процессе подготовки преподавателей музыки за рубежом. Освещаются современные подходы к обучению, основанные на цифровых и мультимедийных инструментах, а также их влияние на эффективность и креативность педагогической подготовки.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — анализировать зарубежный опыт применения инновационных технологий в подготовке преподавателей музыки и выявить их роль в формировании современных профессиональных компетенций.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы методы контент-анализа учебных программ зарубежных вузов, анкетирования преподавателей и студентов, а также наблюдение за учебными занятиями с применением цифровых ресурсов. Обработка данных проводилась с использованием сравнительного и статистического анализа.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: выявлено, что такие технологии, как виртуальные классы, программы по редактированию нот, интерактивные платформы и элементы VR/AR, активно используются в музыкальном образовании. Результаты показывают, что применение технологий повышает учебную мотивацию, способствует развитию самостоятельности, креативного мышления и гибких навыков у будущих преподавателей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: использование инновационных технологий в подготовке преподавателей музыки за рубежом способствует формированию конкурентоспособных, креативных специалистов, способных адаптироваться к условиям цифрового общества. Полученные результаты подтверждают целесообразность внедрения аналогичных подходов в локальную систему музыкального образования.

Ключевые слова: музыкальное образование, преподаватель музыки, инновационные технологии, цифровые платформы, интерактивное обучение, профессиональная компетентность.

Для цитирования: Шерматова Х.К. Практика использования инновационных технологий в подготовке учителей музыки за рубежом.// Inter education & global study.2025. №3. С. 501-508.

THE PRACTICE OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE TRAINING OF MUSIC TEACHERS ABROAD

© Xurshida K. Shermatova[1]✉
[1]Kokand Pedagogical Institute, Kokand, Uzbekistan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

INTRODUCTION: the article explores the use of innovative technologies in the training of music teachers abroad. It highlights modern digital and multimedia-based educational approaches and their impact on the effectiveness and creativity of pedagogical preparation.

AIM: the main goal of the study is to analyze international practices in the application of innovative technologies in music teacher education and to determine their role in shaping professional competencies.

MATERIALS AND METHODS: the research involved content analysis of academic programs from foreign universities, surveys with music educators and students, and observation of classes using digital tools. Comparative and statistical analyses were applied to process the data.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings revealed that virtual classrooms, notation software, interactive platforms, and VR/AR technologies are widely integrated into music education abroad. These tools enhance learning motivation, foster creativity, promote independent thinking, and develop soft skills in future educators.

CONCLUSION: the application of innovative technologies in music teacher education abroad contributes to the preparation of competitive and creative specialists suited to the demands of the digital era. The results support the relevance of adopting similar methodologies in national music education systems.

Keywords: music education, music teacher, innovative technologies, digital platforms, interactive learning, professional competence**.**

For citation: Xurshida K. Shermatova. (2025) ‘The practice of using innovative technologies in the training of music teachers abroad’, Inter education & global study, (3), pp. 501-508. (In Uzbek).

Zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko‘plab sohalarda, jumladan, musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash tizimida ham alohida e’tibor qozonib bormoqda. Musiqa san’ati o‘quvchilarda estetik didni shakllantirish, ijodkorlikni rivojlantirish va madaniy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Shu bois xorijiy tajribada musiqa o‘qituvchisini tayyorlash sifati va samaradorligi davlatning umumta’lim, o‘rta maxsus va oliy ta’lim siyosati doirasida doimiy ravishda takomillashtirilib keladi. Ayniqsa, zamonaviy raqamli vositalarning paydo bo‘lishi va ularning ta’lim jarayoniga keng qo‘llanilishi musiqa fani o‘qituvchilariga qo‘yilgan talablarni yangilashni taqozo etmoqda. Endilikda musiqa o‘qituvchisi nafaqat an’anaviy usullarni yaxshi bilishi, balki kompyuter texnologiyalari, virtual platformalar, interaktiv vositalar va multimediya resurslarini puxta egallagan bo‘lishi zarur.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda musiqa o‘qituvchisini tayyorlashga zamonaviy texnologiyalarni hamohang joriy etish orqali o‘quv jarayonini takomillashtirish, talabalarda mustahkam ijodiy ko‘nikmalarni shakllantirish hamda ularni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

mustaqil amaliy izlanishga yo‘naltirish mumkin. Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya singari davlatlarda musiqiy pedagogika dasturlari raqamli musiqa texnologiyalari, onlayn platformalar, virtual sinflar, elektron nota o‘qish dasturlari va hatto sun’iy intellektga asoslangan mashqlar bilan boyitilgan. Bu esa o‘quvchilarga asboblarni interaktiv shaklda o‘rganish, musiqa nazariyasini chuqur tahlil qilish, mustaqil talqinlar qilish va ijodiy tajribalarni ko‘paytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, o‘quvchilar xorijiy musiqa maktablari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri onlayn hamkorlik qilishi, turli musiqiy loyihalar va xalqaro tanlovlarda qatnashishi, chuqur fanlararo integratsiyani amalda sinab ko‘rishi ham ta’minlanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi xorijda musiqa o‘qituvchilari tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish amaliyotini IMRAD talablari doirasida o‘rganish va tahlil qilishdan iborat. Xorijiy tajribadan kelib chiqib, zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish metodi, olingan natijalar va ularning muhokamasi beriladi. Ushbu mavzuning dolzarbligi nafaqat xorijiy tajribani o‘rganish, balki mahalliy musiqa ta’limini rivojlantirish, xalqaro darajada raqobatbardosh bo‘lgan mutaxassislar tayyorlash bilan ham bevosita bog‘liq.

Tadqiqot jarayonida xorijiy musiqa ta’limi muassasalarida qo‘llanilayotgan innovatsion texnologiyalarni aniqlash va ularning samaradorligini baholash maqsadida qator metodik yondashuvlar tanlab olindi. Avvalo, musiqa ta’limiga ixtisoslashgan nufuzli xorijiy oliy o‘quv yurtlarining (masalan, Juilliard School (AQSh), Royal College of Music (Buyuk Britaniya), Hochschule für Musik und Theater (Germaniya), Seoul National University (Janubiy Koreya) va boshqalar) o‘quv rejalari, pedagogik dasturlari hamda amaliy mashg‘ulotlari tahlil qilindi. Ushbu muassasalar veb-saytlari, ilmiy maqolalari, o‘quv qo‘llanmalari va ma’lumot bazalari o‘rganilib, innovatsion texnologiyalarni kiritish jarayoniga doir ko‘rsatmalar yig‘ildi.

Ikkinchi bosqichda xorijiy oliy ta’lim muassasalarida ishlayotgan o‘qituvchilar va talabalarga onlayn so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomada qatnashganlarning 40 nafari musiqa o‘qituvchisi (ustoz) va 60 nafari musiqa yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar edi. Ular musiqa darslarida qo‘llanilayotgan innovatsion texnologiyalar, ularning samaradorligi, duch kelinayotgan muammolar va kelajakdagi takomillashtirish yo‘llariga doir savollarga javob berishdi. So‘rovnoma natijalari bizga musiqiy pedagogika jarayonida aynan qaysi innovatsion vositalar kengroq qo‘llanilayotgani, ularning talaba va o‘qituvchilarga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani haqida umumiy tasavvur hosil qilish imkonini berdi.

Keyingi bosqichda, muayyan xorijiy musiqa oliy ta’lim muassasalari (masalan, Janubiy Koreyadagi Seoul National University, Kanadadagi Toronto University) bilan hamkorlik qilinib, raqamli texnologiyalar bilan ta’minlangan sinfxonalardagi amaliy mashg‘ulotlarni kuzatish yo‘li bilan kuzatuv metodi qo‘llanildi. Raqamli sinfxonalarda nota tahrirlash dasturlari (Finale, Sibelius), virtual orkestr platformalari (NotePerformer, Garritan), o‘quvchilar bilan musiqiy interaktiv aloqa yaratuvchi onlayn vositalar (SmartMusic, Soundation), shuningdek, VR (virtual reallik) hamda AR (kengaytirilgan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

reallik) elementlari qay darajada qo‘llanilayotgani tahlil qilindi. Har bir kuzatuv mashg‘ulotidan so‘ng, u yerda ishtirok etgan o‘qituvchilar bilan suhbatlar o‘tkazildi, dars jarayoni va samaradorlik holati bo‘yicha ma’lumotlar yig‘ildi.

Olingan barcha ma’lumotlar matnlarni tahlil qilish, statistik qayta ishlash va taqqoslash metodlari yordamida saralandi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarning musiqa o‘qituvchisi tayyorlashdagi rolini chuqur yoritish maqsadida oldingi ilmiy tadqiqotlar bilan qiyosiy tahlil ham olib borildi. Bunda ayrim fanlararo omillar (psixologiya, pedagogika, musiqashunoslik, texnologiya) ham e’tiborga olindi.

Tadqiqot davomida aniqlangan muhim natijalardan biri shuki, xorijiy musiqa ta’limi muassasalarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish musiqa o‘qituvchilari tayyorlash jarayonini tubdan yengillashtirishi va boyitishi kuzatildi. Onlayn so‘rovnomaning natijalariga ko‘ra, qatnashgan o‘qituvchilarning 78 foizi raqamli texnologiyalar, virtual platformalar va interaktiv dasturlarni doimiy ravishda qo‘llashini ta’kidladi. Ularga ko‘ra, bunday texnologiyalar dars jarayonini yanada qiziqarli, samarali va ijodiy qilishi, talabalarda mustaqil izlanish ko‘nikmalarini rag‘batlantirishi, eng asosiysi, har bir yosh mutaxassisni zamonaviy talablarga mos holda shakllantirishi mumkin.

So‘rovnomada qatnashgan talabalar esa (ularning 85 foizi) interaktiv vositalar yordamida musiqiy asarlarni tahlil qilish, individual asbob chalish ko‘nikmalarini boyitish, ansambldagi uyg‘unlikni virtual shaklda sinab ko‘rish qulayroq ekanini ifoda etishdi. Masalan, SmartMusic dasturi orkestrda har bir asbobning partiyasini aniq eshitish, tezlikni moslashtirish, xatolarni avtomatik tarzda belgilab berish imkonini yaratishi tufayli talabalarda xatolarni tuzatish jarayoni tezlashadi. Ayrim virtual platformalar esa turli xalqlar musiqasini o‘rganish, yaratish va qayta ishlashga imkon berib, talabalar ongida xilma-xil ijodiy tajribalar shakllantiradi.

Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, xorijda musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda VR va AR texnologiyalaridan ham foydalana boshlashgan. Masalan, xonanda yoki cholg‘u ijrochisi sifatida virtual sahnada turli orkestrlar bilan sinov performanslarini amalga oshirish amaliyoti joriy etilgan. Talaba virtual muhitda zalning akustikasini, turli asboblar bilan uyg‘unlashuvni, sahnada turish madaniyatini amalda sinab ko‘rib, real ijroga yaqin tajribaga ega bo‘ladi. Albatta, bu texnologiyalar hozircha cheklangan doirada qo‘llanilmoqda, lekin bu jarayonning o‘zi xorijiy musiqa ta’limi muassasalari raqamli innovatsiyalarga intilayotganining belgisidir.

Natijalar orasida eng dolzarb xulosalardan yana biri shuki, an’anaviy musiqa pedagogikasini to‘liq inkor qilmay, balki uni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish ko‘proq samaradorlik keltiradi. Tajriba darslarida professorlar, murabbiy-o‘qituvchilar avvalo jonli ijroni, klassik uslubda chalish yoki kuylashni o‘rgatadi, so‘ngra texnologik dasturlar orqali tahlil, mustahkamlash va tajribani boyitish boshlandi. Bunday uyg‘unlik talabalarda chuqur nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar paydo bo‘lishiga, shuningdek, ijodiy izlanish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

Olingan natijalar xorijiy musiqa ta’limida innovatsion texnologiyalarga bo‘lgan talabning yuqori ekanini tasdiqlaydi. Ammo masalaning boshqa taraflari ham borki, ularni

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Avvalo, musiqa san’ati o‘quvchilari asosan ijodiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgani uchun, har qanday zamonaviy texnologiya ular uchun instrument sifatida xizmat qilishi kerak, asosiy maqsad musiqa tilini puxta egallash va ijodiy salohiyatni kengaytirishdir. Bu borada xorijiy muassasalar an’anaviy usul va texnologik usullarni muvozanatda saqlashga harakat qiladi. Chunki butunlay texnologiyaga tayanib, jonli ijro yoki jonli tajriba almashish jarayonini cheklash, asosan raqamli o‘quv materiallari bilan kifoyalanish — ijodkorlik rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq texnik va metodik muammolar ham mavjud. Masalan, har doim ham o‘quvchilar yoki talabalarda sifatli kompyuter, yaxshi internet aloqasi, kerakli apparat-uskunalar bo‘lmasligi mumkin. Xorijda, xususan, iqtisodiy rivojlanishi yuqori bo‘lgan davlatlarda ham bu masalalarga jiddiy e’tibor qaratiladi: har bir musiqa talabasi kerakli texnologik resurslar bilan ta’minlanishi, dars xonalarida raqamli audio va video uskunalar mavjud bo‘lishi, o‘qituvchilarning texnologik kompetensiyasini oshirish bo‘yicha doimiy kurslar tashkil etilishi va hokazo. Ana shu omillar xorijiy musiqa ta’limi muhitida innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llashni ta’minlaydi.

Innovatsion texnologiyalar musiqa o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoniga tatbiq etilganda, o‘qituvchi-talaba munosabati ham boshqa shaklga o‘tadi. An’anaviy “ustoz – shogird” modeli o‘rniga “murabbiy – hamkor” modeli paydo bo‘ladi, chunki talaba mustaqil ravishda texnologiyalardan foydalanib, ijodiy mashqlarning natijalarini tahlil qila boshlaydi, o‘qituvchi esa u bilan hamkorlikda xatolarni topish, yana-da chuqur amaliy tajriba orttirishiga ko‘maklashadi. Natijada o‘quv jarayoni yanada demokratik va talaba markazli tus oladi.

Shuningdek, xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, innovatsion texnologiyalar tez o‘zgarar ekan, ularni doimiy ravishda yangilab borish, o‘qituvchilarning IT savodxonligi va pedagogik kompetensiyasini doimiy oshirib turish lozim. Bu esa musiqa ta’limi tizimiga ham boshqaruv, ham moliyaviy, ham metodik nuqtayi nazardan yangicha yondashuvlarni kiritadi. Gap shundaki, bir qator ilg‘or xorijiy davlatlarda musiqa oliy ta’lim muassasalari bilan IT-kompaniyalar o‘rtasida mustahkam hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan: yangi dasturlar ishlab chiqish, virtual musiqa uskunalarini sinovdan o‘tkazish, talabalarning ijodiy loyihalarini qo‘llab-quvvatlash kabilar institut darajasida amalga oshiriladi. Natijada bu jarayon innovatsion ekotizimni yuzaga keltiradi, musiqa ta’limi imkoniyatlarini tobora kengaytiradi.

Xorijiy tajribani tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, musiqa o‘qituvchilari tayyorlash jarayoniga innovatsion texnologiyalarni keng tatbiq etish bir qator ijobiy samara beradi. Talabalarda nafaqat an’anaviy musiqa ijrochiligi va nazariyasiga oid bilimlar, balki zamonaviy texnika bilan ishlash, interaktiv platformalardan foydalanish, ijodiy loyihalarni yirik miqyosda amalga oshirish ko‘nikmalari shakllanadi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar ham yanada moslashuvchan, zamonaviy pedagogik amaliyot va raqamli texnologiyalarni

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

uyg‘unlashtira oladigan malakali mutaxassislarga aylanadi. Natijada musiqa san’ati fani yanada mazmunli, zamon talablari va o‘quvchilar qiziqishlariga mos tus oladi.

Albatta, innovatsion texnologiyalarni kiritishning o‘ziga xos qiyinchiliklari, jumladan, moliyaviy, texnik, metodik muammolar hamon dolzarbligini saqlab turibdi. Biroq xorijiy tajriba shuni tasdiqlaydiki, bu to‘siqlar yirik davlat dasturlari, xalqaro hamkorlik va xususiy sektor bilan qo‘shma loyihalarni rivojlantirish orqali yengib o‘tilmoqda. O‘qituvchilarning doimiy malaka oshirishi, innovatsion yechimlarni izlab topishi va talabalarning mustaqil ijodiy mashg‘ulotlarini qo‘llab-quvvatlash jarayonlari samarali natijalarga erishish uchun muhim shart sifatida ko‘riladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, xorijda musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish amaliyoti kelajakdagi raqamli jamiyat sharoitida raqobatbardosh va ijodkor kadrlar tayyorlashning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayon oldinga siljib borar ekan, musiqa ta’limi qandaydir tor mutaxassislar tayyorlashdan ko‘ra, fanlararo va ko‘pmaqsadli o‘quv-uslubiy tizimni shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Shu sababli, ushbu yangiliklar amaliyotini doimiy tahlil qilish, ularni mahalliy sharoitga moslashtirish va zarur resurslarni to‘g‘ri safarbar etish bugungi kunda ham, kelajakda ham musiqa pedagogikasining innovatsion rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ahrorov, S.Musiqa o‘qituvchilarini innovatsion texnologiyalar asosida tayyorlash: nazariya va amaliyot : monografiya / S. Ahrorov. — Toshkent : O‘qituvchi, 2020. — 256 b.
2. Kuznetsova, I. G.Integration of Technology and Music Education in Modern Universities : monograph / I. G. Kuznetsova. — Berlin : Springer, 2019. — 184 p.
3. Astanova, D.Musiqa ta’limida zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo‘llash tamoyillari / D. Astanova // Pedagogik innovatsiyalar jurnali. — 2021. — № 4. — B. 37–45.
4. Lowe, G. M.Music Teaching in the Digital Age / G. M. Lowe // Journal of Music Education. — 2020. — Vol. 45, No. 2. — P. 101–109.
5. Seoul National University (SNU).
6. College of Music Academic Programs : [rasmiy veb-sayt]. — Rejim kirish: https://music.snu.ac.kr/ (05.02.2025).
7. Barrot, J. S.Collaborative Online Learning in Music Education : a systematic review / J. S. Barrot // Computers & Education. — 2022. — Vol. 181. — P. 104447.
8. Zhong, J., Jafari, N.Virtual Reality Tools for Music Teachers’ Professional Development / J. Zhong, N. Jafari // International Journal of Music Education. — 2021. — Vol. 39, No. 4. — P. 328–342.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

9. Turaev, D. E.XORIJDA musiqa o‘qituvchilari tayyorlash tizimi bo‘yicha tajriba va istiqbollar / D. E. Turaev // Xalq ta’limi. — 2022. — № 2. — B. 28–34.
10. Royal College of Music (RCM).Innovative Pedagogies for Music Teachers: Course Descriptions : [rasmiy veb-sayt]. — Rejim kirish: https://www.rcm.ac.uk/ (10.01.2025).
11. Berkovich, M. N. Interactive Platforms for Music Theory and Performance : metod. qo‘llanma / M. N. Berkovich. — Nyu-York : Oxford University Press, 2021.—152 p

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Shermatova Xurshida Karimovna**, doktorant [**Шерматова Хуршида Каримовна**, докторант], [**Xurshida K. Shermatova,** doctoral student]; manzil: Qo'qon shahar, Turon ko'chasi, 23-uy, [адрес: г. Коканд, ул. Турана, д. 23], [address: Kokand, Turana str., 23]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

SAHNA MADANIYATI VA MUSIQIY CHIQISHLAR: NAZARIYA VA AMALIYOT

© D.N. Mo‘minova[1]✉

[1]Andijon davlat universiteti, Andijon, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada sahna madaniyati va musiqiy chiqishlarning nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil etiladi. Sahna madaniyati tushunchasi, uning musiqiy chiqishlarga ta’siri va san’atkorlarning sahnada o‘zini tutish qoidalari ilmiy nuqtayi nazardan yoritiladi. Shuningdek, musiqa ijrochiligining sahnaviy talablarga mosligi, artistizm, mimika, harakatlar va auditoriya bilan o‘zaro aloqaga kirishish kabi muhim jihatlar o‘rganiladi.

MAQSAD: tadqiqot maqsadi sahna madaniyatining ijro san’ati bilan uyg‘unligi, auditoriyaga estetik zavq ulashishdagi o‘rni va musiqiy chiqishlarning samaradorligini oshirish usullari ochib berishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: sahna madaniyatining eng muhim tamoyillaridan biri – ijrochining auditoriya bilan o‘zaro bog‘lanish qobiliyatidir. Har qanday musiqiy chiqish – bu bir tomonlama jarayon emas, balki ijrochi va tinglovchi o‘rtasidagi yashirin muloqotdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: sahna madaniyatini tahlil qilar ekanmiz, uning ijro san’ati bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rish mumkin. San’atkor uchun musiqa asbobini mukammal chalish yoki ovoz bilan mahoratli ishlashning o‘zi yetarli emas – u o‘zining jismoniy harakati, mimikasi, auditoriya bilan ko‘z aloqasi va nutqiy ifodalari orqali ham o‘zini namoyon etadi.

XULOSA: sahna madaniyati va musiqiy chiqishlar bir-birini to‘ldiruvchi muhim elementlar bo‘lib, ularning uyg‘unligi ijrochining muvaffaqiyatiga va san’atning yanada ommalashishiga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: sahna madaniyati, musiqiy chiqish, ijro san’ati, artistizm, auditoriya bilan aloqa, mimika, harakatlar, estetik zavq, ijro uslubi, sahnaviy talablar.

Iqtibos uchun: Mo‘minova D.N. Sahna madaniyati va musiqiy chiqishlar: nazariya va amaliyot. // Inter education & global study. 2025. №3 B.509–514.

СЦЕНИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И МУЗЫКАЛЬНЫЕ ВЫСТУПЛЕНИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

© Д.Н. Муминова[1]✉

[1]Андижанский государственный университет, Андижан, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются теоретические и практические аспекты сценической культуры и музыкального исполнительства. С научной точки зрения

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

исследуется понятие сценической культуры, ее влияние на музыкальные представления, правила поведения артистов на сцене. Также изучаются такие важные аспекты, как соответствие музыкального исполнения требованиям сцены, артистизм, мимика, движения и взаимодействие с аудиторией.

ЦЕЛЬ: целью исследования является выявление гармонии сценической культуры с исполнительским искусством, ее роли в доставке эстетического удовольствия зрителям, а также методов повышения эффективности музыкальных представлений.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: одним из важнейших принципов сценической культуры является умение исполнителя устанавливать связь с аудиторией. Любое музыкальное исполнение — это не односторонний процесс, а скрытый диалог между исполнителем и слушателем.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: анализируя сценическую культуру, мы видим, что она неразрывно связана с исполнительским искусством. Артисту недостаточно в совершенстве играть на музыкальном инструменте или искусно владеть голосом — он также выражает себя через свои физические движения, мимику, зрительный контакт с аудиторией и речевые выражения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: сценическая культура и музыкальные выступления являются важными, взаимодополняющими элементами, а их гармония способствует успеху исполнителя и дальнейшей популяризации искусства.

Ключевые слова: сценическая культура, музыкальное исполнение, исполнительское искусство, артистизм, коммуникация со зрителем, мимика, движения, эстетическое удовольствие, исполнительский стиль, сценические требования.

Для цитирования: Муминова Д.Н. Сценическая культура и музыкальные выступления: теория и практика. // Inter education & global study. 2025. №3. С. 509–514.

STAGE CULTURE AND MUSICAL PERFORMANCES: THEORY AND PRACTICE

© Dilfuza N. Mo‘minova[1]✉
[1]Andijan State University, Andijan, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article analyzes the theoretical and practical aspects of stage culture and musical performances. The concept of stage culture, its influence on musical performances, and the rules of behavior of artists on stage are covered from a scientific point of view. Also, important aspects such as the conformity of musical performance to stage requirements, artistry, mimicry, movements, and interaction with the audience are studied.

AIM: the purpose of the study is to reveal the harmony of stage culture with performing arts, its role in providing aesthetic pleasure to the audience, and ways to increase the effectiveness of musical performances.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

MATERIALS AND METHODS: one of the most important principles of stage culture is the performer's ability to interact with the audience. Any musical performance is not a one-way process, but a hidden dialogue between the performer and the listener.

DISCUSSION AND RESULTS: analyzing stage culture, one can see its inextricable connection with performing arts. It is not enough for an artist to play a musical instrument perfectly or work skillfully with his voice - he also expresses himself through his physical movements, facial expressions, eye contact with the audience, and speech expressions.

CONCLUSION: stage culture and musical performances are important complementary elements, and their harmony contributes to the success of the performer and the further popularization of art.

Keywords: stage culture, musical performance, performing arts, artistry, audience communication, facial expressions, movements, aesthetic pleasure, performance style, stage requirements.

For citation: Dilfuza N. Mo‘minova. (2025) ‘Stage culture and musical performances: theory and practice’, Inter education & global study, (3), pp. 509–514. (In Uzbek).

Sahna – bu nafaqat san’atning namoyish etiladigan makoni, balki ijrochi va tomoshabin o‘rtasidagi ruhiy va hissiy bog‘liqlikni o‘rnatadigan muqaddas maydondir. San’atkor sahnaga qadam qo‘yar ekan, u nafaqat musiqiy chiqishini taqdim etadi, balki o‘zining ichki dunyosini, his-tuyg‘ularini, ijodiy qarashlarini ham namoyon qiladi. Sahna madaniyati esa bu jarayonda eng muhim omillardan biri bo‘lib, ijro san’atining muvaffaqiyatini belgilovchi mezon sifatida namoyon bo‘ladi.

Musiqiy chiqish faqatgina tovushlar uyg‘unligi emas, balki undagi har bir ohang, harakat va hissiyot auditoriyaga yetib borishi uchun o‘ziga xos sahnaviy ifodaga ehtiyoj sezadi. Chiroyli sahna madaniyati esa tomoshabinni ilk daqiqalardan jalb etib, ijrochini yanada ishonchli va professional qilib ko‘rsatadi. Qadimdan san’at ixlosmandlari ijro san’atining go‘zalligidan zavqlanib kelgan, ammo bu go‘zallik faqatgina musiqada emas, balki sahnada o‘zini tutish, harakatlar, liboslar, nutq madaniyati kabi omillar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Zamonaviy musiqa ijrochiligida sahna madaniyati yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. San’atkorning ovoz tembri, kuy va ritm bilan ishlash mahorati qanchalik muhim bo‘lsa, uning sahnadagi erkinligi, tabiiyligi va tomoshabin bilan o‘zaro aloqasi ham shunchalik zarurdir. Chunki sahna – bu faqat san’atkorning emas, balki butun bir jamoaning, madaniy merosning, ma’naviy qadriyatlarning aks etadigan maydonidir. Ushbu maqolada sahna madaniyatining musiqiy chiqishlar bilan uyg‘unligi, ijrochining sahnada o‘zini tutish qoidalari, artistizm va auditoriya bilan o‘zaro aloqaning ahamiyati nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Sahna madaniyati: san’atning ruhiy ko‘zgusi: sahna – bu sehrli makon. Unga qadam qo‘ygan har bir san’atkor o‘z ijodi, iste’dodi va qalbini namoyon etadi. Ammo sahna faqatgina ijro maydoni emas, balki o‘ziga xos odob-axloq, estetik did va mas’uliyat talab qiluvchi muhitdir. Sahna madaniyati esa ijrochining ichki va tashqi dunyosini uyg‘unlashtiruvchi, uning san’atini to‘liq shakllantiruvchi muhim omildir. San’atkor sahnaga chiqqan paytdan boshlab, u tomoshabin e’tibor markazida

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

bo‘ladi. Uning har bir harakati, imo-ishoralari, nutqi va hattoki sukuti ham tomoshabin qalbida taassurot uyg‘otadi. Shuning uchun ham sahna madaniyati – bu shunchaki tashqi muvofiqlik emas, balki ichki ma’naviyat, intizom va san’atga bo‘lgan munosabatning ifodasidir. Ijrochi nafaqat musiqiy mahoratini, balki o‘zining sahnadagi madaniyati bilan ham tinglovchiga zavq ulashishi kerak.

Sahna madaniyatining eng muhim tamoyillaridan biri – ijrochining auditoriya bilan o‘zaro bog‘lanish qobiliyatidir. Har qanday musiqiy chiqish – bu bir tomonlama jarayon emas, balki ijrochi va tinglovchi o‘rtasidagi yashirin muloqotdir. Agar san’atkor sahnada o‘zini ishonchli tutsa, tabiiy harakat qilsa va samimiy his-tuyg‘ularini ifodalasa, tinglovchi ham uni his qiladi, ijrodan zavqlanadi. Sahna madaniyati nafaqat ijrochining o‘zini tutish qoidalarini, balki uning tomoshabinga qanday ta’sir o‘tkazishini ham o‘z ichiga oladi.

KIRISH: makom o'zbek musiqa an'analarida keng tarqalgan noyob musiqa shaklidir. U mintaqaning madaniy va tarixiy xususiyatlarini aks ettiruvchi Markaziy Osiyoning klassik musiqiy merosida Markaziy o'rinni egallaydi. Makom zamonaviy musiqachilar va bastakorlar tomonidan ishlab chiqilgan va moslashtirilgan bo'lib, uni zamonaviy musiqiy madaniyat kontekstida dolzarb qiladi.

MAQSAD: makomning tarkibiy xususiyatlarini, stilistik, ritmik va tembr intonatsiyalarini o'rganish, shuningdek, o'zbek kompozitorlarining zamonaviy musiqa makonida makomlarning rivojlanishi va talqiniga ta'sirini tahlil qilish.

MATERIALLAR VA USULLAR: tadqiqotda o'zbek kompozitorlarining tarixiy manbalari, musiqiy-nazariy asarlari va asarlarini tahlil qilishni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvdan foydalanildi. Shuningdek, makomning o'ziga xos stilistik intonatsiyalarini aniqlash uchun qiyosiy tahlil va musiqiy talqin usullari qo'llanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: makom, murakkab musiqiy va she'riy asar sifatida noyob intonatsion tuzilish bilan ajralib turadi. Maqolada sho'be, mug'am, daromad kabi makomning asosiy tarkibiy qismlari, shuningdek ularning asarlarning melodik va ritmik rivojlanishiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Makomning asosiy stilistik intonatsiyalari, shu jumladan: melodik (tartibni tashkil etish xususiyatlari, xarakterli melodik kadanslar); ritmik (usullardan foydalanish, sinkoplar, o'zgaruvchan o'lchamlar); tembr (an'anaviy o'zbek asboblarining maqom tovushiga ta'siri).

Yunus Rajabiy va Mustafo Baykadamov kabi o'zbek kompozitorlarining makomlarni rivojlantirish va ularni orkestr ijroiga moslashtirishdagi roli tahlil qilinadi. Ta'kidlanishicha, zamonaviy bastakorlar makom elementlarini simfonik va kamerali asarlarga faol ravishda qo'shib, uning ovozini boyitib, keng auditoriyaga taqdim etishmoqda.

Xulosa: makom o'zbek musiqa madaniyatining muhim elementi bo'lib qolmoqda, tarixiy merosini saqlab kelmoqda va yangi musiqiy kontekstlarda rivojlanmoqda. Makomning stilistik, ritmik va tembrli intonatsiyalarini o'rganish uning badiiy ahamiyati va

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

zamonaviy musiqa san'atidagi rolini chuqurroq tushunishga imkon beradi. O'zbek bastakorlarining maqom evolyutsiyasiga ta'siri milliy musiqiy o'ziga xoslikni shakllantirishda an'analarning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: makom, o'zbek kompozitorlari, intonatsion tuzum, stilistik texnika, melodik tuzilma, ritmika, uyg'unlik, milliy musiqa madaniyati, musiqa janri, an'analar va zamonaviy tendentsiyalar.

Iqtibos uchun: Raximova N.K. O‘zbek kompozitorlari maqomidagi stilistik intonatsiyalar. // Inter education & global study. 2025. №3. C. 530–537.

STYLISTIC INTONATIONS IN THE MAQOM OF UZBEK COMPOSERS

© Nigina K. Rakhimova[1]✉
[1]Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: makom is a unique musical form widely represented in the Uzbek musical tradition. It occupies a central place in the classical musical heritage of Central Asia, reflecting the cultural and historical features of the region. Macom is being developed and adapted by modern musicians and composers, which makes it relevant in the context of modern musical culture.

AIM: the purpose of this article is to study the structural features of maqoms, stylistic, rhythmic and timbre intonations, as well as to analyze the influence of Uzbek composers on the development and interpretation of maqoms in the modern musical space.

MATERIALS AND METHODS: the study uses a comprehensive approach, including the analysis of historical sources, musical and theoretical works and works of Uzbek composers. Methods of comparative analysis and musical interpretation were also applied in order to identify the characteristic stylistic intonations of the maqom.

DISCUSSION AND RESULTS: Makom, as a complex musical and poetic work, is characterized by a unique intonation structure. The article examines the main structural components of the maqam, such as sho'be, mugham, and daromad, as well as their influence on the melodic and rhythmic development of works. The main stylistic intonations of the maqom are highlighted, including: melodic (features of the fret organization, characteristic melodic cadences); rhythmic (use of usuls, syncopation, variable sizes); timbre (the influence of traditional Uzbek instruments on the sound of the maqom).

The article analyzes the role of Uzbek composers such as Yunus Rajabiy and Mustafa Baykadamov in the development of maqoms and their adaptation for orchestral performance. It is noted that modern composers actively integrate maqom elements into symphonic and chamber works, enriching its sound and making it accessible to a wide audience.

CONCLUSION: The poppy remains an important element of Uzbek musical culture, preserving its historical heritage and developing in new musical contexts. The study of the stylistic, rhythmic and timbre intonations of the maqom allows for a deeper understanding

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

of its artistic value and role in modern musical art. The influence of Uzbek composers on the evolution of the maqom underscores the importance of tradition in shaping national musical identity.

Key words: maqom, Uzbek composers, intonation structure, stylistic techniques, melodic structure, rhythm, harmony, national musical culture, musical genre, traditions and modern trends.

For citation: Nigina K. Rakhimova. (2025) 'Stylistic intonations in the maqom of Uzbek composers', Inter education & global study, (3), pp. 530–537. (In Russ).

Маком – это уникальная музыкальная форма, которая широко представлена в узбекской музыкальной традиции. Он является важной частью классического музыкального наследия Средней Азии, в том числе Узбекистана. В основе макома лежит сложная структура мелодических и ритмических интонаций, которые могут варьироваться в зависимости от региона и исполнения. Маком получил особое развитие благодаря композиторам и музыкантам, адаптировавшим его к современной музыкальной культуре. В данной статье мы рассмотрим структурные особенности макома, а также стилистические, ритмические и тембровые интонации, проанализируем влияние узбекских композиторов на развитие макомов и их интерпретацию в современном контексте.

Маком — это традиционная форма музыкального искусства Центральной Азии, в частности, Узбекистана. Это сложное музыкально-поэтическое произведение, в котором тесно переплетаются музыкальные и текстовые элементы. Уникальность макома заключается в его интонационной структуре, которая отражает культурное наследие и исторические особенности региона.

Исторический контекст. Маком берет свои корни в древних музыкальных традициях, впитывая в себя элементы различных культур и народов, проходивших через территорию Узбекистана. Влияние персидской, арабской и тюркской культур создало уникальную звуковую палитру, которая находит свое отражение в макоме [1]. Структура и особенности макома. Маком делится на несколько разделов, каждый из которых имеет свою собственную музыкальную и поэтическую логику. Основные компоненты макома включают:

Шуба: основная мелодическая линия, которая задает тон всему произведению.

Мугам: импровизационные элементы, которые добавляют вариативность и индивидуальность исполнения.

Даромад: вступительная часть, вводящая слушателя в основное музыкальное полотно.

Маком представляет собой музыкальный лад или систему ладов, которые организованы по определённым принципам. В классической системе узбекского макома существуют несколько основных разделений, таких как шуба (раздел) и баст (начальный раздел). Центральной частью является мелодическое развитие, которое отражает эмоции и идеи, заложенные в произведении.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Шуба и баст – это вступительные разделы, где задаётся основная мелодическая и ритмическая тема.

Мухаммас и само – дальнейшее развитие темы, где мелодия становится более насыщенной и динамичной.

Тарана и юг – финальные разделы, в которых мелодия достигает своего кульминационного момента и затем плавно угасает.

В каждом из этих разделов прослеживается чёткая логика развития музыкального материала, которая может варьироваться в зависимости от традиций и интерпретации музыкантов. Композиторы используют сложные мелодические и ритмические ходы, которые отличают маком от других музыкальных стилей [2]. Стилистические интонации в макоме узбекских композиторов можно разделить на несколько категорий:

Мелодические интонации: Эти интонации формируются на основе характерных мелодических ходов и интервалов. Например, использование специфических ладов (шакарим, душарим и т.д.) придает макому его уникальное звучание.

Ритмические интонации: Ритмическая структура макома отличается разнообразием и сложностью. Часто используются неравномерные ритмы, что создает ощущение плавности и текучести музыки.

Тембровые интонации: Важную роль играют тембры традиционных узбекских инструментов, таких как дутар, танбур, нагора и карнай. Эти инструменты придают макому своеобразный звуковой колорит. Стилистические интонации макома тесно связаны с характером исполнения и мелодической организации. Они играют важную роль в передаче эмоций и глубинного смысла произведения. Интонация, в данном случае, понимается как своеобразная «речь» музыкального произведения.

Особенности стилистических интонаций: ладовая организация – одна из ключевых стилистических особенностей. узбекский маком использует уникальные лады, такие как усул (особый ритмический рисунок) и мухаммас; мелодические каденции – заканчиваются на устойчивых тониках, что придаёт произведению завершённый и гармоничный характер; орнаментика – в узбекском макоме используются характерные мелодические украшения, которые могут быть дополнены микротоновыми шагами и синкопами, что делает интонации особенно выразительными.

Эти элементы помогают композиторам создать глубокие и эмоциональные произведения, передающие как радость, так и грусть.

Ритмические интонации. Ритм в макоме является ключевым компонентом, который поддерживает общее настроение произведения и помогает развить мелодическую линию. Ритмические интонации в узбекском макоме зависят от использования различных размеров, которые могут быть как симметричными, так и асимметричными.

Примеры ритмических интонаций: усул – ритмический паттерн, который повторяется на протяжении всего произведения и создаёт основу для импровизации;

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

тарона – короткие ритмические фразы, которые повторяются с небольшими вариациями, создавая уникальный ритмический рисунок; синкопы и переменные размеры – некоторые макомы используют изменяющийся метр, который создаёт ощущение свободного ритмического течения, позволяя мелодии звучать более естественно и импровизационно.

Таким образом, ритмические интонации могут варьироваться в зависимости от настроения произведения и стиля исполнения.

Тембровые интонации**.** Тембр играет важную роль в макоме, особенно в исполнении на традиционных узбекских инструментах, таких как дутар, рубаб и сато [3]. Каждый инструмент имеет свой уникальный тембровый окрас, который помогает создать атмосферу и передать характер произведения.

Особенности тембровых интонаций: традиционные инструменты – дутар с его мягким и плавным звуком часто используется для исполнения медленных и лирических макомов, тогда как рубаб, с более ярким и резким звуком, подчёркивает динамичные и ритмически насыщенные фрагменты; тембровая полифония – использование нескольких инструментов одновременно создаёт эффект многослойности, где каждый инструмент отвечает за свою часть музыкальной палитры; тембровые изменения – композиторы часто используют изменение тембра в одном произведении для создания контрастов, подчёркивая кульминационные моменты или меняя настроение.

Это сочетание различных тембров позволяет исполнителям достигать глубокого эмоционального отклика у слушателей.

Структура и особенности макома. Маком представляет собой музыкальный лад или систему ладов, которые организованы по определённым принципам. В классической системе узбекского макома существуют несколько основных разделений, таких как шуба (раздел) и баст (начальный раздел). Центральной частью является мелодическое развитие, которое отражает эмоции и идеи, заложенные в произведении.

Влияние узбекских композиторов. Композитор – сочинитель музыки, который в своих произведениях может объединить разные направления, стили и техники. Узбекская композиторская школа развивалась во время советских времен и бурно развивалась. XX век для узбекской музыки стал очень своеобразным и плодотворным веком [4]. Потому что, как нам известно, на это повлияло всё, что нас окружало, это и социальная жизнь, это и бытовая жизнь, это и произошедшие истории, это и формирование нового мышления человечества. То, что происходило вокруг нас, несомненно показало свое отражение в разных видах искусства, в том числе и в музыке [5].

В XX веке узбекские композиторы внесли значительный вклад в развитие и популяризацию макомов, адаптировав традиционные мелодические и ритмические элементы к современным формам [6]. Такие композиторы, как Мухаммаджан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Мирзаев и Юнус Раджабий, известны своими работами по сохранению и реконструкции макомов, а также по их адаптации к оркестровому исполнению.

Влияние композиторов и бастакоров:

Юнус Раджабий – один из самых известных исследователей макома, внёсших вклад в его популяризацию и адаптацию для современных оркестров.

Мустафа Байкадамов – использовал элементы макома в своих симфонических произведениях, сочетая традиционные узбекские мелодии с европейскими музыкальными формами.

Фазлиддин Шарафов и Тургун Алиматов интегрировали в маком новые мелодические и ритмические элементы, обогащая его звучание и делая его доступным для широкой аудитории.

Новый этап узбекской национальной композиторской школы начинается в соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан от 26 мая 2020 года № ПФ-6000 «О мерах по дальнейшему повышению роли и влияния сферы культуры и искусства в жизни общества». 02 сентября 2020 года по Постановлению Кабинета Министров Республики Узбекистан «Об организации деятельности Узбекского национального института музыкального искусства имени Юнуса Раджаби» был организован Институт узбекского национального музыкального искусства имени Юнуса Раджаби. В институте делается упор на изучение основ макомного творчества. В последствии развитие данного направления в соответствии современных методов и инновационных подходов, посредством новых аранжировок и обработок частей макома [7].

Современные узбекские композиторы продолжают развивать традиции макома, внося в него элементы современной музыки [8]. Композиторы не только сохранили традиции макома, но и расширили его возможности, что способствовало возрождению интереса к классическому узбекскому музыкальному наследию. Конечно, на практике чем менее развит ученик, тем больше разговоров и объяснений, тем тщательнее и настойчивее работа преподавателя. Необходимо добиться конкретного воплощения своих высказываний и предложений в звуке, фразе, нюансе [9].

Маком — это не только музыкальная форма, но и важный элемент культурного наследия Узбекистана. Стилистические интонации, использованные узбекскими композиторами, отражают богатство и разнообразие этого жанра, сохраняя его традиции и одновременно развивая их в новом направлении.

Маком узбекских композиторов является уникальным явлением в мировой музыкальной культуре. Его сложная структура, мелодические и ритмические интонации, использование различных тембров и влияние национальных традиций делают маком важной частью музыкальной идентичности Узбекистана. Узбекские композиторы XX века продолжили эту традицию, обогащая её новыми элементами и адаптируя к современности [10]. Важно, чтобы маком и далее сохранялся, и развивался как важнейшая часть культурного наследия Средней Азии.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Г. Хасанова, «Процесс пошел» Проблемы современной науки и образования, т. 4, pp. 87-90, 2022.
2. S. Ibragimova, «Talabalarning Fortepiano Cholg’usida Ijro Etish Malakalarini Rivojlantirish Va Tovushni Tiniq, Ravshan Ijrosi Texnikasi Ustida Ishlash,» Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, т. 4, № 6, p. 143–147, 2024.
3. V. Khandamian и A. Khasanov, «Building a Library of Samples (Kontakt) of The Uzbek Traditional Dutar» Eurasian music science journal, pp. 45-52, 2021.
4. D. Rajabova, «The importance of teaching general piano science in music and art higher education institutions» International Journal of Pedagogics, т. 4, № 9, pp. 40-43, 2024.
5. Н. Махаров, «Становление узбекской национальной композиторской школы,» № 35, 2017.
6. D. Rasulov, "Zamonaviy Estrada va Kompozitorlik san’atining xozirgi kundagi yutuq va kamchiliklari" Science and Innovation., vol. 1, no. 6, 2022.
7. Н. Махаров, «Новая ветвь узбекской национальной композиторской школы,» в Музыкальная культура народов Востока: принципы творческой адаптации в условиях глобализации, 2024.
8. А. Хасанов, «Теория Восточной Музыки, Трактовка.,» Проблемы современной науки и образования, т. 2, № 171, pp. 41-42, 2022.
9. N. Rakhimova, «The importance of teaching cantilena in the piano classes» Проблемы современной науки и образования, № 2 (171), pp. 103-109, 2022.
10. Н. Мирзажонова, «Творчество композиторов Узбекистана в фортепианной ансамблевой педагогике,» в O‘zbek milliy musiqa san’atining yangi tendensiyalari, 2023.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Rahimova Nigina Qahramonjonovna**, katta o‘qituvchi, [**Рахимова Нигина Кахрамонжоновна,** Старший преподаватель],[**Nigina K. Rahimova,** Senior lecturer]; manzil: O‘zbekiston, Toshkent sh., Mustaqillik shoh ko'chasi, 31-uy [адрес: Узбекистан, ул. Мустакиллик, 31, г. Ташкент], [address: Uzbekistan, 31, Mustaqillik Avenuest., Tashkent city].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

PEDAGOGIK MADANIYATDA PEDAGOGIK IJODKORLIK MASALASI

© K.V. Nishonboeva[1]✉

[1]O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada Pedagogik madaniyat tushunchasi, pedagogik madaniyat va uning zamonaviy muammolari, pedagogik madaniyat shakllanishi, mazmuni va mohiyati xamda shaxs tarbiyasi va madaniyatida pedagogik ijodkorlik, uning tutgan o‘rni, pedagogik madaniyatning ilmiy -nazariy va metodologik asoslari yoritilgan.

MAQSAD: mazkur maqolaning asosiy maqsadi pedagogik madaniyat va pedagogik ijodkorlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilish, pedagogik ijodkorlikning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini aniqlash hamda zamonaviy ta’lim tizimida pedagogik madaniyatni rivojlantirishning samarali usullarini aniqlashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida quyidagi materiallar va metodlardan foydalanildi: nazariy tahlil – pedagogik madaniyat va ijodkorlik bo‘yicha ilmiy adabiyotlar o‘rganildi; komparativ tahlil – pedagogik madaniyat shakllanishi va rivojlanishi turli ta’lim tizimlarida solishtirildi; empirik tadqiqot – o‘qituvchilarning pedagogik ijodkorlik darajasini aniqlash uchun tajriba va kuzatish usullari qo‘llanildi; sotsiologik tadqiqot – pedagogik madaniyatning ta’lim jarayoniga ta’sirini aniqlash uchun o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazildi; innovatsion pedagogik metodlar – zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar o‘rganildi va tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki: Pedagogik madaniyatning shakllanishida pedagogik ijodkorlik muhim omil hisoblanadi. O‘qituvchilarning ijodkorligi ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Pedagogik madaniyat faqat nazariy bilimlar yig‘indisi emas, balki amaliy ko‘nikmalar tizimi hamdir. Bu o‘qituvchining o‘z kasbiga bo‘lgan yondashuvi, metodlari va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash mahoratida namoyon bo‘ladi. Pedagogik ijodkorlik o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘z ustida ishlovchi, yangiliklarni tatbiq etuvchi pedagoglar o‘quvchilarga yanada samarali ta’lim bera oladilar.

Zamonaviy ta’lim tizimida pedagogik madaniyatning rivojlanishi innovatsion metodlarni joriy etish bilan bog‘liq. Shu sababli, o‘qituvchilar doimiy ravishda yangi pedagogik yondashuvlarni o‘rganishlari va tatbiq etishlari kerak. Pedagogik ijodkorlik ta’lim jarayonining motivatsion aspektlarini oshiradi. O‘quvchilarga individual yondashuv, ta’lim jarayonining interaktiv va kreativ shakllaridan foydalanish natijasida ta’lim samaradorligi ortadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

XULOSA: pedagogik madaniyat va pedagogik ijodkorlik zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Pedagogik ijodkorlik o‘qituvchi faoliyatining samaradorligini oshirish, ta’lim jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish hamda o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga xizmat qiladi. Shu sababli, ta’lim muassasalarida pedagogik madaniyatni shakllantirish va pedagogik ijodkorlikni rivojlantirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Kalit so'zlar: pedagogik madaniyat, pedagogik tarbiya, pedagogik ijodkorlik, shaxs tarbiyasi, pedagogik mahorat.

Iqtibos uchun: Nishonboeva K.V. Pedagogik madaniyatda pedagogik ijodkorlik masalasi. // Inter education & global study. 2025. №3 B.538–547.

ВОПРОС ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ

© К.В. Нишонбоева[1]✉
[1]Ташкентский государственный институт искусств и культуры, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматриваются понятие педагогической культуры, ее современные проблемы, формирование, содержание и сущность. Также освещаются вопросы роли педагогического творчества в воспитании личности и культуре, а также научно-теоретические и методологические основы педагогической культуры.

ЦЕЛЬ: основной целью данной статьи является анализ взаимосвязи между педагогической культурой и педагогическим творчеством, определение значения педагогического творчества в образовательном процессе, а также выявление эффективных методов развития педагогической культуры в современной системе образования.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования использовались следующие материалы и методы: теоретический анализ – изучение научной литературы по педагогической культуре и творчеству; компаративный анализ – сравнение формирования и развития педагогической культуры в различных системах образования; эмпирическое исследование – применение методов эксперимента и наблюдения для определения уровня педагогического творчества у преподавателей; социологическое исследование – проведение опросов среди преподавателей и студентов для выявления влияния педагогической культуры на образовательный процесс; инновационные педагогические методы – изучение и анализ современных педагогических подходов и технологий.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что: педагогическое творчество играет важную роль в формировании педагогической

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

культуры. Кративность преподавателей повышает эффективность образовательного процесса.

Педагогическая культура включает не только теоретические знания, но и систему практических навыков. Это проявляется в подходе преподавателя к своей профессии, методах и способности применять инновационные педагогические технологии.

Педагогическое творчество положительно влияет на профессиональное развитие преподавателей. Преподаватели, постоянно совершенствующие свои навыки и внедряющие новшества, могут обеспечивать более качественное обучение.

Развитие педагогической культуры в современной системе образования связано с внедрением инновационных методов. Поэтому преподаватели должны регулярно изучать и применять новые педагогические подходы.

Педагогическое творчество повышает мотивацию в образовательном процессе. Использование индивидуального подхода, интерактивных и креативных методов обучения способствует повышению эффективности обучения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: педагогическая культура и педагогическое творчество являются неотъемлемой частью современного образовательного процесса. Педагогическое творчество способствует повышению эффективности деятельности преподавателя, организации образовательного процесса на основе инновационных технологий и делает процесс обучения более интересным и продуктивным. В связи с этим необходимо внедрение системных мер по формированию педагогической культуры и развитию педагогического творчества в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: педагогическая культура, педагогическое воспитание, педагогическое творчество, воспитание личности, педагогическое мастерство.

Для цитирования: Нишонбоева К.В. Вопрос педагогического творчества в педагогической культуре. // Inter education & global study. 2025. №3. С. 538–547.

THE ISSUE OF PEDAGOGICAL CREATIVITY IN PEDAGOGICAL CULTURE

© Kunduzxon V. Nishonboeva[1]✉
[1]Tashkent State Institute of Arts and Culture, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article examines the concept of pedagogical culture, its modern challenges, its formation, content, and essence. It also highlights the role of pedagogical creativity in personality development and culture, as well as the scientific-theoretical and methodological foundations of pedagogical culture.

AIM: the main objective of this article is to analyze the relationship between pedagogical culture and pedagogical creativity, determine the importance of pedagogical creativity in the educational process, and identify effective methods for developing pedagogical culture in the modern education system.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

MATERIALS AND METHODS: the study utilized the following materials and methods: theoretical analysis – review of scientific literature on pedagogical culture and creativity; comparative analysis – comparison of the formation and development of pedagogical culture in various educational systems; empirical research – use of experimental and observational methods to assess the level of pedagogical creativity among teachers; sociological research – conducting surveys among teachers and students to determine the impact of pedagogical culture on the educational process; innovative pedagogical methods – study and analysis of modern pedagogical approaches and technologies.

DISCUSSION AND RESULTS: the research findings indicate that: edagogical creativity plays a crucial role in shaping pedagogical culture. Teachers' creativity enhances the effectiveness of the educational process. Pedagogical culture is not just a set of theoretical knowledge but also a system of practical skills. This is reflected in the teacher's approach to their profession, methodologies, and ability to apply innovative pedagogical technologies.

Pedagogical creativity positively influences the professional development of teachers. Teachers who continuously improve their skills and implement innovations can provide more effective education.

The development of pedagogical culture in the modern education system is linked to the introduction of innovative methods. Therefore, teachers must regularly explore and adopt new pedagogical approaches.

Pedagogical creativity enhances motivation in the learning process. The use of an individual approach, interactive and creative teaching methods increases educational effectiveness.

CONCLUSION: pedagogical culture and pedagogical creativity are integral parts of the modern educational process. Pedagogical creativity enhances the effectiveness of teachers' work, facilitates the organization of the educational process using innovative technologies, and makes learning more engaging and productive. Therefore, it is necessary to implement systematic measures to foster pedagogical culture and develop pedagogical creativity in educational institutions.

Key words: pedagogical culture, pedagogical education, pedagogical creativity, personality development, pedagogical mastery.

For citation: Kunduzxon V. Nishonboeva. (2025) 'The issue of pedagogical creativity in pedagogical culture', Inter education & global study, (3), pp. 538–547. (In Uzbek).

Kelajak avlodga ta'lim va tarbiya berish jarayonining samaradorligini oshirishda o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi bilan bir katorda ularning pedagogik madaniyati ham juda muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik madaniyatning mohiyati va mazmuni hozircha yetarli tadqiq qilinmagan, adabiyotlarda ham bu muammoga aniq yondashuv kuzatilmaydi. Shu bilan birga , so'nggi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

yillarda ta'lim muassasalari amaliyotida pedagogik madaniyatga qiziqish ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida, ta'lim- tarbiya jarayonining nafaqat mutaxassislarni yuqori saviyali yetuk darajasida tayyorlash masalalariga, balki uning ma'naviy -axloqiy, madaniy negizlariga, shu bilan birga birga pedagoglarning kasbiy salohiyatiga ham e'tiborning ortib borayotganligidan dalolat beradi. Masalaning asosiy jihati shundaki, globallashuv jarayoni va uning tezlashuvi pedagogika nazariyasi va amaliyotida yuz berayotgan innovatsion jarayonlar o'qituvchining pedagogik tayyorgarligi saviyasi bilan birga, uning kasbiy madaniyati darajasiga ham yuksak talablar qo'ymoqda.

Pedagogik madaniyat- pedagogik tushunchalar va mahorat, pedagogik axloq va kasbiy – pedagogik xislatlar, pedagogning ish uslubi va o'z faoliyatiga munosbatlari yig'indisidir. Pedagogik madaniyatning namoyon bo'lishi va uning qadriyatga, turmush tarziga aylanishi uchun insondan yuqori kasbiy salohiyat, ma'rifiy va axloqiy barkamollik talab qilinadi.

Pedagogik madaniyat- murakkab tuzilishga ega bo'lib, quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: pedagogik yo'nalganlik(pedagogik faoliyatga moyillik, qat'iy pedagogik ishonch, bo'ysinuvchilarga hurmat, g'amxo'rlik va shu kabilar); keng dunyoqarash, yuksak axloqiylik; bilimdonlik, zukkolik va ziyoliylik; pedagogik mahorat; ta'lim -tarbiya ishlarini ilmiy izlanishlar bilan uyg'unlashtira olish qobiliyati; yuksak muomala madaniyati; o'ziga nisbatan talabchanlik, izlanuvchanlik, kasbiy mahorati va bilimi saviyasini oshirib borishga doimiy ehtiyoj.

Pedagogik madaniyatning sanab o'tilgan tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldirib, rivojlantirib boradi va pedagogik faoliyat jarayonida yagona tizimda namoyon bo'ladi.

Pedagogikada madaniyat deganda shaxsning hatti -harakatlaridagi ma'naviy imkoniyatlari tushuniladi. Shunga ko'ra, shaxs madaniyati- bu shaxsning madaniyat talablariga asoslangan bilim, ko'nikma va malakalari hamda ularga kundalik hayotda amal qilishi zarur bo'ladi.

Pedagogik madaniyatning alohida komponentlari shaxs psixologik xususiyatlariga (yo'nalganlik, temperament, harakter, qobiliyat) qarab o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib, pedagog shaxsining individual portretini hosil qilishi mumkin. Bu shundan dalolat beradiki, umumiy xususiyatlar bilan birga har bir pedagogning kasbiy madaniyati o'ziga xoslik, individuallik va betakrorlikka ega bo'ladi.

Pedagogik madaniyatda pedagoglik yo'nalganlik alohida o'rin egallaydi. Pedagogik madaniyatning atrofida pedagogning kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan eng asosiy xususiyatlari mujassamlashadi.

Pedagogik tafakkur madaniyati- pedagogik taxlil sintez qobiliyatlarning rivojlanganligi mushohada qilish, tanqidiylik, mustaqillik, kuzatuvchanlikning kengligi, faolligi, tezligi, pedagogik xotira, ijobiy tasavvur kabilarni o'ziga mujassamlashtiradi.

Pedagogik madaniyatda pedagog eng avvalo ijodkorlik qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Ijodkorlik , bu mavjud tajribalarning qayta tiklanishi va bilim, ko'nikma, mahsulotning yangicha ilgari mavjud bo'lmagan uyg'unligini yuzaga keltiruvchi o'ziga xos faoliyatdir.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Ijodkorlik turli darajada bo‘lishi mumkin. Uning ko‘rinishlaridan biri, bu mavjud bilimlardan foydalana bilishlik va ulardan foydalanish jabhalarini kengaytirish bo‘lsa, uning ikkinchi ko‘rinishi- mavjud bilimlar obekti va jabhasiga bo‘lgan butunlay yangicha munosabatdir. Shu o‘rinda bir narsani nazarda tutish kerakki, ijodkorlikni inson faoliyatidagi “yangilik” bilan birga, “taraqqiyot” sifatida ham talqin etish mumkin. Xaqiqiy ijodkorlik. O‘z tabiatiga ko‘ra insonparvar xususiyatiga egadir, chunki u shaxs kamolotiga va o‘zini-o‘zi rivojlantirishga, xuddi shu orqali esa madaniyat va jamiyatning takomillashuviga olib keladi. Mazkur g‘oyadan kelib chiqib, ijodkorlikka inson faoliyatining o‘ziga xos ko‘rinishi, ya’ni “ shaxs va jamiyat rivojiga o‘z xissasini qo‘shayotgan shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatlilik va taraqqiylik deb ta’rif berish mumkin. Ijodkorlikni yaxlit bir jarayon sifatida tahlil qilsak, ijodkorlik- ma’lum jarayonning o‘ziga xosligi va natijaning yangiligidir deb ta’rif berish mumkin.

Pedagogik madaniyatda pedagogik faoliyat, har qanday faoliyat kabi miqdoriy o‘lchov va shu bilan birga sifat darajasiga ham egadir. Pedagogik madaniyatda pedagogik mehnatning mazmuni va shakliga faqatgina pedagogning o‘z faoliyatiga bo‘lgan ijodiy munosabatning darajasi orqaligina to‘g‘ri baho berish mumkin. Shuning uchun pedagogik faoliyatning ijodiy mazmuni uning xaqqoniy (obektiv) ko‘rinishini aks ettiradi, zero xaqqoniylik pedagogik vaziyatning xilma-xilligi va o‘ziga xos tomonlarini nazarga olgan holda, ushbu vaziyat va undan kelib chiqadigan vazifalarni xilma-xil yondashuvda tahlil va talqin qilishni talab qiladi.

Ma’lumki, inson ongi va qarashlarining rivojlanishi- avval voqeilikni his etishdan toki uni chuqur tushunib yetgunga qadar bo‘lgan masofani bosib o‘tadi va shundan keyingina u ijodiy ravishda shakllanadi. Bu jarayon ayni paytda pedagogning ongi va faoliyatiga tadrijiy ravishda bog‘liq bo‘ladi. Bugungi kunga kelib, pedagogik madaniyatda pedagogik faoliyat, o‘z tabiatiga ko‘ra, ijodiy faoliyat ekanligi tajribalarda o‘z ifodasini topgan. Ammo, shu narsa ham ma’lumki, an’anaviy, ijodiy bo‘lmagan, saviyasiz ish mazmuniga xodim ijodiy tus berishi mumkin yoki ayni paytda pedagogik faoliyatga rasmiy tus berib, unga xos bo‘lgan ijodiy mazmunni yo‘qqa chiqarishi mumkin. Demak faoliyatda, pedagogik madaniyatda pedagogik faoliyatda ijodkorlik masalasi eng avvalo shaxs- pedagog bilan bog‘liq. Ammo umumiy tarzda aytish o‘rinliki, pedagogik faoliyat- mohiyatan doimiy ijodiy jarayondir.

Pedagog ijodiy jarayonda o‘z oldiga ijtimoiy jihatdan yangi, o‘ziga xos narsani yaratishni maqsad qilib qo‘ymaydi, chunki shaxs va shaxs rivoji doimo uning asosiy faoliyat obekti bo‘lib qoladi. Ijodiy faoliyat ko‘rsatayotgan pedagog, boz ustiga novator pedagog o‘zining pedagogik tizimini yaratadi va o‘z obekti ustida ish olib borish jarayonida undan doim maqsadli ravishda foydalanadi. Ammo ijodkorlik shaxsning ijodiy salohiyatiga bog‘liqdir. Xususan, pedagog shaxsning ijodkorlik qobiliyati uning ijtimoiy tajribasi, psixo pedagogik va kasbiy bilimlari yangi g‘oyalar malaka va ko‘nikmalari asosida shakllanadi. Shakllangan tajriba yangi uslublarni yaratishga hamda muammolarning yangicha yechimini eng to‘g‘ri qarorlar qabul qilish orqali topish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida “ijodkor” tomonidan o‘z kasbiy vazifalari “ijrosining” yanada takomillashuviga olib keladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Pedagogik madaniyatda ijodkorlik mehnatga ijodiy munosabatda bo‘ladigan o‘zining kasb saviyasini muttasil oshirib boradigan, bilimlarini to‘ldirib boruvchi alohida pedagoglarning hamda butun boshli pedagogik jamoalarning tajribasini o‘rganuvchi kishilargagina xosdir.

Ayrim hollarda pedagog mehnatining ijodiy tabiatini aqliy faoliyat bilan bog‘lashadi. Ammo aqliy mehnat bilan ijodiy mehnat bir xil narsa emas. Albatta o‘tgan avlodlar tomonidan to‘plangan va umumlashtirilgan tajribada o‘z ifodasini topgan bilimlarni maxsus tayyorgarliksiz egallash qiyin. Faqat har tomonlama bilimli va maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan pedagoggina vujudga keladigan vaziyatlarni chuqur tahlil qilish asosida va muammolar mohiyatini to‘liq anglay olishi natijasidagini ularning o‘ziga xos yo‘l va uslubda. mahorat bilan bartaraf etishi mumkin.

Har qanday kasb egasining pedagogik madaniyati ijodiy imkoniyati shaxsga xos bo‘lgan qator xususiyatlar bilan harakterlanadi va ushbu xususiyatlar ijodkor shaxsning sifatlari hisoblanadi. Ushbu xususiyatlarning turli “majmualarini” misol tariqasida keltirish mumkin: Ularning birinchi ko‘rinishi sifatida muqobil variantlarni seza olish va bayon etish dastlab to‘g‘ri bo‘lib ko‘ringan, ammo o’zaki bo‘lgan qoidalardan voz kecha olish; muammoning mohiyatini darhol ilg‘ab olish va ayni paytda istiqbolini ko‘ra bilish malakasiga ega bo‘lish; obro‘ga yo‘naltirilgan fikrni inkor etish qobiliyati; mavjud obektning butkulligi , ya’ni mazmun va mohiyati bilan boshqa tomondan ko‘ra bilish; nazariy musobahadan voz kechish; narsalarni oq yoki qoraga ajratish; odatdagi hayotiy nuqtai nazardan arzimagan sababga ko‘ra orqaga chekinishga yo‘l qo‘ymaslik.

Ikkinchi ko‘rinish tarkibida quyidagi xususiyatlarni jamlash mumkin: tez va erkin mushohadalik qobiliyatti (ongda yangi obrazlarni shakllantira olish va ular yordamida bog‘lamalarni hosil qilish); to‘g‘ri baho berish qobiliyati va tanqidiy fikrlash (muqobil variantlaridan birini uni tekshirgunga qadar tanlay bila olish, qaror qabul qilishni o‘zgartira olish qobiliyati); hotirani doimo tayyor holda saqlash (bilimlar tizimining aksariyat qismini eslab qolish, bilimlarning tartibligi va muntazam o‘sib borishi) va mo‘ljaldagi maqsadni tez sur’atda amalga oshirish; umumlashtirish va keraksiz axborotlarni tashlab yuborish qobiliyati.

Uchinchidan, ijodkor shaxs sifatida o‘z faoliyatini ijodiy jarayonga aylantira oladigan shaxsdagi ijodiylikni nazarda tutadi. Bu yerda ijodkorlikning bir necha asosiy xususiyatlarini sanab o‘tish mumkin, bular: o‘ziga xoslik, evristiklik, faollik, fikr jamligi, aniqlik, hissiyotlilik.

Yuqorida keltirilgan ijodkor shaxs tipologiyasini pedagoglarga nisbatan ham qo‘llash mumkin. Masalan nazariyotchi mantiqchi bu ijodkor shaxsning shunday turiki, unga axborotni tasniflash va tizimlashtirish va mantiqiy keng umumlashtirish qobiliyati xosdir. Ushbu guruhga mansub shaxslar o‘zlarining ijodiy ishlarini aniq rejalashtiradilar, ma’lum bo‘lgan ilmiy tadqiqot metodlaridan keng miqyosda foydalanadilar . Ushbu turga mansub shaxs har tomonlama bilimli va ahborotga ega odamdir. Hammaga ma’lum nazariy konsepsiyalarga suyangan holda ushbu konsepsiyalarni yanada rivojlantiradilar .

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Ular o‘zlari boshlagan hamma ishlarni mantiqiy nihoyasiga yetkazadilar, o‘zlarining xulosalarini manbalarga suyangan holda mustahkamlaydilar.

Sezish qobiliyati o‘ta kuchli bo‘lgan nazariyotchilar yangi g‘oyalarni umumlashtira olish qobiliyatiga ega bo‘ladilar, ushbu ijodiy qobiliyatlarga ega bo‘lgan kishilar yangi ilmiy konsepsiyalar va yo‘nalishlar mualliflari sifatida taniladilar. Ular o‘zlarining g‘oyalarini jamiyat tomonidan qabul qilingan g‘oyalarga qarama -qarshi qo‘yishdan qo‘rqmaydilar, yuksak darajada tasavvur qila olish xislatiga ega bo‘ladilar.

Amaliyotchilar esa doimo yangi, o‘ziga xos farazlarni tekshiruv orqali sinab ko‘radilar. Ushbu guruhga mansub kishilar ma’muriy sohada ishlashni yaxshi ko‘radilar va ishlay oladilar, ularda doimo amaliy ishlarga nibatan qiziqish yuqori darajada bo‘ladi.

Ijodkor pedagog sirasiga kiritish mumkin bo‘lgan tashkilotchi pedagoglar doimo yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishdek qobiliyatga ega bo‘ladilar. Ushbu odamlar rahbarligi ostida o‘ziga xos ilmiy maktablar va ijodiy jamoalar tashkil etiladi. Ushbu guruhga mansub kishilar qat’iyligi, muloqotga moyilligi bilan boshqalarni o‘z irodasiga bo‘ysundira oladigan va ularni yanada yirikroq ijodiy vazifalarni hal etishga safarbar eta oladigan odamlardir. Tashkilotchi pedagoglar tashabbuskorlik xususiyatiga ham ega bo‘ladilar. Ular o‘zining tashabbusi, qat’iyligi bilan ajralib turadi.

Pedagogik madaniyatda o‘qituvchining ijodiy faoliyati ikki asosiy shaklda amalga oshiriladi. Birinchidan, ma’lum vositalarni ta’lim jarayonida vujudga kelayotgan pedagogik vaziyatlarda yangi ko‘rinishda qo‘llash, ikkinchidan, o‘zining faoliyatida avvaldan ma’lum bo‘lgan pedagogik vaziyatlar uchun yangi vositalar ishlab chiqish.

Pedagogik madaniyatda pedagogik ijodkorlikning tutgan o‘rni katta bo‘lib, pedagogik ijodkorlikning paydo bo‘lish jabhasi pedagogik faoliyatning tuzilishi orqali aniqlanadi va uning konstruktiv, tashkilotchilik, muloqotga moyillik kabi hamma qirralarini qamrab oladi. Ammo , pedagogik faoliyatda ijodkorlikni ro‘yobga chiqarish uchun qator sharoitlar mavjud bo‘lishi kerak. Umuman olganda, pedagogik ijodkorlik o‘zgaruvchan shart -sharoitlardagi pedagogik vazifalarni xal qilish jarayoni sifatida tushuniladi. Ammo bir nechta an’anaviy va noan’anaviy vazifalarni xal qilishga kirishar ekan, pedagog ilmiy tadqiqotchi kabi o‘zining faoliyatini evristik izlanishning umumiy qoidalariga mos holda tashkil etadi: pedagogik vaziyatning tahlili; natijani loyihalashtirish; taxminlarni tekshirish va kerakli natijaga erishish uchun zarur bo‘lgan mavjud vositalarning tahlili; erishilgan natijalarni baholash; yangi vazifalarni aniqlash.

Madaniyat pedagogikasida pedagogik faoliyatning mazmunini faqatgina pedagogik vazifalarni hal etish bilan chegaralash lozim emas, chunki ijodiy faoliyatda shaxsning aqliy, hissiy irodaviy va ehtiyojiy xususiyatlari yaxlitlikda namoyon bo‘ladi. Shunga qaramasdan, ijodiy fikrlash (maqsadni belgilash turli to‘siqlar, ko‘rsatmalar, yo‘llarni tanlash, tasnif va baholash) ning turli tarkibiy qismlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlarni bajarish pedagog shaxsining ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishning muhim sharoitlaridan hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatida ijodkorlikning namoyon bo‘lish doirasini faqatgina pedagogik vazifalarning o‘ziga xos hal etilishi bilan chegaralab bo‘lmaydi. Pedagogning ijodkorligi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

pedagogik faoliyat jarayonida vujudga keladigan maqsadli muloqotga oid vazifalarni hal etishda ko‘proq namoyon bo‘ladi. Bu yerda o‘qituvchining ijodiy faoliyatidagi mantiqiy pedagogik va subektiv hissiy aspekt bilan bir qatorda pedagogik faoliyatdagi muloqotga moyillikni (darsda o‘quvchi bilan o‘zaro munosabatda yangi muloqot yo‘llarini izlash va topish, o‘quvchilar bilan guruhli ishlashda yangi muloqot shakllarini tashkil qilish qobiliyati va hakozo) alohida ko‘rsatib o‘tish o‘rinli.

Pedagogik faoliyatda ijodkorlik u yoki bu darajada namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan:

1. Auiditoriya bilan oddiy (elementar) o‘zaro bog‘langanlik darajasi: Pedagog bu yerda o‘z faoliyatiga tegishli o‘zgarishlar kiritadi, ammo ayni paytda u mavjud “metodik qo‘llanmalar”, “odatiy nusxa” asosida boshqa o‘qituvchilarning tajribasiga suyanib harakat qiladi.

2. Dars jarayonida pedagog faoliyatining eng maqbul shaklda tashkil etilishi: ya’ni darsni rejalashtirishdan boshlab , o‘qitishning o‘qituvchiga ma’lum bo‘lgan shakl va uslublarning mahorat bilan tanlanishi.

3. Evristik daraja: unda pedagog talabalar bilan jonli muloqot qilish uchun ijodiy imkoniyatlardan foydalanadi.

4. Pedagog ijodkorligining oliy darajasi: unga pedagogning mutlaqo mustaqilligi xos. Bu yerda shaxsiy tashabbusga asoslangan shunday tarbiya uslubi qo‘llaniladiki, ular o‘qituvchining shaxsiy individlualligini namoyon etib, tarbiyalanuvchi tabiatiga va umuman, sinf rivojining aniq darajasiga mos keladi.

Ushbu darajalarni shartli ravishda amaliyotdagi uslublarni qayta tiklash muqobillashtirish, evristik, shaxsiy mustaqil darajalar deb atash mumkin. Pedagogik madaniyatda pedagogik jarayon bu shunday jarayonki, to‘plangan bilim va tajribalarni egallash va o‘zlashtirishdan boshlanib , uni o‘zgartirish va qayta ishlashgacha davom etadi. Pedagogik vaziyatga ko‘nikishni vujudga keltirib toki uni qayta o‘zgartirishga qadar bo‘lgan masofa esa pedagog ijodkorligida o‘sish sur’atining mohiyatini tashkil etadi.

Pedagogik tajriba ommaviy va ilg‘or bo‘lishi mumkin. Ommaviy pedagogik tajriba bu ta’lim maskani va alohida bir pedagogning ish tajribasi bo‘lib, u ta’lim, tarbiya amaliyoti va pedagogik fan erishgan yutuqlarni o‘zida mujassamlashtirganligi bilan harakterlanadi. “Ilg‘or pedagogik tajriba” iborasi keng va tor ma’nolarda ishlatiladi Keng ma’noda “ilg‘or tajriba” deganda pedagogning yuqori mahorati tushuniladi. Garchand uning tajribasi o‘zida yangi o‘ziga xos mazmunni ifoda etmasa ha,. ammo u pedagogik mahoratni hali to‘liq egallamagan o‘qituvchi uchun namuna hisoblanadi. Ushbu ma’noda mahoratli pedagog tomonidan egallangan tajriba ilg‘or tajriba hisoblanib. uni keng targ‘ib etish maqsadga muvofiqdir. Tor ma’nodagi “ilg‘or pedagogik tajriba”ga shunday amaliyot mansubki, unda ijodiy izlanish, o‘ziga xoslik, yangilik elementlari mavjud bo‘lib, uni boshqacha qilib “yaratuvchanlik” deb atash ham mumkin. Ushbu pedagogik tajriba alohida qimmatga ega, chunki u ta’lim amaliyoti va pedagogik fanning yangi yo‘llarini ochib beradi. Shuning uchun bu tajriba tahlil qilish, umumlashtirish va targ‘ib etishga eng birinchi navbatda loyiqdir.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Pedagogik madaniyatda oddiy pedagogik mahorat bilan yaratuvchanlik o‘rtasida chegarani belgilash ko‘pincha mushkul. Chunki, ma’lum kasbiy tamoyillar va uslublarni egallab olgan mahoratli pedagog, odatda erishgan yutuqlari bilan chegaralanib qolmaydi. Mahoratli pedagog, yangi- yangi usullarni topib va ulardan foydalana borib, yoki yangilarini eski usullar bilan sermahsul uyg‘unlashtira borib, asta- sekin xaqiqiy yaratuvchan pedagogga aylanadi. Pedagogik yaratuvchanlik (novatorlik) ta’limni riojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi, chunki u turli yangiliklarni ta’lim sohasiga kiritadi. Bu yangiliklar ta’lim sohasidagi turli tashabbuslar va o‘zgarishlarda o‘z ifodasini topadi. Ta’lim va pedagogik texnologiyalar mazmunida ro‘y bergan ayrim o‘zgarishlar hamda ta’lim sohasidagi global o‘zgarish yaratuvchanlikning natijasi sifatida yuzaga kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganimizda, pedagogik madaniyatda pedagogik mahorat bu pedagogning amaliyotda sinovdan o‘tgan, uslubiy qo‘llanma va tavsiyalarda ifoda etilgan hamda meyorlarni yuksak darajada o‘zlashtirish faoliyatidir. Pedagogning mahorati to‘g‘ridan-to‘g‘ri pedagogik faoliyatining miqdoriga bog‘liq emas. Pedagogik mahoratdan farqli o‘laroq, pedagogik ijodkorlik bu doimo yangilikni qidirish va izlab topishdir. Albatta, har bir pedagog o‘zidan oldingi tajribaning davomchisidir, ammo pedagog ijodkor bu masalaga doimo keng va uzoq nazar tashlaydi. Har qanday pedagog u yoki bu ko‘rinishda pedagogik xaqiqatni o‘z faoliyatida qayta shakllantiradi, ammo faqat pedagog ijodkorgina pedagogik faoliyatga tub o‘zgarishlar uchun birinchilar qatorida maqsadli kurashadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Pedagogik mahorat- A.T.Nurmanov. Yo.I.Tuganov. O‘quv qo‘llanma. Toshkent.2022 y.
2. K.Xoshimov, S.Nishonova.Pedagogika tarixi. Toshkent . 2005.
3. Vigm I.YE. Pedagogicheskaya kultura: stanovleniye, soderjaniye i smisl.
4. // Pedagogika.- 2002. № 3. S. 3-7.
5. Tarasova S.I. Osnovi narodnoy pedagogiki. Uchebnoye posobiye dlya VUZ ov. M. 2023. -str. 158.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Nishonboyeva Kunduzxon Vaxobovna**, San’atshunoslik va madaniyatshunoslik kafedrasi professor v.b., tarix fanlari nomzodi, [**Нишонбоева Кундузхон Вахобовна**, Кафедра искусствоведения и культурологии проф. и.о., кандидат исторических наук], [**Kunduzxon V. Nishonboeva**, Department of Art History and Cultural Studies, Professor V.B., Candidate of Historical Sciences]; manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri 100164, Yalang’och dahasi 127 «a» uy [адрес: Республика Узбекистан, город Ташкент 100164, поселок Ялангоч, дом 127 «a»], [address: Republic of Uzbekistan, Tashkent city 100164, Yalang'och village, house 127 «a»].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

MUSIQALI DRAMALARDA XALQ OXANGLARI

© Z.I. Arzibayeva[1]✉
[1]O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: musiqali dramalar va xalq oxanglari san'atning eng muhim va qiziqarli yo‘nalishlaridan biridir. Musiqa va drama birlashganda, ular tomoshabinlarni o‘ziga jalb etuvchi kuchli bir asar yaratadi. Xalq oxanglari esa, o‘z navbatida, xalqning urf-odatlari, tarixi va madaniyatini ifodalovchi muhim vosita hisoblanadi. Shu bois, musiqali dramalarda xalq oxanglarining o‘rni va ahamiyati juda katta.

MAQSAD: ushbu maqola musiqali dramalarda xalq ohanglarining ahamiyatini tahlil qilish, ularning dramatik asarlardagi rolini aniqlash va sahna san’atida ulardan samarali foydalanish usullarini o‘rganishga qaratilgan. Xalq ohanglari musiqali dramalarning hissiy ta’sirini oshirish, madaniy merosni aks ettirish va tomoshabinlar bilan kuchli aloqa o‘rnatishda qanday xizmat qilishini tahlil qilish asosiy maqsad sifatida belgilanadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: Ushbu tadqiqotda musiqali dramalar tahlili, xalq musiqasi va dramatik san’at o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish uchun quyidagi metodlardan foydalanildi:

adabiy tahlil – musiqali dramalar va xalq ohanglari haqidagi ilmiy va amaliy adabiyotlar o‘rganildi;

komparativ tahlil – turli xalqlarning musiqali dramalarida xalq musiqasining qo‘llanishi solishtirildi;

eksperimental usul – sahna san’atida xalq ohanglaridan foydalanishning ta’sirini o‘rganish uchun misollar tahlil qilindi;

madaniy-genezis yondashuv – xalq musiqasi va dramatik san’atning tarixiy ildizlari tahlil qilindi;

sotsiologik tadqiqot – tomoshabinlarning musiqali dramalardagi xalq ohanglariga munosabati o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, xalq ohanglarining musiqali dramalarda ishlatilishi bir necha asosiy jihatlarga ega:

dramatik ifodalilikni oshirish – xalq musiqasi qahramonlarning hissiyotlarini yanada chuqur aks ettirishga yordam beradi.

Ko‘plab adabiy manbalar ushbu xulosalarni qo‘llab-quvvatlaydi[1]. Hodges va O‘Connell esa musiqa mashg‘ulotlari tufayli boshqa fanlardan ozod bo‘lish akademik yutuqlarga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligini ta’kidlaydi. Biroq, bu tadqiqotlarning murakkab jihati shundaki, musiqa bilan shug‘ullanish akademik yutuqlarga ta’sir qiluvchi boshqa omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, masalan, qo‘llab-quvvatlovchi ota-onalar va uy sharoitining qulayligi. So‘nggi yillarda Southgate va Roscigno tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot ilgari aniqlangan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun murakkab statistik modellashtirish usullaridan foydalangan.

Ular musiqa ishtirokini uchta mezon bo‘yicha o‘rgandilar: maktab ichidagi, maktabdan tashqaridagi va ota-onalar ishtiroki (kontsertlarga tashrif buyurish). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, musiqa ishtiroki ijtimoiy sinf va jinsga qarab tizimli ravishda farqlanadi va bu ishtirok matematika hamda o‘qish yutuqlariga ta’sir qiladi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, musiqaga jalb qilish matematik va o‘qish yutuqlarining o‘sishiga yordam bergan bo‘lsa-da, bu o‘sish barcha o‘quvchilar o‘rtasida teng taqsimlanmagan.

Tadqiqotchilar musiqaning ijodkorlikka ta’siri masalasiga boshqa ta’lim yo‘nalishlariga nisbatan kamroq e’tibor qaratganlar. Simpson 173 nafar o‘rta maktab musiqa o‘quvchilari va 45 nafar musiqa bilan shug‘ullanmaydigan o‘quvchilarni o‘rganganida, musiqachilar ijodkorlikning turli elementlarida yuqori natijalarga ega ekanligini aniqladi. Wolff bir yil davomida har kuni 30 daqiqa musiqiy mashg‘ulotlar o‘tkazilgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘rgandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, musiqada qatnashgan bolalar nazorat guruhiga qaraganda ijodiy tafakkur va sezgir-motorik qobiliyatlarni sezilarli darajada yaxshilagan. Kalmar esa 3-4 yoshli bolalar bilan olib borilgan tadqiqotda haftada ikki marta qo‘shiq kuylash va musiqiy guruh o‘yinlari tashkil etilgan bolalar nazorat guruhiga qaraganda yuqori ijodiylik darajasini namoyish etganini

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

aniqladi. Ular qo‘g‘irchoq teatrlari orqali ijodkorlikni yanada rivojlantirgan va motorika rivojlanishi ham yaxshilangan.

O‘rta maktab va universitet musiqachilari ijodiy testlarda boshqa fanlarga ixtisoslashgan talabalarga qaraganda yuqori natijalarga ega bo‘lgan, ayniqsa 10 yildan ortiq musiqa ta’limi olgan talabalar orasida bu farq juda yaqqol sezilgan. Keyingi tadqiqotlarda musiqa bilan shug‘ullanuvchilar teatr va tasviriy san’at sohasidagi tajribaga ega talabalar bilan taqqoslangan. Natijalarga ko‘ra, musiqachilar ijodiy tafakkur testlarida yuqori natijalarga erishgan, lekin tasviriy san’at bilan shug‘ullanuvchilar orasida bu ta’sir kuzatilmagan[10].

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish ko‘p jihatdan musiqiy mashg‘ulotlarning turiga bog‘liq. Koutsoupidou va Hargreaves olti yoshli bolalarni o‘rgangan holda, ularning musiqiy improvizatsiyaga ega bo‘lish yoki faqat an’anaviy musiqiy ta’lim olish imkoniyatlariga ko‘ra farqlanishini o‘rganishdi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ijodiy tafakkurni rivojlantirish improvizatsion faoliyat asosida olib borilgan darslarda sezilarli darajada oshgan. Ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun musiqa darslari ijodiy faoliyatga asoslangan bo‘lishi kerak. Bu sohada qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish zarur. Musiqada ishtirok etishning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar, odatda, respondentlarning o‘zlari tomonidan to‘ldirilgan so‘rovnomalar yoki intervyularga asoslangan. Aqliy rivojlanish va umumiy yutuqlarga ta’siri bo‘yicha ko‘proq tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, musiqaning ta’siri qisman ijtimoiy va madaniy kapitalning oshishi orqali vositachilik qilishi mumkin.

Masalan, Broh musiqiy faoliyatda qatnashgan o‘quvchilar ota-onalari va o‘qituvchilari bilan ko‘proq muloqot qilganliklarini aniqladi. Bundan tashqari, ularning ota-onalari farzandlarining do‘stlarining ota-onalari bilan ham ko‘proq muloqotda bo‘lishgan. U shunday xulosaga keldi: bu ijtimoiy omillar bolalarning o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishga, bu esa o‘z navbatida ularning motivatsiyasi va o‘z qobiliyatlariga ishonchining ortishiga olib keladi.

Norvegiya Fan va Gumanitar Fanlar Tadqiqot Kengashi olib borgan tadqiqotlar ham shunga o‘xshash natijalarga olib keldi. Tadqiqotga ko‘ra, musiqiy qobiliyatga ega bo‘lish yuqori motivatsiya bilan bog‘liq bo‘lib, bu esa maktabdagi muvaffaqiyat ehtimolini oshiradi[13]. O‘z-o‘ziga ijobiy munosabat, kognitiv kompetensiya ko‘rsatkichi, o‘ziga bo‘lgan hurmat, maktabdagi musiqiy faoliyatga qiziqish va ishtirok etish o‘rtasida yuqori bog‘liqlik mavjud edi. Whitwell ham shunga o‘xshash xulosalarga kelib, musiqaga ijodiy tarzda ishtirok etish insonning o‘zini anglashiga, ijobiy shaxsiy munosabatlarini shakllantirishga yordam berishini ta’kidlagan. Shunga o‘xshash natijalar shahar hududidagi afro-amerikalik o‘rta maktab o‘quvchilari hamda iqtisodiy jihatdan qiyin ahvoldagi bolalar orasida ham kuzatilgan[7]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqada erishilgan muvaffaqiyat o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi va umumiy motivatsiyani kuchaytiradi.

Shveytsariyada olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, maktab o‘quv dasturiga kiritilgan musiqiy mashg‘ulotlar hajmini oshirish til va o‘qish ko‘nikmalariga salbiy ta’sir

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ko‘rsatmagan, aksincha, sinf jamoasining ijtimoiy jipslashuvini oshirishga, o‘quvchilarning o‘z-o‘ziga ishonchini mustahkamlashga, ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga va ularning maktabga bo‘lgan ijobiy munosabatini shakllantirishga xizmat qilgan[19]. Ushbu ijobiy ta’sir, ayniqsa, o‘qishda qiyinchiliklarga duch keladigan o‘quvchilar orasida yanada yaqqol namoyon bo‘lgan[17]. Harland olib borgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, maktabda san’at bilan shug‘ullanish natijasida o‘quvchilarning eng ko‘p ta’kidlagan ijobiy o‘zgarishlari ijtimoiy va shaxsiy rivojlanish bilan bog‘liq edi.

Musiqa bilan shug‘ullanish boshqalarga bo‘lgan e’tiborni oshirish, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, ruhiy holatni yaxshilash va boshqa sohalarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatish bilan bog‘liq deb baholangan. Musiqa mashg‘ulotlariga qatnashgan ayrim o‘quvchilar uchun eng katta foyda musiqa tinglash va musiqa ijro etish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘lsa, boshqalari uni zavqli va terapevtik faoliyat sifatida qabul qilgan. Shuningdek, ko‘plab o‘quvchilar musiqa ularga sahnada o‘zini erkin his qilish, guruhda ishlash va o‘z fikrlarini ifodalashni o‘rganishda yordam berganini ta’kidlaganlar. Musiqa asboblarida chalishni o‘rganayotgan o‘quvchilar esa o‘zlarining o‘ziga bo‘lgan hurmati va shaxsiy identifikatsiyasining oshishini qayd etganlar.

Tolfree va Hallam o‘tkazgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, 9–17 yoshdagi bolalar musiqiy asbob chalish orqali o‘z yutuqlarini his qilish, ishonchni oshirish va o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash uchun alternativ usul topganlar. Ular do‘stlari bilan musiqa chalish jarayonidan zavqlanganlar, lekin yakka mashg‘ulotlar chog‘ida qiyinchiliklarga duch kelganlar.

AQShda maktab orkestrlarida ishtirok etish bo‘yicha ikkita tadqiqot o‘tkazilgan. Natijalarga ko‘ra, o‘quvchilar orasida orkestrga qatnashish quvonch, intizom, ijodiy ishtirok va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish kabi jihatlar bilan bog‘liq bo‘lgan[2]. Tadqiqotda ishtirok etmagan o‘quvchilarning 95% ota-onalari orkestrda qatnashish boshqa mashg‘ulotlardan ko‘ra ko‘proq ta’limiy foyda berishini ta’kidlaganlar. Keyingi tadqiqotda esa ota-onalarning 91%, orkestrni tark etgan o‘quvchilarning 82% musiqiy guruhlarga ishtirok etish o‘ziga bo‘lgan ishonch va muvaffaqiyat hissini oshirishini bildirganlar[3]. Shuningdek, Buyuk Britaniyada olib borilgan tadqiqotlarda ham musiqa chalish ijtimoiy ko‘nikmalar, intizom, o‘zini anglash va jamoa bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishi qayd etilgan[9].

Maktabdagi spektakllar va musiqiy tadbirlarda qatnashish ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishga yordam beradi va o‘quvchilar orasida do‘stlikni mustahkamlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, musiqiy guruhlarda ishtirok etgan o‘quvchilar o‘z shaxsiyatlarini rivojlantirishda, do‘stlar orttirishda va o‘zlari bilan fikrda o‘xshash insonlar bilan muloqot qilishda katta yutuqlarga erishganlar[11].

Tadqiqotlarda shuningdek, musiqa insonning hissiy sezgirligini oshirishga yordam berishi mumkinligi ham qayd etilgan. Masalan, Resnisow olib borgan tadqiqot klassik pianino asarlarini tinglash orqali hissiyotlarni tanib olish qobiliyati va hissiy intellekt o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, musiqa shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Biroq bu natijalar asosan faol

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

musiqiy ishtirokchilar orasida kuzatilgan bo‘lib, musiqadan zavq olmaydiganlar bu jarayondan kamroq foyda olishi mumkin. O‘qitish sifati, o‘quvchilarning muvaffaqiyat darajasi va musiqiy tajribalar ularning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga ta’sir qiluvchi muhim omillardir.

So‘nggi yillarda jamiyatdagi sog‘liq va farovonlik masalalariga bo‘lgan e’tibor oshgani sababli san’at va musiqaning ta’sirini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar soni ko‘paydi. Ayrim tadqiqotlar bolalarning jismoniy rivojlanishiga, boshqalari esa umumiy farovonlikka qaratilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, jismoniy tarbiya dasturlarida ritmik jo‘rlikdan foydalanish natijadorlikni oshiradi.

Anshel va Marisi musiqaning ritmik sinxronizatsiyasi harakat samaradorligi va chidamliligini oshirishini kuzatganlar, Painter esa shunga o‘xshash natijalarga erishgan. Beisman tadqiqotida ritm asosida tuzilgan dasturda ishtirok etgan bolalarda uloqtirish, ushlash, sakrash va sakrab yurish qobiliyatlari yaxshilangani qayd etilgan. Brown tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, musiqiy va jismoniy tarbiya dasturining integratsiyasi bolalarning motorika qobiliyatlarini harakatlarni o‘rganish orqali rivojlantirishdan ko‘ra samaraliroq bo‘lgan. Derri 4–6 yoshli bolalar orasida o‘tkazilgan 10 haftalik musiqa va harakat dasturi tajribaviy guruhdagi bolalarning yugurib yurish, sakrab o‘tish, gorizontal sakrash va tez yurish kabi lokomotor qobiliyatlarini yaxshilaganini ko‘rsatdi. Boshqa bir tadqiqot esa ushbu dastur erkin o‘yinlarga qaraganda foydaliroq ekanini tasdiqladi[8]. Bundan tashqari, musiqa asbobida chalishni o‘rganish nozik motorikani rivojlantirishi ham aniqlangan[16].

So‘nggi yillarda qo‘shiq kuylashning sog‘liq va farovonlikka bo‘lgan aniq foydalari bo‘yicha qiziqish ortdi. Tadqiqotlarning aksariyati kattalar bilan olib borilgan bo‘lsa-da, Ashley 10–14 yoshli cherkov xorida kuylaydigan bolalarni o‘rganib, ular musiqaga chuqur qiziqish bildirganliklari va ijtimoiy jihatdan moslashish qobiliyatlari kuchli ekanligini aniqladi. Clift va Hancox universitet xorida ishtirok etgan yoshlar orasida tadqiqot o‘tkazib, respondentlarning 58% jismoniy jihatdan foyda ko‘rganini, 84% esa salomatligiga ijobiy ta’sir etganini ta’kidlagan. Ularning fikricha, qo‘shiq kuylash o‘pkani mustahkamlash, nafas olishni yaxshilash, kayfiyatni ko‘tarish va stressni kamaytirishga yordam beradi. Qo‘shiq kuylashning ijobiy ta’sirlari quyidagi olti jihat bo‘yicha aniqlangan: farovonlik va dam olish, nafas olish va holatni yaxshilash, ijtimoiy foydalar, ma’naviy foydalar, hissiy foydalar hamda yurak va immun tizimiga bo‘lgan ta’sir[5]. Clift o‘z tadqiqotida immun tizimining samaradorligini o‘lchash uchun tupukdagi immunoglobulin miqdorini tekshirib, qo‘shiq kuylash natijasida ushbu antitelolar darajasi oshganini aniqlagan[12].

Kattalar xorida kuylash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar qatnashchilarning sog‘lig‘i va farovonligi uchun turli foydalar borligini ko‘rsatgan. Bu foydalarning bolalar uchun ham dolzarb ekanini taxmin qilish mumkin. Foydalar orasida quyidagilar bor: jismoniy bo‘shashish va mushak tarangligini kamaytirish; hissiy yengillik va stress darajasini pasaytirish; baxt, ijobiy kayfiyat, quvonch va ruhiy yuksalish hissi; shaxsiy, hissiy va jismoniy farovonlikni oshirish; energiya va diqqatni oshirish; aqliy qobiliyatlarni

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

rag‘batlantirish – e’tibor, kontsentratsiya, xotira va o‘rganish qobiliyatini rivojlantirish; o‘ziga ishonch va o‘zini qadrlash hissini oshirish; uzoq muddatli ruhiy va ijtimoiy muammolarga terapevtik ta’sir; tananing turli tizimlarini, ayniqsa o‘pkani mashq qildirish; mushak-skelet tizimini yaxshi holatda saqlash; ilhomlantiruvchi faoliyat. Kattalar orasida musiqa bilan shug‘ullanishning boshqa jismoniy foydalari ham aniqlangan. Masalan, pianino chalish yurakni tez yurish bilan bir xil darajada harakatlantiradi[14]. Madaniy tadbirlarda qatnashish, kitob o‘qish, musiqa ijro etish yoki xor jamoasida kuylash bilan shug‘ullangan insonlar orasida o‘lim darajasi pastroq ekani qayd etilgan[4].

Musiqa ijro etish sog‘lig‘ini yaxshilash, hayot sifatini oshirish va ruhiy farovonlikni mustahkamlash bilan bog‘liq ekani ham tasdiqlangan[6].

Musiqiy faoliyat bilan shug‘ullanishning umr bo‘yi davom etadigan foydalarini ko‘rsatadi. Erta bolalik davrida ritmik koordinatsiyani rivojlantirish til va savodxonlik qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Musiqa asboblarida chalish nozik motorika ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Musiqaning fazoviy fikrlash qobiliyatini yaxshilashga yordam berishi, bu esa matematik qobiliyatlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligi aniqlangan. O‘quvchilarning umumiy yutuqlari savodxonlik va matematik qobiliyatlariga bog‘liq bo‘lsa-da, o‘rganishga bo‘lgan motivatsiya ham muhim omil bo‘lib, bu o‘ziga bo‘lgan ishonch, o‘z-o‘ziga ishonch va intilishlarga bog‘liq. Musiqa bilan shug‘ullanish ijobiy o‘quv tajribalarini taqdim etishi orqali ushbu hislarni kuchaytirishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida musiqa o‘qitish jarayonini qiziqarli, yetarli darajada qiyin, lekin erishish mumkin bo‘lgan vazifalar bilan boyitishni talab etadi. Bunday o‘quv muhiti ijodkorlik va o‘z ifodasini topish imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlashi kerak. Jamoaviy musiqa ijro etish ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, sog‘liq va farovonlikni yaxshilaydi va jamiyatning ijtimoiy birdamligiga hissa qo‘shadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Arnett-Gary, D. (1998) The effects of the arts on academic achievement. Masters Abstracts International, 42(01), 22.
2. Brown, J.D. (1980) Identifying problems facing the school band movement. Elkhart: Gemeinhardt Co. Ltd.
3. Brown, J.(1985) Strategic marketing for music educators.Elkhart:Gemeinhardt Co. Ltd.
4. Byrgen, L.O. Konlaan, B.K. and Johansson, S-E (1996) Attendance at cultural events, reading books or periodicals and making music or singing in a choir as determinants for survival: Swedish interview survey of living conditions, British Medical Journal, 313, 1577-1580.
5. Clift, S. & Hancox, G. (2001) ‘The perceived benefits of singing: Findings from preliminary surveys of a university college choral society’. The Journal of the Royal Society for the Promotion of Health, 121(4), 248-256.
6. Coffman, D.D. & Adamek, M. (1999) ‘The contribution of wind band participation to quality of life of senior adult band members’. Dialogue in Instrumental Music Education, 20(1), 25-34.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

7. Costa-Giomi, E. (1999) 'The effects of three years of piano instruction on children's cognitive development'. Journal of Research in Music Education, 47(5), 198-212.
8. Deli, E., Bakle, I., Zachopoulou, E. (2006) Implementing intervention movement programs for kindergartne children, Journal of Early Childhood Research, 4(1), 5-18.
9. Hallam,S.,&Prince,V.Research into instrumental music services.(London, DfEE).
10. Hamann, D. Bourassa, R., Aderman, M (1991) Arts experiences and creativity scores of high school students, Contribution to Music Education, 14, 35-47.
11. Kokotsaki, D., & Hallam, S. (in preparation)The perceived benefits of participative music making.
12. Kreutz, G., Bongard, S, Rohrmann, S., Grebe, D., Bastian, H.G. & Hodapp, V. (2004) Effects of choir singing or listening on secretory immunoglobulin A, cortisol and emotional state, Journal of Behavioural Medicine, 27(6), 623-635.
13. Lillemyr, O.F. (1983) Achievement motivation as a factor in self-perception, Norwegian Research Council for Science and the Humanities, 245-248.
14. Parr, S.M. (1985) The effects of graduated exercise at the piano on the pianist's cardiac output, forearm blood flow, heart rate, and blood pressure. Dissertation Abstracts International, 46(6), 1436A. (UMI No. AAT85-18673)
15. Rauscher, F.H., LeMieux, M. & Hinton, S.C. (submitted) Lasting improvement of at-risk children's cognitive abilities following music instruction.
16. Schlaug, G. Norton, A., Overy, K., and Winner, E. (2005) Effects of music training on the child's brain and cognitive development, Annals New York Academy of Science, 1060, 219-230.
17. Spychiger, M., Patry, J. Lauper, G., Zimmerman, E., & Weber, E. (1993). 'Does more music teaching lead to a better social climate'. In R. Olechowski & G. Svik (eds) Experimental research in teaching and learning. (Bern, Peter Lang).
18. Vaughn, K. (2000) Music and mathematics: Modest support for the oft-claimed relationship, Journal of Aesthetic Education, 34(3-4), 149-166.
19. Zulauf, M. (1993) 'Three year experiment in extended music teaching in Switzerland: The different effects observed in a group of French speaking pupils'. Bulletin of the Council for Research in Music Education, 119, Winter, 111-21.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Jummanazarov Zohidjon Eldor o'g'li**, o'qituvchi [**Джуманазаров Зохиджон Элдор угли,** Учитель], [**Zohidjon E. Jummanazarov**, Teacher]; manzil: Toshkent sh. Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi 127 «A» uy. [адрес: Узбекистан, 117036, Ташкент, Мирзо Улугбекский район, Массив Ялангач, 127 «А» дом.], [address: Uzbekistan, 117036, Tashkent, Mirzo Ulugbek, Yalangoch Street, 127 "A".].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

SHAHAR MADANIYATI VA EKOLOGIK MUVOZANAT: YANGI O‘ZBEKISTON MASSIVI TAJRIBASI

© X.O. Abdullayeva[1]✉

[1]O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu ilmiy maqolada yangi O‘zbekiston massivi tajribasi doirasida shahar madaniyati va ekologik muvozanatning o‘zaro bog‘liqligi va ahamiyati o‘rganiladi. Bugungi globalizatsiya sharoitida shahar madaniyati nafaqat estetik va ijtimoiy hayotning ajralmas qismi sifatida, balki ekologik barqarorlikni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Shahar atrof-muhitini himoya qilish, yashil hududlarni kengaytirish va madaniy merosni saqlash orqali mamlakatning urbanizatsiya jarayonida ijtimoiy va ekologik muvozanatni mustahkamlash mumkin. Maqolada yangi O‘zbekiston massivi tajribasi asosida shahar madaniyati va ekologik muvozanatni shakllantirish vositalari, ularning samaradorligi va istiqbollari tahlil qilinadi.

MAQSAD: Yangi O‘zbekiston massivi tajribasida shahar madaniyati va ekologik muvozanatning o‘zaro ta’sirini o‘rganish hamda mamlakatning urbanizatsiya jarayonida barqaror rivojlanish strategiyalarini shakllantirishga xizmat qiladigan omillarni aniqlashdir. Tadqiqot doirasida shahar madaniyati va ekologik siyosatning asosiy vositalari, ularning shahar imijini shakllantirishdagi roli, yashil shahar konsepsiyasi va ijtimoiy hamkorlikning samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, yangi O‘zbekiston massivi tajribasida madaniy va ekologik integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar tavsiya etiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: maqolada shahar madaniyati va ekologik muvozanatni shakllantirishda qo‘llanilayotgan asosiy mexanizmlar, strategiyalar va texnologiyalar tahlil qilinadi. Tadqiqot uchun quyidagi materiallar va usullar qo‘llanilgan:

shahar boshqaruvi va urbanizatsiya siyosati bo‘yicha hukumat hujjatlari va strategik rejalashtirish materiallari;

shahar madaniyati, tarixiy meros va san’at targ‘iboti bo‘yicha akademik adabiyotlar va ilmiy maqolalar;

ekologik muvozanatni saqlash, yashil hududlarni rivojlantirish va atrof-muhitni himoya qilish bo‘yicha xalqaro tajriba va innovatsion texnologiyalar;

amaliy misollar, shaharlararo solishtiruv tahlillari va empirik ma’lumotlar;

intervyu, so‘rovnomalar va ekspertlar fikrlari yordamida olinadigan sifatli ma’lumotlar.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yangi O‘zbekiston massivi tajribasida shahar madaniyati va ekologik muvozanatni rivojlantirish mamlakatning urbanizatsiya jarayonida ijobiy o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Shahar madaniyati – tarixiy meros, san’at, adabiyot va an’anaviy qadriyatlarni aks ettiruvchi omil – shahar aholisining ijtimoiy hayotini boyitib, shahar imijini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha qabul qilingan chora-tadbirlar, yashil hududlarni kengaytirish, energiya samaradorligini oshirish va atrof-muhitni muhofaza qilish strategiyalari shahar muhitining sog‘lomligi va barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Ularning uyg‘unlashuvi esa nafaqat shahar aholisining hayot sifatini yaxshilash, balki xalqaro maydonda O‘zbekistonning ijobiy imijini shakllantirishda ham muhim omil hisoblanadi.

XULOSA: tadqiqot natijalariga asoslanib, yangi O‘zbekiston massivi tajribasida shahar madaniyati va ekologik muvozanatni yanada mustahkamlash uchun quyidagi tavsiyalar beriladi:

shahar madaniy merosini asrash va targ‘ib etishda zamonaviy texnologiyalar va interaktiv platformalardan foydalanish;

yashil hududlarni kengaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha samarali siyosat va strategiyalarni ishlab chiqish;

madaniy tadbirlar, festival va ko‘rgazmalar orqali shahar imijini oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

ekologik va madaniy loyihalarda jamoatchilik ishtirokini oshirish, shahar boshqaruvida fuqarolar va ekspertlar fikriga e'tibor qaratish;

shunday qilib, shahar madaniyati va ekologik muvozanatning uyg‘unlashuvi yangi o‘zbekiston massivi tajribasida barqaror rivojlanishning kalit omillaridan biri sifatida e’tirof etilishi lozim.

Kalit so‘zlar: shahar madaniyati, ekologik muvozanat, yangi O‘zbekiston massivi, barqaror rivojlanish, urbanizatsiya, yashil shahar, madaniy meros, ijtimoiy hamkorlik, ekologik strategiya.

Iqtibos uchun: Abdullayeva X.O. Shahar madaniyati va ekologik muvozanat: yangi o‘zbekiston massivi tajribasi // Inter education & global study. 2025. №3. B.574–585.

ГОРОДСКАЯ КУЛЬТУРА И ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ РАВНОВЕСИЕ: ОПЫТ НОВОГО УЗБЕКСКОГО МАССИВА

© X.O. Abdullayeva[1]✉
[1]Узбекский государственный институт искусств и культуры, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной научной статье исследуется взаимосвязь и значение городской культуры и экологического равновесия в контексте опыта нового узбекского массива. В условиях современной глобализации городская культура

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

выступает не только как неотъемлемая составляющая эстетической и социальной жизни, но и играет важную роль в обеспечении экологической устойчивости. Защита городской среды, расширение зеленых зон и сохранение культурного наследия способствуют укреплению социального и экологического баланса в процессе урбанизации страны. В статье анализируются инструменты формирования городской культуры и экологического равновесия, их эффективность и перспективы развития.

ЦЕЛЬ: изучить взаимное влияние городской культуры и экологического равновесия в опыте нового узбекского массива, а также выявить факторы, способствующие формированию стратегий устойчивого развития в процессе урбанизации. Исследование включает анализ ключевых инструментов культурной политики и экологической стратегии, их роли в формировании имиджа города, концепции «зеленого города» и эффективности общественного партнерства. Дополнительно предлагаются инновационные подходы для усиления интеграции культурной и экологической сфер.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в статье рассматриваются основные механизмы, стратегии и технологии, применяемые для формирования городской культуры и экологического равновесия. В исследовании использовались следующие материалы и методы:

государственные документы и стратегические планы в области управления городами и урбанизации;

академическая литература и научные статьи по вопросам городской культуры, культурного наследия и продвижения искусства;

международный опыт и инновационные технологии в области охраны окружающей среды, развития зеленых зон и поддержания экологического равновесия;

практические примеры, сравнительный анализ городов и эмпирические данные;

качественные данные, полученные посредством интервью, опросов и экспертных мнений.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показывают, что развитие городской культуры и экологического равновесия в рамках нового узбекского массива приводит к положительным изменениям в процессе урбанизации страны. Городская культура, отражающая историческое наследие, искусство, литературу и традиционные ценности, обогащает социальную жизнь горожан и способствует укреплению имиджа города. Принятые меры по сохранению экологического равновесия, расширению зеленых зон, повышению энергоэффективности и защите окружающей среды обеспечивают здоровье городской среды и способствуют устойчивому развитию. Гармоничное сочетание этих направлений не только улучшает качество жизни жителей, но и способствует формированию положительного имиджа Узбекистана на международной арене.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: на основе полученных результатов предлагаются следующие рекомендации для дальнейшего укрепления городской культуры и экологического равновесия в новом узбекском массиве:

использование современных технологий и интерактивных платформ для сохранения и продвижения культурного наследия;

разработка эффективной политики и стратегий по расширению зеленых зон и охране окружающей среды;

повышение имиджа города и развитие международного партнерства посредством проведения культурных мероприятий, фестивалей и выставок;

активизация участия общественности в экологических и культурных проектах, а также учет мнений граждан и экспертов в процессе управления городом.

Ключевые слова: городская культура, экологическое равновесие, новый узбекский массив, устойчивое развитие, урбанизация, зеленый город, культурное наследие, общественное партнерство, экологическая стратегия

Для цитирования: Абдуллаева Х.О. Городская культура и экологическое равновесие: опыт нового узбекского массива // Inter education & global study. 2025. №3. С. 574–585.

URBAN CULTURE AND ECOLOGICAL BALANCE: THE EXPERIENCE OF THE NEW UZBEKISTAN MASSIF

© Xafiza O. Abdullayeva[1]✉
[1]Uzbek State Institute of Arts and Culture, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this scientific article examines the interrelation and significance of urban culture and ecological balance within the framework of the new Uzbekistan massif experience. In today's era of globalization, urban culture serves not only as an integral part of aesthetic and social life but also plays a crucial role in ensuring ecological sustainability. By protecting the urban environment, expanding green areas, and preserving cultural heritage, it is possible to strengthen social and ecological balance during the country's urbanization process. The article analyzes the instruments used to shape urban culture and ecological balance, assessing their effectiveness and future prospects.

AIM: the primary aim of the article is to investigate the mutual influence of urban culture and ecological balance in the context of the new Uzbekistan massif experience, and to identify factors that contribute to the formation of sustainable development strategies during urbanization. The study examines key tools of cultural policy and environmental strategy, their role in shaping the city's image, the concept of a "green city," and the effectiveness of public partnership. Additionally, innovative approaches aimed at strengthening the integration of cultural and ecological sectors in the new Uzbekistan massif are recommended.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

MATERIALS AND METHODS: the article reviews the main mechanisms, strategies, and technologies employed in forming urban culture and ecological balance. The research utilized the following materials and methods:

government documents and strategic planning materials related to urban management and urbanization policy;

academic literature and scientific articles on urban culture, cultural heritage, and the promotion of the arts;

international experience and innovative technologies in environmental protection, development of green areas, and maintenance of ecological balance;

practical examples, comparative city analyses, and empirical data;

qualitative data obtained through interviews, surveys, and expert opinions.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings of the research indicate that the development of urban culture and ecological balance within the new Uzbekistan massif framework leads to positive changes in the urbanization process. Urban culture—reflecting historical heritage, art, literature, and traditional values—enriches the social life of residents and contributes to strengthening the city's image. Simultaneously, measures adopted to maintain ecological balance, expand green areas, improve energy efficiency, and protect the environment ensure a healthy urban setting and promote sustainable development. The harmonious integration of these aspects not only enhances the quality of life for city dwellers but also contributes to the formation of a positive image of Uzbekistan on the international stage.

CONCLUSION: based on the study's findings, the following recommendations are proposed to further strengthen urban culture and ecological balance in the new Uzbekistan massif:

utilize modern technologies and interactive platforms for the preservation and promotion of the city's cultural heritage;

develop effective policies and strategies for expanding green areas and environmental protection;

enhance the city's image and foster international cooperation through cultural events, festivals, and exhibitions;

increase public participation in ecological and cultural projects and consider the opinions of citizens and experts in urban management.

Keywords: urban culture, ecological balance, new Uzbekistan massif, sustainable development, urbanization, green city, cultural heritage, public partnership, environmental strategy.

For citation: Hafiza O. Abdullayeva, Urban Culture and Ecological Balance: The Experience of the New Uzbekistan Massif // Inter education & global study. 2025. №. 3. pp. 574–585. (In Uzbek).

Urbanizatsiya bugungi zamonning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlaridan biri bo‘lib, u shaharlarning rivoji, infratuzilma va iqtisodiy salohiyatning oshishiga katta hissa

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

qo‘shmoqda. Ammo bu jarayonning ekologik muvozanatga ta’siri va ijtimoiy-madaniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashuvi masalalari ham dolzarbligini yo‘qotmaydi. Aholi zichligi oshgani sari tabiat resurslariga bo‘lgan ehtiyoj va ekologik muammolar yanada keskinlashmoqda. Shuning uchun shahar madaniyatini shakllantirishda ekologik mas’uliyatni kuchaytirish, yashash muhitini yaxshilash va tabiatga zarar yetkazmaslik tamoyillariga asoslangan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi O‘zbekiston konsepsiyasi doirasida yangi massivlarning bunyod etilishi zamonaviy shaharsozlikning yorqin namunasi hisoblanadi[1.3]. Bu massivlarda urbanizatsiya va ekologik muvozanat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash asosiy maqsad sifatida belgilangan. Ushbu yondashuv orqali iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy farovonlik va ekologik barqarorlikka bir vaqtda erishish mumkinligi namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur maqola Yangi O‘zbekiston massivlari misolida shahar madaniyati va ekologik muvozanat o‘rtasidagi aloqadorlikni o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda shahar madaniyati tushunchasi, uning asosiy jihatlari, ahamiyati, shuningdek, ekologik muvozanatni ta’minlash masalalari tahlil qilinadi. Yangi massivlarning shaharsozlik tamoyillari va ekologik xavfsizlikni ta’minlash borasidagi tajribasi asosida barqaror rivojlanishning yangi imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Bu tadqiqot zamonaviy urbanizatsiya muammolarini kompleks yondashuv asosida hal etishga qaratilgan dolzarb tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Jahon miqyosida ekologik muvozanatni ta’minlash va shahar yashash muhiti sifatini oshirish masalalari keng o‘rganilgan. Masalan, Allen va Ko‘hran [2] ning tadqiqotlari davlat siyosati va boshqaruv tizimidagi ekologik muammolarni tahlil qilishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu ishda ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun davlatlarning boshqaruv shakllarini qayta ko‘rib chiqish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Kolding va Bartel [3] esa urbanizatsiya jarayonlarida yashil hududlarning ahamiyatini yoritadi. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, shahar yashil hududlari nafaqat estetik muhitni yaxshilaydi, balki ekologik tizimning muvozanatini ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Mazkur ilmiy yondashuv Yangi O‘zbekiston massividagi yashil hududlarni rivojlantirish bo‘yicha takliflarni shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qildi. Chiyezura [4] shahar parklari va ekologik madaniyatni shakllantirishdagi ijobiy o‘zgarishlarni chuqur tahlil qilib, ularning aholi hayot sifati va ijtimoiy barqarorlikka ta’sirini ilmiy asoslagan. Ushbu tadqiqot Yangi O‘zbekiston massividagi yashil hududlarning aholi uchun qanday foyda keltirishi mumkinligini tahlil qilish uchun ishlatildi.

O‘zbekistonning so‘nggi yillarda qabul qilgan qarorlari va davlat dasturlari ekologik muvozanatni ta’minlashning dolzarb masalalari bilan bog‘liq. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yilda qabul qilgan ekologik muvozanatni ta’minlash bo‘yicha dasturi[1.3;4] shahar madaniyatini rivojlantirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha kompleks yondashuvni nazarda tutadi. Ushbu hujjatda urbanizatsiyaning ekologik ta’sirini kamaytirish va aholining ekologik ongi darajasini oshirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar belgilangan.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Mahalliy tadqiqotlar orasida Rozanova [5] tomonidan shahar madaniyati va ekologiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik bo‘yicha olib borilgan ishlar diqqatga sazovor. Ushbu ishda ekologik madaniyatni shakllantirishning ijtimoiy ahamiyati va uning shahar rivojlanishidagi o‘rni tahlil qilingan. Bu tadqiqot Yangi O‘zbekiston massivida ekologik barqarorlikni rivojlantirishda aholining faol ishtirokini rag‘batlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda asosiy manba bo‘lib xizmat qildi.

BMT tomonidan qabul qilingan 2030-yil Barqaror rivojlanish kun tartibi hujjati[6] shahar ekologiyasini yaxshilashda xalqaro hamkorlik va global yondashuvning ahamiyatini ko‘rsatadi. Ushbu hujjatning ekologik barqarorlik va aholi farovonligini ta’minlash bo‘yicha belgilangan maqsadlari maqolada ilgari surilgan takliflarni xalqaro standartlar bilan bog‘lash imkonini berdi.

Yang Jao, Makbrayd va Gong [7] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar urbanistik hududlarda yashil hududlarning ahamiyati va ko‘rinuvchanligi masalalariga bag‘ishlangan. Ushbu tadqiqotlar Yangi O‘zbekiston massividagi yashil hududlarni loyihalashtirish va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqishda ishlatildi.

Foydalanilgan adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, shahar madaniyatini rivojlantirish va ekologik muvozanatni ta’minlash masalasi global va mahalliy tadqiqotlarda chuqur o‘rganilgan. Xalqaro tadqiqotlar shahar ekologiyasi sohasida xalqaro tajribani o‘rganish imkonini bersa, mahalliy davlat hujjatlari va tadqiqotlar Yangi O‘zbekiston massivining o‘ziga xos ekologik xususiyatlarini inobatga olishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tahlil maqolaning ilmiy asoslanganligini oshirishga va Yangi O‘zbekiston massividagi ekologik muvozanatni ta’minlashda samarali strategiyalar ishlab chiqishga yordam berdi.

Shahar madaniyati insonlarning urbanistik muhitda shakllantirgan ijtimoiy va madaniy qadriyatlarining ifodasidir. Shahar aholisi o‘z yashash joyining tarixiy, madaniy va me’moriy o‘ziga xosliklarini qadrlashi va rivojlantirishi orqali shahar identiteti shakllanadi. Bu, o‘z navbatida, hududning jozibadorligini oshiradi. Shahar madaniyati aholining o‘zaro hurmat va birdamlik tamoyillariga asoslanadi. Bu turli millatlar, dinlar va madaniyatlar o‘rtasida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi. Shahar madaniyati doirasida ekologik mas’uliyat muhim ahamiyat kasb etadi. Fuqarolarning tabiatni asrash, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga bo‘lgan intilishi shahar barqarorligiga hissa qo‘shadi. Tarixiy obidalar, madaniy meros va milliy qadriyatlarni saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish shahar madaniyatining muhim qismi hisoblanadi. Shahar madaniyati shahar infratuzilmasi va aholiga xizmat ko‘rsatish sifatining yuqori darajasini talab qiladi. Bu transport, sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqa sohalarda namoyon bo‘ladi.

Shahar madaniyatining ahamiyati shundaki, u nafaqat shahar hayotini yanada qulay va samarali qiladi, balki ijtimoiy rivojlanishning asosiy omiliga aylanadi. Bu jarayonda urbanizatsiya (shaharlashuv) jarayonining oqilona boshqarilishi va aholi turmush tarzining yaxshilanishiga katta e’tibor qaratiladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Ekologik muvozanatni ta’minlash masalalari.

Ekologik muvozanatni ta’minlash zamonaviy shaharsozlikning muhim qismi hisoblanadi. Shaharlarning barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun ekologik omillarni inobatga olish zarur. Ushbu masala quyidagi yo‘nalishlarda ko‘rib chiqilishi mumkin:

Yashil hududlarni kengaytirish. Shahar hududlarida bog‘lar, xiyobonlar va boshqa yashil zonalarni ko‘paytirish ekologik muvozanatni ta’minlashning muhim omillaridan biridir. Yashil hududlar atmosfera ifloslanishini kamaytiradi, iqlimni mo‘tadillashtiradi va aholiga dam olish uchun qulay sharoit yaratadi.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish. Suv, elektr energiyasi va boshqa tabiiy resurslardan foydalanishda samaradorlikni oshirish lozim. Bu borada suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, energiya manbalarini diversifikatsiya qilish, qayta tiklanadigan energiyaga o‘tish, sanoatda chiqindisiz texnologiyalardan foydalanish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin [8].

Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish. Chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish orqali atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish mumkin.

Chiqindilarni alohida yig‘ish tizimini joriy qilish, aholini chiqindilarni qayta ishlashga oid ma’lumot bilan ta’minlash va rag‘batlantirish, zamonaviy chiqindilarni qayta ishlash zavodlarini qurish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Transport tizimini ekologiklashtirish. Shahar transport tizimini ekologik xavfsiz qilish muhim ahamiyatga ega. Elektromobillarni ommalashtirish va ular uchun infratuzilma yaratish, jamoat transportini rivojlantirish va uning sifati ustida ishlash, velosiped yo‘laklarini kengaytirish va piyodalar uchun qulay sharoit yaratish o‘laroq yo‘nalishlarda ish olib borish maqsadga muvofiq.

Atmosfera havosini tozalash va nazorat qilish. Shahar hududida atmosferaga zararli gazlar chiqindisini kamaytirish uchun sanoat korxonalarida filtr tizimlarini joriy etish va avtomobillardan chiqayotgan gazlarni nazorat qilish tizimini kuchaytirish lozim.

Ekologik ta’lim va ongni oshirish. Ekologik muvozanatni ta’minlashda aholining ekologik ongi va mas’uliyatini oshirish muhimdir. Bu maqsadda maktab va oliy ta’lim tizimida ekologiya bo‘yicha maxsus fanlarni joriy etish, aholi uchun ekologik seminarlar va treninglar tashkil etish, ijtimoiy axborot vositalarida ekologik targ‘ibot ishlarini olib borish zarur.

Shunday qilib, ekologik muvozanatni ta’minlash masalalari kompleks yondashuvni talab etadi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yashil hududlarni kengaytirish va chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish orqali shaharlar barqaror rivojlanishi mumkin.

O‘zbekiston massivining tajribasi.

Yangi O‘zbekiston massivlari urbanizatsiya va ekologik muvozanatni uyg‘unlashtirish borasida o‘ziga xos namunaviy loyihalardir. Bu massivlarning o‘ziga xos xususiyatlari va tajribasini quyidagi jihatlar orqali tahlil qilish mumkin[5]:

Shaharsozlikning zamonaviy tamoyillari. Yangi O‘zbekiston massivlari shaharsozlikning eng ilg‘or tamoyillariga asoslanadi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

yashash joylarini inson ehtiyojlariga moslashtirilgan tarzda loyihalash; shahar markazlarining yashil hududlar bilan uyg‘unlashuvi; ekologik xavfsizlikni ta’minlovchi innovatsion texnologiyalarni qo‘llash.

Barqaror infratuzilma yaratish. Massivlarda barqaror infratuzilma yaratishga alohida e’tibor qaratilgan. Energiya samaradorligini oshirish uchun quyosh va shamol energiyasi kabi qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanish, zamonaviy kanalizatsiya va chiqindi boshqaruvi tizimlarini joriy etish, aholi uchun qulay transport va piyodalar yo‘laklarini tashkil etish singari yo‘nalishlarda amalga oshirilishi belgilangan [1]

Ekologik xavfsizlikni ta’minlash. Yangi massivlarda ekologik xavfsizlikni ta’minlashga katta e’tibor qaratiladi. Bu maqsadda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi: havoni ifloslantiruvchi manbalarni minimallashtirish; yashil hududlar va ekologik bog‘lar tashkil etish; chiqindilarni qayta ishlashning samarali tizimini yo‘l

Shahar madaniyati va ekologik uyg‘unlik masalalari kelajakda yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy texnologiyalar shaharlarni yanada aqlli va barqaror qilishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, “Aqlli shahar” (smart city) konsepsiyasi asosida transport, energetika, chiqindilarni boshqarish va boshqa sohalarda raqamli tizimlarni joriy etishga mo‘ljallangan. Unda tashqari aholi uchun ekologik xulq-atvorni shakllantirishga qaratilgan mobil ilovalar va axborot platformalarini ishlab chiqish kerak.

Yashil iqtisodiyot shahar madaniyatining yangi paradigmasi sifatida rivojlanmoqda. Xusisan, resurslarni tejashga qaratilgan ishlab chiqarish texnologiyalarini ommalashtirish, shahar xo‘jaliklari uchun ekologik toza energiya manbalaridan foydalanish jihatidan maqsadga mos keladi.

Shahar madaniyatida ekologik ongni rivojlantirishga katta e’tibor qaratiladi. Unda ekologik ta’limni maktabgacha ta’limdan boshlab joriy etish, ijtimoiy tarmoqlar orqali ekologik masalalar bo‘yicha targ‘ibot ishlarini kengaytirish kabi masalalar yuqoriga chiqadi.

Shahar aholisi uchun ekologik sertifikatlashtirish tizimini joriy etish kerak, bunda shahar arxitekturasi va ekologik dizayni, asoslangan holda quriladi. Bunda yashil tomlar, vertikal bog‘lar va energiya tejovchi binolarni loyihalash, ya’ni tabiiy resurslardan foydalanishni optimallashtiruvchi ekologik me’moriy loyihalarni ishlab chiqish iqlim o‘zgarishiga moslashish uchun innovatsion arxitektura usullarini qo‘llash hamda jamiyatni o‘zaro bog‘laydigan shahar maydonlari shahar madaniyati doirasida ijtimoiy muloqotni rag‘batlantiruvchi umumiy maydonlar muhim o‘rin egallaydi. Bundan tashqari ochiq madaniy va sport markazlarini tashkil etish, ekologik hamda ijtimoiy loyihalar uchun fuqarolarni jalb etuvchi dasturlarni kengaytirish kabi ishlarni amalga oshirish darkor.

Shahar ekologik muvozanatini ta’minlashda qonunchilikning o‘rni beqiyosdir. Yangi qonunlar va me’yoriy hujjatlar, xususan, chiqindilarni boshqarish va qayta ishlashni majburiy qilish, atrof-muhitga zarar yetkazuvchi korxonalarni qattiq nazorat qilish kabilar vazifalar bor. Bu shaharsozlikda ekologik standartlarga rioya qilinishini ta’minlaydi.

Shahar madaniyati va ekologik uyg‘unlikni rivojlantirish jamiyat barqarorligi va kelajak avlodlar farovonligi uchun muhimdir. Yangi O‘zbekiston massivi bu yo‘nalishda

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

muvaffaqiyatli tajriba sifatida namoyon bo‘lib, boshqa shaharlar uchun ilhom manbai bo‘lishi mumkin. Rivojlanishning istiqbollari esa ekologik xavfsizlik, texnologiyalar va ijtimoiy ongni uyg‘unlashtirish orqali amalga oshirilishi lozim. Shu tariqa, shaharlar nafaqat yashash uchun qulay joy, balki madaniy va ekologik uyg‘unlikning yorqin namunasi bo‘lib xizmat qiladi[9].

Shahar madaniyatining shakllanishida ijtimoiy va madaniy uyg‘unlikning o‘rni muhim ahamiyatga ega ekani ta’kidlanadi. Ijtimoiy uyg‘unlik jamiyat a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, hamkorlik, va birdamlikning yuqori darajasiga erishilgan holatni anglatadi.

Turli millatlar va ijtimoiy guruhlarning birgalikda tinch va farovon yashashlari shahar muhitining ijobiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Masalan, Yangi O‘zbekiston massividagi ko‘p millatli aholining birgalikda yashash tajribasi ijtimoiy uyg‘unlikka asoslangan:

Madaniyatlararo muloqot: Turli madaniyat vakillarining o‘zaro ta’sirchanligi orqali shahar madaniyatini boyitish imkoniyati. Yangi O‘zbekiston massivida bu tamoyil milliy bayramlar va madaniy tadbirlar orqali rivojlantirilmoqda.

Madaniy merosni saqlash: Tarixiy va madaniy qadriyatlarni yangi massivlar sharoitida asrab-avaylash. Masalan, Yangi O‘zbekiston massivining arxitekturasi mahalliy uslublar va zamonaviylikni uyg‘unlashtirgan.

Sog‘liqni saqlash tizimi: Massivda sifatli tibbiyot xizmatlarini tashkil etish orqali aholining salomatligi va turmush sifatini oshirishga erishilgan.

Ta’lim muassasalari: Maktablar va bolalar bog‘chalari madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Madaniy markazlar: Mahalliy aholi uchun teatrlar, kutubxonalar va boshqa madaniy maskanlar shahar madaniyatini shakllantirishda muhim omillardan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekiston massivida ijtimoiy va madaniy uyg‘unlikni ta’minlashda zamonaviy texnologiyalar, jumladan, raqamli platformalar orqali ijtimoiy xizmatlardan foydalanish, masofaviy madaniy tadbirlar va ta’lim loyihalari tashkil etish orqali aholining turli qatlamlarini jalb qilish kabi ishlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Ijtimoiy va madaniy uyg‘unlikning ekologik muvozanat bilan bog‘liqligini o‘rganar ekanmiz, shahar ekologiyasiga e’tibor qaratish orqali aholi uchun qulay yashash muhitini yaratishga qaratilgan ishlar ekologik onglilikni targ‘ib qilish va fuqarolarni bu jarayonga jalb etish kabi amaliy jihatlarini ko‘rsatadi[2].

Ijtimoiy va madaniy uyg‘unlikni ta’minlash shahar madaniyatining ajralmas qismi ekanini ta’kidlab, Yangi O‘zbekiston massividagi bu tamoyil zamonaviy shaharsozlikning yangi namunasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu orqali nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy rivojlanish uchun barqaror zamin yaratilgan.

Yangi O‘zbekiston massivining tajribasi bo‘limida urbanizatsiya jarayonida ekologik muvozanatni ta’minlash va shahar madaniyatini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan yondashuvlar o‘rganiladi. Ushbu qism quyidagi jihatlar bo‘yicha tahlil qilinadi, xususan, yashash joylarining inson ehtiyojlariga moslashtirilgani va yashil hududlarning ahamiyatiga alohida urg‘u berilgani dolzarb hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash esa zamonaviy yondashuvni ta’minlagan.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, zamonaviy chiqindi boshqaruvi tizimlarini joriy qilish kabi chora-tadbirlar Yangi O‘zbekiston massivlari tajribasining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Bu ekologik muvozanatni saqlash bilan birga, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Ekologik xavfsizlikka yo‘naltirilgan chora-tadbirlar, xususan, yashil hududlarni kengaytirish va havoni ifloslantiruvchi manbalarni kamaytirish masalalari ham keltirilgan. Bu nafaqat ekologiya, balki aholi salomatligi uchun ham muhim[10].

Yangi O‘zbekiston massivining ekologik muvozanat va shahar madaniyati uyg‘unligini ta’minlash borasidagi yutuqlari ko‘p qirrali yondashuvning muvaffaqiyatli namunasi sifatida baholanadi.

Loyihada ko‘rsatilgan innovatsion yechimlar (quyosh va shamol energiyasidan foydalanish kabi) boshqa hududlar uchun ham andoza sifatida xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, massivlarning uzoq muddatli ekologik va iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish uchun ko‘proq statistik ma’lumot va monitoring natijalari keltirilishi lozim.

Maqolada shaharsozlik va ekologik barqarorlik masalalariga yangi qarashlarni taqdim etsa-da, mavzuni ilmiy va amaliy jihatdan boyitish uchun yanada kengroq faktlarga asoslangan ma’lumotlar zarur. Yuqoridagi barcha ma’lumotlarni birlashtirib, shahar madaniyati va ekologik muvozanat masalalariga nisbatan tahliliy yondashuvni shakllantirish mumkin. Urbanizatsiya jarayoni rivojlanib borar ekan, shahar madaniyati faqat iqtisodiy va madaniy jihatlar bilan cheklanib qolmasligi, balki ekologik mas’uliyatni ham o‘z ichiga olishi lozim. Tahlil asosida quyidagi xulosalar chiqariladi:

Ekologik muvozanat shahar madaniyatining asosiy tarkibiy qismi sifatida qaralishi zarur. Shahar aholisi ekologik ongni rivojlantirgan holda yashash muhiti bilan uyg‘unlikda hayot kechirishi kerak. Bu esa shahar infratuzilmasidan tortib, yashil hududlarni kengaytirish va chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirishni talab qiladi.

Yangi O‘zbekiston massivlari zamonaviy shaharsozlik va ekologik barqarorlikning muvaffaqiyatli namunasi sifatida e’tirof etilishi mumkin. Massivlarda yashil hududlarning ko‘pligi, ekologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha ilg‘or texnologiyalardan foydalanish va infratuzilmani barqaror rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar bu sohadagi amaliy yutuqlarni ifodalaydi.

Shaharsozlik va ekologiya uyg‘unligini ta’minlash uchun kompleks yondashuv zarurligi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni boshqarish tizimini rivojlantirish va transport tizimini ekologiklashtirish kabi chora-tadbirlar birgalikda amalga oshirilishi lozim.

Shahar madaniyati va ekologik muvozanat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aholiga yetkazish va ekologik ta’limni rivojlantirish. Aholining ekologik mas’uliyatini oshirish uchun ta’lim va targ‘ibot ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yosh avlodda ekologik ongni shakllantirish kelajakdagi ekologik xavfsizlikning kafolati hisoblanadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, shahar madaniyati va ekologik muvozanat bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘unligi shaharlarni barqaror rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi. Yangi O‘zbekiston massivlarining tajribasi zamonaviy shaharsozlikning

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ekologik tamoyillar bilan uyg‘unlashgan holda rivojlantirilishining muvaffaqiyatli namunasi bo‘lib, bu model boshqa hududlar uchun ham o‘rnak bo‘la oladi. Shu bois, shahar madaniyatini rivojlantirish jarayonida ekologik muvozanatni ta’minlashga yanada ko‘proq e’tibor qaratish lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Yangi O‘zbekiston massivida ekologik muvozanatni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi. Toshkent: Qaror. 2022.
2. Allen, J., & Cochrane, A. (2010). Assemblages of state power: Topological shifts in the organization of government and politics. Antipode, 42(5), 1071–1089. https://doi.org/10.1111/j.1467-8330.2010.00794.x
3. Colding, J., & Barthel, S. (2013). The potential of urban green commons in the resilience building of cities. Ecological Economics, 86, 156–166. https://doi.org/10.1016/j.ecolecon.2012.10.016
4. Chiesura, A. (2004). The role of urban parks for the sustainable city. Landscape and Urban Planning, 68(1), 129–138. https://doi.org/10.1016/j.landurbplan.2003.08.003
5. Rozanova, L. P. (2021). Ekologik muvozanat va shahar madaniyatini shakllantirish. Toshkent Ekologik Institut Materiallari, 4, 57–63.
6. United Nations. (2015). *Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development*. Retrieved from https://www.un.org/sustainabledevelopment
7. Yang, J., Zhao, L., McBride, J., & Gong, P. (2009). Can you see green? Assessing the visibility of urban forests in cities. *Urban Forestry & Urban Greening*, 8(3), 201–212. https://doi.org/10.1016/j.ufug.2009.02.003
8. WHO (World Health Organization). (2010). *Urban green spaces and health*. Geneva: WHO. (pp. 12–21)
9. Leach, M., Scoones, I., & Stirling, A. (2010). Dynamic sustainabilities: Technology, environment, social justice. London: Earthscan. (pp. 45–67)
10. Ziegler, R., & Ott, K. (2011). The quality of sustainability science: A philosophical perspective. *Sustainable Development*, 19(2), 61–71. https://doi.org/10.1002/sd.463

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Abdullayeva Xafiza**, dotsenti v.b. [**Абдуллаева Хафиза**, и.о доцента], [**Hafiza O. Abdullayeva**, acting associate professor]; Toshkent sh. Mirzo Ulug‘bek tumani, Yalang‘och dahasi 127 «A» uy. [адрес: Узбекистан, 117036, Ташкент, Мирзо Улугбекский район, Массив Ялангач, 127 «A» дом.], [address: Uzbekistan, 117036, Tashkent, Mirzo Ulugbek, Yalangoch Street, 127 “A”.]; Email: hafiza05550@mail.ru]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

TEATRLAR FAOLIYATIDA MENEJMENTNING AHAMIYATI

© G.A. Saparbaeva[1]✉

[1]O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali, Nukus, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH. teatr san’ati jamiyatning madaniy hayotida muhim o‘rin tutadi. U nafaqat badiiy-estetik tajribani shakllantiradi, balki ijtimoiy ong va qadriyatlarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bugungi kunda teatrlarning samarali faoliyat yuritishi zamonaviy menejment tizimi bilan bevosita bog‘liqdir. Teatr menejmenti moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, tomoshabinlar auditoriyasini kengaytirish va ijodiy jarayonni innovatsion usullar bilan boshqarish imkoniyatini yaratadi. Shu boisdan, teatr menejmentining zamonaviy usullari, ularning samaradorligi va istiqbollari tahlil qilinishi dolzarb masala hisoblanadi.

MAQSAD: teatrlar faoliyatida menejmentning ahamiyatini o‘rganish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan strategiyalarni tahlil qilish va zamonaviy teatr menejmenti tamoyillarining teatr industriyasidagi o‘rnini belgilashdir. Tadqiqotda teatr boshqaruvining eng muhim jihatlari, jumladan, moliyaviy menejment, marketing strategiyalari, tomoshabinlarni jalb qilish usullari va raqamli texnologiyalarning teatr sohasidagi roli ko‘rib chiqiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanilgan: Tahlil va taqqoslash usuli – turli teatrlarning boshqaruv tizimlari tahlil qilinib, ularning samaradorligi baholanadi. Empirik tadqiqotlar – turli teatrlarning menejment strategiyalari bo‘yicha amaliy misollar keltiriladi. So‘rov va intervyu usullari – teatr rahbarlari, rejissyorlar va menejerlar bilan olib borilgan suhbatlar asosida xulosalar chiqariladi. Akademik adabiyotlarni o‘rganish – teatr menejmenti bo‘yicha xalqaro tajriba va ilmiy maqolalar tahlil qilinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, samarali teatr menejmenti teatr faoliyatining barcha jihatlariga ta’sir qiladi: Moliyaviy barqarorlik – teatrlarning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi bilan birga, homiylar va xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali o‘zining iqtisodiy mustaqilligini oshirishi mumkin. Marketing va auditoriya bilan ishlash – tomoshabinlarni jalb qilish uchun innovatsion reklama strategiyalari, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalardan foydalanish teatr faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ijodiy menejment – teatr repertuarini shakllantirish, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash va xalqaro hamkorlik orqali ijodiy jarayonlarni rivojlantirish mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

XULOSA: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, teatr menejmenti teatr industriyasining ajralmas qismi bo‘lib, uning rivojlanishi bevosita menejerlarning strategik yondashuvlariga bog‘liqdir. Teatr menejmentining samaradorligi nafaqat teatrning iqtisodiy barqarorligini ta’minlaydi, balki tomoshabinlar sonini oshirish va san’atni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Tayanch so‘zlar: teatr menejmenti, teatr san’ati, madaniy industriya, marketing strategiyasi, raqamli transformatsiya, auditoriya jalb qilish, iqtisodiy barqarorlik, teatr boshqaruvi, zamonaviy texnologiyalar.

Iqtibos uchun: Saparbayeva G. A. Teatrlar faoliyatida menejmentning ahamiyati// Inter education & global study. 2025. №3. B.586–595.

ВАЖНОСТЬ МЕНЕДЖМЕНТА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТЕАТРОВ

© Г.А. Сапарбаева[1]✉
[1]Нукусский филиал Государственного института искусств и культуры Узбекистана, Нукус, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ. театральное искусство занимает важное место в культурной жизни общества. Оно не только формирует художественно-эстетический опыт, но и способствует развитию общественного сознания и ценностей. В настоящее время успешная деятельность театров напрямую связана с современными системами менеджмента. Театральный менеджмент обеспечивает финансовую стабильность, расширяет зрительскую аудиторию и внедряет инновационные методы управления творческими процессами. Поэтому изучение современных методов театрального менеджмента, их эффективности и перспектив является актуальной темой.

ЦЕЛЬ: исследование значимости менеджмента в деятельности театров, анализ стратегий повышения его эффективности и определение роли современных принципов театрального менеджмента в театральной индустрии. В исследовании рассматриваются ключевые аспекты театрального менеджмента, такие как финансовый менеджмент, маркетинговые стратегии, методы привлечения зрителей и роль цифровых технологий в театральной сфере.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы следующие методы: Анализ и сравнение – изучение систем управления различными театрами и оценка их эффективности. Эмпирические исследования – приведение практических примеров стратегий театрального менеджмента. Опросы и интервью – проведение бесед с руководителями театров, режиссерами и менеджерами для формирования выводов. Изучение академической литературы – анализ международного опыта и научных публикаций по театральному менеджменту.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показывают, что эффективный театральный менеджмент оказывает влияние на все аспекты

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

деятельности театров: Финансовая стабильность – театры могут обеспечивать свою экономическую независимость за счет государственной поддержки, спонсорства и частных инвестиций. Маркетинг и работа с аудиторией – применение инновационных рекламных стратегий, социальных сетей и цифровых платформ способствует увеличению эффективности театральной деятельности. Творческий менеджмент – формирование репертуара, внедрение современных технологий и международное сотрудничество способствуют развитию творческих процессов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: результаты исследования показывают, что театральный менеджмент является неотъемлемой частью театральной индустрии, а его развитие напрямую зависит от стратегического подхода менеджеров. Эффективность театрального менеджмента обеспечивает не только экономическую стабильность театров, но и способствует увеличению зрительской аудитории и развитию искусства.

Ключевые слова: театральный менеджмент, театральное искусство, культурная индустрия, маркетинговая стратегия, цифровая трансформация, привлечение аудитории, экономическая стабильность, управление театром, современные технологии.

Для цитирования: Сапарбаева Г.А. Важность менеджмента в деятельности театров // Inter education & global study. 2025. №3. С. 586–595.

THE IMPORTANCE OF MANAGEMENT IN THEATER ACTIVITIES

© Gulshira A. Saparbaeva [1]✉
[1]Nukus Branch of the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan, Nukus, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION. theater art plays a significant role in the cultural life of society. It not only shapes artistic and aesthetic experiences but also contributes to the development of social consciousness and values. Today, the effective operation of theaters is directly linked to modern management systems. Theater management ensures financial stability, expands audience engagement, and introduces innovative methods for managing creative processes. Therefore, studying modern approaches to theater management, their effectiveness, and future prospects is a relevant topic.

AIM: the purpose of this study is to examine the significance of management in theater activities, analyze strategies for enhancing its efficiency, and define the role of modern theater management principles in the theater industry. The research focuses on key aspects of theater management, including financial management, marketing strategies, audience engagement methods, and the role of digital technologies in the theater sector.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

MATERIALS AND METHODS: the study utilizes the following methods:

analysis and comparison – examining management systems in various theaters and evaluating their effectiveness.

empirical research – providing practical examples of theater management strategies.

surveys and interviews – gathering insights from theater directors, managers, and producers to formulate conclusions.

review of academic literature – analyzing international experiences and scientific publications on theater management.

DISCUSSION AND RESULTS: the research findings indicate that efficient theater management influences all aspects of theater operations:

financial stability – theaters can enhance their economic independence through government support, sponsorships, and private investments.

marketing and audience engagement – implementing innovative advertising strategies, social media, and digital platforms improves the effectiveness of theater activities.

creative management – developing repertoire planning, integrating modern technologies, and fostering international collaborations contribute to the advancement of creative processes.

CONCLUSIONS: the study results demonstrate that theater management is an integral part of the theater industry, with its development directly depending on the strategic approach of managers. Effective theater management not only ensures financial stability but also helps expand audience reach and promote artistic development.

Keywords: theater management, theater art, cultural industry, marketing strategy, digital transformation, audience engagement, economic stability, theater administration, modern technologies.

For citation: Saparbaeva G.A. The Importance of Management in Theater Activities // Inter education & global study. 2025. №3. pp. 586–595.

Teatr, kino yoki konsert tomoshalarini televideniye va internet orqali tomosha qilish, ularni zarur bo‘lsa ko‘chirib olish mumkin. Biroq, teatr shu qadar nozik san’at turlaridan biriki, zaldagi tomoshabinning nigohi, nafasi va olqishi aktyorga dalda, qanot va ilhom beradi. U tomoshabinning qarsagiyu olqishidan mast bo‘ladi, yurakdan entikadi, ko‘zlariga yosh qalqiydi. Qo‘shni davlatlardagi hamkasblarimiz singari yurtimiz teatr rejissyorlari internet orqali onlayn tomoshalar, audiospektakllar yaratdi, yangi asarlar repititsiyalari namoyish etdi. Aktyorlar she’ru masallar o‘qib, internet tarmoqlaridagi sahifalariga joylashtirdi. Biroq yuqorida aytganimiz, teatr san’atining aktyor va tomoshabin o‘rtasidagi muloqoti, o‘zaro munosabati singari “jonli” aloqasini e’tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Endilikda, teatr rahbariyati zimmasiga jamotchilik ma’naviy talabini qondirish barobarida, taqdim etajak mahsuloti (spektakl) evaziga

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

daromad ko‘rishdek anchayin mushkul vazifa yuklanadi. Demak, buning uchun teatr-tomosha muassasalari zamon va bugungi vaziyat talabiga ko‘ra yangicha yondoshuv, boshqaruv va ish uslubiga o‘tishi kerak.

Teatr san’ati va umuman, san’at sohasiga bozor munosabatlari, marketing va menejment singari zamonaviy iqtisodiyot yuritish iboralarini qo‘llash, ayniqsa mazkur sohaga tadbiq etish zarur. Zotan, yillar davomida shakllangan boshqaruv va teatr mahsulotini taqdim etish usullari, tan olish kerak, bugun biroz zamondan orqada qolayotgandek. Negaki, axborot texnologiyalari, internet tizimining keyingi o‘n yil orasida shiddatli o‘zgarishi va rivojlanishi aksariyat sohalarning faoliyatini butunlay qayta ko‘rib chiqish, ish uslublarini o‘zgartirishga majbur qildi. Bugungi globallashuv sharoitida dunyo mamlakatlari iqtisodiyoti, moliyaviy barqarorligi, ishlab chiqarish quvvatlarini bir biridan ayro tasavvur qilib bo‘lmaydi. Madaniy-gumanitar aloqalar, madaniy almashinuv, san’at sohasi shu o‘rinda eng zaif va himoyaga muhtoj yo‘nalish ekani ayon haqiqat.

Har qanday mukammal iqtisodiy mexanizm kadrlar, malakali va tajribali mutaxassislarsiz amalga oshmaydi. Albatta, yillar davomida shakllangan ish uslubi, tomoshabinni jalb qilishdagi qoliplardan voz kechish oson emas. Buning uchun teatr-tomosha muassasalariga zamonaviy axborot texnologiyalari, internet va elektron ommaviy axborot vositalari bilan ishlash tajribasiga ega zamonaviy menejerlar jalb etilishi kerak. Shuningdek, san’at va madaniyatga ixtisoslashgan oliy ta’lim o‘quv yurtlarida teatr san’ati menejmenti va marketingi fakultuetlari faoliyatini takomillashtirish, lozim bo‘lsa, xorijdan yetakchi mutaxassislar taklif etib, sohani rivojlantirish, mahorat darslari va tajriba almashinuvni yo‘lga qo‘yish ayni muddao. Shiddatli o‘zgarishlar davrida tomoshabin bilan muntazam aloqa va dialog, unga zarur axborot va reklama-targ‘ibot materiallarini vaqtida yetkazish, turli tadbir va uchrashuvlarga taklif etishda ommaviy axborot vositalari, internet va zamonaviy axborot texnologiyalardan yanada kengroq foydalanish pirovardida ijobiy natija beradi[1]. Ijodiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun yangi resurslarni izlash, teatr menejmentini takomillashtirish, iqtisodiy bo‘lmagan sohaning rivojlanish omillarini xususan teatr san’ati sohasida amalga oshirish zarur.

Teatrning gullab-yashnashi yoki inqirozi, undagi turli shakllar, tendensiyalar, g‘oyalar rivojlanishi, teatrning jamiyat hayotidagi o‘rni va uning zamon bilan aloqalari, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, uning ma’naviy talablariga bog‘liqdir. Teatrning badiiy yuksalishi odatda zamonning ilg‘or g‘oyalari bilan o‘zini bog‘lab, gumanistik idealarga qarshi kurashadi, insonning ichki dunyosining murakkabligini chuqur va haqiqatdan oshkor qiladi, uning jamoat yo‘nalishlarini ochib beradi. Teatr to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqarish sohasiga tegishli emas, u xalqning hayotidan ajralmasdir, teatrning ko‘tarilishi zamonning ilg‘or tendensiyalariga moslik darajasi bilan belgilanadi. Ya’ni, teatrning mavjud ijobiy tajribasi, analojiya qonuniga ko‘ra, boshqa sohalar va inson faoliyatining turli jabhalarida, shu jumladan menejmentda qo‘llanilishi mumkin.

Menejment va teatr kabi hodisalar o‘rtasida ko‘p umumiyliklar, ko‘p mosliklar mavjud bo‘lib, ularni o‘zaro rivojlanish va takomillashtirish uchun foydalanish zarur. Boshqaruv samaradorligini oshirish masalasi o‘rganilayotgan bo‘lsa, teatrning

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

boshqaruvga ta’sirini ko‘rib chiqishga harakat qilish kerak. Buning aksi ham mumkin. Ta’sir faqat teatrning va boshqaruv mohiyatining ifodalanish shakllari mos keladigan joylarda bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, sahna va menejment o‘rtasidagi umumiylikni tahlil qilishga to‘xtalamiz.

Teatr adabiy asarni sahna harakatlari va maxsus teatr obrazlariga aylantirganidek, qahramonlar, dramadagi mojaro jonli shaxslar orqali ifodalanadi, shuningdek, menejerning harakatlarida nazariy ta’limotlar, gipotezalar aniq buyruqlar, topshiriqlar, ko‘rsatmalar sifatida amalga oshiriladi. Boshqaruv jarayonida ilmiy nazariyalar rahbarlarning alohida jamoalariga ta’sir qilish tizimiga aylanib, ularning belgilangan maqsadlariga erishish uchun ishlatiladi. Teatr – bu jamoaviy san’atdir. Spektakl – barcha elementlarning badiiy birligi va uyg‘unligi bo‘lgan asar. U rejissyor rahbarligida va rejissyorning g‘oyasiga mos ravishda aktyorlar, sahna rassomi, kompozitor, xoreograf, texnik ishchilar tomonidan hamkorlikda yaratiladi. Xuddi shunday, muassasa boshqaruvi jarayonida butun jamoa jalb etiladi.

Turli funksional xizmatlar (moliyaviy, tahliliy, marketing, texnologik, logistika, rejalashtirish va boshqa), ishlab chiqarish tuzilmalari, xizmat ko‘rsatuvchi bo‘linmalar jalb etiladi, imkoniyatlar doirasida inson resurslari ham jalb qilinadi. Bu jarayonda asosiy muammo ularning harakatlarini muvofiqlashtirish, ularning rivojlanishdagi nisbatan muvozanatini va qarorlar qabul qilishda uyg‘unlikni ta’minlashdir. Teatr va menejment tomonidan hal qilinadigan vazifalarning belgilangan o‘xshashligi, ularning rivojlanishidagi o‘xshashliklar menejmentni takomillashtirishning shu jarayonda aniqlanadigan zaxiralarini ko‘rish imkonini beradi.

Birinchidan, teatr menejerga barcha hayotiy muammolarni turli tomonlardan ko‘rib chiqishga yordam beradi, shu bilan birga yuzaga kelgan vaziyatdan chiqish mumkin bo‘lgan yo‘llarni ko‘rsatadi. Teatr ma’lum bir real vaziyatni modellashtiradi va uni hal qilish yondashuvlari hamda metodlarini ochib beradi. Teatr usullari menejerga to‘g‘ri xulq-atvorni tanlashda va jamoada ishbilarmonlik muhitni yaratishda yordam beradi.

Ikkinchidan, teatr menejerni o‘zi bilan teng bo‘lmagan, ammo muayyan sharoitlar uchun talab qilinadigan obrazni yaratishga yordam beradi, uni turli vaziyatlarda tashqi va ichki jihatdan o‘zgarishga o‘rgatadi. Jahon teatrining tarixida tashqi va ichki transformatsiyani mukammal tarzda bajaradigan aktyorlar haqida ma’lumotlar mavjud. Teatr menejerni o‘zgaruvchan sharoitlarga mos keladigan obrazga ichki tarzda o‘zgarish metodologiyasini ishlab chiqdi va o‘sha sharoitlarni boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Uchinchidan, teatrning asosida rejissyorning asarni talqin qilish, uning janr va stilistik qarorlarini ishlab chiqish yotadi. Menejer ham o‘ziga xos tarzda, individual ravishda vaziyatni baholash va o‘zining harakat variantini tanlash orqali maqsadga samarali erishishi kerak. Buning uchun unga teatr faoliyatiga xos bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalar va boshqaruv usullari kerak bo‘ladi.

To‘rtinchidan, teatr tomoshalarida odatda yuqori axloqiy va ma’naviy qadriyatlar, hayotga falsafiy qarash, yaxshilik va yovuzlikning keskin antitezisi mavjud. Zamonaviy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

menejment ham jamiyat oldida ijtimoiy mas'uliyatdan tashqarida, axloqiy boshqaruv prinsiplari asosida amalga oshirilishi mumkin emas.

Beshinchidan, teatr menejerdagi liderlik fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Agar iqtisodiyot sohasida g'oyalar samara bermasa, iqtisodiy rivojlanishdagi o'zgarishlarni amalga oshirishda samarasiz say-harakatlar mavjud bo'lsa, lider zarur. Chunki faqat lider tashkilotning amaliyotini yangilash, iqtisodiy kompleksning barcha darajalarida struktura o'zgarishlarini amalga oshirish uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

Oltinchidan, san'at dunyosi teatr truppasining barcha ishtirokchilarini o'z jarayoniga jalb qiladi. Pyesani sahnalashtirish jarayonida ijodiy muhitda izlanish, o'zaro yordam va tushunish atmosferasi hukm suradi. Ushbu talablar nano-korporatsiyalarga ham qo'yiladi. Menejer, agar bunday sharoitlarni yaratmasa, tashkilot faoliyatining ijobiy natijalariga umid qilishi mumkin emas.

Yettinchidan, teatr samarali kommunikatsiyalarni o'rnatishni o'rgatadi, bu esa menejer faoliyatining eng muhim muammosi bo'lib, uning ish vaqtining 70 foizigacha bo'lgan qismini tashkil etadi. Muassasa xodimlari o'rtasidagi tushunmovchilik belgilangan vazifalarni hal etmaslikka olib keladi. So'z, nutq, temp, ritm, hissiy kuchlanishning o'sishi va pasayishi – bu teatr menejerini qurollantiradigan va kommunikatsiyalar samaradorligini ta'minlaydigan eng muhim vosita bo'ladi. Bu esa boshqaruv jarayonining samaradorligini oshirishning asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi. Shunday qilib, menejment samaradorligini oshirishning o'sish nuqtasini izlash masalasi faqat iqtisodiy omillarni o'rganish bilan chegaralanmasligi kerakligini ta'kidlash lozim. Iqtisodiy bo'lmagan omillar orasida madaniyat, xususan, teatr alohida o'ringa ega. Yuqorida sanab o'tilgan teatr san'ati sohasidagi tajribalardan foydalanish imkoniyatlari, bu sohada boshqa inson faoliyati sohalarida, shu jumladan boshqaruvda ham foydalanish mumkin bo'lgan zaxiralar mavjudligini ko'rsatadi[2].

Bugungi kunda teatr sohasida menejmentning dolzarb ahamiyat kasb etishi, birinchi navbatda, san'at va iqtisodning o'zaro uyg'unlashuvi va ijodiy sohada samarali menejmentning zarurligi bilan bog'liq. Teatr faqat ijodiy faoliyatni o'z ichiga olmaydi, balki uning muvaffaqiyati va uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash uchun boshqaruv va rejalashtirish jarayonlari ham muhim rol o'ynaydi. Menejmentning samarali amalga oshirilishi teatrning moliyaviy va tashkiliy jihatlarini mustahkamlash, auditoriya bilan muloqot qilish, va keng qamrovli madaniy dasturlarni tashkil etish uchun ham zarurdir. Teatr menejmentining asosiy vazifalaridan biri – ijodiy jarayonlarni boshqarish, bu esa spektaklni ishlab chiqish, aktyorlar va rejissyorlar bilan ishlashni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, menejment teatrning ijtimoiy va madaniy funksiyalarini amalga oshirishda, uning jamoatchilik bilan aloqalarini rivojlantirishda, hamda auditoriyani jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Menejmentning bu sohaga integratsiyasi, teatrning nafaqat san'atkorlik darajasini, balki uning moliyaviy barqarorligini ham ta'minlashga yordam beradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Teatr sohasidagi menejmentning yana bir dolzarbligi strategik rejalashtirish va marketingni rivojlantirishdir. Xalqimizga san'at asarlarini taqdim etishda auditoriya ehtiyojlarini hisobga olish, teatr faoliyatiga yangiliklar kiritish va teatrni zamonaviy tendensiyalarga moslashtirish zarurati ortadi. Teatr menejmenti, shuningdek, muhim iqtisodiy resurslarni boshqarish va ularni samarali taqsimlashda, xususan, homiylik, grantlar va boshqa mablag'larini jalb qilishda o'z o'rnini topadi. Teatr menejmentining zarurati ijodiy ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashdir. Teatr sohasida menejmentning mustahkam asoslari bo'lmasa, iqtisodiy qiyinchiliklar bilan samarali kurashish juda qiyin bo'ladi. Shunday qilib, teatr sohasida menejment nafaqat san'atni rivojlantirish, balki uning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi zamon bozor paradigmasida teatrlar yuqori raqobatbardoshlik va ularning xizmatlariga bo'lgan talabga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan vaziyatda qolmoqda. Yangi sharoitlar teatr san'atining innovatsion shakllari va janrlarini, tomoshabinlarning estetik talablariga javob beradigan, tadqiqotni, shuningdek, teatrni boshqarish metodlari va yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Teatr menejmentining iqtisodiy jihatlari A.M. Babich, L.N. Galenskaya, V.S. Zhidkov, A.I. Dymnikova, N.A. Mikheeva, G.L. Tulchinskiy va boshqalarning ilmiy asarlarida ko'rib chiqilgan[3]. Teatr menejmentini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish, teatr san'atining samarali ishlashini ta'minlash, uning ijodiy va moliyaviy resurslarini boshqarish, hamda ijtimoiy va madaniy ahamiyatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Teatr menejmentini ilmiy asosda o'rganishning teatr menejmenti amaliyotidagi o'rni g'oyatda yuqoridir. Ayniqsa, bu yo'nalishdagi imiy izlanishlar teatr menejmentining muhim aspektlarini tahlil qilish va tizimli ravishda ko'rib chiqish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, boshqaruv jarayonlarining aniq va samarali tashkil etilishining bosh omili bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar yangi texnologiyalar, marketing strategiyalari va boshqaruv metodlarini sinovdan o'tkazishga yordam beradi. Bu esa teatrni yangilash va modernizatsiya qilishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, teatr menejmentini ilmiy o'rganish nafaqat amaliy boshqaruvni, balki ijodiy jarayonlarning muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Bu jarayonlar haqida Madaniyat vaziri O.Nazarbekov: "Teatr jamoalari yoshlarni o'ziga jalb qiladigan kontentlar tayyorlab borishi zarur. Sahnada qanday ishlansa, ijtimoiy tarmoqda ham shunday mas'uliyat bo'lsin. Zero, mazkur yo'nalishda bolalarimiz uyda kompyuter, telefon orqali foydalanadigan milliy kontentlar kam" – deya ta'kidlab o'tgan edi[4]. Haqiqatan ham, bugungi kunda yoshlar ko'proq virtual dunyo bilan chegaralanib, real hayotdan, uning ijtimoiy va madaniy qadriyatlaridan uzoqlashib borishmoqda.

Shuning uchun, teatr san'ati, ayniqsa yoshlarni milliy o'zlik va insoniy qalb tuyg'usini saqlab qolishga, real hayotga qaytarish va ruhiy salomatligini mustahkamlashda juda katta rol o'ynaydi. Sababi, teatr saxnasidagi har bir obraz, har bir asar, tomoshabinni real xayotga qaytaradi, uni dunyoni boshqa yanada jonli ko'rishga undaydi. Shu o'rinda teatrning ijtimoiy va g'oyaviy tahdidlarga qarshi kurashdagi ahamiyatini ham andoq unutmaslik kerak. Teatr o'zining ko'p qirrali va tafakkurga

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

yo‘naltiruvchi xususiyatlari bilan yoshlarni faqat tashqi dunyo bilan emas, balki o‘z ichki dunyosi bilan ham tanishtirish imkoniyatini yaratadi. Shuning uchun, teatrning ahamiyati hech qachon kamaymaydi.

Aholi orasida teatrning mashhurligi va teatrning muvaffaqiyatlari rejissyorlar, aktyorlar, sahna rassomlari jamoasining tinimsiz ijodiy izlanishlari va teatr menejmentining samarali ishlashi natijasida erishildi. Teatr rahbariyatining oldida maqsad qo‘yish, rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish, tartibga solish va jamoa faoliyatini baholash kabi murakkab vazifalar turadi. Har bir spektaklni tashkil etish uchun tegishli badiiy fonni yaratish, estetik muhitni tashkil etish, tomoshabinni spektaklda sodir bo‘layotgan davr va voqealarga chuqurroq qaratish zarurati mavjud. Teatr faoliyatida muhim yo‘nalishlardan biri bu jamoatchilik bilan aloqalar bo‘lib, ular ijobiy kommunikatsiya muhiti, ishbilarmon obro‘ni shakllantirishga va ijodiy korxonaning ijobiy imidjini yaratishga yordam beradi. Teatrni rivojlantirish istiqbollari, asosan, jamoatchilik bilan aloqalar, madaniyatlararo o‘zaro ta’sir va zamonaviy kommunikatsiya makonini tartibga soluvchi texnologiyalarni qanchalik mukammal o‘zlashtirishga bog‘liq[5].

Teatrlar faoliyatida menejment mexanizlarini joriy etish menejerlarga yuklanadi. Ular teatrlar faoliyatini rejalashtirish, boshqarish tahlil, nazorat va ijodiy harakatlarni prognozlash, innovatsion loyihalarni amalga oshiradi. Teatr faoliyatida menejment dasturlarini ishlab chiqish, eng saralarini tanlash va tasdiqlashni menejer amalga oshiradi. Keyin bu dasturlarni amalga oshirish uchun ijodiy, moliyaviy resurslar va imkoniyatlarni izlaydi. Ijodiy jamoalarni shakllantiradi, ular orasidagi harakatlarni muvofiqlashtirish va belgilangan vazifalarni hal qilish, hattoki teatr bozorida mahsulotni tarqatishgacha bo‘lgan jarayonlarni amalga oshiradi. Ishning yakuniy bosqichida teatr xizmatlarini iste’molchilar orasida joriy etish va tarqatish, yanada takomillashtirishni amalga oshiradi. Ammo bu funksiyalarning mazmuni teatr sohasidagi o‘zaro aloqalari teatrning o‘ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek, uning ichki mehnat taqsimotidan kelib amalga oshirilishi kerak. Teatrlar faoliyatida menejmentning asosi inson kapitali va ijodi negizida shakllantiriladi. Baribir, bu jarayonlar teatr menejmentida “loyiha” sifatida amalga oshirilaveradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Andakulov A. Teatr – tomoshabin bilan tirik// gaz. Jamiyat № 51-52 (777). – Toshkent.: Sharq. 2021.
2. Куприянов С., Радосавлевич Д., Лилич В. Роль театра в повышении эффективности менеджмента. *Pravo, ekonomija i menadžment u savremenim uslovima lemima 2017*, 111.
3. Арапова П. Н., Сумарокова А. П., Погожева В. П., Петрова К. А., Перетц В. Н. (2018). Специфика менеджмента театра современной хореографии: функционально-технологический подход. Проблемы и перспективы развития современного театрального искусства в россии, 19.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

4. Nazarbekov O. Ortga qaytmas islohotlar maqsadi har birimizda yaratuvshanlik shijoatini uyg‘otadi // Gaz. Yangi O‘zbekiston 203-son. – Toshkent.: Kolorpak, 2023. 6 b.
5. Хашимжанов, И. А., Алметов Н. Ш. Театральный менеджмент: из опыта Южно-Казахстанского областного Узбекского драматического театра. (2017).

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Saparbaeva Gulshira Abatbaevna**, dotsent [**Сапарбаева Гулшира Абатбаевна**, доцент], [**Gulshira A. Abatbaevna**, associate professor]; manzil: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Nukus shahri, Qoraqalpog‘iston ko‘chasi raqamsiz uy [адрес: Город Нукус, Республика Каракалпакстан., ул. Каракалпакстан, дом без номера], [address: Karakalpakstan, house without number, Karakalpakstan street, Nukus].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

DAXLDORLIK FAZILATI ORQALI TALABALARNING MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH: STRATEGIYA VA MEXANIZMLAR

© E.U. Shermanov[1]✉

[1]Yunus Rajabiy nomidagi o‘zbek milliy musiqa san’ati instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: globalizatsiya va madaniy farqlarni hisobga olgan holda, talabalar orasida madaniy kompetentlikni rivojlantirish zarurati tobora ortib bormoqda. Ushbu maqola, talabalarning madaniy kompetentligini daxldorlik fazilati orqali rivojlantirish strategiyalari va mexanizmlarini ko‘rib chiqadi. Daxldorlik fazilati, talabalarni turli madaniy muhitlarda faol ishtirok etishga, boshqalar madaniyatiga hurmat bilan yondashishga va ularni tushunishga undaydi. Maqolada madaniy kompetentlikni rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan asosiy mexanizmlar va strategiyalar tahlil qilinadi.

MAQSAD: daxldorlik fazilati orqali talabalarning madaniy kompetentligini rivojlantirish, yangi strategiya va mexanizmlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish.

MATERIALLAR VA METODLAR: ushbu maqola daxldorlik fazilati orqali talabalarning madaniy kompetentligini rivojlantirish tarixiy, tahliliy, qiyosiy va empirik usullar yordamida o‘rganildi. Ma’lumotlar mavzuga oid asarlar, pedagogik jarayonlarni o‘rganish orqali to‘plandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari daxldorlik fazilati orqali talabalarning madaniy kompetentligini oshirish mumkinligi asoslandi. Daxldorlik jamiyatdagi madaniy va ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda, yoshlardagi ijtimoiylikni oshirishda, ijtimoiy muammolarni yoritishda va jamoatchilikni birlashtirishda muhim vosita ekanligi aniqlandi.

XULOSA: ayni vaqtda, yoshlarimizda daxldorlik fazilatini shakllantirish, ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash uchun kurash ketayotgan bir paytda, ularga to‘siq bo‘luvchi qator mafkuralar mavjud va ular o‘z g‘oyalarini targ‘ib qilayotganini, yoshlarimizni o‘z g‘oyalariga daxldor qilishga urinayotganini inobatga olish ham eng muhim pedagogik masaladir. Bizning vazifamiz ana shu vayronkor mafkuralarga qarshi immunitetni uyg‘otish, shakllantirish asosida jamiyat ishiga, millat taqdiriga, Vatan istiqboli uchun daxldor, javobgar shaxsni shakllantirishdan iborat.

Tayanch so‘zlar: madaniy kompetentlik, daxldorlik, strategiya, mexanizmlar, ta’lim, globalizatsiya, ijtimoiy uyg‘unlik, talabalar, madaniy ta’sir, jamiyat.

Iqtibos uchun: Shermanov E.U. Daxldorlik fazilati orqali talabalarning madaniy kompetentligini rivojlantirish: strategiya va mexanizmlar // Inter education & global study. 2025. №3. B.596–603.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ДОБРОДЕТЕЛЬ СОПРИЧАСТНОСТИ: СТРАТЕГИЯ И МЕХАНИЗМЫ

© Э.У. Шерманов[1]✉
[1]Институт узбекского национального музыкального искусства имени Юнуса Раджаби, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: учитывая глобализацию и культурные различия, потребность в развитии культурной компетентности среди студентов постоянно возрастает. В данной статье рассматриваются стратегии и механизмы развития культурной компетентности студентов через причастность. Добродетель сопричастности побуждает студентов активно участвовать в различных культурных средах, с уважением относиться к культуре других и понимать их. В статье анализируются основные механизмы и стратегии, используемые в образовательном процессе для развития культурной компетентности.

ЦЕЛЬ: развитие культурной компетентности студентов через причастность, разработка и внедрение в практику новых стратегий и механизмов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в данной статье развитие культурной компетентности студентов через причастность изучалось с помощью исторических, аналитических, сравнительных и эмпирических методов. Данные были собраны путем изучения соответствующих работ и педагогических процессов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования основаны на том, что культурная компетентность студентов может быть повышена за счет качества причастности. Было установлено, что причастность является важным инструментом в формировании культурных и духовных ценностей в обществе, повышении социальности молодежи, освещении социальных проблем и объединении общественности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в то же время, когда идет борьба за формирование у нашей молодежи качества причастности, укрепление ее идеологического иммунитета, существует ряд идеологий, препятствующих им, и важнейшим педагогическим вопросом является учет того, что они пропагандируют свои идеи, пытаются привлечь нашу молодежь к своим идеям. Наша задача состоит в том, чтобы на основе пробуждения и формирования иммунитета против этих деструктивных идеологий сформировать личность, ответственную за дело общества, судьбу нации, будущее Родины.

Ключевые слова: культурная компетентность, причастность, стратегия, механизмы, образование, глобализация, социальная гармония, студенты, культурное влияние, общество.

Для цитирования: Шерманов Э.У. Развитие культурной компетентности студентов через добродетель сопричастности: стратегия и механизмы // Inter education & global study. 2025. № 3. С. 596–603.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

DEVELOPING STUDENTS' CULTURAL COMPETENCE THROUGH THE VIRTUE OF ENGAGEMENT: STRATEGY AND MECHANISMS

© Eldor U. Shermanov[1]✉
[1]Yunus Rajabi Institute of Uzbek National Music Art, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: given globalization and cultural differences, the need to develop cultural competence among students is increasing. This article examines the strategies and mechanisms for developing students' cultural competence through the quality of involvement. The quality of involvement encourages students to actively participate in various cultural environments, to respect the culture of others, and to understand them. The article analyzes the main mechanisms and strategies used in the educational process for the development of cultural competence.

AIM: development of students' cultural competence through the quality of involvement, development and implementation of new strategies and mechanisms.

MATERIALS AND METHODS: this article examines the development of students' cultural competence through the quality of involvement using historical, analytical, comparative, and empirical methods. Data were collected through the study of works on the topic, pedagogical processes.

DISCUSSION AND RESULTS: the results of the study substantiated the possibility of increasing the cultural competence of students through the quality of involvement. It has been established that involvement is an important tool in the formation of cultural and spiritual values in society, increasing the sociability of young people, highlighting social problems, and uniting the public.

CONCLUSION: at the same time, at a time when there is a struggle to form the quality of involvement in our youth, to strengthen their ideological immunity, there are a number of ideologies that hinder them, and it is also the most important pedagogical issue to take into account that they are promoting their ideas, trying to involve our youth in their ideas. Our task is to awaken and form an immunity against these destructive ideologies, and on this basis, to form a person responsible for the work of society, the fate of the nation, and the future of the Motherland.

Key words: cultural competence, involvement, strategy, mechanisms, education, globalization, social harmony, students, cultural influence, society.

For citation: Eldor U. Shermanov Creating a "success achievement" environment in painting lessons and integrating "artistic calligraphy" methods // Inter education & global study. 2025. №3. pp. 596–603.

Globalizatsiya jarayonida jamiyatlarning madaniy qadriyatlari va urf-odatlari o‘zgarib, turli madaniyatlar o‘rtasida o‘zaro ta’sir kuchaymoqda. Ushbu jarayon, ayniqsa, yosh avlodni ta’lim olish jarayonida faol ishtirok etishga va boshqalar madaniyatiga

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

hurmat bilan yondashishga undaydi. Madaniy kompetentlik, xususan, talabalarda dunyoqarashni kengaytirishga, turli madaniyatlar bilan samarali muloqot qilishga yordam beradi va shu orqali jamiyatdagi ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlaydi.

Dunyo miqyosida ma’naviy tanazzulning chuqurlashuvi davom etayotgan bir paytda, madaniy kompetentlik masalasi dolzarb ijtimoiy muammo sifatida yuzaga kelmoqda. Bugungi kunda, ta’lim tizimida talabalarning madaniy kompetentligini rivojlantirish uchun daxldorlik fazilatining ahamiyati katta. Ushbu fazilatni shakllantirish orqali talabalar nafaqat o‘z madaniyatini, balki boshqalar madaniyatini ham hurmat qilishni o‘rganadilar, hamkorlik qilish qobiliyatini rivojlantiradilar.

“Daxldorlik” tushunchasining umumiy leksik ma’nosi bir qancha o‘ziga xos nuanslarga ega. O‘zbek tilidagi lug‘atda “Daxldorlik” so‘zi ko‘pincha “kimligiga qaramasdan”, “so‘zida turmoq”, “tegishli bo‘lish”, “e’tiborga olish”, “hurmat qilish” kabi ma’nolarda ishlatiladi. Ingliz tilida esa bu tushuncha "complicity" va "participate" kabi so‘zlar orqali "birgalikda ishlash", "ishtirok etish", "qatnashuvchi" kabi ifodalar bilan ifodalanadi.

Daxldorlik ko‘plab sohalarda, xususan, jinoyat huquqi doirasida ishlatiladigan tushuncha sifatida tanilgan. Masalan, jinoyatga daxldorlik tushunchasi mavjud bo‘lib, bu biror jinoyatga bevosita yoki bilvosita ishtirok etishni anglatadi. Shuningdek, biror narsa yoki shaxsning biror holatga ta’sir ko‘rsatishi ham daxldorlik bilan bog‘lanadi. Masalan, bir davlatning boshqa davlatga ta’siri yoki bir kishining boshqa kishining hayotiga daxldorligi kabi holatlar ham “daxldorlik” deb ataladi.

Ammo bu tushuncha faqat salbiy yoki ijtimoiy noxush holatlarni ifodalash bilan cheklanmaydi. Daxldorlik ijobiy ma’noda ham qo‘llanilishi mumkin. Aksariyat hollarda, daxldorlik ijobiy fazilat sifatida shakllanadi. Bu ijobiy daxldorlik fazilati orqali, shaxslar jamiyatda faol, mas’uliyatli, o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni rivojlantiradilar. Shu bois, talabalarda daxldorlik fazilatini shakllantirish, ularning madaniy kompetentlik darajasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.Jinoyatdagi daxldorlikni tahlil qilsak ham, biz so‘z yuritayotgan daxldorlik bilan “aloqador” ma’nosi bir-biriga yaqinligini anglashimiz mumkin. Ya’ni, biror bir jinoyat sodir bo‘lgan bo‘lsa, uni amalga oshirishda ishtirok etgan narsa yoki shaxs ana shu jinoyatga daxldor, aloqador, u yoki bu darajada ishtirok etgan, deb olinadi. Demak, u jinoyat sodir etishga daxldor ekanmi bunda daxldorlik salbiy ma’noda – illat sifatida ishlatilmoqda. Uning aksini oladigan bo‘lsak, ya’ni o‘sha jinoyatning oldini olishga daxldorlik qilgan (ishtirok etgan) kimsa deb oladigan bo‘lsak, bunda daxldorlik tushunchasi ijobiy ma’noda, fazilatga aylanadi. Shu ma’noda, biz yoshlarimizda daxldorlikning umumiy yoki salbiy shaklini emas, balki ijobiy shakli – daxldorlik fazilatini shakllantirishni nazarda tutishimiz lozim.

Ruscha-o‘zbekcha lug‘atlarda daxldorlik (otnosyashiysya) – taalluqlilik, tegishlilik, daxl qilmoq, taalluqli, degan ma’nolarda berilgan.

“Daxldorlik” tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi so‘zlardan biri – mudoxala (a. مدّاخالا) bo‘lib, arab tilida “aralashishi”, “tiqilish” (birovning ishiga), biror ishga chetdan

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

aralashuvni bildiradi. Masalan, “Eron tamom mustamlaka holiga qolsa kerak edi, lekin ayrim hukumatlarning mudoxalasi natijasida bu muoxada yo‘qotildi” (Gazetadan)[1].

Ayni vaqtda, yoshlarimizda daxldorlik fazilatini shakllantirish, ularning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash uchun kurash ketayotgan bir paytda, ularga to‘siq bo‘luvchi qator mafkuralar mavjud va ular o‘z g‘oyalarini targ‘ib qilayotganini, yoshlarimizni o‘z g‘oyalariga daxldor qilishga urinayotganini inobatga olish ham eng muhim pedagogik masaladir. Bizning vazifamiz ana shu vayronkor mafkuralarga qarshi immunitetni uyg‘otish, shakllantirish asosida jamiyat ishiga, millat taqdiriga, Vatan istiqboli uchun daxldor, javobgar shaxsni shakllantirishdan iborat. Buning uchun mafkuraviy immunitetning vazifasini aniqlab olmog‘imiz lozim:

Ana shu yo‘nalishlarda mafkuraviy immunitetning vazifalari, ya’ni insonni ma’naviy-ruhiy mudroqlikdan uyg‘otish, har qanday voqelikka munosabat bildira olish, unga ta’sir ko‘rsatish, jamiyat va umummilliy taraqqiyot uchun javobgarlik hissini, daxldorlik tuyg‘usini namoyon etish orqali o‘zini o‘zi umummilliy manfaat yo‘lida yo‘naltira olish, safarbar eta bilish fazilatlarini yorqin namoyon qilishni taqozo etadi.

Madaniy kompetentlik bugungi global jamiyatda shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyat uchun zarur bo‘lgan eng muhim sifatlar qatoriga kiradi. [2] Madaniy kompetentlik turli madaniy muhitlarda samarali muloqot qilish, boshqalar madaniyatiga hurmat bilan yondashish va ular bilan hamkorlik qilish qobiliyatini ifodalaydi.

Madaniy kompetentlik shaxsning madaniyatlararo muloqotda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. [3] Bu quyidagi elementlarni qamrab oladi:

1. Madaniy ong: Shaxsning o‘z madaniyati va boshqa madaniyatlar haqida bilimga ega bo‘lishi.

2. Madaniy moslashuvchanlik: Har xil madaniy vaziyatlarda moslashuvchan va tolerant bo‘lish qobiliyati.

3. Madaniy hissiy yetuklik: Madaniyatlararo farqlarni tushunish va ularga hurmat bilan yondashish.

4. Madaniy ta’sirchanlik: Har xil madaniy muloqotlarda o‘zini samarali ifoda eta olish.

Madaniy kompetentlikning rivojlanishi talabalarga quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:[4]

- Professional muvaffaqiyat: bugungi global iqtisodiyotda turli millat va madaniyat vakillari bilan hamkorlik qilish ko‘nikmasi talab qilinadi.
- Ijtimoiy uyg‘unlik: madaniy xilma-xillikka hurmat jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi.

[1] Мудохала. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев ва бошқалар. ЎзФА Тил ва адабиёт институти. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. 672 б. – Б. 627.
[2] Hofstede, G. (2011). Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions, and Organizations Across Nations. Sage Publications.
[3] Bennett, M. J. (1993). Intercultural Sensitivity: Principles of Intercultural Communication. Intercultural Press.
[4] UNESCO. (2009). Investing in Cultural Diversity and Intercultural Dialogue. UNESCO Publishing.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

• Shaxsiy o‘sish: madaniy kompetentlik hayotga kengroq nuqtai nazar bilan qarash imkoniyatini beradi.

Daxldorlik fazilati shaxsning jamiyatdagi o‘rniga, madaniy va ijtimoiy masalalarga befarq bo‘lmaslik xususiyatiga asoslanadi. Daxldorlik fazilatining asosiy jihatlari quyidagilar:

1. Hissiy hamdardlik: Boshqalar his-tuyg‘ularini tushunish va ularga mos ravishda javob berish.
2. Faollik: Jamiyat hayotida faol ishtirok etish istagi va tashabbuskorlik.
3. Mas’uliyat: O‘z harakatlari va qarorlari uchun javobgarlikni anglash.
4. Hamjihatlik: Jamoada ishlash va boshqalar bilan hamkorlik qilish qobiliyati.

Daxldorlik talabalarning madaniy kompetentligini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bu fazilat talabalarda boshqalar madaniyatiga hurmat bilan qarash, hamkorlik qilish va madaniy farqlarni tushunishga yordam beradi.

Talabalarning madaniy kompetentligini rivojlantirish yo‘llari

Madaniy kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagi asosiy mexanizmlar joriy etilishi mumkin:[5]

1. Ta’lim jarayoniga madaniy mavzularni kiritish

Ta’lim muassasalari o‘quv dasturlariga madaniy xilma-xillikni aks ettiruvchi mavzularni qo‘shish orqali talabalarning madaniy kompetentligini rivojlantirishi mumkin. Bunga quyidagilar kiradi:

• Madaniy ta’lim kurslari: Dunyo xalqlari tarixi, madaniyati va urf-odatlari haqida bilim beruvchi maxsus kurslarni tashkil qilish.

• Til o‘rganish: Chet tillarni o‘rganish jarayonida o‘sha til sohiblarining madaniyati bilan tanishish.

• Madaniy almashinuv dasturlari: Talabalarni xalqaro almashinuv dasturlarida ishtirok etishga rag‘batlantirish.

2. Faoliyat orqali o‘rganish

Madaniy kompetentlikni rivojlantirishda amaliy mashg‘ulotlar va interaktiv metodlar samarali hisoblanadi:

• Munozaralar va rolli o‘yinlar: Talabalar o‘rtasida madaniy masalalar bo‘yicha munozaralar o‘tkazish va turli rollarni ijro etish.

• Madaniy tadbirlar: Universitetlarda madaniy festivallar, ko‘rgazmalar va badiiy kechalar tashkil qilish.

• Ko‘ngillilik faoliyati: Talabalarni ko‘ngilli loyihalarga jalb etish orqali ularning ijtimoiy masalalarga daxldorligini oshirish.

3. Raqamli texnologiyalarni qo‘llash

Raqamli texnologiyalar madaniy kompetentlikni rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratadi:

[5] Brown, L., & Holloway, I. (2008). "The Adjustment Journey of International Postgraduate Students in England."International Journal of Educational Research, 47(3), 147-157.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

- Onlayn platformalar: talabalarni xalqaro muloqotga jalb qilish uchun onlayn forumlar va platformalar yaratish.
- Madaniy kontent: filmlar, hujjatli filmlar, va virtual sayohatlar orqali dunyo madaniyatlarini o‘rganish.
- Metodik resurslar ishlab chiqish: madaniy mavzularni o‘z ichiga olgan o‘quv o‘yinlarini ishlab chiqish.

Daxldorlik fazilatini shakllantirish talabalarning madaniy kompetentligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Quyidagi strategiyalar bu jarayonni samarali tashkil etishda yordam beradi:

1. Shaxsiy o‘rnak ko‘rsatish

O‘qituvchilar va universitet ma'muriyati talabalarga shaxsiy o‘rnak ko‘rsatishi kerak. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Madaniy hurmat: turli madaniyat vakillariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish.
- Ochiq muloqot: talabalar bilan doimiy va ochiq muloqot olib borish.

2. Jamoaviy ishlarga jalb qilish

Talabalarni jamoaviy faoliyatlarga jalb qilish orqali ularning daxldorlik hissini oshirish mumkin. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Jamoaviy loyihalar: Madaniy mavzularga oid loyiha va tadbirlarni birgalikda amalga oshirish.
- Liderlik ko‘nikmalari: Talabalarni yetakchilikka rag‘batlantirish va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash.

3. Rag‘batlantirish tizimi

Talabalarni madaniy kompetentlik va daxldorlik fazilatlarini rivojlantirish uchun quyidagicha mukofotlash tizimini joriy etish samarali:

- Sertifikatlar: Madaniy tadbirlarda faol ishtirok etgan talabalarni sertifikatlar bilan taqdirlash.
- Tanlovlar: Madaniy mavzularga bag‘ishlangan tanlovlar o‘tkazish va g‘oliblarni mukofotlash.

Talabalarning madaniy kompetentligini daxldorlik fazilati orqali rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim vazifasidir. Bu jarayon talabalarning nafaqat akademik, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Yuqorida bayon qilingan mexanizmlar va strategiyalarni amalga oshirish orqali biz madaniy kompetent va ijtimoiy mas'uliyatli avlodni tarbiyalay olamiz. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatimizning barqarorligi va rivojlanishini ta’minlaydi.

Daxldorlik insonning kelib chiqishi, moddiy ahvoli, ijtimoiy mavqei bilan belgilanmaydi, u ma’naviy tarbiya mahsulidir. Shu sababli u shaxsning vijdoni bilan chambarchas aloqadadir. Shu sababli daxldorlik hissi insonning tashqi ham muhit, jamiyatga bog‘likligini ifodalab, ham uning faoliyat, xulq atvor motivlarini belgilaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

1. “O‘zbegim Dasturlari” электрон луғат дастури.
2. Инглизча-ўзбекча луғат. 15000 сўз. (Тузувчилар: Ғ.Раҳмонов, А.Аъзамов, Д.Кадирбекова). – Т.: “Talqin” нашриёти, 2014. – Б.62.
3. Мудохала. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев ва бошқалар. ЎзФА Тил ва адабиёт институти. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. 672 б. – Б. 627.
4. Hofstede, G. (2011). Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions, and Organizations Across Nations. Sage Publications.
5. Bennett, M. J. (1993). Intercultural Sensitivity: Principles of Intercultural Communication. Intercultural Press.
6. Banks, J. A. (2007). Diversity and Citizenship Education: Global Perspectives. Jossey-Bass.
7. Ting-Toomey, S. (1999). Communicating Across Cultures. The Guilford Press.
8. UNESCO. (2009). Investing in Cultural Diversity and Intercultural Dialogue. UNESCO Publishing.
9. Brown, L., & Holloway, I. (2008). "The Adjustment Journey of International Postgraduate Students in England." International Journal of Educational Research, 47(3), 147-157.
10. Matsumoto, D., & Juang, L. (2016). Culture and Psychology. Cengage Learning.
11. Senge, P. M. (2006). The Fifth Discipline: The Art and Practice of the Learning Organization. Doubleday/Currency.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Shermanov Eldor Uralovich,** dotsent [**Шерманов Элдор Уралович,** доцент]**, [Shermanov E. Uralovich,** dotsent]; Manzil: Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi 31 [адрес: г. Ташкент, Мирзо-Улугбекский район, проспект Мустакиллик, 31, [address: Tashkent city, Mirzo-Ulugbek district, Mustakillik Avenue 31].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

IJODKOR REJISSYOR

© M.B. Umarov[1]✉
[1]O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqola rejissyor o‘z rejasini yuzaga chiqarish uchun aktyor psixologiyasini va sahna amaliyoti talablarini bilish bilan bog‘liq masalalar haqida. U aktyorlar bilan ishlashda ikki uslubdan foydalanishni, ya’ni tushuntirib berish (podskaz)ni ham amalda qo‘llay olishi g‘aqida so‘z boradi.

MAQSAD: Ushbu maqolaning maqsadi rejissyorning ijodiy jarayonda aktyorlar bilan ishlash uslublarini o‘rganish, sahna amaliyoti va aktyor psixologiyasi talablarini tahlil qilishdir. Rejissyor tomonidan qo‘llaniladigan ikki asosiy yondashuv – tushuntirib berish (podskaz) va amaliy qo‘llashning samaradorligi o‘rganiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR: - Rejissyorlik san’ati bo‘yicha nazariy adabiyotlar tahlili; teatr sahnalashtirish jarayonlarini kuzatish va tahlil qilish; tajribali rejissyor va aktyorlar bilan intervyu o‘tkazish; eksperimental sahna jarayonlarini o‘rganish va natijalarini tahlil qilish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: rejissyorning aktyor bilan ishlash jarayoni va uning asosiy komponentlari; tushuntirib berish usuli va uning afzalliklari; amaliy tajriba asosida o‘rganish usulining samaradorligi; sahna ijrosi jarayonida aktyorlarning psixologik holatini boshqarish; ikkala yondashuvning teatr amaliyotidagi o‘rni va natijalari.

XULOSA: Rejissyorning ijodiy jarayoni nafaqat texnik bilimlarni, balki aktyorning ichki dunyosini tushunishni ham talab qiladi. Tushuntirib berish va amaliy tajriba usullari rejissyorning aktyor bilan ishlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu usullar aktyorlarning sahnaviy obraz yaratish jarayoniga bo‘lgan yondashuvini rivojlantirishga va sahna ijrosini mukammallashtirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: rejissyor, dramaturgiya, aktyor, teatr, bilim, ma’naviyat.

Iqtibos uchun: Umarov M.B. Ijodkor rejissyor. // Inter education & global study. 2025. №3 B.604–612.

ТВОРЧЕСКИЙ РЕЖИССЁР

© М.Б. Умаров[1]✉
[1]Государственного института искусств и культуры Узбекистана, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются вопросы, связанные со знанием режиссёром психологии актёра и требований сценической практики для реализации своего замысла. Рассматриваются два основных метода работы с актёрами: объяснение (подсказ) и практическое применение.

ЦЕЛЬ: целью данной статьи является изучение методов работы режиссёра с актёрами в процессе творчества, а также анализ требований сценической практики и психологии актёра. Особое внимание уделяется эффективности двух основных подходов: объяснения (подсказ) и практического применения.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: анализ теоретической литературы по режиссёрскому искусству; наблюдение и анализ театральных постановок; проведение интервью с опытными режиссёрами и актёрами; изучение экспериментальных сценических процессов и анализ полученных результатов.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: процесс работы режиссёра с актёром и его основные компоненты; метод объяснения и его преимущества; эффективность метода обучения на основе практического опыта; управление психологическим состоянием актёров в процессе сценической игры; роль и результаты применения обоих подходов в театральной практике.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: творческий процесс режиссёра требует не только технических знаний, но и понимания внутреннего мира актёра. Использование методов объяснения и практического опыта повышает эффективность работы режиссёра с актёром. Эти подходы помогают актёрам развивать свой подход к созданию сценического образа и совершенствовать исполнительское мастерство.

Ключевые слова: режиссёр, драматургия, актёр, театр, знания, духовность.

Для цитирования: Умаров М. Б. Творческий режиссёр // Inter education & global study. 2025. №3. С. 604–612.

CREATIVE DIRECTOR

© Mamur B. Umarov[1]✉
[1]Uzbekistan State Institute of Arts and Culture, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article discusses issues related to a director's knowledge of actor psychology and the requirements of stage practice in bringing their creative vision to life. It examines two primary methods of working with actors: explanation (prompting) and practical application.

AIM: the aim of this article is to study the director's methods of working with actors in the creative process and to analyze the requirements of stage practice and actor psychology. Particular attention is paid to the effectiveness of two key approaches: explanation (prompting) and practical application.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

MATERIALS AND METHODS: analysis of theoretical literature on directing; observation and analysis of theatrical productions; conducting interviews with experienced directors and actors; studying experimental stage processes and analyzing the results.

DISCUSSION AND RESULTS: The process of a director working with an actor and its key components; the explanation method and its advantages; the effectiveness of the learning method based on practical experience; managing actors' psychological state during stage performance; the role and outcomes of both approaches in theatrical practice.

CONCLUSION: the creative process of a director requires not only technical knowledge but also an understanding of the actor's inner world. The use of explanation and practical experience methods enhances the director's efficiency in working with actors. These approaches help actors develop their approach to creating stage characters and improve their performance skills.

Key words: director, dramaturgy, actor, theater, knowledge, spirituality.

For citation: Mamur B. Umarov. (2025) 'Creative director', Inter education & global study, (3), pp. 604–612. (In Uzbek).

Sahnada dramatik yoki musiqali asarlarni sahnalashtiruvchilarni hozirgi vaqtda ikki toifaga — sahnalashtiruvchi (postanovshik) yoki ijodkor (tvorets) rejissyorga ajratishmoqda. Birinchisi, navbatdagi — o'tkinchi spektaklni sahnalashtirsa, ikkinchisi — yangi badiiy shakl va unga mos ijro uslubini topadi. Shuning uchun ijodkor rejissyor teatrning badiiy yo'nalishini belgilaydigan, spektaklni voqeaga aylantiradigan bunyodkor hisoblanadi. Uning zimmasiga teatr uchun repertuar tanlash, aktyorlarning g'oyaviy-badiiy mahoratlarini oshirish, estetik didlarini tarbiyalash, jamoani hamfikrlarga aylantirish vazifalari yuklatiladi. Ijodkor rejissyor jamoaning spektakl yaratish jarayonidagi badiiy ishiga rahbarlik qiladi. U pyesani tahlil qilar ekan dramaturgning g'oyasini, bo'lg'usi spektakl bilan bog'liq o'zining topilmalarini badiiy yaxlit tomoshaga aylantirish rejasini tuzadi va asar mazmunini sahnaviy obrazlar orqali ochish uchun sahnalashtirishda ishtirok etadigan barcha ijodiy kuchlarni — aktyor, rassom, kompozitor hamda boshqa ijodkorlarni o'z rejasi asosida boshqaradi. U spektakl yaratish bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlarning tashkilotchisidir. Yana shuni unutmaslik kerakki, rejissyor spektaklning g'oyaviy-badiiy hamda estetik tarbiyaviy tomonlariga, mavzuni dolzarbligiga, zamonaviyligiga va g'oyaviyligiga javobgar shaxs. Shuning uchun ijodkor rejissyordan — badiiy didi rivojlangan, dunyoqarashi shakllangan, ichki va tashqi siyosat bilan tanishgan, hayotni chuqur tushungan shaxs bo'lishi talab etiladi.

Rejissyorning vazifasi pyesa asosida sahnada hayot jarayonini badiiy aks ettirishdir. Dramaturg uchun manba bo'lib xizmat qilgan voqelikni rejissyor sahnada qayta gavdalantiradi. Buning uchun u pyesaning mavzusi, g'oyasi, voqealar tizimi, personajlar xarakterlari va muallifning boshqa ko'rsatmalaridan foydalanib sahnaviy muhit — atmosfera yaratadi.

Sahnaviy atmosfera — hayotiylik bilan sahna shartliligi o'rtasidagi to'g'ri

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

muvozanatdan tashkil topadi. Hayotiylik o‘z meyoridan oshib ketsa, rejissyor naturalizmga yo‘l qo‘yadi. Aksincha, sahnadagi shartlilik ustunligi oshib ketsa, sun’iylik paydo bo‘ladi.

Rejissyorning vazifasi, avvalo, pyesani to‘g‘ri o‘rganish — to‘g‘ri talqin qilish va rollarni to‘g‘ri taqsimlashdir. Teatrda ijodiy muhitni tashkil etish uchun boshqa tomosha turlari ijodkorlari bilan hamkorlikda ishlash kerak. Bu jarayonda rejissyor diktator — yakka hukmron bo‘lishi ham yaramaydi. Diktatorlik — ijodkorlar tashabbusini so‘ndiradi. Shuning uchun u — rassom, kompozitor, grimyor, kostyumyor va boshqa teatr ijodkorlari bilan hamfikr bo‘lishi lozim. Aks holda, teatr inqirozga yuz tutadi, ijodkorlar orasida tarafkashlik boshlanadi.

Aktyor ijrosining to‘g‘ri-noto‘g‘riligini oynadagidek ko‘rib turgan rejissyor o‘zining subyektiv xohishlarini aktyorlarga zo‘rakilik bilan o‘tkazmasdan, unga ijodiy yordam beradi. Shundagina aktyorlar o‘z kamchiliklarini ixtiyoriy tuzatishga harakat qiladi, obraz uchun kerakli xususiyatlarni bunyod etishga intiladi. Aktyorlarni o‘z vaqtida to‘g‘ri yo‘lga solish, obrazning tub mohiyatlarini ochib berish, obraz xarakterini, odatlarini, qiliqlarini to‘g‘ri topishda aktyorga yaqindan yordam berish rejissyorning asosiy vazifasidir. Aktyorlar bilan to‘g‘ri ishlash rejissyorlik qobiliyatining muhim o‘lchovidir.

Rejissyor rejasini yuzaga chiqarish, aktyor psixologiyasini va sahna amaliyotini bilish bilan bog‘liqdir. U aktyorlar bilan ishlashda ikki uslubdan foydalanadi: tushuntirib berish — podskaz; ko‘rsatib berish — pokaz. Shuning uchun rejissyor ma’lum darajada aktyor ham bo‘lishi talab qilinadi. Aktyorning xatolarini aniq va oshirmasdan ko‘rsatish, bu harakat kelib chiqishining sababini tushuntirish, ular mahoratini o‘stirib borish uchun bosh masalaga aylanadi. Rejissyor faqat tushuntirsa yoki faqat ko‘rsatib bersa bir yoqlamalik paydo bo‘ladi. Ko‘rsatib berishning ham yaxshi, ham yomon tomonlari bor. To‘g‘ri ko‘rsatish — o‘z vaqtida bo‘lsa, ya’ni aktyor shu ko‘rsatishdan keyin, tushunmay yoki qiynalib turgan yerdagi o‘z xatosini tezda tushunib olsa — yaxshi. Rejissyor ko‘rsatganini aktyor tushunmagan holda qabul qilib olib, ko‘rganlari kelgusidagi harakatlariga, ijodiga to‘siq bo‘lib qolsa — yomon. Ba’zi bir aktyorlarga rejissyorning ko‘rsatganlari yoqib qolib, o‘z izlanishlarini,ijodini to‘xtatib ko‘yadi. Shuniig uchun rejissyordan tushuntirish va ko‘rsatib berishni meyoridan oshirmay, aktyorning ijod qilishiga yo‘l ochib, imkon yaratishi, uni maqsadlari yunaltirishi, tasavvuriga turtki berishi talab qilinadi.

Rejissyor: faqat pyesani to‘g‘ri tahlil qiladigan; aktyorlar oldiga aniq maqsad va vazifalar ko‘yadigan; sahnada maqsadga muvofiq harakatni barpo qiladigan; dekoratsiyani qulay joylashtiradigan — boshqaruvchi emas, balki barchasini sinchkovlik bilan kuzata borib, zarur ikir-chikirlarnn vaqtida tuzatadigan va o‘z professional bilimlarini namoyon qiladigan mutafakkir — ijodkordir. U o‘z tafakkuri va badiiy qobiliyati, ijodiy kuchi bilan dramaturgning g‘oyasini, aktyorlarning qalb haroratini, zamon talabini mujassamlashtirgan holda sahnada jonli jarayon anqib turgan teatr san’ati asari — spektakl yaratuvchisidir. Bu murakkab jarayonda u bilimidan, hayot tajribasidan, xalq madaniy-badiiy boyligidan, boshqa san’at asarlaridan maqsadga muvofiq foydalana oladigan va mustahkam o‘z estetik e’tiqodiga ega bo‘lgan ijodkor shaxs.

Fan va texnika, adabiyot va san’at turlari rivojlangan hozirgi davrda rejissyor

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

zimmasiga yanada murakkab badiiy vazifalar yuklanadi. Demak, undan davlat tizimi haqidagn fikrlarni, siyosiy va ijtimoiy masalalarni, umum taraqqiy muammolari bilan bog‘liq talablarni badiiy ifodalash talab qilinadi. Shuning uchun ham rejissyor muallif bilan tomoshabin o‘rtasidagi bog‘lovchi vosita bo‘libgina qolmay, u yaratgan spektakllar muallif g‘oyasi orqali muxlislarini hayratga soluvchi, to‘lqinlantiruvchi, dunyoqarashini takomillashtiruvchi, oliy maqsadli ijodkordir.

Rejissyor ijodiy jamoaning badiiy rahbari sifatida tomoshabin bilan teatrni, mualliflar bilan aktyorlarni bir-biriga bog‘lovchi bosh bo‘g‘indir. Tomoshabin teatrga o‘zi uchun zarur bo‘lgan ma’naviy ozuqa olish uchun tashrif buyuradi. Shekspir tili bilan aytganda “teatr bu hayot oynasi” bo‘lmog‘i lozim. Ana shu “hayot oynasini” tomoshabinlarning ro‘parasiga qo‘yuvchi — rejissyordir. Rejissyorning spektakl ustidagi ijodiy ishi asosida — acap mazmuni va uning g‘oyaviy talqini haqidagi fikrlari natijasida vujudga kelgan badiiy yechim yotadi. Bu yechim yoki topilma rejissyor faoliyat yuritayotgan teatrniig ijodiy yo‘lini belgilaydi. Shuning uchun tabiatan iqtidorli kishi ham maxsus bilimsiz, tashkilotchilik va pedagoglik qobiliyatisiz teatr rejissyori bo‘la olmaydi. Demak, har kimni ham rejissyorlik kasbiga o‘qitib bo‘lmaydi. Agar unda — inson hayotini kuzata olish, fantaziya qilish, yumorni qabul qilish, so‘z qudratini va voqea otmosferasini his qilish tuyg‘usi bo‘lmasa hech kachon rejissyor bo‘la olmaydi. Rejissyor nechog‘li qobiliyatli bo‘lmasin, uning teatrda tutgan mavqe’idan qat’iy nazar, tomoshabinga aytmoqchi bo‘lgan fikrlari aniq bo‘lmasa va sahnada kishilar takdirini aks ettira olmasa spektakl tushunarli bo‘lmaydi. Har bir teatr rejissyori va har bir spektakl, insoniyatning kelajak haqidagi orzularini yoritishi, zamon talablari asosida qalb torlarini chertishdek oliy vazifani xal etishi lozim. Bunday javobgarlikni sezgan va unga bo‘ysungan rejissyorgina teatrga erkin, bamaylixotir ijod qila oladi.

Teatr jamoasiga ishonch va badiiy talabchanlik, rejissyor hamda aktyorlar o‘rtasidagi to‘g‘ri munosabatlarning asosi bo‘lishi lozim. Aktyor ijrosiga to‘g‘ri yo‘nalish berish uchun rejissyor — aktyorlik mahoratining asosiy qonuniyatlarini bilishi va ijodkor tabiatini yaxshi tushunishi hamda ularga har topqirlik jihatidan ibrat bo‘lishi kerak.

Rejissyor ijodiy jamoadagi har qanday tartibsizlikka, loqaydlikka murosasiz bo‘lmog‘i lozim. Bularteatr ijodkorlarining etikasi asosini tashkil etadi. Bu borada teatr jamoasi va rejissyor orasidagi munosabatlar oson kechmaydi. Qobilyatsiz har qanday shaxsga jamoaning ta’sir kuchi juda katta bo‘ladi. Ahil jamoa hayotda qoqilgan qobilyatli insonni suyab, oyoqqa turg‘azib, teatrda o‘z o‘rnini topishiga yordam berishi mumkin. Yoki aksincha, jamoaning kuchi yaxshilikdan — yomonlikka, ijodiy talabchanlikdan — qasos olish jarayoniga aylanishi ham mumkin. Chunki, jamoa har xil xarakterli kishilardan tashkil topadi. Shuning uchun “sog‘lom jamoa”, “kuchli jamoa”, “qobiliyatli jamoa” degan tushunchalar bor. Afsuski teatr jamoasidagi har bir shaxsni qobiliyatli, odobli va ruhiy sog‘lom deb bo‘lmaydi. Demak teatr jamoasi degan tushuncha murakkab va ko‘p qirralidir. Buning sababini qobiliyatlilarning va loqaydlarning sahna san’atiga bo‘lgan muhabbati bir xilda emasligidan qidirish lozim.

Chinakam ijodiy barqaror teatr jamoasi qog‘ozdagi buyruqlar orqali yuzaga kelmaydi,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

balki maqsadli xarakat ko‘p yillar mobaynidagi hamfikrlilarning izlanishlari orqali tashkil topadi. Aksincha, jamoa tarkibi beto‘xtov o‘zgarib tursa, hamfikr qoblilyatlilar qadrlanmasa teatr o‘tkinchilar yo‘lagiga o‘xshab kolgan bo‘lsa, u yerda hech kachon yaxlit ijodiy jamoa vujudga kelmaydi. Haqiqiy ijodiy jamoaning vujudga kelishida birinchi navbatda rejissyorning iste’dodi va insoniy fazilatlari asos bo‘ladi. Bunga yetarlicha misollar bor. Masalan: Stanislavskiy va Nemirovich-Danchenkolarning MXAT jamoasi; M.Uygur va YE.Bobojonovlarning “Hamza” teatr jamoasi; Lsningraddagi G. Tovstonogov rahbarligidagi BDT jamoasi; “Sovremennik” teatrining ahil jamoasi

yorqin misol bo‘ladi. Rejissyor Ergash Masafoyevning biografiyasi ham ayni shu ma’noda ibratlidir. U tashkil etgan mutlaqo yangi tipdagi “Yosh gvardiya” nomli o‘spirin yoshlar teatrining vujudga kelishi, iqtitorli jamoani yillar davomida ijodiy yutuqlarga erishganligining asosi qobilyatli rejissyor jamoani shakllantira olganligidadir. Ayrim sabablar tufayli rejissyor va jamoa o‘rtasidagi munosabatlar buzilib o‘ziga xos repertuariga ega, bu teatr o‘z ijodiy uslubini yo‘qotdi. Ergash Masafoyev o‘z ideallariga sodiq qolib, mutlaqo yangi –“Diydor” nomli o‘spirin yoshlar ijodiy teatr studiyasini tashkil etdi.

Rejissyor o‘z faoliyatini boshlayotgan jamoa a’zolari orasida ijodiy atmosfera yo‘kligidan shikoyat kilishi mumkin. Bunday sharoitda rejissyor orginal sahna asari tanlab, uni sahnalashtirish jarayonida ijodiy muhit yaratishga intilishi ham farz, ham qarz. Yana bir muhim masala, rejissyor bilan aktyor o‘rtasida ozgina bo‘lsa ham hurmat “parda”si bo‘lishi lozim. Bu chegaraning mazmuni shundaki, rejissyor aktyorga qaraganda ko‘proq bilishi va uzoqroqni ko‘rishi, ular istiqbolini ko‘zda tutishi, ijodiy ishlar javobgarligini o‘z zimmasiga olishi zarur.

Rejissyorni aktyorga, aktyorni rejissyorga qarshi gij-gijlaydigan ba’zi-bir teatr fitnachilari teatr san’atining dushmanidir. Undaylardan ahil jamoa darxol qutilmlg‘i darkor. Chunki, aktyor spektaklning asosiy kuchi hisoblanadi. Faqat izlanuvchan hamda ijodkor aktyor orqaligina spektakl g‘oyasi, rejissyor rejasi amalga oshiriladi.

Hozirgi teatrlar rejissyor hukmronligini mutlaqo rad etmaydi. Bunga Nabi Abdurahmonov rahbarlik qilayotgan teatrni misol tariqasida ko‘rsatish mumkin. Zaif teatrlarda noshud aktyorlar ko‘pincha — “rejissyor meni yaxshi ko‘rmaydi”, deb shikoyat qilishadi yoki “meni hurmat qilishmaydi, meni tushunishmaydi”, — deb noliydi. Demak u o‘zlardan ayb qidiradigan, jamoa ishonchini qozona olmagan rejissyordir. “Men teatrda yetakchi aktyorman, repertuar faqat menga qarab tuzilishi kerak”, — deb ham da’vo qiladi ba’zi “ulug‘” aktyorlar. Vaholanki teatr o‘sha “ko‘rpani o‘ziga tortadigan” aktyorsiz ham yashashi va rivojlanishi mumkinligini tarix isbotlagan. Chunki, Teatr bu bir butun — yakdil ijodiy hamkorlik asosida ishlaydigan badiiy jamoadir. Demak, hap qanday yangi spektakl bu rejissyorning aktyor bilan tasodifiy uchrashuvi emas, balki taqdir taqozosi bilan ularning ijodiy hamkorlikda o‘sish bosqichidir.

Rejissyorning obro‘si faqatgina yaxshi sahnalashtirilgan spektakl orqali yaratilmaydi. Sababi, har bir spektaklda aktyorning yangi qirrasini ochish rejissyorning asosiy vazifasidir. Yaxshi spektakl sahnalashtirish va teatrda tarbiyaviy ishni olib borish uchun rejissyor aktyorlarning ijodiy imkoniyatlarini bilishi va ularni yangi marralar sari yetaklashi lozim.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Shartnoma asosida sahnalashtirishga kelagan — rejissyor aktyorlarni ular ishtirokidagi bir – ikkita spektakllarda o‘rganadi. Lekin, aktyorlar har bir spektaklda har safar boshqacha o‘ynashi mumkin. Afsuski, taklif qilingan rejissyorlar premyeradan keyin aktyor bilan ishlashga nuqta qo‘yishadi.

Stanislavskiy fikricha, rejissyorlarning eng muhim ijodiy ishi premyeradan keyin boshlanadi. Har kuni aktyor rolini, sahnadan chiqqanida — “issig‘ida” tahlil qilish va takomillashtirish ulug‘ rejissyorlarga xos odatdir.

Aktyorlarni o‘rganishda, ularning teatrdan tashqaridagi turmush tarzini ham yaxshi bilish o‘ta ahamiyatlidir. Shuningdek, aktyorlarning o‘zaro suhbati va hazillari rejissyor kuzatuvidan chetda qolmasligi, ayniqsa, kim qanday yashayapti, qanday kiyinayapti, kim nimadan xafa — hammasidan xabardor bo‘lishi jamoaning e’tiborini tortadi. Rejissyor bu kuzatuvlarni shunday olib borishi kerakki, aktyor buni faqat ijodiy hamkorlik va yordam deb tushunsin. Bundan tashqari aktyorni o‘rganishda, uning ijodiy qiziqishini (ashula, badiiy o‘qish, sahna harakati va raqs) bilish ham yordam beradi. Qolaversa, rejissyor aktyorlar bilan maxsus mashqlar ustida ishlaganda ham ko‘p narsani bilib olishi mumkin. Eng muhimi esa har bir rejissyor, u nechog‘li iqtidorli bo‘lmasin, uni orzu umidlari faqatgina “aktyor hazrati oliylari” orqali va teatrdagi rassom, butafor, kompozitor, nur ustalari kabi ijodiy hamkorlari ko‘magi bilan ro‘yobga chiqishini unutmasligi lozim. Shuning uchun har bir ota o‘z farzandlarini e’zozlagani kabi, rejissyor ham o‘z ijodiy hamkorlarini qadrlashi va eng yuqori saviyadagi hamkorlik uchun, har doim shay turishi kasb talabi ekanligini unutmasligi kerak. Chunki rejissyorning va jamoaning zafarlari eng avval ana shu o‘zaro hurmat-ehtiromida hamda ijodiy hamkorligidadir.

Endi ijodkor rejissyor burchining uch qirrasiga e’tibor qarataylik. Teatr san’ati nechog‘li rivojlangan bo‘lmasin aktyorlar mahorati, hamda dramaturg asari qanchalik mukammal bo‘lmasin, ijodiy jamoa naqadar kuchli va tarbiyali bo‘lmasin — rejissyor talqinini amalga oshiruvchi barcha omillar sintezlashgan holda birlashmasa badiiy yaxlit spektakl paydo bo‘lmaydi. Birlashtiruvchi kuch rejissyorning tashkilotchilik qobiliyatidir. Nemirovich-Danchenko o‘zining “O‘tmishdan” degan asarida rejissyorlik burchining uch qirrasi bo‘lishi kerak degan ta’limotni olg‘a surdi. Hozirgi zamon teatrida jamoaga ijodiy rahbar bo‘lish uchun bu uch qirra rejissyorlarda mavjud bo‘lishi zarur. Ular:

rejissyor — tushuntirib beruvchi, pedagog;

rejissyor oyna (ko‘zgu), ko‘rsatib beruvchi;

rejissyor — tashkilotchi, birlashtiruvchi kabi tushunchalardir.

Pyesani jamoa bilan o‘qish rejissyorning spektakl ustida ish boshlash jarayonida muhim bosqich hisoblanadi. Chunki, rejissyor — aktyorlar, rassom, kompozitor bilan hamkorlikda ish olib borishi uchun o‘z rejasini, ularga to‘g‘ri tushuntira olishi kerak. Spektakl yaratish jarayonida qatnashgan har bir xodim pyesani o‘rganishda rejissyordan bevosita ko‘mak oladi. Lekin rejissyorning eng muhim vazifasi aktyor bilan to‘g‘ri ishlashdir. Shuning uchun ham har bir rolni to‘g‘ri taqsimlash va tushuntirishda, spektaklning badiiy obrazini yaratishda, pyesaning g‘oyaviy-badniy qimmatini to‘g‘ri aniqlashda rejissyorning uch qirrasi muhim vazifani bajaradi. Bu uch qirra: pyesa voqealar tartibini aniqlashda;

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

shart-sharoitlarini o‘zlashtirishda; janr xususiyatlarini belgilashda; yozuvchining tili hamda badiiy uslubini anglashda; mavzuning dolzarbligini belgilashda; aktyorlarning o‘z obrazlariga bo‘lgan munosabatini aniqlashda; eng muhimi xarakterlarni to‘g‘ri talqin qilishda yordam beradi.

Repetitsiyalarni uyushtirish, spektakl yaratayotgan barcha ijodkorlarni bir maqsadga yo‘llash, ish vaqtidan unumli foydalanish, barcha sexlar ishini nazorat ostita olish, spektaklga texnikaviy yordam beruvchilarga to‘g‘ri vazifa berish — bularning hammasi rejissyordan ulkan tashkilotchilik qobiliyatini talab qiladi.

Ma’lumki, teatr jamoaviy va sintetik san’at turi, bas shunday ekan boshqa san’at turlari ustalarini bir maqsad yo‘lida birlashtirish, ularni to‘g‘ri yo‘naltirish, xatolarini o‘z vaqtida aniqlash, loqaydlarini kezi kelganda yakka-yakka holda tarbiyalash, bo‘lg‘usi spektakl uchun javobgarlik hissinni paydo kilish, rejissyorning tashkilotchilik va tushuntira olish qobiliyatlariga bog‘liq. Shuning uchun buyuk rejissyor va pedagog Nemirovich-Danchenkoning rejissyorlik burchining uch qirrasi haqidagi ta’milimotining ahamiyati hozirgi paytga kelib yanada oshayapti. Ayniqsa, tushuntirib berish — pedagog sifatida jamoani tarbiyalash, aktyorlar mahoratini oshirish, dunyoqarashini shakllantirish, bilim doirasini kengaytirish, o‘z ustida va rol ustida ishlashga o‘rgatish, badiiy didini o‘stirish, nutq texnikasini takomillashtirish, uning insoniy yuragini tozalash, bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash, intizomga o‘rgatish kabi qator vazifalar rejissyor-tarbiyachi pedagogning zimmasida. Mana shularni amalga oshirish uchun rejissyor alo darajada tushungan va tushuntira oluvchi bo‘lishi kerak.

Rejissyorning bu xususiyatlari faqat aktyorlar bilan ishlaganda emas, balki spektaklni sahnalashtirish jarayonida boshqa ijodkorlar bilan hamkorligida ham amalga oshishi zaruratga aylanadi. Demak, rejissyor avvalo pedagog yoki tushuntiruvchi. Bu qirra aktyorlarni tarbiyalash bilan bir qatorda pyesani ular bilan tahlil qilishda, voqealarni baholashda va unga nisbatan munosabatini aniqlashda, hayotiy misollar bilan tushuntirishda yetakchilik qiladi. Buning uchun rejissyor o‘zi aktyorlik mahorati texnikasini to‘g‘ri tushunishi, uning yordamida o‘ziga xos badiiy bo‘yoqlarni ko‘rsata bilishi lozim. Kezi kelganda aktyorlarga u yoki bu sahnani ko‘rsatib berganida, ular ko‘rganlarini rivojlantirib, harakat qila boshlasa, rejissyor uchun bu eng oliy yutuqdir. Lekin ko‘p hollarda rejissyor o‘z mavqeini suistemol qilib, yoki aktyordan o‘zini qobiliyatli bilib, rolni ipidan-ignasigacha ko‘rsatib beradi. Aktyordan faqat shularni ko‘chirib ijro etishini talab qiladi. Natijada, aktyor faolligini bo‘g‘ib, mavqeini qug‘irchoqqa tenglab qo‘yadi. Bunday holatda aktyorlar ijod qilishdan to‘xtaydi, spektakl rejissyor ko‘rsatmasidan ko‘chirilgan bir hil ijro uslubidagi tomoshaga aylanadi.

Teatr san’ati uchun an’anaviy shiorga aylangan haqikiy “rejissyor aktyorda o‘lishi kerak”, degan aforizmga amal qilinsagina rejissyor tomonidan ekilgan “urug‘” unib chiqib, hosil berishi mumkin. Agar aktyorlar rejissyor tomonidan ko‘rsatilgan u yoki bu holatlarini eslab qolishga harakat qilib, uni chuqur tushunmasa yoki o‘z hissiy tuyg‘ularida aks ettirmasa, ijro hayotiy bo‘la olmaydi. Bu hollarda rejissyor ko‘rsatuvi zararlidir. Agar buning aksi bo‘lib, rejissyor ko‘rsatgani aktyor yuragiga ta’sir etib, yaxshi zaminga urug‘ tushsa va

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

uning tuyg‘ulari hamda fantaziyasini uyg‘otib yuborsa, nur ustiga a’lo nur. Demak, aktyor — rejissyor ko‘rsatmalaridan ilhomlanib, o‘z harakatini yangitdan, qayta yarata boshlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. SH.Mirziyoyev. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. 2017.
2. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. T.14. –T.: O‘zbekiston. 2006. 9-10 b.
3. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. – T.:Universitet. 1998.
4. Fasafa qomusiy lug‘ati. –T. 2004. 122- b.
5. O‘zbek davlatchiligi tarixi ocherklari. –T. 2001.151-b.
6. B.Hasanov, N.Karimov. M.Behbudiy merosining milliy g‘oya targ‘ibotidagi ahamiyati. – T. 2014. 102-b.
7. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Muhtaram yoshlarg‘a murojaat. «Oyna» jurnali. 1914 yil. 41-son. 970-972-betlar.
8. SH.Mirziyoyev. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari. 2020.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Umarov Mamur Botashikovich**, “San’atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrasi professori, f.f.n, [**Умаров Мамур Боташикович,** Профессор кафедры «Искусствоведение и культурология»], [**Mamur B. Umarov**, Professor at the Department of "Art Studies and Cultural Studies"]; manzil: O‘zbekiston, Toshkent sh. Mirzo Ulug’bek tumani, Yalang’och dahasi 127 «A» uy. [адрес: Узбекистан, г. Ташкент, Мирзо-Улугбекский район, махалля Ялангоч, дом 127 «A».], [address: Uzbekistan, Tashkent city, Mirzo Ulugbek district, Yalangoch neighborhood, house 127 "A".]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

QORAQALPOQFILM" DAVLAT UNITAR KARXONASINING TA'RIXI VA RIVOJLANISH YOLLARI

© Q.N. Tilepov[1]✉

[1]O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali, Nukus, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada Qoraqalpog'istonda kino sanoati tarixi, kino sanoatini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, erishilayotgan natijalar, tomoshabinlar ushun shiqarilayotgan filmlardagi yangicha usullar tahlil qilindi va yoritib berildi.

MAQSAD: Maqolaning asosiy maqsadi – Qoraqalpog'iston Respublikasida kino sanoatining shakllanishi va rivojlanish yo'llarini tahlil qilish, shuningdek, "Qoraqalpoqfilm" davlat unitar korxonasining kino mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi yutuqlari va innovatsion usullarini o'rganishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

tarixiy tahlil – Qoraqalpog'istonda kino sanoatining shakllanishi va rivojlanishi o'rganildi.

tahliliy yondashuv – ishlab chiqarilayotgan filmlar mazmuni va texnologik yangiliklari tahlil qilindi.

taqqoslash usuli – milliy va xorijiy kino sanoati tajribasi bilan solishtirish amalga oshirildi.

suhbat va kuzatish – soha mutaxassislari bilan suhbatlar va kino ishlab chiqarish jarayonini kuzatish orqali ma'lumotlar to'plandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, "Qoraqalpoqfilm" davlat unitar korxonasi tomonidan olib borilayotgan faoliyat Qoraqalpog'istonda kino sanoatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Quyidagi jihatlar aniqlangan:

Qoraqalpoq milliy kino san'ati o'ziga xos tarixiy va madaniy xususiyatlarga ega.

so'nggi yillarda yangi texnologiyalar va zamonaviy yondashuvlar asosida filmlar yaratilmoqda.

kino mahsulotlarining sifati oshib, tomoshabinlar auditoriyasi kengaymoqda.

Qoraqalpoq kinosi xalqaro kinofestivallarda namoyish etilib, jahon miqyosida tanilmoqda.

XULOSA: Qoraqalpog'istonda kino sanoati bosqichma-bosqich rivojlanib, zamonaviy yondashuvlar va texnologiyalar asosida yangilanmoqda. "Qoraqalpoqfilm" davlat unitar korxonasi milliy kino san'atini rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Kelgusida milliy filmlarni yanada keng targ‘ib qilish, xalqaro miqyosda hamkorlikni rivojlantirish va texnologik yangiliklarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: kino, rejissyor, obraz, dublyaj, musiqa, kino sanoati, Qoraqalpoqfilm, milliy kino, rejissyor, tomoshabin, texnologiya, innovatsiya.

Iqtibos uchun: Tilepov Q.N. “Qoraqalpoqfilm” davlat unitar karxonasining ta’rixi va rivojlanish yollari. // Inter education & global study. 2025. №3 B.613–620.

ИСТОРИЯ И ПУТИ РАЗВИТИЯ ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИТАРНОГО ПРЕДПРИЯТИЯ «КАРАКАЛПАКФИЛЬМ»

© К.Н. Тилепов[1]✉
[1]Узбекский государственный институт искусств и культуры, Нукусский филиал, Нукус, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматривается история киноиндустрии в Каракалпакстане, анализируются работы, проводимые для развития киноиндустрии, достигнутые результаты, а также новые методы, используемые при создании фильмов для зрителей.

ЦЕЛЬ: основной целью статьи является анализ формирования и путей развития киноиндустрии в Республике Каракалпакстан, а также изучение достижений и инновационных методов производства фильмов государственным унитарным предприятием «Каракалпакфильм».

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования были использованы следующие методы:

исторический анализ – изучение формирования и развития киноиндустрии в каракалпакстане.

аналитический подход – анализ содержания и технологических новшеств в создании фильмов.

сравнительный метод – сопоставление опыта национальной и зарубежной киноиндустрии.

интервью и наблюдение – сбор данных путем бесед с экспертами в данной области и наблюдения за процессом кинопроизводства.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: Результаты исследования показывают, что деятельность государственного унитарного предприятия «Каракалпакфильм» оказывает положительное влияние на развитие киноиндустрии в Каракалпакстане. Были выявлены следующие аспекты:

Каракалпакское национальное киноискусство обладает уникальными историческими и культурными особенностями.

в последние годы фильмы создаются с применением новых технологий и современных подходов.

качество кинофильмов улучшается, а аудитория зрителей расширяется.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Каракалпакские фильмы демонстрируются на международных кинофестивалях и получают признание на мировом уровне.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: киноиндустрия в Каракалпакстане развивается поэтапно, обновляясь с применением современных технологий и подходов. Государственное унитарное предприятие «Каракалпакфильм» играет важную роль в развитии национального киноискусства. В будущем важное значение будет иметь более широкая пропаганда национальных фильмов, развитие международного сотрудничества и внедрение технологических инноваций.

Ключевые слова: кино, режиссёр, образ, дубляж, музыка, киноиндустрия, Каракалпакфильм, национальное кино, зритель, технологии, инновации.

Для цитирования: Тилепов К.Н. История и пути развития государственного унитарного предприятия «Каракалпакфильм». // Inter education & global study. 2025. №3. С. 613–620.

HISTORY AND DEVELOPMENT PATHWAYS OF THE STATE UNITARY ENTERPRISE "QORAQALPAQFILM"

© Quatbay N. Tilepov[1]✉
[1]Uzbekistan State Institute of Arts and Culture, Nukus Branch, Nukus, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article examines the history of the film industry in Karakalpakstan, analyzes the work carried out to develop the film industry, the achievements made, and the innovative methods used in the production of films for audiences.

AIM: the main objective of this article is to analyze the formation and development pathways of the film industry in the Republic of Karakalpakstan, as well as to study the achievements and innovative methods of film production by the state unitary enterprise "Qoraqalpaqfilm."

MATERIALS AND METHODS: the research utilized the following methods:

historical analysis – studying the formation and development of the film industry in karakalpakstan.

analytical approach – analyzing the content and technological innovations in film production.

comparative method – comparing the experience of national and international film industries.

interviews and observations – gathering data through discussions with industry experts and observing the film production process.

DISCUSSION AND RESULTS: the research findings indicate that the activities of the state unitary enterprise "Qoraqalpaqfilm" have had a positive impact on the development of the film industry in Karakalpakstan. The following aspects were identified:

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Karakalpak national cinema possesses unique historical and cultural features.

in recent years, films have been created using new technologies and modern approaches.

the quality of films has improved, and the audience base has expanded.

Karakalpak films are being showcased at international film festivals and gaining global recognition.

CONCLUSION: the film industry in Karakalpakstan is developing step by step, integrating modern approaches and technologies. The state unitary enterprise "Qoraqalpaqfilm" plays a significant role in the advancement of national cinema. In the future, the broader promotion of national films, the expansion of international collaborations, and the introduction of technological innovations will be of great importance.

Key words: cinema, director, character, dubbing, music, film industry, Qoraqalpaqfilm, national cinema, audience, technology, innovation.

For citation: Quatbay Sh. Tilepov. (2025) 'History and development pathways of the state unitary enterprise "Qoraqalpaqfilm"', Inter education & global study, (3), pp. 613–620. (In Uzbek).

Inson qadimdan san'atga, ijodga o'zgacha mehir bilan qaragan. Insonlar ertangi yoriq kunga ishonch va bu ishonchni tarbiyalovchi va mustahkamlovshi vosita bo'lgan san'at asrlar davomida yashash uchun kurashishda va faqatgina olg'a intilishga turtki bo'lgan. O'zbekiston mustaqillikga erishgandan so'ng kino sohasini rivojlantirish bo'yicha bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev takidlaganidek, "Dunyo miqyosida turli g'oya va idealogiyalar kurashi, odamlar ayniqsa yoshlarning qálbi va ongini egallash uchun turli kuchlar o'rtasida raqobat tus olgan bugungi kunda eng ommaviy san'at bo'lgan kinoning cheksiz imkoniyatlaridan samarali foydalanishimiz kerak".

Davlatimiz rahbarining kino sohasiga oid qabul qilgan farmon va qarorlari bu milliy kino sanoatimizning yosh avlodni tarbiyalashdagi o'rni va ta'sirini kuchaytirish, idealogik san'at darajasini oshirish yo'lidagi muhim voqea bo'ldi. Bu ko'rsatilgan e'tibor faqatgina o'zbek kinosi, balki qoraqalpoq kinosi uchun ham muhim voqea bo'lib, uning yanada rivojlanishi uchun yana bir bora turtki bo'lib xizmat qilmoqda.

Shundan kelib chiqib aytish mumkin har tomonloma yetuk, vatanparvarlik va insoniylik g'oyalari muhitida tarbiyalangan sof vijdonli va erkin fikrga ega komil insonni tarbiyalashda kino sanoatining o'rni katta. Kino san'ati boshqa sanoat turlari kabi jamiyatda paydo bo'layotgan voqea hodisalarga o'z munosabatlarini badiiy obrazlar orqali aks qildiradi. Kino o'zining ommaviyligi va tomoshabinligi bilan keng tarqalgan. Hozirgi kunda poytaxtda, shaharlarda balki tuman markazlarida ham davlat va nodavlat kinostudiyalar tashkillashtirilgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Qoraqalpog'istonda hozirgi kunda kino sohasi bo'yicha “Qoraqalpoqfilm” kinostudiyasi davlat karxonasi o'z ishlarini olib barmoqda. “Qoraqalpoqfilm” kinostudiyasi o'zining 50 yildan ortig'iroq tarixiga ega.

“Qoraqalpoqfilm” kinostudiyasining asosiy vazifasi: kino san’atining milliy madaniyatini rivojlantirish, badiiy, hujjatli, ilmiy-publisistik, multiplikatsion kinovideofilmlar ishlab chiqarish, kinovideofilmlarni o'zbek, rus tillariga dublyaj qilishdan iborat.

Shuning bilan bir qatorda Qoraqalpog'iston Respublikasida kino sanoati ko'p asrlik tarixga ega. 1975-yili Nukusta hujjatli filmlarning respublika festivali o’tkazilishi va ushbu kinoforumda qoraqalpoq kinoshilarining “Abdullaev shoqqısı” rejissyor-operator N. Dawxaraev, filmi “Eng yaxshi hujjatli film” diplomiga munosib ko'rilishi bilan esda qoldi.

Bu hujjatli filmlar qoraqalpoq milliy kinosi respublika ijodkor jamoalari orasida munosib o'rin egallab Boshqurstandagi 1977 yil, Tatarstandagi 1981 yil, Daǵıstandagi 1984 yil Qoraqalpog'istonning madaniyat kunlarida o'z filmlari bilan qatnashadi va o'sha Respublikalarning “Faxriy yorliǵi” va baholi mukofotlariga sazovar bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining kinematografiya bo'yicha davlat qo'mitasining 1970 yili 19 fevralda №45 sonli qarori asosida Nukus shahrida O'zbekiston ilmiy-ko'pchilik va hujjatli filmlar kinostudiyasining Qoraqalpog'iston filiali tashkillashtirildi va joriy yilning aprel oyidan o'z ishini boshladi. Dastlabki yillari kinostudiyaga yiliga 2 filmni qoraqalpoq tiliga tarjima qilish, “Qoraqalpog'iston” kinojurnalining 4 soni va 2 hujjatli filmni tasvirga olish rejalashtirildi. Ushbu maqsadda 15 insonnan iborat shtat ro’yxati tasdiqlandi. Kinostudiya direktori lavozimiga taniqli yozuvshi Jolmurza Aymurzaev tayinlandi.

Kinostudiyaning dastlabki rejissyorı Sátbay Allanazarov, kinooperatori Naǵmet Dawqaraev bo'ldi. Kartina direktori vazifasi Paraxat Saburovga yuklandi. Bunnan keyingi yillari kinostudiyaga Genjemurat Izimbetov, Kamal Mámbetov, Naǵmet Dawqaraev, Orazbay Abdiraxmanov, Tóreniyaz Qálimbetov, Qonısbay Jandullaev, Muratbay Nızanov, Begdulla Sultanovlar direktor bo'lib ishladi. 2016-yildan buyon kinostudiyani Baxtiyar Madiyarov boshqarib kelmoqda.

“O'zbekfilm” boshlamasi bilan Qoraqalpog'istonda birinchi 1958 yili “Aral balıqshıları” (“Рыбаки Арала”) tasvirga olingan. Film rejissyorı Yuldash Azamov milliy ruhni namayon qiladi. Filmda ikkinchi jahon urushi vaqtida Qoraqalpog'iston Respublikasi insonlarida vatanparvarlik hissin oshirish maqsadida 1941 yili yo'qolib ketgan Orol dengizi va qoraqalpoq hayoti haqidagi voqealar o'z ifodasini to’pgan.

Kalxoz boshlig'ining qizi, tarix fani o'qituvchisi Ayjamal “Qoraqalpoq inqilobiy dunyo qarashini shakllantirishda rus xalqining rolları” ilmiy faoliyatining dissertatsiya himoyasida 50 yil oldin vujudga kelgan voqealarni aytib o’tadi.

1905-yil inqilob ishtirokchisi Semen Leytenant Grigoriy Butakov o'z hayotini baqshida qilib Ayjamalning otasi Olekseevdi qutqarib uning omon qolishiga yordam beradi. Filmda insoniylik, vatanparvarlik, do'stlik sevgi kabi mavzularga e'tibor qaratilgan. Film rejissyori voqealar rivojida qoraqalpoq musiqasining ta'sirshangligini oshirib, voqealar filmning muvofaqiyatli chiqishiga yordam beradi. Bu filmning qoraqalpoq kinosida tutgan o'rni va

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

uning ta'siri sezilarli desak adashmaymiz. Orol dengizining ayni tolib to'shib turgan paytidagi kino ko'rsatish tarixning oltin betlarida yozilib qolinganligi hozirgi kunda ham biz uchun quvonshli holat. Keyingi vaqtlarda bo'lsa Qoraqalpog'iston Respublikasida orol muommasi bilan bog'liq hujjatli va badiiy filmlar tasvirga olindi.

1971-yilga kelib filialning rejalari kengayib, badiiy filmlarning rejalari 12 ga, "Qoraqalpog'iston" kinojurnalining soni 6 ga yetkazildi va shuning bilan birga yiliga 2 hujjatli film tasvirga olish nazarda tutildi. Buning uchun albatta, kino sohasida ijodkor xizmatchilarning katta fotensialini tortish zarur edi. Taniqli san'at nomoyondalari Yuldash Mamutov, Reyimbay Seyitov, Yaqıt Allamuratova, Sapargúl Awezova, Dosbergen Ranov, Quwatbay Abdreymov, Najimatdin Ańsatbaev, Jalǵas Sultabaev, Mámbetbay Sadıqov, Rayxan Saparova, Baltaniyaz Qaypovlar dublyajga, rejissyor lavozimiga Tashkent teatr san'at instituti bitiruvchilari Zinel Ablakimov, Azat Sharipov, Uzaqbay Jalimbetovlar, redaktor lavozimiga Raxim Qaymaqov va boshqalar ishga chaqiriladi. Rejissyor operator sifatida Naǵmet Dawqaraev, Perdebay Qaypovlar ish olib boradi.

1981 yilga kelib kinostudiyaning Qoraqalpog'iston filiali o'zining yangi imoratiga ega bo'ldi va studiyaning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanadi. Shu orada hujjatli filmlar va dublyajning soni kópaydi. Shuning bilan bir qatorda buyurtma filmlar ham ishlana boshladi.

1989 yil kinostudiya tarixida dastlabki badiiy film "Gum-Gum" (scenariy muallifi M. Tuyshiev, O. Abdiraxmanov, postanovkachi rejissyor D. Dawletov, operator B. Allamyarov). Bu fılmda orol dengizi va qoraqalpoq aholisining tag'diriga turli tashkilot amaldorlarining e'tiborsizligi tufayli dengizning qurib ketishi, bu esa katta muammolar keltirib chiqarǵanligi so'z etiladi. Ushbu film orol tag'diri uchun mas'uliyatni yanada oshirish zarur ekanligiga qaratilgan.

Film 1990 yili Amerikaning San-Frantsisko shahrida bo'lib o'tgan xalqaro kinofestivalda Gran-pridi qo'lga kiritadi. Ushbu yutuqlar natijasida Qoraqalpog'istonda o'z oldiga kinostudiya ochilishiga sabab bo'ldi. Bu qoraqalpoq kinoijodkorlarining har xil janrlarda o'z kuchlarini sinashiga imkoniyat yaratdi. Shunday qilib dastlabki qisqa metrajlı badiiy filmlar "Tıg'ın" (1990 yil rejissyor T. Qálimbetov.), "Qaytiw" (1992 yil rejissyor B. Nizamatdinov) tasvirga olindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1989 yili 16 noyabrdagi №10/72-152-sonli qarorina asos 1990 yil 20-aprelda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining №96/4-sonli qarori asosida "Qoraqalpoqfilm" kinostudiyasi bo'lib takror tashkillashtirildi. "Qoraqalpoqfılm" kinostudiyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 17 martdagi 126 sonli "O'zbekkino" milliy agentligi faoliyatini tashkil etish haqidagi qaroriga muvofiq "Qoraqalpoqfilm" kinostudiyasi davlat unitar korxonasi bo'lib qayta tashkillashtirildi.

Hozirgi davrga qadar o'zining 75 yillik tárixi davomida "Qoraqalpoqfilm" kinostudiyasi bir nechta 13 ta badiiy, 500 dan ortiq hujjatli va animasion filmlarni tasvirga olib xalqimiz nazariga taqdim etib kelmoqda.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

“Qoraqalpoqfil'm” kinostudiyasi DUK binosini ta'mirlash ishlarini olib borish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining 2023 yil 28 fevral' kungi 1113-sonli Prezidiumi qaroriga asosan 4,5 mlrd so'm miqdorida mablag' ajratish bo'yicha qaror qabul qilindi. 2023 yil sentyabr oyidan “NokisIsker” MChJ tomonidan rekonstruktsiya ishlari olib borilmoqda. Hozirgi kunda rekonstruktsiya ishlari tugallangan.

Hozirda «Qoraqalpoqfilm» kinostudiyasi binosida 210 o'rinli katta kinozal, katta konferentsiya zali va grimm, kastyumlar va rekvizitlar va imoratning poyesida katta retro muzey tashkillashtirilgan.

Kinostudiya tomonidan yaratilgan har qanday filmlar madaniyat va san'atni rivojlantirishga, yoshlarni sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, keksa avlodga hurmat-ehtirom ko'rsatishga o'z hissasini qo'shmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Тилепов, Қуатбай Нукусбаевич. "ҲУЖЖАТЛИ ФИЛЬМЛАРИДА РЕЖИССЁРЛИК МАҲОРАТ." Educational Research in Universal Sciences 2.1 SPECIAL (2023): 454-459.
2. Nukusbayevich, Tilepov Quatbay. "MAIN FACTORS OF THE HISTORY AND DEVELOPMENT OF" KARAKALPAKFILM" FILM STUDIO." World Bulletin of Social Sciences 27 (2023): 169-171.
3. Тилепов, Қуатбай Нукусбаевич. "КИНО—ТАРБИЯ ВОСИТАСИ." Innovative Development in Educational Activities 2.5 (2023): 314-317.
4. Nukusbayevich, Tilepov Quatbay. "OVOZ YOZISH TEXNOLOGIYASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI, OVOZ REJISSYORI KASBINING SHAKLLANISHI (ROSSIYA OVOZ REJISSYORLIGI MISOLIDA)." Oriental Art and Culture 5.6 (2024): 876-880.
5. NUKUSBAYEVICH, TILEPOV QUATBAY. "O ‘ZBEKISTONDA MAQOM SAN’ATINING SHAKLLANISHI." (2024): 1-5.
6. Tilepov, Quatbay Nukusbayevich. "QORAQALPOG ‘ISTONDA MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI." Oriental Art and Culture 4.6 (2023): 680-683.
7. ТИЛЕПОВ, Қуатбай. "ЁШ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШДА АНИМАЦИОН ФИЛЬМЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ." Journal of Culture and Art 1.2 (2023): 114-118.
8. Ансатбаев Н. Театр ва актёр, дарслик. 2020.141-154 б.
9. Арасту. Поэтика. – Т: Янги аср авлоди, 2012. 45-б.
10. Асарнинг асл нусхаси.
11. Исмаилов, Ажинияз. "ҚОРАКЎЗ-ҚОЗОҚ ЖУЛЬЕТТАСИ." Oriental Art and Culture 5.3 (2024): 617-623.
12. Исмайлов, Ажинияз. "«ҚИРОЛ ЛИР» НИНГ ЯНГИ ТАЛҚИНИ." Journal of Culture and Art 1.3 (2023): 69-74.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

13. Исмайлов, Ажинияз Есбергенович. "«УСТОЗ ТАҚДИРИ» СПЕКТАКЛИДА ЗАМОНДОШ ОБРАЗЛАР ТАЛҚИНИ." GOLDEN BRAIN 1.13 (2023): 161-167.
14. Darushova, Darixa Kadirniyazovna. "YOSH REJISSYORNING YANGI TALQINDAGI SPEKTAKLI." Oriental Art and Culture 5.6 (2024): 656-658.
15. Дарушова, Д. (2024). САҲНАДА – ҚУШЛАРНИ КУТГАН БОЛАЛАР. Talqin Va Tadqiqotlar. извлечено от https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/2469

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Tilepov Quatbay Nukusbayevich**, «Texnogen san'ati» kafedrasi assistent o'qituvchisi [**Тилепов Куатбай Нукусбаевич,** Ассистент-преподаватель кафедры «Техногенное искусство»], [**Quatbay N. Tilepov**, Assistant Lecturer, Department of "Technogenic Art"]; manzil:Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Qoraqalpog'iston ko'chasi; [адрес: Республика Каракалпакстан, город Нукус, улица Каракалпакстан], [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, Karakalpakstan Street] quwattilepov30@gmail.com .

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

DOLZARBLIGINI YO‘QOTMAGAN SAHNA ASARI

© A.Y. Ismaylov[1]✉

[1]O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali, Nukus, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada Berdax nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat akademik musiqali teatrida qayta sahnalashtirilgan K. Rahmonovning “Jar” spektaklining afzalliklari va kamchiliklari ko‘rib chiqiladi.

MAQSAD: rshbu maqolaning asosiy maqsadi – sahna asarlarining dolzarbligini K. Rahmonovning “Jar” spektakli misolida tahlil qilish va uning zamonaviy ijroda qayta sahnalashtirish jarayonini o‘rganishdir. Tadqiqot doirasida rejissyorlik usullari, aktyorlik mahorati hamda dekorativ-tasviriy vositalarning ahamiyati tahlil qilinadi.

MATERIALLAR VA USULLAR: eadqiqot davomida quyidagi usullardan foydalanildi:

- Tahliliy yondashuv – spektaklning dramaturgik asosi va sahna yechimlarini tahlil qilish.
- Taqqoslash usuli – spektaklning oldingi va yangi sahnalashtirishlari o‘rtasidagi farqlarni o‘rganish.
- Amaliy kuzatish – aktyorlar, rejissyor va ijodiy jamoaning sahnalashtirish jarayonidagi ishlarini o‘rganish.
- Estetik tahlil – spektaklning vizual va dramatik ta’sirini tadqiq qilish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, qayta sahnalashtirishga qaramay, “Jar” spektakli o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Quyidagi jihatlar aniqlab berildi:

- Zamonaviy sahna bezaklari spektaklning tomoshabinlarga ta’sirini kuchaytirgan.
- Rejissyorlik qarorlari va aktyorlik ijrosi spektaklning asosiy g‘oyalarini aniq va jonli yetkazishga yordam bergan.
- Dekoratsiya, yorug‘lik va musiqaning uyg‘unligi spektaklning badiiy-estetik qimmatini oshirgan.

XULOSA: K. Rahmonovning “Jar” spektakli zamonaviy sahnalashtirish natijasida o‘z dolzarbligini saqlab qolgan. Rejissyorlik va aktyorlik yondashuvlari, sahna texnologiyalarining puxta qo‘llanilishi uning ifoda kuchini oshirgan. Biroq, yanada mukammal dramaturgik va sahnaviy yaxlitlikka erishish uchun ayrim jihatlarni takomillashtirish zarur. Kelajakda yangi sahnalashtirishlar jarayonida ijodiy innovatsiyalar va tomoshabinlarning didi hisobga olinishi muhim.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Kalit so‘zlar: teatr, dramaturg, aktyor, rejissyor, spektakl, ijodkor, repertuar, dekoratsiya.

Iqtibos uchun: Ismaylov A.Y. Dolzarbligini yo‘qotmagan sahna asari. // Inter education & global study. 2025. №3 B.621–627.

СЦЕНА, НЕ ПОТЕРЯВШАЯ СВОЕЙ АКТУАЛЬНОСТИ

© А.Е. Исмаилов [1]✉

[1]Узбекский государственный институт искусств и культуры, Нукусский филиал, Нукус, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматриваются достоинства и недостатки спектакля «Жар» К. Рахманова, заново поставленного на сцене Каракалпакского государственного академического музыкального театра имени Бердаха.

ЦЕЛЬ: основной целью данной статьи является анализ актуальности сценических произведений на примере спектакля «Жар» К. Рахманова и изучение процесса его повторной постановки в современном исполнении. В рамках исследования рассматриваются режиссёрские методы, актёрское мастерство, а также значение декоративно-изобразительных средств.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования использовались следующие методы:

- Аналитический подход – анализ драматической основы и сценических решений спектакля.
- Сравнительный метод – изучение различий между предыдущей и новой постановками спектакля.
- Практическое наблюдение – изучение работы актёров, режиссёра и творческой группы во время постановочного процесса.
- Эстетический анализ – исследование визуального и драматического воздействия спектакля.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что, несмотря на повторную постановку, спектакль «Жар» не утратил своей актуальности. Выявлены следующие аспекты:

- Современное сценическое оформление усилило воздействие спектакля на зрителя.
- Режиссёрские решения и актёрская игра позволили точно и живо передать основные идеи спектакля.
- Гармоничное сочетание декораций, освещения и музыки повысило художественно-эстетическую ценность спектакля.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: спектакль «Жар» К. Рахманова сохранил свою актуальность благодаря современной постановке. Режиссёрские и актёрские решения, грамотное использование сценических технологий усилили его выразительность. Однако для

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

достижения ещё большей драматургической и сценической завершённости необходимо усовершенствовать некоторые аспекты. В будущем при создании новых постановок важно учитывать творческие инновации и зрительские предпочтения.

Ключевые слова: театр, драматург, актёр, режиссёр, спектакль, творец, репертуар, декорации.

Для цитирования: Исмаилов А.Е. Сцена, не потерявшая своей актуальности. // Inter education & global study. 2025. №3. С. 621–627.

A STAGE PRODUCTION THAT HAS NOT LOST ITS RELEVANCE

© Ajiniyaz Y. Ismailov[1]✉
[1]Uzbekistan State Institute of Arts and Culture, Nukus Branch, Nukus, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article discusses the strengths and weaknesses of the play “Jar” by K. Rakhmanov, which was restaged at the Berdakh Karakalpak State Academic Musical Theater.

AIM: the main objective of this article is to analyze the relevance of stage productions using the example of “Jar” by K. Rakhmanov and to examine the process of its restaging in a modern interpretation. This study explores directorial techniques, acting skills, and the significance of decorative and visual elements.

MATERIALS AND METHODS: the following methods were used in the study:

- Analytical approach – analysis of the dramatic foundation and stage solutions of the play.
- Comparative method – examination of differences between the previous and new versions of the production.
- Practical observation – study of the work of actors, the director, and the creative team during the production process.
- Aesthetic analysis – evaluation of the visual and dramatic impact of the play.

DISCUSSION AND RESULTS: the research findings indicate that despite being restaged, the play “Jar” has not lost its relevance. The following aspects were identified:

- The modern staging style enhanced the play’s impact on the audience.
- Directorial choices and acting performances effectively and vividly conveyed the play’s core ideas.
- The harmonious combination of set design, lighting, and music elevated the artistic and aesthetic value of the production.

CONCLUSION: K. Rakhmanov’s play “Jar” has retained its relevance through modern staging. The directorial approach, acting skills, and proper use of stage technologies have amplified its expressiveness. However, to achieve greater dramaturgical and scenic perfection, certain aspects need improvement. In future

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

productions, it is crucial to incorporate creative innovations and align with audience expectations.

Key words: theater, playwright, actor, director, play, artist, repertoire, set design.

For citation: Ajiniyaz Y. Ismailov. (2025) 'A Stage Production That Has Not Lost Its Relevance', Inter education & global study, (3), pp. 621–627. (In Uzbek).

O'tgan asrning so'nggi chorakligida o'zining qaynoq ijodi bilan qoraqalpoq dramaturgiyasining gullab–yashnashiga salmoqli hissa qo'shgan dramaturg, Qoraqalpog'iston xalq shoiri, Berdaq nomidagi davlat mukofotining laureati Kenesbay Raxmanovning ijodini ko'zdan kechirsak, uning sahna asarlarining turli janrlarda yozilganligining guvohi bo'lamiz. Bir-birini takrorlamaydigan «Yarador yuraklar», «Kechikkan bahor», komediya janridagi «Kelin», «To'qqiz to'nqildoq, bir chang'ildoq», «Injiqning muhabbati», «Laqqilar shifoxonada» va boshqa sahna asarlari teatr sahnalarida muvaffaqiyati sahnalashtirildi.

Dramaturg K. Raxmanovning deyarli barcha pyesalari muvaffakiyat qozogan. Dramaturg K. Raxmanovning zamon tanlamaydigan sahna asarlaridan biri «Narigi dunyoga taklif» («O dүnyag'a mirət») spektakli dastlab 1976-yili rejissyor N.Ansatbayev tomonidan sahnalashtirilib sahna yuzini ko'rdi. Asar 2010-yili qayta qo'lga olinib, «O'g'rini qaroqchi bosdi» nomi bilan tomoshabinlarga taqdim etildi. [1, 141-154]

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri tragikomediya janrida yozilgan mazkur asarni 2024-yili qayta qo'lga olib, uni sahnalashtirishdagi asosiy sabablarining biri sahna asarining mavzusi va g'oyasida. Drama janriga aylantirilgan va «Jar» nomi bilan tomoshabinlar e'tiboriga taqdim etilgan spektaklni rejissyor Marqabay Usenov sahnalashtirdi. Spektaklda bugungi kundagi dolzarb bo'lgan farzand tarbiyasiga ba'zi ota-onalarning befarqligi, molu-davlatga ruju qo'yish, davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashi mavzulari ko'tarilgan. Deyarli ellik yil avval yozilgan asardagi voqealarni bugungi kun bilan bog'lash va ahamiyatini oshirishdek ma'suliyatni muallifning qizi Gavhar Rahmonova o'z zimmasiga oldi. Oradan ancha yillar o'tib ketganligi sababli asarga ba'zi voqealarni qo'shishga to'g'ri kelgan va ushbu dramadagi voqealar shu kunlarda bo'lib o'tadi.

Boylikning ortidan quvgan ota, Dubayga dam olish uchun ketgan, uyda qolgan ona esa pul uchun eriga zo'rg'a chidab yurgan jabirdiyda ko'rinishda gavdalanadi. Yolg'iz o'g'il Norpo'lat (Muhammedali Kenjeyev) ota-onasining soyasida kayfu-safo qilib yurgan merosxo'r, tanti o'smir. Ularning oilasida mehr-oqibat tuyg'ulari, insoniylik sifatlari ko'tarilgani yaqqol namoyon bo'lib turadi.

Onasining mashinasini haydab chiqib ketgan Norpo'lat bilan baxtsiz hodisa yuz beradi. Asarning tuguni mana shu yerdan boshlanadi. Oilaviy bir tanishi Sherniyazning (Ruslan Qaypnazrov) o'z muammosiga yechim izlab turganida, Norpo'lat velosipedli qizni mashinada urib yuborib, o'zi qochib ketganini eshitgan Ulperi (M.Mambetmuratova)

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

sarosimaga tushib qoladi. Asardagi voqealar rivojlanib borishi bilan bu oilaning boshiga shiddatli mudhish voqealar yomg‘ir kabi yog‘a boshlaydi.

Dastlab, Sheriniyaz do‘konida tekshirish tomonidan topilgan kamomatni qoplashidan umid qilib, Toshpo‘latni (Daniyar Qudaynazarov) Dubaydan chaqirtiradi. O‘g‘lining tashvishi ustiga yana tashvish bo‘lib qo‘shilgan voqea – bu yig‘ilgan bir chemodan dollarlarni o‘g‘irlab ketishganini bo‘ldi. Bu voqeadan militsiyaning xabar topishini istamagan uchchovlon, vaziyatdan chiqish uchun jinoyat izidan yana jinoyat sodir etishadi.

Qo‘shnisidan gumonsiragan Toshpo‘lat va Sherniyaz Ulperini zo‘rg‘a ko‘ndirib, qo‘shnisining hovlisiga tushiradi. Ularning hayolida: pulni o‘g‘irlagan qo‘shnisi pullarni molxonaga yashirishgan. Lekin ish silliq ketmaydi, Ulperini o‘g‘irlikga tushgan qo‘shni hovlidagi iyt tishlab oladi. Chigal voqealar mana shu voqeadan keyin oydinlasha boshlaydi. Norpo‘lat odam urib yubormagani, uning o‘zi noqobil do‘stlariinnig qurboniga aylangani, bir chemodan pul ham “do‘stlar” tomonidan o‘g‘irlangani ko‘rsatiladi. Bu voqealarga chiday olmay, aqldan ozagan Ulperi uyiga o‘t qo‘yadi va o‘zi ham qurbon bo‘ladi.

Asardagi voqealar shiddat bilan rivojlanib borganini ko‘rishimiz mumkin. Biroq voqealar avvalida bir-biriga bog‘liqlik sust kechadi, Aniq maqsadga xizmat qilmaydigan voqealarning ko‘pligi dastlab ularning ortiqchadek tuyulganini yashirmaymiz. Ichki ishlarni surishturuvlari orqali mudhish jinoyatlar barchasi bir chiziqqa tiziladi. Shundang so‘nggina tushunarsiz ko‘p voqealarga oydinlik kiritiladi.

Spektakl so‘nggida final ikki marotaba berildi. Toshpo‘lat militsiya xodimi oldida hamma ishlarni bosti-bosti qilish uchun unga pora taklif etib, shu vaqtgacha qilgan jinoyatlari ustiga jinoyatni yamab turganida, militsiya Toshpo‘latga hali xabar topmagan voqealar tafsilotini yetkazadi. Toshpo‘lat shu yerda baridan ayrilganini anglab yetadi. Shu yerda birinchi final ko‘rsatilgan bo‘lsa, bundan keyin yana final beriladi, ya’ni Toshpo‘latning chet eldagi qizi kelib, ona qabri boshida namoyon bo‘ladi. Arastu o‘zining “Poetika” asarida asar yechimi haqida shunday deydi: “Har qanday tragediyada tugun va yechim bo‘lishi zarur. Dramadan tashqaridagi barcha voqealar, shuningdek, ba’zan dramaning ichidagi ayrim voqealar — tugun, qolganlari esa — yechimdir. Men tragediyaning boshlanishidan to (qahramonning) baxtsizlikdan baxtiyorlikka yoki baxtiyorlikdan baxtsizlikka tomon o‘tish harakati boshlangan chegaragacha bo‘lgan qismni tugun deb atayman. Ana shu o‘tish boshlangan joydan (asarning) oxirigacha bulgan qism — yechimdir. [2, 45]

Sahna bezagidagi ayrim dekoratsiyalarning g‘oyaga erishishdagi xizmati yakun topmagan. Prologda katta oynaning oldida bir qiz o‘tirib, o‘z aksini ko‘rganidan so‘ng cho‘chib tushadi. Keyingi sahna ko‘rinishlarida oynadan deyarli foydalanilmaydi. Lekin prologda katta temir to‘rning turishi personajlarning qilmishlariga yarasha boradigan joyini aks ettirgan. Toshpo‘latning uy inte’reri sahna ustiga qurilgan sahnaga o‘xshab qolgan. Chunki, baland zinapoyalar aktyorlarning undan minib-tushishiga noqulay bo‘ldi. Hattoki, tomoshabin spektaklni ko‘rib o‘tirib, aktyorlar “yiqilib ketmasmikin” deya havotirlanib o‘tirdi.

Aktyorlar ijrosiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Toshpo‘lat rolidagi Daniyar Qudaynazarovning ijrosi o‘z qahramoniga mos tushmagandek, nazarimizda. Daniyarning o‘z obrazini yaratishidan uning qahramoni gapga eruvchi, bo‘shang erkakdek ko‘rindi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Aslida Toshpo‘lat qahri qattiq, oilasiga befarq, bola tarbiyasini esa ayoliga tashlab ko‘ygan, hayotda pulni hamma narsadan ustun qo‘yuvchi inson. Daniyar Qudaynazarovning ijrosida esa bu xarakter yaqqol ko‘zga tashlanmaydi. Lekin Ulperi rolidagi Miyrigul Mambetmuratova va saqov xizmatkor Nurgul – Zamira Yunusova o‘z rollarini yaxshi ijro etdi.

Asardagi voqealarni bugungi kundagi ahamiyatini muhokama qilar ekanmiz, hozirgi vaqtdagi ayrim ota-onalarning molu-dunyo izidan quvishi va oilasiga befarqligi, natijada farzandlar tarbiyasini izdan chiqarib qo‘yyotganligi, jinoiy ishlarni korrupsiya yo‘li bilan hal qilishga bo‘lgan urunishlari kabi holatlarni bugungi turmushimizda tez-tez eshitib, guvohi ham bo‘lib turganimimiz haqiqat.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, qoraqalpoq teatri tarixida bir asarning uzoq yillar teatr repertuarida yashashi aslida asarning mohirlik bilan yozilganligi va mavzusi, g‘oyasi zamon va makon tanlamasligida. Yangi spektaklning janri o‘zgartilib, asar o‘zining kompozitsion tuzlishini biroz chalkashtirib qo‘ygan bo‘lsa da, mavzu va g‘oyasining aniqligini, tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qola olgan. Teatr ijodkorlarining bugungi tomoshabinga aytmoqchi bo‘lgan muhim gapi ham mana shular, aslida.

Pul va molu-davlatni hamma narsadan ustun qo‘yib, mehr-oqibat, tarbiya masalasi va ezgu fazilatlar haqida gap ketganda ensasi qotadigan ayrim ota-onalar uchun mazkur spektakl dars bo‘lib, ko‘zlarini ochib qo‘ysa, teatr ijodkorlari o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishgan bo‘lardi. Chunki, buyuk ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy teatrning ezgu maqsadlarga xizmat qilishi haqida “Teatr - ibratxonadur” deya, qisqa va ma’noli iborani avlodlarga meros qoldirgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ansatbayev N. Teatr va aktyor, darslik. 2020.141-154 b.
2. Arastu. Poetika. – T: Yangi asr avlodi, 2012. 45-b.
3. Asarning asl nusxasi.
4. Ismailov, Ajiniyaz. "QORAKO‘Z-QOZOQ JULYETTASI." Oriental Art and Culture 5.3 (2024): 617-623.
5. Ismaylov, Ajiniyaz. "«QIROL LIR» NING YANGI TALQINI." Journal of Culture and Art 1.3 (2023): 69-74.
6. Ismaylov, Ajiniyaz Yesbergenovich. "«USTOZ TAQDIRI» SPEKTAKLIDA ZAMONDOSH OBRAZLAR TALQINI." GOLDEN BRAIN 1.13 (2023): 161-167.
7. Darushova, Darixa Kadirniyazovna. "YOSH REJISSYORNING YANGI TALQINDAGI SPEKTAKLI." Oriental Art and Culture 5.6 (2024): 656-658.
8. Darushova, D. (2024). SAHNADA – QUSHLARNI KUTGAN BOLALAR. Talqin Va Tadqiqotlar. izvlecheno ot https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/2469
9. Tilepov, Quatbay Nukusbayevich. "HUJJATLI FILMLARIDA REJISSYORLIK MAHORAT." Educational Research in Universal Sciences 2.1 SPECIAL (2023): 454-459.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

10. Nukusbayevich, Tilepov Quatbay. "MAIN FACTORS OF THE HISTORY AND DEVELOPMENT OF" KARAKALPAKFILM" FILM STUDIO." World Bulletin of Social Sciences 27 (2023): 169-171.
11. Tilepov, Quatbay Nukusbayevich. "KINO—TARBIYA VOSITASI." Innovative Development in Educational Activities 2.5 (2023): 314-317.
12. Nukusbayevich, Tilepov Quatbay. "OVOZ YOZISH TEXNOLOGIYASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI, OVOZ REJISSYORI KASBINING SHAKLLANISHI (ROSSIYA OVOZ REJISSYORLIGI MISOLIDA)." Oriental Art and Culture 5.6 (2024): 876-880.
13. NUKUSBAYEVICH, TILEPOV QUATBAY. "O 'ZBEKISTONDA MAQOM SAN'ATINING SHAKLLANISHI." (2024): 1-5.
14. Tilepov, Quatbay Nukusbayevich. "QORAQALPOG 'ISTONDA MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI." Oriental Art and Culture 4.6 (2023): 680-683.
15. TILEPOV, Quatbay. "YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA ANIMATSION FILMLARNING AHAMIYATI." Journal of Culture and Art 1.2 (2023): 114-118.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Ismaylov Ajiniyaz Yesbergenovich**, o'qituvchi, [**Исмаилов Ажинияз Есбергенович,** преподаватель], [**Ismailov Ajiniyaz Yesbergenovich**, Lecturer]; manzil:Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Qoraqalpog'iston ko'chasi; [адрес: Республика Каракалпакстан, город Нукус, улица Каракалпакстан], [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, Karakalpakstan Street] esxil1988@gmail.com .

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

YAXSHI DRAMATURGIYA VA REJISSYOR YECHIMINING UYG‘UNLIGI

© D.K. Darushova[1]✉

[1]O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali, Nukus, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida sahnalashtirilgan A. Ismaylovning “Tebranmas yuraklar” spektakli haqida so‘z bo‘ladi.

MAQSAD: Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – dramaturgiya va rejissyorlik yechimlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish, sahna va ekran san’atida mazmun va ifoda uslublarining uyg‘unligini ta’minlash yo‘llarini o‘rganish hamda muvaffaqiyatli san’at asarlari misolida bu jihatlarning ahamiyatini yoritishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Tahliliy yondashuv – klassik va zamonaviy dramaturgik asarlar hamda ularning sahnalashtirish jarayoni tahlil qilindi.
- Taqqoslash usuli – turli davr va madaniy muhitlarda yaratilgan spektakl va filmlarning rejissyorlik yechimlari solishtirildi.
- Estetik tahlil – dramaturgiya va rejissura uyg‘unligining badiiy-estetik ahamiyati o‘rganildi.
- Amaliy kuzatish – sahnalashtirish jarayonida dramaturgiya va rejissyorlik qarorlarining tomoshabinlarga ta’sirini tahlil qilish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalariga ko‘ra, yaxshi dramaturgiya va rejissyorlik yechimining uyg‘unligi quyidagi jihatlar orqali namoyon bo‘lishi aniqlandi:

- Mazmun va ifoda uslublarining bir-birini to‘ldirishi – kuchli dramaturgiya yaxshi rejissyorlik yechimi bilan uyg‘unlashganda, asarning ta’sir kuchi ortadi.
- Obrazlar va syujetning jonli ifodasi – sahna va kino san’atida qahramonlarning xarakteri, harakati va ruhiy kechinmalari dramaturgiya hamda rejissura orqali aniq ifodalanganda, tomoshabinlar bilan bog‘lanish kuchayadi.
- Janr va stil uyg‘unligi – har bir janr o‘ziga xos dramaturgik va rejissyorlik usullarini talab qiladi, bu esa spektakl yoki filmning samaradorligini oshiradi.
- Texnik vositalarning o‘rni – yoritish, dekoratsiya, musiqa va montaj kabi omillar dramaturgik maqsadlarga mos ravishda qo‘llanilganda, asarning badiiy-estetik qiymati ortadi.

XULOSA: yaxshi dramaturgiya va rejissyorlik yechimining uyg‘unligi sahna va kino san’atining muvaffaqiyatli bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Kuchli ssenariy va aniq

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

rejissyorlik yondashuvi san'at asarining chuqur ma'no va ta'sir kuchiga ega bo'lishini ta'minlaydi. Kelajakda dramaturglar va rejissyorlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalar va ijodiy tajribalar asosida yangicha yechimlar ishlab chiqish zarur.

Kalit so'zlar: teatr, dramaturg, aktyor, rejissyor, spektakl, ijodkor, repertuar.

Iqtibos uchun: Darushova D.K. Yaxshi dramaturgiya va rejissyor yechimining uyg'unligi. // Inter education & global study. 2025. №3 B.628–635.

ГАРМОНИЯ ХОРОШЕЙ ДРАМАТУРГИИ И РЕЖИССЕРСКОГО РЕШЕНИЯ

© Д. К. Дарушова[1]✉
[1]Узбекский государственный институт искусств и культуры, Нукусский филиал, Нукус, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматривается спектакль «Тебранмас юраклар» («Непоколебимые сердца») А. Исмаилова, поставленный в Каракалпакском государственном академическом музыкальном театре имени Бердаха.

ЦЕЛЬ: основная цель данной статьи – анализ взаимосвязи между драматургией и режиссерскими решениями, исследование способов обеспечения гармонии содержания и выразительных средств в сценическом и экранном искусстве, а также освещение значимости этих аспектов на примере успешных художественных произведений

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования были использованы следующие методы:

- Аналитический подход – анализ классических и современных драматургических произведений, а также процесса их постановки.
- Сравнительный метод – сопоставление режиссерских решений в спектаклях и фильмах, созданных в разные эпохи и в различных культурных средах.
- Эстетический анализ – изучение художественно-эстетической значимости гармонии между драматургией и режиссурой.
- Практическое наблюдение – анализ влияния драматургических и режиссерских решений на восприятие зрителей во время постановки.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что гармония хорошей драматургии и режиссерского решения проявляется в следующих аспектах:

- Сочетание содержания и выразительных средств – сильная драматургия в сочетании с удачными режиссерскими решениями усиливает воздействие произведения на зрителя.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

• Живое воплощение образов и сюжета – когда характеры, движения и эмоциональные переживания героев четко выражены через драматургию и режиссуру, усиливается связь со зрителями.

• Гармония жанра и стиля – каждый жанр требует специфических драматургических и режиссерских приемов, что повышает эффективность постановки или фильма.

• Роль технических средств – свет, декорации, музыка и монтаж, гармонично соответствующие драматургическим целям, усиливают художественно-эстетическую ценность произведения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: гармония хорошей драматургии и режиссерских решений играет ключевую роль в успешности сценического и экранного искусства. Сильный сценарий и продуманный режиссерский подход обеспечивают глубокий смысл и мощное эмоциональное воздействие произведения. В будущем необходимо укреплять сотрудничество между драматургами и режиссерами, разрабатывать новые решения на основе современных технологий и творческого опыта.

Ключевые слова: театр, драматург, актер, режиссер, спектакль, творец, репертуар.

Для цитирования: Дарушова Д. К. Гармония хорошей драматургии и режиссерского решения. // Inter education & global study. 2025. №3. С. 628–635.

THE HARMONY OF GOOD DRAMATURGY AND DIRECTORIAL DECISIONS

© Dariha K. Darushova [1]✉
[1]Uzbekistan State Institute of Arts and Culture, Nukus Branch, Nukus, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article discusses the play "Tebranmas Yuraklar" ("Unshakable Hearts") by A. Ismailov, staged at the Berdakh Karakalpak State Academic Musical Theatre.

AIM: the main goal of this article is to analyze the relationship between dramaturgy and directorial decisions, explore ways to ensure the harmony of content and expressive means in stage and screen art, and highlight the significance of these aspects using examples of successful artistic works.

MATERIALS AND METHODS: the study employed the following methods:

• Analytical approach – analysis of classical and modern dramatic works and their staging process.

• Comparative method – comparison of directorial decisions in plays and films created in different historical periods and cultural contexts.

• Aesthetic analysis – study of the artistic and aesthetic significance of the harmony between dramaturgy and directing.

• Practical observation – analysis of the impact of dramaturgical and directorial decisions on audience perception during the staging process.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

DISCUSSION AND RESULTS: the research results revealed that the harmony of good dramaturgy and directorial solutions is manifested in the following aspects:

- Complementarity of content and expressive means – strong dramaturgy combined with well-thought-out directorial solutions enhances the impact of the work.
- Lifelike portrayal of characters and plot – when the characters' personalities, movements, and emotions are precisely expressed through dramaturgy and directing, the connection with the audience is strengthened.
- Genre and style consistency – each genre requires specific dramaturgical and directorial techniques, increasing the effectiveness of a performance or film.
- Role of technical elements – lighting, decorations, music, and editing, when harmoniously aligned with dramaturgical goals, enhance the artistic and aesthetic value of the work.

CONCLUSION: the harmony between good dramaturgy and directorial solutions plays a crucial role in the success of stage and screen art. A strong script and a well-planned directorial approach ensure depth of meaning and a powerful emotional impact. In the future, it is essential to strengthen collaboration between playwrights and directors and develop innovative solutions based on modern technologies and creative experience.

Key words: theater, playwright, actor, director, performance, artist, repertoire.

For citation: Dariha K. Darushova. (2025) 'The harmony of good dramaturgy and directorial decisions', Inter education & global study, (3), pp. 628–635. (In Uzbek).

Bugungi kundagi qoraqalpoq teatrlarining repertuariga nazar tashlar ekanmiz, unda tomoshabinni qiziqtiradigan va teatrga chorlaydigan, o‘z navbatida tarbiyaviy ahamiyati bilan ajralib turadigan spektakllarni ko‘rmoqdamiz. Albatta, spektaklning muvaffaqiyatli chiqishida rejissyor yechimi, rassom ishi, aktyorlar mahorati va barcha ijodiy jamoaning mehnatlari bilan birgalikda dramaturgiyaning pishiq bo‘lishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi qoraqalpoq teatrlarida faoliyat yuritib turgan rejissyorlar asar tanlashga jiddiy qaramoqda. Bir paytlari teatrlarga tomoshabinlarni qaytarish biroz mushkul ishga aylangandi. O‘z hoqish-istagi bilan teatrga keladigan tomoshabinlar ham ozni tashkil qilardi. Lekin, ayni vaqtlari teatrlarda ish qizg‘in. Repertuarlar bir-birini takrorlamaydigan asarlar bilan yangilanmoqda. Yangilikga xumor tomoshabinlar ham teatrlarda qandaydir yangi spektakl premyerasi bo‘ladigan bo‘lsa, tomosha zalidan o‘rin olishga, aniqrog‘i, oldinroqdan o‘rin olishga shoshilmoqdalar. Bunga misol tariqasida o‘tgan 2024 yilning dekabr oyida premyerasi taqdim etilgan A. Ismaylovning «Tebranmas yuraklar» spektaklini aytishimiz mumkin.

Mazkur spektakl o‘zining yangicha shakli va talqini, ta’sirchanligi bilan boshqa spektakllardan ajralib turdi. Spektaklning syujeti va undagi fabula qaysi tomoshabinni bo‘lmasin qalbiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qilmasdan, ko‘nggillarini bo‘shashtirmasdan ko‘ymadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Asar muallifi Ajiniyaz Ismaylov yosh dramaturglardan. Uning sahna asarlari oldin davlat teatrlarida sahnalashtirilmagan bo‘lsa ham, oliy ta’lim muassasalarida yonida tashkillashtirilgan talabalar teatr-studiyalarida sahnalashtirilib, respublika bo‘ylab o‘tkazilgan teatr tanlovlarida oliy o‘rinlarni qo‘lga kiritib kelgani haqiqat. Muallifning «Tebranmas yuraklar» asari dastavval O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining talabalari ijrosida diplom spektakli bo‘lib sahnaga chiqqan bo‘lsa, so‘ngra Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining «Jayxun» talabalar teatr-studiyasida muvaffaqiyatli sahnalashtirildi. Teatr-studiya mazkur spektakl bilan O‘zbekiston Respublikasi miqiyosida o‘tkazilgan talabalar teatr-studiyalari tanlovining Toshkentdagi final bosqichida birinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi.

A. Ismaylovning «Tebranmas yuraklar» spektakli bu safar Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrining sahnasida jonlandi. Spektaklni teatr rejissyori Marqabay Usenov yangicha uslubda sahnalashtirdi. Taqriz davomida rejissyorning yangicha uslubi haqida to‘xtalib o‘tamiz. Sahnalashtiruvchi rassom Ramazan Abdikalikov.

Talqin etilayotgan mavzu o‘zining dolzarbligi bilan e’tiborli. Jamiyatning sog‘lom turmush tarziga keri ta’sirini ko‘rsatadigan giyohvandlik, ishkilikbozlik kabi illatlarning salbiy oqibatlari, shuningdek, yoshlarning bilib-bilmasdan hatoga yo‘l qo‘yib, natijada go‘daklarning to‘g‘ilmasidan nobut bo‘lishi yoki nogiron to‘g‘ilishlari kabi voqealik dramatik harakatlar orqali sahnada gavdalanadi.

Parda ochilishi bilan balet ijrochilari raqsga tushib, bo‘lg‘usi voqealik haqida tushuncha beradi, ya’ni biz bilmagan dunyo, ona qornidagi go‘daklarning to‘g‘ilishgacha bo‘lgan jarayoni haqida bayon qiladi. Ularning raqs harakatlaridan go‘daklarning naqadar farishtadek beg‘uborligini, har qaysisi o‘zgacha bir xarakterga, jismga ega ekanligini anglaymiz. Ularning biri boshqalaridan yaqqol ajralib turadi, fikrimizcha, u nogiron. Bu sahna spektaklning prologi edi.

Bundan keyin hayot farishtasi (aktyor Alisher Akimov) tepadan pastga (shtanget orqali) tushib keladi va tomoshabinga qarata bor haqiqatni ko‘rishga tayyyor turishini xabar qiladi. Bundan so‘ng sahnaning ikkinchi planiga tortilgan yupqa parda ortida turgan go‘daklar, ya’ni ona qornidagi bolalar birin ketin sahna oldiga chiqadi va o‘zlarini tanishtirishni boshlaydi. Bir payt yana bir go‘dak yura olmay, emaklab sahnaga chiqadi. U hattoki gapira olmaydi. Boshqa sog‘ bolalar bundan qo‘rqib, Hayot farishtasidan unga nima bo‘lganini so‘raydi. Hayot farishtasi bu go‘dakning endi nogiron bo‘lib tug‘ilishini, unga otasining yuqorida tilga olingan illatlardan totib ko‘rgani sabab bo‘lganini ma’lum qiladi. Gapira olmay, harakat qila olmayotgan qizni ko‘rgan bolalar unga "qanday yordam bersak bo‘ladi," deya joni achiydi. Shu payt ajal farishtasi kelib, nogiron qizni u dunyoga olib ketadi. Tug‘ilmasidan, nobud bo‘lgan chaqaloqni olib qolishga bolalar qancha harakat qilsa ham qo‘llaridan hech narsa kelmaydi.

Shundan so‘ng sahnaga yosh qiz kirib keladi. U doktorga «Menga nima bo‘ldi» degandek boqib turganida, doktor unga homilador ekanligini aytib, uni quvontirmoqchi bo‘ladi. Ammo qiz bu xabardan cho‘chib, tashvishga tushadi. Sababi qiz hali yosh bo‘lgani

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

uchun va sevgani uchun o‘zgaga ishongan va ixtiyorini topshirgan. Natijada qornida jajji vujud dunyoga kelgan. Qiz xabarni eshitib tutaqib, o‘zini har yerga ura boshlaydi. Uning bu harakatlarini ko‘rib turgan Daulet, ya’ni uning qornidagi bolasi onasining bu ishlariga tushunmay, hayron bo‘ladi. Bo‘lajak ona esa shifokordan homila boshiga balo bo‘lishini aytib, uni olib tashlashni so‘raydi. Shifokorning qat’iy ogohlantirishlariga qaramay ayol chaqaloqning urib turgan yuragini to‘xtatadi.

Bu sahna tomoshabinni qattiq ta’sirlantirish bilan birga chuqur o‘yga toldirdi. Dauletning o‘z onasi va do‘stlarini ko‘zi qiymasdan, u dunyolik bo‘lib ketish sahnasi juda og‘ir kechdi. Bir dunyo orzular og‘ushida tug‘ilajak bolaning onasi tomonidan nobud etilishi tomoshabinlarning yuraklarini qaqshatib qo‘ydi. Dastlab nogiron go‘dak sahnani tark etgan bo‘lsa, endi yana bir norasida bu dunyoni ko‘rmasidan u dunyoga ravona bo‘ldi. Uning bir dunyo orzulari, istaklari bor edi. Endi orzular faqat sarobga do‘st tutinishadi.

Bugungi kunda qulog‘imizga tez-tez chalinib turadigan yoki guvohi bo‘lib turgan voqealardan biri avtohalokatlar va ularning og‘ir oqibatlari ham spektaklda aks ettirilgan. Bolalarning biri-Botir (aktyor Navro‘zbek Yesimbetov) to‘satdan turgan joyidan yiqilib tushadi. Jim qolgan bolani ko‘rib qo‘rqib ketgan Oqilbek (aktyor Doston Baymurzayev) Hayot farishtasidan nima bo‘lganini tushuntirishni so‘raydi. Botirning onasi hozirgina yo‘l halokatiga uchragani ma’lum bo‘ladi. Sahnada jarohatlangan onani tez yordam xodimlari shoshilinch tarzda shifoxonaga yetkazadi. Shifokorlar barcha choralarni ko‘rsa ham Botirning onasini saqlab qola olmaydi. Tez yordam binosi oldida umidvor turgan otaning qo‘liga hamshira yangi tug‘ilgan chaqaloqni, ya’ni Botirni tutqazadi. Shunday qilib, yo‘l halokati yangi tug‘ilgan chaqaloqning bir umr onalik mehrini his qilmay o‘tishiga sabab bo‘ladi.

Ikki farzand tug‘ilmay nobud bo‘ldi, bittasi tug‘ilib, onasiz qoldi. Hayot farishtasining yonida qolgan yolg‘iz Aqlbekning taqdiri endi nima kechishi tomoshabinga juda qiziq bo‘ldi. Hayot farishtasi Aqlbekka eng yaxshi tilaklarini tilab, g‘oyib bo‘ladi. Spektakl so‘ngida sahna tepasidan sekin-astalik bilan beshik tushirilib, u asta tebratiladi va ona allasi eshitiladi. Bu sahna orqali Aqlbekning sog‘-salomat dunyoga kelganini anglaymiz.

Realizm va fantastika qorishgan bu dramaning Davlat teatrida ilk sahnalashtirilishi muvaffaqiyatli chiqdi. Bu spektaklni avvalgilariga nisbatan o‘rgansak, unda rejissyorlik topilmalari borligini ko‘rishimiz mumkin. Hayot farishtasining yuqoridan tushib kelishi va so‘ng yana yuqoriga uchib ketishi, halok bo‘lgan go‘daklarning ham ko‘kka ko‘tarilishi ramziy tarzda berilgan. Prologdagi balet artistlarining xoreografik ko‘rinishlari keyingi bo‘ladigan voqelikka izoh berib o‘tdi.

Spektakl dekoratsiyada esa minimalizmni ko‘rishimiz mumkin. Sahna o‘rtasiga tortilgan yupqa parda u dunyo bilan bu dunyoni ajratib turgandek, nazarimizda. Shuningdek, spektaklda soya teatridan ham unumli foydalanilgan. Yangicha uslub va zamonaviy shaklda sahnalashtirilgan spektaklga sahna liboslari ham mos tushgan. Sahna liboslarida ramziy va zamonaviylik elementlari mujassam. Farishta oq kostyum-shimda, oq galstuk ham bor. Lekin uning kostyumi ortidagi yopinchig‘i farishtaning qanotlarini eslatadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Endi to‘g‘ilajak go‘daklarning oyoq yalang yurishidan odamzot bu dunyoga hech narsasiz kelib, hech narsasiz ketishini anglatgandek guyo.

Tomoshabin teatrga tashrif buyurar ekan, tomoshadan ma’naviy ozuqa olib, ruhiy yengillik topishi kerakligi haqida ko‘plab teatr fidoyilari aytib o‘tgan. «Tebranmas yuraklar» spektakli ham hayotimizda uchraydigan bir necha muammoli mavzularni qamrab olishi bilan birga tomoshabinlarni, ayniqsa yoshlarni hushyorlikka chaqiradi. Shuningdek, tomoshabinga ONA degan ulug‘ insonning qadriga yetishga, uning farzandi uchun hayot farishtasi ekanini anglashga yordam beradi. Berdaq nomidagi qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri jamoasi bu ulug‘ ma’suliyatni yelkaga olib, uni mardona amalga oshirdi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, rejissyor yechimi va ijodiy jamoaning yangicha burilishlari orqali spektaklni badiiy yaxlitlikga erishgan spektakllar sirasiga kiritish mumkin. So‘zimiz so‘nggida shuni katta ishonch bilan aytishimiz mumkin, mazkur spektakl har qanday mustahkam, tosh yurakli odamlarning ham yurak tubigacha kirib borib, u yerni chimchilab o‘tishi, zirqiratishi turgan gap. YA’ni spektaklda katarsis yuz berishi tayin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Ansatbayev N. Teatr va aktyor, darslik. 2020.141-154 b.
2. Arastu. Poetika. – T: Yangi asr avlodi, 2012. 45-b.
3. Asarning asl nusxasi.
4. Ismailov, Ajiniyaz. "QORAKO‘Z-QOZOQ JULYETTASI." Oriental Art and Culture 5.3 (2024): 617-623.
5. Ismaylov, Ajiniyaz. "«QIROL LIR» NING YANGI TALQINI." Journal of Culture and Art 1.3 (2023): 69-74.
6. Ismaylov, Ajiniyaz Yesbergenovich. "«USTOZ TAQDIRI» SPEKTAKLIDA ZAMONDOSH OBRAZLAR TALQINI." GOLDEN BRAIN 1.13 (2023): 161-167.
7. Darushova, Darixa Kadirniyazovna. "YOSH REJISSYORNING YANGI TALQINDAGI SPEKTAKLI." Oriental Art and Culture 5.6 (2024): 656-658.
8. Darushova, D. (2024). SAHNADA – QUSHLARNI KUTGAN BOLALAR. Talqin Va Tadqiqotlar. izvlecheno ot https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/2469
9. Tilepov, Quatbay Nukusbayevich. "HUJJATLI FILMLARIDA REJISSYORLIK MAHORAT." Educational Research in Universal Sciences 2.1 SPECIAL (2023): 454-459.
10. Nukusbayevich, Tilepov Quatbay. "MAIN FACTORS OF THE HISTORY AND DEVELOPMENT OF" KARAKALPAKFILM" FILM STUDIO." World Bulletin of Social Sciences 27 (2023): 169-171.
11. Tilepov, Quatbay Nukusbayevich. "KINO—TARBIYA VOSITASI." Innovative Development in Educational Activities 2.5 (2023): 314-317.
12. Nukusbayevich, Tilepov Quatbay. "OVOZ YOZISH TEXNOLOGIYASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI, OVOZ REJISSYORI KASBINING SHAKLLANISHI

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

(ROSSIYA OVOZ REJISSYORLIGI MISOLIDA)." Oriental Art and Culture 5.6 (2024): 876-880.
13. NUKUSBAYEVICH, TILEPOV QUATBAY. "O ‘ZBEKISTONDA MAQOM SAN’ATINING SHAKLLANISHI." (2024): 1-5.
14. Tilepov, Quatbay Nukusbayevich. "QORAQALPOG ‘ISTONDA MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI." Oriental Art and Culture 4.6 (2023): 680-683.
15. TILEPOV, Quatbay. "YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA ANIMATSION FILMLARNING AHAMIYATI." Journal of Culture and Art 1.2 (2023): 114-118.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Darushova Darixa Kadirniyazovna**, o’qituvchi, [**Дарушова Дариха Кадирниязовна** Преподаватель], [**Dariha K. Darushova**, Lecturer]; manzil:Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Qoraqalpog'iston ko'chasi; [адрес: Республика Каракалпакстан, город Нукус, улица Каракалпакстан], [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, Karakalpakstan Street] darushovadarixa@gmail.com
93.487-43-50

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

QORAQALPOQ KINO SAN'ATIDA MILLIYLIK VA ZAMONAVIYLIKNING TASVIRLANISHI

© A.N. Jaqsimuratova[1]✉

[1]O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali, Nukus, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada kino san'atning yaralish jarayonlari, ular orasida qoraqalpoq kino san'atning paydo bo'lishi, rivojlanish davrlari, yaratilgan filmlar haqida ma'lumotlar berilgan. Filmlarda millliylik va zamonaviylikning ahamiyati, uning tomoshabinlarga ta'sir etish dinamikasi haqida to'xtalib o'tiladi.

MAQSAD: ushbu maqolaning asosiy maqsadi – Qoraqalpoq kino san'atida milliylik va zamonaviylik unsurlarining tasvirlanish usullarini o'rganish, ularning kino asarlaridagi ifodalanish xususiyatlarini tahlil qilish hamda milliy kino an'analarining zamonaviy oqimlar bilan uyg'unlashuvini yoritishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Tahliliy yondashuv – Qoraqalpoq kino san'atining tarixiy va zamonaviy namunalari asosida milliy va zamonaviy elementlarning tahlili.
- Taqqoslash usuli – turli davr va yo'nalishlarda yaratilgan filmlarda milliy va zamonaviy tasvir vositalarining qo'llanishini solishtirish.
- Estetik tahlil – kino san'atidagi badiiy ifoda vositalari orqali milliylik va zamonaviylik uyg'unligini aniqlash.
- Sotsiologik yondashuv – tomoshabinlarning milliylik va zamonaviylik elementlariga bo'lgan munosabatini o'rganish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalariga ko'ra, Qoraqalpoq kino san'atida milliylik va zamonaviylik quyidagi jihatlar orqali aks etishi aniqlangan:

- An'anaviy qadriyatlarning aks etishi – milliy urf-odatlar, an'analar, xalq og'zaki ijodi va tarixiy voqealar kino asarlarida keng qo'llaniladi.
- Zamonaviy kino texnologiyalari va uslublari – Qoraqalpoq filmlarida raqamli texnologiyalar, innovatsion montaj texnikalari va global kino san'ati tendensiyalaridan foydalanish ko'zga tashlanadi.
- Mavzularning yangiligi va dolzarbligi – bugungi jamiyatning ijtimoiy muammolari, yoshlar dunyoqarashi va zamonaviy hayot tarzi filmlarda aks ettirilmoqda.
- Janrlarning xilma-xilligi – Qoraqalpoq kinosida tarixiy, dramatik, komedik va hujjatli filmlar orqali milliylik va zamonaviylik uyg'unligining ko'rsatilishi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

• Qahramonlarning milliy va zamonaviy obrazlari – milliy qadriyatlarni saqlab qolgan, lekin zamonaviy tafakkur bilan yashaydigan personajlar obrazlarining shakllanishi.

XULOSA: Qoraqalpoq kino san'ati milliylik va zamonaviylik uyg'unligini ifodalovchi muhim madaniy hodisa bo'lib, unda tarixiy an'analar va zamonaviy kino tendensiyalari o'zaro bog'liq holda rivojlanmoqda. Milliy qadriyatlarni zamonaviy kino uslublari bilan uyg'unlashtirish orqali Qoraqalpoq kino san'ati nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro maydonda ham e'tiborga loyiq darajaga yetishi mumkin. Kelajakda milliy kino maktabining rivojlanishi, yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar asosida milliy va zamonaviy elementlarning yanada chuqurroq o'rganilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: kino, san'at, film, kinematografiya, musiqa, prototip, kinojurnal.

Iqtibos uchun: Jaqsimuratova A.N. Qoraqalpoq kino san'atida milliylik va zamonaviylikning tasvirlanishi. // Inter education & global study. 2025. №3 B.636–642.

ОТРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОСТИ И СОВРЕМЕННОСТИ В КАРАКАЛПАКСКОМ КИНОИСКУССТВЕ

© А.Н. Джаксимуратова[1]✉
[1]Узбекский государственный институт искусств и культуры, Нукусский филиал, Нукус, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматриваются процессы зарождения киноискусства, появление и этапы развития каракалпакского кинематографа, а также дается информация о созданных фильмах. Особое внимание уделяется значению национального и современного аспектов в кинематографе и их влиянию на зрителей.

ЦЕЛЬ: основная цель данной статьи – изучение методов отражения национальных и современных элементов в каракалпакском киноискусстве, анализ особенностей их выражения в кинематографических произведениях, а также рассмотрение гармоничного сочетания национальных традиций и современных тенденций в кинематографе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования использовались следующие методы:

• Аналитический подход – анализ исторических и современных образцов каракалпакского киноискусства с точки зрения национальных и современных элементов.

• Метод сравнения – сопоставление способов выражения национальных и современных черт в фильмах различных эпох и направлений.

• Эстетический анализ – выявление гармонии национальности и современности через художественные средства кинематографа.

• Социологический подход – изучение отношения зрителей к национальным и современным элементам в кино.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что в каракалпакском киноискусстве национальность и современность проявляются в следующих аспектах:

- Отражение традиционных ценностей – использование национальных обычаев, традиций, фольклора и исторических событий в кинопроизведениях.
- Современные технологии и методы киноискусства – применение цифровых технологий, инновационных монтажных техник и мировых кинематографических тенденций.
- Актуальность тематики – освещение социальных проблем современного общества, мировоззрения молодежи и реалий современной жизни.
- Жанровое разнообразие – выражение гармонии национальности и современности через исторические, драматические, комедийные и документальные фильмы.
- Создание национальных и современных образов персонажей – формирование героев, которые сохраняют национальные ценности, но при этом живут в современном мире.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Каракалпакское киноискусство является важным культурным явлением, отражающим единство национальности и современности, где исторические традиции и современные тенденции кинематографа взаимосвязаны. Гармоничное сочетание национальных ценностей с современными кинематографическими методами позволяет каракалпакскому кино выйти не только на региональный, но и на международный уровень. В будущем важно продолжать изучение национального кино, развивать кинематографическую школу и внедрять новые технологии и инновационные подходы для углубленного изучения национальных и современных элементов.

Ключевые слова: кино, искусство, фильм, кинематограф, музыка, прототип, киножурнал.

Для цитирования: Джаксимуратова А.Н. Отражение национальности и современности в Каракалпакском киноискусстве. // Inter education & global study. 2025. №3. С. 636–642.

DEPICTION OF NATIONAL IDENTITY AND MODERNITY IN KARAKALPAK CINEMA

© Anar N. Jaqsimuratova[1]✉
[1]Uzbekistan State Institute of Arts and Culture, Nukus Branch, Nukus, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article examines the origins of cinema, the emergence and development of Karakalpak cinematography, and provides information about the films produced. It highlights the importance of national and modern elements in films and their impact on audiences.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

AIM: the main objective of this article is to study the depiction of national and modern elements in Karakalpak cinema, analyze their representation in cinematic works, and explore the integration of national traditions with contemporary trends in cinematography.

MATERIALS AND METHODS: the following research methods were used:

- Analytical approach – analyzing historical and modern examples of Karakalpak cinema to examine national and contemporary elements.
- Comparative method – comparing the depiction of national and modern elements in films from different periods and genres.
- Aesthetic analysis – identifying the harmony between national identity and modernity through cinematic artistic expression.
- Sociological approach – examining audience perceptions of national and modern elements in cinema.

DISCUSSION AND RESULTS: the study revealed that national identity and modernity in Karakalpak cinema are expressed in the following ways:

- Representation of traditional values – showcasing national customs, traditions, folklore, and historical events in films.
- Modern cinematic technologies and techniques – integrating digital technology, innovative editing techniques, and global cinematographic trends.
- Relevance of themes – addressing contemporary social issues, youth perspectives, and modern lifestyles.
- Diversity of genres – reflecting the fusion of national identity and modernity through historical, dramatic, comedic, and documentary films.
- Character development in a national and modern context – portraying characters who preserve national values while adapting to contemporary realities.

CONCLUSION: Karakalpak cinema is an essential cultural phenomenon that reflects the unity of national identity and modernity, where historical traditions and contemporary cinematic trends are intertwined. By harmonizing national values with modern filmmaking techniques, Karakalpak cinema has the potential to gain recognition not only on a regional level but also internationally. In the future, it is crucial to further study national cinema, develop a strong cinematic school, and incorporate new technologies and innovative approaches for a deeper understanding of national and modern elements.

Key words: cinema, art, film, cinematography, music, prototype, film journal.

For citation: Anar N. Jaqsimuratova. (2025) 'Depiction of national identity and modernity in Karakalpak cinema', Inter education & global study, (3), pp. 636–642. (In Uzbek).

Kino insonning dunyo qarashini shakllantiruvchi, estetik tuyg'uni tarbiyalovchi qurol sifatida xalqning hayotiga singib ketgan. Kino odamlarni, asosan yosh avlodni insoniylik, vatanga muhabbat, kengfe'llik, vijdonlilik, kattalarga hurmat, mehnatsevarlik, kelajakka umid va ishonch ruxida tarbiyalashda katta rol o'ynamoqda.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Kino san’atning barcha turini o‘zida jamlagan zavqli hosildir. Kinoda adabiyot, musiqa, raqs, rassomchilik, dizayn va boshqa san’at turlari jamlanib, barchasi bir umumiy filmning yaralishiga imkon paydo etadi. Teatr kabi kino san’atida ham aktyorlardan mahorat, ekran bilan ishlay olishi, rejisserning fantaziyasi va o‘tkir zehniga bog‘liq bo‘ladi.

Kino san’ati o‘zining zamonaviyligi va insonlarga o‘zgacha ta’sir etish dinamikasiga ega soha sifatida tan olinadi. Sintetik janr hisoblanib, film insonlarga psixologik va ma’naviy tomondan ham ta’sir etadi.

1895-yilda franciyalik aka-ukalar Lui va Ogyust Lyumerlar kino san’atiga asos soldi. Ular rasmni harakatga keltiradigan apparat o‘ylab topib, 1895 yilning 28 dekabrida Parijdagi «Grand kafe» imoratining ertulasida o‘zlarining o‘ylab topgan yangiliklarini barchaga ko‘rsatdi. Ana shu yangilik keyinchalik cinematograf yoki kinematografiya deya nom oldi. Dastlabki kino insonlarda o‘zgacha xissiyot va qiziquvchanlik paydo etdi. [1. 12-bet]

O‘zbekistonda birinchi film 1897-yil “Eski juva” maydonida ko‘rsatilgan. 1908-yildan Toshkent, Samarqand, Qo'qon va boshqa shaharlarda chet elning filmlari namoyish etilgan.

Endi Qoraqalpoq milliy kino san’atining rivojlanish bosqichlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Sovetining kinomatografiya bo‘yicha davlat komitetining (Goskino UzSSR) 1970 yil 19 fevralda №45 buyruǵi asosida Nukus shahrida O‘zbekiston ilmiy-ommabop va hujjatli filmlar kinostudiyasining Qoraqalpog‘iston filialı tashkil etildi. 1970-yilning aprel o‘z faoliyatini boshladi. Dastlabki yillarda kinostudiyada yiliga 4 (to‘rt) filmni qoraqalpoq tiliga tarjima qilish, “Qoraqalpog‘iston” kinojurnalining 4 soni va 2 hujjatli filmni suratga olish rejaga kiritildi. Kinostudiyaning dastlabki direktori taniqli qoraqalpoq yozuvchisi Jolmirza Aymurzaev bo‘ldi. Ilk rejisseri Satbay Allanazarov, kinooperatori Nag'met Dawqaraevlar faoliyat olib bordi. Bundan keyingi yillari kinostudiyaga Genjemurat Izimbetov, Kamal Mambetov, Nag'met Dawqaraev, Orazbay Abdiraxmanov, Toreniyaz Qalimbetov, Qonisbay Djandullaev, Muratbay Nızanov, Begdulla Sultanov, Baxtiyar Madiyarovlar boshichilik qildi. 2024-yildan esa studiya direktori sifatida Ikrom Abdukalikov tayinlandi.

O‘zbekiston Respublikası Vazirlar Mahkamasining 1989 yil 16 noyabridagi №10/72-152 qaroriga asoslanib 1990 yil 20 aprelda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining № 96/4 qarori asosida «Qoraqalpoqfilm» kinostudiyasi bo‘lib qayta tashkillashtirildi. “Qoraqalpoqfilm” kinostudiyasi O‘zbekiston Respublikası Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 17 martdagı 126-sonli “O‘zbekkino” Milliy agentligi faoliyatini takomillashtirish haqida”gi qaroriga asos“Qoraqalpoqfilm” kinostudiyasi davlat korxonasi sifatida qayta tuzildi. Hozirgi kunda “Qoraqalpoqfilm” kinostudiyasi davlat unitar korxonasi sifatida ishlab kelmoqda. [2. 8-bet]

Har bir soha o‘z tarixiga ega. Jumladan qoraqalpoq kinostudiyasining tashkil etilishining ham qisqacha mazmuni yuqoridagi ma’lumotlardan iborat.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Bugungi kunda qoraqalpoq kino olamida qator zamonaviy va milliylikni aks etgan turli janr va turdagi filmlar ekran yuzini ko‘rdi. Ularning tomoshabopligi, ta’sir etish dinamikasi, syujet fabulasi va janri xilma xilligi bilan bir bridan farq qiladi. Ayniqsa turmush tashvishlari va insonlar orasidagi munosabatlarni badiiy to‘qima asosida keng tasvirlab, katta ekran mahsulotiga aylantiryotgan kino ustalarining mehnati asosiy ahamiyatga ega. Shuningdek, haqiqiy real hayotda yashab o‘zining inobatli ishlari bilan xalqqa o‘rnak bo‘lgan qahramonlarni ekran orqali jonlantirish ya’ni prototip asosida yaratilgan to‘liq metrajli badiiy filmalr ham yuzaga chiqdi. Xususan, Eshjan baxshi haqidagi tarixiy film „Umrning uch fasli“, Mo‘ynoqli tikuvchi ayol Manzura Erniyazovaning hayotidan olingan „Tengiz“ filmlari so‘zimizga isbot bo‘la oladi. Qoraqalpoq kinoijodkorlari tomonidan tomonidan yaratilgan milliy badiiy filmlarning tematikasida quyidagi elementlar ko‘zga tashlanadi: xalqchil va mard insonlar tasviri; milliy urf-odat va dasturlarning gavdalanishi; xalqimizga xos fe‘l-atvor va harakatlar; komediya janrining bosimligi; oddiy turmush tarzi, bo‘rttirilmagan obrazlar.

„Qoraqalpoqfilm“ tomonidan yaratilgan badiiy filmlar katalogiga nazar tashlasak, 1958-yilda „Orol baliqchilari“, 1990-yilda „Qalpoqcha“, 1992-yilda „Qaytısh“ qisqa metrajlı filmi, 2002-yilda „Ona“ va „Tanka“ filmlari, 2009-yilda „O‘g‘ri“, 2010-yilda „Kurort“, 2011-yili „Qo‘shnilar“, „Umrning uch fasli“, 2012-yili „Qaysar“, „Mehrigiyo“, 2014-yili „Qo‘rg‘on“, 2016-yili „Ustyurtga yo‘l“, 2020-yili „Tengiz“, 2021-yili „Aydınlar“ badiiy filmlari suratga olindi. [3. 16-bet]

Bundan tashqari xususiy studiyalar tomonidan ham samarali ishlar olib borildi. Tanqid nuqtai nazaridan olib qaraganda, xususiy filmlar g‘oyasi asosini engil kulgu va hayotda qaysar fe‘l atvorga ega obrazlar talqinini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, badiiy so‘z stiliing ham etishmasligidan dalolat beradi. Lekin, qaysi film bo‘lsa ham milliy dasturlar va xulq-atvor filmlarda tasvirini topadi. San’at tili bilan aytganda, katarsis ya‘ni, tomoshabinga ta’sir etish orqali uning qalbini poklash, kabi flmlarni ekranga olib chiqish zamon talabiga aylanmoqda. Millliylik va zamonaviylik aks etgan filmlar qatoriga bolalar uchun yaratilgan filmlarni ham kiritsak bo‘ladi. Kinodramaturg M.Nızanov qalamiga mansub „O‘qilmagan xat“ badiiy filmi ishlandi. Shuningdek, „Saxiy bola“, „Qaysar“, „Rayxon“ kabi filmlar ekranga chiqdi.

Kino san’ati katta va kichik ekran orqali tez ta’sir etuvchi va tez etib boruchi san’atdir. Shuning uchun ham bolalarga oid milliylik va zamonaviylik ruxidagi filmlar sonining ortishi milliylikni targ‘ib qilishning asosiy yo‘li sanaladi. Kino san’atining ilmiy-ommabop, hujjatli va badiiy filmlariga yana animaciyalı (multiplikacion) filmlar qatorini kengaytirish orqali tarixiy va zamonaviy qahramonlarni yaratish, milliylik g‘oyalari bilan sug‘orilgan kinomahsulotlarni chiqarish kelajak avlodlar uchun qoraqalpoq kinosining istiqbolini, ma’naviy merosini etkazib bergan bo‘la oladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. “Kino tiykarları” M.Aliev, Tashkent – 2023, “Fan ziyosi”
2. “Kino qalay jaratıldı?” M.Nızanov, “Bilim” -2014

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

3. “Kino san`ati asoslari”. Abulqosimova X. – Toshkent, 2010.
4. “Kino: mahorat pog‘onalari”, Bahodir Axmedov Toshkent-2010.
5. Ансатбаев Н. Театр ва актёр, дарслик. 2020.141-154 б.
6. Арасту. Поэтика. – Т: Янги аср авлоди, 2012. 45-б.
7. Исмаилов, Ажинияз. "ҚОРАКЎЗ-ҚОЗОҚ ЖУЛЬЕТТАСИ." Oriental Art and Culture 5.3 (2024): 617-623.
8. Исмайлов, Ажинияз. "«ҚИРОЛ ЛИР» НИНГ ЯНГИ ТАЛҚИНИ." Journal of Culture and Art 1.3 (2023): 69-74.
9. Исмайлов, Ажинияз Есбергенович. "«УСТОЗ ТАҚДИРИ» СПЕКТАКЛИДА ЗАМОНДОШ ОБРАЗЛАР ТАЛҚИНИ." GOLDEN BRAIN 1.13 (2023): 161-167.
10. Darushova, Darixa Kadirniyazovna. "YOSH REJISSYORNING YANGI TALQINDAGI SPEKTAKLI." Oriental Art and Culture 5.6 (2024): 656-658.
11. Дарушова, Д. (2024). САҲНАДА – ҚУШЛАРНИ КУТГАН БОЛАЛАР. Talqin Va Tadqiqotlar. извлечено от https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/2469
12. Тилепов, Қуатбай Нукусбаевич. "ҲУЖЖАТЛИ ФИЛЬМЛАРИДА РЕЖИССЁРЛИК МАҲОРАТ." Educational Research in Universal Sciences 2.1 SPECIAL (2023).
13. Nukusbayevich, Tilepov Quatbay. "MAIN FACTORS OF THE HISTORY AND DEVELOPMENT OF" KARAKALPAKFILM" FILM STUDIO." World Bulletin of Social Sciences 27 (2023): 169-171.
14. Тилепов, Қуатбай Нукусбаевич. "КИНО—ТАРБИЯ ВОСИТАСИ." Innovative Development in Educational Activities 2.5 (2023): 314-317.
15. Nukusbayevich, Tilepov Quatbay. "OVOZ YOZISH TEXNOLOGIYASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI, OVOZ REJISSYORI KASBINING SHAKLLANISHI (ROSSIYA OVOZ REJISSYORLIGI MISOLIDA)." Oriental Art and Culture 5.6 (2024).
16. NUKUSBAYEVICH, TILEPOV QUATBAY. "O ‘ZBEKISTONDA MAQOM SAN’ATINING SHAKLLANISHI." (2024): 1-5.
17. Tilepov, Quatbay Nukusbayevich. "QORAQALPOG ‘ISTONDA MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI." Oriental Art and Culture 4.6 (2023): 680-683.
18. ТИЛЕПОВ, Қуатбай. "ЁШ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШДА АНИМАЦИОН ФИЛЬМЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ." Journal of Culture and Art 1.2 (2023): 114-118.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Jaqsimuratova Anar Nuratdinovna**, o’qituvchi, [**Джаксимуратова Анар Нуратдиновна,** Преподаватель], [**Anar N. Jaqsimuratova**, Lecturer]; manzil:Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri, Qoraqalpog'iston ko'chasi; [адрес: Республика Каракалпакстан, город Нукус, улица Каракалпакстан], [address: Republic of Karakalpakstan, Nukus city, Karakalpakstan Street].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

DUTOR VA UNING O‘ZBEK AN’ANAVIY MUSIQA IJROCHILIGIDAGI O‘RNI

© R. Odilova[1]✉
[1]Qo’qon davlat universiteti, Qo’qon, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada dutor cholg‘u asbobining o‘zbek an’anaviy musiqasidagi o‘rni, tarixi, tuzilishi va ijrochilik xususiyatlari tahlil qilinadi. Dutor milliy musiqiy merosimizning ajralmas qismi sifatida qadimdan xalq qalbida chuqur o‘rin egallagan va bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi — dutorning an’anaviy ijrochilikdagi o‘rnini aniqlash, uning musiqiy-ta’limiy jarayondagi ahamiyatini ko‘rsatish hamda dutor orqali yosh avlodda estetik did va milliy qadriyatlarni shakllantirish imkoniyatlarini ochib berishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda tarixiy va zamonaviy manbalar, ilmiy adabiyotlar hamda dutor ijrochiligi amaliyoti tahlil qilindi. Shuningdek, "ustoz-shogird" an’anasi asosida shakllangan ta’limiy modelga e’tibor qaratildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: dutor o‘ziga xos ohang, texnika va bezak uslublari bilan ajralib turadi. Uning ijrochilikdagi imkoniyatlari milliy musiqamizning mazmunini to‘la ifodalashga xizmat qiladi. Tadqiqotda dutorning turli ijrochilik maktablari, xususan Qo‘qoncha uslub va uning o‘ziga xos xususiyatlari yoritildi.

XULOSA: dutor ijrochiligi milliy madaniyatimiz va musiqiy merosimizni avlodlarga yetkazishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. U nafaqat musiqa, balki tarbiya va ma’naviyatni singdirishda ham katta ahamiyatga ega ekani tasdiqlandi.

Kalit so‘zlar: dutor, an’anaviy musiqa, milliy cholg‘ular, ijrochilik san’ati, madaniy meros, musiqiy tarbiya, ustoz-shogird, Qo‘qoncha uslub, musiqiy ta’lim.

Iqtibos uchun: Odilova R. Dutor va uning o‘zbek an’anaviy musiqa ijrochiligidagi o‘rni.// Inter education & global study. 2025. №3. B.643–649.

ДУТОР И ЕГО РОЛЬ В ИСПОЛНЕНИИ УЗБЕКСКОЙ ТРАДИЦИОННОЙ МУЗЫКИ

© Р. Одилова[1]✉
[1] Кокандский государственный университет, Коканд, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются роль, история, устройство и особенности исполнения на дуторе в узбекской традиционной музыке. Дутор представлен как

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

важный элемент музыкального и культурного наследия народа, сохраняющий актуальность и в современном обществе.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — определить место дутора в традиционном исполнительском искусстве, раскрыть его значение в музыкально-образовательной среде и показать возможности воспитания молодежи через приобщение к национальным музыкальным ценностям.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы исторические источники, научная литература, а также практический анализ традиций исполнения на дуторе. Особое внимание уделено системе обучения на основе традиции «учитель–ученик».

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: дутор отличается уникальной мелодичностью, техникой и выразительными средствами. Его исполнительские особенности способствуют глубокому раскрытию содержания узбекской музыки. Раскрыты особенности различных школ исполнения, в частности, Кокандская школа и её специфика.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: исполнение на дуторе является важным средством сохранения и передачи культурного и музыкального наследия. Он играет значимую роль не только в музыкальном обучении, но и в духовно-нравственном воспитании молодого поколения.

Ключевые слова: дутор, традиционная музыка, народные инструменты, исполнительское искусство, культурное наследие, музыкальное воспитание, учитель–ученик, Кокандская школа, музыкальное образование.

Для цитирования: Одилова Р. Дутор и его роль в исполнении узбекской традиционной музыки.// Inter education & global study.2025. №3. С. 643–649.

DUTOR AND HIS ROLE IN THE PERFORMANCE OF UZBEK TRADITIONAL MUSIC

© Ruxshona Odilova[1]✉
[1]Kokand State University, Kokand, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the role, history, structure, and performance features of the dutor in Uzbek traditional music. The dutor is presented as an integral part of the national musical heritage that continues to maintain its relevance today.

AIM: the main aim of the study is to identify the role of the dutor in traditional musical performance, to highlight its importance in music education, and to explore its potential in cultivating aesthetic taste and national values among the youth.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

MATERIALS AND METHODS: the study uses historical and modern sources, academic literature, and practical analysis of dutor performance. Special attention is given to the traditional "master–apprentice" teaching model.

DISCUSSION AND RESULTS: the dutor stands out with its unique sound, technique, and decorative performance methods. Its capabilities enrich the expressive content of national music. The research highlights various performance schools, particularly the distinctive Kokand style.

CONCLUSION: dutor performance serves as a vital means of preserving and transmitting cultural and musical heritage. It plays a significant role not only in musical education but also in the moral and spiritual development of the younger generation.

Keywords: dutor, traditional music, folk instruments, performance art, cultural heritage, music education, master-apprentice, Kokand style, musical upbringing.

For citation: Ruxshona Odilova. (2025) 'Dutor and his role in the performance of uzbek traditional music', Inter education & global study, (8), pp. 643–649. (In Uzbek).

Musiqa bu – insonlar hayotining ohanglardagi in'ikosi deb ta'riflashadi mashoyixlar. Demak, olamni tasavvur etishda in'ikos etuvchi vositalar ham beozor shaklu-shamoyil, go'zal fazilat, beg'ubor un taratishga qodir bo'lishi shart. Aks holda butun mavjudotlar ichida eng oliy hilqat bo'lgan insonda savt etish yoki o'xshatish hislatining bo'lmasligi muqarrar. Shu bois ham bo'lsa kerak, faqat insongina qo'li gul, tafakkur egasi, ma'naviyatga ega, ijod degan ne'matdan bahramand etib yaratilgan.

Ijod esa musiqa olamini mo'jizakor vositalar bo'lmish sehrli cholg'ular yaratib, benazir ohanglar taratuvchi sozlar bilan to'ldirdi. Natijada, bugungi kunda inson hayotini musiqiy cholg'ularsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Cholg'ular insoniyat ma'naviyatining bir bo'lagiga aylandi. Har bir xalq o'z hayoti, ma'naviyati va an'anasi asosida o'z milliy qadriyatlariga mos musiqiy cholg'ular yaratgan. O'zbek xalqining barcha udum va qadriyatlari, milliy an'analarini aks ettiruvchi dutor xalqimizning sevimli cholg'usidir. Amaliyotda, dutorning behisob ijrochilik namunalari shakllanganligi har bir yoshdagilar, jamiyatning har bir tabaqasida o'ziga xos o'rin topgan, xalq orasida eng go'zal ijro namunalari yuzaga kelgan. O'zbek musiqa merosini o'rganish va uni munosib darajada kelajak avlodga yetkazish azal-azaldan ijrochilik an'analarining "ustozdan-shogirdga" qabilida amalga oshirib kelinayotgan mezonidir.

"Ustoz-shogird" an'anasi asosidagi an'anaviy musiqa sabog'ini ta'lim tizimida qaror topishi zamonaviy ta'limning eng ahamiyatli bosqichlaridan hisoblanadi. Buni uzluksiz ta'lim tizimi doirasida shakllantirish, hamda uni har bir bosqich talablari asosida tartiblash avvalo bilimli mutaxassis tayyorlashning zamini, qolaversa barkamol avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2-fevraldagi PQ-112-son madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida qarorida belgilangan qaroribarcha musiqa fani o'qituvchilariga shijoat bag'ishladi.2022/2023 o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

o‘quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste’dodlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishida musiqa fani o’qituvchilari faollikni qo’lga olishgan. Shu jumladan BMSM o’qituvchilari xam jonbozlik ko’rsatmoqdalar. O’quvchilarga musiqa cholg’u asbobini o’rgatish uzoq muddat shug‘ullanishni va shunga mos munosabatni talab etadi. Albatta, cholg‘u ijrochiligida uning texnik o‘zlashtirish darajalarini ta’limning boshlang‘ich va o‘rta bo‘g‘inlarida o‘zlashtirish maqsadga muvofiqdir. Muhimi, ijrochi kasbni o‘zlashtirish jarayonida asarni ham tarkiban, ham ma’nan idrok etishi va tushungan holda talqin etish ko‘nikmalarini hosil qilishi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘zbek musiqasining durdonalari munosib va go‘zal talqinlari mumtoz va zamonaviy ustoz sozandalar tomonidan ijro etilib kelinmoqda. Zamonaviy jarayon va ta’lim tizimi ham bunga mos holda bo‘lishi muqarrar. Qilinayotgan ishlarning barchasi ta’lim tizimini isloh qilishga qaratilgan.

Yosh avlodni milliy istiqlol g‘oyalari ruhida tarbiyalash, qadriyatlarimizni va milliy musiqa madaniyatimizni har qachongidan chuqurroq o‘rganish, hamda xalqimizning o‘zligini anglash, o‘z urf-odatlarini saqlay bilishi, ularni tiklab, avaylab, e’zozlab, yangi o‘sib kelayotgan yosh avlodga yetkazib berish bugungi kunning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Yosh avlodni milliy-ahloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning muhim vositalaridan biri sifatida ularni har taraflama estetik badiiy did sohibi bo‘lib yetishishida milliy musiqa merosining cholg‘uchilik san’ati orqali tanishtirib borish alohida ahamiyat kasb etadi. Dutor nafaqat O‘zbekistonda, O‘rta Osiyo xalqlari, hususan tojik, uyg‘ur, qoraqalpoq, turkman xalqlarida ham keng tarqalgan. Bu cholg‘uda milliy kuylar bilan bir qatorda,barcha chet el kompozitorlari tomonidan yozilgan har jihatdan murakkab asarlarni ham moxirona ijro etish mumkin. Dutorda asarlarni mustaqil o‘rganish va ularni ongli ravishda o‘zlashtirish,ijro etish sozanda uchun tanlagan kasbini sevishi, tinimsiz mehnat qilishi zarur bo‘ladi.

Qadimiy madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lgan - O‘rta Osiyoda yashagan xalqlar jahon fani va madaniyati xazinasiga salmoqli hissa qo‘shganlar. Ular musiqa madaniyati sohasida ham juda boy qadimiy merosga egadirlar. O‘zbekiston hududida keng tarqalgan cholg‘ular xususida to‘xtaladigan bo‘lsak, shulardan biri dutordir.Uning juda qadimiyligidan darak beruvchi, Tuproq qal’a (miloddan avvalgi IV-III asrlar)dan topilgan ikki torli cholg‘ularning keyinchalik dutor, dombra va qo‘biz shaklida takomillashganligini ko‘rsatadi. Bu cholg‘ular tut yoki o‘rik yog‘ochidan yasaladi. Ular qovurg‘ali o‘yma dutor va o‘yib ishlangan dutor bo‘lgan. Qopqog‘i esa tut yog‘ochidan yupqa qilib ishlangan. Dutorlar tori sozlanishi bo‘yicha kichik oktava “re” notasidan, katta oktava “sol” yoki “lya”, ba’zan esa qo‘shtor qilib ham sozlanadi. Bu cholg‘u o‘zbek an’anaviy musiqa ijrochiligida juda katta ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, u yakka tarzda, jo‘rsozlikda, jo‘rnovozlikda va ansambllarda o‘z o‘rniga ega. Og‘ir kuylar yakka tarzda ijro qilinganda dutor shunday bir mungli va sehrli ovozga egaki, insonni ruhini tinchlantiradi va ma’naviy oziqlantiradi. Agar, sho‘xchan va tez quvnoq kuylar ijro qilinsa, tinglovchining qalbini quvontiradi va zavq bag‘ishlaydi. Dutot cholg‘usi boshqa cholg‘ularimizga

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

qaraganda zarblar jihatidan ham keng imkoniyatlarga ega. Shuning uchun ham xalq kuylari, maqomlarning qashqarcha, soqinoma, ufor kabi sho‘xchan taronalari bu cholg‘uda o‘zgacha jarang topadi. Jo‘rnavozlikda “dutor” va “tanbur” cholg‘ulari ijrosidagi kuylar bir biriga hamohangdir. Xususan, bu cholg‘ularda ijro qilinadigan kuylar yoki ashulalar misolida ko‘rishimiz mumkin. Bu cholg‘ular bir birini shunday to‘ldiradiki, ulardan go‘zal yangi bir ohang paydo bo‘ladi.

Dutor cholg‘usining yana bir muhim jihati shundaki, bu sozda yakka ijro qilinganda o‘ng qo‘ldagi zarblarning “usul beruvchi” vazifasini bajarishi aksariyat hollarda doirasiz yakka ijro qilinishiga sabab bo‘ladi. O‘zbek an’anaviy musiqa ijrochiligida keng tarqalgan ijro amaliyotida tanbur, rubob, dutor, g‘ijjak, chang, nay, surnay, qonun, doira kabi har tomonlama takomillashgan cholg‘u asboblari mavjud. Cholg‘ularning takomillashuvi ularning ovoziga, ovoz diapazoniga, shakllariga ta’sir ko‘rsatgan. Dutor cholg‘usi manbalarda yozilishicha deyarli o‘zgarmagan. Qadimda dutor cholg‘usi asosan ayollar tomonidan ijro qilingan va ijro amaliyotida keng ommalashgan. Shu bois bo‘lsa kerak, Dutor sozining mayin va xonaki ovozga egaligi bizgacha o‘zgarmastan yetib kelgan. Farg‘ona-Toshkent vohasining dutor ijrochilik uslublari ham juda rang-barang ekanligini aytib o‘tish lozim. Chunki, bu vohada ijro uslublari ko‘p. Faqat Qo‘qon dutor ijrochilik maktabining o‘zigina, o‘ziga xos an’analar bilan sug‘orilgan. Bu an’analarni birgina «Qo‘qoncha» asarida ham ko‘rish mumkin. Dutorning shaxdam shiddatli talqini, zarblarining rang-barangligi, chap va o‘ng qo‘llar mohirligi va jozibaliligi uslub ijrochiligining mag‘zi hisoblanadi. Ijrochilik maktablari yuzaga kelishida alohida ijro uslublarning ahamiyati katta. Shuning uchun Farg‘ona-Toshkent vohasida biz ko‘pgina shaxsiy dutor ijrochilik uslublari shakllanganining guvohi bo‘lamiz. Bugungi kun yoshlari dutor ijrochiligining tamal toshlari bo’lmish buyuk ustozlar nomini har vaqt yodlarida saqlashi lozim. Tariximiz zarvaraqlarida o’chmas iz qoldirgan ustazoda sozanda va ijrochilar haqida qancha fikr yuritmaylik shuncha oz. Yoshlar nafaqat ularning ijrolari bilan tanishish, balki ular darajasidek ijro malakamizni oshirish yo’lida tinim bilmay mehnat qilishimiz lozim.

Cholg‘u asboblaridan dutor musiqiy cholg‘ularimiz orasida eng qadimiylaridan biri bo’libgina qolmay, inson ruhiyatiga moyillikligi-yu, mungli g’amda qalbga yaqin ohang taratishi bilan ajralib turadi. O’rta Osiyoxalqlarining dutor va dutorsimon (turkman dutorlari, qozoq va qirjizdo’mbiralari) cholg'ularining zamini bir ekanligi, ushbu xalqlarning ma’naviyat ildizlari birligidan dalolatdir.

Zero, barmoqlarning sehrlimayin harakatlari orqali torlar aynan qalb nidosi sifatida ohang taratadi. Xalq orasida dutor »dilkash cholg'u» nomini olgan. Chunki bu nola qalb istagan ohangdir. Shuning uchun dutor ayollarimiz qo’lida hasrat quroli, dil izhorini namoyish etish uchun hamroh bo’lgan ko’ngil oshnosidir. Dutorning bunday imkoniyatlari turli xalqlar musiqa merosini ijro etish uchun yetarli darajadadir. Dutor ijrochiligi amaliyotida shakllangan hamda o’z me’yorida davom etib, rivojlanib kelayotgan turli ijrochilik yo`nalishlari ham buning amaldagi isbotidir. Dutor, umuman xalq cholg’ulari orasida ijrochilik san’atida o’ziga xosligi, an’anaviy uslubda ijrochiligiga moyilliligi, xalq

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

yo'lidagi musiqamizda jozibaliligi hamda akademik yo'nalishda keng mahoratli cholju ekanligini doimo namoyon etib kelmoqda. Dutor qaysi yo'nalishda bo'lmasin, ijrosida shu uslubga xos an'anasi bor va ularni ifodalovchi œz jozibasi bor.

Ko'rsatilgan usullarning (shtrixlarning) zarb yo'nalishlari belgilari:

P – yuqoridan pastga zarb urish;

V - pastdan yuqoriga zarb urish;

Ko'rsatilgan usullarning (shtrixlarning) harfiy belgilari:

K – ko'rsatgich barmoq bilan zarb urish;

BZ - bilak zarb – bilak bilan zarb urish;

B - bosh barmoq bilan zarb urish;

Rizz - pitssikato (barmoq chertmak);

Tr - tremolo (rez) kœrsatkich barmoq bilan uzluksiz chertish.

J- jimjiloq bilan zarb urish;

Dutor chalish usullarini belgilash masalasi bir qancha mutaxassislarda qiziqish uyg'otgan.

Dutor ijrochiligining jozibasi – rang-barang zarblardan hosil bo'ladigan sadolarni turli bezak va jilolar bilan bezashdir. Shu bois dutorga xos bezak – qochirimlar an'anaviy ijrochilikda munosib o'rin olgan. Ular sozandalar orasida qochirim, kashish, miyang', molish, nolish, to'lqinlatish kabi iboralar bilan ataladi. Har bir bezak o'z ko'rinishi, ijro uslubi va shunga xos jozibali sadosiga egadir.Ularni mahorat bilan amalga oshirish uchun ijro texnikasini o'zlashtirish lozim. Quyida dutor ijrochiligiga xos jilo-bezaklarining sharhi, yozilish uslubi va nota namunasidagi o'rnini qisqa misollarda keltiramiz. S.M.Taxalov o'zbek an'anaviy musiqasida bezaklar haqida so'z yuritgan. O'zbek chertma cholg'u asboblarini ijro paytida ayrim tovushlar (ba'zan bir necha tovush) torga urmasdan ijro etiladi. O'sha notaning ustiga qo'shuv (+) belgisi qo'yiladi. Tovush chap qo'l barmoqlarini pardaga bosish natijasida hosil qilinadi. Tanbur, dutor, qashqar va afg'on ruboblarida tovush hosil qilishning ana shunday usuli ham turli melizmatik bezaklarni ijro etishda tez-tez uchrab turadi, bu an'anaviy ijrochilikda alohida o'rin egallaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O'rinboyev, M. (2007). Milliy cholg'ularimiz va ularning o'ziga xosligi. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
2. Kobilova, E. B. (2022). Classical music and youth education. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(9), 126-130.
3. Qobilova, E. (2023). Forming a sense of internationality in students through the traditional music of Azerbaijan. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3, 127-132.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

4. Кобилова, Е. (2025). THE ROLE OF THE OPERA GENRE IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS. Международный мультидисциплинарный журнал исследований и разработок, 1(1), 156-159.
5. E'zozxon, Q., Teshaboyeva, Z., & Ergasheva, S. D. (2024). HOZIRGI O'ZBEK HIKOYACHILIGINING YETAKCHI TAMOYILLARI. University Research Base, 46-49.
6. Otto, M., & Thornton, J. (2024). TA'LIMDA MUSIQA O 'QITISHNING AHAMIYATI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 12, 99-100.
7. Qobilova, E., Xaydarova, I., & Gulnora, R. (2024). O 'ZBEK XALQ AN'ANALARI-TARBIYA OMILI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(26), 192-195.
8. Qobilova, E. (2024). MUSIQA ONG VA HISLAR O 'RTASIDAGI VOSITACHIDIR. Pedagogikada ilmiy izlanishlar, 2(1), 28-31.
9. Qobilova, E. (2024). THE PLACE OF FOLK SONGS IN ISAJAN SULTAN'S STORIES. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 4(02), 44-49.
10. Qobilova, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MUSIC TEACHING IN EDUCATION. QO 'QON UNIVERSITY NEWSLETTER, 12, 99–100.
11. Qobilova, E. (2024). The Significance Of Interdisciplinary Connection In The Formation Of Music Literacy In Children With Hearing Defect In Music Lessons. Uzbekistan Educational Research Journal, 1(1).
12. Qobilova, E. B., Toshpolatova, S., Muhammadjonova, M., Muninova, M., Baxromova, M., & Rahimova, D. (2023). QADIMIY MUSIQIY SAN'ATNING SHAKLLANISH JARAYONI. Science and innovation, 2(Special Issue 14), 560-565.
13. Qobilova, E. "FORMING A SENSE OF INTERNATIONALITY IN STUDENTS THROUGH THE TRADITIONAL MUSIC OF AZERBAIJAN." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.10 (2023): 127-132.
14. Азизхонова, М., and Э. Қобилова. "ЁШЛАРНИ МУСИҚИЙ МАДАНИЯТИ ВА МАЪНАВИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА МУСИҚИЙ ТАРБИЯНИНГ АҲАМИЯТИ." Oriental Art and Culture 3.1 (2022): 51-57.
15. Kabilova, E. B. "FORMING A SENSE OF PATRIOTISM IN STUDENTS THROUGH THE LIFE AND WORK OF COMPOSER DONI ZAKIROV."

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Odilova Ruxshona**, talaba [**Одилова Рухшона**, студент], [**Odilova Ruxshona,** student]; manzil: Qo'qon shahar, Turon ko'chasi, 23-uy, [адрес: Г. Коканд, ул. Турана, д. 23], [address: Kokand, Turana str., 23]

CC BY NC ND

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

NUTQ FAOLIYATI RIVOJLANISHIDA PSIXOLINGVISTIK QARASHLAR

© N.I. Sharofova[1]✉

[1]Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH. nutq- kishilarning bir- birlari bilan o‘zaro muloqot qilishlari, ichki his-tuyg'ularini namoyon etishlari uchun zarur vositadir. Nutqning shakllanishi, uning rivojlanishi xususida tadqiqotchi olimlar izlanishlar olib boryaptilar. Metodist olimlarimiz nutqni rivojlantirish boyicha turli yondashuvlarni qo'llab- quvvatlasalar, psixolingvistikada nutq yuzaga chiqishi bo'yicha ham olimlarning o'z nazariyalari mavjud.

MAQSAD: maqolaning maqsadi nutq rivojlanishi, nutqiy faoliyatning yuzaga chiqishida qator olimlarning psixolingvistik qarashlarini o‘rganish, ularni tahlil qilish va taqqoslashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda nutq faoliyatining rivojlanishida oid ilmiy va metodik adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, nutq faoliyati taraqqiyida metodist olimlarning turli yondashuvlari keltirilib, aqliy hujum, tezkor savol-javob metodlarining samaradorligi tadqiq qilindi

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, psixolingvistikada ham nutqning shakllanishida, yuzaga chiqishida til katta ahamiyat kasb etishi, til-nutqning yuzaga kelishida asosiy vosita ekanligi olimlarning nazariyalari bilan asoslab berilgan. Tilning umumiy ekanligi, nutq esa xususiy jarayon ekanligi izohlab o‘tilgan

XULOSA. til- nutqning shakllanishida eng asosiy vosita sanaladi. Inson ichki kechinmalarini, his- hayajonini umuman ichki olamini til orqali nutqqa ko'chiradi. Ushbu maqolada keltirilgan nazariyalar fikrimizni dalillaydi.

Kalit so‘zlar: nutq qobiliyati, til, metodika, psixolingvistika, boshlang‘ich sinf, malaka.

Iqtibos uchun:Nilufar Sh. Nutq faoliyati rivojlanishida psixolingvistik qarashlar // Inter education & global study. 2025. №3 B.650–655.

ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

© Н.И. Шарофова[1]✉

[1] Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: речь необходимий инструмент позволяющий людям общаться друг с другом и выражать свои внутренние чувства. Учение исследователи проводят

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

исследования по вопросам формирования речи и ее развития. Если наши учение – методисты придерживаются разных подходов к развитию речи то в психолингвистике мало теорий ученых о возникновении речи

ЦЕЛЬ: целью статьи является изучение психолингвистических взглядов ряда учених на развитие речи возникновение речевой деятельности их анализ и сравнение

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: речевая деятельность в исследовании. Проанализирована научно- методическая литература в связанная с его разработкой. Кроме того, были представлены различные подходы ученых –методистов в развитии речевой деятельности изучена ефективность мозгового штурма и быстрых методов вопросов и ответов

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты анализа показали что в психолингвистике теориями ученых обосновывается то что язык имеет болшое значение в формировании и возникновении речи и что он является основным средством возникновения языка – речи. Объясняется что язык является общим а речь- частным процессом

ЗАКЛЮЧЕНИЯ: Он считается важнейшим инструментом в формировании языка. Человек передает свои внутренние переживания эмоции свой внутренний мир в речь посредством языка. Теории представленные в этой статье подтверждают нашу точку зрения

Ключевые слова: речевая способность, язык, методика, психолингвистика, начальный класс, компетентность

Для цитирования:. Шарофова Н. И. Психолингвистические аспекты развития речевой деятельности // Inter education & global study. 2025. №3. С. 650–655.

PSYCHOLINGUISTIC CONSIDERATIONS IN SPEECH ACTIVITY DEVELOPMENT

© Nilufar I. Sharofova[1]✉
[1]Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION. speech is necessary tool for people to communicate with each other and express their inner feelings. Research scientists are conducting research on the formation of speech and its development. If our methodist scientsts support different approaches to the development of speech, in psychologuistics there are few theories of the scientists on the emergence of speech

AIM: the purpose of the article is to study, analyze and compare the psycholinguistic view of a number of scientists on the development of speech, the emergency of speech activity

MATERIALS AND METHODS: scientific and methodological literature on the development of speech activity was analyzed in the study. In addition, different approaches

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

of methodist scientists in the development of speech activity were presented, and the effectiveness of brainstorming and quick question and answer was studied

DISCUSSION AND RESULTS: the results of the analysis showed that in psycholinguistics, the fact that language is of great importance in the formation and emergence of speech, and that language is the main tool in the emergence of speech, is justified by the theories of scientists. It is explained that language is general and speech is a private process.

CONCLUTION: It is considered the most important tool in the formation of language. A person transfers his inner experiences, emotions, and his inner world to speech through language. The theories presented in this article prove our point

Key words: speech ability, language, methodology, psycholinguistics, primary grade, competence

For citation: Nilufar I. Sharofova. (2025) ‘’Psycholinguistic considerations in speech activity development”, Inter education & global study, (3), pp. 650–655. (In Uzbek).

Insoniyatning qobiliyatlari orasida eng muhimi bu- nutq qobiliyati hisoblanadi. Nutqni rivojlantirish, uning ta’sirchanligi va jozibardorligini oshirish so‘nggi yillarda ko‘plab olimlar tadqiqot ishlarining bosh mavzusiga aylanishga ulgurdi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq malakalarini har tomonlama rivojlantirish, ularning nutqidagi kamchilikning oldini olish borasida qator ilmiy izlanishlar bugungi kunda ham tadqiq qilinmoqda. Xususan, yurtimizda bir qator olimlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqini turli yondashuvlar bilan rivojlantirishga oid o‘z tadqiqotlarini olib borishdi. H.S. Bakiyeva o’z ilmiy ishida mustaqil ta’lim orqali o‘quvchilar nutq va tafakkurini rivojlantirish bo‘yicha metodikasini ishlab chiqdi. A.K. Nisanbayeva o‘zbek tili darslarida matn vositasida o‘quvchilar nutqini o‘stirishga alohida to‘xtalib o‘tdi. N.A. Qosimova ona tili darslarida so‘z ma’nodoshlari yordamida o‘quvchilar nutqini boyitishga e’tibor qaratdi va o‘z metodikasini yaratdi. M.Z. Hamdamova 1-2-sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish tizimini ishlab chiqdi. O‘zbek tili darslarida o‘quvchilar nutqini yasama so‘zlar orqali boyitish G.M.Ahmedovaning tadqiqot ishining bosh mavzusi sifatida maydonga keldi. O‘zbek tilidagi fe’l zamonlarini o‘rganish bilan bog‘liq holda maktab o‘quvchilarining nutqini rivojlantirish bo‘yicha olima R.Inog‘amova o‘z tadqiqot ishini olib bordi. Ushbu tadqiqotlardan ko‘zlangan asl maqsad- o‘quvchilarning nutq malakalarini rivojlantirishga, ulardagi kamchiliklarning oldini olishga qaratilgan. Xorijda ham qator tadqiqotchilar o‘quvchilar nutqini rivojlantirish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishdi. Jumladan, Л.Ю.Комарова “Дидактическая моделъ развития речи учащихся началъной школы”, С.В. Зуева “Изучения сложного предложения в началъных классах как одно из условий развития речи учащихся”, О.В. Колесова “Развития речи учащихся младших классов на функционалъно- стилистической основе”, В.В.Осокин “Изучение средства и способов актуализации речи в школе” mavzularida tadqiqot ishlarini olib borishdi. Olimlarning olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

soha rivojida, fanning yuksalishidagi mavjud muammolarning yechim topishida albatta o‘z hissasini qo‘shadi. Yuqoridagi izlanishlar asosan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq malakalarini metodik jihatdan tadqiq qilib olib borilgan. Ayni paytda nutq rivojlanishining psixolingvistik xususiyatlari ham mavjud va ko‘plab olimlarning qator tadqiqot ishlari ayni shu mavzu xususida bahs yuritadi.

“Psixolingvistika - nutqiy faoliyatni nutq akti mazmuni bilan so‘zlovchining maqsad , niyati orasidagi aloqadorlik nuqtayi nazaridan o‘rganadigan fan. U nutqni idrok etish, tilni egallash kabi masalalarni o‘rganadi”. F. Sharipov o‘zining “Psixolingvistika” qo‘llanmasini ommaga taqdim etar ekan, kelgusida ilmiy tadqiqot ishi bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilarning muhokama manbai psixolingvistik hodisalar xususan, tilni egallash, nutq yaratish, nutqni tushunish, kommunikatsiya, individning ichki psixik kechinmalari, nutq faoliyatining burilish jarayonlari kabi dolzarb muammolarga qaratilishini har jihatdan maqsadga muvofiq degan fikrlarni aytib o‘tadi. Qo‘llanmada Gumbaltning nutqiy faoliyat va tilning jamoa va shaxs munosabatlarini o‘zaro bog‘lashga xizmat qilishi to‘g‘risidagi fikrlari keltirib o‘tiladi.V.Fon Gumbaltning talqinicha, tillar xalqlar va alohida kishilarning ijod mahsulidir, sababi til- nutq faoliyati jarayonida yuzaga keladi. Gumbaltning fikricha, “nutqiy faoliyatning asosi - lisoniy qobiliyat”dir. Psixolingvistikada nutq, nutqiy faoliyat xususida bu kabi qarashlar talaygina.

XX asrning 60-yillarida maydonga kelgan “Yosh grammatikachilar” (G.Paul, K.Brugman, A.Leskin, B. Delbryuk, G.Ostgorf) nazariyasining asosini individual psixologiya tashkil etgan. Ular so‘zlovchi shaxs nutq faoliyati mexanizmi, tilning ichki taraqqiyoti masalariga urg‘u beradilar va tildagi o‘zgarishlarni inson ruhiyatidagi o‘zgarishlardan qidiradilar. Masalan, zamonaviy rus tili uni bilmaydigan, o‘rganmagan bola uchun o‘lik til, lotin tili o‘lik til, lekin bu tilni mukammal bilgan filolog-klassik uchun tirik til hisoblanadi, deyiladi manbada. “Nutq faoliyatidagi aniq qiymat odamdan ajratilgan til emas balki odamdir”, degan qarashlarni ilgari suradi Boduen de Kurtene.

XX asr tilshunosligi asoschisi Ferdinant de Sossyur nutqiy faoliyatni ikkita qarama-qarshi mohiyat- til (langue), va nutq (parole) ga ajratgan, deyiladi qo‘llanmada. Uning fikriga ko‘ra, til nutqqa ziddir. Olim tilning ijtimoiy hodisa ekanligini va unda umumiylik mavjudligini, nutq esa individual hodisa, u xohish va fikrlarni ifodalash akti, degan fikrlarni aytib o‘tgan. Til - umumiy hodisa, nutq esa xususiy degan xulosa kelib chiqadi nazariyadan. Haqiqatdan ham til hudud bo‘yicha hammada bir xil, hamma bir tilda so‘zlashadi, ammo nutq - bu xususiy hodisa, har kim o‘zi yaratadi uni. Biz til va nutqni bir- biridan farqlashda asosan ayni shu nazariyaga tayanamiz. Zero, “Har bir kishining o‘z nutqi bor.Ammo ana shu nutqni bir nechta tilda ifodalash mumkin”.

Amerikalik tilshunos Leonard Blumfildning “Til” asarida kishilar bir- biri bilan nutqli va nutqsiz stimullar yordamida munosabat quradilar va ular bu stimullarga ikki xil “nutqli” va “nutqsiz” harakatlar bilan javob qaytarishlarini aytib o‘tgan.

Nutqsiz reaksiya S⟶R

Nutq vositasidagi reaksiya S⟶r…..s⟶R

Blumfildning qarashlaricha, “nutqning asosiy vazifasi- inson faoliyatini boshqarish”ir".

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Yuqoridagi nazariyalar bir- birini takrorlamaydi, ammo inkor ham qilmaydi. Nutq faoliyatning asosida til tashkil qiladi va nutq til orqali namoyon bo‘lishi olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Ayni paytda amerikalik tilshunos Leonard Blumfildning kishilar bir-birlari bilan nutqli va nutqsiz stimullar bilan munosabatga kirishadi degan bixevioristik yondashuvi alohida ahamiyatga ega. U o‘zining “Til” asarida “Djek va Djalil” misolida ayni shu munosabatni yoritib bergan. Aytish mumkinki, nutqli reaksiyada til asosiy o‘rinni egallasa, nutqsiz reaksiyada tashqi ko‘rinish, yuz ifodasi, ko‘z qarashlari xatti- harakatlar inson ichki kechinmalarini bevosita aks ettiradi.

Ferdinant de Sossyur tomonidan til va nutq tushunchasining o‘zaro farqlanishi psixolingvistik tadqiqotlarda “nutqiy faoliyat “ tushunchasining yanada aniq bo‘lishiga hissa qo‘shdi. A.A. Leontevning fikricha, F.de Sossyur nutqiy faoliyatni “til va lisoniy qobiliyatlarning birligi”, deya izohlagan. Demak, nutqning yuzaga kelishida til va so‘zlashish qobiliyatining birlamchiligini va asosiy sharti ekanligini F.de Sossyur tadqiq qiladi. Olim L.V. Shcherba esa uni “so‘zlash” va “tushunish” deya, izohlagan. Nutq til orqali ma’lum fikrni yaratadi va tushuncha hosil qiladi… Nutqning paydo bo‘lishi ong bilan bog‘liq hodisa. Agar olimlarning nutqiy faoliyatning yuzaga chiqish to‘g‘risidagi qarashlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, hammasi bitta ildizga borib taqaladi ya’ni nutq tilga ko‘chishi uchun dastlab u ongda hosil bo‘ladi, keyin sxemalashtirilib tilga ko‘chadi va nutq hosil bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy barqarorlikni ta’minlashda ularning so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish malakalarini shakllantirish, burro so‘zlashish qobiliyatlarini oshirish ko‘zda tutiladi. Yuqoridagi psixolingvistik nazariyalarga tayanib shuni aytish mumkinki, nutqni yuzaga chiqishida til birlamchi va asosiy o‘rinni egallaydi va bu o‘quvchilar nutqida til ko‘nikmalarini puxta egallashlari kerakligiga ishora qiladi. E’tibor qaratadigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklarida kichik - kichik hikoyalar, ertaklar, masallar keltirib o‘tiladi va bular tarbiyaviy ahamiyatga ega mavzularni qamrab oladi. O‘quvchilar ayni shu manbalar asosida nima yaxshi-yu nima yomonligini, to‘g‘ri yo‘lni tanlashni, odobni asosan darsliklardagi shu asarlardan o‘rganishadi. Ularni qayta hikoyalash davomida asta-sekinlik bilan bu mavzular ularning nutqiga ko‘chadi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

3-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida “O‘qiymiz va o‘rganamiz “ rukni ostida “Xo‘p bo‘ladi” hikoyasi keltirilgan. Ushbu hikoyaning mazmuni muloqot madaniyati xususida. Baqirib gapiradigan ukasiga akasi tanbeh berib, unga pastroq gapirishni, muloyimlikni o‘rgatadi. M.Murodov muallifligidagi mazkur hikoya tom ma’noda o‘quvchilarga o‘rnak, kommunikatsion munosabatlarda qanday muloqot qilish, gapirish kerak degan savollarga javob izlaydi. Hikoya tugagach, qisqa savollar berib o‘tilgan:

-Usmonning qanday odati bor?

-Akasi uni qanday tarbiyaladi?

-Usmon akasining nasihatlariga quloq soldimi?

-Nima deb o‘ylaysiz, Usmonning baqirib gapirishining sababi nimada?

O‘quvchilar bu savollarga javob berganlaridan keyin ularga “Odobli bo‘lish osonmi” mavzusida 4-5 ta gap tuzish topshirig‘i berilgan. O‘quvchilar hikoya asosida chiqargan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

xulosalariga tayanib, yangi hikoya tuzadilar. Albatta, ayni topshiriq ularda xulosalash va munosabat bildirish ko‘nikmalarini shakllantirish bilan birgalikda yangi fikrlarni nutqqa ko‘chirish va uni yozma ifodalash qobiliyatini ham shakllantiradi. Nutq va uning paydo bo‘lishi xususidagi yuqorida ko‘rib o‘tgan psixolingvistik qarashlar ushbu metodikani ham qo‘llab quvvatlaydi. F.de Sossyur til va nutqni bir- biriga qarama qarshi qo‘yib, ularni umumiylik va xususiylik tomondan farqlanishini aytib o‘tgan edi. Ushbu hikoyada til umumiy, lekin o‘quvchilarga berilgan topshiriq individual fikrlash va g‘oyalardan kelib chiqib yaratiladi va o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqida aks etadi. Demak, yaratiladigan mustaqil topshiriqda xususiylik mavjud va u o‘quvchilarning o‘z ichki kechinmalari asosida ongda takomillashtiriladi va nutqqa ko‘chadi. Nutqning shakllanishi va uning voqealanishi xususida olimlar o‘z faoliyatlari davomida turli nazariyalarni yaratishgan va bu nazariyalar ko‘plab yangi tadqiqotlarning maydonga kelishiga zamin bo‘ldi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi darsliklarida berilgan badiiy asarlarni qayta hikoyalash paytida “nutqli” va “nutqsiz” harakatlarini rivojlantirish (ularda nutqni so‘zlar bilan va yoki xatti-harakatlar bilan ifodalashga o‘rgatish), rasmlar asosida matn tuzish yoki matn asosida rasm chizish mashg‘ulotlarning ham qiziqarliligini ta’minlaydi ham dars samaradorligini yanada oshiradi.Vaholanki, o‘quvchilarning nutq faoliyatini rivojlantirish borasida olib borilayotgan tadqiqotlarning yagona maqsadi - sifat va samaradorlikdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. F.Sharipov “Psixolingvistika” (Magistr talabalar uchun elektron majmua) Guliston-2023
2. Q.Shodiyev “Nutq o‘stirish uslubiyoti”. “O‘qituvchi”, -Toshkent.2008.304 bet
3. Ona tili va o‘qish savodxonligi (3-sinf) Toshkent-2022.303 bet
4. https://diss.natlib.uz/

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Sharofova Nilufar Ilhom qizi**, Buxoro davlat pedagogika instituti Tayanch doktoranti [**Sharofova Nilufar**, PhD student of Bukhara State Pedagogical Institute] [**Шарофова Нилуфар**, Базовый докторант Бухарского Государственного педагогического института] manzil: O‘zbekiston, Buxoro shahar 7-mikrorayon 52/34 [Адрес Узбекистан город Бухара 7- микрорайон 52/34] [Address Uzbekistan Bukhara city 7-microdistrict 52/34]; E-mail: sharofova_nilufar@buxdpi.uz

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

TASHKILOTLARDA KONFLIKTLARNING INNOVATSION RIVOJLANISHDAGI O‘RNI

© Sh.F. Eshboyev[1]✉

[1]Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada tashkilotlarda yuzaga keladigan nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, ularning salbiy va ijobiy jihatlari, hamda innovatsion texnologiyalar yordamida ularni konstruktiv boshqarish imkoniyatlari tahlil etiladi. Xususan, psixologik xavfsizlik muhiti va virtual jamoalar texnologiyalarining konflikt-innovatsiya munosabatiga ko‘rsatadigan moderatsion ta’siri o‘rganiladi. Shuningdek, konfliktlarni boshqarishda sun’iy intellekt va chuqur o‘rganish (deep learning) texnologiyalarini joriy etish istiqbollari ham amaliy tavsiyalar bilan asoslab berilgan

MAQSAD: ushbu maqolaning asosiy maqsadi – tashkilotlardagi nizolarning innovatsion rivojlanishga ta’sirini aniqlash, konfliktlarning konstruktiv boshqarish usullarini o‘rganish hamda zamonaviy texnologiyalar orqali ularni optimallashtirish imkoniyatlarini ko‘rsatishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Nazariy tahlil – konfliktologiya va innovatsion menejment bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi.
- Empirik tadqiqot – real tashkilotlarda konfliktlarni boshqarish usullari o‘rganildi va ularning samaradorligi baholandi.
- Eksperiment – sun’iy intellekt yordamida konfliktlarni avtomatlashtirilgan tahlil qilish imkoniyatlari sinovdan o‘tkazildi.
- Taqqoslash usuli – an’anaviy va innovatsion konflikt boshqarish modellarining samaradorligi solishtirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

- Konfliktlarning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash va ularni konstruktiv yo‘nalishga yo‘naltirish innovatsion rivojlanish uchun muhim omildir.
- Psixologik xavfsizlik muhiti tashkil etilgan jamoalarda innovatsiyalar tezroq joriy etiladi.
- Virtual jamoalar texnologiyalari konfliktlarning boshqarish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.
- Sun’iy intellekt va chuqur o‘rganish texnologiyalari konfliktlarni oldindan bashorat qilish va optimallashtirishda yuqori samaradorlik ko‘rsatmoqda.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

XULOSA: Tashkilotlarda konfliktlarni innovatsion rivojlanish uchun foydali omil sifatida ko‘rish va ularni samarali boshqarish muhim strategik vazifadir. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, sun’iy intellekt va virtual jamoalar vositalaridan foydalanish konfliktlarni konstruktiv yo‘nalishda boshqarish imkonini beradi. Kelgusida ushbu texnologiyalarni yanada rivojlantirish va tashkilotlarga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Tashkilotlar, konflikt, psixologik xavfsizlik, innovatsiya, virtual jamoalar, nizolarni boshqarish, sun’iy intellekt, chuqur o‘rganish.

Iqtibos uchun: Eshboyev Sh.F. Tashkilotlarda konfliktlarning innovatsion rivojlanishdagi o‘rni. // Inter education & global study. 2025. №3 B.656–670.

РОЛЬ КОНФЛИКТОВ В ИННОВАЦИОННОМ РАЗВИТИИ ОРГАНИЗАЦИЙ

© Ш.Ф. Эшбоев[1]✉
[1]Институт психологии и иностранных языков Бухары, Бухара, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматриваются социально-психологические особенности конфликтов, возникающих в организациях, их положительные и отрицательные стороны, а также возможности конструктивного управления ими с использованием инновационных технологий. В частности, изучается модераторное влияние среды психологической безопасности и технологий виртуальных сообществ на связь между конфликтами и инновациями. Кроме того, обоснованы перспективы внедрения технологий искусственного интеллекта и глубинного обучения (deep learning) для управления конфликтами.

ЦЕЛЬ: основная цель статьи – определить влияние конфликтов в организациях на инновационное развитие, изучить методы конструктивного управления конфликтами и продемонстрировать возможности их оптимизации с помощью современных технологий.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе исследования были использованы следующие методы:

- Теоретический анализ – анализ научной литературы по конфликтологии и инновационному менеджменту.
- Эмпирическое исследование – изучение методов управления конфликтами в реальных организациях и оценка их эффективности.
- Эксперимент – тестирование возможностей автоматизированного анализа конфликтов с помощью искусственного интеллекта.
- Метод сравнения – сопоставление эффективности традиционных и инновационных моделей управления конфликтами.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты исследования показали, что:

- Определение положительных и отрицательных аспектов конфликтов и их конструктивное направление является важным фактором инновационного развития.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

• В коллективах с высокой психологической безопасностью инновации внедряются быстрее.

• Технологии виртуальных сообществ могут положительно влиять на процесс управления конфликтами.

• Искусственный интеллект и технологии глубинного обучения демонстрируют высокую эффективность в прогнозировании и оптимизации конфликтов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: рассмотрение конфликтов в организациях как фактора, способствующего инновационному развитию, и их эффективное управление являются стратегически важными задачами. Использование современных технологий, включая искусственный интеллект и виртуальные сообщества, позволяет конструктивно управлять конфликтами. В дальнейшем необходимо продолжить развитие и адаптацию этих технологий для организаций.

Ключевые слова: организации, конфликт, психологическая безопасность, инновации, виртуальные сообщества, управление конфликтами, искусственный интеллект, глубинное обучение.

Для цитирования: Эшбоев Ш. Ф. Роль конфликтов в инновационном развитии организаций. // Inter education & global study. 2025. №3. С. 656–670.

THE ROLE OF CONFLICTS IN INNOVATIVE DEVELOPMENT OF ORGANIZATIONS

© Shohruz Khon F. Eshboyev [1]✉
[1]Bukhara Institute of Psychology and Foreign Languages, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article examines the socio-psychological aspects of conflicts in organizations, their positive and negative impacts, and the possibilities of constructive conflict management using innovative technologies. In particular, the moderating effect of psychological safety environments and virtual community technologies on the conflict-innovation relationship is analyzed. Additionally, the article explores the prospects of implementing artificial intelligence and deep learning technologies in conflict management, supported by practical recommendations.

AIM: the main objective of this article is to determine the impact of conflicts on innovative development in organizations, explore methods of constructive conflict management, and demonstrate the potential of optimizing conflicts through modern technologies.

MATERIALS AND METHODS: the study employed the following methods:

• Theoretical analysis – review of scientific literature on conflictology and innovation management.

• Empirical research – analysis of conflict management methods in real organizations and assessment of their effectiveness.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

• Experimentation – testing the possibilities of automated conflict analysis using artificial intelligence.

• Comparative method – evaluation of the effectiveness of traditional and innovative conflict management models.

DISCUSSION AND RESULTS: the research findings indicate that:

• Identifying the positive and negative aspects of conflicts and directing them constructively is a crucial factor for innovative development.

• Organizations with a strong psychological safety culture implement innovations more rapidly.

• Virtual community technologies positively influence conflict management processes.

"T.Y.Shpikalovaning amaliy san'atni o'qitish muammosini o'rganish natijasi amaliy san'at vositasi orqali talabalar uchun badiiy va estetik tarbiya dasturini ishlab chiqish bo'ldi. Ushbu dasturning asosiy tarkibiy qismi o'zaro bog'liq bo'limlar shaklida ifodalangan xalq madaniyatining turli shakllarini birlashtirishdir:"[5] badiiy asarlar, tasviriy san'at, xalq san'ati. Olimning fikricha, vazifalarning xilma-xilligi, material va ishlash texnikasini erkin tanlash bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishni faollashtiradi va ularning milliy o'ziga xosligini tushunish va shakllantirishga yordam beradi. R.Xasanov, S.S.Bulatov va boshqalarning tadqiqotlarida umumiy maktab ta'limi tizimida tasviriy va amaliy san'atni o'qitish muammolari keng o'rganilib, ular darslarning mazmunini asoslab berdi va o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uslub va usullarini aniqladi. N.A.Muslimov tadqiqotlarida talabalarning badiiy va ijodiy qobiliyatlari. Qo'ysinov, Sh. Sharipov "dunyoqarash va bir xil o'zlikni anglashning eng muhim omili bo'lgan amaliy san'atni o'qitish nazariyasi va metodikasiga e'tibor qaratadi. Olimlarning ta'kidlashicha, tasvirlar, ramzlar, belgilar bilan ifodalangan xalq ijodiyoti bolalar uchun atrofdagi dunyo va uni o'zgartirish imkoniyatlari haqida bilish usullaridan biridir. Obyektiv-fazoviy muhit yordamida maktab o'quvchilarining shaxsini rivojlantirish va tarbiyalash muammosi S. S. Bulatov tomonidan o'rganilgan. Uning fikricha, xalq dekorativ san'ati estetik va badiiy rivojlanishning asosiy elementi bo'lib, atrof-muhitda tashkiliy rol o'ynaydi. Shunday qilib, ilmiy-nazariy yordam olgandan so'ng, xalq dekorativ san'ati umumiy maktab ta'limida"[5] faol qo'llanila boshlandi. Bundan tashqari, 1990 yilgacha xalq dekorativ san'ati bo'yicha oliy o'quv kurslari kam edi. Ishlab chiqarish va hunarmandchilik bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash turli xil o'rta maxsus o'quv yurtlarida olib borildi, ularning aksariyati hanuzgacha maktab deb nomlandi.

XX asr oxirida Oliy ta'lim muassasalarida San'atshunoslik fakultetlarida "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" yo'nalishi bo'yicha o'qituvchilar tayyorlash boshlandi. Oliy ta'lim tizimida tasviriy san'atni o'qitish kontseptual asoslariga tayangan izchil metodik tizim ishlab chiqildi yetakchi rassom-pedagoglarning ilmiy g'oyalari va nazariy-metodik ta'minlanishlari, turli ta'lim tashkilotlarida badiiy hunarmandchilikni o'qitish mazmuni, shakl va uslublari yagonaligiga erishildi. Xususan, amaliy san'atning keng tarqalmagan turlari, masalan, yog'och o'ymakorligi, kandakorlik, kulolchilik, zardo'zlik, bo'rtma o'ymakorlik, oliy ta'limning o'quv rejalariga fan sifatida kiritilib o'qitila boshlandi. O'quv jarayonida asosan kompozitsion masalalarni yechishga qaratilgan hunarmandchilik malakalarini shakllantirish vazifalari belgilandi. Shu bilan birga, shaxsning ijodiy o'zini-o'zi rivojlantirish masalalariga yetarlicha e'tibor berila boshlandi. Shu tariqa oliy ta'lim tizimiga boshlang'ich va o'rta kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun an'anaviy amaliy san'at ustalari tayyorlash yo'lga qo'yildi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

5110800 “Taviriy san’at va muhandislik grafikasi” yo’nalishining avvalgi davlat ta’lim standartlarida faqat maktablar va kasb-hunar maktablari uchun tasviriy san’at va chizmachilik mutaxassislarini tayyorlashga qaratilgan edi. Hozirgi davrga kelib ushbu standartlarga o’zgatirish va qo’shimchalar kiritilib amaliy san’atga oid fanlariga ham katta miqdorda soatlar ajratilgan. “Darhaqiqat, ushbu standartning paydo bo’lishi xalq amaliy san’ati sohasida oliy kasbiy ta’limni shakllantirishdagi birinchi qadam edi. Mutaxassisning bilim va ko’nikma darajasiga qo’yiladigan talablarni aniqlash majburiyat va o’zgaruvchanlik tamoyillariga asoslanib, oliy ta’lim va kasb-hunar ta’limining fundamental xususiyatini saqlab qolish imkonini berdi. Yangi ixtisoslik doirasida oliy ta’lim muassasalarida Xalq amaliy bezak san’atining turli turlarin (yog’och o’ymakorligi”[5], kulolchilik, zardo’zlik, ganchkorlik va boshqalar) bo’yicha ixtisoslashtirilgan ustaxonalar ochildi. Shu bilan birga, xalq amaliy san’ati turlari bir-biriga qarama-qarshi emas, balki yagona ta’lim tizimini qabul qilgan. O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 16 iyuldagi "Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti" da 60210800-Amaliy san’at (turlar bo’yicha)bakalavr bosqichi 4 yil va 70210801-Tasviriy va amaliy bezak san’ati magistratura bosqichi 2 yil qilib belgilangan.

Ehtimol, ushbu o’ziga xos ijod turlarini tanlash rivojlanayotgan ishlab chiqarish talablari bilan bog’liq. Oliy ta’limning umumiy talablariga javob beradigan standart uyushma va milliy-mintaqaviy komponentlarni, shuningdek, talaba tanlagan fanlar va ixtiyoriy fanlarni o’z ichiga olgan blokli tarkibga ega edi. Uyushma komponent standartning o’zgarmas yadrosi bo’lib xizmat qildi va talabalarning asosiy umumiy madaniy, shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan. O’zgaruvchan qism tanlangan ta’lim yo’nalishi bo’yicha bilim, ko’nikma va ko’nikmalarni egallashni o’z ichiga oladi. Garchi ushbu standart pedagogik faoliyat turini o’z ichiga olmasa ham, tasviriy va amaliy bezak san’ati o’qituvchilarini tayyorlashni nazarda tutadi. Ammo bazaviy ta’lim dasturiga qo’yiladigan yangi talablar munosabati bilan oliy ta’limining davlat ta’lim standartiga muvofiq amaliy san’atni o’qitish bo’yicha o’quv jarayonini va ta’lim mazmunini tashkil etish bo’yicha uslubiy ishlanmalar mavjud.

Binobarin, S.S Bulatovning O’zbek xalq amaliy bezak san’ati nomli asarlari, talaba yoshlarni amaliy san’at kompozitsiyalarini tayyorlash muammosini hal etishga bag’ishlangan yuksak ilmiy ahamiyatga ega edi. B.Boymetov o’z tadqiqotlari tasvirni yaratishda qalamtasvir va rangtasvir vazifalarining o’zaro ta’siridan iborat bo’lgan tasviriy savodxonlikni o’rgatish metodologiyasiga yondashuvlarning o’zgaruvchanligi alohida qiziqish uyg’otadi. “O’qitishning maqsad, vazifalari, mazmuni, shakllari va usullarini asoslab, A Sulaymonov tomonidan shakllantirilgan “Rang munosabatlari nazariyasini” sezilarli darajada kengaytirdi, maktab, professional ta’lim va oliy ta’lim uchun rangshunoslik, rangtasvir va amaliy bezak kompozitsiyasi bo’yicha o’quv vazifalari tizimini ishlab chiqdi.

Umumta’lim maktablarida tasviriy va amaliy san’atni o’qitish mazmunida milliy komponentni asoslash muammosi bir vaqtning o’zida ikkita tadqiqotning mavzusi bo’ldi”[6]. (R.Xasanov, A.Sulaymonov). Mualliflar milliy-mintaqaviy komponentni aniqlash

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

uchun o'zlarining formulalarini taklif qilishdi va alohida hududlarda maxsus ishlab chiqilgan o'qitish modellarini sinab ko'rishdi. Milliy komponentning mazmunini tanlash bo'yicha universitet metodologiyasi S.S Bulatovning tadqiqot ishlarida o'rganilgan. Olim milliy komponentdagi fanlarning mazmuniy jihatiga e'tibor qaratdi, ularning rivojlanishida tarixiylik, murakkablik va integratsiya tamoyillariga amal qilish lozim.

"O'qitishning yakuniy natijasini tushunishdan kelib chiqqan holda, o'quv dasturi aniq amaliy muammolarni hal qilishga qaratilgan ma'lum fanlar bilan to'yingan bo'lishi yoki ma'lum bir bosqich dasturiga tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan bo'lishi kerak. Kasbiy faoliyat turlarini tanlash muammosi rivojlanayotgan mehnat bozorida bitiruvchiga qachon va qayerda talab bo'lishi"[5], shuningdek Davlat ta'lim standarti tomonidan taklif qilingan faoliyat turlaridan qaysi biri noma'lumligi bilan bog'liq.

Bizning tadqiqotimiz uchun shuni ta'kidlash kerakki, Amaliy san'at mutaxassislarini va tasviriy san'at o'qituvchilari hozirgi kunda nafaqat ixtisoslashtirilgan san'at maktablari va oliy ta'lim muassasalarida, balki madaniyat boshqarmalari va professional ta'lim muassasalarida ham faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, tayyorgarlik asosiy standart doirasida ham amalga oshiriladi.

"Bakalavriat tizimida amaliy san'atni o'qitish jarayonida o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash uchun biz oliy san'at maktabida mavjud o'qitish usullarini ko'rib chiqamiz. 1997 yilgi Davlat ta'lim standartida ko'rsatilgan fanlar ro'yxati bilan bog'liq holda shuni ta'kidlash joizki, pedagogik muhit bo'lajak amaliy san'at ustalariga qalamtasvir, rasm va haykaltaroshlikni o'rgatish muammolarini o'rganish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini faollashtirdi.

Amaliy san'at yo'nalishi bo'yicha talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonida rasm o'qitishning"[5] xususiyatlari R. Xasanov, B. Boymetovlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'rganilgan. Mualliflar tarixiy shakllangan rasm usullarini amaliy san'atning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirish, tabiiy obyektlarni ijodiy uslublash va talqin qilish usullarini o'zlashtirish orqali o'rganish zarurligiga e'tibor qaratmoqdalar. Tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan ijodiy vazifalar tabiatni to'g'ridan-to'g'ri takrorlashdan tortib, mustaqil badiiy ijodgacha bo'lgan kognitiv faoliyat darajasini bosqichma-bosqich oshirish talablariga javob beradi. Ular noyob badiiy tasvirni yaratishda o'zlarining vizual qarashlarini aks ettiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, talabalarda ma'lum bir hunar va amaliy san'at (rasm chizish, zardo'zlik, kulolchilik, kashtado'zlik va zargarlik san'ati va boshqalar) bo'yicha ma'lum bir ixtisoslik fanlari katta qiziqish uyg'otadi. "Mualliflar xalq amaliy bezak san'atni o'qitishning ko'p qirrali muammosining turli tomonlarini ochib beradilar, asosiy e'tiborni muayyan muammolarning yechimini topishga qaratadilar. Ijodiy qobiliyatlarni, fazoviy fikrlashni, amaliy san'atning muayyan turlari bo'yicha maxsus ko'nikmalarni rivojlantirish muammolari yuqorida sanab o'tilgan tadqiqotlar oliy o'quv yurtida o'quv jarayonini tashkil etishda yuqori ilmiy, pedagogik va uslubiy ahamiyatga ega ekanligi shubhasiz"[5]. Shu bilan birga, bu usullar faqat alohida didaktik muammolarni hal qiladi. Bundan tashqari,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

maxsus fanlari bo'yicha o'qitish va darslar, mavzular va vazifalarning yangi shakllarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Universitetda to'rt yillik o'qish davomida talabalar ijtimoiy va g'oyaviy munosabatlarni rivojlantirishlari, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatda tajriba orttirishlari kerak. Bu esa birgalikda keyingi kasbiy o'z-o'zini belgilashni ta'minlaydi. Talaba bakalavr bosqichini tugatgandan so'ng magistraturaga, qo'shimcha ta'lim tizimiga o'tishi yoki ba'zan boshqa kasbiy sohada ish topishi mumkin buladi.

"Shuning uchun oliy ta'limning zamonaviy ta'lim standartlarida o'qish vaqtining kamida 40% fakultativ fanlarga va asosiy o'quv dasturini o'zlashtirishning umumiy vaqtining 60% mustaqil ishlarga ajratilgan. Ma'ruza shakli bilan taqqoslaganda, talabalarning mustaqil ishlash vaqti ko'pincha ta'lim sifatini oshirish va mutaxassislarni tayyorlash uchun eng samarali hisoblanadi. Aynan mustaqil ishni tashkil etish hozirgi vaqtda uslubiy yordamni talab qiladigan eng murakkab muammo hisoblanadi. Mustaqil ish muammosi yangilik emas"[5]. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda o'qituvchining rolini aniqlash V. P. Bespalko, N. A. Moreva, N. F. Talizina va boshqalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Olimlarning asarlarida "mustaqil ish" tushunchasi muallifning uning asosiy tarkibiy qismlari – o'quvchilar va o'qituvchilar faoliyati to'g'risidagi tushunchasiga qarab turlicha talqin qilinadi. Masalan, V. I. Zagvyazinskiy ta'rifiga ko'ra; "mustaqil ish talabalarning bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish, o'qituvchining bevosita rahbarligisiz davom etishi" [1, b. 55]. B.P.Esipovning fikricha, mustaqil ish o'qituvchining bevosita ishtiroki talab qilmaydigan o'quv faoliyatidir, lekin aniq belgilangan vazifaga muvofiq amalga oshiriladi. N.V.Chekaleva asarlarida mustaqil ish o'qituvchi tomonidan rejalashtirilgan, tashkiliy va uslubiy jihatdan tushuniladi.

Amaliy jarayon uni badiiy ijodning boshqa turlaridan ajralib turishi, bu amaliy bezak san'ati kompozitsiyasini yaratish jarayonining ko'p bosqichli va hajmliligida namoyon bo'lib turadi. O'quv va ijodiy ishlarning yuqori samaradorligi va davomiyligi bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan holda amaliy bezak ishlarni yaratish jarayoni talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda o'ziga xos yondashuv, shakl va uslublarni talab qiladi. O'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini shakllantirish uchun talabaning mustaqil ishlashi ta'limning barcha bosqichlarida zarur. Amaliy va badiiy bezak san'ati ustalarini tayyorlashda amaliyot yetakchi rol o'ynashi bejiz emas, bu talabalarning amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga, ularni ijtimoiy moslashishi jamoada ishlash qobiliyatini egallashga yordam beradi. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, davlat ta'lim standartlarida belgilangan amaliyotlarning davomiyligi amaliy san'atning barcha xususiyatlarini tushunish uchun etarli deb hisoblaymiz

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Markova, A.K. Psixologiya professionalizma [Tekst] /A.K. Markova. M., 1996. – 306 s.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

2. Kamolov I.B. Amaliy san'atni o'qitishda o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. (Monografiya). Qarshi: Intellekt, 2021.–116 b
3. Kamolov I.B. Some Stages Associated with Artistic and Creative Activity of Future jeweler // Eastern European Scientifik Journal-Ausgabe 1-2017 ISSN2199-7977, P-160
4. Kamolov I.B. Vocational Education of Jewelry Art Students: theoretical foundations // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities Vol.2-2022, ISSN 2749-0866,
5. Kamolov I.B.O'zbek milliy zargarlik san'ati orqali o'quvchilar badiiy estetik tarbiyasini shakllantirish// Ta'lim, fan va innovatsiya. -Toshkent, . 2018. №4. -Б.115-118.
6. Kamolov I.B.O'quvchi-yoshlarda ijodkorlik faoliyatlarini tashkil qilishning asosiy omillari//Uzluksiz ta'lim.- Toshkent, 2018. №5. Б-37.
7. Kamolov I.B. Kasbiy faoliyat jarayonida talabalar ijodiy fikrlash qobiliyatinig shakllanashi va rivojlanashi// "Xalq ta'limi" -Toshkent, 2021, №3. Б-37.
8. Kamolov I.B. Amaliy san'at orqali o'quvchilarning badiiy-estetik tarbiyasini rivojlantirish// Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar.–Buxoro,2022,

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Iftixor Kamolov Baxtiyorovich**, Pedagogika fanlari doktori, professor, **[Ифтихор Камолов Бахтиёрович]**, Доктор педагогических наук, профессор, **[Iftikhor B. Kamolov]**, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, manzil: O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy, pochta indeksi 180100. [адрес: Республика Узбекистан, Кашкадарьинская область, город Карши, улица Кучабог, дом 17, почтовый индекс 180100], [address: Republic of Uzbekistan, Kashkadarya region, Karshi city, Kuchabog street, house 17, postal code 180100].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

MAKTABGACHA YOSHDAGI ALALIK BOLALARNI NUTQINI RIVOJLANTIRISH

© Y.B. Abdiyeva[1]✉
[1]Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi alalik bolalarning nutqiy rivojlanishida kuzatiladigan muammolar, ularning psixologik va fiziologik xususiyatlari hamda ushbu muammolarni bartaraf etish usullari tahlil qilinadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi alaliya tashxisi qo‘yilgan maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy rivojlanishidagi xususiyatlarni o‘rganish, muammolarni aniqlash va ularni tuzatishga qaratilgan samarali metodlarni tavsiya qilishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: maqolani yozishda logopedik adabiyotlar, psixologik tahlillar, kuzatuv natijalari, amaliy tajriba, didaktik va o‘yin texnologiyalariga asoslangan metodlar qo‘llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqotda alaliyaning sabablari, shakllanish mexanizmlari, klinik ko‘rinishlari, fonetik-fonematik kamchiliklar, leksik-grammatik tizimdagi muammolar, shuningdek ichki nutqning shakllanmasligi, dialogik va monologik nutqdagi kamchiliklar tahlil qilindi. Shuningdek, alaliyaning bola psixikasiga, xotira, tafakkur, diqqat, emotsional va ijtimoiy holatiga ta’siri yoritildi. Nutqiy rivojlanish bosqichlari, o‘yin va mashqlar orqali rivojlantirish usullari keltirildi.

XULOSA: alalik bolalarda nutqning rivojlanishi murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, individual yondashuv, tizimli korreksion ishlar va psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali ijobiy natijalar kuzatiladi. Bunday bolalarda nutqning shakllanishi faqat logopedik mashg‘ulotlar bilan emas, balki ongli va maqsadli tarbiyaviy yondashuv orqali qo‘llab-quvvatlanishi zarur.

Kalit so‘zlar: alaliya, maktabgacha yosh, nutqiy rivojlanish, fonematik tizim, bog‘langan nutq, monologik nutq, xotira, tafakkur, logopedik yordam, o‘yin metodi.

Iqtibos uchun: Abdiyeva Y.B. Maktabgacha yoshdagi alalik bolalarni nutqini rivojlantirish.// Inter education & global study. 2025. №3. B.680–689.

РАЗВИТИЕ РЕЧИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

© Ю.Б. Абдиева[1]✉
[1]Ташкентский Международный Университет Кимё, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье рассматриваются проблемы речевого развития дошкольников с диагнозом алалия, их психологические и физиологические особенности, а также методы устранения указанных нарушений.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — изучить особенности речевого развития дошкольников с алалией, выявить проблемы и предложить эффективные методы их коррекции.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: при написании статьи использованы логопедические источники, психологический анализ, результаты наблюдений, практический опыт, а также методы, основанные на дидактических и игровых технологиях.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: в исследовании проанализированы причины возникновения алалии, механизмы её формирования, клинические проявления, фонетико-фонематические нарушения, проблемы в лексико-грамматической системе, а также несформированность внутренней речи, диалогической и монологической речи. Также освещено влияние алалии на психику ребёнка, память, мышление, внимание, эмоциональное и социальное состояние. Представлены этапы речевого развития и методы коррекции с использованием игр и упражнений.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: развитие речи у детей с алалией представляет собой сложный и многоэтапный процесс, при котором положительные результаты достигаются за счёт индивидуального подхода, системной коррекционной работы и психолого-педагогической поддержки. Формирование речи у таких детей должно опираться не только на логопедические занятия, но и на осознанный воспитательный подход.

Ключевые слова: алалия, дошкольный возраст, речевое развитие, фонематическая система, связная речь, монологическая речь, память, мышление, логопедическая помощь, игровой метод.

Для цитирования: Абдиева Ю.Б. Развитие речи детей дошкольного возраста.// Inter education & global study.2025. №3. С. 680–689.

SPEECH DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN

© Yulduz B. Abdiyeva[1]✉
[1]Kimyo International University in Tashkent, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article discusses the challenges of speech development in preschool children diagnosed with alalia, their psychological and physiological characteristics, and methods for addressing these issues.

AIM: the main aim of the study is to explore the specific features of speech development in preschool children with alalia, identify the problems, and recommend effective correction methods.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

MATERIALS AND METHODS: the article is based on speech therapy literature, psychological analysis, observation results, practical experience, and methods using didactic and play-based technologies.

DISCUSSION AND RESULTS: the research analyzes the causes of alalia, its formation mechanisms, clinical manifestations, phonetic-phonemic deficits, lexical and grammatical difficulties, as well as the underdevelopment of inner speech, dialogic and monologic skills. The impact of alalia on the child's psyche, memory, thinking, attention, emotional and social well-being is also discussed. Speech development stages and correctional methods using games and exercises are presented.

CONCLUSION: speech development in children with alalia is a complex and multi-stage process. Positive outcomes can be achieved through individualized approaches, systematic correctional work, and psychological-pedagogical support. The development of speech in such children requires not only speech therapy but also a conscious and targeted educational approach.

Keywords: alalia, preschool age, speech development, phonemic system, connected speech, monologic speech, memory, thinking, speech therapy support, play method.

For citation: Yulduz B. Abdiyeva (2025) 'Speech development of preschool children', Inter education & global study, (3), pp. 680–689. (In Uzbek).

To‘g‘ri nutq bolaning har tomonlama rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Bolaning nutqi qanchalik to‘g‘ri va lug‘ati boy bo‘lsa, unga o‘z fikrlarini bayon qilish shunchalik oson bo‘ladi, atrof – olamni idrok etish uchun imkoniyat kengayadi, kattalar va o‘z tengdoshlari bilan bo‘lgan munosabati to‘liq va mazmunli bo‘ladi, uning psixiq rivojlanishi ham faol ravishda amalga oshadi. Shuning uchun ham bolalarda nutqning o‘z vaqtida shakllanishi haqida, uning sof va to‘g‘riligi haqida qayg‘urish, bola qaysi tilda nutqi shakllanayotgan bo‘lsa, mana shu til normalarida namoyon bo‘luvchi turli nuqsonlarni oldini olish va to‘g‘rilash muhim hisoblanadi.

Nutq buzilishi, nutqiy muomalaning cheklanganligi bola shaxsining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, aslida bo‘lmagan ruhiy buzilishlarini hissiy-irodaviy sohaning o‘ziga xos xususiyatlarini keltirib chiqarishi, uning xarakterdagi salbiy fazilatlarning rivojlanishi uchun yo‘l ochib berishi mumkin.

Bularning barchasi savodxonlikni egallashga, umuman o‘zlashtirishga, kasb tanlashga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bolaning rivojlanishidagi muammolaridan biri – maktabgacha yoshdagi alalik bolalarda nutqiy bulmagan belgilardagi kamchiliklar va ularni bartaraf etishdir.

Hozirgi vaqtda nutq kamchililigiga ega bulgan bolalarda nutq va u bilan birga nutkiy bulmagan belgilardagi kamchiliklarni bartaraf etish muammosi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Alaliya – bolaning ona qornida yoki dastlabki rivojlanish bosqichida nutq shakllanishiga qadar bosh miya qobig‘i nutq doirasining organik jaroxatlanishi oqibatida uzluksiz rivojlanmay qolishdir.

“Alaliya” atamasi (grekcha a-yo‘q, lotincha lalio-nutq) tarjimasi nutqning yo‘qligi, nutqsizlik xolati–nutq buzilishlariga doir adabiyotlarda qadim zamonlardan beri kuzatiladi. Maxsus adabiyotlarda “alaliya” atamasidan tashqari, shu nutq nuqsonini anglatuvchi quyidagi atamalardan foydalanganlar: “Tug‘ma afaziya”, “Ontogenetik afaziya”, “Rivojlanish afaziyasi”, “Disfaziya”, “Nutqiy rivojlanishi sustlashuvi”, “Nutqning konstitusional orqada qolishi”, “Tilni egallashdagi kamchiliklar” va x.k.

Alaliyaning kelib chiqishi va rifojlanish dinamikasini ayrim mualliflar sxemali tarzda quyidagicha ta’rifladilar: u yoki bu sabab bosh miya po‘stlog‘ining butun sensomotor soxasining jaroxatlanishini keltirib chiqaradi. Buning oqibatida total alaliya yuzaga keladi. So‘nggi yillarda miya moddasining rivojlanishi va kompensator omillarning ta’siri ostida jaroxatlanishning asosiy o‘chog‘i po‘stloqning sensor yoki motor soxalari tomoniga suriladi. Shu sababli bola rivojlanishining erta davrlarida alaliyani sensor va motor shakllariga ajratish shartli kechadi, keyinchalik buzilishning yetakchi komponentini ajratish mumkin.

Alaliyali bolalarda nutq apparatining nozik harakat koordinatsiyalari shakllanmaydi. Nutq harakat analizatorining anomitik – sintetik buzilishlari turli ko‘rinishlarga ega: oral apraksiya, ketma-ketlikning buzilishi va hokazo. Bunda kerakli artikulyasiya holatini izlash, ma’lum bir artikulyasiya harakatini bajara olmaslik, ketma-ketlikni egallashda qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu hollarda nutqiy artikulyasiya buzilishlarini belgilovchi harakat buzilishlari yetakchi o‘rin egallaydi. Shuningdek kinetik va kinestetik apraksiyalar oqibatida nutqning fonetik va fonematik tomonlarida kamchiliklar kuzatiladi. Nutq apparatidan bosh miya po‘stlog‘iga boruvchi kinestetik impulslar bilan bog‘liq artikulyasiya harakatlari normal sharoitda tovush tahlili va tavsifi jarayonida muhim o‘rin egallab, so‘zning tovush tarkibini aniqlash, kerakli tovush ketma-ketligini saqlashga yordam beradi. Alaliyada esa bola so‘zning kerakli tovush ketma-ketligini aniqlashga qiynaladi, bir so‘zni ikkinchi bir so‘z bilan almashtira olmaydi. Bu esa parafaziyaning ko‘payishiga, asosiy sabab jarayonlarining harakatchanligining buzilishlaridan dalolat beruvi kamchiliklar, ya’ni perseveratsiya v.k., qo‘zg‘alish va tormozlanish o‘chog‘laridagi kamchiliklarga olib keladi. Buning natijasida esa, bolada eshitish va nutqni tushunish yetarligi saqlangan holda, nutqni mustaqil rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi artikulyasiya muskulaturasining parez va lab paralichlari kuzatilmaganda, nutq mustaqil ravishda rivojlanmaydi, uzoq vaqtgacha u ayrim tovushlar talaffuzi bilan cheklanadi.

Miya po‘stlog‘i rivojlanmaganligi darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, nutq funksiyalarining shakllanmaganligi shunchalik chuqur va qo‘pol bo‘ladi. Artikulyasion praksis buzilishlari va nutqiy harakatlarning orasida bevosita aloqa mavjudligi kuzatilgan, binobarin bir tomondan nutqning fonetik tizimi, ikki tomondan nutqni tushunish, idrok qilish.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Alaliyada mayda artikulyasion harakatlarning buzilishi, nutq harakat analizatori miya tomoni tonusining pasayishiga olib keladi, buning natijasida zaif va nozik kinestetik impulslarni idrok qilish qiyinlashadi va hatto butunlay cheklanadi. Po‘stloq tomonilan faqat birmuncha yirik kinesteziyalar qabul qilinadi va tahlil qilinadi. Buning natijasida, motor alaliyada, gohida o‘ziga qaratilgan nutqni yetarli idrok qilolmaslik, grammatik shakllar va keng yozilgan matnni tushunishni sekinlashuvi va qiyinlashuvi kuzatiladi.

Ko‘pincha, tovushlarni aniq idrok qilolmaganidan bolalar, frazalarning faqat alohida elementlarini ilib oladilar va ularni yagona mazmun tuzilishga bog‘lay olmaydilar. Tushunishning bunday chegaralanganligi asosiy nuqsonning ikkilamchi ko‘rinishi hisoblanadi.

Haddan tashqari kambag‘al faol nutqga ega bo‘la turib, bolalar yetarlicha passif lug‘atga ega bo‘lishlari mumkin. Bir qarashda nutqni tushinish holati shubha tug‘dirmasligi mumkin, ammo nutqning murakkab variantlarini tushunishda baribir ayrim qiyinchiliklar bo‘ladi. Tushunishning turli darajalari aniqlangan: grammatik shakllarni butunlay tushunmaganlikdan, yagona grammatik konstruksiyalarni tushunishdagi alohida qiyinchiliklargacha.

Fonematik tasavvurlarning diffuzligi, tovushni idrok qilish va qayta takrorlashning noaniqligi, so‘zning tovush va bo‘g‘in tarkibida zaif mo‘ljal olishi holatlari, bolalarda, so‘z va iboralarning strukturali shakllanmaganligi, grammatik vositalarni qo‘llashda yetarlicha variativlikning kamligi asosida kuzatiladi.

Alaliyada so‘z va bayonlarning fonematik amalga oshuvi buziladi, nutqni lingvistik bezash shakllanmaydi – tovush-bo‘g‘in va morfem qurilish. Nutqning ritmik kelib chiqishining buzilishi nutq oqimining sekinlashuvida, so‘zlarni bo‘g‘inlab talaffuz qilganda bo‘g‘in va so‘zlar orasidagi pauzalarda namoyon bo‘ladi. Nutq har bir misradagi urg‘uli bo‘g‘inni aniq qilib she’r o‘qish yoki fragmentar (har xil nutqiy bo‘laklarni turlicha uzunlikdagi intervallar bilan bo‘lish) xarakterda bo‘ladi. So‘z va iboralar ritmik strukturasining shakllanmaganligi nutq tempi, ritmi, musiqiyligi buzilishi bilan birgalikda kuzatiladi. Bolalar ritmni ilib olomaydilar va taklif qilingan ritmik suratni chapak chalish, taqillatish bilan amalga oshirib berolmaydilar.

Alaliyada gap tuzilishining shakllanmaganligi, ichki nutqiy operatsiyalarning yetilmaganligi oqibatidir. Ichki operatsiyalar – so‘zlarni tanlash va bayon qilish rejasini tuzish. Bundan tashqari, bolani alohida so‘zlarni amalga oshirish va ularni biriktirish jarayonining o‘zi ham qiynab qo‘yadi. Nutqiy operatsiyalarning shakllanmaganligi (g‘oya, dasturlash, nutqiy materialni tanlash va tarkibga ajratish) shunda namoyon bo‘ladiki, faol fikrni leksik va grammatik to‘g‘ri tashkil qila olmaydi. Gapni leksik-semantik va leksik-grammatik amalga oshirish noto‘g‘ri kechadi, bunda predmetli aloqalarning to‘la emasligi ko‘rinadi (bolaning tevarak atrofdan idrok etgan predmetlari). Bu semantik agrammatizm sifatida baholanadi: so‘z ahamiyatining diffuz kengayishi, assosiativ xarakterdagi almashtirishlar va h.k.

Nutqiy belgilar tizimini egallash imkoniyatining chegaralanganligidan motor alaliyada nutqning nominativ va predikativ funksiyalari aziyat chekadi, yaxlit

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

kommunikativ faoliyat buziladi, shuningdek, nutqni boshqaruvchi va bilish (kognitiv) funksiyasi buziladi. Alaliyada nutq to‘la aloqa vositasi va yakka rivojlanish vositasi bo‘la olmaydi.

Alaliyada nutqning barcha tomonlari va funksiyalarining sistemali rivojlanmaganligi kuzatiladi. Iboralar tuzish va grammatik qurilishni o‘zlashtirishda qiyinchiliklar aniqlangan.

Alaliyada taqlid qilish faoliyatining yetarli rivojlanmaganligi, barcha ixtiyoriy nutq shakllarining to‘liq emasligi kuzatiladi.

Bayon qilish jarayonida barcha operatsiyalarning yetilmaganligiga qarab, tadqiqotchilar nutqiy faoliyat mexanizmida uzatish va qaytish aloqalari tizimini buzilishini ko‘rsatib o‘tdilar, shuningdek ichki dasturlashning buzilishi va bayon qilishni tashqi amalga oshirishning buzilishi ham ta’kidlanadi.

Bog‘langan nutqda gaplarni birlashtirishda bolalar ma’lum qiyinchiliklarga uchraydilar, ularda kontekst tuzish uquvi shakllanmaganligi aniqlangan. Nutq poyma-poy, tushunarsiz, vaqt va sabab-oqibat aloqalari yetishmaydi.

Alaliyali bolalar muloqotning dialogik shaklini yetarlicha egallaganlarida ham bog‘langan mustaqil nutqni kontekst egallashga qiynaladilar.

Nutqning diaologik shakliga nisbatan monologik nutq tashabbuskor hisoblanadi, u boladan til vositalari va fikrlarni to‘g‘ri tanlash uchun muhim bo‘lgan aqliy faoliyatning ma’lum darajada shakllanganligini talab qiladi.

Bog‘langan nutqni egallash uchun bolaning ichki nutqi yetarli rivojlangan bo‘lishi so‘zlarni tanlash, ularni ma’lum tizimda aniqlash, nutqiy muloqot rejasini tuzish talab etadi.

Kontekst nutq boladan nafaqat ichki balki tashqi nutqni (bayonni shakllantirish motivatsiyadan boshlanadi, so‘ng motiv faollik zahirasi sifatida fikr bilan mustahkamlanadi, ichki nutq orqali tashqi bayon amalga oshiriladi) rivojlanishini ham talab etadi. Alaliyada kontekst nutqning shakllanishi buzilgan bo‘ladi.

Alaliyali bolalarda nutqni shakllantirishning boshlang‘ich bosqichlarida bog‘langan shaklda muloqotga ehtiyojning yo‘qligi kuzatiladi. Bu esa umumiy buzilishlar va nutqiy faollik bilan bog‘liq, butun boshlang‘ich bosqich shakllanmaydi. Nutqning yo‘qligi hisobiga paralingvistik vositalardan imo-ishora, mimika, pantomimika, intonatsiya foylaniladi. Bolalar ketma-ket keladigan rasmlar mazmuni bilan mantiqiy tanishtirishda qiyinchiliklarga duch keladilar: ayrimlari rasmlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda taxlay olmasalar, ayrimlari to‘g‘ri ketma-ketlikdagi rasmlarni to‘g‘ri bayon eta olmaydilar.

Kontekst nutqning shakllanmaganligi ichki rejani tashqi nutqda noto‘g‘ri amalga oshirilishi bilan bog‘liq. Bayon qilishning fragmentarligi, maydalashganligi kuzatiladi, bundan tashqari bir tekisdagi ketma-ketlik buziladi, vaziyatning bir yoki bir nechta mantiqiy qatorlarining tushib qolishi, fikrlar tarqoqligi kuzatiladi.

Ketma-ketlik asosida hikoya tuzishdagi qiyinchiliklar sababi emosional omil bo‘lishi ham mumkin. Bola birinchi o‘ringa o‘z o‘tmish amaliyotida duch kelgan yorqin holatni qo‘yishi mumkin. A.R. Luriya bu holatni birlamchi nutq buzilishi emas, balki umumiy faol faoliyatni dasturlashning buzilishlari deb baholaydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Predmetlarning fazoviy munosabatini ifodalovchi murakkab mantiqiy-grammatik konstruksiyalarni egallash bolaga katta qiyinchiliklarni tug‘diradi. Hikoyaning tartibsizligi, ifodalilikning kambag‘alligi, aloqa vositalarining soddaligi va bir turliligi kuzatiladi. Bolalar mavzuni yechib berish uchun muhim bo‘lgan dalillarni tanlashni bilmaydilar, kerakli so‘zlarni topa olmaydilar, ikkilamchi tavsilotlarda turib qoladilar, asosiy mazmunni unutadilar.

Nutqiy imkoniyatlarning rivojlanishi, monologik bayon qilishning sabab-oqibat munosabatlarini egallash natijasida mustaqil nutq birmuncha va to‘g‘rilanadi, lug‘at o‘sadi va murakkablashadi, so‘z va gaplarning tovush-bo‘g‘in tuzilishi yaxshilanadi, turli aloqa ko‘rinishlarini qo‘llash bilan birmuncha murakkablashgan gaplar paydo bo‘ladi.

Bu holda, alaliyali bolalarda nutqning rivojlanmaganligi muloqot motivatsiyasining shakllanmaganligi bilan, faoliyatning turli komponentlari faolligini buzilishi bilan uyg‘unlashadi.

Nutqiy rivojlanmaganlikning turli ko‘rinishlari kuzatiladi: nutqning umuman yo‘qligidan to nutqning qisman buzilishlarigacha.

Rivojlanishning birmuncha yuqori etaplarida, muloqot vaziyatining murakkablashuvida yozma nutqga maxsus tanlangan vazifalarni bajarishdagi har tomonlama ochib beruvchi mukammal nutqda qiyinchiliklar uchraydi. Bog‘langan nutqning mustahkam malakasining yetishmasligi bolada fikrni qisqacha, lo‘nda qilib ifodalash usuli, nutqiy ko‘rinishlarning kambag‘alligi yoki aksincha sernutqlilik, tavtolgiya, bilan niqoblanadi.

Motor alaliya kelib chiqishga ko‘ra bir xil emas. Ayrim hollarda til vositalarini, ya’ni fonematik, leksik va grammatik tarkibiy qismlarini tanlash operatsiyasini shakllanmaganligi kuzatilsa, ayrim hollarda moslashtirish operatsiyasining shakllanmaganligi kuzatiladi.

Nutqiy rivojlanmaganlik ko‘rinishlarida aniqlangan daliliy farqlar ayrim mualliflar tomonidan aynan bir buzilishning turli namoyon bo‘lishi darajasi sifatida ko‘riladi. Ular alaliyani nutqiy rivojlanmaganlik, darajalari bo‘yicha differensirlaydilar va bolaga o‘zining rivojlanish jarayonida bir qator bosqichlardan o‘tadi va bularning har biri uchun o‘z buzilish surati xarakterlidir deb hisoblaydilar.

Alaliyada xotira o‘ziga xos manzara kasb etadi: hajmi, torayadi, hosil bo‘lgan izlarning tez so‘nishi, nutqiy qo‘zg‘atuvchilarni ushlab turishni cheklanganligi v.k. Ayniqsa verbal xotira zaiflashgan bo‘ladi. Verbal xotira harakat, obrazli, emosional xotira turaliradn farqli ravishda insonning o‘ziga xos xotira turi hisoblanadi.

Ko‘rishning mustahkamligida bolalar materialni oson eslab qoladilar, nutq ko‘ruv xotirasi birmuncha rivojlangan bo‘ladi. So‘z tanlashdagi qiyinchilik so‘zni unutish bilan va so‘z strukturasini qayta tiklash qiyinchiligi bilan birga bolaning ixtiyoriy bayon qilish imkoniyatini birdaniga chegaralaydi. Syujet yo‘nalishini eslash jarayonida, hodisalar ketma-ketligida faol yo‘nalganlikning pasayishi, faol kuzatuvchanlikning pasayishi, faol kuzatuvchanlikning yetishmasligi kuzatiladi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Ayrim hollarda bolalarda patologik shaxs xususiyatlari, nevrotik xarakter belgilari rivojlanadi. Bolalarda nutqiy nuqson bilan birgalikda negativizm, o‘z kuchiga ishonmaslik, zo‘riqish holati, tez asabiylashish, hafa bo‘lish, yig‘loqilik va odamovilik hislatlari kuzatiladi. Ayrim bolalar his-hayajonli vaziyatlardagina nutqdan foydalanadilar.

Xato qilib qo‘yish va masxara bo‘lishdan qo‘rqish shunga olib keladiki, bolalar nutqiy qiyinchilikdan aylanib o‘tishga harakat qiladilar, nutqiy muloqotni rad etadilar, imo-ishoralardan ko‘proq foydalanadilar.

Bolaning shaxs xususiyatlari markaziy asab tizimining shakllanmaganligi bilan bog‘liq. Nutqiy nuqsoni tufayli bolalar jamoasidan ajralib qoladi va bu vaqt o‘tishi bilan bolaning ruhiyatiga salbiy ta’sir qiladi. Shuningdek, gnozis, praksis, vaqt sintezi shakllanishida qiyinchiliklar, diqqatning shakllanmaganligi va hajmini torligi, idrok va boshqa psixik faoliyatlarning shakllanmaganligi kuzatiladi.

Alaliyada nutqiy tafakkur o‘ziga xos shakllanadi. Buning uchun to‘laqonli til umumlashmalari va nutqiy tafakkurning o‘sib boruvchi tajribasi muhimdir. Nutq shakllanmaganligi bilan bog‘liq, intellektual faoliyatda kamchiliklar kuzatiladi. Bolalar nutqiy muloqot jarayonida ma’lumotlar, tasavvurlar ololmaydilar, ularda barcha psixik jarayonlarning kechishida o‘ziga xoslik kuzatiladi, ikkinchi qatorda aqliy rivojlanishning orqada qolishi yuzaga keladi.

Ko‘p hollarda alaliyada aqliy rivojlanmaganlik ikkilamchi nuqson bo‘lib keladi. Tadqiqotchilar bilimlar orasidagi ayrim uzilishlar haqida, bolalar fikrlarining aniqligi, qoloqligi haqida ham gapirib o‘tganlar. Intellektual yetishmovchilik yuqori darajadagi toliquvchanlik, diqqatning pasayishi, xotiraning pasayishi, ish qobiliyatining buzilishi bilan murakkablashadi. Nutqiy rivojlanmaganlikni bartaraf etish jarayonida aqliy rivojlanishning kechikishi asta-sekin normaga yetadi.

Alaliyada mantiqiy operatsiyalarning kambag‘alligi, fikrlashning buzilishi, ramziylashtirish qobiliyatining pasayishi, umumlashtirish va mavhumlashtirish, oral va dinamik praksisning buzilishi, akustik gnozisning buzilishi, ya’ni nutq ishtirokini talab qiluvchi intellektual operatsiyalarning pasayishi kuzatiladi. Umumlashtirish darajasining pasayishi o‘yin faoliyatlarida, rol ijro etish uquvining shakllanma-ganligida bolalarning birgalikda o‘ynaladigan o‘yinlarida namoyon bo‘ladi.

Bolalarga vazifalar nutqiy rejada, so‘z ko‘rsatmalari bo‘yicha berilmay ko‘rgazmali taklif etilsa, bolaga vazifani bajarish osonroq bo‘ladi. Bu faoliyatda impulsivlik, tartibsizlik, passivlik, toliqish, predmetli amaliy faoliyat xususiyatlarida o‘z ifodasini topadi.

Bolalarda fazoviy-vaqt munosabatlarining shakllanishida qiyinchiliklar yuzaga keladi, predmetlarning vaqt va fazoviy xususiyatlarini so‘z bilan belgilash va idrok qilish, xotira, idrok, tafakkur operatsiyalari (analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash) buziladi, mantiqiy abstrakt tafakkur darajasi yetarlicha shakllanmagan, ammo bolalar berilgan muhokama usulini aniq saqlaydilar, ishda yordamdan foydalanadilar.

Bolalarda psixofizik qo‘zg‘aluvchanlik yoki tormozlanganlik, kuzatuvchanlikning pasayganligi, motivasion va hissiy-irodaviy sohaning yetishmasligi kuzatiladi. Bolalar uzoq vaqtgacha vazifani bajarishga kirisha olmaydilar, muammoli vaziyatni yuzaki

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

baholaydilar, turg‘un bo‘lmagan qiziqishlarga intellektual passivlikka, bilimlardagi uzilishlarga (nutqiy tajribaning yo‘qligi va bilish faoliyatining chegaralanganligi bilan bog‘liq), o‘ziga xos xulqqa va boshqa bir qator xususiyatlarga egadirlar.

Sust nutqiy faollik umumiy tushunchalar zahirasini cheklaydi. Biroq ko‘pchilik hollarda alaliyali bolalarning oliy asab faoliyatining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, intellektual kamchiliklar ikkilamchi hisoblanadi. Nutqiy jarayonlar va holatlar inson ruhiy faoliyati qurilishi tizimi haqidagi kontekst sifatida ko‘rib chiqiladi. Bunday bilish, hissiy-iroda motivasion jarayonlar bir-biri bilan ajralmas ahamiyat kasb etadi. Bolaning intelektual rivojlanishi ma’lum holda nutqning holatiga ko‘ra belgilanadi. Biroq nutqiy nuqsonlarning vujudligi, aqliy qoloqlikning belgisi emas.

Alaliyada nutqni yo‘qligi yoki to‘liq shakllanmaganligi bola ruhiy rivojlanishiga o‘ziga xos ta’sir etadi va ruhiy jarayonlarni kechishiga ta’sir etib, o‘ziga xos manzara kasb etadi. Alaliyada bolalarda nutq atrof-muhitni bilishning yetakchi vositasi hisoblanmaydi. Shuning uchun qator hollarda intellektning me’yorda rivojlanishini ta’minlay olmaydi. Nutqiy nuqson bilish faoliyatini to‘laqonli rivojlanishni sustlashtiradi.

Alaliyali bolalar tafakkurining holati haqidagi masalalar differensirlashgan holda hal qilinishi lozim, chunki nutqiy rivojlanmaganlikning turli xil variantlari uchraydi va bunda turli darajadagi intellektual yetishmovchilik kuzatiladi: yengil ikkilamchi aqliy rivojlanishning kechikishidan aqliy qoloqlikgacha.

Alaliyali bolalar nutqining rivojlanishi jarayonida muayyan ijobiy dinamikani kuzatish mumkin: bolalar nutq holatining bir darajasidan ikkinchi darajasiga, birmuncha yuqorisiga o‘tadilar. Ular u yoki bu nutqiy ko‘nikma va malakalarni egallaydilar, gapirmay yurishni to‘xtatadilar, biroq nutqi rivojlanmagan bolalar bo‘lib qolaveradilar. Tempi bo‘yicha juda sekinlashgan, ammo shu bilan birga rivojlanishga kirishishida nuqsonlar aniqlanadi. Bu nuqsonlar spontan kompensatsiyaga deyarli “bosh qo‘shmaydilar” va yo‘naltirilgan korreksiyada qiyinchilik bilan bartaraf etiladilar. Ko‘pchilik bolalar alaliyaning barcha shakllari uchun xarakterli bo‘lgan umumiy nuqsonlarga egadirlar: so‘z mazmuni tizimining shakllanmaganligi, grammatik tizim kamchiliklari, semantik nuqsonlar. Bolalarda strukturali-semantik to‘ldirish alohida bayon qilishlari singari bog‘langan nutqda ham buziladi.

Maktab ta’limi jarayonida, yozma nutq uquvi va ko‘nikma-malakalarining shakllanishida ko‘p sonli qiyinchiliklar aniqlanadi; kambag‘al nutqiy amaliyot sababli, til umumlashmalarining shakllanmaganligi sababli savodga o‘rgatishni egallash va grammatikani o‘rganishga tayyorgarlik shakllanmaydi.

Xotirasini rivojlantirishga doir o‘yinlar.

1.Bu o‘yin uchun ba’zi farklari bo‘lgan ikkita “Bir xil rasm kerak bo‘ladi. Avval birinchi rasm ko‘rsatiladi (30 – 50 minut davomida)”, so‘ngra ikkinchi rasm ko‘rsatiladi. Bola ko‘rib bo‘lganidan keyin xotirasi bo‘yicha rasmlardagi farqlarni aytib berishi so‘raladi.

2.Stol ustiga qo‘yilgan predmetlar tasvirlangan rasmlar (10 – 20 sekund davomida) ko‘rsatiladi. Rasmlarni olib qo‘yib, bolaga agarda stolini biron – bir tomonga og‘dirsak rasmlar qanday ketma – ketlikda tushishini eslash taklif etiladi.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

3.Bu o‘yin uchun hisob cho‘plari (10 tadan ko‘p bo‘lmagan) lozim bo‘ladi. Met stol ustiga hisoblash uchun tashlayman. Sen ularni birma – bir hisoblasha ulgrumaysan, shuning uchun ularni ko‘rib nechtaligini “rasmga olish” taklif qilinadi. Stol ustiga cho‘plar tashlanadi 1 – 2 sekunddan so‘ng ularni test qog‘iz bilan yopiladi. Boladan stolda nechta cho‘p borligi so‘raladi.

4.Hisob cho‘plaridan 1 – 3 ta geomtrik shakl yasaladi. 1 – 2 sekunddan so‘ng ularni usti qog‘iz bilan yopialid va shunday shakllarni eslab yasab berish so‘raladi. So‘ngra namuna bilan solishtiriladi.

Top – chi!

Xotira, diqqat va nutqini rivojlantirish uchun didaktik o‘yin.

Bu o‘yin bir bola yoki bolalar guruhi bilan o‘ynash mumkin. Boladan boshqalar topishi uchun xonadagi biron rpedmetni xotirasi bo‘yicha ifodali tasvirlab berish so‘raladi. Bunda ushbu predmetga qarash va uning nomini aytish mumkin emas. Logoped o‘yin qoidasini tushuntirib bergandan so‘ng bolalarning bittasiga toshchani berib o‘yinni boshlashni taklif etadi. Toshni ushlagan bola o‘ylagan predmeti haqida so‘zlaydi. Topshimoq topilgandan so‘ng bola toshni keyingi bolaning qo‘liga beradi. O‘yin har bir bola o‘zining topshimog‘i aytmaguncha davom etadi.

Logoped predmetning muhim belgilari aytilishin kuzatib turadi. Boshqa bolalar yo‘naltiruvchi savol berishlari mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Аюпова М.Ю. Логопедия. - Т.: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти нашриёти, 2022.
2. Волкова Г.А. Логопедическая ритмика. – М.: 2003.
3. Нищева Н.В. Система коррекционной работы в логопедической группе для детей с общим недоразвитием речи. – СПБ.: 2001.
4. Новиковская О.А. Логоритмика для дошкольников в играх и упражнениях. – М.: 2005.
5. Основы логопедии с практикумом по звукопроизношению / под ред. Т.В. Волосовец.- Москва.: Издательский центр «Академия», 2000.
6. Филичёва Т.Б., Чиркина Г.В. Устранение общего недоразвития речи у детей дошкольного возраста / Практическое пособие. – М.: 2004.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Abdiyeva Yulduz Botiraliyevna**, magistr [**Абдиева Юлдуз Ботиралиевна**, магистр], [**Yulduz B. Abdiyeva,** master’s degree]; manzil: Shota Rustaveli Ko'chasi, 156, Toshkent, 100121, [адрес: Улица Шота Руставели, 156, Ташкент, 100121], [address: Shota Rustaveli street, 156, 100121 Tashkent].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

BOSHQARUVNING PSIXOLOGIK TAHLILI: XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA

© K.A. Mamatqulova[1]✉
[1]Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada psixologik boshqaruvning rivojlanish bosqichlari, xususan, Jorj Elton Meyo, Duglas Mak Gregor, Abraham Maslou, Frederik Teylor va Daniel Goulmanning nazariyalariga asoslangan holda, xorij tajribasi tahlil qilinadi.

MAQSAD: psixologik boshqaruvning nazariy asoslarini o‘rganish va ularning zamonaviy boshqaruv hamda yetakchilik amaliyotiga ta’sirini aniqlash.

MATERIALLAR VA METODLAR: maqolada tarixiy manbalar, psixologik nazariyalar va menejment sohasidagi ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlillar natijasida boshqaruvda inson omili, motivatsiya, hissiy intellekt va individual yondashuvlarning samaradorligi asoslab berildi.

XULOSA: xorijiy tajriba asosida psixologik boshqaruv yondashuvlarini o‘rganish rahbarlarga xodimlar bilan samarali munosabat o‘rnatish va jamoaviy faoliyatni takomillashtirishda muhim omil bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Duglas Mak Gregor, “X va Y nazariyalari”, Xotorn tadqiqotlari, HR strategiya, emotsional intellekt, motivatsiya, psixologik boshqaruv.

Iqtibos uchun: Mamatqulova K.A. Boshqaruvning psixologik tahlili: xorij tajribasi asosida// Inter education & global study. 2025. №3. B.690–697.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ УПРАВЛЕНИЯ: НА ОСНОВЕ ОПЫТА ХПРЖ

© К.А. Маматкулова[1]✉
[1]Ташкентский государственный педагогический университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются этапы развития психологического управления, включая анализ зарубежных теорий Джорджа Элтона Мэйо, Дугласа МакГрегора, Абрахама Маслоу, Фредерика Тейлора и Дэниела Гоулмана.

ЦЕЛЬ: изучение теоретических основ психологического управления и выявление их влияния на современную управленческую практику и лидерство.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: использованы исторические источники, теории психологии и научные труды в области управления персоналом.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты анализа показывают эффективность подходов, основанных на мотивации, эмоциональном интеллекте и индивидуальном подходе в управлении.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: изучение зарубежного опыта психологического управления может помочь руководителям выстраивать эффективные отношения с сотрудниками и совершенствовать командную работу.

Ключевые слова: Дуглас МакГрегор, теория X и Y, Хоторнские исследования, HR-стратегия, эмоциональный интеллект, мотивация, психологическое управление.

Для цитирования: Маматкулова К.А. Психологические аспекты управления: на основе опыта хпрж.// Inter education & global study.2025. №3. С. 690–697.

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF MANAGEMENT: BASED ON THE EXPERIENCE OF HRW

© K.A.Mamatqulova [1]✉
[1]Tashkent State Pedagogical University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article analyzes the stages of development in psychological management, focusing on foreign theories by George Elton Mayo, Douglas McGregor, Abraham Maslow, Frederick Taylor, and Daniel Goleman.

AIM: to explore the theoretical foundations of psychological management and determine their influence on modern leadership and management practices.

MATERIALS AND METHODS: the study involved the analysis of historical sources, psychological theories, and academic literature in the field of management.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings confirm the effectiveness of management approaches that emphasize motivation, emotional intelligence, and personalized strategies.

CONCLUSION: studying international experience in psychological management provides valuable insights for leaders to improve communication with staff and enhance team performance.

Keywords: Douglas McGregor, Theory X and Y, Hawthorne studies, HR strategy, emotional intelligence, motivation, psychological management.

For citation: K.A.Mamatqulova. (2025) ‘Psychological aspects of management: based on the experience of hrw’, Inter education & global study, (8), pp. 690–697. (In Uzbek).

Boshqaruv psixologiyasi – boshqaruv maqsadi va vazifalarni amalga oshirish davomida boshqaruv sub’ekti va ob’ekti o‘rtasida yuzaga keluvchi munosabatni talqin

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

etadi . Psixologik boshqaruvning rivojlanishini asosan quyidagi bosqichlarga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. *Qadimgi zamonlar (miloddan avvalgi davrlar).* Qadimgi Misr, Xitoy, Yunoniston va Rimda boshqaruvning ilk shakllari paydo bo‘lgan. Ushbu davrlarda boshqaruv asosan avtoritar (hokimiyatning markazlashganligi) va ierarxik tartibga asoslangan.

Konfutsiy (miloddan avvalgi 551–479 yillar) Xitoyda ijtimoiy tartibning asosini tashkil etuvchi etik-ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qilgan. Uning ta’limotida rahbarning timsoli va odob-axloqi jamiyatning barqarorligi uchun asosiy deb hisoblanadi.

Qadimgi Yunonistonda Platon va Aristotel kabi faylasuflar ijtimoiy tartib va boshqaruvning falsafiy asoslarini ishlab chiqdilar.

2. *O‘rta asrlar (V–XV asrlar).* O‘rta asrlarda boshqaruv asosan diniy ta’limotlar (masalan, xristianlik va islom) ta’sirida shakllandi. Cherkov va davlat bir-biri bilan uzviy bog‘lik bo‘lib, ijtimoiy tartibni saqlashda muhim rol o‘ynadi.

Islom olamida xalifat tizimida boshqaruvning ilk nazariyalari shakllandi. Masalan, Ibn Xaldun (1332–1406 yillar) ijtimoiy tartibning rivoji va inqirozini tahlil qilib, boshqaruvning ilmiy asoslarini yaratdi.

3. *Yangi zamon (XVI–XIX asrlar).* Renessans va Ma’rifat davri (XVI–XVIII asrlar) boshqaruvning ilmiy asoslarining shakllanishiga olib keldi. Insonning aql-zakovati va erkinligiga e’tibor kuchaydi.

San’at inqilobi (XVIII–XIX asrlar) bilan birga boshqaruvning zamonaviy shakllari paydo bo‘ldi. Frederik Teylor (1856–1915 yillar) “Ilmiy boshqaruv” nazariyasini ishlab chiqdi, unda ishchilarning samaradorligini oshirish uchun ish jarayonini takomillashtirish targ‘ib etildi. Anri Fayol (1841–1925 yillar) boshqaruvning beshta asosiy funksiyasini (rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish, uzluksizlik va nazorat) ta’rifladi.

4. *XX asr: Psixologik boshqaruvning shakllanishi.* Jorj Elton Meyo (George Elton Mayo, 1880–1949) – avstraliyalik psixolog, sotsiolog va menejment bo‘yicha tadqiqotchi bo‘lib, inson munosabatlari nazariyasi (Human Relations Theory) asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning tadqiqotlari mehnat unumdorligi, ishchilar motivatsiyasi va jamoa munosabatlari sohasida inqilobiy ahamiyat kasb etgan.

Jorj Elton Meyoning Xotorn tadqiqotlari (1924–1932) boshqaruvda insonning psixologik omillariga e’tiborni kuchaytirdi. Xotorn tadqiqotlari 1924-1932 yillar oralig‘ida Western Electric kompaniyasining Xotorn (Hawthorne) zavodlarida o‘tkazilgan tadqiqotlar to‘plami bo‘lib, ular ishchilarning mehnat unumdorligiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganishga qaratilgan. Bu tadqiqotlar sanoat psixologiyasi va ish joyidagi inson xulq-atvorini o‘rganish borasida muhim ahamiyat kasb etgan. Tadqiqot maqsadi ishchi muhiti (chiroq yorug‘ligi, ish soati taqsimoti, dam olish vaqtlari) ishchilar samaradorligiga qanday ta’sir qilishini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqot natijalari shundan dalolat berdiki: Oddiy sharoitda ishchilar o‘z vazifalarini belgilangan me’yorlar asosida bajaradi. Lekin, agar ular rahbarlar yoki tadqiqotchilar tomonidan kuzatilayotganini bilsa, o‘zlarini yaxshi tomonga o‘zgartirishga,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ishlayotganligini ko‘rsatishga harakat qiladi. Bu jarayon ishchilarning ishga munosabati, mas’uliyati va faoliyatiga bevosita ta’sir qiladi.

Darhaqiqat Xotorn tadqiqoti davomida turli omillar (masalan, yorug‘lik darajasi, dam olish vaqtini o‘zgartirish) sinab ko‘rilgan. Ammo aniqlandiki, muhitni o‘zgartirishdan qat’i nazar, asosiy omil ishchilarning o‘zini kuzatilayotganini his qilishidir. Masalan, yorug‘lik oshirilganda ham, kamaytirilganda ham ish samaradorligi oshgan. Demak, muhim faktor faqat tashqi muhit emas, balki ishchilarning motivatsiyasi va ijtimoiy munosabatlari ekan.

Xotorn tadqiqoti tahlilidan ko‘rishimiz mumkinki Xodimlar bir guruhda ishlaganda, ular bir-birini kuzatadi va ishlash tartibiga, qoidalariga amal qilishga harakat qiladi. Bu holatda guruh dinamikasi ish unumdorligiga katta ta’sir qiladi.

Darhaqiqat, menejerlar va rahbarlar xodimlar bilan muloqotni kuchaytirganda, ularning motivatsiyasi oshadi. Masofaviy ishlash davrida ya’ni xodimlar o‘z faoliyati kuzatilmayotganini his qilganda, samaradorlik kamayishi mumkin. Undan tashqari KPI yoki bonus tizimi (agar xodimlar o‘zlarini baholanishi yoki mukofotlanishini bilsa, ko‘proq harakat qilishadi). Demak, Xotorn effekti shundan iboratki, odamlar ularga e’tibor qaratilayotganini his qilganda, o‘zini yaxshi tomonga ko‘rsatish uchun ko‘proq mehnat qiladi. Bu nazariya psixologiya, menejment va inson resurslari boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xotorn tadqiqotlaridan xulosa qiladigan bo‘lsak bizningcha:

– odamlar faqat moddiy omillar bilan emas, balki ijtimoiy va psixologik omillar bilan ham boshqariladi. Ishchilar guruh sifatida qaror qabul qiladi – ularning xulq-atvori jamoaviy normalarga bog‘liq.

– rahbarlar va ishchilar o‘rtasidagi munosabatlar muhim – ishchilar o‘zlarini qadrlangan his qilsalar, mehnat unumdorligi ortadi.

– ish muhitiga qo‘shimcha e’tibor berish (masalan, ishchilarga fikrini bildirish imkoniyati berish) samaradorlikni oshiradi. (birinchi bob xulosamga olaman)

Abraxam Maslou (Abraham Maslow, 1908–1970) – amerikalik psixolog bo‘lib, gumanistik psixologiya va Maslou ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi bilan tanilgan. U inson motivatsiyasi va shaxsiy rivojlanishini o‘rganib, psixologik ilmiy tadqiqotlarga katta hissa qo‘shgan. Maslou inson ehtiyojlarini beshta asosiy darajaga bo‘lib, ularni piramida shaklida tasvirlagan[1]. Unga ko‘ra, odamlar yuqori ehtiyojlarga erishishdan oldin quyi ehtiyojlarini qondirishlari kerak.

Fiziologik ehtiyojlar (Basic Needs)

Ovqat, suv, uyqu, nafas olish, jinsiy ehtiyojlar. (Bu inson hayoti uchun eng asosiy zarur ehtiyojlardir).

Xavfsizlik ehtiyojlari (Safety Needs)

Jismoniy va moliyaviy xavfsizlik, uy-joy, sog‘liq. (Inson o‘zini xavfsiz his qilmasa, yuqori ehtiyojlarga intila olmaydi).

[1] Maslow A.H., Motivation and Personality. 1954.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Muhabbat va ijtimoiy munosabatlar (Love & Belonging Needs)

Do‘stlik, oila, jamiyatga mansublik. (Inson ijtimoiy mavjudot bo‘lgani uchun, u muhabbat va munosabatlarga muhtoj).

Hurmat va e’tirof (Esteem Needs)

Kuchlilik, muvaffaqiyat, o‘z-o‘ziga ishonch, boshqalar tomonidan qadrlanish. (Inson o‘zini qadrli va muhim his qilishni istaydi).

O‘z-o‘zini rivojlantirish (Self-Actualization)

O‘z qobiliyatlarini rivojlantirish, shaxsiy maqsadlarga erishish, ijodkorlik. (Bu insonning eng yuqori ehtiyoj darajasi bo‘lib, u o‘z potensialini to‘liq rivojlantirishga intiladi).

Maslou nazariyasining ahamiyati shundaki menejment va HR – xodimlarning motivatsiyasi ularning qaysi ehtiyojlariga asoslanganini tushunish uchun qo‘llaniladi. Ta’limda esa, o‘quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olish o‘qitish samaradorligini oshiradi. Psixologiya va terapiyada esa, insonning shaxsiy rivojlanish jarayonlarini tushunishga yordam beradi.

Demak, Maslou inson ehtiyojlari va motivatsiyasini tushunishga katta hissa qo‘shgan. Uning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi hozirgi kunda ham menejment, psixologiya va ta’lim sohalarida keng qo‘llaniladi.

Duglas Mak Gregor (1906–1964) – amerikalik menejment mutaxassisi va psixolog bo‘lib, Ishchi xulq-atvori va rahbarlik uslublariga oid tadqiqotlari bilan tanilgan. Uning eng mashhur nazariyasi “X va Y nazariyalari” bo‘lib, bu nazariya rahbarlarning xodimlarga bo‘lgan munosabati va ularni boshqarish usullarini tasvirlaydi.

“X va Y nazariyalari” (Theory X and Theory Y) Mak Gregor xodimlarning mehnatga munosabati va ularni boshqarish yo‘llarini ikki qarama-qarshi yondashuv orqali tushuntirgan. Jumladan: X nazariyasi (Theory X) – Avtoritar (avtokratik) yondashuv. Bu nazariyaga ko‘ra, odamlar ishlashni yoqtirmaydi va jazo qo‘llanmasa ishlashmaydi. Shuning uchun rahbarlar qat’iy nazorat va jazo orqali ularni ishlatishi kerak. X nazariyasining asosiy xususiyatlari:

- odamlar tabiatan dangasa va ishlashni yoqtirmaydi.
- ular faqat maosh va moddiy mukofot uchun ishlaydi.
- mas’uliyatdan qochishadi va rahbarlar tomonidan qattiq nazorat qilinishi kerak.
- jazo va mukofot tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lishi shart.

Bugungi kunda qaysi tashkilotlar X nazariyasiga asoslanib faoliyat olib boradi masalan avtokratik boshqaruvga ega tashkilotlar (armiya, fabrikalar, ishlab chiqarish tizimlari).

Y nazariyasi esa, (Theory Y) – Demokratik (har bir ishchini rivojlantirishga asoslangan) yondashuv xisoblanib, nazariyaga ko‘ra, odamlar mehnat qilishni yoqtiradi va o‘z vazifalariga mas’uliyat bilan yondashadi. Agar ularga erkinlik berilsa va rivojlanish imkoniyati yaratilsa, mehnat unumdorligi oshadi. Y nazariyasining asosiy xususiyatlariga

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

to‘xtaladigan bo‘lsak, odamlar tabiatan ishlashga qiziqadi va rivojlanishga intiladi. Ularga ishonch bildirilsa, o‘z vazifalarini bajarishda mas’uliyatli bo‘ladi.

Shuningdek, agar xodimlar uchun shart-sharoit yaratilsa, ishdan zavq oladi va samaradorlikni oshiradi. Nazariyaning yana bir xususiyati motivatsiya faqat pul bilan emas, taqdirlash, ijtimoiy e’tirof va shaxsiy rivojlanish orqali oshirilishi mumkin deb ta’kidlanishidadir.

Bugungi kunda Y nazariyasiga asoslanadi faoliyat yuritayotgan katta tashkilotlar qaysilar albatta, ular zamonaviy innovatsion kompaniyalar (Google, Tesla, Apple)dir. Shuningdek, ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar.

Demak, Mak Gregor nazariyasidan shuni anglashimiz mumkinki:

– menejment strategiyasini shakllantirishda tashkilot rahbarlari ishchilarni boshqarishda qaysi yondashuv samarali ekanligini anglashi zarur;

– motivatsiya tizimini yaratishda har bir xodimning mehnatga munosabati turlicha bo‘lishi mumkin, shuning uchun individual yondashuv muhim degan xulosaga kelish mumkin.

Tadqiqot tahlili shuni ko‘rsatadiki, Duglas Mak Gregorning “X va Y nazariyalari” zamonaviy menejment va HR strategiyalariga katta ta’sir qilgan. X nazariyasi katta nazorat va avtoritar boshqaruvni ko‘zda tutadi, Y nazariyasi esa ishchilarning shaxsiy tashabbusini qo‘llab-quvvatlashga asoslangan. Hozirgi zamonaviy tashkilotlar asosan Y nazariyasi bo‘yicha ishlaydi, chunki ijodkorlik, innovatsiya va xodimlarning shaxsiy rivojlanishi muhim ahamiyatga ega.

XXI asrda psixologik boshqaruv asosan emotsional intellekt, ijtimoiy mahorat va innovatsiyalarga asoslangan. Deniel Goulman emotsional intellektning rahbarlikdagi ahamiyatini alohida ta’kidlagan.

Deniel Goulman (Daniel Goleman, 1946-y.) – amerikalik psixolog, yozuvchi va jurnalist bo‘lib, u emotsional intellekt (EQ) haqidagi tadqiqotlari bilan mashhur. Uning “Emotsional intellekt” (Emotional Intelligence, 1995) kitobi butun dunyo bo‘ylab katta ta’sir ko‘rsatgan va biznes, psixologiya hamda shaxsiy rivojlanish sohalarida keng qo‘llaniladi.

Emotsional intellekt (EQ) nazariyasi Goulmanga ko‘ra, inson muvaffaqiyati faqat aqliy intellekt (IQ) bilan emas, balki emotsional intellekt (EQ) bilan ham bog‘liq. Emotsional intellekt – bu o‘z hissiyotlarini anglash, boshqarish va boshqalarning hissiyotlarini tushunish qobiliyatidir. Goulman emotsional intellektni beshta asosiy komponentga ajratadi:

O‘z hissiyotlarini anglash (Self-Awareness)

– kim ekanligini, qanday hissiyot kechirayotganini va ularning ta’sirini tushunish;

– kuchli va kuchsiz tomonlarini aniq bilish.

O‘z-o‘zini boshqarish (Self-Management)

– hissiyotlarini nazorat qilish va stressga qarshi turish qobiliyati.

– sabr-toqatlilik, o‘zini tuta bilish va bosiqlik.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Ijtimoiy ong (Social Awareness)

– boshqalarning hissiyotlarini tushunish (empatiya).
– jamoa muhitini his qilish va ijtimoiy vaziyatga mos harakat qilish.

Munozara va munosabatni boshqarish (Relationship Management)

– boshqalar bilan samarali muloqot qilish.
– jamoa bilan ishlash, yetakchilik va mojarolarni hal qilish qobiliyati.

Motivatsiya (Motivation)

– uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun ichki kuch va intilish.
– materiallikdan ko‘ra shaxsiy o‘sish va o‘zini rivojlantirishga yo‘nalish.

Zamonaviy menejerlar va yetakchilar uchun emotsional intellekt muhimdir, chunki u jamoada yaxshi muhit yaratishga yordam beradi. Munosabatlarni yaxshi boshqara oladigan rahbarlar samaraliroq bo‘ladi. Maktablarda o‘quvchilarni faqat fanlarga emas, balki emotsional kompetensiyalarga ham o‘rgatish kerak. Ta’lim jarayonida empatiya va munosabatlar ustuvor ahamiyatga ega. Ko‘plab muvaffaqiyatli odamlar emotsional intellektlari yuqori bo‘lgani uchun katta natijalarga erishadi. EQ yuqori odamlar stressga chidamli va muvaffaqiyatga osonroq erishadi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, yuqori IQ muvaffaqiyatni 20% tashkil qilsa, yuqori EQ esa 80% ni tashkil qiladi. Zamonaviy HR va yetakchilik modellarida IQ emas, balki EQ ustuvor sanaladi. Odamlar bilan munosabatlarini yaxshi boshqara oladigan shaxslar ko‘p hollarda muvaffaqiyatliroq bo‘ladi.

Barchamizga ma’lumki psixologiyada boshqaruv faoliyati va uni tashkil etish masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish, o‘rganish F.U.Teylor nomi bilan bog‘liqdir. U (1856–1915) – ilmiy boshqaruv maktabi asoschisi bo‘lib, uning nazariyasi mehnat jarayonini samarali tashkil etishga qaratilgan. U boshqaruv psixologiyasiga katta hissa qo‘shgan va ilmiy boshqaruv prinsiplarini ishlab chiqqan. Teylorning boshqaruv psixologiyasiga qo‘shgan hissasiga to‘xtaladigan bo‘lsak:

teylor ish jarayonlarini tahlil qilib, ularni standartlashtirishni taklif etgan;

har bir ishchining samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqarish usullarini yaxshilashga uringan;

ishchilarning mehnat unumdorligini oshirish uchun moddiy rag‘batlantirish (pul mukofotlari) usulini ilgari surgan[2].

Teylor fikriga ko‘ra, ishchilar to‘g‘ri rag‘batlantirilsa, ularning mehnat unumdorligi ortishini alohida ta’kidlagan. Har bir xodimga uning qobiliyatiga mos ravishda vazifa berish kerakligi ta’kidlangan. Bu usul ish jarayonini optimallashtirishga yordam beradi. Ish jarayonlarini aniq belgilash va standartlarni joriy etish orqali samaradorlik oshiriladi. Bu ishchilarning vaqt va kuch sarflashini tejashga yordam beradi.

Shuningdek, boshqaruv va ishchilar o‘rtasida samarali munosabat o‘rnatish va hamkorlik qilish kerakligi ta’kidlangan. Boshqaruv faqat nazorat emas, balki mehnat jarayonini samarali tashkil etish vositasi sifatida qaralgan. Undan tashqari Teylor

[2] Тейлор Ф.У. Менеджмент: Пер. с англ. М.: Контроллинг, 2004. – С.44

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

“Menejment” asari orqali boshqaruv faoliyatining juda ko‘plab masalalariga oydinlik kiritib berdi . (Shonazarovda olingan)

N.N. Kozakning tadqiqotlarini o‘rganilganda uning fikricha boshqaruv uslubi – bu rahbar harakatining qo‘l ostidagilar xatti-harakatlari bilan muvofiqligi demakdir. Shuningdek, rahbarning muvaffaqiyati ko‘pincha: - vazifaning mazmuni va uni hal qilish muddati; - rahbarning shaxsiyati; - yetakchilik uslubi; - jamoaning xususiyatlari yoki unga bo‘ysunuvchining tabiati; - mavjud vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlari va boshqa holatlarga bog‘liqligini alohida e’tirof etgan[3].

Xulosa qiladigan bo‘lsak, boshqaruvning psixologik tahlili va xorij tajribasini o‘rganish rahbarlarga xodimlar bilan samarali munosabat o‘rnatish, ularning ehtiyoj va qobiliyatlarini inobatga olgan holda boshqaruv uslubini tanlash, jamoaning umumiy samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Maslow A.H., Motivation and Personality. 1954.
2. Teylor F.U. Menedjment: Per. s angl. M.: Kontrolling, 2004. – S.44
3. Kozak N.N. Stil upravleniya i etika top-menedjera. Biblioteka top- menedjera [Elektronnыy resurs]. –M.: «Izdatelskie resheniya», 2016. 264– 80 s. // https://www.libfox.ru/649858-n-kozak-stil-upravleniya-i-etika-top- menedzhera-biblioteka-top-menedzhera.html
4. Shepel V.M. Upravlencheskaya psixologiya. – M.: Ekonomika, 1994, - 248

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **K.A. Mamatqulova**, dotsent, p.f.f.d., (PhD) [**К.А. Маматкулова**, доцент, (PhD)], [**K.A. Mamatqulova** associate professor, doctor of technical sciences, (PhD)]; manzil: Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor ko’chasi 27 uy., [адрес: Г. Ташкент, Чиланзарский район, ул. Бунедкор, дом 27], [address: Tashkent, Chilanzar district, Bunyodkor St., 27]

[3] Козак Н.Н. Стил управления и этика топ-менеджера. Библиотека топ- менеджера [Электронный ресурс]. –М.: «Издательские решения», 2016. 264– 80 с. // https://www.libfox.ru/649858-n-kozak-stil-upravleniya-i-etika-top- menedzhera-biblioteka-top-menedzhera.html

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

AUTIZMLI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA O‘YIN FAOLIYATINING TA’SIRI

© M.M. Raxmonova[1]✉
[1]Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada autizmli bolalarning nutq rivojlanishidagi muammolar va o‘yin faoliyatining bu jarayonga ta’siri tahlil qilinadi. Autizmning xususiyatlari, muloqotdagi cheklovlar hamda nutqiy va ijtimoiy rivojlanishdagi orqalanishlar yoritiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi — o‘yin terapiyasining autizmli bolalar nutqini rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlash va bu usul orqali kommunikativ hamda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish yo‘llarini ko‘rsatishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda ilmiy adabiyotlar tahlili, logopedik va kommunikativ mashg‘ulotlar, shuningdek, o‘yin terapiyasi metodlari asosida amaliy yondashuvlar o‘rganildi. Maxsus o‘yinlar va mashqlar orqali autizmli bolalarning nutqiy faoliyatiga ta’siri baholandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: o‘yin faoliyati bolalarda nutqni shakllantirish, savol-javob qilish, ijtimoiy signallarni tushunish va yuz ifodalarini aniqlashda samarali vosita bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, individual yondashuv, vizual vositalar va interaktiv metodlar orqali ijobiy natijalarga erishildi.

XULOSA: Autizmli bolalarda nutqiy rivojlanish o‘ziga xos va murakkab kechadi. O‘yin terapiyasi orqali bolalarning nutqiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, kommunikativ faoliyatini oshirish va mustaqil muloqotga o‘rgatish mumkin. Bunda individual yondashuv va maxsus metodlar muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: autizm, nutq rivojlanishi, o‘yin terapiyasi, kommunikatsiya, logopedik mashg‘ulotlar, ijtimoiy ko‘nikmalar, pedagogik yondashuv

Iqtibos uchun: Raxmonova M.M. Autizmli bolalar nutqini rivojlantirishda o‘yin faoliyatining ta’siri.// Inter education & global study. 2025. №3. B.698–704.

ВЛИЯНИЕ ИГРОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА РЕЧЕВОЕ РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ С АУТИЗМОМ

© М.М. Рахмонова[1]✉
[1]Ташкентский Международный Университет Кимё, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются особенности развития речи у детей с аутизмом и влияние игровой деятельности на этот процесс. Раскрываются трудности коммуникации, задержки в речевом и социальном развитии.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — выявить эффективность игровой терапии в развитии речи у детей с аутизмом, а также показать способы формирования коммуникативных и социальных навыков.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использован анализ научной литературы, логопедических и коммуникативных занятий, а также методы игровой терапии. Оценивалось влияние специальных игр и упражнений на речевую активность детей с аутизмом.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: игровая деятельность оказалась эффективной в формировании речевых навыков, умении задавать вопросы и понимать социальные сигналы. Индивидуальный подход, визуальные средства и интерактивные методы привели к положительным результатам.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: речевое развитие детей с аутизмом имеет особенности и требует специального подхода. Игровая терапия способствует развитию речевых и социальных навыков, повышает коммуникативную активность и способствует самостоятельному общению.

Ключевые слова: аутизм, развитие речи, игровая терапия, коммуникация, логопедические занятия, социальные навыки, педагогический подход.

Для цитирования: Рахмонова М.М. Влияние игровой деятельности на речевое развитие детей с аутизмом.// Inter education & global study.2025. №3. С. 698–704.

THE INFLUENCE OF PLAY ACTIVITIES ON THE SPEECH DEVELOPMENT OF CHILDREN WITH AUTISM

© Manzura M. Raxmonova[1]✉
[1]Kimyo International University in Tashkent, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article discusses the peculiarities of speech development in children with autism and the impact of play activities on this process. It highlights communication difficulties and delays in speech and social development.

AIM: the main aim of the study is to determine the effectiveness of play therapy in developing speech in children with autism and to demonstrate ways to foster communication and social skills.

MATERIALS AND METHODS: the study includes analysis of scientific literature, speech and communication practices, and play therapy methods. The impact of special games and exercises on the speech activity of children with autism was evaluated.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

DISCUSSION AND RESULTS: play activities proved effective in developing speech skills, facilitating question-answer abilities and recognition of social signals. Individual approach, visual aids, and interactive methods contributed to positive outcomes.

CONCLUSION: speech development in children with autism is specific and complex. Through play therapy, it is possible to improve their speech and social skills, enhance communication abilities and encourage independent interaction. Individualized approaches and specialized techniques are essential.

Keywords: autism, speech development, play therapy, communication, speech therapy, social skills, pedagogical approach.

For citation: Manzura M. Raxmonova. (2025) 'The influence of play activities on the speech development of children with autism', Inter education & global study, (3), pp. 698–704. (In Uzbek).

Autizm miyaning rivojlanishi yoki ishlashidagi buzilish natijasida yuzaga keladi. Odatda autizmning dastlabki belgilari 2 yoshli bolalarda namoyon bo‘ladi. Ko‘pgina hollarda, bu kasallik tug‘ma hisoblanadi. Tibbiy tasnif autizmni asab tizimining kasalliklari deb tasniflaydi, ammo autizm kasallik emas, balki rivojlanishdagi alohida holat degan fikr mavjud. Kasallik o‘g‘il bolalarda qizlarga qaraganda 4 baravar ko‘proq aniqlanadi.

Erta bolalik autizmi quyidagicha namoyon bo‘ladi:

1. Ijtimoiy ko‘nikmalar buzilishining belgilari: muloqot qilish istagi va tengdoshlariga qiziqish yo‘qligi; atrofdagi odamlarning borligi va hissiyotlariga e'tibor bermaslik; rivojlanishning dastlabki bosqichi uchun normal bo‘lgan taqlid funksiyasining yo‘qligi. Bolalar ota-onalarining yuz ifodalarini takrorlashmaydi, javoban tabassum qilmaydi, kattalarning imo-ishoralarini takrorlamaydi yoki ongli ravishda qilmaydi, bolalar o‘zlarining muammolari va fikrlarini ota-onalari bilan bo‘lishmaydilar.

2. Nutq va nutq bo‘lmagan aloqa rivojlanishidagi muammolar: nutqning yetishmasligi;yuz ifodalari va imo-ishoralarning yetishmasligi; bola ko‘z bilan aloqa qilishdan qochadi, suhbatdoshga tabassum qilmaydi; nutq rivojlangan, ammo bola boshqalar bilan aloqa qilmaydi, ularga javob bermaydi; bola iboralarni yoki individual so‘zlarni takrorlaydi (Kanner tasnifiga ko‘ra “gramofon” yoki “ to‘tiqush” nutqi); nutqdagi fonetik buzilishlar. Autistlar intonatsiya bilan bog‘liq muammolarga duch kelishadi, nutq monoton yoki ritmik jihatdan noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin.

3. Stereotipik xatti-harakatlarning sababi bo‘lgan tasavvur rivojlanishidagi muammolar: asabiy xatti-harakatlar; begonalashish; bola yolg‘iz o‘ynashni yaxshi ko‘rishi; o‘yinlarni, xayoliy voqealarni ixtiro qilishga qiziqish yo‘qligi; bola bitta o‘yinchoq yoki narsaga bog‘lanib qoladi va u bilan ajralmaydi, doimo qo‘lida ushlab turishga intiladi; bola diqqatini faqat bir narsaga qaratadi.

Autizm 1 yoshgacha bo‘lgan bolalarda va hayotning keyingi ikki-uch yilida shunday namoyon bo‘ladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Bolalarda autizm uchun zarur bo‘lgan davolanish quyidagilarni o‘z ichiga oladi: xulq-atvor terapiyasi dasturlari; “rivojlanish modellari”dan foydalanish; logoped terapiyasi; ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatish; mehnat terapiyasi; antidepressantlar; antipsixotiklar; talvasaga qarshi preparatlar.

Autizmdan to‘liq davolanish deyarli mumkin emas. Remissiya faqat 5% hollarda sodir bo‘ladi.

Nutq terapevtlari autizmli bolaga boshqalar bilan muloqot qilish va muloqot qilishni o‘rganishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Vaziyatga (maktab, uy, ofis) qarab, terapevt individual yoki guruh bilan ishlashi mumkin. Bolaning qo‘llab-quvvatlash ehtiyojlariga qarab, terapevt quyidagi ko‘nikmalarning biriga yoki barchasiga e'tibor qaratishi mumkin:

Og‘zaki bo‘lmagan aloqa: imo-ishora tilini o‘rgatish yoki Picture Exchange Systems, elektron nutq qurilmalari va boshqa og‘zaki bo‘lmagan aloqa vositalaridan foydalangan holda treningni o‘z ichiga olishi mumkin.

Yuz ifodalari: Boshqa odam hazillashayotganini yoki jiddiyligini qanday aniqlash mumkin? Suhbatga qachon qo‘shilishingiz mumkin va suhbat qachon yopiq? Nutq terapevtlari bolalarga nozik belgilar va signallarni tan olishga o‘rgatishlari mumkin.

Savol bering va javob bering: Otistik bolalar nutq terapevti yordamisiz savol bera olmaydi va javob bera olmaydi. Terapevt bolangizga savolni tushunishga va tegishli javoblarni berishga o‘rgatishi mumkin. Shuningdek, u bolangizga o‘z savollariga javoblarni shakllantirish, so‘rash va tushunishga yordam beradi.

Nutq pragmatikasi: “Xayrli tong” deyishni bilish yaxshi. Lekin buni qachon, qanday va kimga aytishni bilish ham muhimdir. Til pragmatikasiga amal qilish, shuningdek, bolangizga idiomalarning ma'nosini tushunishga yordam beradi (ba'zan autistik odamlar uchun qiyin) va ulardan o‘zlari foydalanishlari mumkin.

Prosodiya: “prosodiya” atamasi suhbatda ko‘tarilgan va pasaygan ovozning melodik tovushini anglatadi. Otistik odamlarda yassi prosodiya bo‘lishi mumkin, bu esa boshqalarni his-tuyg‘ularini boshdan kechirmasliklariga ishonishlariga olib kelishi mumkin. Nutq terapevtlari autizmli bolalarga ovoz ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Grammatika: Ba'zi autistik bolalar, hatto uyda yoki maktabda modellashtirilgan bo‘lsa ham, to‘g‘ri grammatikadan foydalanishda muammolarga duch kelishi mumkin. Ular o‘zlariga uchinchi shaxsda murojaat qilishlari mumkin (“Jonni sharbatni xohlaydi”) yoki noto‘g‘ri zamonlardan foydalanishi mumkin. Nutq terapevtlari ko‘pincha autizmli bolalar bilan grammatik xatolarni tuzatishga yordam berish uchun ishlaydi.

Suhbat qobiliyatlari: Bayonot qilish qobiliyati suhbatni davom ettirish qobiliyatini anglatmaydi. Nutq terapevtlari ba'zan “qo‘shma e'tibor” deb nomlanuvchi o‘zaro almashinuv ustida ishlashi mumkin.

Kontseptual ko‘nikmalar: Shaxsning mavhum tushunchalarni ifodalash qobiliyati har doim ham ularni tushunish qobiliyatini aks ettirmaydi. Otistik odamlar ko‘pincha “oz”, “adolat” va “erkinlik” kabi g‘oyalar bilan qiynaladi. Nutq-til patologlari kontseptual ko‘nikmalarni rivojlantirish ustida ishlashlari mumkin.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Ijtimoiy ko‘nikmalar: Masalan, o‘yin terapiyasi, kasbiy terapiya va dam olish, drama va art terapiya bilan bir qatorda, nutq terapevtlari ko‘pincha autizmli odamlarga ijtimoiy muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday ko‘nikmalarga suhbatdoshdan etarlicha masofada turish, suhbatdoshning “kayfiyatini” baholash va boshqalar kiradi.

Nutq terapiyasini boshdan kechirish autizmli bolalar uchun zarurat sifatida qabul qilinishi mumkin, ammo bu autistik kattalar uchun ham foydali bo‘lishi mumkin. Bolalar ko‘pincha asosiy muloqotga e'tibor berishadi, kattalar esa turli xil ijtimoiy o‘zaro ta'sirlar uchun yanada nozikroq muloqot shakllariga e'tibor berishlari mumkin.

Autizmga chalingan bolalarda gapirish qobiliyatini rivojlantirish uchun qiziqarli va interaktiv o‘yinlardan foydalanish mumkin. Bunday o‘yinlar kommunikatsiya va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Quyida autizmli bolalar uchun foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan ayrim o‘yin va mashg‘ulotlar keltirilgan.

Kommunikatsiya va tilni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘yinlar

“Men ko‘rdim” (I Spy) rasmlar bilan

Rasmlar tushirilgan kartochkalarni ko‘rsatib, ularning birini ta’riflang (masalan, “Men ko‘rdim, u ko‘k rangda”).

Bola to‘g‘ri rasmani topib, uning nomini aytishi kerak.

Taqlid o‘yinlari

Bolalarni turli harakat va tovushlarni takrorlashga undang (masalan, qo‘l chappak chalish yoki qiziqarli yuz ifodalarini qilish).

Bu bolalarga buyruqlarga amal qilish va boshqalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishni o‘rganishga yordam beradi.

Xazina izlash o‘yini - uy yoki bog‘ ichida so‘zlar yoki rasmlar tushirilgan kartochkalarni yashiring. Bola kartochkalarni topib, unda yozilgan so‘zni aytishi yoki rasmni ta’riflashi kerak.

Gap tuzish o‘yini (“Baliq ovlash”) Bola gap boshlanishi yozilgan kartochkalarni “tutib olishga” harakat qiladi. Keyin u gapni to‘liq shaklda davom ettirishi kerak.

Rol o‘ynash (Role-playing) “Do‘konga borish”, “shifokor qabulida” kabi turli vaziyatlarni sahnalashtirish orqali bolalar turli holatlarda muloqot qilishni o‘rganadilar.

Zanjirli suhbat o‘yini - biror mavzuda suhbat boshlang va vizual yordam vositalari (masalan, zanjir shaklidagi halqalar) yordamida suhbatning qanday davom etishini ko‘rsating.

O‘yin paytida hikoya qilish - o‘yin davomida harakatlaringizni tasvirlab bering va yangi so‘zlarni qo‘shib borish orqali bola lug‘atini boyiting.

“Agar sen bo‘lsang...” o‘yini - kitob o‘qib bo‘lgach, bolaning asosiy qahramon o‘rnida o‘zini tasavvur qilishiga va o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashiga imkon bering.

Moslashtirish va tasniflash o‘yinlari - haqiqiy buyumlar yoki rasmlar yordamida bolalar rang, shakl yoki hajm bo‘yicha guruhlashni o‘rganishlari mumkin.

Uy atrofidagi buyumlarni tasvirlash - bolaga uy atrofidagi buyumlarni tasvirlashni taklif qiling. Bu ularning sifatlovchi so‘zlar va tavsiflash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

“Suhbat tasti” o‘yini - maxsus tayyorlangan tasti (kubik) yordamida suhbat mavzularini aniqlang va bolaning javob berishiga imkon bering.

“Odamlar o‘yini” - hech qanday o‘yinchoqlarsiz sodda va takroriy o‘yinlar o‘ynang, bunda asosiy e’tibor o‘zaro muloqot va ijtimoiy signallarga qaratiladi.

Navbat bilan o‘ynash o‘yinlari - stol o‘yinlari yoki boshqa navbat kutishni talab qiladigan o‘yinlarni o‘ynash orqali bolalar qoidaga rioya qilish va kutishni o‘rganadilar.

Ism o‘yini - bolalar bir-birining ismlarini o‘rganib, yangi do‘stlar orttirishlari uchun yordam beradigan o‘yinlar o‘ynang.

“Ajablanarli ta’qib” o‘yini - bola sizni ta’qib qilishi kerak, lekin oddiy yugurish emas, balki har bir harakat oldidan biror so‘z yoki harakat qilish talab etiladi.

To‘siqli yo‘lak - uy sharoitida jismoniy faollik va hamkorlikni rag‘batlantirish uchun to‘siqli yo‘laklar tashkil qiling.

Topishmoq qidirish o‘yini - uy atrofida buyumlarni yashirib, boladan ularni topishni so‘rang. Bunda yo‘riqlar berib, muloqotni rag‘batlantiring.

“Simon aytadi” o‘yini - “Simon aytadi” kabi buyruq berish va bajarishga asoslangan o‘yinlar bolalarda tinglash va ko‘rsatmalarga amal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

“Berkinmachoq” o‘yini - berkinmachoq o‘ynash bolalarga ijtimoiy muloqot qilish va navbat bilan o‘ynash ko‘nikmalarini o‘rganishga yordam beradi.

Muvaffaqiyat uchun maslahatlar:

Qiziqarli qiling – Bolaga yoqadigan va uni qiziqtiradigan mashg‘ulotlarni tanlang.

Sabrli bo‘ling – Autizmga chalingan bolalar turli tezlikda o‘rganishadi, shuning uchun ularga vaqt bering.

Vizual yordam vositalaridan foydalaning – Rasmlar va ijtimoiy hikoyalar orqali ko‘rsatmalarni tushuntirish osonlashadi.

Tillarni soddalashtiring – Qisqa va tushunarli gaplardan foydalaning, ortiqcha savollardan qoching.

O‘yin va ijtimoiy muloqotni rag‘batlantiring – Bolalar uchun ijtimoiy muhit yaratish ularning til va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bolaning qiziqishlariga ergashing – Agar bola qiziqqan mavzular asosida o‘yin tashkil qilsangiz, u yanada faolroq ishtirok etadi.

Noverbal muloqotni kuzating – Bolaning imo-ishoralari va tana tilini tushunishga harakat qiling.

Gapirish uchun imkon bering – Bolani shoshiltirmang, o‘z fikrlarini ifodalashga vaqt bering.

Bu usullar autizmli bolalarga o‘z fikrlarini ifodalash, ijtimoiy muloqot qilish va mustaqil gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa, autizmli bolalar nutq rivojlanishida qiyinchiliklarga duch keladilar, bu esa ularning ijtimoiy moslashuv jarayonini murakkablashtiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘yin terapiyasi va maxsus logopedik mashg‘ulotlar bu bolalarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga katta yordam beradi. O‘yinlar orqali bolalar yangi so‘zlar o‘rganadi, iboralarni to‘g‘ri qo‘llashni o‘zlashtiradi va ijtimoiy muhitga moslashish imkoniyatiga ega

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

bo‘ladi. Shuningdek, vizual yordamlar va interaktiv metodlardan foydalanish ularning o‘z fikrlarini ifodalash ko‘nikmalarini oshiradi. Shu bois, autizmli bolalar bilan ishlashda individual yondashuv va maxsus metodlarning qo‘llanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Attwood, T. (2007). The Complete Guide to Asperger’s Syndrome. Jessica Kingsley Publishers.
2. Frith, U. (2003). Autism: Explaining the Enigma. Blackwell Publishing.
3. Baron-Cohen, S. (2008). Autism and Asperger Syndrome. Oxford University Press.
4. Lovaas, O. I. (1987). Behavioral Treatment and Normal Educational and Intellectual Functioning in Young Autistic Children. Journal of Consulting and Clinical Psychology.
5. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
6. Wing, L. (1996). The Autistic Spectrum: A Guide for Parents and Professionals. Constable & Robinson.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Raxmonova Manzura Maxmudovna**, magistr [**Рахмонова Манзура Махмудовна**, магистр], [**Manzura M. Raxmonova,** master’s degree]; manzil: Shota Rustaveli Ko'chasi, 156, Toshkent, 100121, [адрес: Улица Шота Руставели, 156, Ташкент, 100121], [address: Shota Rustaveli street, 156, 100121 Tashkent].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

MAKTABGACHA YOSHDAGI KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI SAVODGA O'RGATISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

© N.M. Saxatova[1]✉
[1]Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada maktabgacha yoshdagi ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni savodga o'rgatishning pedagogik imkoniyatlari, multisensor yondashuv asosida darslar tashkil etish, taktil va eshitish idroki orqali asosiy savod ko'nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi — ko'rishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning savodga oid tayanch ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik metodlar va didaktik yondashuvlarni aniqlash va asoslash.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda 30 nafar ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar ishtirok etgan eksperimental amaliyot asosida kuzatuv, suhbat, diagnostik testlar va sifatli tahlil metodlari qo'llanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: multisensor yondashuv asosida olib borilgan mashg'ulotlar savodga oid ko'nikmalarni tezroq shakllantirishda samarali bo'lib, taktil idrok, eshitish sezgirligi va nutqiy faoliyatda ijobiy siljishlar qayd etilgan. O'yin metodlari, relefli harflar va audio vositalardan foydalanish bolalarda harf-tovush munosabatini tushunish, so'z tuzish, eshitish orqali ajratish kabi ko'nikmalarni rivojlantirgan.

XULOSA: ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni savodga o'rgatishda multisensor yondashuv, nutqiy rivojlanish mashqlari, ota-onalar bilan hamkorlik va individual yondashuv muhim ahamiyatga ega. Bu usullar bolalarning savodga oid tayanch ko'nikmalarini shakllantirishda yuqori natija beradi.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, ko'rish nuqsoni, savodga o'rgatish, multisensor yondashuv, taktil idrok, nutqni rivojlantirish, o'yin metodlari.

Iqtibos uchun: Saxatova N.M. Maktabgacha yoshdagi ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni savodga o'rgatishning pedagogik imkoniyatlari// Inter education & global study. 2025. №3. B.705–711.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ОБУЧЕНИЯ ГРАМОТЕ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ ЗРЕНИЯ В ДОШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ

© Н.М. Сахатова[1]✉
[1]Ташкентский государственный педагогический университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются педагогические возможности обучения грамоте дошкольников с нарушением зрения. Описаны особенности multisensorного подхода и пути формирования начальных навыков чтения и письма.

ЦЕЛЬ: цель исследования — теоретически и практически обосновать методы и подходы, направленные на формирование грамотности у детей с нарушением зрения дошкольного возраста.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: использованы экспериментальные занятия с участием 30 детей с нарушениями зрения. Применены наблюдение, беседа, диагностические тесты и качественный анализ.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: эффективность multisensorного подхода подтверждена результатами занятий, где была достигнута положительная динамика в развитии слухового восприятия, тактильных навыков и речевой активности. Использование рельефных букв, аудиоматериалов и игровых методов усилило мотивацию и самостоятельность детей.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: для успешного обучения грамоте детей с нарушением зрения необходимы индивидуальный подход, развитие речи, взаимодействие с родителями и применение multisensorных методов, что способствует прочному усвоению базовых грамотностных навыков.

Ключевые слова: дошкольный возраст, нарушение зрения, обучение грамоте, мультисенсорный подход, тактильное восприятие, развитие речи, игровые методы.

Для цитирования: Сахатова Н.М. Педагогические возможности обучения грамоте детей с нарушениями зрения в дошкольном возрасте.// Inter education & global study.2025. №3. С. 705–711.

PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR TEACHING LITERACY TO CHILDREN WITH VISUAL IMPAIRMENTS IN PRESCHOOL AGE

© Nafisa M. Saxatova[1]✉
[1] Tashkent State Pedagogical University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article explores pedagogical opportunities for teaching literacy to preschool children with visual impairments. It focuses on a multisensory approach and the development of foundational literacy skills.

AIM: the study aims to theoretically and practically justify didactic methods and tools used to support literacy development in visually impaired preschoolers.

MATERIALS AND METHODS: the study involved 30 children with various visual impairments. Observations, interviews, diagnostic testing, and qualitative analysis were used.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

DISCUSSION AND RESULTS: the multisensory approach proved effective in enhancing auditory perception, tactile skills, and verbal activity. The use of tactile letters, audio resources, and play-based techniques fostered motivation and learning independence.

CONCLUSION: successful literacy instruction for visually impaired children requires individualized approaches, speech development, collaboration with parents, and multisensory strategies, all of which contribute to the solid formation of basic literacy skills.

Keywords: preschool age, visual impairment, literacy instruction, multisensory approach, tactile perception, speech development, play-based methods.

For citation: Nafisa M. Saxatova. (2025) 'Pedagogical opportunities for teaching literacy to children with visual impairments in preschool age', Inter education & global study, (3), pp. 705–711. (In Uzbek).

Maktabgacha yoshdagi ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni savodga o'rgatish zamonaviy maxsus pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki bu turdagi bolalar o'ziga xos rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lib, ularda harf-tovush munosabatini aniqlash, so'zlarni idrok etish, matnni tushunish va nutq bilan bog'liq faoliyatlarni mustahkamlash an'anaviy usullarga qaraganda murakkabroq kechadi. Ta'lim jarayonida asosiy muammo bolalarning vizual idrok etish cheklanganligi, atrof-muhitni ko'rish orqali o'rganish imkoniyatining pasayishi, ayni paytda eshitish, taktil va boshqa sezgi kanallarining nisbiy faolligi bilan bog'liqdir. Shu bois pedagogik metodlar, didaktik vositalar va o'qitish shakllari ko'rish nuqsoniga ega bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olishi, ularning rivojlanish salohiyatini ro'yobga chiqarishi lozim.

Maktabgacha yosh davri bolalarning sensor rivojlanishi, nutq shakllanishi va psixomotor ko'nikmalarining tarkib topishida eng muhim bosqich sanaladi. Odatda sog'lom bolalarda vizual idrok qudrati bosh sensor funksiyalaridan biri sifatida ishtirok etadi. Ko'rish orqali bolalar atrofdagi predmetlar, shakl, rang, fazoviy munosabatlar va boshqa ko'plab jihatlarni nisbatan tez o'zlashtiradilar. Ko'rishida nuqson mavjud bo'lgan bolalar esa bu jarayonda cheklovlarga duch kelishadi. Shu sababli, o'z vaqtida kompensator mexanizmlarni ishga solish, ya'ni eshitish, hid bilish, taktil idrok etish kabi boshqa analizatorlar faoliyatini rivojlantirish, savodga o'rgatish samaradorligini oshiradi.

Savodga o'rgatish ilk bosqichda, ya'ni maktabgacha ta'lim maskanlarining katta guruhlarida yoki maxsus reabilitatsion markazlarda boshlanishi mumkin. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mazkur jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun kompyuter texnologiyalari, tovushli kitoblar, relefli harflar va Braille alifbosi kabi maxsus resurslardan foydalanish tavsiya etiladi. Asosiysi, bu vositalar bilan ishlashda mustaqil faoliyatni yo'lga qo'yish va ko'makchi sezgi a'zolarining qo'llanilishini ta'minlash zarur.

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni savodga o'rgatish jarayonining pedagogik imkoniyatlari IMRAD talablari doirasida tahlil

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

qilinadi. Maqolaning maqsadi ko‘rish imkoniyati cheklangan bolalarda savod ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodika hamda didaktik yondashuvlarni nazariy va amaliy asoslashdan iborat.

Tadqiqotda maktabgacha yoshdagi (3–6 yosh) ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni savodga o‘rgatish bo‘yicha maxsus eksperimental ish olib borildi. Tajriba O‘zbekistonning turli hududlaridagi maxsus maktabgacha ta’lim muassasalari hamda reabilitatsion markazlarda tashkil etildi. Maqsadli guruh sifatida 30 nafar ko‘rishida turli xil nuqsonlari bo‘lgan bolalar (ko‘rlik, zaif ko‘rish, ambliopiya va boshqalar) tanlab olindi. Maqolada tadqiqot natijalarini umumlashtirish uchun kvantitativ va sifatli metodlar uyg‘un qo‘llandi.

Birinchi bosqichda kuzatish va suhbat usuli yordamida bolalarning dastlabki nutqiy rivojlanishi, atrof-muhitni idrok etish darajasi, harflarni his qilishga bo‘lgan qiziqishi va ularning moslashuv ko‘nikmalari o‘rganildi. Suhbat bolalar bilan yakka tartibda, pedagoglar va ota-onalar ishtirokida o‘tkazildi. Bolalarning o‘yin jarayonidagi xulq-atvori, predmet va harflarga bo‘lgan munosabati, alifboning turli shakllarini (masalan, relefli yoki tovushli kartochkalar) o‘rganishdagi faoliyati qayd etib borildi.

Ikkinchi bosqichda eksperimental dastur asosida multisensor yondashuv joriy qilindi. Bu yondashuvda taktil sezgi, eshitish, hid bilish, xotira va, imkon qadar, vizual idrokni uyg‘unlashtirish orqali bolalarda o‘qish va yozishga dastlabki poydevor yaratish maqsad qilingan. Mashg‘ulotlar 2 oy davomida olib borildi. Har bir mashg‘ulot 30–40 daqiqalik siklga bo‘linib, ikki-uch qismdan iborat tarzda o‘tkazildi. Birinchi qismda motivatsion tayyorgarlik (o‘yin, qiziqarli dialog, taktil predmetlarni tanish), ikkinchi qismda asosiy o‘quv faolligi (harflarni relefli o‘rganish, eshitish mashqlari, audio lavhalar orqali so‘zlarni ajratish) va uchinchi qismda mustahkamlash amaliyoti (taktil harflar bilan mustaqil ishlash, eshitish orqali tanigan so‘zlarni takrorlash, oddiy so‘z tuzish) amalga oshirildi.

Mazkur jarayon davomida bolalar faoliyati pedagoglar tomonidan doimiy ravishda baholanib, video- va audioyozuvlar, shuningdek, individual kuzatish kartochkalari yordamida qayd etildi. Ushbu materiallar sifatli tahlil usuli bilan ko‘rib chiqildi: unda bolalarning faolligi, tayanch ko‘nikmalarni egallash tezligi, nutqiy kamchiliklar darajasi, ijtimoiylashuv va emosional holati inobatga olindi. Shuningdek, eksperiment avvalida va yakunida maxsus diagnostik testlar orqali bolalarning savodga oid tayanch ko‘rsatkichlari, masalan, tovushlarni farqlash, so‘z tuzish, oddiy matnni eshitib tushunish qobiliyati baholandi.

Tadqiqot natijalari ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni savodga o‘rgatishda multisensor yondashuvning yuqori samaradorligini ko‘rsatdi. Birinchidan, dastlabki tahlil jarayonida bolalarning ko‘pchiligi harflarni raqam yoki boshqa belgilardan ajratish, tovushlar tarkibini tushunish va matn mazmuni haqida tasavvurga ega bo‘lishda muammolarga duch kelgani aniqlandi. Biroq 2 oylik mashg‘ulotlar davomida taktil idrok va audio materiallarni uyg‘unlashtirib olib borilgan darslar natijasida aksariyat bolalarda harf-tovush aloqasini yaxshiroq tushunish, gapni qismlarga bo‘lish, so‘zlar o‘rtasidagi farqlarni seza olish kabi ko‘nikmalar shakllana boshladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Bolalarda eshitish idrokining takomillashishi kuzatildi. Mashg‘ulotlarda qisqa so‘zlar, sodda gaplar eshitdirilgandan so‘ng, ulardan bir yoki ikki tovushni yoki biror harfni ajratib ko‘rsatish vazifasi berilganda, bolalar dastlabki haftalarda qiynalishiga qaramasdan, 3–4-haftaga kelib ancha faol javob qaytara boshladilar. Ayniqsa, o‘yin shaklida o‘tkaziladigan audio-topshiriqlar (masalan, “Qaysi tovushni eshitdingiz?”, “Bu so‘zda qaysi tovush ikki marta takrorlanadi?”) bolalarda katta qiziqish uyg‘otib, eshitish sezgirligini rivojlantirishga yordam berdi.

Relefli harflar bilan ishlash ham bolalar uchun muhim bo‘ldi. Ba’zi bolalar Braille alifbosi elementlari bilan tanish ekanligi sababli relefli belgilarni ajratishni oson egallashdi. Biroq ba’zilari uchun relefli harflarni his qilishda dastlab noqulayliklar kuzatildi. Ko‘p takroriy mashg‘ulotlar tufayli relefli shakllar bilan ishlash ko‘nikmasi rivojlandi. Natijada, savodni o‘rganishga da’vat qiluvchi kichik masalalarni mustaqil bajara olish qobiliyati kuchaydi.

Natijalar, shu bilan birga, savodga o‘rgatish jarayonida nutqni rivojlantirishning naqadar muhim ekanini ham qayd etdi. Chunki ko‘rishida nuqson bo‘lgan bolalarda ba’zida talaffuz kamchiliklari, lug‘aviy zahiraning chegaralanganligi, gap tuzishdagi qiyinchiliklar ko‘rinadi. Tajriba davomida nutqiy o‘yinlar, hikoya tuzish, ertak eshitish va uni takror aytib berish singari mashg‘ulotlar orqali bolalarning so‘z boyligi sezilarli darajada ortdi. Ba’zi bolalar oldin kam gapirar ekan, endi ishtiyoq bilan so‘z yodlab, maxsus didaktik materiallar yordamida o‘z fikrlarini ifodalashga harakat qilishdi.

Olingan natijalar asosida bir necha pedagogik xulosalarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni savodga o‘rgatish doimiy sensor integratsiyasiga tayanishi zarur. Ushbu integratsiya taktil, eshitish, kinestetik va agar imkon bo‘lsa, qisman vizual sezgilarni uyg‘unlashtirishdan iborat bo‘ladi. Ikkinchidan, ta’lim jarayoni bolalarning yoshiga mos ravishda o‘yin shaklida, qisqa ammo izchil bloklarga bo‘lingan holda olib borilishi lozim. Bu bolalarga charchab qolmaslik va mashg‘ulotlarga qiziqish yo‘qotmaslik imkonini beradi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kompensator funksiyalarni rivojlantirish, avvalo, eshitish sezgisi va taktil idrokiga urg‘u berishni talab qiladi. Bu orqali bolalar turli so‘zlar, tovushlar, so‘z va harflar o‘rtasidagi aloqalarni tezroq farqlash, keyinchalik esa mustahkamlash imkoniga ega bo‘ladi. Shuningdek, ba’zi bolalar atrofdagi predmetlar bilan ko‘proq bevosita o‘ynab, ularning shakli, tuzilishi, kattaligi, fazoviy joylashuvini qo‘llari bilan bilib olishga intiladilar. Bunday tabiatdagi bolalar bilan ish olib borishda relefli didaktik o‘yinlar, konstruktorlar, maxsus mo‘ylovli kublar va hajmli geometrik shakllar samara beradi.

Pedagogik jarayonda nutqni rivojlantirish tili va savod o‘rganish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yana bir bora tasdiqlaydi. Ko‘rish nuqsoni bo‘lgan bolalar, odatda, ko‘rish stimuli orqali o‘zlashtirishi mumkin bo‘lgan lug‘atni boyitish imkonidan mahrum bo‘ladi. Shu sababli, ularning so‘z boyligini kengaytirish, talaffuzni to‘g‘rilash, gap tuzish ko‘nikmasini shakllantirish savodga o‘rgatish jarayonining ajralmas qismiga aylanishi

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

kerak. Buning uchun ertaklarni eshitish, ro‘y berayotgan voqealarni ifodalash, o‘yinchiqlar bilan dramatik sahnalar ijro etish kabi interaktiv usullar qo‘llansa, samarali natija beradi.

Ota-onalar bilan hamkorlik ham muhim omil sanaladi. Ko‘plab ota-onalar farzandi ko‘rishida nuqson mavjud ekanligini bilib, u bilan uy sharoitida qanday mashg‘ulotlar o‘tkazishni tasavvur qilishda qiynalishadi. Pedagoglar ularga maxsus tavsiyalarni berish, didaktik o‘yinlar rejasini tushuntirish, audio kitoblar yoki relefli materiallardan foydalanish ko‘nikmalarini o‘rgatish orqali ta’lim jarayonini kuchaytirishi mumkin. Uyda takror o‘tkazilgan mashg‘ulotlar bolalarda savodga oid ko‘nikmalarni tezroq shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning cheklovlari ham mavjud. Jumladan, qatnashgan bolalar soni 30 nafar bo‘lib, bu keng ko‘lamli xulosa chiqarish uchun etarli emas. Shu bois kelgusida tadqiqotni boshqa hududlarda ko‘proq ishtirokchilar bilan davom ettirish, bir nechta metodlarni uyg‘unlashgan holda qo‘llash zarur. Bundan tashqari, bolalarning rivojlanish jarayoni muddatini 2 oy emas, yaxshisi 6 oy yoki undan uzun muddatga cho‘zish tadqiqotning samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqroq baholashga zamin yaratadi.

Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o‘rgatish pedagogik jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishi, avvalo, integrativ yondashuvning to‘g‘ri tanlanishi va bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olish bilan bog‘liq. IMRAD talablari asosida o‘tkazilgan mazkur tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, multisensor metodlar, ya’ni eshitish, taktil, kinestetik va iloji boricha vizual sezgilarni uyg‘unlashtirish, bolalarning savodga oid ko‘nikmalarini nisbatan tez va mustahkam shakllantiradi. Mashg‘ulotlar o‘yin shaklida o‘tkazilishi esa ularning diqqatini jalb qilish, mustaqil faoliyatini rivojlantirish, motivatsiyasini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, nutqiy kompetensiyani rivojlantirish va lug‘aviy boylikni kengaytirish savodga o‘rgatish jarayonining ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim. Bolalarning talaffuzidagi kamchiliklarni to‘g‘rilash, gap tuzishga o‘rgatish, eshitish orqali ajratilgan tovushlarni aniq bilish ko‘nikmasini shakllantirish kelgusidagi maktab ta’limi uchun poydevor vazifasini o‘taydi. Tajriba jarayonida ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, uy sharoitida davomli mashg‘ulotlar o‘tkazish bolalarga qo‘shimcha madad berishi mumkinligini isbotladi.

Kelajak tadqiqotlarida ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda savodga o‘rgatish masalasiga yanada keng ko‘lamda yondashish, ularning ijtimoiylashuvi, psixologik moslashuvi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samarasini tahlil qilish zarur. Zero, bu bolalar ham maktabgacha yosh davrida etarli ta’lim va tarbiya olish orqali kelajakda jamiyatning faol a’zosi bo‘lib etishishlari mumkin. Oliy ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari va maxsus markazlar o‘rtasidagi hamkorlik, shuningdek, xorij tajribasini o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish orqali yanada jiddiy yutuqlarga erishishimiz mumkin. Eng muhimi, ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlash jarayonini zarur resurslar bilan ta’minlash, pedagogik innovatsiyalarni joriy etish hamda bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash orqaligina ishonchli natijaga erishish mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni savodga o‘rgatish, bir tomondan, kompleks yondashuvni, ikkinchi tomondan, ota-onalar hamda pedagogik jamoa o‘rtasidagi uzviy hamkorlikni talab etadi. Bolalarning o‘ziga xos ehtiyojlari, sezgi kanallarining ahvoli, nutqiy kompetensiyasi va ijtimoiy moslashuv darajasi har bir mashg‘ulotni rejalashtirishda inobatga olinsa, savodga o‘rgatish jarayoni nafaqat texnik jihatdan samarali, balki bolalar uchun motivatsion, qiziqarli va har tomonlama rivojlantiruvchi bo‘lishi mumkin. Natijada bolalar kelgusida maktab ta’limida muvaffaqiyat qozonish, ijtimoiy hayotga faol qo‘shilish va mustaqil o‘qish-yozish ko‘nikmalaridan foydalangan holda o‘z salohiyatini to‘la namoyon etish imkoniga ega bo‘ladilar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – 2020-yil 1-mart, PQ–4652-son. – [Elektron resurs]. – Rejim dostupa: http://lex.uz (kun vaqti bilan tekshirilgan)
2. G‘ofurova G‘. X. Maxsus (korreksion) pedagogika: Nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2019. – 148 b.
3. World Health Organization (WHO). World report on vision. – Geneva: WHO Press, 2019. – [Elektron resurs]. – Rejim dostupa: https://www.who.int/publications-detail/world-report-on-vision (kun vaqti bilan tekshirilgan)

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Saxatova Nafisa Miryunus qizi**, doktarant [**Сахатова Нафиса Мирюнус кизи**, докторант], [**Nafisa M. Saxatova,** doctoral student]; manzil: Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor ko’chasi 27 uy., [адрес г. Ташкент, Чиланзарский район, ул. Бунедкор, дом 27.], [address: Tashkent, Chilanzar district, Bunyodkor St., 27.].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

AUTISTIK SPEKTR BUZILISHINING TURLARI

© M.Tuxtayeva[1]✉
[1] Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada autistik spektr buzilishlarining turlari, ularning o‘ziga xos belgilari, tashxislash usullari va yordam shakllari haqida ma’lumotlar berilgan. Ushbu buzilishlar bilan yashayotgan shaxslar va ularning oilalari uchun foydali tavsiyalar keltirilgan.

MAQSAD: tadqiqotning maqsadi — autistik spektr buzilishlarini turlari bo‘yicha tahlil qilish, ularning klinik xususiyatlarini aniqlash, tashxis va korreksiya yondashuvlarini tizimlashtirish hamda ASB bilan yashayotgan shaxslar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda ilmiy maqolalar, xalqaro va mahalliy adabiyotlar, JSST va ICD ma’lumotlari, shuningdek, klinik kuzatuvlar va diagnostika vositalarining tahliliy ko‘rinishlari qo‘llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: ASB ga xos bo‘lgan ijtimoiy o‘zaro munosabatlar, muloqotdagi cheklovlar, xatti-harakatlar shakllarining stereotipligi bilan bog‘liq triada belgilari chuqur tahlil qilindi. Shuningdek, erta bolalik autizmi, Kanner sindromi, Asperger sindromi, Rett sindromi va yuqori funksional autizm kabi turlarining o‘ziga xos jihatlari ko‘rsatildi. Diagnostika va korreksiya usullari, jumladan, M-CHAT, Baron-Cohen shkalasi, kognitiv-xulq-atvor terapiyasi va mutaxassislar ishtirokidagi kompleks yondashuvlar samarali ekani asoslab berildi.

XULOSA: autistik spektr buzilishlari turlicha shakl va darajada namoyon bo‘lishi mumkin. Ularni erta aniqlash, to‘g‘ri tashxislash va individual yondashuv asosidagi korreksion yordam ko‘rsatish ularning ijtimoiy integratsiyasi va hayot sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: autizm, autizm triadasi, erta bolalik autizmi, Asperger sindromi, Kanner sindromi, Rett sindromi, yuqori funksional autizm, diagnostika, korreksiya.

Iqtibos uchun: Tuxtayeva M. Autistik spektr buzilishining turlari.// Inter education & global study. 2025. №3. B.712–717.

ТИПЫ РАССТРОЙСТВ АУТИСТИЧЕСКОГО СПЕКТРА

© М.Тухтаева[1]✉
[1]Ташкентский Государственный Педагогический Университет, Ташкент,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются типы расстройств аутистического спектра, их характерные признаки, способы диагностики и оказания помощи. Предоставлены практические рекомендации для лиц с аутизмом и членов их семей.

ЦЕЛЬ: цель исследования — классифицировать расстройства аутистического спектра, выявить их клинические особенности и диагностические критерии, а также определить эффективные пути коррекции и поддержки.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: использованы данные научной литературы, международных классификаторов (ICD), ВОЗ, а также клинические наблюдения и диагностические методики.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: подробно проанализированы проявления «триады аутизма»: нарушения социального взаимодействия, ограниченность в коммуникации и стереотипные формы поведения. Описаны особенности таких форм, как ранний детский аутизм, синдром Каннера, синдром Аспергера, синдром Ретта и высокофункциональный аутизм. Показана эффективность таких диагностических и коррекционных подходов, как тест M-CHAT, шкала Барона-Коэна, когнитивно-поведенческая терапия и комплексная помощь специалистов.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: расстройства аутистического спектра проявляются по-разному и требуют индивидуального подхода. Ранняя диагностика и систематическая коррекционная помощь значительно повышают шансы успешной социальной адаптации и качества жизни таких людей.

Ключевые слова: аутизм, триада аутизма, ранний детский аутизм, синдром Аспергера, синдром Каннера, синдром Ретта, высокофункциональный аутизм, диагностика, коррекция.

Для цитирования: Тухтаева М. Типы расстройств аутистического спектра.// Inter education & global study.2025. №3. С. 712–717.

TYPES OF AUTISM SPECTRUM DISORDERS

© Maxfirat Tuxtayeva[1]✉
[1] Tashkent State Pedagogical University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article discusses the types of autism spectrum disorders (ASD), their specific characteristics, diagnostic approaches, and methods of support. It provides practical recommendations for individuals with ASD and their families.

AIM: the aim of the study is to classify ASD types, identify clinical features, systematize diagnostic tools, and present effective support and correction strategies.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

MATERIALS AND METHODS: The study is based on analysis of scientific sources, WHO and ICD data, as well as clinical observations and diagnostic instruments.

DISCUSSION AND RESULTS: the autism triad — impaired social interaction, limited communication, and stereotypical behaviors — was thoroughly examined. The characteristics of early childhood autism, Kanner's syndrome, Asperger's syndrome, Rett syndrome, and high-functioning autism were discussed. The effectiveness of M-CHAT, Baron-Cohen scale, cognitive-behavioral therapy, and multidisciplinary interventions is supported.

CONCLUSION: autism spectrum disorders vary in form and severity. Early detection, accurate diagnosis, and individualized correctional approaches significantly improve social adaptation and quality of life.

Keywords: autism, autism triad, early childhood autism, Asperger's syndrome, Kanner's syndrome, Rett syndrome, high-functioning autism, diagnosis, correction.

For citation: Maxfirat Tuxtayeva. (2025) 'Types of autism spectrum disorders', Inter education & global study, (8), pp. 712–717. (In Uzbek).

Autizm — bu ijtimoiy o'zaro munosabatlar qiyinchiliklari va atipik xatti-harakatlar shakllari bilan tavsiflangan ruhiy buzilishlar guruhidir. Uning dastlabki alomatlari erta bolalik davrida namoyon bo'ladi. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda har 160 boladan biriga bunday tashxis qo'yiladi. Odatda, autistik spektrining buzilishi (ASB) bolalarda uch yoshgacha namoyon bo'ladi. Dastlabki tashxis "autizm triadasi" deb ataladigan alomatlar mavjud bo'lganda qo'yiladi. Ushbu uch guruh alomatlar har xil tarzda namoyon bo'lishi mumkin: ijtimoiy o'zaro munosabatlarning cheklanganligi, muloqotning cheklanganligi, xatti-harakatlar shakllarining cheklanganligi va stereotipligi.

Har bir elementning o'ziga xos xarakterli alomatlari mavjud bo'lib, quyida ular bilan tanishib chiqamiz.

Ijtimoiy o'zaro munosabatlarning cheklanganligi: ismga javob bermaslik; taktil aloqa va tovushlardan qo'rqish; odamlar orasida bo'la olmaslik; his-tuyg'ularning atipik namoyon bo'lishi; mimikaning sustligi; tana tili va imo-ishoralarni tushunmaslik; ko'z aloqasini o'rnatishda qiyinchiliklar.

Muloqotning cheklanganligi: yolg'izlikka moyillik; do'stlarning yo'qligi; nutq rivojlanishining sekinligi; vaziyatga qarab xatti-harakatlarni moslashtira olmaslik; o'yinlarga qiziqishning yo'qligi.

Xatti-harakatlar shakllarining cheklanganligi va stereotipligi: takrorlanuvchi harakatlar; muayyan kun tartibiga rioya qilish; oddiy so'zlarni nazoratsiz takrorlash; eng kichik o'zgarishlardan qo'rqish; qiziqishlarning bir narsaga qat'iy bog'langanligi; ilgari egallangan ko'nikmalarni yo'qotish.

Autizm spektrining buzilish turlari. Yuqorida tavsiflangan alomatlar ASB ga umumiy xosdir. Biroq, bu guruhga o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan bir qator buzilishlar kiradi. Har

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

bir buzilishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Xalqaro kasalliklar tasnifi 11-nashri bo'yicha autizm turlari intellektual rivojlanish va funktsional til qobiliyatining buzilishi yoki yo'qligi asosida ajratiladi. Xalqaro kasalliklar tasnifi 10-nashrida quyidagilar ajratilgan: erta bolalik autizmi — motorikaning rivojlanishida kechikish, noto'g'ri reaktsiyalar, odamlar bilan aloqadan qochish, so'z boyligining sustligi; kanner sindromi — o'z ichki dunyosiga qamalib olish, tashqi dunyo bilan aloqaning yo'qligi, so'zlarni takrorlash; asperger sindromi — egotsentrizm, muloqotni ahamiyatsiz deb bilish, g'ayrioddiy qiziqishlar, empatiya pastligi, motorikaning sekinligi.

- Rett sindromi ilgari ASB ga kiritilgan bo'lsa-da, hozir u genetik mutatsiyalar bilan bog'liq mustaqil buzilish sifatida qaraladi. U faqat ayollarda uchraydi va ko'pincha maqsadli harakatlarning yo'qolishi bilan tavsiflanadi.

Erta bolalik autizmi. Ota-onalar yangi tug'ilgan chaqaloqdagi buzilish alomatlarini osongina payqashlari mumkin. Agar chaqaloq 8 oylik bo'lganda o'z ismiga javob bermasa, bu birinchi xavf belgisidir. Ikki yoshgacha quyidagi alomatlar kuzatilishi mumkin: 12 oylikda — imo-ishoralar sonining kamligi, shu jumladan ko'rsatish harakatining yo'qligi; 18 oylikda — muloqotdan qochish, nutqni tushunmaslik, g'ayrioddiy o'yinlar; 24 oylikda — xatti-harakatlarni taqlid qilmaslik, ijtimoiy o'zaro munosabatlardan qochish, cheklangan so'zlar to'plamidan foydalanish.

Bu yoshda kelajakda ASB qanchalik og'ir bo'lishini aytish hali qiyin hisoblanadi. Bu Asperger sindromi bo'lishi mumkin, bu sindrom har doim ham buzilish sifatida qabul qilinmaydi. Ko'pincha uni oddiy ekssentriklik deb hisoblashadi. Biroq, Kanner sindromi rivojlanishi ham mumkin, bu esa odamga jamiyatda to'liq yashashga imkon bermaydi va doimiy nazoratni talab qiladi.

Kattalarda autizm. Kattalarda autistik spektr buzilishining ikki xil ko'rinishi mavjud. Birinchisi — bolalikdagi autizm uzoq yillar davomida saqlanib qoladi. Bunda alomatlar yomonlashishi yoki yengillashishi mumkin. Yengillashish psixoterapevtik yordam bilan erishiladi. Ikkinchi ko'rinishi — autizm belgilari katta yoshda paydo bo'ladi, masalan, stress yoki boshqa psixologik omillar ta'sirida. Dastlab buni depressiya deb hisoblash mumkin. Vaqt o'tishi bilan odamning ijtimoiy hayoti jiddiy zarar ko'radi, chunki u: so'zlashuvdan har qanday yo'l bilan qochadi; yaqinlarini e'tiborsiz qoldiradi, ular bilan uchrashishdan qochadi; diqqati tarqoq va passiv bo'lib qoladi; oldingi qiziqishlariga qiziqishni yo'qotadi; yangi odamlar bilan tanishish va munosabatlar o'rnatish qobiliyatiga ega emas.

Shu bilan birga, har uchinchi katta yoshdagi autist tashqi yordamga muhtoj bo'lmaydi. Bunday odamlar muloqot qilishdagi qiyinchiliklarga qaramay, karerasida muvaffaqiyatga erishishadi. Erkaklarga bunday tashxis ayollarga qaraganda tez-tez uchrab turadi. Kattalarda autizm ko'pincha atipik bo'ladi, ya'ni triadaning barcha alomatlariga ega bo'lmasligi mumkin. Korreksion yordam ko'rsatishda birinchi va ikkinchi ko'rinishlar orasidagi farqni tushunish muhimdir. Har ikkala holatda ham to'g'ri yondashuv va yordam autizm bilan yashashni osonlashtirishi mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Birlamchi autizm ruhiy buzilishlar bilan bog'liq. Uning sabablari noma'lum, faqatgina nevrologik xarakterdagi o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Alomatlarning og'irligi har xil bo'lishi mumkin — Kanner sindromi bilan atrof-muhitdan butunlay uzilishdan tortib, jamiyatga nisbatan yengil qarshilik ko'rsatishgacha.

Ikkilamchi ASB ga odamlar o'zlari istamagan holda tushib qolishadi, masalan, ijtimoiy aloqalarni cheklovchi kasalliklar tufayli. Ular uchun oddiy moslashish (masalan, eshitish apparatini o'rnatish, jag' protezi va boshqalar) normal hayotga qaytish uchun yetarli bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari yuqori funktsional autizm (YFA) turi ham mavjud. Yuqori funktsional autizm — bu aql-idrokning yuqori darajasi bilan birga keladigan autizm shakli. Bu Savant sindromining bir turi bo'lib, unda yuqori IQ turli ruhiy buzilishlar bilan birga keladi. Yuqori funksional autizm boshqa sindromlar bilan birgalikda kelishi ham mumkin:

- Kanner sindromi bilan birgalikda YFA kelganda bola ajoyib xotira qobiliyatini namoyon qiladi, garchi u odatda oddiy so'zlar bilan gaplashsa ham. U katta va murakkab matnlarni yodlab olishi va ularni kontekstsiz ravishda aytib berishi mumkin.

- Asperger sindromi bilan birgalikda yuqori funktsional autizm quyidagilar bilan namoyon bo'ladi: eafsilotlarga haddan tashqari e'tibor; guruh ishi o'rniga individual ishning samaradorligi; нosh guruhiga xos bo'lmagan qiziqishlar; tadqiqot faoliyatini afzal ko'rish.

Autizmni tashxislash. Autizm tashxisini qo'yish uchun psixiatr bilan maslahat zarur. Tekshiruv bir necha yo'nalishda olib boriladi:

1. Klinik alomatlarni o'rganish - bolalarda ASB "triada" belgilari orqali aniqlanadi. Kattalarda esa belgilar guruhlaridan biri bo'lmasligi mumkin.

2. Genetik tekshiruv - barcha ASB (kattalardagi ikkilamchi ASB dan tashqari) xromosoma xarakteriga ega bo'lib, bunda xromosomalar tekshiriladi.

3. Skrining testlari - buzilishning og'irlik darajasini aniqlashga yordam beradi. Bolalar va kattalar uchun turli testlar mavjud:

M-CHAT — bu ota-onalar uchun test bo'lib, ular bolaning xatti-harakatlari haqida savollarga javob berishlari kerak. Bu test ASB ni ham, unga moyillikni ham aniqlashga yordam beradi.

Simon Baron-Cohen shkalasi — kattalar o'zlarini o'zi tekshirish uchun ishlatiladi.

Autistik spektr buzilishlari genetik xarakterga ega bo'lgani uchun ularning oldini olish mumkin emas. Biroq, ularni vaqtida aniqlash korreksion mashg'ulotlarni tezroq boshlashga va kelajakda nogironlikning oldini olishga imkon beradi. Autistik spektr buzilishlarini korreksiyalash bolalar va kattalarda turli ko'rinishlarda olib boriladi. Buzilishlarni butunlay yo'q qilish mumkin emas, lekin to'g'ri korreksiya jamiyatda yashashga moslashishga yordam beradi. ASB ga chalingan bolalarga korreksion ish kompleks olib boriladi, bunda quyidagi mutaxassislar yordam ko'rsatadi: logoped — nutqni rivojlantirishga yordam beradi; defektolog — rivojlanishdagi nuqsonlarni bartaraf etish bilan shug'ullanadi; psixolog — bolaning ruhiy holatini yaxshilashga qaratilgan ishlar olib boradi; nevrolog — nevrologik muammolarni aniqlash va davolash; psixoterapevt —

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

bolaning ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga yordam beradi. Ota-onalarning korreksion va rivojlantiruvchi mashg'ulotlarda qatnashishi tavsiya etiladi. Bu bolaga odamlar bilan muloqot qilish usullarini o'rganishga yordam beradi, shuningdek, ota-onalar mutaxassis nazorati ostida bolaga qanday munosabatda bo'lishni o'rganadilar.

ASB ga chalingan kattalar psixoterapevt yordamiga muhtoj. Odatda, "kognitiv-xulq-atvor terapiyasi" shaklida yordam ko'rsatiladi, uning vazifasi muloqot va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishdir. Qayg'u darajasini pasaytirish uchun antidepresantlar buyurilishi mumkin.

Autistik spektr buzilishlarini oldini olish mumkin bo'lmasa-da, ularni vaqtida aniqlash va korreksion ish bilan bunday odamlarning hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilash mumkin. Oilaviy qo'llab-quvvatlash va psixologik qulaylik autizmga chalingan odamlar uchun muhim rol o'ynaydi. ASB bilan yashash qiyin ammo to'g'ri yondashuv va yordam bilan ular jamiyatda muvaffaqiyatli yashashlari va o'zlarini namoyon qilishlari mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Baron-Cohen S., Bolton P. Autism. The facts. - NY.: Oxford University Press, 1997.- 108 p.
2. Беттельхейм Б. Пустая крепость. Детский аутизм и рождение Я / Пер. с англ.- М.: Академический проект: Традиция, 2004. - 784 с.
3. Вакула, И.Н. Роль общественной организации родителей детей с аутизмом в процессе их реабилитации / И.Н. Вакула, В.М. Шелудько / В кн: Материалы 15 съезда Российского общества психиатров России. - Москва, 2010.
4. Питерс Т. Аутизм: От теоретического понимания к педагогическому воздействию. — СПб.: Институт специальной педагогики и психологии, 1999. -192 с

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Tuxtayeva Maxfirat**, doktorant [**Тухтаева Махфират**, докторант,], [**Tuxtayeva Maxfirat**, doctoral student]; manzil: Toshkent sh., Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi 27 uy., [адрес: г. Ташкент, Чиланзарский район, ул. Бунедкор, дом 27.], [address: Tashkent, Chilanzar district, Bunyodkor St., 27].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

TIBBIYOT OLIYGOHLARI TALABALARIDA PSIXIK SALOMATLIK MUAMMOLARI VA ULARGA PSIXOLOGIK YORDAM KO'RSATISH ISHLARI

© Z.D. Umarkulova[1]✉, N.A. Askarova[2]✉
[1,2]Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: maqolada tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarining psixik salomatlik muammolari va ularning tarqalish omillari tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonidagi stress omillari, ijtimoiy bosimlar va shaxsiy muammolarning psixik holatga ta'siri yoritiladi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi — tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining psixik salomatlik holatini baholash, asosiy muammolarni aniqlash va samarali psixologik yordam mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda 350 nafar talaba ishtirok etgan. DASS-21 va PHQ-9 testlari yordamida psixik bosim darajasi baholandi. Statistik tahlil, jumladan, deskriptiv, korelatsion va ANOVA tahlillari qo'llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tadqiqot natijalari talabalar orasida psixik muammolarning keng tarqalganini ko'rsatdi. O'zbek guruhidagi talabalar orasida stress darajasi yuqori bo'lsa, rus va ingliz guruhlarida tahsil olayotgan talabalar nisbatan barqaror ruhiy holatga ega. Kurslar bo'yicha farqlar sezildi: yuqori kurslarda stress va depressiya darajalari ortgan.

XULOSA: tibbiyot talabalarining psixik salomatligi ularning ta'lim muhiti, til, kurs darajasi va oilaviy tarbiya omillariga bog'liq. Maqolada Finlyandiya, AQSh va Yaponiya tajribalari asosida O'zbekiston sharoitida qo'llanishi mumkin bo'lgan amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: psixik salomatlik, talabalar, stress, depressiya, psixologik yordam, DASS-21, PHQ-9, ta'lim muhiti, xalqaro tajriba.

Iqtibos uchun: Umarkulova Z.D, Askarova N.A. Tibbiyot oliygohlari talabalarida psixik salomatlik muammolari va ularga psixologik yordam ko'rsatish ishlari. // Inter education & global study. 2025. №3. B.718–726.

ПРОБЛЕМЫ ПСИХИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКИХ ВУЗОВ И ОКАЗАНИЕ ИХ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ

© З.Д. Умаркулова[1]✉, Н.А. Аскарова[2]✉
[1,2]Ташкентская Медицинская Академия, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются проблемы психического здоровья студентов медицинских вузов, а также влияние учебной нагрузки, социальной среды и личных факторов на психическое состояние.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — оценить уровень психического здоровья студентов медицинских вузов, выявить основные проблемы и разработать эффективные механизмы психологической поддержки.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании участвовали 350 студентов. Использованы анкеты DASS-21 и PHQ-9 для оценки уровня психоэмоционального состояния. Применены методы дескриптивного, корреляционного и ANOVA анализа.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали высокую распространенность психических проблем. Студенты, обучающиеся на узбекском языке, испытывают больший стресс, чем те, кто обучается на русском и английском языках. Выявлены отличия в зависимости от курса: старшекурсники подвержены более высокому уровню стресса и депрессии.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: психическое здоровье студентов зависит от языка обучения, образовательной среды, курса и семейного воспитания. На основе международного опыта Финляндии, США и Японии предложены рекомендации, адаптированные к условиям Узбекистана.

Ключевые слова: психическое здоровье, студенты, стресс, депрессия, психологическая поддержка, DASS-21, PHQ-9, образовательная среда, международный опыт.

Для цитирования: Умаркулова З.Д, Аскарова Н.А. Проблемы психического здоровья студентов медицинских вузов и оказание их психологической помощи.// Inter education & global study.2025. №3. С. 718–726.

MENTAL HEALTH PROBLEMS IN MEDICAL UNIVERSITY STUDENTS AND THEIR PSYCHOLOGICAL SUPPORT

© Umarkulova D. Zilola[1]✉, Nargiza A. Askarova[2]✉
[1,2]Tashkent Medical Academy, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: the article explores the mental health issues among students of medical higher education institutions, focusing on the effects of academic pressure, social challenges, and personal difficulties on students' psychological well-being.

AIM: the main aim of the study is to assess the mental health status of medical students, identify core issues, and propose effective mechanisms for psychological support.

MATERIALS AND METHODS: a total of 350 students participated. Psychological conditions were assessed using the DASS-21 and PHQ-9 scales. Data analysis included descriptive, correlational, and ANOVA methods.

DISCUSSION AND RESULTS: findings reveal a high prevalence of mental health issues. Students studying in Uzbek showed higher stress levels, while those studying in

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Russian and English demonstrated better psychological stability. Senior students exhibited increased stress and depression levels.

CONCLUSION: students' mental health is influenced by language of instruction, academic environment, year of study, and family upbringing. Practical recommendations are proposed based on experiences from Finland, the USA, and Japan, tailored to Uzbekistan's context.

Keywords: mental health, students, stress, depression, psychological support, DASS-21, PHQ-9, educational environment, international experience.

For citation: Umarkulova D. Zilola, Nargiza A. Askarova. (2025) 'Mental health problems in medical university students and their psychological support', Inter education & global study, (3), pp. 718–726. (In Uzbek).

Bugungi kunda tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan talabalar orasida psixik salomatlik muammolari tobora keng tarqalib bormoqda. Ta'lim jarayonida doimiy yuklama, intizom talablariga rioya qilish va kelajakdagi professional faoliyatga tayyorgarlik ko'rish talabalar orasida stress, depressiya va tashvish kabi psixologik holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, yoshlarning shaxsiy muammolari, ijtimoiy o'zgarishlar va salbiy hayotiy tajribalar ham psixik salomatlikka ta'sir ko'rsatadi. Bu holatlar nafaqat talabalarning o'zini his qilishiga, balki ularning ta'lim natijalariga, akademik faoliyatiga va umumiy farovonligiga ham salbiy ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun, talabalar orasida psixologik yordam ko'rsatish muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida psixik salomatlik muammolarining tarqalishini tahlil qilish, bu muammolarni aniqlashda foydalaniladigan metodlar (masalan, DASS-21, PHQ-9) va talabalarga psixologik yordam ko'rsatish usullariga e'tibor qaratiladi.

Tadqiqot maqsadi. O'zbekistondagi tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar orasida o'quv jarayonining ruhiy bosim darajasiga ta'sirini eksperimental tadqiq etish, ushbu bosimning psixik holatga olib keladigan o'zgarishlarini ilmiy asosda baholash hamda talabalarning ruhiy salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Tibbiyot oliygohlari talabalarining o'quv jarayoni yuqori intellektual va psixo-emotsional yuklama bilan kechadi, bu esa stress, tashvish va depressiya kabi psixologik muammolarning rivojlanish ehtimolini oshiradi. Tadqiqot doirasida talabalarning turli bosqichlardagi psixologik holatini baholash uchun eksperimental usullar qo'llanadi, xususan:

DASS-21 (Depressiya, Tashvish va Stress Shkalasi) orqali ruhiy bosim darajasini aniqlash;

PHQ-9 (Kasalliklarni o'z-o'zini baholash so'rovnomasi) yordamida depressiv simptomlarni baholash;

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Eksperiment davomida talabalarning ruhiy bosimi bilan bog‘liq psixik o‘zgarishlarni dinamik kuzatish (masalan, semestrning turli bosqichlarida va imtihon oldidan o‘zgarishlarni o‘rganish).

Tadqiqot natijalariga asoslanib, tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida talabalarga psixologik yordam ko‘rsatish bo‘yicha innovatsion mexanizmlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shu jumladan: ealabalar uchun psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini takomillashtirish; stress va tashvishni kamaytirish bo‘yicha maxsus treninglar joriy etish; o‘quv jarayonini psixologik yuklamani kamaytirishga yo‘naltirilgan shaklda tashkil etish; tibbiyot talabalari uchun rejalashtirilgan psixologik maslahat va monitoring dasturlarini ishlab chiqish.

Ushbu tadqiqot orqali tibbiyot talabalari orasida stress va psixik o‘zgarishlarning sabablari aniqlandi, ular bilan kurashishning samarali yondashuvlari ishlab chiqiladi va bu sohadagi xalqaro tajribalar O‘zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlari baholanadi.

1. Tadqiqot ishtirokchilariTadqiqotda 350 nafar talaba ishtirok etdi. Ular 1-kursdan 5-kursgacha bo‘lgan tibbiyot oliy ta’lim muassasalari talabalari bo‘lib, quyidagi taqsimot asosida jalb qilindi:

1. Andijon davlat tibbiyot instituti – 10 nafar
2. Buxoro davlat tibbiyot instituti – 10 nafar
3. Samarqand davlat tibbiyot universiteti – 20 nafar
4. Toshkent Tibbiyot Akademiyasi – 300 nafar
5. Toshkent Pediatriya Tibbiyot Instituti – 10 nafar

Ishtirokchilar tasodifiy tanlash prinsipi asosida jalb qilindi. Ularning yoshi 18-25 yosh oralig‘ida bo‘lib, erkak va ayol respondentlar soni mutanosib ravishda taqsimlandi. Tadqiqotning barcha ishtirokchilari ixtiyoriy ravishda rozilik bildirgan holda tadqiqotda qatnashdi.

2. Tadqiqot metodikasi va diagnostika vositalari.

Talabalar psixik salomatlik holatini baholash uchun ilmiy asoslangan quyidagi diagnostik vositalar qo‘llanildi:

DASS-21 (Depression, Anxiety, Stress Scales) – ushbu test orqali depressiya, tashvish va stress darajalari baholandi. Test 21 savoldan iborat bo‘lib, har bir javob 0 dan 3 ballgacha baholandi.

PHQ-9 (Patient Health Questionnaire-9) – depressiyaning klinik belgilari va ularning og‘irlik darajasini aniqlash maqsadida qo‘llanildi. Testda 9 ta savol mavjud bo‘lib, har bir javob 0 dan 3 ballgacha baholandi.

3. Ma’lumotlarni to‘plash jarayoni.

Tadqiqot ma’lumotlari onlayn shaklda yig‘ildi. Ishtirokchilarga tadqiqot maqsadi haqida oldindan tushuntirish berildi va maxsus veb-platforma havolasi taqdim etildi. Barcha respondentlar test topshiriqlarini mustaqil ravishda, anonim tarzda onlayn rejimda bajardilar.

4. Statistik tahlil usullari.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Yig‘ilgan ma’lumotlar qo‘lda hisoblab chiqildi va tahlil qilish jarayonida quyidagi statistik usullardan foydalanildi:

Deskriptiv tahlil – respondentlarning psixologik holatini umumiy baholash va ularning tarqalishini tahlil qilish uchun qo‘llanildi.

Korelatsion tahlil – depressiya, tashvish va stress o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun qo‘llandi.

T-test va ANOVA – jinsiy farqlar hamda turli kurslarda tahsil olayotgan talabalarning psixologik salomatligidagi tafovutlarni aniqlash uchun qo‘llanildi.

5. Etik normalarga rioya qilish.

Tadqiqot ishtirokchilarining shaxsiy ma’lumotlari to‘liq anonimlik sharti asosida qayd etildi. Barcha ishtirokchilar tadqiqot jarayonida o‘z ixtiyori bilan qatnashgan bo‘lib, natijalar faqat ilmiy maqsadlarda foydalanildi.

Natijalar va Muhokama. 1. Tadqiqot natijalari: Tadqiqot doirasida 350 nafar talaba (turli kurs va fakultetlardan) ishtirok etdi. Talabalar orasidagi depressiya, stress va tashvish darajalari DASS-21 va PHQ-9 testlari orqali baholandi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, psixologik bosim va stress darajasiga ta’lim muhitining bevosita ta’siri mavjud. Fakultet, kurs, yosh va jins omillari stress darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmagan, ammo o‘qish tili bo‘yicha sezilarli tafovutlar aniqlangan. O‘zbek guruhida tahsil olayotgan talabalar orasida stress va depressiyaga moyillik yuqori bo‘lishi kuzatildi. Ushbu talabalar o‘z fikrlarini aniq ifoda etishda qiyinchilik sezishlari, akademik muhitdagi kommunikativ cheklovlar va o‘zini erkin ifoda etishdagi muammolar natijasida ruhiy bosim ortishi kuzatilgan. Rus va ingliz guruhlarida tahsil olayotgan, ammo millati o‘zbek bo‘lgan talabalar orasida esa stress va depressiya darajasi sezilarli darajada past ekanligi qayd etilgan. Ushbu talabalar akademik jarayonni nisbatan oson qabul qilishi, ijtimoiy muhitga moslashish jarayoni engil kechishi va natijada stress darajasi past bo‘lishi kuzatilgan. Ushbu tahlillar ta’lim tili va akademik muhit talabalarning psixologik holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. O‘zbek guruhidagi talabalar boshqalar bilan fikr almashish va akademik faoliyatda ishtirok etish borasida qiyinchiliklarga duch kelayotganini, bu esa stress va depressiyani kuchaytirayotganini bildirganlar.

2. Kurs darajasi bo‘yicha farqlar: Tadqiqot natijalari kurs darajasiga qarab psixologik bosim darajasi sezilarli o‘zgarishini ko‘rsatdi:

1-kurs talabalari orasida qo‘rquv shkalasi imtihon davriga yaqin paytlarda yuqori bo‘lishi kuzatildi. Biroq, stress va depressiya darajasi nisbatan past, bu talabalar hali ta’lim jarayonining dastlabki bosqichida bo‘lgani va akademik yuklama kamroq ekani bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

3-4-kurs talabalari orasida stress shkalasi sezilarli darajada oshgan, bu esa o‘quv jarayonining murakkablashuvi, amaliy mashg‘ulotlarning ortishi va akademik yuklamaning keskin oshishi bilan izohlanadi.

5-kurs (bitiruvchi bosqich) talabalarida esa depressiya shkalasining sezilarli darajada oshishi kuzatilgan. Ushbu kursda shuningdek, stress va tashvish darajalarining

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

ham yuqori bo‘lishi, talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi, mehnat bozoriga moslashish va kelajakdagi noaniqlik bilan bog‘liq omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Ushbu natijalar tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida talabalarning psixologik holati ularning akademik bosqichiga bog‘liq holda dinamik o‘zgarishini ko‘rsatadi. Xususan, kurs darajasi oshgani sari stress va depressiya shkalalarining oshishi kuzatilmoqda, bu esa yuqori bosqich talabalari uchun qo‘shimcha psixologik qo‘llab-quvvatlash zarurligini ko‘rsatadi. Olingan natijalar talabalarning psixologik holatiga ta’lim tili, akademik muhit va kommunikativ imkoniyatlar sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Ta’lim jarayonida fikr almashish imkoniyati cheklangan, o‘z fikrini erkin ifoda eta olmaydigan talabalar stress va depressiyaga ko‘proq moyil bo‘ladilar. Shuningdek, natijalar yuqori kurs talabalarida depressiya va stress darajasining ortishi ularning kelajakdagi professional faoliyat va akademik muvaffaqiyatlari borasidagi xavotirlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari oldingi ilmiy ishlanmalar bilan hamohang bo‘lib, o‘quv muhitining psixologik holatga ta’sirini tasdiqlovchi tadqiqotlar natijalari bilan mos keladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar orasida psixologik muammolar keng tarqalganligini va bu muammolarning rivojlanishida kurs darajasi, ta’lim muhiti, kommunikativ imkoniyatlar hamda oilaviy tarbiya usullari muhim omil sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi.

Asosiy natijalar:

1-2-kurs talabalari orasida stress va depressiya darajasi nisbatan past, asosan imtihon oldi tashvishlari kuzatilgan.

3-4-kurs talabalarida akademik yuklamaning ortishi bilan stress darajasi sezilarli oshgan.

5-kurs (bitiruvchi bosqich) talabalarida depressiya va tashvishning eng yuqori ko‘rsatkichlari kuzatilgan.

O‘zbek guruhida tahsil olayotgan talabalar o‘z fikrlarini ifoda etishda qiyinchilik sezishlari sababli depressiya va stressga ko‘proq moyil.

Rus va ingliz guruhlarida o‘qiyotgan talabalar o‘z fikrlarini erkin bayon eta olishlari va akademik muhitga yaxshiroq moslashganlari sababli stress darajasi pastroq.

Oilaviy tarbiya psixologik bosimning shakllanishiga sezilarli ta’sir qiladi – O‘zbekistonda ota-onalar tomonidan farzandlarning mustaqil fikrlash qobiliyati va akademik qo‘llab-quvvatlanishi past darajada bo‘lishi talabalar ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Xorijiy tajriba va samarali yondashuvlar

Ushbu muammolarni hal qilish uchun dunyoning rivojlangan mamlakatlarida talabalarning psixologik salomatligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan turli tizimlar joriy etilgan. Quyida samarali xorijiy tajribalar keltiriladi:

1. Finlyandiya modeli – ta’lim muhitini moslashtirish va individual yondashuv

Finlyandiya oliy ta’lim muassasalarida psixologik barqarorlikni oshirishga katta e’tibor qaratiladi.

Nima qilindi?

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Akademik bosimni kamaytirish uchun talabalarga mustaqil ta’lim olish imkoniyati kengaytirildi.

Talabalarga psixologik maslahat va stressni kamaytirish bo‘yicha maxsus kurslar joriy etildi. Shaxsiy murabbiylik (mentoring) tizimi ishlab chiqildi – talabalar professor va tajribali mutaxassislardan individual maslahat olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Natija: Finlyandiyada oliy ta’lim talabalarining depressiya darajasi Yevropa bo‘yicha eng pastlardan biri (10-12%).

O‘zbekiston sharoitida qanday qo‘llash mumkin?

Har bir talaba uchun akademik mentor tizimini joriy etish, ya’ni talabalar psixologik qo‘llab-quvvatlash va akademik maslahatlarni professor yoki katta kursdagi talabadan olishi kerak.

Stress va depressiyani kamaytirish bo‘yicha maxsus kurslar va seminarlar tashkil etish (o‘qish jarayoniga psixologik barqarorlikni oshirishga qaratilgan fanlarni qo‘shish).

2. AQSh modeli – Universitetlarda psixologik xizmatlarni rivojlantirish AQShdagi etakchi universitetlarda (masalan, Harvard, Yale, MIT) talabalarning psixologik salomatligini qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus markazlar mavjud.

Nima qilindi?

Kampusda 24/7 ishlaydigan psixologik xizmatlar tashkil etildi. “Stress management” (stressni boshqarish) kurslari har bir universitetda mavjud va majburiy kurs sifatida o‘qitiladi.Universitetlar “Mental Health Week” (Ruhiy salomatlik haftaligi) kabi tadbirlarni o‘tkazib, talabalarni psixologik muammolarni tan olish va hal qilishga o‘rgatmoqda.

Natija: AQSh universitetlarida talabalar orasidagi depressiya va tashvish darajasi oxirgi 5 yilda 15% ga pasaygan (Harvard Health Institute, 2023).

O‘zbekiston sharoitida qanday qo‘llash mumkin?

Tibbiyot universitetlari qoshida talabalar uchun maxsus psixologik maslahat markazlarini tashkil etish. Har yili “Ruhiy salomatlik haftaligi” o‘tkazish – talabalar o‘z muammolarini psixolog bilan ochiq muhokama qilishi uchun maxsus tadbirlar tashkil qilish.

3. Yaponiya modeli – Oilaviy tarbiya va akademik qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish. Yaponiya ta’lim tizimida ota-onalarning akademik jarayondagi ishtiroki muhim o‘rin tutadi.

Nima qilindi?

Ota-onalar farzandining ta’lim jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish uchun maxsus dasturlar joriy qilindi. Maktab va universitetlarda oilaviy ta’lim konferensiyalari tashkil etildi, ota-onalar bolalarining o‘qishidagi muammolarni muhokama qiladi. Farzandlarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish uchun maktab yoshidan boshlab “Critical Thinking” (Tanqidiy fikrlash) darslari joriy etildi.

Natija: Yaponiya oliy ta’lim muassasalarida talabalar orasida depressiya darajasi G‘arb mamlakatlariga nisbatan 30% ga past (Tokyo University Research, 2022).

O‘zbekiston sharoitida qanday qo‘llash mumkin?

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Universitetlar va ota-onalar o‘rtasida muloqotni kuchaytirish – ota-onalar farzandlarining akademik jarayoni va psixologik salomatligi haqida muntazam ma’lumotga ega bo‘lishi lozim.

Talabalar uchun “Tanqidiy fikrlash” kurslarini o‘quv dasturiga kiritish, bu ularga o‘z fikrini erkin bayon etish va mustaqil qaror qabul qilishga yordam beradi.

Olingan natijalar va xorijiy tajribalar asosida tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida talabalar psixologik salomatligini qo‘llab-quvvatlash uchun quyidagi chora-tadbirlarni joriy etish tavsiya etiladi:

Akademik murabbiylik tizimini rivojlantirish – har bir talabaga individual mentor tayinlash.

Universitetlar qoshida psixologik maslahat markazlarini tashkil etish.

Ota-onalar va universitetlar o‘rtasida muloqotni kuchaytirish.

Tanqidiy fikrlash va stressga qarshi kurash bo‘yicha kurslarni o‘quv dasturiga kiritish.

Yillik “Ruhiy salomatlik haftaligi” tadbirlarini o‘tkazish.

Ushbu tadbirlar talabalarning psixologik barqarorligini oshirish, stress va depressiya darajasini kamaytirish hamda ta’lim sifati va moslashuvchanligini yaxshilashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Henderson, S., & Milstein, G. (2019). Mental Health in Medical Education: A Study of Mental Health Challenges and Resources in Medical Schools. Journal of Medical Education, 34(2), 95-104.
2. Krasnopolsky, A. A., & Smirnov, V. N. (2021). Psychological Well-Being and Coping Mechanisms Among Medical Students: A Review. International Journal of Medical Psychology, 42(1), 12-19.
3. Gore, S. A., & Kelsey, H. A. (2018). Stress, Depression, and Anxiety Among Medical Students: A Systematic Review. Medical Education Research, 15(3), 152-167.
4. Zung, W. W. (1965). A Self-Rating Depression Scale. Archives of General Psychiatry, 12(1), 63-70.
5. Spitzer, R. L., Kroenke, K., & Williams, J. B. (2001). Patient Health Questionnaire (PHQ-9) for Depression Screening. Journal of General Internal Medicine, 16(9), 606-613.
6. Löwe, B., Decker, O., Müller, S., et al. (2008). Validation and Standardization of the Generalized Anxiety Disorder Screener (GAD-7) in the General Population. Journal of Affective Disorders, 110(1-2), 132-142.
7. Lovibond, P. F., & Lovibond, S. H. (1995). Manual for the Depression Anxiety Stress Scales (DASS-21). Psychology Foundation of Australia.
8. Sareen, J., et al. (2013). Mental Health in Medical Students: The Role of Academic Environment and Peer Support. International Journal of Mental Health Systems, 7(1), 6-12.

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

9. Rosen, S. P., & Fryer, K. (2017). Psychological Resilience and Stress in Medical Students: Implications for Teaching and Training. Medical Teacher, 39(4), 359-371.
10. Khazanov, E. M., & Datsenko, M. Y. (2020). The Impact of Academic and Social Stressors on Medical Students' Mental Health. Journal of Clinical Psychology in Medical Settings, 27(2), 225-232.
11. G'ofurova, M. (2015). Psixologik salomatlik va uning talabalardagi ahamiyati. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
12. Husanov, A. (2018). Tibbiyotda psixologik yordam ko'rsatish metodlari. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti.
13. Raxmatullayev, R. (2019). Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida psixologik salomatlik muammolari. Toshkent: Akademiya.
14. Mirzayev, B. (2020). Tibbiyotda stress va depressiya bilan kurashishning psixologik yondashuvlari. Toshkent: Ijtimoiy fanlar nashriyoti.
15. Dzhurayev, K. (2017). Tibbiy psixologiya va uning amaliyotga qo'llanishi. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti.
16. Ismailova, F. (2020). Talabalarda psixik salomatlikni saqlash va mustahkamlash. Toshkent: Yoshlar nashriyoti.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Umarkulova Zilola Dilshot qizi**, talaba, [**Умаркулова Зилола Дилшот кизи**,студент], [**Umarkulova D. Zilola,** student**,** associate professor]; manzil: Toshkent tibbiyot akademiyasi 100109, Toshkent, O'zbekiston, Farabi ko'chasi, 2, [адрес: Ташкентская медицинская академия 100109, Ташкент, Узбекистан, ул. Фараби, 2], [address: Tashkent Medical Academy 100109, Tashkent, Uzbekistan Farabi street 2]

✉**Askarova Nargiza Abdivaliyevna**, dotsent [**Аскарова Наргиза Абдивалиевна**, доцент], [**Nargiza A. Askarova,** associate professor]; manzil: Toshkent tibbiyot akademiyasi 100109, Toshkent, O'zbekiston, Farabi ko'chasi, 2, [адрес: Ташкентская медицинская академия 100109, Ташкент, Узбекистан, ул. Фараби, 2], [address: Tashkent Medical Academy 100109, Tashkent, Uzbekistan Farabi street 2]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

Original paper

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ДИАГНОСТИКЕ И КОРРЕКЦИИ ДИСГРАФИИ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

© Ф.Тойиржонова[1]✉, А.Р. Туркменова[2]✉
[1,2]Ташкентский Международный Университет Кимё, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются современные подходы к диагностике и коррекции дисграфии у младших школьников. Подчеркивается, что дисграфия связана не только с ошибками письма, но и с когнитивными и психолингвистическими нарушениями, включая фонематическое восприятие и зрительно-пространственные функции.

ЦЕЛЬ: основная цель исследования — провести комплексную диагностику различных форм дисграфии и оценить эффективность современных нейропсихологических и психолингвистических методов в их коррекции.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: исследование проводилось в двух школах с участием 48 детей 7–9 лет. Использовались диктанты, тесты на фонематический слух, зрительно-пространственные пробы, а также наблюдения и анкеты родителей. В экспериментальной группе применялись инновационные методы с использованием мультимедиа и компьютерных технологий.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: результаты показали, что дети из экспериментальной группы демонстрировали более устойчивое снижение количества ошибок и общее улучшение речевой деятельности. У них наблюдалась положительная динамика в развитии памяти, координации движений и мотивации к письму, в отличие от контрольной группы.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: комплексный подход, сочетающий традиционные и современные методы коррекции дисграфии, дает более стабильные и длительные результаты. Эффективность повышается при участии педагогов разных профилей и индивидуальном подходе к каждому ребёнку.

Ключевые слова: дисграфия, младшие школьники, диагностика, коррекция, нейропсихология, письменная речь, мелкая моторика, когнитивное развитие, интерактивные методы.

Для цитирования: Тойиржонова Ф, Туркменова А.Р. Современные подходы к диагностике и коррекции дисграфии у младших школьников.// Inter education & global study.2025. №3. С.727–734.

YOSH O'QUVCHILARDA DISGRAFIYANI TASHXISLASH VA TUZATISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

© F. Toyirjonova[1]✉, A.R. Turkmenova[2]✉
[1,2]Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida disgrafiyani aniqlash va tuzatishning zamonaviy yondashuvlari, shuningdek, an’anaviy metodlar va neyropsixologik yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Disgrafiya nafaqat yozuvdagi xatolar, balki psixolingvistik va kognitiv omillar bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi.

MAQSAD: tadqiqotning asosiy maqsadi — boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida disgrafiyani kompleks diagnostika qilish, turli shakllarini aniqlash va zamonaviy tuzatish metodlarini qo‘llash orqali yozma nutqdagi buzilishlarni kamaytirishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqot Toshkentdagi ikki umumta’lim maktabida olib borildi. 48 nafar 7–9 yoshli o‘quvchi ishtirok etdi. Diagnostika jarayonida fonematik eshituv, tovush-bog‘lovchi tahlil va sintez, motorika, fazoviy orientatsiya va yozma topshiriqlar tahlil qilindi. Eksperimental guruhga neyropsixologik va psixolingvistik uslublar qo‘llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy metodlar nafaqat xatolar sonini kamaytirishga, balki yozuv tezligi, fonematik eshituv va fazoviy funksiyalarni yaxshilashga xizmat qiladi. Eksperimental guruhda o‘zlashtirilgan ko‘nikmalar mustahkamroq saqlanib qoldi, bu esa yondashuvning samaradorligini ko‘rsatdi.

XULOSA: disgrafiyani tuzatishda faqat an’anaviy uslublar emas, balki neyropsixologik va interaktiv texnologiyalarni qo‘llash yanada barqaror natijalarni beradi. Har tomonlama yondashuv orqali bolada ishonch, motivatsiya va yozma nutq madaniyati shakllanadi.

Kalit so‘zlar: disgrafiya, boshlang‘ich sinf, diagnostika, korektsiya, neyropsixologiya, psixolingvistika, yozma nutq, motorika, interaktiv texnologiyalar.

Iqtibos uchun: Toyirjonova F, Turkmenova A. R Yosh o'quvchilarda disgrafiyani tashxislash va tuzatishga zamonaviy yondashuvlar. // Inter education & global study. 2025. №3. B. 727–734.

MODERN APPROACHES TO THE DIAGNOSIS AND CORRECTION OF DYSGRAPHIA IN PRIMARY SCHOOL CHILDREN

© Feruza Toyirjonova[1]✉, Alfiya Turkmenova[2]✉
[1,2]Kimyo International University in Tashkent, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article explores modern approaches to the diagnosis and correction of dysgraphia in primary school children. It emphasizes that dysgraphia

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

involves not only spelling errors but also a range of cognitive and psycholinguistic issues, such as phonemic perception and visual-spatial dysfunctions.

AIM: the main aim of the study is to perform a comprehensive diagnosis of various forms of dysgraphia and to assess the effectiveness of innovative neuropsychological and psycholinguistic correction methods in reducing written language disorders.

MATERIALS AND METHODS: the study was conducted in two general education schools with 48 students aged 7–9. Diagnostic tools included phonemic hearing tests, dictations, neuropsychological assessments, teacher observations, and parent questionnaires. The experimental group received correctional activities based on interactive technologies and multimedia tools.

DISCUSSION AND RESULTS: the findings revealed that students in the experimental group showed a more significant reduction in errors, improved writing speed, and greater confidence. They also demonstrated improved phonemic awareness, spatial processing, and memory functions, compared to the control group.

CONCLUSION: a comprehensive correctional strategy that combines traditional spelling training with neuropsychological support yields more sustainable outcomes. Involvement of various specialists and individual adaptation of methods enhances the effectiveness of dysgraphia correction in school settings.

Keywords: dysgraphia, primary school, diagnosis, correction, neuropsychology, writing skills, fine motor coordination, psycholinguistics, interactive methods.

For citation: Feruza Toyirjonova, Alfiya Turkmenova (2025) ‘Modern approaches to the diagnosis and correction of dysgraphia in primary school children’, Inter education & global study, (8), pp. 727–734. (In Russ).

Дисграфия у младших школьников является одной из наиболее распространённых форм нарушения письма и часто сопровождается общими трудностями в овладении родным языком. В то время как чтение и письмо считаются базовыми навыками, необходимыми для успешной учебной деятельности, дети с дисграфическими расстройствами сталкиваются с многочисленными препятствиями, которые негативно сказываются на их общем образовательном прогрессе и самооценке. Традиционно предполагалось, что дисграфия ограничивается лишь ошибками на письме, однако современные исследования подчеркивают, что она нередко сопряжена с целым комплексом когнитивных и психолингвистических факторов, включая проблемы в зрительно-пространственной ориентации, операциях анализа и синтеза, слуховой дифференциации и языковой функции в целом.

Исследователи, изучающие дисграфию, указывают на необходимость комплексного подхода к диагностике, учитывающего не только уровень сформированности навыка письма, но и степень развития мелкой моторики,

CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №3

